

NAMANGAN DAVLAT UNVERSITETI



**“SALOHIYAT
MEZONI”**



NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
IJTIMOIIY-IQTISODIY FAKUL'TETI
MILLIY G'OYA, MA'NAVIYAT VA HUQUQ
ASOSLARI KAFEDRASI

ILMIY MAQOLALAR

TO'PLAMI

«SALOHIYAT – MEZON»

6-SON

«NAMANGAN» nashriyoti
2015

UO'K: 821.512.133-9

KBK : 84 (5 O'ZB7)

N - 51

Mazkur maqolalar to'plami Namangan Davlat universiteti Milliy g'oya, ma'naviyat va huquq asoslari kafedrasining 2014-yil 26-dekabrda 4-sonli yig'ilishida ko'rib chiqilgan va ma'qullangan.

Mas'ul muharrir: Falsafa fanlari nomzodi, dotsent S.Norqo'ziyev

Tahrir hay'ati:

t.f.n., dotsent B. Talapov

f.f.n., dotsent O. Mamatov

t.f.n., katta o'qituvchi T. Qozoqov

t.f.n., katta o'qituvchi O. Topildiyev

o'qituvchi B. Tillayev

o'qituvchi R. Zamilova

o'qituvchi A. Abdullayev

Ilmiy to'plam Namangan Davlat universiteti Ilmiy-texnikaviy kengashining 2015-yil 26-yanvar kungi 1-sonli yig'ilishida ko'rib chiqilgan va nashrga tavsiya qilingan.

ISBN – 978-943-977-72-3

NG

1352 - 4703.5 - 1741700

1353 - (18.5) - (05)

2015



© «NAMANGAN» NASHRIYOTI
© NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

SAMARALI XALQARO HAMKORLIK

Bahriddin Talapov,

*NamDU Milliy g' oya, ma' naviyat va huquq
asoslari kafedrasi mudiri, t.f.n.*

Qadimiy va navqiron Samarqand shahrida 2014-yilning 14-15-noyabr kunlari TEMPUS dasturining TuCAHEA - «Markaziy Osiyo Oliy ta'lim kengligini yaratish yo'lida struktural adaptatsiya va ta'lim sifatini oshirish» mavzusidagi loyihasi doirasida amalga oshirilgan va rejalashtirilgan ishlar tahliliga bag'ishlangan to'rtinchi plenar konferensiyasi va ishchi yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Mazkur loyiha haqida qisqacha to'xtalish joiz, deb o'ylaymiz. Loyiha 2012-2015-yillarga mo'ljallangan bo'lib, uning byudjeti 1249000 yevroni tashkil etadi. O'zbekistondagi hamkor tashkilotlar: O'zR OO'MTV, NamDU (milliy koordinator), ToshESTI, ToshDPU, SamDChI, TerDU, AnDU, QDU, NamMTI. Boshqaruvchi koordinator: Gollandiyaning Groningen universiteti.

Loyihaning maqsadi hamkor oliy ta'lim muassasalarida kompetensiyaga asoslangan ta'limning xalqaro tajribalarini o'rganish orqali amaldagi ta'lim kompetensiyalarini yanada takomillashtirish va moslashtirishdan iborat. Pirovardida, oliy ta'limda tayyorlangan kadrlarning bilim va kompetensiyalari jamiyat ehtiyojiga nisbatan mutanosibligiga hissa qo'shishdan iborat.

Anjumanni Samarqand chet tillar instituti rektori Rahimov G'anisher Xudayqulovich tabrik so'zi bilan ochdi. Anjuman ishi davomida faol ishtirok etgan TuCAHEA loyihasining yevropalik koordinatori Katerina Ayzeks mazkur loyiha doirasida Toshkent, Olmaota, Dushanbe, Bishkek va Ashxobod shaharlarida bo'lib o'tgan uchrashuvlar muvaffaqiyatli va samarali o'tganligini ta'kidladi. Uchrashuvga Groningen universiteti professori, tarixchi, loyihaning bosh koordinatori Robert Vagenaarning ishtiroki yanada chuqur mazmun bag'ishladi. Anjuman ishida Markaziy Osiyodagi beshta davlat Oliy ta'lim vazirliklari vakillari, professor-o'qituvchilari, respublikamizdagi har bir TuCAHEAga hamkor OTMlaridagi koordinatorlar va bir nafardan kompetensiyalarni ishlab chiqish ishchi guruhi a'zolari qatnashishdi. Shuningdek, ushbu uchrashuvda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining kadrlar tayyorlash va ularni ishga taqsimlash bo'limining boshlig'i Shermat Avazov ishtirok etdi. Plenar yig'ilishida loyiha rahbarlarining va har bir davlat tomonidan ishtirok etayotgan milliy koordinatorlarning mamlakat bo'yicha bo'lib o'tgan uchrashuvlar haqidagi qisqa hisoboti tinglandi. O'zbekiston tomonidan o'z ma'ruzasi bilan qatnashgan Samarqand anjumanining asosiy tashkilotchisi Po'lotxon Lutfullaev xorijiy tajribalarni Tuning dasturi doirasida o'rganishda chet tili o'qitish va o'rganishni

yanada takomillashtirish borasida olib borilayotgan ishlar, ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar ijrosi bo'yicha TuCAHEA loyihasidan keng foydalanish imkoniyatlari mavjudligi haqida to'xtaldi. U TuCAHEA loyihasiga O'zbekistonlik OTM vakillari, vazirliklari va boshqa ta'limga oid tashkilotlar tomonidan qiziqish tobora oshib borayotganligini misollar bilan yoritib berdi. Ushbu uchrashuvda loyiha boshqaruviga doir macalalar va fanlar kesimidagi kompetentsiyalarni ishlab chiqish ishchi guruhi faoliyatiga doir muloqotlar o'tkazildi. Ular ikki kun davomida 8 ta sho'balarda o'z faoliyatlarini davom ettirdilar. Bular: 1. Biznes. 2. Iqtisod. 3. Ta'lim, 4. Muhandislik. 5. Atrof-muhitni himoya qilish va oziq-ovqat xavfsizligi. 6. Tarix. 7. Til va adabiyot. 8. Huquq fanlari kesimidagi kompetentsiyalarni ishlab chiqish ishchi guruhi faoliyatiga doir muloqotlar o'tkazdilar.

Beshta respublika uchun ishlab chiqilgan umumiy kompetentsiyalar muhokama qililib, ularni umumlashtirish bo'yicha munozaralar olib borildi. Soha bo'yicha kompetentsiyalarni ishlab chiqish mexanizmi quyidagilardan iborat: har bir sohaga birlashtirilgan beshta respublika vakillari o'z davlatlariga mos kompetentsiyalarni ishlab chiqdilar. So'ngra, beshta variantdagi bir xillikka ega bo'lgan kompetentsiyalar umumlashtirildi va mukammallashtirildi. Masalan: tarix yo'nalishida Shopo'lat .Shaydullaev, Odiljon Hamidov (TerDU), Bahridin Talapov (NamDU), Bonu Norbekova, Lazzat Shotbakova (QZ), Elvira Sagintay qizi (KG), Sulton Saidov (TJ), Gurbanjamol Nuriyeva (TM), Jenni de Jong (NL) ishtirok etdilar.

Anjuman taassurotlaridan shunday xulosaga keldimki, TuCAHEA loyihasining ta'lim jarayonini takomillashtirishda foydali tomonlari bisyor. Loyiha doirasidagi bunday uchrashuv va muloqotlar Yevropa va Markaziy Osiyo davlatlarda ta'lim sohasidagi, talabalarga bilim berish borasidagi tajribalarni o'rganish, ularni qiyoslash, bir-biriga moslashtirish, ularga xos umumiy kompetentsiyalarni ishlab chiqish imkonini beradi va pirovardida ta'lim hamda tarbiya sifatini oshiradi

Ta'kidlash o'rinliki, so'nggi yillarda Milliy g'oya, ma'naviyat va huquq asoslari kafedrasida professor-o'qituvchilari xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy anjumanlarda o'zlarining tezis va maqolalari bilan ishtirok etibgina qolmay, balki nufuzli xalqaro jurnallarda ham ilmiy maqolalar chop ettirishmoqda. Jumladan, 2014-yilda Germaniyaning Shtutgart universiteti, Rosiyaning Moskva davlat universiteti, Sankt-Peterburg Davlat universiteti, Qozon Davlat universiteti va boshqa qator universitetlarning ilmiy jurnallarida t.f.n. B. Talapov, t.f.n. O. Topildiyev, f.f.n, dotsent O. Mamatov; katta o'qituvchilar R. Zamilova, O. Chuboyeva, A. Abdullayev; o'qituvchilar: B. Tillayev, X. Mirzaahmedov, B. Ibrohimov, B. Sarimsaqovlarning ilmiy maqolalari chop qilindi.



Tuning TUCAHEA loyihasining tarix fani bo'yicha 4-ishchi yig'ilishi jarayonidan lavha.



Suratda: Groningen (Gollandiya) universiteti professori, tarixchi, loyihaning bosh koordinatori Robert Vagenaar va t.f.n. B.Talapov

MILLIY MAFKURADA TARIXIY XOTIRANING O'RNINI

Obidxon Mamatov,

*Milliy g'oya, ma'naviyat va huquq
asoslari kafedrasi dotsenti, f.f.n.*

Milliy g'oyaning, ma'naviyatning, aql-idrokning qudratiga tayangan uzoq o'tmishimiz Sharq va G'arbning buyuk mutaffakirlari ifodalagan g'oyalari bilan uyg'unlashuvi muhim ahamiyatga ega. Vatan, mustaqillik g'oyalari bir-biri bilan uzviy bog'liq. Milliy mafkurani shakllantirishda Turkiston xalqining tarixiy qadriyatlaridan, urf-odatlaridan, an'analardan unumli foydalanish kerak. Chunki, birinchidan, o'z milliy qadriyatlarini bilmagan xalq ertasini ham bilmaydi. Ikkinchidan, Markaziy Osiyo fani, madaniyati butun insoniyatning taraqqiyot yo'lini yoritgan mash'aladir. Masalan, O'rta asr Sharq falsafasi g'oyalari butun jahon, ayniqsa, G'arbda ilm-fan va madaniyatning yuksalishiga katta ta'sir ko'rsatgan. Shu nuqtayi nazardan Sharq uyg'onish davri - dunyo tamaddunining ilmiy-amaliy, ma'rifiy-ma'naviy taraqqiyotida butun insoniyat uchun vorislik timsolidir, desak yanglishmaymiz.

Sobiq Ittifoq davrida Sharq xalqlarining jahon taraqqiyotiga qo'shgan hissasi e'tirof etilmay, aksincha, kamsitilar edi. «Mutafakkirlarimiz yaratgan asarlarga, ta'limotlarga noxolisona baho berilib, ulardagi ijobiy, umuminsoniy mazmun to'la payqalmadi, ma'naviy-milliy madaniyatimizning butun bir qatlamlari, yo'nalishlari diniylikda, bid'atchilikda, xurofotda, idealizmga ayblanib, ularni jiddiy tarzda o'rganishga molik deb hisoblanmadi»¹. Lekin, undan jahon xalqlari hanz foydalanib kelmoqdalar. Ulug' davlatchilik siyosati ostida milliy, ma'naviy omillarga umuman e'tibor berilmadi.

Shunday bo'lsa-da, milliy qadriyatlarning umuminsoniylik darajasiga ko'tarila olgan qismi bugungi kunda siyosiy mustaqillik tufayli milliy mazmun bilan yanada takomillashtirilmoqda. Hayotimizda umuminsoniy qadriyatlarga intilish bilan birga Sharq falsafasi shunday o'rin topayaptiki, oramizda yana qaytadan musulmonchilik, xalqimiz soddagina qilib o'zbekchilik, deb aytadigan mehru oqibat, o'zaro yordam va hurmat, o'zgalarning dardiga hamdard bo'lish kabi olijanob fazilatlar qaror topmoqda.

Gap milliy mafkura xususida borar ekan, bizning o'tmish ajdodlarimiz mafkurasiga qayta-qayta murojaat qilishimiz bejiz emas. Chunki mafkura shakllanishida avval ta'kidlab o'tganimizdek, ijtimoiy ruhiyat muhim va hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ijtimoiy ruhiyatdan kelib chiqib shakllantirilgan mafkura esa, inson qalbini tezroq va chuqurroq egallaydi. O'zbekning ijtimoiy ruhiyati esa bir yoki ikki asrda shakllanib qolgan emas. U o'zining jahon sivilizatsiyasidan ortiq bo'lsa ortiqi, kam bo'lmagan tarixiga ega. Ijtimoiy ruhiyat o'zida xalqning tub maqsadlarini, nozik his-tuyg'ularini

¹ Jalolov A. Ma'naviy bisotimiz qalbi // Muloqot 5/6. 1995.-B.17.

mujassamlashtiradi. Shuning uchun ham I.Karimov aytganidek: «Kimgadir voris bo'lish kerak bo'lsa, biz Beruniylarga, Buxoriylarga, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Mirzo Boburlarga voris bo'lamiz»². Buyuk bobokalonlarimiz ta'limotlarida xalqning nozik his-tuyg'ulari, e'tiqodi, ruhiyati mujassamdir.

Millatning ruhiy-ma'naviy xususiyatlari tarixiy taraqqiyot jarayonida shakllanadi. O'zbekistonning mustahkam davlatchilik siyosati yuksak vatanparvarlik va ma'naviyatga asoslangan uzoq tarixga borib taqaladi. Shuning uchun ham milliy mafkuraning shakllanishi, uning yoshlar ongidan chuqur o'rin egallashida tarixiy xotira muhim ahamiyatga ega. Millatning uyushuvi uning jahon hamjamiyatidan munosib o'rin egallashi ham tarixiy xotira bilan uzviy bog'liq. Shuning uchun ham turkiyalik olim, professor Usmon Turon tarixiy xotirani millat rivojidadagi o'rniga belgilovchi o'rinni ajratadi. Jumladan, u shunday yozadi: «Bashariyat hofizasida mavjud bo'lgan tarix shuurda yashar ekan, millatlar shaxsiyatini o'stirishga, madaniyat va mafkuralarni quvvatlantirishga xizmat qiladi. O'z xalqi tarixini bilmagan millatlar xotira va idroklarini yo'qotib qo'ygan dovdirlarga o'xshaydi. Bu alfozda yashayotgan millatlarning yuksalishiga yoxud o'zligini muhofaza etishlariga, hatto ularning tarqalib ketmasligiga kafolat yo'q».³

Milliy mafkurani shakllantirishda hamda yoshlarda vatanparvarlik hissini uyg'otishda O'zbekiston tarixini haqqoniy yoritish, uni yoshlarning ongiga singdirish muhim. Har qanday milliy g'urur, vatanparvarlik tarixni o'rganishdan boshlanadi. Bu haqda milliylikning nazariy asosichisi va tolmas amaliyotchisi I.Karimov doimo kuyinib gapiradilar: «... jamiyatning har bir a'zosi o'z o'tmishini yaxshi bilsa, bunday odamlarni yo'ldan urish, har xil aqidalar ta'siriga olish mumkin emas. Tarix saboqlari insonni hushyorlikka o'rgatadi, irodasini mustahkamlaydi».⁴

Inson qayerda bo'lmasin o'z tarixi bilan faxrlanishi, buyuk xalqning farzandi ekanligi, uning jahon madaniyati, insoniyat tarixida tutgan o'rmi bilan g'ururlanishi, undagi o'z Vatanga bo'lgan mehr-muhabbatini yanada oshiradi, ruhiyatini ko'taradi. «... boshini baland ko'tarib yurishi uchun insonga, albatta tarixiy xotira kerak».⁵

Ma'lumki, sobiq Ittifoq davrida tarixni o'rganish hukmron mafkura, ya'ni kommunistik mafkura g'oyalari bo'ysundirilgan edi. O'zbek xalqining buyuk o'g'lonlarini butun dunyo e'tirof etgan holda, shu tarixning o'z o'g'lonlari otabobolarimiz haqida deyarli hech narsa bilmas edik. Ular yo idealizm, yo bosqinchilikda ayblanardi. Nari borsa ularning tarixdagi xizmatlari chetlab o'tilardi.

² Karimov I. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q.-Toshkent: O'zbekiston, 1998.-B.16

³ Usmon Turon. Turkiy xalqlar mafkurasi -Toshkent: 1995.-B.5.

⁴ Karimov. I. Tarixiy xotirasiz- kelajak yo'q.-Toshkent: 1998.-B.9.

⁵ O'sha joyda 8-bet

Chunki millatlar tarixini haqqoniy yaratish, ularga xolisona baho berish «millatlarning qo'shilib ketishi», «millatlarning yo'qolib borishi», «yagona sovet xalqi» to'g'risidagi bir qator mafkuraviy tamoyillarga zid kelardi.

Ana shunday mash'um bir davrda bu buyuk o'g'lonlarni butun jahon tan olib bo'lgan edi. Ularning buyukligini hattoki, mafkuraviy dushmanlarimiz ham e'tirof etishgandi. Masalan: Yevropatsentrizm tarafdori Gegel ham o'rta asr falsafasining (xususan Farobiy, Ibn Sino, Beruniy- M.O.) G'arb uyg'onish davriga ta'sirini e'tirof etishga majbur bo'lgan edi.

Sovet davrida ham har qanday mafkuraviy tayziqqa qaramay, o'z hayotini xavf ostiga qo'yib bo'lsa ham, o'zbekning jasur, millatsevar o'g'lonlari I. Mo'minov, M. Xayrullayevlarga Sharq uyg'onish davri, xususan, A.Temur, Farobiy, Ibn Sino, Beruniy va boshqalarning fan tarixidagi, madaniyat va jahon xalqlari tarixidagi o'rinarini yoritishda katta jasorat ko'rsatdilar. Albatta ularning asarlarida mafkuraviy ta'sirining izlarini ko'rsak-da, millat va xalq dardi, vatanimiz tarixini xalqqa yetkazish dardi kuchli ekanini ularning asarlaridan sezilib turadi. Ularning asarlari buyuk millatimizga nisbatan mehr uyg'otadi.

Mafkurani shakllantirishda, vatanparvarlik harakatlari, ma'rifatparvarlik harakatlari, milliy ozodlik harakatlari bilan qo'shilib ketganligini e'tiborga olish kerak. Qayerda milliy ozodlik harakati bor ekan, o'sha yerda albatta ma'rifatparvarlik masalasi bo'ladi. Chunki, biror xalqni tutqunlikda ushlab turuvchi mafkura bu xalq ongining rivojlanishi uchun yo'l bermaydi. Jamiyatning ilg'or kishilari hukmron mafkuraga qarshi ma'rifatni qo'yadilar. Qulligini anglagan qul - qul emas. Endi u - kurashchi. Shuning uchun ham, Prezidentimiz I. Karimov ma'rifat masalasiga katta e'tibor bermoqdalar: «Jamiyat taraqqiyotining asosi, uni muqarrar halokatdan qutqarib qoladigan yagona kuch - ma'rifatdir»⁶.

Asrimiz boshidagi milliy ozodlik harakatlari ham aynan ma'rifatparvarlikdan boshlangan edi. Ma'rifatparvarlik mafkurasining faol oqimlaridan biri bu - jadidchilik edi. «Jadidizmni o'rganishda unga aqidaparastlik bilan yondashish, materiallarini ilmiy tahlil qilish va nazariy umumlashtirish o'rniga oddiy izohlash, dalillarni partiya va davlat hujjatlarida berilgan, oldindan ma'lum bo'lgan bahoga moslashtirish kabi xatolarga yo'l qo'yildi. Bu hol jadidlar harakatini millatchilik harakatidir, deb bir tomonlama buzib ko'rsatishga olib keldi.»⁷

Aslini olganda, bu milliy vatanparvarlik harakati edi. Masalan, M.Behbudiy o'z maqolalarida xalq ommasiga murojaat qilib, muxtoriyatni himoya qilishga chaqirdi. «Turkiston xalqi ittifoq etsa qon to'kilmas, yer va amlok ham taqsim bo'lmay qolur. Din ham rivoj topur... Butun Turkiston

⁶ Karimov I. Tarixiy xotirasiz ketajak yo'q...-Toshkent: Sharq, 1998.-B.7.

⁷ Vohidov X. Turkistonda ma'rifatparvarlik harakati. // O'zbekistonda ijtimoiy falsafiy fikrlar tarixidan.-Toshkent: 1993.-B.221

ittifoq etsa 15 millionlik bir quvvat imloga qolur-ki, bunga yer titraydur”⁸, – deb yozadi Behbudiy.

Jadidchilik O‘zbekistonda ma‘rifatning yoyilishiga ilm-fanning ravnaqiga katta ta‘sir o‘tkazishi bilan bir qatorda, ijtimoiy taraqqiyotga ham katta ta‘sir o‘tkazdi. Shuningdek, «... milliy ozodlik mafkurasining vujudga kelishida muhim ahamiyat kasb etdi»⁹.

YOSHLARNI MAFKURAVIY TARBIYALASH

Topildiyev Odiljon,

Namangan Davlat universiteti

Ijtimoiy-madaniy faoliyat kafedrası

mudiri, tarix fanlari nomzodi.

Hozirgi davr - dunyoda g‘oyaviy qarama-qarshiliklar murakkab tus olgan, mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ham kuchliroq bo‘lib borayotgan davrdir. Prezident I. A. Karimov ta‘biri bilan aytganda, «Endi sodir bo‘ladigan urushlar jang maydonlarida emas, balki mafkura poligonlarida yuz beradi»¹⁰. Shu jihatdan qaralsa, bugungi kunda yoshlar ongini egallashga qaratilgan mafkuraviy tahdidlar nihoyatda avj olmoqda. Kelajak avlod haqida qayg‘urish, sog‘lom, barkamol avlodni tarbiyalashga intilish bizning milliy xususiyatlarimizdan biri ekanligi barchaga ma‘lum. Bu muqaddas zaminda yashayotgan har qaysi inson o‘z farzandining baxt-saodati va kamolini ko‘rish uchun butun hayoti davomida mehnat qiladi. Bilimga chanqoq, iste‘dodli yoshlarni Vatanga fidoyi insonlar qilib tarbiyalash barchaning muqaddas vazifasidir. Shuning uchun ham, mustaqillikning ilk kunlaridanoq yoshlar ta‘lim-tarbiyasi, ularning ma‘naviyatini yuksaltirish sohasidagi islohotlarning tizimli, bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan yo‘nalish belgilab olindi. Bu o‘rinda Prezident I. A. Karimovning quyidagi fikrlarini ta‘kidlash o‘rinli: «Biz yoshlarimiz tarbiyasini birovlariga berib qo‘ymaymiz»¹¹. Darhaqiqat, yoshlar tarbiyasi faqat maktabda yoki oilada emas, balki butun jamoatchilik oldidagi muhim vazifadir.

O‘zbekiston Respublikasining 1991-yil 20-noyabrdagi «O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to‘g‘risida»gi Qonunida¹² yoshlarga oid siyosatning mazmun-mohiyati, asosiy yo‘nalishlari, ularga beriladigan ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy kafolatlar belgilab qo‘yilgan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997-yili 29-avgustdagi 9-

⁸ O‘sha joyda. –B.232.

⁹ Alimova D. Haqiqatning tutash manzili // Tafakkur, 2000. -№ 2. -B.59.

¹⁰ Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. – Toshkent. O‘zbekiston, 2000. – B. 11.

¹¹ Karimov I. A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. 8-jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 2000. – B. 28.

¹² O‘zbekistonning yangi qonunlari – №5 – Toshkent: O‘zbekiston, 1992

sessiyasida qabul qilingan «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni va «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» ta'lim sohasini isloh qilishda muhim rol o'ynadi. Bugun bizga bitiruvchilar emas, balki maktab ta'limi va tarbiyasini ko'rgan shaxslar kerak. Darhaqiqat, «mamlakatda har yili 600 mingdan ziyod butunlay yangicha shart-sharoit va muhitda kamol topgan yosh avlod vakillari katta hayotga yo'llanma olmoqda. Yoshlarga katta ishonch bildirib, ularni rag'batlantirish, ruhlantirish ham katta samara bermoqda»¹³. Shuningdek, aholining asosiy qismini tashkil etadigan yoshlarning hali to'la yechilmagan muammolariga e'tiborni jalb etish, ularni hayotda haqiqatan ham hal qiluvchi kuchga aylantirish masalasi jamoatchilikning diqqat markazida turishi shart.

Yoshlar ta'lim-tarbiyasida OAVning ham o'rni kattadir. Ommaviy axborot vositalari mafkuraviy qurol sifatida qaraladigan mamlakatlarda so'z erkinligi ustuvor davlatlarda ham, jamiyatning ma'naviyati, mafkurasini o'zida aks ettiradigan, shakllantiradigan tizim hisoblanadi. Bugun yoshlar ko'proq vaqtini yengil-yelpi mazmundagi xorij kinolari, ko'rsatuvlarini tomosha qilishga, internetga sarflashi va ularning ongi o'sha kino, ko'rsatuvlardagi g'oyalar bilan to'lib, internetdagi turli xil yolg'on axborotlarga ishonishi ham katta muammodir. Endilikda xilma-xil usullarda olib borilayotgan mafkuraviy targ'ibot va tashviqotning asosiy maqsadi yoshlar ongi uchun kurash maydoniga qaratilmoqda. Shuningdek, yoshlar ongiga mafkuraviy tahdidlar, diniy ekstremizm va fundamentalizm, buyuk davlatchilik shovinizmi va agressiv millatchilik, narkobiznes, xalqaro terrorizm, axloqsizlikni targ'ib qiluvchi ommaviy axborot vositalari katta xavf solmoqda. Shuning uchun ham yoshlarning mafkuraviy immunitetini shakllantirish, milliy g'oya ruhida tarbiyalashni yanada rivojlantirish, sog'lom mafkura tamoyillarini ular qalbi va ongiga muttasil singdirishni dolzarb vazifaga aylantiradi.

O'zbekistonda mafkuraviy tarbiyaning asosiy vazifasi - ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish yo'lidagi asriy orzu istaklarni, maqsadlarni, milliy mafkuraning mohiyatini keng jamoatchilikka tushuntirish, ayniqsa, yoshlar ongiga singdirishdan iboratdir. Bu o'rinda milliy g'oya birinchidan, yoshlarni o'zining ob'ekti sifatida qarasa, ikkinchidan, yoshlar milliy g'oyaning ilg'or rivojlantiruvchilari va kelajak avlodga yetkazuvchilari hisoblanadilar, uchinchidan, yoshlar qanchalik milliy g'oya bilan qurollangan va uni anglab olgan bo'lsa, jamiyat shunchalik taraqqiyotga erishadi. Milliy g'oya qanchalik mazmunli, har bir kishining uzoqqa mo'ljallangan maqsad va manfaatlari, millatning istiqbolini belgilashga xizmat qiladigan bo'lsa, uni yoshlar shunchalik tez qabul qiladi. Buning uchun yoshlarni mafkuraviy tarbiyalash ishlarini yanada kengaytirishga alohida e'tibor berish kerak.

¹³ Karimov I. A. Inson manfaati, huquq va erkinliklarini ta'minlash, hayotimizning yanada erkin va obod bo'lishiga erishish – bizning bosh maqsadimizdir // Xalq so'zi, 2012 yil 8 dekabr

Mafkuraviy tarbiya orqali yoshlarga qanday g'oya va fikrlar singdirilsa, shunga mos ravishda g'oyaviy jihatdan yetuk, vatanparvar, zamonaviy bilimlarni egallagan yoshlarga ega bo'linadi. Yoshlar jamiyatning shunday ijtimoiy guruhiga mansubki, ular o'tkir hissiy bilish qobiliyatiga ega bo'lib, so'z bilan amaliyotning nomutanosibligi holatlarini kuchliroq sezadilar. Kattalar uchun odatiy bo'lgan ayrim adolatsizliklar yoshlarning hali to'liq shakllanmagan ongiga, dunyoqarashiga kuchli ziyon yetkazishi mumkin. Shuning uchun hozirgi kunda yoshlar orasida milliy g'oya, milliy g'urur va ornomus bilan bog'liq ma'naviy-ruhiy holatlar muhim ahamiyatga ega. Yoshlarning oldida haqiqatni aytishdan cho'chimaslik, soxtakorlikdan qochish, mavjud muammolarni ochiq-oydin bayon etish lozim. Ayni paytda, davlatimiz rahbariyati tomonidan amalga oshirilayotgan ijobiy ishlar, mavjud muammolarni bartaraf etish uchun olib borilayotgan sa'y-harakatlar tahsinga loyiq.

Bu o'rinda yoshlar orasida mafkuraviy tarbiya ishlari samaradorligini oshirish uchun quyidagi takliflarni berish mumkin:

1. Nodavlat, mustaqil tashkilotlar faoliyatini takomillashtirish, ular imkoniyatlaridan to'la foydalanish;

2. Madaniy, ma'rifiy-mafkuraviy ishlarni yanada jonlantirish, yangi bosqichga ko'tarish, bu sohadagi barcha ishlarni muvofiqlashtirish;

3. Maktab, litsey, kollej va oliy o'quv yurtlarida bevosita ma'naviyat masalalari bilan shug'ullanadigan mutaxassislar faoliyatini yanada jonlantirish;

4. Maktab, litsey, kollej va oliy o'quv yurtlarida yoshlarning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, turli ilmiy to'garaklar faoliyatini rivojlantirish.

Xulosa qilinadigan bo'linsa, xilma-xil usullarda olib borilayotgan mafkuraviy tarbiya va targ'ibot-tashviqot ishlari jismonan sog'lom, ma'naviy barkamol yoshlarni tarbiyalab, voyaga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

KOMIL INSON TARBIYASIDA XALQ OG'ZAKI IJODINING O'RNINI

*Hamidova Muhayyoxon,
Nam DU dotsenti, filologiya
fanlari nomzodi.*

*Ikramov Azizbek,
BT va STI yo'nalishi,
401-guruh talabasi.*

Yuksak umuminsoniy g'oyalar bilan sug'orilgan ma'naviy qadriyatlarimizni badiiy tafakkur tarixisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Binobarin, olamni bilish, idrok etishning ilk tasavvur mahsuli bo'lgan xalq og'zaki ijodi o'tmish

avlodlar dunyoqarashi va ma'naviy-estetik olamining ko'zgusi bo'lib, komil insonni tarbiyalashda bebaho qadriyatlardan biri hisoblanadi. Bu qadriyatlar ruhida tarbiya topgan ajdodlarimiz, xususan, jahonga tanilgan ilm-fan va madaniyat arboblari tomonidan yaratilgan ma'naviy meros bugungi kunda ham xalqimizning millat sifatida tarkib topishi, uning dunyoga tanilishida muhim rol o'ynamoqda.

Xalqimizning bizga qadar yetib kelgan ma'naviy merosi turli badiiy shakl va g'oyaviy mazmuni ifodalovchi janrlar tizimidan iborat. Ana shu xalq ijodi namunalari har biri ijtimoiy-maishiy va tarixiy hayot taqozo etgan qonunlarga bog'liq, ular doimo bir-birlari bilan o'zaro munosabatda rivojlanib keldi. Shuning uchun ma'naviyatning musaffo va eng ibratli vositasi sifatida tan olingan og'zaki ijodning yozma adabiyotga ta'sirini aniq bir ijodkor, ya'ni yozuvchi O'tkir Hoshimov asarlari misolida yoritishni o'rinli deb bildik.

O'tkir Hoshimov bugungi kunga qadar qirqdan ortiq qissa, hikoya va romanlarni yaratdi. Adib o'z asarlarida asosan, xalq og'zaki ijodidan ham unumli va o'rinli foydalangan. U o'z asarlarida folklordan foydalanish orqali xalq hayotini, orzu-istaklarini, tuyg'u-ehtiroslarini, shodlik-alamlarini, mehri va qahrini, boy va go'zal ma'naviy olamini ochib bera olgan. Folklordagi milliy va xalqchil bo'yoqlar, maishiy detallar bilan o'z asarlarini boyitgan, ya'ni ijodkor o'zining har bir asarida folklorning u yoki bu namunasi - maqol, qo'shiq, iboralar, afsona va rivoyatlar, ertaklar, marsiyalar qo'llaganligini kuzatish mumkin. Ushbu janrlar folklorning katta ahamiyatga ega bo'lgan janrlari hisoblanib, adib o'z hikoyalarida bu kabi folklor janrlaridan unumli foydalana olgan.

O'tkir Hoshimov bir qator hikoyalarida maqol va iboralarni mahorat bilan qo'llagan. Bu orqali u xalqning asriy tajribalari, pand-nasihatlarini o'zida ifodalagan qimmatli asarlarini yaratdi. Adib o'z hikoyalarida vatanparvarlik, mardlik, qahramonlik, mehnatsevarlik, do'stlik, vafodorlik, ilm-hunar o'rganish kabi olijanob fazilatlarni ulug'lagan. Shunday fazilatga ega bo'lgan qahramonlarning dunyoga kelishida bor mahoratini ishga solgan. Bundan tashqari hikoyalarda keltirilgan maqol va iboralarda qo'rqqoqlik, nodonlik, yomonlik, egrilik, umidsizlik, yolg'onchilik yalqovlik, ochko'zlik, tamagirlik kabi illatlarni qoralagan.

Odamning oila baxti, sevimli bo'lish baxti uning ijtimoiy hayotdagi baxti bilan aloqadorligi, biri ikkinchisini belgilashi «Dehqonning bir kuni» hamda «Dehqonning bir tuni» hikoyalarida yaqqol seziladi. Hikoyaga dala mehnatining o'ziga xos mashaqqati va undan topiladigan zavq, mamnuniyat asar ruhiga singdirib yuborilgan. Asar qahramoni sifatida ayol obrazi tanlanishi ham tasodifiy emas. Chunki asarda ayolning qishloq xo'jaligi taraqqiyotiga qo'shayotgan katta hissasini tan olish, qayd etish, ulug'lash va bu mehnatning murakkab, og'ir tomonlarini ko'rsatish orqali ayol jasoratini ta'kidlash yotadi. Yozuvchi ushbu hikoyada dehqonning atigi bir kunini avji mehnat qizigan kuz

kunini, hosilni yig'ib-terish paytini - erta tongdan to tungacha tasvirlar ekan, uning hayot mazmuni, beg'ubor baxtini ko'tsatishga muvaffaq bo'ladi. Dehqonning bir kunida olamcha hayot nafasati bor. Sirdan qaraganda hech qanday favqulodda voqealar, kutilmagan murakkab vaziyatlar, holatlar, kuchli ziddiyatlar, to'qnashuvlar sodir bo'lmaydi. Aksincha, hikoyada kelinchak Muyassarning erta turib, uy-ro'zg'or yumushlari bilan shug'ullanishi, nonushta tayyorlashi, ildam dalaga, paxtazorga jo'nashi va u yerda mehnatga kirishib ketishi, butun tafsilotlari bilan chiziladi. Kundalik turmush ikir-chikirlari zamirida katta mazmun yetadi - ayol baxti ulug'lanadi.

Hikoyada tabelchining Muyassarga qilgan qo'pol haziliga va bergan dashnomiga nisbatan «Bu odam shunaqa o'zi: otdan tushsa ham egardan tushgisi kelmaydi»¹⁴ kabi iborani keltiradi. Bu bilan Shoqosim akaning bir paytlari rais bo'lgani va shu lavozimdan bo'shagach, oddiy tabelchilik bilan shug'ullanayotganligi yuqoridagi ibora mazmuniga singdirib yuborilgan. Muyassar yosh bo'lsa ham aqlli, tarbiyali ayol edi. Hatto, ana shunday odam bilan pachakilashib o'tirishni ep ko'rmasligining o'zi Muyassarning olijanoblighi, o'z qadr-qimmatini bilishini ifodalashga yordam beradi. Muyassarning oldinda hali baxtli kunlar kutadi, u kelajagiga to'la ishonch bilan yashaydi: «... qayerdadir uzoqda alla eshitiladi, qaysidir ona o'z kichkintoyining boshida qo'shiq aytayapti. Muyassar shirin jilmayib qo'yadi. Mana bir yildan keyinmi, ikki yildan keyinmi o'zi ham ona bo'ladi. O'shanda o'zi ham shunaqa sokin kechalarga jon kiritib, alla aytadi»¹⁵.

Yozuvchi ayol baxtini tabiiy ravishda onalik bilan, oila bilan bog'laydi. Demak, bundan ko'rinadiki, hikoyada keltirilgan allaning yangroq ovozi o'ziga xos tarovat bag'ishlaydi.

Shu bilan birga, adibning «Dehqonning bir tuni» hikoyasini tahlil qilar ekanmiz, bu hikoya ham avvalgi hikoyaning davomiyligini e'tirof etish kerak. Ushbu hikoyada Muyassar, Alijon va ularning farzandlarini faqat bir kunlik tuni haqida batafsil yoritilgan.

Adib bu hikoyada ham xalq maqollaridan unumli va o'rinli foydalangan. Hikoyani ko'zdan kechirish davomida quyidagi xalq maqollarining nima maqsadda qo'llanganligining guvohi bo'lamiz. Asarda Muyassarning qizi Halima o'z akasi Valining suratini chizayotgan kezlarida «Qirqiga chidadingiz, qirq birigayam chidang-da, akajon! Besh minut qoldi»¹⁶, degan xalq maqolini qo'llaydi. Negaki, Valining sabrsizligi hamda ishning oxirigacha chidamli bo'lish kerakligi maqol mazmuniga singdirib yuborilgan. Yoki yozuvchi «Sutdan og'zi kuygan qatiqni ham puflab ichadi»¹⁷ maqolini ham asar

¹⁴ Hoshimov O'. Qalbingga quloq sol: Qissa va hikoyalar. - Toshkent: G' G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1973. - B. 171.

¹⁵ Ko'rsatilgan manba... - B. 172-173.

¹⁶ Hoshimov O'. Iztirob. Hikoyalar. - Toshkent: Yozuvchi, 1991. - B. 28.

qahramoniga mos holatda keltiradi. Ya'ni Muyassarning qizi Halima bevaqt vafot etadi. Oradan ancha vaqt o'tgach, qizi Salima ham og'rib qoladi. Natijada, ular bu kasalning oldini olib, qizlarining tuzalib ketishiga sabab bo'lishgan. Agarda e'tibor bermay yurishganda, u ham Halima holiga tushib qolishini maqol mazmunidan anglab olamiz.

Xullas, ushbu hikoyalardagi asosiy qahramon Muyassar dehqon ayolining umumlashma obrazi darajasiga ko'tariladi.

Umuman olganda, O'tkir Hoshimov asarlarining har birida xalq og'zaki ijodidan umumli foydalanganligi, bu esa bugungi kunda komil inson tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etishini kuzatish mumkin.

ERKINLIK - TARAQQIYOT POYDEVORI

N. Xabibullayeva,

*Pedagogika va jismoniy ma'daniyat
fakulteti BT va STI yo'nalishi 406- guruh
talabasi.*

B. Tillayev,

*Ilmiy rahbar: Milliy g'oya, ma'naviyat va
huquq asoslari kafedrasi o'qituvchisi.*

Buyuk orzular ila buyuk yo'lga chiqqan O'zbekistonning bugungi kunga qadar erishgan barcha yutuqlari va muvafaqqiyatlari negizi albatta erkinlikdadir. Ilk bora o'z qadamlarini tashlagan bola kabi 1991-yil o'z erki va ozodligi uchun dastlabki odimlarini boshlagan o'zbek xalqi hozirgi kunda har qanday orzu-niyatlari ijobatiga erishmoqda. Buning bari albatta huquqiy va demokratik jamiyat sari borayotganligimiz tufaylidir. Zero, o'z erki hamda huquqlariga ega shaxslardan tuzilgan jamiyatni mustahkam poydevorli binoga qiyoslash mumkin.

Inson erkin va ongli faoliyat bilan hayvondan farq qiladi. Hayvonlar shart-sharoit va vaziyatga qaramdir. Inson esa ongli ravishda maqsadga erishish yo'lini izlaydi. Bu esa o'z navbatida erkinlik insonning ongli faoliyati ekanligining isbotidir.

Shu o'rinda erkinlik so'ziga ta'rif bersak, «erkinlik kishining o'z istagi bo'yicha ish tutishi. Bu tushuncha huquqshunoslik, siyosatshunoslik, etika, estetika kabi ijtimoiy bilim sohalarida keng ishlatiladi. Erkinlik bosh-boshdoqlikni emas, jamiyatdagi muayyan tartibni ifodalaydi. Shu bilan bir qatorda erkinlik insonning jamiyat oldidagi vazifani bajarishni erkin, ixtiyoriy tanlashidir. Mamlakatimizda har bir fuqaro siyosiy va ma'naviy ta'qibdan, zo'rvonlikdan himoyalangandir. Har bir inson o'z baxtini o'zi yaratish vositasi

sifatida erkinlik huquqiga ega ekan, bu tushuncha ularning o'zligini anglash darajasini ifodalaydi. XVII asr Niderland faylasufi B. Spinoza aytganidek, erkinlik anglab olingan zaruriyatdir.

Inson erkinligi obyektiv shart-sharoit va vaziyatga bog'liqdir. U mavhum emas, u doimo aniqdir. Har bir shaxs ko'zlagan maqsadiga erishishda muayyan sharoit va imkoniyatga tayanadi. Maqsadga erishishda kimgadir shart-sharoit, kimgadir vosita, kimgadir imkoniyat yetishmay qoladi. Muayyan vaziyatda va shart sharoitda maqsadga erishish uchun erkinlikka ega bo'lish asosiy o'rin egallaydi. Islom ta'limotida ham erkinlik to'g'risida g'oyalar bisyor. Unga ko'ra insonga erkin bo'lishi uchun aqlu idrok berilgan. Abu Mansur Moturidiy islomdagi iroda erkinligini sharhlab, insonga berilgan aql-idrok unga o'z xatti-harakatida yaxshilik va yomonlikni, halol va haromni, savob va gunohni, to'g'ri va egri yo'lni tanlash erkinligini berdi, bizning kelajagimiz shu yo'llardan qay birini tanlay olishimizga bog'liq, deb uqtirgan. O'zbekiston ham o'z imkoniyatlarini, bor kuch mahoratini taraqqiyot va ezgulik yo'lida sarflamoqda.

Respublikamizda vijdon erkinligi, so'z erkinligi, matbuot erkinligi kabi huquqlar o'z ifodasini amalda aks ettirmoqda.

Xalqimiz, ajdodlarimiz asrlar davomida orzu qilib kelgan mustaqillik o'z taqdirini o'zi belgilash, o'z yurti boyliklaridan o'zi foydalanish, mamlakatning ichki va tashqi siyosatini o'zi belgilash, boy milliy merosdan bahramand bo'lish, tilini, dinini, urf-odatlarini va milliy bayramlarini tiklash va rivojlantirish, o'z mehnati natijasidan manfaatdor bo'lishdek oily darajadagi huquq va manfaatlariga mustaqillik tufayli erishdi¹⁸. Darhaqiqat mustaqillik bizga cheksiz imkoniyatlar bilan bir qatorda erkinlik atalmish buyuk ne'matni ato etdi.

1992-yil 8-dekabr - Konstitutsiyamiz qabul qilingan kun. Shu kunda erkimiz va huquqlarimiz qonunlashtirildi, kafolatlandi. Bosh qonunimizning har bir bo'limi, har bir bob, har bir moddasida respublika fuqarolarining burchlari, huquqlari va imtiyozlari belgilab berilgan. Yurtimizda qabul qilinayotgan har bir qaror, qonunlar va farmonlar negizi bu albatta konstitutsiyamizga borib taqaladi.

Rivojlanishning yorqin yo'lini tanlagan O'zbekiston taraqqiyotining kafolati sifatida erkinlik va demokratiya tamoyillariga asoslanmoqda. Bu albatta Respublikamizda har qanday islohotlar jamiyat a'zolarining farovonligi, erkinligi va qulayliklari uchun amalga oshirilayotganligida o'z ifodasini topmoqda. Bir so'z bilan aytganda, erkin va ozod Vatanda tinch va baxtiyor hayot kechirish har qanday insonning ezgu orzusi hisoblanadi. Bunday orzuning ro'yobi esa bizning jannatmakon yurtimizning oftobyuzli odamlariga nasib qilgan.

¹⁸ Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida kitobini o'rganish bo'yicha o'quv-uslubiy qo'llanma.-Toshkent: O'qituvchi, 2012.-B.98.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash o'rinliki, har qanday ne'matni qadrlash va asrash lozim. Shunday ekan, biz tinchlik hamda erkinlikni e'zozlashimiz shartdir. Bu shu zaminda yashayotgan har bir fuqaroning VATAN deb atalmish qalb parchasi oldidagi burchidir. Ayniqsa, yurt ertasi va kelajagi egalari bo'lgan yoshlar bu borada ikki barobar mas'uliyatlidirlar.

Prezidentimiz tomonidan biz yoshlarga bildirilayotgan ishonch cheksiz imkoniyatlar bilan bir qatorda mas'uliyat hissini ham yuklamoqda. Bugungi kunda yoshlar ongiga milliy g'oya tushunchasini singdirish, qalbiga jo qilish eng muhim va dolzarb masala bo'lmoqda. Haqiqiy, yuksak ma'naviyat va milliy g'oyani his etgan yosh avlod O'ZBEKISTON deb atalmish zaminimizni ko'z qorachig'idek asraydi. O'tmishi faxrlanarli, kelajagi buyuk yurtning bag'rida ulg'ayar ekan, uning har bitta fuqarosi va farzandi ko'krak kerib, g'ururlanishi hamda erkinlik va taraqqiyot yo'lida o'z burchini ado etishi lozim. Zero, kelajagi buyuk davlatning farzandlari qon-qonida ona Vatan oldidagi burchni his etish shijoati mavjuddir.

«MADANIY MEROS» TUSHUNCHASINING MAZMUNI

B. B. Ibrohimov,

NamDU Milliy g'oya, ma'naviyat va huquq asoslari kafedrasi o'qituvchisi.

O'zbekiston o'z mustaqilligini mustahkamlash, jahon hamjamiyatida o'zining munosib o'rnini egallash jarayonida siyosiy, huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalarida tubdan yangilanish, milliy g'oya, milliy mafkuranihg shakllanishi jarayoni kechmoqda. Bu jarayon uchinchi ming yillik arafasida amalga oshmoqda. Shu munosabat bilan Prezidentimiz I. A. Karimovning quyidagi so'zlari o'ta ibratlidir: «Biz kelgusi asrga o'zimiz bilan nimani olib o'tishimiz mumkin? Va nimalardan voz kechishimiz darkor?. Yangi ming yillikda qanday muammolarning yechimi bizning diqqat-e'tiborimiz markazida turmog'i lozim?»¹⁹ Bu chorlov madaniy va ma'naviy merosimiz muammolarini hal qilishda asosiy dasturiy amaldir.

Madaniy meros - bu o'tmishdan qolgan qadriyatlar, g'oyalar, tajriba, bilimlar ularni o'zlashtirish yo'llari, ya'ni kishilarning ijodiy faoliyat usullari va uni tashkil qilish hamda uning natijalardir. O'zlashtirish yoki aniqlik, madaniy meros jarayoni o'ta muhim bo'lib, madaniyatning harakatdagi asosiy qonunlaridan biri hisoblanadi. Bu jarayon insoniyatning o'tmishi, buguni va kelajagini bir butun hol'da birlashtirib, odatiy tarzda tayyor yutuqlarga aylanadi. Bor narsani izlash, ma'lum narsani ochish, qilingan kashfiyotni kashf etish


¹⁹ Karimov I. A. O'zbekiston XXI asr bo'sag asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. - Toshkent: O'zbekiston, 1997. - B. 3.

kerak bo'lmaganidek, o'tmish ajdodlar qilgan ishni takrorlash shart emas. Erishilgan yutuqlardan kelib chiqib, jamiyat o'z maqsadlarini amalga oshirishning qisqa yo'llarini tanlaydi. Bundan tashqari, ma'naviy meros kishilarning saviyasini behad kengaytiradi, ular hayotini aqliy va hissiy jihatdan boyitadi, bilimning tuganmas manbai bo'lib xizmat qiladi.

O'tmish bilan batamom uzilish mumkin emas. Insoniyat tarixida mutlaqo yangi madaniyat yaratishga urinishlar bo'lgan, biroq bunday urinishlar xunuk natijalarga olib kelgan. Bunga 1920-yillarda sobiq Ittifoqda «Proletar madaniyatini» yaratishga urinishni yoki «Madaniy inqilob»ni misol tariqasida keltirish mumkin. Bu «inqiloblar» jarayonida yangi madaniyat yaratilmas, aksincha, bori ham yo'q qilindi: qo'lyozmalar, kitoblar, suratlar yo'qildi; me'moriy yodgorliklar buzildi, eng achinarlisi madaniy qadriyat egalari mahv etildi. Oqibatda o'tmish bilan bog'liq uzviylik izdan chiqib, jamiyat ma'nan parokandalikka uchradi.

Madaniyatning me'yoriy rivojlanishi uchun uni avlodlarga meros qilib qoldirish talab etiladi. Biroq, bu jarayon o'z-o'zidan va bir xilda kechmaydi. Ma'naviy qadriyatlarning mundariyasi, ularni qayta ko'rib chiqish va qayta baholash, ularning o'zaro bog'liqlik usullari, munosabat tiplari, bilimlarni asrash va uzatish, hayot me'yorlari, voqelikni estetik idrok qilish xususiyati o'zgarmasdan qolmaydi, ular uzluksiz harakatda bo'ladi. Meros serqirra va ko'p qiyofalidir. Uning aniq namoyon bo'lishi tiplarning ko'pligi, tendentsiyalar xilma-xilligi bilan farqlanadi. Har bir yangi avlodning vorislik mexanizmi o'tmishdoshlarning tajribasidan madaniyatning turli sohalarida farqlanadi: san'atdagi o'lcham fandagidan boshqacha; tabiiy fanlar gumanitar fanlardan farqli. Vorislik (meros) har qanday sohada insonning haqiqiy o'zlashtirishida namoyon bo'ladi, va ayni paytda, mahalliy yoki dunyo miqyosidagi jarayonlar shaklida ham ifodalanishi mumkin. Vorislikning mahalliy (cheklangan) shakli madaniyatning kasbiy (professional), milliy, etnik va boshqa ko'rinishlariga ega. Bu faoliyat madaniy bosqichlarda bir me'yorda, tekis yo'nalish shakllarida bo'lmay, uning bir bosqichdan ikkinchi bosqichga sakrab o'tishi notekis bo'hronlar xususiyatiga ega. Insoniyatning ma'naviy yutuqlarini meros qilib qoldirishda vorislik keng miqyosli (umumiy) shaklda jarayonlar mufassal yo'nalishda amalga oshadi. Masalan, Qadimgi Misr zakovati «Injil», «Ming bir kecha ertaklari» kabi madaniyat yodgorliklariga ijobiy ta'sir qildi. Yana yer yuzidagi barcha xalqlarning zamonaviy bilim sohalariga zamin bo'lgan Bobil astronomiyasi, hind matematikasi, antik falsafa, Rim huquqi haqida ham shunday gapirish mumkin.

Agar madaniyat va ma'naviyat sohaları tarkibida til, udumlar, an'analar va boshqalar bo'lsa, ma'lum xalqning madaniyat tarixi doirasida meros qoldirish jarayoni yaxshiroq kechadi. Boshqa sohalarda esa texnika, fan va boshqa sohalaridagi bir xalqqa tegishli meros boshqa xalqlarga ham tarqatib aylanadi.



Keyingi avlodlarga meros qoldirish uchun madaniyatda belgilangan usul va mexanizm mavjud. Ulardan ba'zilar qadimdan amal qiladi, bu – namoyish qilish, og'zaki uzatish, folklor, san'at; boshqa usullar keyinroq paydo bo'ldi, bu – kino tasviri, ohonrabo yozuvi, kompyuter xotirasi. Barcha jamiyatlarda ham haqiqatdan ma'naviy merosning foydalanish imkoniyatlarini o'zgartirish sharoiti bir xilda emas. Ular ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, g'oyaviy omillar bilan belgilanadi. Bu omillar merosning hajmi, tanlash xususiyati, intensivligiga bog'liq. Bizga ma'lumki, sovet jamiyatida kommunistik g'oya hukmronligi davrida xalqlar, xususan, O'zbekistonda ham o'zining haqiqiy tarixiy, milliy va ma'naviy merosidan mahrum etilgan edi.

Umuman olganda, madaniy merosdan mutlaqo mahrum bo'lgan yoki foydalanmagan jamiyat yoxud xalqlar tarixda bo'lishi mumkin emas.

YOSHLAR MA'NAVIYATIGA "OMMAVIY MADANIYAT"NING TA'SIRI

Odiljon Topildiyev,

*Nam DU Ijtimoiy madaniy faoliyat
kafedrasi mudiri, t.f.n.*

Ahror Nishonov,

*Ijtimoiy-madaniy faoliyat yo'nalishi 3-
bosqich talabasi.*

Hozirgi davr - dunyoda g'oyaviy qarama-qarshiliklar murakkab tus olgan, mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ham kuchliroq bo'lib borayotgan davrdir. Prezident I. A. Karimov ta'biri bilan aytganda, «Endi sodir bo'ladigan urushlar jang maydonlarida emas, balki mafkura poligonlarida yuz beradi»²⁰. Shu jihatdan qaralsa, bugungi kunda yoshlar ongini egallashga qaratilgan mafkuraviy tahdidlar nihoyatda avj olmoqda. Kelajak avlod haqida qayg'urish, sog'lom, barkamol avlodni tarbiyalashga intilish bizning oldimizda turgan asosiy dolzarb vazifalardan biri ekanligi barchaga ma'lum. Bu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 41-moddasida «Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy ta'lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari davlat nazoratidadir»²¹, deb belgilangan. Shuning uchun ham, yoshlar ta'lim-tarbiyasi, ularning ma'naviyatini yuksaltirish sohasidagi islohotlarning tizimli, bosqichma-bosqich amalga oshirish bugungi kundagi dolzarb vazifa hisoblanadi.

²⁰ Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008 – B. 81.

²¹ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – Toshkent: O'zbekiston, 2011 – B. 10

Bugungi globalashuv asrida yoshlarning qalbi va ongini egallash uchun misli ko'rilmagan darajada mafkuraviy kurash bormoqda. Bunday xatarning ta'sirini avvalo, axborot sohasida kuzatish mumkin. Chunki bugungi kunda axborot oqimi kirib bormagan biron-bir manzilni topish qiyin. Hatto dunyoning eng chekka joylariga ham televidenie, radio to'lqinlari, telefon, internet aloqasi yetib borgan. Axborot olish va so'z erkinligi haqida O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasining 29-moddasida «Har kim fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi huquqiga ega. Har kim o'zi istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish huquqiga ega, amaldagi konstitutsiyaviy tuzumga qarshi qaratilgan axborot va qonun bilan belgilangan boshqa cheklashlar bundan mustasnodir»²², deb belgilab qo'yilgan.

Bugun axborot tarqatish nihoyatda zamonaviy qiyofaga kirdi. Internet tarmog'ining jadal rivojlanishi jamiyat hayotini tubdan o'zgartirib yubordi. Ayniqsa, turli kuchlar o'rtasida shafqatsiz manfaatlar kurashi borayotgan bir paytda, har qaysi g'oyaviy markaz o'ziga ma'qul bo'lgan, o'ziga foyda keltiradigan axborotni tarqatish va shuning orqasidan foyda ko'rishni orzu qiladi. Hozirgi paytda yoshlarning qalbi va ongini egallashga qaratilgan jiddiy xatarlardan biri «ommaviy madaniyat» hisoblanadi. Garchi «madaniyat» deb atalsa-da, aslida, tub mazmun-ma'nosiga ko'ra «ommaviy madaniyat» chinakam madaniyatning kushandasidir. Mutaxassislar va olimlarning fikricha, hali ilm-fanda «antikultura»-«g'ayrimadaniyat» degan ilmiy tushuncha shakllanmaganligi uchun «ommaviy madaniyat» tushunchasi noilojlikdan qo'llanilmoqda. Chunki, «ommaviy madaniyat», aslida madaniyatsizlik, ya'ni ma'naviyatsizlik va axloqsizlikning sinonimidir. «Ommaviy madaniyat» shu boisdan, eng avvalo, yuksak iste'dod va o'lmas ma'naviy-axloqiy g'oyalarga, mumtoz madaniyatga, san'atga, uning boyliklariga qarshi tish-tirnog'i bilan kurashib, uni inkor etib kelmoqda.

Aslida haqiqiy madaniyatdan mutlaqo yiroq bo'lgan, g'arazli maqsadlarni ko'zlaydigan ayrim guruhlarning boyishiga xizmat qiladigan, milliy qadriyatlarimizga mutloqo zid «ommaviy madaniyat» insonni hayotdan yiroqlash-tiradi, ruhan qashshoq, behayolik, zo'ravonlik, ur-yiqit, firibgarlik, giyohvandlik, mayxo'rlik kabi illatlarni zimdan targ'ib qiladi. Hayotning ma'nosi shundan iborat degan zararli g'oyani yoshlarning qalbi va ongiga zimdan singdirishga harakat qiladi. Boshqacha aytganda, «ommaviy madaniyat» yoshlarning hayotini butunlay zaharlaydi va ularni o'z tarixi, milliy qadriyatlari xatto ota-onasini tanimaydigan maxluqqa aylantirib qo'yadi.

«Ommaviy madaniyat» bugungi kunda quyidagi shakllarda o'zini namoyon etmoqda:

1. Kitch – zarracha badiiy, estetik qimmatga ega bo'lmagan narsa va buyumlarga yuksak andoza tusini berish;

²² O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2011 – B 12

2. Komiks – tagiga qisqa matn yoki luqmalar bitilgan behayo matbaa - rasm mahsulotlari;
3. Starizm – sub'ektiv ehtirolarga berilgan holda, estrada artistlari, aktyorlar, sportchilar, telediktorlarni ilohiylashtirish;
4. Xepining – avvaldan rejalashtirilmagan, nogahon uyushtiriladigan «keskin» tomoshalar, masalan, avtomobillarga o't qo'yish, ko'cha janglarini uyushtirish orqali vahshiylikni targ'ib qilish, ya'ni ommaviy «ko'ngil ochish»larni tashkil qilish kabilar «ommaviy madaniyat»ning ayrim ko'rinishlaridir.

«Ommaviy madaniyat»ga qarshi kurashning eng samarali yo'li yoshlarimizni yuksak madaniy saviya, did, farosat egasi va yuksak ma'naviyatli qilib tarbiyalashdan iborat. Ana shunday fazilatlariga ega bo'lgan yoshlar zamirida vayronkor g'oyalar yotgan «ommaviy madaniyat» namunalaridan hazar qiladi. Yoshlarning kelajakdagi taqdiri va istiqboli haqida o'ylar ekanmiz, «ommaviy madaniyat»ning mohiyati uning insoniyat hayotiga ta'sir o'tkazish omillarini, axborot xavfsizligi muammolarini chuqurroq o'rganishni, noxolis axborotlarga nisbatan yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishni taqozo etadi. Bu o'rinda yoshlar ma'naviyatiga «ommaviy madaniyat»ning mafkuraviy ta'sirini kamaytirish uchun quyidagi takliflarni berish o'rinli:

1. Yoshlarda axborot iste'moli madaniyatini shakllantirish va «ommaviy madaniyat»ga qarshi ma'naviy-ma'rifiy, mafkuraviy targ'ibotni kuchaytirish zarur;
2. Yoshlarni zararli axborot oqimlaridan himoyalash uchun, ular ongida mafkuraviy immunitetni hosil qilish va voyaga yetmagan yoshlarni internetdan foydalanishini cheklash lozim;
3. Yoshlarning bo'sh vaqtlarini samarali tashkil etish uchun sport to'garaklari va foydali mashg'ulotlarga keng jalb qilish;
4. Oila, ta'lim muassasalari va mahalla hamkorligi asosida «ommaviy madaniyat»ning salbiy ta'sirini yoshlarga tushuntirish uchun targ'ibot-tashviqot ishlarini yanada keng olib borish lozim.

Xulosa qilinadigan bo'linsa, bugungi kunda mamlakatda yoshlarning unumli mehnat qilishlari, samarali bilim olishlari uchun ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy va huquqiy chora-tadbirlar yaratilgan. Bu o'rinda yoshlarni «ommaviy madaniyat»ning salbiy ta'siridan himoya qilish uchun eng avvalo, ommaviy axborot vositalari davlat va jamiyat xavfsizligiga jumladan, yoshlarni ma'nan aynitishga olib keladigan holatlarga yo'l qo'ymasliklari kerak. Barcha turdagi ommaviy axborot vositalarida «ommaviy madaniyat»ning salbiy ta'siriga oid targ'ibot-tashviqot ishlarini yanada kuchaytirish lozim. Shundagina yoshlarni har tomonlama sog'lom va barkamol qilib voyaga yetkazishga erishamiz.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QISH DARSLIKLARIDA MILLIY ISTIQLOL G'OYASINI SINGDIRISH HAQIDAGI ASARLARNI BERILISHI

B. Qo'chqorov,

NamDU BTM kafedrasi o'qituvchisi.

O'zbekistonimizning taraqqiyot yo'li faqatgina ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy islohotlardangina emas, balki jamiyat ma'naviyatini yuksaltirishga bog'liq. Shunga ko'ra Yurtboshimiz bu borada ma'naviyatni shakllantirishda ta'limning ustuvorligiga e'tibor va O'zbekistonda ta'lim sifatini oshirish uchun sharoit yaratish zarurligini alohida ta'kidlab o'tadi.

Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq Prezidentimiz belgilab bergan bu yo'nalish ta'lim-tarbiyaning ham asosiy yo'nalishlarini aniqlab beradi. Yosh avlodni milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ularni xalqimizning boy ma'naviy merosini o'rganishga rag'batlantirib, ongiga mehnatsevarlik, vatanparvarlik, insonparvarlik g'oyalarini singdirish asosida o'z qobiliyatlarini namoyon etishga yo'llash kabilar ta'lim-tarbiya sohasidagi ustuvor yo'nalishlardandir.

Yurtboshimiz tashabbusi bilan ta'lim sohasida tub islohotlarni amalgam oshirishga e'tibor qaratildi. Bu borada Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi IX sessiyasida (1997- yil, 29-avgust) so'zlagan „Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori“ mavzusidagi ma'ruzasi alohida ahamiyatga ega.

Mazkur nutqida Prezident ta'lim sohasidagi islohotlarning asl mohiyatini aniq tushuntirib beradi. „...bugungi kunda oldimizga qo'ygan buyuk maqsadlarimizga, ezgu niyatlarimizga erishishimiz, jamiyatimizning yangilanishi, hayotimizning taraqqiyoti va istiqboli, amalga oshirilayotgan islohotlarimiz, rejalarimizning samarasi, taqdiri – bularning barchasi, avvalambor, zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali, yangi mutaxassis kadrlar tayyorlash muammosi bilan chambarchas bog'liqligini barchamiz anglab yetmoqdamiz, faqatgina chinakam ma'rifatli odam inson qadrini, millat qadriyatlarini, bir so'z bilan aytganda, o'zligini anglashi, erkin va ozod jamiyatda yashashi, mustaqil davlatimizning jahon hamjamiyatida o'ziga munosib, obro'li o'rin egallashi uchun fidoyilik bilan kurashishi mumkin“, - dedi va bu vazifalarning hal etish yo'llarini ko'rsatib berdi

1. Bundan tashqari yosh avlod ongiga milliy istiqlol g'oyalarini singdirish asosida yangi ijtimoiy ongni shakllantirish bilan erkin, mustaqil firkllovchi shaxsni, mustaqillikka sadoqatli, ijtimoiy-siyosiy hayotda ongli ishtirok etadigan va shu jarayonda faol qatnashadigan fuqaroni shakllantirish, ta'lim-tarbiyaga yangicha yondashuv, ilg'or pedagogik texnologiyarni ta'lim jarayoniga kiritish. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi“, fan-texnika va texnologiyalarning an'analarni hisobga olgan holda takomillashtirish, hozirgi

davr talablari asosida madaniy, tarixiy, ma'naviy-axloqiy kadrlar malakasini oshirish, ularni zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish kabi masalalarga e'tibor qaratildi.

Shuni ta'kidlash lozimki, mustaqillikka erishish davri haqida, eski tuzum inqirozga duchor bo'lib, sobiq ittifoq parokandalikka yuz tutgan bir paytda mamlakatimizda tobora keskin tus olgan siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy vaziyat, o'zligimizni anglash va toptalgan milliy g'ururimizni tiklashga qaratilgan intilish kuchayib borgani Vatanimiz mustaqilligini qo'lga kiritish qanday sharoitda kechgani haqida yaxlit, yagona va xolis baho beradigan jiddiy tahlil-tadqiqot hozirgacha amalda yo'q.

O'zbekiston mana shunday tahlilali va murakkab vaziyatda qanday maqsadlarni ko'zda tutib, qanday amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirgani bu harakatlarning ilmiy-tarixiy, mantiqiy va qonuniy zamini va omillari bo'lsa, istiqbol o'zbek xalqiga tuhfa tariqasida, bularning barchasi haqida har tarafdin chuqur yoritib va isbotlab beradigan izlanish va tahlil bugungi kunda ham o'zining dolzarbligi va ahamiyatini yo'qotmaganini qayd etishimiz zarur. Mustaqillik ulug' ne'mat ekanligini, ota-bobolarimiz boshidan ko'plab sinovlarni o'tkazganligini hozirgi kunda hayotga kirib kelayotgan yoshlarimiz bilishi, yurtimiz istiqboli qanday og'ir kurash va mashaqqatlar bilan qo'lga kiritilganligini anglab yetishi lozim.

O'z-o'zidan ayonki, yangi davlat barpo etishda milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalangan, mamlakatimizni modernizatsiya qilish va zamonaviy demokratik jamiyat qurish yo'lidagi murakkab va keng ko'lamlil vazifalarni hal etishga qodir bo'lgan yangi avlod kadrlarni tayyorlash masalasi hal qiluvchi ahamiyatga ega.

O'tgan yillar mobaynida ta'lim-tarbiyaga berilayotgan e'tibor mamlakatimizning egasi bo'lgan yosh avlodni har tomonlama komil inson bo'lib etishishda muhim rol o'ynaydi.

Biz o'z oldimizga qo'ygan maqsadimizni amalga oshirishda yurtimizda millatlararo totuvlikni, tinchlikni mustahkamlash, ma'naviy-axloqiy tarbiyani kuchaytirish tarixiy ildizlarimizga, milliy o'zligimizga qaytish kabi ishlarga alohida e'tibor berishimiz va yosh avlod ongiga singdirib borishimiz kerak.

„Biz bugun yurtimizda yangi hayot barpo etar ekanmiz, bir masalaga alohida e'tibor berishimiz lozim. Ya'ni kommunistik mafkura va axloq normalaridan voz kechishga, undan so'ng jamiyatda paydo bo'lgan g'oyaviy bo'shliqdan foydalanib, chetdan biz uchun mutlaqo yot bo'lgan ma'naviy-axloqiy tubanlik illatlarini o'zida mujassamlashtirgan „ommaviy madaniyat“ yopirilib kirib kelishi mumkinligi barchamizga ayon bo'lishi kerak.

Bunday uzoqni ko'zlaydigan, aniq maqsadlarga ega bo'lgan turli xuruj va g'arazli intilishlar, xorijiy markazlar tomonidan katta kuch va mablag' sarflanayotgan harakatlilar va bu kabilar xavf-xatarlar bizga qanday zararli oqibatlar olib kelishidan ogoh bo'lishimiz darkor.

Bunday balo-qazolarga qarshi kurashda, farzandlarimizning ma'naviy dunyosini himoya qilishda nimalarga tayanishimiz zarur? Avvalo to'g'ri tarbiya, sog'lom turmush g'oyasi, faqatgina qattiq iroda va iymon-e'tiqod hisobidan bunga erishish mumkin. Men bizga mustaqil fikrlaydigan avlod kerak, deganda shuni nazarda tutaman.

Aynan ana shunday o'z kuchiga va irodasiga ishongan, keng fikrlaydigan, bilimli va madaniyatli yoshlarimiz har qanday buzg'unchi g'oyalarga berilmasdan, hayotda o'z yo'lini topib olishi muqarrar.

Buning uchun biz farzandlarimizni milliy tabiatimizga yot va zararli bo'lgan ta'sirdan himoya qilishimiz, ularni hayotga, yon-atrofdagi yuz berayotgan voqealarga daxldorlik hissi bilan yashaydigan, mustaqil fikrlaydigan, iymon-e'tiqodli, barkamol insonlar etib tarbiyalashimiz lozim.

Yoshlarimiz qalbida sog'lom hayot tarziga intilishni, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat-ehtirom tuyg'ularini bolalik paytidan boshlab shakllantirishimiz lozim. Bu ularga yoshliklaridan, aniqrog'i boshlang'ich sinflardan boshlab mustaqillik va mustaqillik bizga bergan ne'matlar, mustaqillik bayramlari haqidagi asarlar bilan tanishtirib borish orqali amalga oshiriladi. Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'qish darslari asosiy o'rinni egallaydi. Bola o'qish darslarida milliy qadriyatlarimizni ulug'lash, tabiatni sevish, O'zbekiston istiqlolini qadrlashni, xalqimiz tarixi va madaniyati kabilarni o'rganib boradilar. Darsliklar sinfdan sinfga o'tgan sayin takomillashib, kengayib boradi. Bu darsliklarda mustaqil O'zbekistonimiz tabiati, ma'naviy-ijtimoiy hayoti, xalq og'zaki ijodi, ajdodlarimiz merosi kabi bo'limlar ma'lum izchillikda berilib borilgan. Mustaqil O'zbekistonga oid, o'quvchilar qalbiga milliy istiqlol g'oyasini singdirishga oid bo'limlar quyidagi tartibda berilgan. 1-sinfda O'zbekiston - Vatanim manim" bo'limi ostida berilgan bo'lib, unda quyidagi mavzular o'rin olgan.

1. Vatan – bu. (Po'lat Mo'min).
2. Buyuklar Vatani
3. O'zbekiston askarlari. (Odil Abdurahmon).
4. Ota rozi - Vatan rozi (Eson Rahimov).
5. Ulkan hovuz (Erkin Malik)
6. Qish (Tursunboy Adashboyev)
7. Oy allasi (Odil Abdurahmon)
8. Bu juda soz, juda soz (Po'lat Mo'min)
9. Bo'lim yuzasidan takrorlash.

2-sinfda „Ona yurtim oltin beshigim“ rukni ostida quyidagi materiallar o'quvchilarga Vatanimiz o'tmishi, hozirgi kuni, bugungi kunda erishgan yutuqlari, buyuk ajdodlarimiz va ularning merosi haqida ko'lab ma'lumotlar beradi.

1. Mustaqillik darsi bo'lib, unda mustaqillik bayramiga oid sur'atlar va o'zbek xalq maqollari berilgan.

Odam Vatanni sevar.

Bulbul chamanni.

Vatan - ona

Ostonasi - oltin.

2-mavzu: Hamza Imomberdiyev qalamiga mansub "O'zbekiston - mening Vatanim" nomli matndir. She'r va matnda aziz, mo'tabar Vatan O'zbekistonning nurli bo'ston ekanligi, uning so'lim, yashil vodiylari, obod shahar va qishloqlari, dunyoga mashhur Buxoro, Samarqand, Toshkent singari shaharlari haqida so'z boradi.

3-mavzu: Narimon Orifjonov qalamiga mansub „Vatan“ she’ri

4-mavzu: Jumaniyoz Jabborovning „Istiqlol“ she’ri.

5-mavzu: Humo qushi. Po'lat Mo'min.

6-mavzu: Toshkent matri.

7-mavzu: Toshkent metrosi.

8-mavzu: O'lka (Erkin Vohidov)

9-mavzu: Hikoyat. Afisher Navoiyning „Xamsa“ dostonlari tarkibiga kiruvchi Saddi Iskandariy dostonidan olingan.

10-mavzu: El-yurt uchun fidoyi insonlar. Bu asrda Vatanimiz ozodligi uchun kurashgan insonlar haqida so'z boradi.

11-mavzu: Sahibqiron bobomiz. (Muxtor Xudoyqulov)

12-mavzu: Mirzo Ulug'bek. (Muxtor Xudoyqulov)

13-mavzu: Karnaychi shoh ertagi

14-mavzu: Yur tog'larga chiqaylik. (Usmon Nosir)

15-mavzu: Tilagim. (Yo'ldosh Sulaymon)

16-mavzu: Bo'lim yuzasidan yakunlovchi dars.

3-sinflarda o'quvchilar „Ona bitta-Vatan yagona“ bo'limidan joy olgan quyidagi asarlarni o'rganish orqali ona Vatanimiz O'zbekiston haqida ko'plab ma'lumotlar oladilar.

1. Bayramingiz qutlug' bo'lsin.

2. Sizga. (Abdulla Oripov)

3. Salom maktab. (Shuhrat)

4. O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi.

5. O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'i.

6. Vatanimiz gerbi - tug'ro haqida ertak. (Erkin Malik)

7. Bayroq nima? (Alibey Rustamiy)

8. Vatanni suymoq. (Abdulla Avloniy)

9. Vatan mo'tabardir. (Xurshid Davron)

10. Ona yurtning -oltin beshiging. (Oydin Xojiyev)

11. Ona Vatan.

12. Vatan haqida she'r. (Abdulla Avloniy)

13. Toshkentim onam.

14. O'ktam avlod qo'shig'i. (Anvar Obidjon)

15. Til qudrati.
16. Ona tilim. (Tursunboy Adashboyev)
17. O'zbekim. (Erkin Vohidov)
18. Ro'zg'or daftari. (A.Zokirov)
19. Bilib qo'yki seni Vatan kutadi. (Tohir Malik)
20. Dadam qurgan dengiz. (Hakim Nazir)

4-sinfda o'quvchilar mustaqil O'zbekiston hayoti haqida „Istiqlolim-istiqbolim“ va „O'zbekiston - Vatanim manim“ ruknlari ostida berilgan ma'lumotlar orqali ko'plab bilimlar oladilar.

1. Manguga tatigulik kun. (Safar Barnoyev)
2. Iqboli buyuksan. (Abdulla Oripov)
3. Assalom Neksiya. (Abdulla Oripov)
4. Sog'lom avlod qo'shig'i. (Safar Barnoyev)
5. O'zbekiston. (Abdulla Oripov)
6. Serquyosh o'lka. (Zafar Diyor)
7. Toshkentnoma. (Maqsud Shayxzoda)
8. Dehqonbobo va 12 bolakay qissasi. (Abdulla Oripov)
9. Mardlik va aql yorug'lig'i. (Mahmud A'zam)
10. Xalq. (Cho'lpon)
11. Xarita. (Normurod Norqobil).

Bu sinflarda berilgan materiallar bolalarning vatanimiz O'zbekiston haqidagi, uning mehnatsevar xalqi hayoti hamda turli sohalarda erishgan yutuqlari haqidagi tasavvurlarini umumlashtirish va kengaytirishga imkon beradi. Bo'limda kelajakda bolalarni vatanparvar, insonparvar, mehnatsevar, ma'naviyatli, o'z ona tilini qadriga yetadigan, uni hurmatlaydigan, boyligini yaxshi tushuna oladigan, bizning ishonchimiz va kelajagimiz, bugungi va ertangi kunimizni hal qiluvchi kuchga ega bo'lgan komil insonlar qilib tarbiyalashga xizmat qiladigan asarlar kiritilgan. Bo'limda berilgan asarlarni o'rganish orqali o'qituvchi bolalarga quyidagicha fikr hosil qiladi: O'zbekiston mustaqil davlat deb e'lon qilinganidan so'ng O'zbekistonda yashovchi xalqlarning hayotida o'zgarishlar ko'p bo'ldi. 1991-yil 31-avgustda O'zbekiston Respublikasining mustaqilligi kuni deb e'lon qilindi. 1991-yil 1-sentyabr O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligi kuni deb belgilandi, 1991-yildan boshlab 1-sentyabr Mustaqillik bayrami va dam olish kuni bo'lib qoldi degan fikr hosil qiladi. Shu bilan birga bolalar mustaqillik bizga nima berganligini, mustaqil O'zbekiston ramziy belgilari; gerb, bayroq, madhiya, millit valyuta haqida tushuncha hosil qiladilar. O'zbekiston mustaqilligini saqlab qolish uchun o'z vazifalarini bilib oladilar. Bu bo'limda o'zbek xalqining uzoq tarixga ega ekanligi va al-Beruniy, al-Farobiy, al-Xorazmiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi buyuk allomalari bilan jahonga tanilganligini o'rgatiladi.

O'qituvchi bu darslarda faqat shular bilan cheklanib qolmasdan, navqiron avlodni milliy qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularga zamonaviy bilimlarni egallashlari uchun har tomonlama ko'maklashishi, g'amxo'rlik qilishga e'tiborni yanada kuchaytirishi zarur.

–Yoshlarimiz, bolalarimiz ayni kunlarda biz kimmiz, qanday buyuk zotlar avlodimiz degan fikrlarni yana bir bor xayolidan o'tkazib, shu haqda chuqurroq o'ylamog'i lozim-dedi Prezidentimiz I.A.Karimov o'z asarlarida.

Ota-bobolarimiz bugungi hayotimiz uchun, yurtimizning erkin va ozod bo'lishi, odamlarimizning farovon va munosib hayot kechirishi uchun xalqimizning or-nomusini himoyalash, Vatanimizning shonu shuhratini yuksaltirish uchun qanday mashaqqatli kunlarni boshidan kechirgani, shu yo'lda jonini fido etib, qahramonlik ko'rsatgani yoshlarimizning yuragidan joy topsa va ular o'zlariga savol bersa: ota-bobolarimiz el-yurt uchun shunday katta xizmat qilgan bo'lsa, mening ham bu ulug' ishlarga o'z hissamni qo'shishga qurbim-qudratim yetadimi?

Ular boshlagan ishlarni davom ettirish xalqimizning ezgu maqsadlarga erishish uchun munosib farzand, munosib o'g'lon bo'lishga tayyormanmi, degan fikrlarni uyg'otib borish kerak.

Darhaqiqat o'quvchilar ongiga mustaqillik bizga nima berdi, deb emas, balki, men bu ona Vatanimga nima berdim, mustaqilligimizni mustahkamlash uchun kelajakda qanday inson bo'lishim kerak degan ruhda tarbiyalashimiz kerak. Bizning oliy maqsadimiz mustaqilligimizni yanada mustahkamlash ekan, bu yo'lda jonini ham fido qila oladigan insonlarni tarbiyalab, voyaga yetkazishimiz har birimizning muqaddas burchimizdir.

SHARQ QAHRAMONLARINING BOLALAR TARBIYASIDAGI O'RNI

Abdullayeva N.M.

*NamDU BTM kafedrası
o'qituvchisi.*

Ma'naviyat – milliy o'zlikni anglash, millat tarixi, axloqiy va diniy qadriyatlarni, an'ana va urf – odatlarni, milliy mafkura, insonparvarlik, xalqparvarlik kabi juda ko'p omillarni o'z ichiga olgani holda inson shaxsini belgilashda asosiy mezon hisoblanadi. Ma'naviyat, avvalo, ona Vatanga, muqaddas zaminga bo'lgan muhabbat, ajdodlar ruhi va madaniyatini qadrlashdan turli millatlarning an'analari, rasm-rusmlarini hurmat qilishdan, o'z o'tmishi, buguni va kelajagi bilan faxrlanishdan, Vatan ravnaqi, xalqning faravonligi uchun fidokorona mehnat va ijod qilishdan boshlanadi. O'zbek xalqiga xos bo'lgan odamgarchilik, mehmondo'stlik, ma'rifatparvarlik, kamtarlik, hayo, ibo kabi mukammal fazilatlar sohibi bo'lish ham aslida ma'naviyat belgisidir. Ana shunday insoniy fazilatlar egasi bo'lgan jur'atli, mustaqil fikrlaydigan insonni tarbiyalash bugungi kunda eng dolzarb vazifadir.

Ma'lumki, insonning axloqiy, ma'naviy va jismoniy jihatdan sog'lom bo'lishi jamiyat ma'naviyatining taraqqiy etishiga asos bo'ladi. Insonning jismoniy, ruhiy, ma'naviy jihatdan sog'lom bo'lishida u egallagan bilimning ahamiyati nihoyatda katta. Inson aql-idroki tufayli istak va tuyg'ularni boshqara oladi, oldiga qo'ygan maqsadga, baxtga erishadi. Shu ma'noda farzandlarimizni tarbiyalash ajdodlarimizga ham bog'liq. Aslini olganda, o'zbek buyuk allomalarga voris. Ana shu bebaho merosni yosh avlodga tanitish, ulardan ibrat olishga o'rgatish o'qituvchining vazifasi, qolaversa, oilaning ham sharaflı burchidir. Bu borada o'rgatilayotgan asarlardagi qahramonlar bolalar tarbiyasida ibrat namunasi bajaradi. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'qish kitoblarida berilgan asarlar bolaning ilk ma'naviyatini shakllantiradi, asar qahramonlariga baho berishni o'rgatadi. Qahramonlardan yaxshi xislatlarni o'rganadi. Shuning uchun o'qish darslarini o'tishda zamonaviy usullardan foydalanish yaxshi natija beradi.

4-sinf o'qish kitobida «To'maris» hikoyasi berilgan. Shu asarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida loyihalashtirishga harakat qilamiz.

Mavzu : «To'maris» hikoyasi. N. Sodiqov.

Darsning maqsadi:

Ta'limiy:

Mashg'ulot davomida o'quvchilarning ifodali o'qish malakalarini oshirish, og'zaki nutqini o'stirish, ajdodlarimiz haqida atroflicha tushuncha berish.

Tarbiyaviy:

Vatanga sadoqatli farzandalar bo'lib kamol topishga, To'marisdek jasur bo'lishga, Sharq qahramonlaridan ibrat olishga o'rgatish.

Rivojlantiruvchi:

O'quvchilarni mustaqil fikrlash qobiliyatini, o'z fikrini erkin bayon etish malakalarini rivojlantirish, xotirasini mustahkamlash.

Darsning turi:

Yangi bilim beruvchi

Darsning uslubi:

Guruhlarda ishlash, tizimli o'qitish, multimedia, "Klaster" bosqichlarida interfaol usullarini o'z o'rnida qo'llash.

Texnika vositalari: Kompyuter, multimedia, mavzuga oid disklar.

Dars jihozi: Har bir guruh va o'quvchi uchun emblemalar.

Darsning borishi:

1. Darsni tashkil qilish. Navbatchining hisoboti. Ma'naviyat daqiqasini o'tkazish. Bu jarayonda qisqa suhbat uyushtirish.

O'qituvchi: Bolajonlar hozir qaysi darsni o'tamiz?

O'quvchilar: O'qish darsini. Ekranida o'qish so'zi hosil bo'ladi. O'quvchilar «Massagetlar», «To'maris», «Sarkarda», «Fors» kabi guruhlariga bo'linadi.

Ular guruh nomini anglatuvchi emblemalarni chap ko'ksilariga taqib oladilar. Guruh nomlari va sardorlari bilan tanishtiriladi.

O'quvchi guruhlar amal qilishi kerak bo'lgan «Oltin qoidalar»ni yana bir bor eslatadi va doskaga intizom, o'zaro hurmat, faollik, vaqtga rioya qilish, o'zgalari fikrini takrorlamaslik, to'g'ri javob uchun rag'bat kabi qoidalar yozilgan ko'rgazma (plakat)ni ilib qo'yadi.

O'qituvchi: Bolalar, bugungi darsda men sizlarga mavzu yuzasidan turli topshiriqlar, topshiriqlarni bajarishga qarab guruhlariga «Rag'bat», «Jarima» so'zlari yozilgan doirachalar berib boraman. Dars so'ngida guruhlarning qo'lga kiritgan doirachalari hisoblab chiqiladi.

Qaysi guruh «Rag'bat» doirachasini ko'p yig'sa, o'sha guruhni g'olib hisoblanadi.

«Rag'bat» doirasini yashil rangda, «Jarima» doirasi esa sariq rangda bo'ladi.

O'qituvchi 1-topshiriqni e'lon qilishdan oldin o'tgan darsda uyga qaysi vazifa berilganini so'raydi.

O'quvchilar uyga vazifa qilib berilgan «Tinchlik nima?» she'ri yuzasidan savollarga javob berish, deydilar. Ekranida «Tinchlik nima?» degan yozuv paydo bo'ladi.

1-topshiriq. Guruh a'zolari navbat bilan ifodali qilib «Tinchlik nima?» she'rini o'qib beradilar. Guruhlarga mavzu yuzasidan bittadan savol beriladi.

O'quvchilarni diqqati ekrandagi savollarga qaratiladi:

1. Tinchlik so'zini siz qanday tushunasiz?

2. Odamlar nima uchun urushni yomon ko'radilar?

3. Jahonda tinchlik o'rnatish uchun kurashgan kishilardan kimlarni bilasiz?

Shartga ko'ra sardorlar o'zaro bellashadilar. Har bir sardor o'z guruhini nomiga moslab, kichik hikoya tuzadi va so'zlab beradi.

So'ng dam olish daqiqasi o'tkaziladi. Masalan: Tinchlik haqidagi qo'shiqlardan birini ijro etishlari mumkin.

O'qituvchi:

Bolalar siz kuylagan qo'shiq muallifi kim? O'quvchilar tomonidan javob beriladi.

Yangi mavzu bayoni.

Bugun o'tishimiz kerak bo'lgan mavzu «To'maris» hikoyasi. Bu hikoya N.Sodiqov tomonidan yozilgan. Yozuvchi ushbu hikoyasida fors va massagetlar haqida ma'lumot beradi. Fors hukmdori Kurush hamda massagetlar malikasi To'maris orasida bo'lib o'tgan janglar haqida hikoya qiladi. Asarda yozilishicha, Kurush To'marisga uylanish maqsadida elchi yuboradi. Uning maqsadi malikaga erishish orqali yurtga va boyliklarga ega bo'lish edi. Malika rozi bo'lmaydi. Sizning sarkardangizga men emas yurtim kerak deb javob beradi. Bu javobdan g'azablangan Kurush mulozimlari bilan maslahatlashib To'marisga qarshi kurash boshlaydi. Biroq kurashda yengiladi. So'ng hiyla yo'lga o'tadi. Shu yo'l bilan To'marisni eng sara yigitlarini o'ldiradi. O'g'li Sparganiz ham halok bo'ladi. Shunda To'maris «Ey Kurush, - deya xitob qiladi atrofingdagilarga qarab, - sen mening quyoshimdan ayirding, yagona farzandimdan judo qilding. Mayli, men seni kechiraman, chunki yurtimda ortiqcha qon to'kilishini istamayman, men g'olib chiqdim deb ketaver. Agar yana urushni davom ettirsang, Tangri nomi bilan qasam ichamanki, men seni inson qoni bilan to'ydiraman», deydi. Kurush quloq solmay qayta urush boshlaydi. Biroq yana yengiladi. Halok bo'ladi. To'maris aytganini qilib, Kurushni tanasidan judo etilgan boshini qon to'ldirilgan meshga tashlaydi.²³

Shundan so'ng mavzu nomi, matni, muallifi haqidagi yozuv va hikoyaga ishlangan rasmlar namoyon bo'ladi. Bolalar hikoyani o'qiydilar.

O'qituvchi: Bolajonlar biz hikoya haqida eshitdik va o'qidik. Shundan kelib chiqqan holda men sizlarga savol beraman, siz esa to'g'ri va aniq javob berishga harakat qilasiz.

Savollar:

1.Forslar hukmdori Kurushga massagetlar hududidan qaytgan elchi nimalar to'g'risida hikoya qilib berdi?

1.Forslar massagetlar yurtiga nima maqsadda hujum qilishdi?

2.Kurush haqida fikringiz qanday?

3.To'marisni jasoratiga qanday baho berasiz?

Yangi mavzuni mustahkamlash:

Yangi mavzu bo'yicha javoblarni tinglab, kamini to'ldirib, o'qituvchi darsni mustahkamlaydi.

²³ Ibragimov S. Milliy o'yinlardan foydalanish // Boslang'ich ta'lim, 2007. - №.3. -B. 32.

O'qituvchi: O'quvchilar siz darsimiz orqali qaysi qahramonlar bilan tanishdingiz?

- Bu hikoyada qanday g'oya ilgari surilgan, nimani o'rgandingiz?

- Hikoya haqida fikringiz qanday?

Uyga vazifa:

1. Darsda olingan bilimlarni mustahkamlab kelish.

2. Qahramonlarga alohida-alohida tavsif berish.

3. Asar qahramonlariga, asarni o'ziga bag'ishlab rasm chizishga harakat qilish.

Dars yakunida guruhlarini olgan «Rag'bat», «Jarima» doirachalari hisoblanib, g'olib guruh e'lon qilinadi. Eng faol o'quvchilarga baho qo'yiladi.

Ekkranda uyga vazifa qilib topshiriqlar va: «Dars yakunlandi, hammaga rahmat!» – yozuv hosil bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, o'tmish ajdodlarimiz bilan faxrlansa arziydi. To'maris, Najmiddin Kubro, Sulton Mahmud, Beruniydek bobolarimiz borligining o'zi o'zbekning g'ururidir. To'marisni o'qiganimizda uning shijoatiga tan bermaslikni iloji yo'q. Najmiddin Kubro haqidagi rivoyatlarning o'zi bizga katta maktab. Komil insonni tarbiyalash g'oyasi buyuk ajdodlarimiz qoldirgan bebaho meroslarda ham muhim o'rin egallagan. Ushbu fikrning dalili sifatida XIII asrda yashab, ijod etgan Aziziddin Nasafiy shunday deb yozgan: «Bilginki komil inson shunday insondirki, unda quyidagi to'rt xislat kamolotga yetgan bo'lsin: yaxshi so'z, yaxshi fe'l, yaxshi axloq va maorif.»

Biz yoshlarni ma'naviy-axloqiy tomondan tarbiyalashda ya'ni kelajagi buyuk davlatning komil insonlari bo'lmog'imizda ajdodlarimiz qoldirgan boy ma'naviy hazina va qahramonlar timsolidagi hamda shaxsiy ibrat namunalari biz avlodlar uchun yo'lchi yulduzdir.

OILADA BOLALARNI MA'NAVY VA ESTETIK RUHDA TARBIYALASHDA OTA-ONANING O'RNI

Nuriddin Qirg'izov,

*Nam DU Boshlang'ich ta'lim
metodikasi kafedrası
o'qituvchisi.*

Bugungi kunda ta'lim-tarbiya jarayonining qonuniyatlariga to'xtaladigan bo'lsak, ular ta'lim-tarbiya jarayonining bir butun qilib turgan qismlari orasidagi zaruriy bog'liqliklardan biri hisoblanadi. Chunonchi ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi orasidagi ta'lim beruvchi bilan bog'liqlik, yoki ta'lim beruvchi bilan o'quv dastur orasidagi zaruriy bog'liqlik maqsadsli bo'lishi lozim.

Ulardan yoshlarga ma'naviy estetik g'oyalar, vatanparvarlik, do'stlik kabi ijobiy hislar bilan birga, salbiy harakatlarga nisbatan murosasizlik kabi insoniy fazilatlarni shakllantirishga va rivojlantirishga ijobiy ta'sir etadi. She'riy misralar sehrli ohanglar bilan yoritilgan qo'shiqdagi his-tuyg'ular inson qalbiga ezgulik va go'zallik hissiyotlarini uyg'otadi. Inson o'z tabiatiga ko'ra doimo pokizalik va go'zalikka intiladi. Shuning uchun pokizalik va go'zalikka intilish moyiligi bilan yashaydigan insonni yoshligidan boshlaboq ota-ona aql idrokli qilib tarbiyalashga, ulardagi iste'dodni ro'yobga chiqarishga imkon yaratish, ularni tasavvurlarini kengaytirib, ma'naviy barkamol qilib tarbiyalashdek vazifani to'laqonli bajarishda kompleks tarbiya muhim o'rin egallaydi.

Estetik tarbiya oiladagi farzandlarni ijtimoiy mehnat munosabatlaridagi mardlik, jasurlik, dovyuraklik va go'zallikni idrok etish salohiyatini kuchaytiradi. Ularda oilada, insonlarga umumiy holatda olganda xalq an'analari va tiliga, milliy madaniyatiga, san'atga va adabiyotga muhabbat tuyg'ularini o'stirish, ular bu xislatlari bo'yicha idrok etishlariga ko'maklashadi. Oilada farzand tarbiyasi ham, ana shunday tarbiya ko'rinishi bo'lgan estetik tarbiya orqali voyaga yetkazish zamon talabi hisoblanadi. Farzandni tarbiyalash murakkab va mashaqqatli ish hisoblanadi. Oilada farzandga tarbiya berish davomida estetik tarbiyani ko'rinishi bo'lgan kiyinish, muomala, o'zini tutish, uy ishlari kabi ko'rinishlariga jiddiy e'tibor berish talab qilinadiki, kelajakda bu bolalar oila rahbari ya'ni ota bo'lishadi.

Keltirilgan jumlar pedagogika sohasida amalga oshirilgan ilmiy ishlar asosan maktab pedagogikasiga bag'ishlangan bo'lib, ular faqat san'atning turli jarayonlari vositasida ahloqiy va estetik tarbiyaning yoritilishida ahamiyatli hisoblanadi. Oilaviy tarbiya muhitini to'g'ri tushunish, uni pedagogik muammo sifatida tadqiq etish imkoniyatini ochib beradi. Hozirgi kunda oila va oilaviy tarbiya, oilada nafosat tarbiyasi muammosi tadqiqodchilar, pedagog va psixologlar, tibbiyotchilar, faylasuflar va keng jamoatchilikni diqqatini tortgan dolzarb mavzudir.

Olimlarning olib borgan kuzatishlari natijasi shuni ko'rsatadiki, bola o'z ota-onasining xatti-harakatlarini butun hayoti faoliyati davomida kuzatib boradil. Shu tufayli narsa hodisalarga ta'sir qilishga qodir bo'lgan ob'yekti sifatida o'z-o'zini anglash boshlanadi. Oila shu tarzda bola uchun o'ziga xos "oyna" bo'lib xizmat qiladi va shunda o'z-o'zini ko'rish uchun unga qaraydi. Xuddi shu o'rinda ota-onaning shaxsiy namunasi bola tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham ota-onaning har bir xatti-harakati puxta o'ylangan va ma'lum bir maqsadga qaratilgan bo'lmog'i darkor. Ma'lumki, tarbiyaning boshlanishi, ibtidosi, o'zining nasl-nasabida meros sifatida o'tadigan dastlabki kurtaklaridan boshlanadi.

Respublikamiz Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov: "Oila hayotning abadiyligini, avlodlarning davomiyligini ta'minlaydigan, muqaddas urf-odatlarimizni saqlaydigan, shu bilan birga kelajak nasllar qanday inson

bo'lib yetishishga bevosita ta'sir ko'rsatadigan tarbiya o'chog'i ekanligini tan olishimiz darkor", deb oilaning doimo jamiyat e'tiborida bo'lishi zarurligini ko'p bor ta'kidlab o'tganlar. Oila boshlig'i sanalishi ota-onaning diqqat-e'tiborini axloq me'yorlari va qoidalari talabidan kelib chiqqan holda o'z farzandlarini to'g'ri shakllantirishga qaratiladi. Zero, hozirgi zamon oilasining eng muhim va asosiy vazifalaridan biri farzand ko'rish va barkamol inson qilib tarbiyalashdir.

Oilada farzand tarbiyasini yaxshi yo'lga qo'yish va ularga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishi uchun ota-onalarning yoki oilaning katta yoshdagi a'zolarining bolaga qo'yadigan talablari muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun har bir ota-ona yoshlarning, o'qishi kasb-hunarga, sport va san'atga havasini uyg'otish, tirli xil badiiy adabiyot va kitoblarni, gazeta va jumallarni muntazam o'qib borishini e'tiborga olish zarur.

O'g'il va qiz bolalar hayotda o'sib, ulg'ayar ekanlar, ularni hayotlarida o'z vatanlariga sodiq farzand, mard, jasur, vafodor va sadoqatli bo'lib ulg'ayishlarida ota-onaning tarbiyasi ahamiyatli hisoblanadi. Farzand tarbiyasi bilan muntazam shug'ullanishga ota-onalar ma'sul hisoblanadilar va ular beparvo bo'lmasliklari kerak. O'zbek xalqi qadimdan oilada farzand tarbiyasiga alohida e'tibor bilan qaragan. Jamiyat oiladan boshlanar ekan, bola tarbiyasiga alohida e'tibor berish jamiyat sofligini, tozaligini saqlaydi. Chunki farzandning ma'naviy-estetik ruhda tarbiyalanishi, hayoli, iboli bo'lishi har bir ota-onaning mahalla oldidagi obro'si masalasidir.

Tabiiyki, har bir ota-ona o'z farzandini hayoli, iboli va odobli qilib tarbiyalashni chin dildan istaydi. Avvalo o'zi tarbiya ijtimoiy hayot bilan bog'liq bo'lib, milliy ong va estetik didni shakllantirishga yordam beradi. Buning uchun: ota-onalar milliy tarbiyaning mazmunini kengaytirishda milliy va umuminsoniy qadriyatlardan keng ko'lamda foydalanadilar. Tarbiyalanayotgan farzandning atrof-muhitdan o'zlashtirayotgan ta'sir doirasini hisobga olishlari, oiladagi bolalarning tarbiyaviy darajasini o'rganib, unga ijobiy ta'sir o'tkazishlari, hayotiy tarbiya turlarini o'zaro tahlil etib, undan ijodiy foydalanishlari lozimdir. Oilada farzand tarbiyasi bilan nafaqat ota-onalar, balki maktab o'qituvchilari ham shug'ullanishlari kelajak hayotning rivojlanishidagi vazifalari ekanligini unutmashligimiz darkor.

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI MILLIY QADRIYATLAR RUHIDA TARBİYALASH

Bahromjon Abdurahmonov,

Nam DU.

Milliy ma'naviyatimiz qadriyatimiz nihoyatda buyuk kuchga ega ekanligiga shak shubha yo'q, albatta. Bu esa bizning milliy mafkuramizni yaratishga barcha O'zbekiston xalqidan faqat ma'naviy tiklanish va chinakam poklanishni talab etadi.

O'zbekistonning chinakam mustaqillikka erishishida va uni yanada rivojlanishida I.A.Karimov ta'kidlaganidek, avvalo, aholining milliy, tarixiy turmush va tafakkur tarzidan, oilaviy sharoitidan, xalq an'analari va urf-odatlaridan kelib chiqish lozim. Shu bois o'zbek xalqining kattalarni hurmat qilish, oila va farzandlariga g'amxo'rlik qilish, ochiq ko'ngilli, millatidan qat'i nazar odamlarga xayrixohlik munosabatida bo'lishi kabi qadriyatlarni o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki o'zbek xalqining o'z diyoriga ishtiyoqining bisyorligi, mehnatsevarligi, bilimga, ustozlarga nisbatan alohida hurmat-ehtirom ko'rsatishi sharq xalqlari, jumladan, o'zbek xalqiga xos xususiyatdir.

Shuning uchun ham muhtaram Prezidentimiz I.A.Karimov O'zbekistonning istiqbolini mustahkamlashda, eng avvalo, insonlarning ma'naviy-axloqiy va ma'rifiy qarashlarini shakllantirish, oilaviy tarbiyani mustahkamlash muhimligini uqitirib, ma'naviyat va axloqiylikni qayta tiklash, xalqlarning madaniy merosiga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish, insonparvarlik g'oyalari sodiqlik, xalqning milliy madaniyati va milliy tiliga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'lishi, har bir inson o'z e'tiqodi va diniga amal qilishi, o'zining diniy marosimlarini emin-erkin ado etish huquqiga ega ekanligi, ijtimoiy adolat qoidalarini ro'yobga chiqarish maqsadida keksalarga, nogironlar, yetim-yesirlar, ko'p bolali oilalarni himoya qilish, onalik va bolalikni himoya qilish, bolalar o'limini oldini olish, odamlar umrini uzaytirish kabi masalalarga e'tiborni kuchaytirish lozimligiga alohida e'tiborni qaratmoqda.

Ayniqsa, bugungi kun farzandlarda milliy tuyg'u, o'z xalqiga, uning an'analariga, milliy bayramlariga, til va madaniyatiga muhabbat va hurmatni milliy umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash, jamiyat ravnaqiga o'zining munosib hissasini qo'sha oladigan farzandlar qilib tarbiyalash kerak. Zero, bunday ma'naviy-axloqiy sifatlar dastlab oilada, ota-ona ko'magida shakllanishi hech kimga sir emas. Demak, bugungi kunda oilada ma'naviy-axloqiy tarbiyalash masalasiga e'tiborni qaratish - davr va bugungi kun turmush tarzi taqozosidir. Shuning uchun ham oilada bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash muammosi dolzarb masalalardan biri sifatida e'tirof e'tilmoqda. Shu ma'noda oilaviy tarbiya muammosini ijobiy hal etish oilada bolalar salomatligini

mustahkamlash yoki yosh oilalar mustahkamligni ta'minlash maqsadida davlat ahamyatiga molik qator tadbirlar amalga oshirildi va oshirilishi mo'ljallangan. Jumladan, YuNESKOning qaroriga binoan 1994-yil «Oila yili» deb e'lon qilindi. Respublikamizda xalqimiz, farzandlarimiz istiqbolini o'ylab «Sog'lom avlod uchun» orderni ta'sis etildi. «Mahalla jamg'armalari» tashkil etildi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda aynan shu bugungi yoshlar tarbiyasida ko'pgina muammolarni hal etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zero, Markaziy Osiyodadi musulmon etikasining noyob namunalari bo'lgan bunday asarlar yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda asosiy mezon, qoida, qo'llanma, nasihatlardan iborat pandnomalar sifatida xizmat qilishi shubhasizdir. Ayniqsa, bu borada Yusuf Xos Xojibning «Qutadg'u bilig», Shayx Sa'diyning «Guliston», «Bo'ston», Abdurahmon Jomiyning «Bahoriston», Alisher Navoiyning «Mahub ul-qulub», Kaykovusning «Qobusnoma», Husayn Koshifiyning «Axloqi Jomiy», Muhammad Sodiq Qoshg'ariyning «Adab as-solih» kabi asarlari o'zbek milliy axloqini, ma'naviyatini, qadriyatini yuksaltirishda katta ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda oilada boshlang'ich sinf o'quvchilarini ma'naviy-axloqiy jihatidan tarbiyalash masalasi nafaqat bizning Respublikamizda, balki butun jahonda dolzarb mavzu sifatida qaralmoqda.

Har bir inson yashab turgan Vatanini, kindik qoni to'kilgan tuprog'ini sevadi, uni ko'z qorachig'idek asrab-avaylaydi. «Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir» deb be'jiz aytishmagan donishmandlarimiz. Dunyoda Vatan haqida kuylamagan shoirning o'zi yo'q. Ammo Vatanini pulga, mol-dunyoga almashtirgan, Vatanini sotgan xoinlar haqida eshitganmiz, ba'zan guvohi ham bo'lganmiz. Bunday kimsalar boshqa yurtlardan kelganlari yo'q. Ular oramizda yashab, bir ariqdan suv ichgan, bir havodan nafas olgan, bir Vatanda, bir shahar yoki qishloqda biz bilan birga yashagan inson edilar. O'sha kimsalarni 7-8 yoshlarida qanday jajji, shirin, quvnoq bolakay bo'lganliklarini ko'z oldingizga keltirib ko'ring. Katta bo'lgach, qo'llariga qurol ushlab, o'z Vatamlariga bostirib kirishni xayollariga ham keltirmagan edilar-ku. Xo'sh, unda nega ular bunchalik yovuz kimsalarga aylanib qolishdi?

Nazarimda, o'sha insonlarni yoshligida tarbiyalay olmagan, qalblariga ezgulik urug'larini qaday olmagan, millatidan faxrlanish, milliy ozlikni anglash, milliy bayramlaridan g'ururlanish, buyuk ajdodlar avlodi ekanligini his qilish kabi tuyg'ularni singdira olmagan, yosh avlod tarbiyasiga panja ortidan qaragan, o'z ishiga mas'uliyatsizlarcha yondashgan boshlang'ich sinf o'qituvchilarining aybi nihoyatda kattadir.

Prezidentimiz I.A. Karimov: «Vaholanki, bolaning dunyoqarashi, didi, salohiyati shakllanadigan boshlang'ich sinflarga eng yetuk, eng tajribali

murabbiylar biriktirib qo'yilishini oddiy mantiqning o'zi talab etadi", deb bejiz aytmagan²⁴.

Haqiqatdan ham muhtaram Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida hozirga qadar oliy ma'lumotga ega bo'lmagan, boshlang'ich sinf o'quvchilariga dars berish uchun to'laqonli huquqqa ega bo'lmagan, pedagogika bilim yurtlarini tamomlagan, tajribasiz <<boshlang'ich sinf>> o'qituvchilari dars berib kelmoqdalar. Bu esa, tabiiyki, kelajagimiz bo'lmish yosh avlodga ta'lim-tarbiya berishda, ularni komil inson qilib tarbiyalashda o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatib kelmoqda.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini Vatanga bo'lgan cheksiz muhabbat ruhida tarbiyalash, milliy bayramlarimiz, milliy urf-odatlarimiz va qadriyatlarimizni o'rganishga, asrab avaylashga bo'lgan munosabatlarini shakllantirish hamda rivojlantirish kabi muhim vazifalar boshlang'ich sinf o'qituvchilari zimmasiga katta mas'uliyalar yuklaydi.

Ota-bobosi, avlod-ajdodi kim ekanini bilish, xalqini, millatini tanish, o'z xalqi

tarixini chuqur o'rganish, millatidan faxrlanish kabi tushunchalarni yoshlar ongiga singdirish eng muhim vazifalardan hisoblanadi. A.Navoiy, Z.M. Bobur, A.R. Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Al-Xorazmiy, Mashrab, M. Behbudiy, A. Avloniy kabi ko'plab ulug' allomalar yetishib chiqqan millat vakili ekanligimizni doimo his qilib yashashimiz va bu tuyg'uni yoshlar ongiga singdirib borishimiz lozimdir.

Xo'sh, milliy qadriyatlar deganda nimani tushunamiz? Avvalo, ushbu savolga javob izlab ko'raylik. O'zbek xalqi qadimdan ardoqlab kelgan, avloddan avlodga o'tib kelayotgan milliy qadriyatlar juda ko'p. Masalan:

Urf-odatlar;

Milliy bayramlar;

Oila madaniyati;

Tibbiy qadriyat;

Ma'naviy qadriyat;

Muomala madaniyati;

Kiyinish madaniyati;

Bundan tashqari, o'tganlarni xotirlash, g'arib, beva-bechora va yakka-yolg'iz yashayotgan qariyalar, kasal yotgan qarindosh-urug', qo'ni-qo'shnilar holidan xabar olish, to'y qilayotgan, uy qurayotgan yaqinlarimizga yordam qilish, hashar yo'li bilan uylar, gularlar, bog'-rog'lar barpo qilish, shanbaliklar uyushtirish va unda faol ishtirok etish kabi bir qancha milliy qadriyatlarimiz avloddan avlodga o'tib kelmoqda.

O'zbek xalqining uzoq tarixga ega bo'lgan juda ham ajoyib va xilma-xil urf-odatlarini mavjud. Kundalik hayotimizga aylanib qolgan, odat tusiga kirib

²⁴ Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. - Toshkent: Sharq, 1999. - 13-bet.

qolgan va barcha unga amal qilishga ko'nikib qolgan marosimlar - urf-odatlar hisoblanadi. Masalan, xonadonda farzand tug'ildi deylik. Shundan keyin o'tkaziladigan quyidagi urf-odatlarni birma-bir sanab o'tamiz: Farzandga ism qo'yish, ism qo'yish, katta qozonda osh damlab, yurtga osh berib, «Aqqa» to'ylarini o'tkazish, chaqaloq uchun «Besh kecha» «Ko'rmana», «Yo'qlov», «Soch olish», yura boshlaganda oyog'ining orasiga qadoqlangan choy otish, o'g'il farzand uchun «Xatna» to'yi qilish va «qo'lini halolash» deb nomlangan marosimlar o'tkazish ham urf-odatlarimizga aylanib qolgan. O'g'il farzandni uylash, uyli-joyli qilish, ro'zg'orini ajratib berish, qiz farzandni esa munosib kuyovga uzatish kabi marosimlarimizning har birining o'zida ko'plab bir-birdan qiziq urf-odatlarimiz mavjuddir.

Tug'ilish borki, o'lim bor. Shu sababli har bir xonadonda o'lim bilan bog'liq sovuq marosimlar ham xalqimiz tomonidan zo'r uyushqoqlik bilan o'tkazilib kelinmoqda. Hatto birov vafot etsa, vafot etgan marhumni tanimagan odamlar ham tasodifan ta'ziya ustidan chiqib qolishsa, odamlar orasiga qo'shilib, jamoza namozlarini o'qishadi va agar vaqtlari bo'lsa, marhumni qabrgacha kuzatib kelishadi. Bu, albatta, insoniylik, oxiratni o'ylash, marhumni so'nggi yo'lga kuzatib qo'yishlik kabi fazilatlarini o'zida mujassamlashtirgan eng buyuk qadriyatlarimiz ekanligidan dalolat beradi.

Milliy qadriyatlarimiz ichida yuksak qadr-qimmatga ega bo'lgan oila madaniyati o'ziga xos o'rin egallashi hech kimga sir emas. Oila xalqimizda muqaddas dargoh sanaladi. Shu sababli yoshlarning oila qurishlariga juda katta ahamiyat beriladi. Kelin qilib olib kelinayotgan qizning yetti pushtini so'rab surishtirish, oilada olgan tarbiyasiga, muomala va kiyinish madaniyatiga e'tibor qaratish sovchilarning muhim vazifalari hisoblanadi. Bo'lajak kuyovning ham yetti pushtini so'rab-surishtirish, oilada olgan tarbiyasi, muomala va kiyinish madaniyatini aniqlash bilan birga kasb-kori, oilani boshqara olishi, ro'zg'orni tebrata olishiga katta urg'u berishgan.

Oilada ota oila boshlig'i hisoblanadi. Shu sababli otaning o'rni oilada beqiyos. Har bir bahs-munozarada yoki masalada so'nggi hal qiluvchi so'z otaga beriladi. Otaning har qanday fikriga oila a'zolari hurmat bilan qarashadi. Oilada oila a'zolari o'zaro bir-birlarini hurmat qilishlari, bir-birlariga ko'maklashishlari, bir-birlarining hollaridan xabar olib turishlari ham oilaning muqaddas qadriyatlaridan sanaladi. Bu tushunchalarni boshlang'ich sinf o'quvchilariga tushuntirish, ular ongiga singdirib borish, ularning kelajakda katta hayotga qadam qo'yganlarida juda muhim ahamiyatga ega ekanligi, ularni komil inson qilib tarbiyalashda muhim omil vazifasini o'tashi biz o'qituvchilarning yodidan chiqmasligi zarur, deb hisoblayman.

Tibbiy qadriyat xalqimiz tarixida uzoq yillardan beri saqlanib kelayotgan eng qadimiy qadriyatlarimizdan biri hisoblanadi. Doimo pok yurish, pok kiyimlar kiyish, tirnoqlarni haftada bir marta olish, soch parvarishiga e'tibor berish, uni o'z vaqtida yuvib turish va shaxsiy gigiyenaga amal qilish har bir

insonning doimiy ravishda amal qilishi kerak bo'lgan vazifasiga aylangan. Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi ushbu tibbiy qadriyatlarimizni yoshlar ongiga singdirib borishi lozimdir. Qadim-qadimdan bolalarga suvni iflos qilmaslik, suvga axlat tashlamaslik, yomon yoki iflos narsalarni ushlamaslik, yuz-qo'lni tez-tez sovun bilan yuvib turish, qabristondan chiqqach yuz-qo'lni darhol yuvib yuborish kabi pand-nasihatlar berib borishgan va bu bilan yoshlar ongiga tibbiy qadriyatlarimizga oid tushunchalarni singdirib borishgan.

Ma'naviy qadriyatlarimiz deganda, biz ota-bobolarimizdan qolgan boy ilmiy va adabiy asarlar, tarixiy obidalar va yodgorliklarni tushunamiz. Bular bizning ma'naviy boyliklarimiz va qadriyatlarimiz hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ota-bobolarimizdan qolgan boy ilmiy va adabiy asarlar, tarixiy obidalar va yodgorliklarni chuqur o'rganishga, uni asrab-avaylashga o'rgatishimiz lozim bo'ladi. Barkamol avlod tarbiyalash insoniyatning eng yorqin orzusi bo'lib kelgan. Biroq dunyo xalqlarining barchasi ham bu haqda o'ylayvermagan. Bunday orzudagi insonlar azaliy ma'rifatga, madaniyatga mansub bo'lgan yurtlarning donishmandlari – eng mo'tabar ziyolilari, hukmdorlari hisoblanganlar. Ularning orasida O'zbekiston deb atalmish muazzam zaminimizda yashagan bobolarimizning o'z o'rni, hurmati bor. Bu jahon hamjamiyati tomonidan qabul qilingan haqiqatdir²⁵. Shunda ular ota-bobolarining o'tmishda buyuk inson bo'lib o'tganliklarini tushunadilar. Ularning qalbida ota-bobolaridan, avlod-ajdodlaridan faxrlanish tuyg'ulari jo'sh uradi. Shunda biz yoshlar qalbida milliy g'urur degan tushunchani shakllantirgan bo'lamiz.

Boshlang'ich ta'lim jarayonida ta'lim - tarbiya ishlarini samarali yo'lga qo'yish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Ayniqsa, milliy g'urur tuyg'usini shakllantirish vazifasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'quvchilarda milliy g'urur tuyg'usini shakllantrish ularda vatanparvarlik, insonparvarlik, o'z xalqi, millatiga bo'lgan hurmat-e'tiborni shakllantrishga ham xizmat qiladi.

Milliy g'urur - bu o'z Vatani, xalqi va ajdodlarining ezgu amallari bilan faxrlanish tuyg'usidir. Bunday faxr va iftixorga ega bo'lish uchun, albatta, milliy ana'nalarimiz, tarixiy obidalarimiz, buyuk ajdodlarimiz va ular bizga qoldirgan ma'daniy meros bilan o'quvchilarni tanishtirib borishimiz lozim. Bunda, albatta, o'qish darslari alohida o'rin tutadi. Chunki o'qish fani dasturi va o'qish kitobi darsligada berilgan materiallarning asosiy qismi yurtimiz va uning tarixiy obidalarini, buyuk ajdodlarimiz qoldirgan ma'naviy merosni ifodalovchi materiallar berilgan bo'lib, ularning har biri alohida muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega.

O'qish darslarida milliy g'ururni shakllantirish yuqorida keltirib o'tilgan materiallar asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. Ulardan foydalanib, biz o'quvchilarni milliy g'urur tuyg'usini shakllantirish, fikrlarini to'g'ri

²⁵ Karimov I A. Barkamol avlod orzusi. - Toshkent: Sharq, 1999. -86-bet

yo'naltirishimiz kerak bo'ladi. Buning uchun o'quvchilarni fikrlashga, xulosa qilishga o'rgatib borishimiz lozim.

O'qish kitobi darsligida berilgan materiallar ichida har bir sinf o'quv dasturiga kiritilgan O'zbekiston, ona vatanni o'rganishga oid bo'limlar orqali biz o'quvchilarda vatanparvarlik, milliy g'urur tuyg'ularni tarbiyalab boramiz.

O'quvchilar har bir sinfda ona Vatanni, uning mustaqilligi, buyuk ajdodlarimiz, poytaxtimiz, uning diqqatga sazovor tarixiy obidalari, sanoat va ishlab chiqarish korxonalariga oid ko'plab mavzular bilan tanishtirilib borilar ekan, ularni barpo etishda kimlar ishtirok etganligi, qanday qiyinchiliklar bilan erishilganligi haqida ham o'qituvchidan ma'lumot oladilar. O'quvchilar o'zbek ipagi, o'zbek paxtasi, o'zbek mashinasi kabi tushunchalar mohiyatini, har bir mamlakatni o'zi ishlab chiqargan mahsulot bilan faxrlanishi, bizning yurtimiz ham ishlab chiqarish sohasi bo'yicha juda keng imkoniyatlar egasi ekanligi, kelajakdagi yurtimiz taraqqiyoti va rivojlanishi uchun o'quvchilar yuqoridagi bilimlarni yaxshi egallagan holda o'z hissalarini qo'shib borishlari lozimligi o'quvchilarga turli misollar bilan tushuntiriladi.

TIL TA'LIMI – MILLIY G'OYA TARG'IBOTIDA ASOSIY VOSITA

*Zayniddinova Zulayho,
O'zbek tili yo'nalishi
2-bosqich magistranti.*

Milliy g'oya targ'ibotida milliy manfaatlarimizga, hayot tarzimizga zid bo'lgan zararli g'oyalalar va mafkuraviy xurujlarning mohiyatini ochib berish, fuqarolarimiz, ayniqsa, yoshlarimiz qalbida milliy tafakkur va sog'lom dunyoqarash asoslarini mustahkamlash, ularni ongli yashashga, o'z fikriga ega bo'lishiga, turli ma'naviy tajovuzlarga qarshi sobit tura olishga qodir, irodali, fidoiy va vatanparvar insonlar qilib tarbiyalashga yo'naltirish kabi ishlar muhim hisoblanadi. Bu borada mazkur ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

1. Yoshlar va keng jamoatchilik o'rtasida milliy g'oya targ'ibotiga joriy etilgan samarador ilmiy va uslubiy ishlarni saralash, ularni ommalashtirish.
2. Ma'naviy tarbiya, milliy g'oya targ'iboti bilan shug'ullanayotgan ziyoli, olim, pedagog va mutaxassislarning ilmiy-nazariy ishlarini, ilg'or tajribalarini ommalashtirish.
3. Joylardagi milliy g'oya targ'ibotiga mas'ul mutaxassislarning ilmiy-uslubiy faolligini oshirish.
4. Milliy g'oya targ'ibotida tarixiy merosdan foydalanish.
5. Milliy g'oya targ'ibotida davlat hamda jamoat tashkilotlari faoliyatini uyg'unlashtirish.

6. Milliy g'oya targ'iboti va tashviqotida axborot hamda pedagogik texnologiyalarni qo'llash.

7. Dunyodagi mafkuraviy jarayonlarni o'z vaqtida tahlil qilib borish.

Yuqoridagi ishlarni samarali yo'lga qo'yishda til ta'limining ham o'ziga xos o'rni bor. Ma'naviy qadriyatlarimiz haqida Prezidentimiz shunday deydi: «Biz sharqona tarbiya ko'rganmiz, o'z odatlarimiz, an'alarimiz, o'z betakror insoniy tabiatimiz mavjud. Ayting-chi, bizdagiday rang-barang, insonparvar qadriyatlar yana qayerda bor? Andisha, muruvvat, mehr-oqibat, oriyat, ibo va hayo, mulozamat degan so'zlarni boshqa bir tilga tarjima qilish mumkinmi? Xalqimizning insoniy fazilatlarini o'zida namoyon etadigan bunday atamalarni bir-bir sanab, yuzlab misollar keltirish mumkin». Ana shunday fikrlardan kelib chiqilsa, milliy g'oyani farzandlar ongiga singdirishda ona tili ta'limi nechog'lik katta imkoniyatlarga ega ekanligi yanada ravshanlashadi. Til va millat, til va xalq, til va tafakkur borasidagi fikrlarga Yurtboshimiz to'xtalib, «Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Men bu masalani alohida ta'kidlab aytayotganim bejiz emas. Ona tili – bu millatning ruhidir. O'z tilini yo'qotgan har qanday millat o'zligidan judo bo'lishi muqarrar», - deb jon kuydiradi.

«Til millatning ulkan boyligi va bebaho mulkidir» deyiladi O'zbekiston Respublikasining davlat tili haqidagi Qonunida. Ta'lim bo'g'inlarida davlat tili sanalgan ona tilining alohida o'rni bor. Ona tili hayotni bilish, yoshlarda axloqiy tushunchalarni shakllantirish, yosh avlodning shaxsiy sifatlarini tarbiyalash vositasi bo'lib xizmat qiladi. Ona tili mazkur tilning egasi bo'lgan xalqning tarixi, madaniyati, urf-odati, adabiyoti hamda san'atini bilish, o'rganish vositasi hamdir. Ona tili o'quv fanlarining asosidir. Ona tilini o'rganish juda katta ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi ahamiyatga ega. Shaxsning tarbiyalanganlik darajasi ham tilni bilish bilan belgilanadi. Jamiyat rivojlangan sari ona tili o'qitishning maqsad va vavzifalari ham takomillashib boradi. Ona tili ta'limi o'z oldiga yoshlarda mustaqil va ijodiy fikrlash, og'zaki hamda yozma nutq ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish, ularda til sezgirligini tarbiyalash maqsadini qo'yadi.

Ta'lim maskanlarida ona tili ta'limiga alohida e'tibor qaratilishini nazarda tutsak, milliy g'oya targ'ibotida til mashg'ulotlaridan unumli foydalanish mumkinligini ko'ramiz. Matn ustida ishlash, mashq bajarish, ijodiy insho yozish, kichik bog'lanishli matn tuzdirish kabi ijodiy ishlarda milliy istiqloq g'oyasini singdirish amalga oshiriladi. Ona tili darslarida ham Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig», Sa'diyning «Guliston», A.Avloniyning «Turkiy guliston yoxud axloq», A.Navoiyning «Mahbub ul-qulub», Kaykovusning «Qobusnoma» asarlaridan, Amir Temur o'gitlaridan, Ahmad Yassaviy hikmatlaridan unumli foydalanish mumkin. Mavzu asosida ulug'allomalarimizning hikmatli so'zlaridan misollar, asarlaridan iqtibos keltirish orqali yoshlarni milliy qadriyatlarimiz ruhida tarbiyalab, ularni tilimizni,

dinimizni, oʻtmish madaniyatimizni ulugʻlash, oʻzligimizni anglash, kelajakka ishonch bilan qarash, vatanni, hayotni sevish tuygʻulari shakllantiriladi. Bu oʻrinda maʼrifiy matnlardan foydalanish ham mumkin. Matnlarda oʻz ifodasini topgan umuminsoniy qadriyat – tinchlik, vatanparvarlik kabi gʻoyalari yoshlar uchun notanish tushunchalar emas. Lekin bugungi kunda uni asrashning nechogʻlik mushkullashib borayotganligi, yer yuzida xalqlarni tashvishga solayotgan xalqaro terrorizmning yovuzliklaridan xabardordir. Matnni oʻqigan oʻquvchi qalbini ana shu oʻylar tugʻyonga keltiradi. Bu oʻrinda parcha oʻqilgandan keyin, darhol mazmuni yuzasidan suhbat oʻtkazish hamda matnni kengaytirish topshirigʻini berish mumkin.

- Milliy istiqlol va millatning oʻzligini anglashga yordam beruvchi, ulardagi milliy ruhiyatni shakllantiruvchi bayramlar – mustaqillik kuni, Oʻqituvchilar va murabbiylar kuni, Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan oʻquvchilarga ogʻzaki va yozma matn tuzdirish, unda milliylik va mustaqillik uchun jon kuydirgan minglab oʻzbek farzandlari haqida fikr bildirish kabi topshiriqlar berish;

- Mustaqillik yillarida Bahovuddin Naqshband, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Ahmad Fargʻoniy, Amir Temur, Mirzo Ulugʻbek, Jaloliddin Manguberdi kabi milliy qahramonlarimizning ibratli hayoti, ularning ozodlik toʻgʻrisidagi gʻoyalari milliy gʻoya va istiqlol mafkurasining teran tomirlari ekanligini hisobga olgan holda kichik axborotlar tayyorlash, ijodiy matnlar: diktant, bayon, insho matnlarini ularning oʻzlariga tuzdirish;

- Xalqimizga xos boʻlgan iymon-eʼtiqod, insof-diyonat, saxovat, halollik, mehr-oqibat, sharmu hayo kabi fazilatlarini mustahkamlashga xizmat qiladigan maqollarni yod oldirish, ularga sharhlar berish, soʻngra matn tuzish ham yoshlarning mustaqil dunyoqarashi, erkin tafakkurini shakllantiradi.

Demak, milliy gʻoya targʻibotida milliy istiqlol gʻoyasining asosiy tushuncha va tamoyillarini yosh avlod qalbiga va ongiga singdirishda boy va goʻzal ona tilimizning imkoniyatlari kattadir.

JAHOLATGA QARSHI MA'RIFAT BILAN

Abdullayev Akmal,

NamDU Ijtimoiy-iqtisodiy fakulteti Milliy g'oya, ma'naviyat va huquq asoslari kafedrasida katta o'qituvchisi.

Karimberdiyev Muhiddin,

NamDU Ijtimoiy-iqtisodiy fakulteti Tarix yo'nalishi.

Xalqimizning tabiatiga mutlaqo yot bo'lgan siyosiy, diniy ekstremizm, aqidaparastlik va boshqa yovuz oqimlarning mintaqamizga kirib kelishi va tarqalishi tinchlik va osoyishtalikka, farzandlarimizning kelajagiga katta xavf tug'dirishini odamlar ongiga chuqur singdirib borish kerak. Xalqimiz tafakkurida yuksak axloqiy, ma'naviy qadriyatlarni qaror toptirish va mustahkamlash orqali ularni yovuz kuchlarga qarshi kurashga safarbar etish zarur.

Islom Karimov

«Ekstremizm» so'zi asli fransuzcha-lotinchadan kelib chiqqan bo'lib, keskin fikrlashning bildirilishi va qattiq tadbirlarning qo'llanishi yoki keskin fikr va choralarni yoqlovchi, degan manolarni anglatadi.

Diniy ekstremizm faqat Islom olamiga tegishli bo'lib qolmay, balki dunyodagi barcha dinlarga mansubdir. Ayniqsa, o'rta asrlarda xristian ruhoniylari muqaddas kitoblarida belgilangan har qanday aqidalarga qarshi chiqish Xudoning irodasini buzish demakdir, deb uqtirganlar. Dinga qarshi chiqqanlarni „shakkoklar» deb atab, ularni ayovsiz jazolaganlar. Papa hokimiyatini dushmanlarini ta'qib etuvchi „Inkivizitsiya» sudlari ham ekstremizmni bir ko'rinishi edi. XIII asrda Papa qo'shinlari Fransiyaning janubida 20 ming kishini qirib tashlagan, ayniqsa, ilg'or fikrli ziyolilarga qarshi „inkivizitsiya» (lotincha tekshiruv, qidiruv) sudi joriy etilib, mustaqillik uchun kurashgan Yan Gus, osmon ilmining yulduzlaridan biri Jordano Bruno o'tda kuydirilgan²⁶.

Diniy ekstremizmning eng rivojlangan formasi terrorism bo'lib, XX asrga kelganda jahon mamlakatlarida keng quloch yoydi. Aslida terror lotincha so'zdan olingan bo'lib, qo'rqitish, dahshatga solish manosini anglatadi), terrorism kishilarning hayotiga chang solish demakdir. Terrorism kecha yoki bugun paydo bo'lib qolgan ijtimoiy hodisa emas. Uning tarixi insoniyat tarixi bilan

²⁶ Nishonov M., Turgunov I. Diniy ekstremizm va terrorismga qarshi kurashning ma'naviyat ma'rifiy asoslari. – Namangan, 2006. – B. 25.

chambarchas bog'liqdir. Odam Ato va Momo Havoning o'g'illari Qobil va Hobillarning orasidagi bir-birini ko'raolmaslik, hasad natijasida ularning birini o'z tug'ishgani tomonidan o'ldirilishi ham dastlabki terrorga misol bo'la oladi. VII asr boshlarida arablarga qarshi kurashgan Xorazm shahzodasi Xurzod, Samarqand sultoni Mirzo Ulug'bek ham terrorism qurboni bo'lgan.

O'tgan asrning oxirgi yillarida «Kibernetik terrorism» atamasi paydo bo'ldi. Keyingi kompyuterlar tarmog'iga hujum qiluvchi «Kiberpartizan»larning faoliyati sababli korxonalar, vazirliklar va hatto davlatlar katta iqtisodiy zarar ko'rmoqda. Xalqaro axborot tizimi bo'lgan internertga ulangan AQSh mudofaa vazirligi kompyuterlariga xorijiy «Kiberpartizanlar» 250 ming marta buzib kirishgan. AQSh bundan yiliga 100 milliard dollar atrofida zarar ko'rmoqda.

Din bizning qon-qonimizga, ongu shurimizga shu qadar singib ketganki, uni hech qanday tashviqot bilan chiqarib bo'lmaydi²⁷. Mustaqillik yillarida ko'plab hamyurtlarimiz diniy ekstremizim oqimiga kirib qoldilar. Bu oqimlarga kirib qolish sababini Yurtboshimiz I. A. Karimov quyidagicha izohlaydi: «Markaziy Osiyodagi islomiy ma'rifat taqiqlab qo'yilgan sobiq sovet Respublikalarida chin ma'nodagi bilimdon Islom murabbiylari kamayib ketgan edi. Natijada har xil xurofiy irim-sirimlar, ba'zan jaholatparast udumlar rivoj topdi. Bunday «chalamullalar» hozirgi kunda ba'zan eng oily haqiqatni faqat ulargina bilishlarini, uni butun aholiga zo'rlab qabul qildirishni hal etish huquqini da'vo qilib chiqmoqdalar²⁸.

Shunisi diqqatga sazovorki, ekstremistik ruhdagi tuzilmalarning hech biri biror-bir shaklda o'zlari jar solayotgan, o'zlari «intilayongan» jamiyat qurilishi modelini taklif etolmaydi²⁹.

Ommaviy axborot vositalari terrorchilarning o'z maqsadlariga erishishlarida asosiy qurolga aylanib bormoqda. Eksremizim va terrorism ommaviy axborot vositalari orqali yoritilmas ekan, ko'zlangan „samarani»bermaydi. Shu manoda ular o'zaro bog'liqdir. Terrorchilik xuruji ommaviy axborot vositalarida qanchalik keng yoritilsa, ushbu harakatni sodir etishdan kutiladigan natija shunchalik bevosita va yuqori bo'ladi. Bu esa u yoki bu harakatni o'tkazishdan ko'zlanadigan asosiy maqsad hisoblanadi.

Keyingi yillarda terrorism fan-texnika yutuqlaridan ham keng foydalanmoqda. Masalan, iqtisodiy va boshqa mazmundagi terrorism fan-texnika yutuqlari, genetika, biologiya, kimyo kabi sohalar yutuqlaridan ham foydalanmoqdalar. Zahar, xanjar, revolver, bombalar, portlovchi moddalarning yangi turlarni o'ylab topmoqdalar. 2000-yilning avgustida Surxondaryo

²⁷ Karimov I. A. O'zbekiston, 2000. – B. 7.

²⁸ Karimov I. A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – Toshkent: O'zbekiston, 1997. – B. 40.

²⁹ Diniy ekstremizim va terrorismga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy asoslari. – Toshkent, 2013. – B.89.

viloyatining Sariosiyo va Uzun tumanlarida qo'lga olingan «O'zbekiston islom harakati» tashkiloti jangarilari ham ana shunday qurollarga ega edilar.

2000–2006-yillar orasida dunyoning 112 mamlakatida 14934 ta terrorchilik harakati sodir etilgan. Ularning mutloq ko'pchiligi yer yuzining turli mintaqalarida joylashgan, o'ziga xos etnik, diniy yoki boshqa shakldagi muammolar mavjudligi bilan ajralib turadigan Iroq (4606), Iordaniyaning g'arbiy qirg'og'i (1927), Kolumbiya (1135), Ispaniya (732), Tailand (619), Afg'oniston (591), Hindiston (509), Pokiston (504), Turkiya (477), Isroil (463), Fransiya (446), Nepal (379), Rossiya (284), Gretsiya (230), Fili'ppin (2130), Indoneziya (197), Shri-Lanka (131), Italiya (125) va Bangladesh (111) hududlarida amalga oshirilgani ham shunday xulosa chiqarish imkonini beradi.

BMT malumotlariga ko'ra, birgina 2009-yilning o'zida dunyoning 83 mamlakatida amalga oshirilgan teraktlarda 15700 nafar inson hayotdan bevaqt ko'z yumgan.

Markaziy Osiyoda, xususan O'zbekiston hududida 1999–2012-yillar oralig'ida 10 ga yaqin terrorchilik harakatlari amalga oshirigan³⁰. Mazkur yillar oralig'ida O'zbekistonda ko'plab noqonuniy diniy ekstremistik guruhlar borligi aniqlangan. Jumladan, 1996- yilda tashkil topgan „O'zbekiston islom harakati»³¹, O'zbekiston islom uyg'onish partiyasi, Odamiylik va insonparvarlik (Qo'qon), Islom lashkarlari, (Namangan), Adolat uyushmasi (Namangan), Islom jihodchilari, Hizbut-tahrir, Akromiyalar, Tablig'chilar, Nurchilar va boshqalardan iborat.

Hozirgi vaqtda ko'z o'ngimizda dunyoning geopolitik, iqtisodiy va ijtimoiy, axborot-kommunikatsiya manzarasida chuqur o'zgarishlar ro'y berayotgan, turli mafkuralar tortishuvi keskin tus olayotgan bir vaziyatda, barchamizga ayonki, fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi marifat bilan kurashish har qachongidan ko'ra muhim ahamiyat kasb etadi³².

Yurtboshimiz I. A. Karimov 1993- yil 28-sentyabrda BMT bosh assambleyasining 48-sessiyasida qilgan ma'ruzasida afg'on muammosi, narkobiznes, aqidaparastlik, ekstremizm va terrorizm balolari haqida o'z fikrini jahon ommasiga bildirdi.

2001-yilning 28-sentyabrida BMTning Xavfsizlik Kengashi 1973-yildagi 2001-sonli rezol'yutsiyani qabul qilib, BMT doirasida terrorizmga qarshi kurash qo'mitasini tuzdi. Ushbu qo'mitaning tuzilishi va faoliyati O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I. A. Karimov taklif qilgan terrorizmga qarshi kurash xalqaro markazining konsepsiyasiga hamohangdir. Zero, Yurtboshimiz 1999-yilning 18-noyabrida Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining va hamkorlik tashkilotining Istambulda bo'lib o'tgan Sammitida va 2000-yilning

³⁰ Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy asoslari. – Toshkent, 2013 – B 135.

³¹ O'sha asar 138-bet.

³² Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent, 2008. – B 119.

7-8-sentyabrda Nyu-Yorkda bo'lib o'tgan BMT Bosh Assambleyasining „Ming yillik sammiti«da BMT tuzilmalarida terrorizmga qarshi kurash xalqaro markazini tuzish taklifini bayon qilgan edi. Ushbu tashabbus ro'yobga chiqqandan so'ng, O'zbekiston 2001-yil dekabr oyida va 2002-yilning avgust oyida BMT Xavfsizlik Kengashining yuqorida zikr etilgan rezol'yutsiyasining bajarilishi xususida BMTning terrorizmga qarshi kurash qo'mitasiga maruzalar taqdim etdi³³.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Islom Karimov tashabbusi bilan 1998-yilda tashkil topgan «6+2» guruhining BMT rahbarligida 1998–1999-yillarda olib borgan faoliyati Afg'onistonda ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashda katta ahamiyatga ega bo'lganini takidlash zarur³⁴.

Yurtimizning tinchligini, osoyishtaligini ta'minlash har bir vatandoshimiz va biz yoshlarning burchimizdir. Bejizga Prezidentimiz “ogoh bo'ling, ogoh bo'ling”, deb ogohlantirmaydi. Hozirgi globallashuv sharoitida ogohlik davr talabidir.

TA'LIM-TARBIYA MILLIY O'ZLIKNI ANGLASH VOSITASI

G'aybullayeva Nafisa,

Nam DU pedagogika va jismoniy madaniyat fakul'teti BT va STI yo'nalishi 4 -bosqich 406-guruh talabasi.

B. Tillayev,

Ilmiy rahbar: Milliy g'oya, ma'naviyat va huquq asoslari kafedrasida o'qituvchisi.

O'zbekistonda davlatimiz rahbari rahnamoligida sog'lom, barkamol, yuksak ma'naviyatli avlodni ulg'aytirishga qaratilgan keng ko'lamlı islohotlar amalga oshirilmoqda. Ma'naviyat, ma'rifat va ta'lim haqida gap ketganda, eng avvalo, ko'z o'ngimizda yurtimiz yoshlari gavdalanadi. Chunki, mamlakatimiz aholisining 60%dan ziyodini yoshlar tashkil etadi. Bu yurtimizning porloq istiqboli va kelajagidan dalolat beradi va yoshlar uchun munosib shart-sharoitlar yaratish, ularning sifatli ta'lim olishi, zamonaviy bilimlarga ega bo'lishi, iste'dod va iqtidorini ro'yobga chiqarishi, eng asosiysi, milliy qadriyatlarimiz va vatanparvarlik ruhida, mustaqil fikrlaydigan, irodali shaxs sifatida kamolga yetishi bilan bog'liqdir.

Hozirda milliy o'zligimiz, ma'naviyatimizni yuksaltirish, tarixiy xotirani tiklash, yosh avlodni vatanparvarlik, ajdodlarimiz merosiga chuqur hurmat

³³ Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy asoslari. – Toshkent, 2013. – B. 89.

³⁴ Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy asoslari. – Toshkent, 2013. – B. 135.

ruhida tarbiyalash masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu sababli, yurtimiz boy tarixi, madaniyati, ilmiy-madaniy merosi jahon hamjamiyatining alohida hurmat va e'tirofiga sazovor bo'lmoqda. Bu bilan bir qatorda davlat tilini boyitish va yanada takomillashtirishga, til madaniyatini, o'zaro muomala sifatini yuksaltirishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar majmuasini ishlab chiqishimiz, muomalada o'zbek adabiy tili me'yor va qoidalari buzilishining oldini oladigan aniq maqsadli ishlarni olib borishimiz zarur. Biz bo'lajak ustozlar fuqarolarimizda milliy o'zlikni anglash tuyg'usini yuksaltirishga harakat qilishimiz, milliy yuksalish orqali jonajon O'zbekistonimizni dunyoning taraqqiy topgan davlatlari qatoridan o'rin olishiga o'z hissamizni qo'shishimiz kerak. Ta'lim, davlat va millat farovonligi hamda rivojlanishining asosiy sharti va kafolati hisoblanadi. Mamlakatimizda zamonaviy bilim va yuksak malakaga ega barkamol avlodni shakllantirishga xizmat qiladigan ta'lim tizimini isloh etish bo'yicha keng miqyosli ishlar amalga oshirilmoqda. Yoshlar va ma'naviyat to'g'risida so'z yuritganda, bugungi kunda «ommaviy madaniyat» niqobi ostida yoshlarimiz ongiga axloqsizlik, zo'ravonlik kabi illatlarni singdirishga, ularni xalqimiz ma'naviy va milliy qadriyatlaridan uzoqlashtirishga urinishlar kuzatilayotganini ta'kidlash joiz. Yoshlar ongini salbiy illatlardan himoya qilish maqsadida televizion ko'rsatuv va radio eshittirishlarni uyushtirish, yoshlarni axborot-resurs markazlariga jalb etish, ta'lim muassasalari o'quvchilari uchun mamlakatimiz madaniy-tarixiy merosi bilan tanishtiruvchi sayohatlar uyushtirish, teatrlarda ochiq eshiklar kunlari, O'zbekiston tarixi va madaniyati to'g'risida qiziqarli axborot beruvchi ko'rgazmalar tashkil etish orqali yoshlarni milliy madaniyat va qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashni o'z oldimizga maqsad qilib qo'yishimiz zarur. Yosh avlodga yaxshi ta'lim-tarbiya berish, yoshligidan halol mehnatga o'rgatish ularning ham ma'naviy, ham moddiy nuqtai nazardan mustaqil shaxs sifatida voyaga etishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Prezidentimiz I.A.Karimov „Barkamol avlod orzusi» nomli kitobida ta'limga shunday ta'rif bergan: „Talim-tarbiya ong mahsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan omildir. Binobarin, ta'lim-tarbiya tizimini o'zgartirmasdan turib, ongni o'zgartirib bo'lmaydi. Ongni, tafakkurni o'zgartirmasdan turib esa biz ko'zlagan oliy maqsad - ozod va obod jamiyatni barpo etib bo'lmaydi»³⁵. Har bir inson avvalambor, tarbiyani oiladan oladi va shu oilada kamol topadi, talim tarbiyani uzluksiz inson ongiga singdirishda oilaning o'rni beqiyos. Zero yurtboshimiz I. A. Karimov ta'kidlaganidek « ta'limni tarbiyadan tarbiyani esa talimdan ajratib bo'lmaydi » kabi ta'lim-tarbiya rivojiga qaratilgan fikrlarni bildirgan. Bola oilada ulg'ayadi, kamol topadi, vatanga muhabbat, ota-onaga, milliy o'zlikni anglashga bo'lgan hurmat hissi shakllanadi. Globallashuv

³⁵Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi - Toshkent: Sharq. 1999 -3-bet.

jarayoni avj olgan hozirgi davrda milliyligimiz, urf odat, an'analarimizni saqlab, kelgusi avlodga shundayligicha yetkazish davr talabi.

YOSHLARNI MAFKURAVIY RUHDA TARBİYALASH

Topildiyev Odiljon

Namangan Davlat universiteti

Ijtimoiy madaniy faoliyat

kafedrası mudiri, t.f.n.

Dedaxanov Ulug'bek,

*Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq
ta'limi yo'nalishi*

3-bosqich talabasi.

Hozirgi davr - dunyo g'oyaviy qarama-qarshiliklar murakkab tus olgan, mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ham kuchliroq bo'lib borayotgan davrdir. Prezident I. A. Karimov ta'biri bilan aytganda, «Endi sodir bo'ladigan urushlar jang maydonlarida emas, balki mafkura poligonlarida yuz beradi»³⁶. Shu jihatdan qaralsa, bugungi kunda yoshlar ongini egallashga qaratilgan mafkuraviy taxdidlar nihoyatda avj olmoqda. Kelajak avlod haqida qayg'urish, sog'lom, barkamol avlodni tarbiyalashga intilish bizning miliy xususiyatlarimizdan biri ekanligi barchaga ma'lum. Bu muqaddas zaminda yashayotgan har qaysi inson o'z farzandining baxtusaodati va kamolini ko'rish uchun butun hayoti davomida mehnat qiladi. Bilimga chanqoq, iste'dodli yoshlarni Vatanga fidoyi insonlar qilib tarbiyalash barchaning muqaddas vazifasidir. Shuning uchun ham, mustaqillikning ilk kunlaridanoq yoshlar ta'lim-tarbiyasi, ularning ma'naviyatini yuksaltirish sohasidagi islohotlarning tizimli, bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan yo'nalish belgilab olindi. Bu o'rinda Prezident I. A. Karimovning quyidagi fikrlarini ta'kidlash o'rinli «Biz yoshlarimiz tarbiyasini birovlariga berib qo'ymaymiz»³⁷. Darhaqiqat, yoshlar tarbiyasi faqat maktabda yoki oilada emas, balki butun jamoatchilik oldidagi muhim vazifadir.

O'zbekiston Respublikasining 1991-yil 20-noyabrda «O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida»gi Qonunida³⁸ yoshlarga oid siyosatning mazmun-mohiyati, asosiy yo'nalishlari, ularga beriladigan ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy kafolatlar belgilab qo'yilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997-yili 29-sessiyasida qabul qilingan «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni va «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» ta'lim sohasini isloh qilishda muhim rol o'ynadi. Bugun bizga bitiruvchilar

³⁶ Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. - Toshkent: O'zbekiston, 2000. - B. 11

³⁷ Karimov I. A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot - pirovard maqsadimiz. 8-jild. - Toshkent: O'zbekiston, 2000. - B. 28.

³⁸ O'zbekistonning yangi qonunlari. - Toshkent: O'zbekiston, 1992. - №5.

emas, balki maktab ta'limi va tarbiyasini ko'rgan shaxslar kerak. Darhaqiqat, «mamlakatda har yili 600 mingdan ziyod butunlay yangicha shart-sharoit va muhitda kamol topgan yosh avlod vakillari katta hayotga yo'llanma olmoqda. Yoshlarga katta ishonch bildirib, ularni rag'batlantirish, ruhlantirish ham katta samara bermoqda»³⁹. Shuningdek, aholining asosiy qismini tashkil etadigan yoshlarning hali to'la yechilmagan muammolariga e'tiborni jalb etish, ularni hayotda haqiqatan ham hal qiluvchi kuchga aylantirish masalasi jamoatchilikning diqqat markazida turishi shart.

Yoshlar ta'lim-tarbiyasida OAVning ham o'rni nihoyatda kattadir. Ommaviy axborot vositalari mafkuraviy qurol sifatida qaraladigan mamlakatlarda, so'z erkinligi ustuvor davlatlarda ham, jamiyatning ma'naviyati, mafkurasini o'zida aks ettiradigan, shakllantiradigan tizim hisoblanadi. Bugun yoshlar ko'proq vaqtini yengil-elpi xorij kinolari, ko'rsatuvlarini tomosha qilishga, internetga sarflashi va ularning ongi o'sha kino, ko'rsatuvlardagi muammolar bilan to'lib, internetdagi turli xil yolg'on axborotlarga ishonishi ham katta muammodir. Endilikda xilma-xil usullarda olib borilayotgan mafkuraviy targ'ibot va tashviqotning asosiy maqsadi yoshlar ongi uchun kurash maydoniga qaratilmoqda. Shuningdek, yoshlar ongiga mafkuraviy tahdidlar, diniy ekstremizm va fundamentalizm, buyuk davlatchilik va agressiv millatchilik, narkobiznes, xalqaro terrorism, axloqsizlikni targ'ib qiluvchi ommaviy axborot vositalari katta xavf solmoqda. Shuning uchun ham yoshlarning mafkuraviy immunitetini oshirish, milliy g'oya ruhida tarbiyalashni yanada rivojlantirish, sog'lom mafkura tamoyillarini ular qalbi va ongiga muttasil singdirishni dolzarb vazifaga aylantiradi.

O'zbekistonda mafkuraviy tarbiyaning asosiy vazifasi - ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish yo'lidagi asriy orzu istaklarni, maqsadlarni, milliy mafkuraning mohiyatini keng jamoatchilikka tushuntirish, ayniqsa yoshlar ongiga singdirishdan iboratdir. Bu o'rinda milliy g'oya birinchidan, yoshlarni o'zining ob'ekti sifatida qarasa, ikkinchidan, yoshlar milliy g'oyaning ilg'or rivojlantiruvchilari va kelajak avlodga yetkazuvchilari hisoblanadilar, uchinchidan, yoshlar qanchalik milliy g'oya bilan qurollangan va uni anglab olgan bo'lsa, jamiyat shunchalik taraqqiyotga erishadi. Milliy g'oya qanchalik mazmunli, har bir kishining uzoqqa mo'ljallangan maqsad va manfaatlarini, millatning istiqbolini belgilashga xizmat qiladigan bo'lsa, uni yoshlar shunchalik tez qabul qiladi. Buning uchun yoshlarni mafkuraviy tarbiyalash ishlarini yanada kengaytirishga alohida e'tibor berish kerak.

Mafkuraviy tarbiya orqali yoshlarga qanday g'oya va fikrlar singdirilsa, shunga mos ravishda g'oyaviy jihatdan chiniqqan, vatanparvar, zamonaviy bilimlarni egallagan yoshlarga ega bo'linadi. Yoshlar jamiyatning shunday

³⁹ Karimov I. A. Inson manfaati, huquq va erkinliklarini ta'minlash, hayotimizning yanada erkin va obod bo'lishiga erishish - bizning bosh maqsadimizdir. // Xalq so'zi, 2012- yil 8-dekabr.

ijtimoiy guruhiga mansubki, ular o'tkir hissiy bilish qobiliyatiga ega bo'lib, so'z bilan amaliyotning nomutanosibli holatlarini kuchliroq sezadilar. Kattalar uchun odatiy bo'lgan ayrim adolatsizliklar yoshlarning hali to'liq shakllanmagan ongiga, dunyoqarashiga kuchli ziyon yetkazishi mumkin. Shuning uchun hozirgi kunda yoshlar orasida milliy g'oya, milliy g'urur va ornomus bilan bog'liq ma'naviy-ruhiy holatlar muhim ahamiyatga ega. Yoshlarning oldida haqiqatni aytishdan cho'chimaslik, soxtakorlikdan qochish, mavjud muammolarni ochiq-oydin bayon etish lozim. Ayni paytda, davlatimiz rahbariyati tomonidan amalga oshirilayotgan ijobiy ishlar, mavjud muammolarni bartaraf etish uchun olib borilayotgan sa'y-harakatlar tahsinga loyiq.

Bu o'rinda yoshlar orasida mafkuraviy tarbiya ishlari samaradorligini oshirish uchun quyidagi takliflarni berish mumkin:

1. Nodaviat, mustaqil tashkilotlar faoliyatini takomillashtirish, ular imkoniyatlaridan to'la foydalanish;

2. Madaniy, ma'rifiy-mafkuraviy ishlarni yanada jonlantirish, yangi bosqichga ko'tarish, bu sohadagi barcha ishlarni muvofiqlashtirish;

3. Maktab, litsey, kollej va oliy o'quv yurtlarida bevosita ma'naviyat masalalari bilan shug'ullanadigan mutaxassislar faoliyatini yanada jonlantirish;

4. Maktab, litsey, kollej va oliy o'quv yurtlarida yoshlarning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, turli ilmiy to'garaklar faoliyatini rivojlantirish.

Xulosa qilinadigan bo'linsa, xilma-xil usullarda olib borilayotgan mafkuraviy tarbiya va targ'ibot-tashviqot ishlari jismonan sog'lom, ma'naviy barkamol yoshlarni tarbiyalab voyaga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

YOSHLAR OGOH - VATAN OBOD!

Aqilova Iqbola,

*Pedagogika va jismoniy madaniyat
fakul'teti BT va STI yo'nalishi 406-
guruh talabasi.*

Yurtimizni azaldan daholar yurti, deb haqli ravishda hamisha faxrlanib kelamiz. Avlodlariga o'mak bo'lish borasida bizning bobkalonlarimiz betakror ta'rifga egadir. Ogohlik borasida ham yurt egalariга yetarlicha na'muna bo'lishgan. Har bir xalq o'z kelajagi uchun qayg'urgani kabi bobomiz Shiroq ham o'z kelajagi uchun qayg'urdi. Kerak bo'lganda o'z jonini ayamadi. Hozir kelajagimiz haqida qayg'urish uchun jonini fido qilish shart emas, chunki qancha zamonlardan beri Vatanimizda tinchlik hukmron. Lekin tinchlik barqaror, deb xotirjam bo'lib qo'lmazligimiz, loqaydlikka yo'l qo'ymasligimiz lozim. Aslida bizning eng asosiy dushmanimiz shu loqaydlikdir. Yon-atrofdada ro'y berayotgan voqealarga beparvo yoshlarni zamonamiz yoshlari desa

bo'ladimi? Qo'shnisirikiga tez-tez kelib, yoshlarni o'z atrofiga to'playotgan notanish kimsalarni ko'ra turib jim qotgan do'stlarimizni kim deb ataymiz? O'ysisini bozorda yo'qotib qo'yib, jovdirab yordam so'rab, yig'layotgan bolakay oldidan beparvo o'tayotgan tengdoshlarimizga qanday baho beramiz?! Mahallada o'tkazilayotgan hasharga qatnashmay, shaharga bog' aylangani ketayotgan o'smirmi-chi? Bunday tengdoshlarimiz hozir oz bo'lsa-da ,oramizda topiladi.

Yuqoridagi yoshlarni biz loqaydlar, deb ataymizmi? Yo'q! Aslida ularning bu xatti-harakatlarini beparvo kuzatib, indamay o'z yo'lida ketayotgan bizlar loqaydmiz. Yonimizda ketayotib qoqilib tushgan safdoshimizni turg'izib qo'yish, so'qmoqqa yuzlangan yo'lini adashtirganlarni katta yo'lga solish - bizlarning burchimiz emasmi? Xayriyatki, tengdoshlarimiz oq-qorani tanigan, ilm-ma'rifat yo'lini tutgan, milliy qadriyatlarimizni chuqur anglagan ma'naviyatlidir. Ma'naviyatimiz yuksak bo'lsagina o'z vatanimizni yuksak cho'qqilarga olib chiqishimiz , biz yoshlarga berilayotgan imkoniyatlardan keng ko'lamda foydalanishimiz va ularni qoyil qoldirishimiz bunga zamin yaratadi, desak hech mubolag'a bo'lmaydi.

Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganlaridek: «Kelajakda O'zbekiston yuksak darajada taraqqiy etgan iqtisodi bilangina emas, balki bilimdon, ma'naviy jihatdan yetuk farzandlari bilan ham jahonni qoyil qilishi lozim»⁴⁰.

Hozirgi davrda respublikamizda yoshlarga yaratilayotgan zarur imkoniyatlar o'z samarasini bermoqda. Buning yaqqol natijasi o'laroq shu kunlarda yoshlarimiz erishayotgan yutuqlar va muvafaqqiyatlar kundan-kunga ortib bormoqda. Sport va ta'lim sohasida, tadbirkorlik sohasida, ishlab chiqarish va san'atda yoshlarning faoliyati hamda harakatlari faxrlansa arzigulikdir.

Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek: „Bugungi kunda bizning qilayotgan barcha ishlarimiz farzandlarimiz baxt-saodati, ularning yorug' kelajagi uchun amalga oshirilmoqda. Lekin baxt-saodat faqat boylik, mol-mulk bilan belgilanmaydi. Odobli, bilimdon va aqlli, mehnatsevar, iymon-e'tiqodli farzand nafaqat ota-onaning, balki butun jamiyatning eng katta boyligidir.”⁴¹ Darhaqiqat, bugunning egasi, kelajakning poydevori bo'lgan yoshlar yetuk tafakkur, aql-idrok ila o'z qadamlarini qo'ymoqdalar.

Jahon hamjamiyatida har qanday sohada o'z bilimi va saviyasi bilan qo'rqmay bellasha oladigan yoshlar Vatanimiz kelajagini yanada gullatadi. Ta'limning barcha sohalarida grant sohiblari, stipendiantlar, magistrlar, fan doktorlari, fan nomzodlari, umuman olganda, jamiyat uchun kerak shaxslar yetishib chiqmoqda.

Kelajak uchun mustahkam poydevor qurish va uni ardoqlash , e'zozlash qadr- qimmatini bilishimiz albatta biz yoshlarning qo'lida. Buning uchun

⁴⁰ Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi.-Toshkent: Sharq, 1998.-14 bet.

⁴¹ Karimov.I.A. Yuksak ma'naviyat –yengilmas kuch - Toshkent: Ma'naviyat, 2008.-56 bet.

avvalo o'zimizning o'z- o'zligimizni anglamog'imiz darkor. O'zlikni anglash tarixni bilishdan milliy qadryatlarimiz an'ana va urf odatlarimiz milliyligimiz o'rganishdan bilishdan boshlanadi odamzot borki, avlod ajdodi borki nasl nasabini, o'zi tug'ilib o'sgan mahalla qishloq bir so'z bilan aytganda Vatanning tarixini bilishga qiziqadi va o'rganadi ham. O'zbekiston deb ataluvchi hudud bu bizning vatanimiz ekanini anglaydi. O'zini irodali inson deb biladigan har bir yosh avlod tarixiy xotirasiga ega bo'lib, u buyuk kelajak qurishda o'zining ulkan hissasini qo'sha oladi, deb hech ikkilanmay ayta olamiz.

Bunday yoshlari bor VATAN o'z taqdiri hamda kelajagini yorqin ko'ra oladi. Zero, qariyalari duoda, avlodlari komillik cho'qqisida va jamiyati mustahkam yurt uzoq hamda buyuk yo'lni qo'rqmay bosib o'ta oladi.

AXLOQIY MADANIYAT

Yuldasheva Mastona,

Ingliz tili va adabiyoti kafedراسi o'qituvchisi.

Xalqimizning axloqiy merosini o'rganish, ilmiy-nazariy tahlil qilish, uni yoshlar ongi va qalbiga yetkazish va singdirish muhim ahamiyatga ega.

Axloq jamiyat ma'naviy merosining tarkibiy qismi. Uni inson ma'naviy merosidan ayri holda o'rganish mumkin emas. U tabiat, ijtimoiy muhit, insonning turli munosabatlarini o'rganish, mavjud hodisani bilish va uni o'zgartirishga bo'lgan uzluksiz intilish jarayonida sayqallanib, xalqning ma'naviy fazilatlarini boyitishga olib keladi. Faqat bugungina emas, u ko'p asrli ma'naviy meros asosida shakllanib, boshqa xalqlar bilan uzluksiz madaniy aloqalarni, ma'naviy-falsafiy qadriyatlarning o'zaro almashinuvi jarayonida boyib rivojlanib keladi. Zotan, tarix- tafakkur mahsuli. O'tmishimizda bo'lgan har bir hodisa ma'lum ma'naviy-ruhiy, ma'naviy-axloqiy, ijtimoiy-siyosiy muhit ta'sirida yuz bergan.

Davlat va fuqarolik jamiyatidagi axloqiy yuksaklik darajasini uning fuqarolari axloqiy madaniyati belgilaydi. Axloqiy madaniyat shaxsning jamiyat axloqiy tajribalarini egallashi va bu tajribalardan boshqa odamlar bilan bo'lgan munosabatlarida foydalanishi, o'z-o'zini muntazam takomillashtirib borishi singari jihatlarni o'z ichiga oladi. Qisqasi, u shaxs axloqiy taraqqiyotining belgisi hisoblanadi. Zero, axloqiy madaniyat axloqiy tafakkur madaniyatining qator unsurlarini o'z ichiga olgan tuzilmadir. U shaxsning o'zgaralar bilan o'zaro munosabatlarida namoyon bo'ladi.

Umuman olganda, muomala odobi kishilarning nasihat qilmasdan va odob o'rgatmasdan bir-biriga ta'siri, tarbiya va o'z-o'zini tarbiya vositasi sifatida diqqatga sazovor. Shu sababli yoshlarimizda muomala odobini shakllantirish hozirgi kunda jamiyatimiz oldida turgan muhim vazifalardan. Bunda otanonaning, mahalla-ko'yning ta'siri katta. Undan foydalana bilish kerak. Zero,

axloqiy komillikka erishish muomala odobini egallashdan boshlanadi. Axloqiy madaniyat yaqqol ko`zga tashlanadigan munosabatlar ko`rinishidan biri, bu - etiket. U ko`proq insonning tashqi madaniyatini, o`zaro munosabatlardagi o`zini tutish qonun-qoidalarining bajarilishini boshqaradi. Agar muomala odobida inson o`z munosabatlariga ijodiy yondashsa, ya`ni bir holatda bir necha xil muomala qilish imkoniga ega bo`lsa, etiket muayyan holat uchun faqat bir xil qoidalashtirib qo`yilgan xatti-harakatni taqozo etadi.

Milliy mentalitetda marosimlar etiketi, ayniqsa, katta ahamiyatga ega. To`y marosimida, xususan, qiz bilan ota-onaning xayrlashuvi, nikoh kechasiga kirib kelishda kuyovning kelinni chap tomonda tutib, to`yxonaga boshlab kirishi v.h. etiket qonun-qoidalari to`liq bajarilishi lozim. Yoki aza marosimida fotihaga kelgan odamlarni milliy to`n va do`ppi kiygan, belbog` bog`lagan holda, qo`l qovishtirib, boshni quyi tutgan tarzda kutib olish qat`iy qoidaga asoslanadi. Bular, bir qarashda, etiketning milliy yoki kasbiy udum, odat, rasm-rusmlardan farqi yo`q ekan, degan taasurol qoldirishi mumkin. Bu yuzaki, yolg`on taasurol. Chunki udum, odat, rasm-rusmlar muayyan darajada erkinlikka ega, ba`zan ularni bajarmaslik ham mumkin. Lekin etiketda buning imkoni yo`q - etiket qonun-qoidalari majburiylik tabiatiga ega.

Xalqimiz tabiatidagi yuksak ma`naviyat, odob-axloq mezonlari uning g`oyat boy insoniyligi, hayotiy tajriba va chuqur falsafiy tafakkur bilan sug`orilgan axloqiy merosida mujassamlashgan. Bugun tarixiy xotira tarbiya va ibrat manbaiga aylangan, barkamol insonni shakllantirish nafaqat ma`naviy-ma`rifiy ishlarning bosh vazifasiga, balki davlat siyosati darajasiga ko`tarilganligi e`tirof etish lozim.

Zardushtiylarning muqaddas kitobi «Avesto»da ta`kidlangan insonga xos uch fazilat: ezgu fikr, ezgu so`z va ezgu amal to`g`risida fikr bildirib o`tilgan. Axloq faqat insonga xos bo`lib, u biror-bir mavjudotga tegishli emas. Inson aql-farosol egasi. U jamiyatda tug`iladi, o`sadi va hyot kechiradi. SHuning uchun inson jamiyatdan tashqarida, undan ajralgan holda yashay olmaydi. Undagi barcha insoniy fazilatlar ijtimoiy muhitda shakllanadi. Insonga xos fazilatlar - yaxshilik, odoblilik, adolatlilik, erkinlik, burch, vijdon, poklik, baxt, or-nomus, insonparvarlik, halollik, poklik kamtarinlik, o`zaro yordam, xushxulqlilik, sabr-toqatlilik, mehnatsevarlik va boshqa olijanob xususiyatlardan iboratdir.

Axloq kishilarning ishlab chiqarishdagi, jamiyat va oiladagi turli-tuman munosabatlari, muayyan fe`l-atvor me`yorlari, qoidalari shaklida odamlar ongida yaxshi, yomon, adolat, nohaqlik, baxt, baxtsizlik, vijdon, vijdonsizlik, sharaf-shon, burch, or-nomus, benomuslik kabi tushunchalari vositasida jamiyatdagi odamlar o`rtasidagi ijtimoiy-ma`naviy munosabatlarni aks ettiradi. Boshqacha qilib aytganda, axloq shaxs xulq-atvorini tartibga solishga, ayrim individlar xatti-harakatlarini boshqa kishilar manfaatlarini bilan muvofiqlashtirishga, kishilarni tarbiyalash usullariga, muayyan axloqiy

sifatlarini yaratish va takomillashtirishga oid qarashlar, tasavvurlar, me'yorlar va baholar majmuasidir.

Axloqiy madaniyat kasbiy odobda ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Chunki inson voyaga etib, bir kasbning boshini tutgach, o'z kasbi doirasida odamlar bilan muntazam munosabatda bo'ladi. Bu munosabat, bir tomondan, hamkasabalar davrasida ro'y bersa, ikkinchi jihatdan, u kasb talabiga binoan uchrashadigan turli toifadagi odamlar bilan yuzaga keladi. Ayni paytda, kasbiy odob axloqiy madaniyatning eng yuksak shakllaridan biri; uning jamiyat axloqiy hayotidagi o'rni yuksak.

Ajdodlarimizning tarixi, urf-odatları va ulkan ma'naviy meroslarini o'rganish yoshlarimizda axloqiy madaniyatning, milliy g'urur va faxrlanish tuyg'ularining shakllanishida katta ahamiyatga ega bo'lib, Vatanimiz mustaqilligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

KAMTARLIK

*S. Norqo'ziyev,
falsafa fanlari nomzodi, dotsent.*

Axloqiy me'yorlardan biri – agar inson o'ziga va o'zgalarga nisbatan talabchan bo'lsa, o'z kuchini hushyorlik bilan baholaydi. O'zidan hech qanday alohida qadr-qimmat va huquq bor, deb tan olmaydi, muvaffaqiyatlardan gerdaymaydi, o'z xizmatlariga ham, nuqsonlariga ham tanqidiy yondoshadi, maqtov olish uchun emas, umumiy ishning foydasi uchun yaxshi xatti-harakatlar qilishga intiladi, biz bunday kishilar haqida u kamtarin deymiz. Kamtarlikning xushomadgo'ylikka yoki laganbardorlikka hech bir aloqasi yo'q, u kishilarga bo'lgan munosabatida, ularning hayotiy tajribalariga mehnatiga, bilimiga, his-tuyg'ulariga hurmat tarzida namoyon bo'ladi. Kamtarlik – insonning eng yuksak qimmatli axloqiy fazilatlaridan biridir. Bu fazilatlar ishchini ham, donishmand olimni, tadbirkor, ishbilarmonni ham, yoshlarni, keksalarni ham bab-baravar bezab turadi. Kamtarlik kishining maqtanchoqlik qilishiga, egallab turgan ijtimoiy mavqeidan kerilishiga yo'l qo'ymaydi. U kibr-havo, o'ziga bino qo'yishning ildiziga bolta uradi. Kamtarlik tenglik bilan qarindoshdir. Maqtanchoqlik esa ruhiy to'ralik ifodasidir. Kamtar kishi o'zini tabiiy tutadi, uning xulqida, yurish turishida ko'zga tashlanib turgan hech qanday yasamachilik bo'lmaydi, u dabdababozlikni xush ko'rmaydi, «maydachuyda narsaga alahsirab ketmaydi, sentimentga cho'kmaydi».

Kamtar kishiga shuhratparastlik yotdir. Xizmatlari qanchalik bo'lishidan qat'iy nazar u xizmatlarini maqtanib, ko'z-ko'z qilmaydi, muvaffaqiyatlari uni hech qachon esankiratib qo'ymaydi. Bu – kamtarlikni kishining o'z qadr-qimmatini ataylab yerga urishi, deb izohlash mumkin, lekin kamtar kishilar mashhur bo'lishni istamaydilar, shon-shuhratdan qochadi, degan ma'noni bildirmaydi; hurmatli bo'lish har kimga ham yoqadi, ammo kamtar kishiga

hurmat o'z-o'zidan keladi. Kamtarinlar shon-shuhrat uchun jasorat ko'rsatishmaydi, ular ko'rsatgan jasoratning mayli xiyla chuqur, ya'ni jamoa sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish, xalqqa xizmat qilish zaruriyatiga bo'lgan ichki e'tiqod ularni jasoratga undaydi. Kamtar kishi o'zining shaxsiy muvaffaqiyatlarining jamoa muvaffaqiyatlariga bog'liq ekanini tushunadi; u muomalada sodda, jamoaga tez aralashadigan hokimiyatchilikka intilmaydi va undan hojat bo'lmasa, foydalanmaydi.

Lekin biz qachonki, «Kamtar bo'l» deyar ekanmiz, bu «o'z fikr va qarashlaringni ifoda etishda itoatli va juda ehtiyotkor bo'l» degan ma'noni anglatmaydi. Haqiqiy kamtarlikning passivlikka, ba'zi kishilarga xos bo'lgan o'z kuchiga ishonmaslik, bo'shanglik va faoliyatsizlikka mutlaqo aloqasi yo'q. Shuningdek, ideallarga prinsipsizlik bilan talabchanliksiz munosabatda bo'lishni va ayniqsa, tafakkur qilishda kamtarlik qilishni bildirmaydi. Tarix shuni ko'rsatadiki, aksiomalar shubha ostiga olingan joydagina kashfiyot yuz beradi. Kamtargina aql bilan fanni ilgari siljita olmaysan kishi. Istiqlolga, milliy istiqlol g'oyasini shakllantirishga, tashabbuskorlik, mustaqillik, sabr-matonat, ijobiy jasorat, fuqarolik jur'ati va axloqiy faollik bilan uyg'unlashib ketgan kamtarlik lozim.

Shaxsning atrofidadilarga va o'z-o'ziga munosabatini ifodaluvchi, uning o'ziga nisbatan biron-bir ortiqcha izzat-ikrom yoki alohida huquq talab qilmasligida namoyon bo'luvchi axloqiy fazilat. Kamtar odam boshqalarga hurmat bilan qaraydi, o'zining muvaffaqiyatlariga mahliyo bo'lib ketmaydi, o'z ishlariga xatti-harakatiga doimo tanqidiy qaraydi, o'z fazilatlari va xizmatlari haqida maqtanib gapirmaydi, bilim va malakasini oshirish ustida tinmay ishlaydi. Xalqimiz hamisha kamtarlikni ardoqlab, manmanlikni, kekkayishni qoralab kelgan. «Kekkeyganga kekkaygin boshing ko'kka yetguncha, engayga engaygin boshing yerga tekkuncha», «Kamtarga kamol, manmanga zavol» degan maqollar buning yorqin ifodasidir.

Donolar kamtarlik haqida deydi:

Ulug'lik aylama zinhor, o'zingni kamtar tut,
Birovda bo'lsa bu xislat, ajab saodatdur.

Huvaydo

Boshing gardunga yetsa, bo'lmag'in zinhor xursand,
O'zingni har xasu xoshakdin, ey banda kamtar tut.

Mashrab

Kamtar bo'l, tevarak-atrofdagilar nafsoniyatiga tegmaydigan g'urning yagona turi shu kamtarlikdir.

J.Renor.

Suv o'tni o'chirgani singari kamtarlik ham g'urni bosib turadi. U bamisoli ayiqning burniga ilingan zanjirdek gap.

T.Tippel

Kamtarlik saxovat ko'rkigina bo'lib qolmay, uning soqchisi hamdir.

Kamtarlik obro'ni oshirib, layoqatsizlikni yashiradi.

Kamtarlikning yetishmasligi nodonlikdandir

MEHMONGA TAKLIF QILISH ODOBI

A.Abdumannonov,

Andijon qishloq xo'jaligi instituti dotsenti.

Mehmondorchilik odobi axloqiy me'yorlardan biridir. Mehmondorchilik, avvalo, kishilarni mehmonga taklif etishdan boshlanadi. Taklif etiladigan odam uning vaqti bor-yo'qligini bilib olingandan keyingina mehmondorchilikka chaqirilishi mumkin. Mehmon bevosita yoki taklifnoma orqali yoxud birovdan aytdirib taklif qilinadi. Bunda mehmondorchilikning maqsadi, vaqti-soati va shakli tug'ilgan kun, ehson va boshqalar yozilishi shart. Mehmondorchilikda qanday odamlar qatnashishini har bir chaqiriluvchi bilib qo'ysa yomon bo'lmaydi. Taklif etiluvchilarga mehmondorchilik qaysi mezbonda ijro etilishini bildirish bilan mehmonning kelish-kelmasligi uning o'ziga havola qilinadi. Chunki har bir kishi barcha turdagi mehmondorchiliklarga baravar bormasligi mumkin. Agar chaqiriluvchilardan ba'zilari kelmay qolsa, bu ular uchun siz tashkil etgan mehmondorchilik xili ma'zur emasligini bildiradi. Mehmonlar kelguncha uy-joyni ozoda, saranjom holga keltirish bilan birga, mezbon ham toza ust-bosh kiyib olmog'i lozimdir.

Mehmonlar keladigan vaqtda darvoza (eshik) ochiq turishi kerak. Mehmonlarni samimiy va ochiq ko'ngillik bilan qarshi olish kerak. Sovg'a olib kelganlarga hara, quruq, sarmimiy salomi bilan kelganlarga ham bab-baravar minnatdorchilik bildirishni unutmaslik kerak. Mehmon qish, kuz payti bo'lsa, qalin kiyingan bo'lsa yechinishiga yordamlashish va qo'l yuvganida sochiq tutish zarur. Bunda mehmonning qo'lga suv quyib turishdan ko'ra yuvinishni uni o'ziga qo'yib bergan ma'qul. Chunki mehmon xijolat chekib, imyanib, yaxshi yuvina olmasligi mumkin.

Qoida bo'yicha mehmon yaxshi taraddud ko'ritgach taklif etiladi. O'z davrining atoqli olimi bo'lgan Yusuf Xos Xojib «Qutadg'u bilig'» asarida ziyofatga taklif bobida ushbu odobiy qoidalarni aytadi. 4540-4546-baytlarning nasriy mazmuni: «Agar sen odamlarni taklif qilayin desang, taklif qil, lekin taraddudlarni yaxshi ko'rib qo'y. Idish-oyoq, dasturxon, uy-joy, libos pokiza bo'lsin, ko'rpachalar yoy, ovqat va ichimliklar ham yaxshi, pokiza, totli bo'lsin, toki qo'l uzatgan kishi uni havas bilan yesin. Mehmonni taklif qilmagan bo'lsang-u, u kelib qolsa, osh suvingni kamchiligi bitta bo'ladi. Ammo taklif qilsang-u, yaxshi tayyorgarlik ko'rmasang, kamchilik mingta bo'ladi. O'ylab ish tut, yeb-ichiladigan narsalarni yaxshi va pokiza qilib hozirla, uyingga kelgan yaxshi odamlar to'yib, turib ketsinlar. Uzoq-yaqin do'stlarning va

qarindoshlarning barchasini ziyofatga taklif qilib qo'y, bu bilan ularning haqlariga rioya qilgan bo'lasan. Keladiganlari keladi, kelmay qolsa, taklif qilingani uchun sendan ko'ngli qolmaydi."

Zamonaviy mehmondorchilikda shunday yaxshi odat ham borki, mehmon dasturxon yoniga kelib o'tirgach, avval issiq choy ham tayyorlab ulgurilmagan bo'lsa, mehmon zerikib qolmasligi uchun radio yoki televizor qo'yib berish, oila a'zolaridan biri mehmon huzuridan ketmay, suhbatlashib o'tirsa yaxshi bo'ladi.

Mehmon kelishi oldidan bolalarni yuvintirib, yaxshi kiyintirib qo'yish juda muhim. Bu narsa bolalarda ham mehmondorchilik odobi va uning ahamiyatini anglash hissini uyg'otadi. Bundan tashqari mehmonlar bolalarni erkalatishi va ko'tarishi ham mumkinki, shu boisdan bolalar toza yurishsa juda yaxshi bo'ladi.

Agar sizni hurmat qilib to'y, ziyofat, ma'rakaga chaqirsalar qabul qiling. Biror zarur ishga band bo'lib borishingiz mumkin bo'lmasa, uzr so'rab, hurmat qilib aytgani uchun tashakkuringizni bildiring.

Taklif qilinmagan biror kishini o'zingiz bilan to'y, ziyofatga birga olib bormang, bu odobsizlik sanaladi. To'y, ziyofatga bormasdan oldinroq ozgina ovqatlanib oling, u yerda ochko'zlik qilib taomni hadeb tushira berish odobsizlik sanaladi. Mezbon qanday ovqat qo'ysa yeng, e'tiroz bildirmang. Dasturxonga qo'yilgan nozu-ne'matlarning bir qismini mezbonning ruxsatisiz uyingizga olib ketmang, aks holda uyatli ish qilgan bo'lasiz.

Mehmonlarning qolgan ovqatlarini zo'rlab yoki tabarruk deb bir-birlariga yedirishlari yaramaydi, bunday ishdan saqlanish kerak. Ziyofat tamom bo'lgandan keyin ko'p ezmalik qilib, so'zlashib o'tirmay, mezbonga tashakkur ayting va ketmoqqa ijozat so'rash lozim.

SO'ZLASHISH ODOBI

S. Norqo'ziyev,

falsafa fanlari nomzodi, dotsent.

Axloqning me'yorlaridan biri, odamzodning xushmuomala quroli til bo'lib, kishilar bir-birilari bilan bo'ladigan barcha munosabatlarni so'zlashish yordamida amalga oshiradilar.

O'z ona tilini mukammal o'rganmoq har bir insonning muqaddas burchidir. Inson yer yuzidagi turli jamoalar, millat va elatlar bilan muomalada bo'lganliklari uchun o'z ona tilidan tashqari boshqa xorijiy tillarni ham bilishi lozimdir. Ko'p tilni bilmoqlik fazilat va ma'naviy boylik hisoblanadi.

So'zlashish odobi qanday bo'lmog'i kerak? Bu savolga avvalo, hamma narsaning mezoni bo'lganidek, inson faoliyatining barcha qirralari uchun ham, so'zlashish san'atining ham odobiy meyor borligini esdan chiqarmaslik kerak.

So'zlashishdagi mantiq, uning go'zalligi va boyligi insonning hayotida, jamiyat orasidagi o'z o'rnini topa olishida, kishilarning hurmat-ehтиromiga

sazovor bo'lishida katta ahamiyatga egadir. Gapirilayotgan odamning har bir jumlasini mantiqli, purmāno so'zlarini kishilar mīriqib tinglaydilar. Agar notiqning so'z sanati boy bo'lsa, ustiga-ustak go'zal so'zlash qobiliyati ham bo'lsa, uning suhbatini boshqalar doimo qo'msaydilar.

Shirinsuxan va go'zal notiqlik san'atiga ega bo'lmoq ham baxtdir. Shu o'rinda Kaykovusning quyidagi gaplarini keltirish o'rinni: "Hamma qobiliyatlardan eng yaxshisi nutq qobiliyatidir. Nutqni juda yaxshi va san'atkorona o'rganib ol. Nutqi shirin kishining mehribon kishilari ham ko'p bo'ladi". Hayotda kishilar hurmatini qozonmoq yuksak axloqiy fazilatdir. Bunday odam baxtli bo'ladi, ishi yurishadi va yuksak martabalarga erishadi.

So'zlashish me'yorini bilish fikrni lo'nda va aniq, qisqa bayon etish, tinglovchiga yetkazish ham o'ziga xos san'atdir. So'zga beetibor kishilar kichik bir maqsadni uzoq so'zlab bayon etadi. Bu tinglovchining g'ashini keltiradi, jig'iga tegadi, so'zlovchini "ezma", "laqma" degan taxallus olishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun ham kishining so'zi ixcham ma'lum maqsadga qaratilgan bo'lmog'i kerak. Bir so'zni takror va takror ishlatmaslik kerak.

Oltin, gavhar va durri-javohirlarning qimmatini uning kamligidadir. Olamda nimaiki haddan ortiq ko'p bo'lsa, uning bahosi shuncha past turadi. Shuning uchun ham xalqimiz "Oldingdan oqqan suvning qadri yo'q" deb bejiz aytmaydi. Agar suv biror cho'l yoki sahroda bo'lib, uni idishga qo'yib o'lib sotilsa bormi, hammadan oldin inson suv sotib olardi. Ammo u ariqdan to'xtamay oqqanligi uchun ham kimlargadir beqadr. Shunga o'xshab so'zlovchining so'zi cho'zilib ketsa, uning qadri kamayadi, so'zlovchining burdi ketadi.

Yusuf Xos Xojib aytibdurlar:

*Malay so'zlagan so'z keladi malol,
Yana so'zlamasang otning gungi lol!
Tilingni tiyolsang omondur boshing
So'zingni qisqa qilsang uzayadi yoshing.*

Yoki Mir Nizomiddin Alisher Navoiy aytibdurlar:

*Har kimsani nutqi farovon bo'lmas,
Til ranjiga qolmoqligi imkon bo'lmas.
Muloyim so'z yaxshilarni ulfatga aylantiradi.
Befoyda so'zni ko'p aytma,
Foydali so'zni eshiturdan qaytma.
Ko'p degan so'z yengilur,
Kishi chin so'z aytsa go'zal bo'lur,
Har qancha qisqa bo'lsa eng yaxshidur.*

Shu bilan birga ana shu ulug'likka bo'lgan munosabatlar tegishli huquqiy asoslarda mustahkamlanmoqda. "Muhofaza etiladigan hududlar to'g'risida"gi, "Madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, 2010–2020-yillarga mo'ljallangan nomoddiy-madaniy merosni muhofaza qilish Davlat dasturlari shundan dalolat beradi.

Ularni takomillashtirish uchun chora-tadbirlar belgilanmoqda. Shunday tadbirlardan keyingi paytda moddiy va ma'naviy merosimizni asrash uchun o'tkazilayotgan turli konferensiyalarni e'tiborga loyiq desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki ushbu tadbirlardagi fikrlarga asoslanib, yangi tadbirlar va tashkiliy ishlar amalga oshiriladi.

Moddiy merosni nomoddiy ma'daniy meros bilan bog'liq jihatlari mavjud. Moddiy merosni paydo bo'lishi haqidagi rivoyatlar, qarashlar g'oyalar, tarixiy voqealiklar bayoni nomoddiy madaniy merosni asoslaydi.

Bu borada mutaxassislar fikri birmuncha to'laroq bo'lishi mumkin. Tarixiy qadamjolariga boring, u yerdagi xalqlarni hikoyalari, rivoyatlarini tinglang. Bu yerdagi yashash uchun mavjud sharoit, insoniyat uchun tabiatning in'omi sifatida bu joylar sihatingiz uchun, ruhiyatingiz uchun berilgan davo manbalarini ko'ring. Shunda so'z bilan ifoda etib bo'lmaydigan insoniy his-tuyg'ular paydo bo'ladi, Ilohiylikni ilg'aysiz.

Kosonsoy tumanining "Kosonsoy" sihatgohida "Qizlarning ko'z yoshlari" deb nomlanuvchi buloq bor. Bu yerdagi xalqlarning rivoyatlariga ko'ra, urush bo'layotgan tarixiy bir davrda shohning qizi o'z kanizaklari bilan bosqinchilar tajvuziga uchraydi. Ular Kosonsoy soyi bo'ylab qochib kelishadi. Juda charchab, holdan toyib dam olish uchun to'xtaganlarida dushman quvib yetadi. Qizlar qizlar ko'z yoshi to'kib, baland qirg'oqdagi baland tosh qoyalarga suyanadilar. Shunda toshlar qizlarni o'zlariga singdirib oladi. Hali hanuzgacha qirg'oqdagi toshlardan qizlarning ko'z yoshlari to'xtovsiz tomchilab, buloqni hosil qilmoqda. Ushbu buloqlar esa insonlarga shifo bo'lmoqda. Kosonsoyning ushbu hududidagi havoning tozaligi, undagi kislorodning yuqoriligi va aynan ushbu buloqning shu hududdaligi insonlarni davo topishi uchun sharoitni paydo qilgan, natijada bu yerda "Kosonsoy" sihatgohi qurilgan.

Chustdagi Bibiona qadamjosi ham ilohiy xususiyatga ega maskan. Bu yerda ham ulug' va mo'tabar hisoblangan buloq chiqadi. Uning bir necha ko'z-lari bor. Aytishlaricha, Bibiona eng mo'tabar ona hisoblangan. U kishining bir necha aka va singillari bo'lgan. Bibionaga ilohiy supra berilgan. Ushbu buloqqa nima tilak bilan borsangiz, ijobatini sizga namoyon etadi. Masalan, rizq tilab borsangiz, buloqning tiniq suvlari tubida supra yoyiladi. Sizning tilagingiz ijobat bo'lishiga ishora etadi. Farzand tilab borsangiz, tiniq suv tubida kichikina qaynashni kuzatasiz. Unga qarab tursangiz, chaqaloqqa o'xshash jajji qiyofacha shakllanadi. Bu ham ishora. Bu holat insonda o'ziga xos bo'lgan umidvorlikni paydo qiladi.

Bibiona atrofidagi tabiat ham juda go'zal, havosi shifobaxsh. Borsangiz, ruhiy bardamlikni tuyasiz. Ana shunday go'zal maskandagi dam olish zonasini ko'rish maqsadga muvofiqdir.

Shu kabi havosi toza, buloq suvlari insonga ham rohat, ham shifo beruvchi ulug' va ko'rkam joylari Namangan viloyatida juda ko'p. Bunga misol qilib, Popdagi "Ona ko'z yoshlari", Chortoqdagi Baliqko'l kabi buloqli manzillarni keltirsa bo'ladi va bu ro'yxatni yana davom ettirish mumkin. Bu joylardagi buloq bilan bog'liq hikoyalarni bizning nomoddiy boyliklarimizga misol qilib olish mumkin.

Buloqlar bilan bog'liq rivoyatlarni to'plash, ushbu qadamjolar haqida ma'lumotlar bazasini shakllantirish bo'yicha tegishli hokimlik mutasaddilari tomonidan loyihalar tanlovi e'lon qilinishi, ulardagi yo'naltiruvchi maslahatlar asosida insonlarni shifo topishi uchun maskanlarni qurish bo'yicha tender tanlovi e'lon qilish, ushbu maskanlarni saqlash bo'yicha huquqiy asoslarni shakllantirish maqsadga muvofiq. Shuningdek, hozirgi kunda dunyo miqyosida turizmni o'rni alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu maskanlarni targ'ib etuvchi reklamalarni, targ'ibotning turli yo'nalishlari bo'yicha ommalashtirish lozim. Bu bilan biz o'z madaniyatimizni dunyo xalqlariga tanitamiz. Bizga kelgan xorijlik sayyohlar o'zbek xalqiga havas qilishi, o'zbeklarning tarixan boy urf-odatlarini, axloq qoidalari mavjudligini ko'radi. Go'zal kiyinish, salomlashish, mehmondo'stlik madaniyatidan bahramand bo'ladi.

Ma'lumki, dunyoda hozirda "ommaviy madaniyat" degan buzg'unchilik ketayotgan bir jarayonda, bizga kelayotgan xorijlik sayyohlar bizning qadamjolarga tashrif buyurib, chiroyli milliy kiyimlarimizdan kiyib yurish qoidasini o'rgataylik, toki ushbu madaniyatimiz xorijga tarqalsin. Ularda imon barkamolligi shakllansin.

Hozirgi globallashuv jarayonida insonlarda e'tiqod mustahkamlanishiga hissamizni qo'shamiz. O'z mentalitetimizni yanada barkamol qilish uchun kurashamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan olib borilayotgan bunyodkorlik ishlari yanada takomillashgan holda davom etadi. Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» asarida keltirilganidek, globallashuv jarayonida G'arbdan kirib kelayotgan «ommaviy madaniyat»ga qarshi o'zimizning milliy nomoddiy madaniy merosimiz bilan kurashishimiz lozim bo'ladi.

KO'PPARTIYAVIYLIK VA SIYOSIY MADANIYAT

Tillayev Bobomurod,

*Nam DU Milliy g'oya, ma'naviyat va
huquq asoslari kafedrası o'qituvchisi.*

Bugungi kun jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayoti murakkab, ziddiyatli va serqirrali bo'lib, unda ko'p sonli siyosat sub'ektlari ishtirok etmoqda. Bu ishtirokchilar orasida ko'zga ko'ringanlaridan birini siyosiy partiyalar egallamoqda. Bugun rivojlangan dunyoda siyosiy partiya mavjud bo'lmagan davlat borligini tasavvur qilish mushkul, deyarli barcha davlatlarda ikki yoki ko'ppartiyaviylik tizimi amal qilmoqda.

“Siyosiy partiya” tushunchasining lug'aviy ma'nosi nima, uning paydo bo'lishi va keyingi tarixi qaysi davrlarga borib taqaladi, degan savol tug'ilishi tabiiy. Darhaqiqat, “partiya” atamasi lotincha “parts” so'zidan olingan bo'lib, “qism, bo'lak” degan ma'nolarni anglatadi⁴⁷. Demak, siyosiy partiya deganda fuqarolarning muayyan siyosiy maqsadlar atrofida birlashgan va muayyan siyosiy tashkilotlarga uyushgan qismi, bo'lagi tushuniladi. Dastlabki partiyalar Qadimgi Gretsiyada hududiy bo'linish asosida tashkil topgan bo'lib, Platon, Aristotel va boshqa olimlar tomonidan salbiy baholangan edi. Xususan, Aristotel Qadimgi Gretsiyadagi uch asosiy siyosiy partiya – dengiz sohilida, tekislikda va tog'li hududlarda istiqomat qiluvchi fuqarolar o'rtasidagi mavjud kurash, o'zaro raqobat haqida yozib, bu partiyalar ijtimoiy yaxlitlik va davlat birligiga rahna solishi mumkin, deya qayd etgan edi⁴⁸.

Siyosiy partiya odatda muayyan siyosiy dastur asosida faoliyat ko'rsatadi. Buning boisi – siyosiy partiya atrofida jamiyatning muayyan guruhleri, tabaqalari, sinflari ma'lum bir maqsad, g'oya asosida birlashadilar.

Siyosiy partiyalar odatda butun jamiyatning emas, balki jamiyatdagi muayyan bir ijtimoiy guruhning, aholining turli qatlamlarini manfaatlarini ifoda etadilar. Buning uchun siyosiy partiyalar jamiyatdagi muayyan guruhlar manfaatlaridan kelib chiqib, harakat qiladilar. Bu manfaatlar ular uchun ijtimoiy baza, manba bo'lib xizmat qiladi, partiyalar ushbu manfaatlarni himoya qiladi va ularni qondirish uchun hokimiyatga erishishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Siyosiy partiyalar hamisha ham o'z tub maqsadlarini ochiq bayon etmasliklarining sababi, jamoatchilik xayrixohligini yo'qotishni istamasliklaridadir. Chunki, keng jamoatchilikning, butun jamiyatning xayrixohligiga, qo'llab-quvvatlashiga erishish yo'llarini qidirish – siyosiy partiyaning muhim xususiyatlaridan biridir.

Siyosiy partiyaning vazifalari:

⁴⁷ Mualliflar jamoasi. Mustaqillik. Izohli ilmiy-ommabop lug'at – Toshkent: Sharq, 2006. – B. 321.

⁴⁸ <http://www.aristotel-rnd.ru>. (<http://www.aristotel-book.ru>.)

1. Partiya muayyan siyosiy maqsadni ishlab chiqishi, o'z mafkurasini va dasturini yaratib, uni ma'qullovchi jamoatchilik fikrini shakllantirishga harakat qiladi.

2. Siyosiy faoliyatda ishtirok etish. Bunda, muayyan manfaatlar himoya qilinadi.

3. Fuqarolarning siyosiy faolligini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish. Bunda, fuqaro ruhiyati partiya maqsadlarini amalga oshirishga yo'naltiriladi va jamoatchilikning fikrini shakllantirishda OAV dan foydalaniladi.

4. Partiyaning hukmron elitasini shakllantirish, hokimiyatning vakillik organlari va jamiyat o'rtasidagi aloqani ta'minlash, boshqa siyosiy institutlar bilan birgalikda davlat va ijtimoiy boshqaruvning mexanizmini shakllantirish, hokimiyat tuzilmalari va mexanizmlarining barqarorligini ta'minlash.

5. Siyosiy madaniyatni oshirish.

6. Parlament va hukumat faoliyatiga ta'sir ko'rsatish.

7. Siyosiy yetakchilarni tarbiyalash.

8. Davlat oldida turgan maqsadlarning shakllanishi va amalga oshirilishida faol ishtirok etish.

Partiya o'z g'oyaviy funksiyasini bajarishda bir tomondan g'oyalar ishlab chiqishga, ikkinchi tomondan, bu g'oyalar tarafdorlarining odamlar orasida ko'payishiga harakat qiladi. Bunda ular umuman jamiyatni taraqqiy ettirishning modellarini jamoatchilik va davlat e'tiboriga havola etadilar, garchi bu modellar aslida, muayyan ijtimoiy birliklarning manfaatlarini himoya etadigan modellar bo'lsa ham.

Siyosiy partiyalar faoliyatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardir:

1) muayyan ijtimoiy guruhlarining manfaatlarini aniqlash va asoslash;

2) siyosiy doktrina va dasturlarni yaratish;

3) hokimiyat uchun kurashda ishtirok etish va davlat hokimiyatini amalga oshirishda davlat faoliyati dasturini yaratish;

4) jamiyatni yoki uning muayyan qismini siyosiy tarbiyalash, jamoatchilik fikrini shakllantirish;

5) davlat apparati uchun xodimlarni tayyorlash va tavsiya etish.

O'zbekiston sharoitida esa yuqoridagilardan tashqari siyosiy partiyalar yangi bir demokratik tuzum qurishda jamiyat oldida turgan eng dolzarb muammolarni ilgari surishda, ularni hal etishning yo'llarini ko'rsatishda, davlat va jamiyat qurilishida amaliy taktikalar bilan chiqishda tashabbuskor bo'lishlari zarur.

Partiyalarni turlarga bo'lishning eng ommabop, oddiyroq mezonini ham mavjud. Bu mezoniga ko'ra ular avtoritar, demokratik, konservativ, liberal, klerikal, neofashistik va hokazo partiyalarga bo'linadilar.

Partiyaviy tizimlarni turlarga bo'lishda ularni uch guruhga ajratish keng tarqalgan. Bunday tasniflashda bir partiyali, ikki partiyali va ko'ppartiyali tizimlar o'zaro farqlanadi.

Ko'p qutbli yoki ko'ppartiyali tizimning o'zagini ko'ppartiyalilik tamoyili asosida faoliyat yuritadigan uch yoki undan ortiq partiyalar orasidagi raqobat tashkil etadi. Bunday partiyaviy tizimning shakllanishiga turli omillar: tarixiy, milliy, ijtimoiy, g'oyaviy omillar sabab bo'lishi mumkin. Masalan, ko'p tabaqali, mulkchilikning turli shakllari, barqaror demokratik an'analar mavjud jamiyatlarga ikki partiyali yoki ko'ppartiyali tizim mos keladi.

Biroq, ko'ppartiyali tizim ustuvor afzalliklarga (masalan, plyuralizm) qaramay, muayyan kamchiliklarga ham ega. Ma'lumki, ikki partiyali tizimda ikki raqib partiya o'z elektoratini (saylovchilarini) maksimal darajada kengaytirishga harakat qiladi.

Mustaqil O'zbekistonda tarixan qisqa davr mobaynida ko'ppartiyaviylik tizimi shakllandi va davlatning barqaror rivojlanishi uchun ulkan imkoniyat tug'dirdi, mavjud partiyalar demokratik mazmun va tamoyildagi dasturlari bilan chiqib, jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shmoqdalar.

Partiyalarning jamiyat siyosiy hayotida faol ishtirok etishi, eng avvalo, parlament Qonunchilik palatasi ishida o'z vakillari orqali ishtirok etuvchi partiyalarning demokratik qonunlar qabul qilish va ularni hayotga tatbiq etish borasida faollik ko'rsatishi, parlament orqali ijroiya hokimiyat faoliyatini nazorat qilib borishi turli manfaatlar, kuchlar o'rtasidagi muvozanatni vujudga keltiruvchi asosiy omildir. Shu boisdan ham Prezident I.A.Karimov 2005-yil 27-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik Palatasining birinchi yig'ilishida «Parlament - jamiyat hayotining ko'zgusi» mavzuidagi nutqida ta'kidlaganidek, «bugungi Qonunchilik palatasida qonunlarni ishlab chiqish partiyalar vakolatiga topshirildi va barcha buni yaxshi anglashi lozim»⁴⁹.

Bugungi kunda O'zbekistonda 4 ta siyosiy partiya mavjud.

1).Xalq demokratik partiyasi (XDP) - 1991-yil 1-noyabrda tashkil etilgan.
2).«Adolat» sotsial-demokratik partiyasi (ASDP) - 1995-yil 18-fevralda tashkil topgan.
3).Milliy tiklanish demokratik partiyasi (MTDP) - 1995-yil 3-iyunda tashkil topgan.
4).Liberal demokratik partiyasi (LDP) - 2003-yil 15-noyabrda tashkil topgan⁵⁰.

Respublikamiz milliy mustaqillikka erishgan dastlabki kundan boshlab ko'ppartiyaviylik va hurfikrlilik tarafdori ekanligini butun dunyoga oshkor qildi. Chunki, ko'ppartiyaviylik va fikrlar xilma-xilligi jamiyat taraqqiyotining asosiy qonunlaridan biridir. Ko'ppartiyaviylik qonun ustuvor bo'lgan va rivojlangan demokratik jamiyatlar faoliyatining tarkibiy qismi va muhim poydevor ko'rsatkich hisoblanadi. Uning eng muhim va o'ziga xos belgisi – bu jamiyatda hurfikrlilik, xilma-xil fikrlash asosida tashkil topgan turli siyosiy par-

⁴⁹ Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz - jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. – Toshkent. O'zbekiston, 2005 – B. 24.

⁵⁰ Jo'rayev N. O'zbekiston tarixi. -Toshkent: Sharq, 2008.-B.128.

tiyalarning faoliyat ko'rsatishidir. Ko'ppartiyaviylik va erkin fikrlash bo'lmagan jamiyatda rivojlanish ham, taraqqiyot ham bo'lmaydi.

Mustaqillik yillarida qabul qilingan rasmiy hujjatlarda ko'ppartiyaviylik tizimi qonuniy asoslanishi bilan birga siyosiy partiyalarning huquqiy maqomlari ham o'zining yuridik intihomini topdi. Odatda, rivojlangan demokratik mamlakatlarda siyosiy muxolifatdagi partiyalar saylovlarda g'oliblik shohsupasiga ko'tarilgan raqib-lariga rasmiy dasturlari asosida hokimiyatda faollik ko'rsatishlariga to'sqinlik qil-maydilar. Hokimiyat uchun kurash asosan saylov kompaniyasi davrida olib boriladi. Bu demokratik jarayon qaror topgan jahondagi ilg'or mamlakatlarda hayot sinovidan o'tgan tajriba. O'zbekiston Respublikasi ham ana shu yo'ldan borishni o'z taraqqiyotining asosiy mezonini qilib olgan va bu borada amaliy qadamlar qo'ymoqda.

O'zbekiston Respublikasining "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi Qonunida ta'kidlanganidek: "Siyosiy partiya qarashlari, qiziqishlari va maqsadlari mushtarakligi asosida tuzilgan, jamiyatni muayyan qismining davlat hokimiyatini shakllantirishdan iborat siyosiy ifodasini ro'yobga chiqarishga intiluvchi hamda vakillari orqali davlat va jamiyat ishlarini idora etishda qatnashuvchi O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining ko'ngilli birlashmasidir"⁵¹. Qonunda qayd qilinganidek, ichki ishlar organlari, prokuror va prokuratura tergovchilari, sud'yalar, milliy xavfsizlik xizmati xodimlari, harbiy xizmatchilar siyosiy partiyalarga a'zo bo'la olmaydilar.

Alohida ta'kidlash joizki, demokratik jarayonlarning rivojlanishi, siyosiy partiyalarning soni bilan emas, balki ularning faoliyatlari mazmuni, mohiyati, maqsadlari bilan belgilanadi.

XALQARO LIZING MUNOSABATLARINI AMALGA OSHIRISHDA «XALQARO MOLIVAVIY LIZING TO'G'RISIDAGI» KONVENSIYANING TUTGAN O'RNI

Yuldasheva To'tixon Yakubovna,

*Andijon Qishloq xo'jaligi
instituti Gumanitar fanlar
kafedrasi assistenti.*

Barcha davlatlarda ichki lizing operatsiyalari xalqaro lizing operatsiyalari va xalqaro lizing to'g'risidagi qonunchilik asosida amalga oshiriladi. Bu fuqarolik huquqida keng qo'llaniluvchi va bevosita amaldagi qonunchilikda alohida o'rinni egallovchi holat bo'lib hisoblanadi.

Lizing operatsiyalari dunyoni ko'plab davlatlarida keng tarqalishi, shu bilan birga xalqaro munosabatlar doirasida keng qo'llanilishi, shuningdek, lizing shartnomasini huquqiy boshqarishdagi farqlar xalqaro lizing to'g'risidagi

⁵¹ <http://lex.uz/guest/jrs.html>. "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi (2006-yil, 26-dekabr)

qoidalarning unifikatsiyasiga bo'lgan talabni ko'rsatdi. Bu esa turli davlat a'zolari shaxsiy huquqlarini xalqaro unifikatsiyalash instituti doirasida «Xalqaro lizing to'g'risida»gi (UNIDRUA) Konvensiyani ishlab chiqishlarini taqozo etdi. Bu ehtiyojni qondirish maqsadida 1988-yil 28-mayda Ottavada «Xalqaro moliyaviy lizing to'g'risidagi» Konvensiya qabul qilindi.⁵² Ushbu Konvensiya xalqaro lizing munosabatlarini tartibga soluvchi qator kollizion normalarni o'z ichiga olgan xalqaro hujjat sifatida amaliy ahamiyatga ega. Konvensiyada xalqaro miqyosda vujudga keladigan moliya lizingi tushunchasi, uning belgilari, muhim jihatlari lizing shartnomasi taraflarining huquq hamda majburiyatlari aniq ko'rsatib berilgan. Lekin, bu o'rinda ta'kidlash joizki, ushbu qoidalar (normalar) turli a'zo mamlakatlarda joylashgan sub'ektlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishga mo'ljallanganligini e'tibordan chetda qoldirmaslik lozim. Biroq ichki lizingni, ya'ni O'zbekiston hududida amalga oshiriladigan lizing operatsiyalarini ta'riflashda, ularning jixatlarini belgilashda, shuningdek, zarur hollarda huquqiy tartibga solish masalalarida, Konvensiya normalariga murojaat qilish har tomonlama maqsadga muvofiq bo'ladi. Zero, O'zbekiston Respublikasi FK 7-moddasida «xalqaro huquq normalari ichki qonun hujjatlariga nisbatan ustun yuridik kuchga ega» ekanligi to'g'risidagi tamoyil belgilab qo'yilgan.⁵³

«Xalqaro moliyaviy lizing to'g'risidagi» Konvensiya 3 bo'lim va 25 moddadan iborat.

Lizing oluvchiga lizing shartnomasini shartlarini ma'qullash ixtiyori topshiriladi. Chunki lizing beruvchi lizing qabul qiluvchi bilan lizing shartnomasini tuzadi. Ushbu shartnomaga asosan, «lizing oluvchiga ijara to'lovi hisobiga jihozlardan foydalanish huquqi beriladi». (Konvensiyaning 1-moddasi).

Konvensiya matnida har qanday moliyaviy lizing shartnomasining quyidagi xarakterli belgilari ko'rsatilgan:

- Birinchidan, lizing oluvchi jihozlarni hamda yetkazib beruvchini kvalifikatsiyasi va qarori belgilovchi ahamiyatga ega emas;
- Ikkinchidan, lizing beruvchi jihozlarni lizing shartnomasi bo'yicha yetkazib beruvchini xabardor qilgan holda oladi;
- Uchinchidan, ijara to'lovlari lizing kelishuviga asosan hamma jihozlarning amortizatsiyasi va ularning narxiga asolanib belgilanadi.

Bundan tashqari, moliyaviy lizing shartnomasining xarakterli belgilaridan biri Konvensiyada alohida ko'rsatilgan bo'lib, ijaraga berilgan jihozlarni sotib olish huquqi berilishi berilmasligiga qaramasdan lizing oluvchi foydalanishi

⁵² «Аренда жилых и нежилых помещений. Сборник норм. документов и комментариев. – М.: Издательство «Бизнес-Инфра», 1996. – С. 3–12.

⁵³ O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi, 2008. – B. 8.

mumkinligi ko'rsatilgan. Bundan chiqdi ijarachiga jixozlarni sotib olish majburiyati yuklanmaydi.

Konvensiyaga asosan moliyaviy lizing shartnomasining ob'ektlariga lizing oluvchi oilaviy maqsadda va uning xodimlari foydalanadigan jihozlar kirmaydi.

Shunday qilib, xalqaro moliyaviy lizing deganda, tadbirkorlik faoliyati doirasida tuziladigan xalqaro shartnomalar tushuniladi.

Konvensiyadan foydalanish doirasi an'anaviy usul bilan belgilangan, ya'ni Konvensiya faqatgina lizing beruvchi va lizing oluvchi turli xil davlatlarda faoliyat joylari bo'lsagina amalda bo'ladi va qo'llaniladi. Agar, lizing shartnomasi tomonlari: bir davlatda bo'lib va bir davlatda faoliyat joylari bo'lsa, unda shartnoma xalqaro bo'lmaydi va Konvensiyaga bo'ysunmaydi. Lizing beruvchi va lizing oluvchilar har xil joylarda faoliyat joylari bo'lishi bilan birga Konvensiyadan foydalanish uchun ular moliyaviy lizing shartnomasini Konvensiya a'zosi bo'lgan davlat bilan bog'lashi kerak. Bunday bog'liqlikni 2 holatda ko'rish mumkin:

- lizing beruvchi va lizing oluvchilarning faoliyat joylari bor bo'lgan davlatlar hamda jihozlarni yetkazuvchilar kelishilgan tomon bo'lsa (Konvensiya a'zolari bo'lsa);

- xalqaro shaxsiy huquq normalariga ko'ra, jihozlarni yetkazish to'g'risidagi kelishuv hamda lizing shartnomasi Konvensiya a'zosi bo'lgan davlat qonuni ostida bo'lsa.

Konvensiyadan foydalanishda bu shartlardan biri yo'q bo'lishi mumkin, lekin bunga har qaysi tomon ham rozi bo'lgan bo'lishi kerak.

Konvensiyaning afzalligi shundaki, u tomonlarning birxillashtirilgan huquqlarini va majburiyatlarini yuqori darajada bajarilishini ta'minlaydi.

Mazkur Konvensiyada lizing kelishuvidan kelib chiqadigan lizing beruvchi va lizing oluvchi huquqlarini bir-biriga o'tishi alohida tartibga solingan. Bu to'g'rida ikkita qarama qarshi g'oya bor. Lizing beruvchi o'zining asbob-uskunaga nisbatan yoki lizing kelishuviga nisbatan ba'zi yoki hamma huquqlarini berishi yoki xohlaganida tasarruf qilishi mumkin. Bunday huquqlarning o'tishi lizing oluvchini lizing shartnomasi bo'yicha birorta majburiyatidan ozod qilmaydi.

Lizing oluvchiga keladigan bo'lsak, u aksincha, asbob-uskunaga nisbatan yoki lizing shartnomasiga nisbatan huquqlarini lizing beruvchining ruxsatisiz, uchinchi shaxslarni huquqlarini hisobga olmasdan boshqa shaxsga o'tkaza olmaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda shuni xulosa qilish mumkinki, ushbu Konvensiya faqat xalqaro lizing bo'yicha tomonlarning munosabatlariga qo'llaniladigan huquqni belgilash mumkin bo'lgan qator an'anaviy kollizion normalardan tashkil topgan xalqaro shaxsiy huquq akti sifatada muhim ahamiyat kasb etib qolmay, bundan tashqari lizing tushunchasiga tegishli aniq holatni hamda ushbu shartnoma belgilarini o'z ichiga oladi. Bu holat esa

Konvensiyani xalqaro miqyosda muhimligini yanada oshiradi, chunki Konvensiya turli xil davlatlar qonun chiqaruvchi organlari ichida bo'lgan har xil yondashuvlarning mevasidir. Shunday qilib, Konvensiyadagi lizing shartnomasi ostida shu narsa tushiniladiki, unda bir tomon (lizing beruvchi), boshqa tomon (lizing oluvchi)ning ko'rsatmasiga ko'ra, uchinchi shaxs (yetkazib beruvchi) bilan mashinalar komplekti, ishlab chiqarish anjomlari va boshqa jihozlarni yetkazib berish to'g'risida shartnoma tuzadi.

HUQUQIY MADANIYAT - BARQARORLIK VA HAMJIHATLIK OMILI

I. Dalaboyev,

*Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va
huquq ta'limi yo'nalishi 2-bosqich
talabasi.*

*Ilmiy rahbar: B. Sarimsoqov, Milliy
g'oya ma'naviyat asoslari va huquq
ta'limi kafedrasi o'qituvchisi.*

O'zbekiston Respublikasida jamiyat a'zolarining huquqiy madaniyatini yuksaltirish eng muhim vazifalardan biri sifatida qaraladi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 1997-yil 27-avgustda qabul qilingan "Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi"⁵⁴, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Huquqiy tarbiyani yaxshilash, aholining huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish, huquqshunos kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish, jamoatchilik fikrini o'rganish ishini yaxshilash haqida"gi Farmoni⁵⁵ (1997-yil 8-iyul'), O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001-yil 4-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganishni tashkil etish to'g'risida"gi Farmoyishi⁵⁶ va boshqalar jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirishga doir aniq chora-tadbirlarni belgilab beruvchi muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Jamiyat a'zolarining huquqiy madaniyati milliy mafkura, milliy madaniyat, ma'naviy meros, davlatchilik va huquqning rivojlanishi, umuminsoniy qadriyatlar bilan chambarchas bog'liq.

"Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi" doimiy faoliyat ko'rsatuvchi keng qamrovli tizimni barpo etishga qaratilgan. U aholining huquqiy madaniyati va ijtimoiy faolligini oshirishni, fuqaro, davlat va

⁵⁴ O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. - Toshkent: 1997. №8. 23-33-b.

⁵⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari 1995-yil 5-yanvardan 2000-yil 1-yanvarigacha. - Toshkent: Adolat, 2000. 153-157-b.

⁵⁶ O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, Toshkent, 2001. №1.

jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda hamjihatlikni ta'minlashni, fuqarolarning huquqiy ta'limi va huquqiy tarbiyasini takomillashtirishni, davlat apparati xodimlari va fuqarolarning huquqiy bilimlarini oshirishni, huquqshunoslarni tayyorlash va qayta tayyorlashni, ularning malakalarini oshirishni, huquqiy madaniyat sohasida ilmiy izlanishlar olib borishni ko'zda tutadi. Dastur har bir shaxsni yuridik taraqqiyotning istiqboli haqidagi bilimlar bilan qurollantirishga da'vat etadi. Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan "Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi to'g'risida"gi qaror aholining huquqiy madaniyatini oshirish borasidagi ishlar qisqa muddatli emas, balki davlatning ma'lum maqsad sari yo'naltirilgan strategik kursi, jamiyat faoliyati va hayotida qonunning ustunligini ta'minlash borasidagi kundalik mehnat ekanligidan guvohlik beradi.

Ma'lumki, mamlakatda qabul qilinayotgan barcha qonunlar aholining ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy manfaatlarini ta'minlash bilan bir qatorda, ularni himoya qiladi. Shu nuqtai nazardan ham ular yagona adolat mezonidir. Shuning uchun aholiga huquqiy xizmat ko'rsatishni, aholining ommaviy-huquqiy ta'lim berishni kengaytirish davlatning birlamchi vazifasidir. Shu maqsadda "Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi" maktabgacha tarbiya muassasalari, oliy o'quv yurtlari va umumta'lim maktablarida huquqiy ta'lim va huquqiy tarbiya borasida yuridik bilimlarning test sinovi va davlat imtihonlari tarzida joriy etish, pedagoglarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish, ilmiy noshirlikni, ilmiy-ommabop yuridik adabiyotlarni, ma'lumotnomalarni ko'paytirishni taqozo etadi.

Istiqlol yillarida huquqiy ong, huquqiy tarbiya, huquqiy ta'lim va huquqiy madaniyatga bo'lgan munosabat tubdan o'zgardi. Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish davlat faoliyatining asosiy yo'nalishiga aylandi. U davlat mustaqilligini mustahkamlash strategiyasida, demokratik institutlar tizimini barpo qilishda va yangi huquqiy mafkurani yaratishda o'zining munosib o'rini egalladi. "Yuksak huquqiy madaniyat – demokratik jamiyat poydevori hamda huquqiy tizim yetukligining ifodasidir. U jamiyatdagi turli xil hayotiy jarayonlarga faol ta'sir ko'rsatuvchi, fuqarolarning, barcha ijtimoiy guruhlarning jipslashuviga ko'maklashuvchi, jamiyatning yaxlitligi hamda batartibligini ta'minlovchi va mustahkamlovchi omildir. Qonunni hurmat qilish huquqiy jamiyatning, siyosiy va huquqiy tizimlar samarali faoliyat ko'rsatishining asosiy talablaridan biri hisoblanadi"⁵⁷.

Aholining huquqiy madaniyatini shakllantirish va yuksaltirish davlat siyosati ekanligi inson huquqlari va erkinliklarining birlamchi ahamiyatga ega ekanligi, Konstitutsiya va qonunlarning ustunligi, demokratlashuv, ijtimoiy adolat, huquqiy tarbiyaning ilmiyligi, izchilligi va umumiyliigi, huquqiy

⁵⁷ Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, Toshkent, 1997. №8. 23-33-betlar.

ma'lumotlarning ochiqqligi, huquqiy tarbiya va savodxonlikka o'ziga xos munosabatda bo'lish kabi asosiy qoidalarga tayanadi.

Ma'lumki, madaniyat shunday qudratli hodisaki, u xalqning ijtimoiy ongini, ruhiyatini, ma'naviy dunyosini aks ettiradi, uning o'zligini anglashga, ma'naviy qadriyatlarini tiklashga ko'mak beradi. Madaniyat jamiyat, shaxs faoliyatining nafaqat yuksak sohasi, balki u butun xalqni ulkan va murakkab vazifalarni muvaffaqiyatli hal etishga ruhlantiradigan, safarbar etaoladigan qudratli kuchdir. Bugungi kunda jamiyatning umumiy madaniyatini, jumladan huquqiy madaniyatini yuksaltirish fuqarolik jamiyatini barpo etish, shuning barobarida huquqiy davlatni shakllantirishning muhim omili sifatida muxim ahamiyat kasb etmoqda. Shu boisdan ham mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini barpo etishda huquqiy madaniyatning beqiyos roli va ahamiyatini ilmiy jihatdan keng tadqiq etish huquqshunoslik fanimiz oldida turgan dolzarb masalalardan biridir.

O'zbekistonda fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurish konsepsiyasi markazida milliy ma'naviy - madaniy merosga, xalqimizning axloq-odob, insonparvarlik an'analariga asoslanish masalasi turadi. Yangi ijtimoiy voqelik - fuqarolik jamiyatini shakllantirish maqsadlariga milliy, tarixiy - madaniy tajribani mustaqil taraqqiyotimiz davrida vujudga kelgan madaniy qadriyatlar va tajriba bilan uyg'unlashtirish uchun ilmiy asoslangan, qiyosiy tahlillar bilan boyitilgan, zamonaviy demokratik taraqqiyotga mos tavsiyalar ishlab chiqish muhim⁵⁸.

Muxtasar qilib aytganda, huquqiy madaniyatni yuksaltirish birinchidan, fuqarolarning huquqiy bilim va saviyasini oshiradi, ikkinchidan, huquqni insonlarga yaqinlashtiradi, uchinchidan, huquqqa nigilistik munosabatni qisqartiradi, to'rtinchidan, huquqiy tizimning faol harakatini ta'minlaydi, beshinchidan, aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltiradi, oltinchidan, demokratik-huquqiy davlat barpo etishda samarali vosita sifatida xizmat qiladi!

⁵⁸ Musayev F. Demokratik davlat qurishning falsafiy - huquqiy asoslari. - Toshkent: Ozbekiston, 2007, 8-b.

O'ZBEKISTON FUQAROLIK JAMIYATI SARI

Mirtoyeva Nazokat,

*NamDu Pedagogika va jismoniy madaniyat
fakulteti BT va STI yo'nalishi 4 -bosqich 406-
guruh talabasi.*

B. Tillayev,

*Ilmiy rahbar: Milliy g'oya; ma'naviyat va
huquq asoslari kafedrasida o'qituvchisi.*

O'zbekiston mustaqilligining dastlabki yillaridanoq ko'p marotaba samarali ijtimoiy siyosatni amalga oshirish doirasida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari o'zbek xalqining azaliy qadryatlariga aylangan va hozirda davlatning moderinizatsiya jarayonida muhim o'rin tutayotgani tufayli, kuchli fuqarolik jamiyatini tuzish va yaratish asoslari yaratildi. Fuqarolik jamiyati kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari strategiyasining asosidir. Erkinlik, ozodlik, tenglik, ijtimoiy adolat jamiyatidir. Inson manfaati uchun xizmat qilish, turmush farovonligini ta'minlash, uning qobiliyati, talanti va iste'dodini ro'yobga chiqarish, niyatlari, orzu-armonlarini amalga oshirish, fuqarolik jamiyatining oliy maqsadidir. Fuqarolik jamiyati axloqiy madaniyatga tayanadigan huquqiy va siyosiy madaniyatga ega bo'lgan jamiyat hisoblanadi.

Fuqarolik jamiyati insonparvarlik jamiyati bo'lib, O'zbekistonda tug'ilib, shu yurtga mehnati singgan, uni o'z Vatani deb bilgan va hurmatlagan har bir millat va xalq vakillarini dini, tili, madaniyati, dunyoqarashi, urf-odatlarini xilma-xilligiga qaramasdan qonun yo'li bilan himoya qiladi, ularning manfaatlarini qo'llab-quvvatlaydi. Konstitutsiyada fuqarolik jamiyatning muhim tarkibiy qismlari va institutlari bo'lmish oila, maktab, jamoat birlashmalari, siyosiy partiyalar, ommaviy axborot vositalari, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari (mahalla), diniy muassasalar, jamg'armalar, uyushma va ittifoqlar va boshqalarning huquqiy maqomi hamda asoslari mustahkamlab qo'yilgan. Milliy g'oyaning fuqarolik jamiyati qurishdagi ahamiyati ortib boraveradi. Bu kabi institutlar o'zbek zaminida qadimdan jamiyatni rivojlantrishda an'anaviy tuzulma sifatida tashkil topgan. Fuqarolik jamiyati huquq va demokratiyaga asoslangan ijtimoiy hayotning zarur oqilona usulidir. Insonga uning iqtisodiy siyosiy va madaniy hayoti shakllarini erkin tanlashi kafolatlanadigan, qonun ustuvorligi hamda inson huquqlari va erkinliklari qaror topadigan, ko'ppartiyaviylik, mafkura va fikrlarning xilma-xilligi ta'minlanadigan hamda, o'zini o'zi boshqarish organlarining mavqeyi baland bo'lgan ijtimoiy tuzumdur.

Butun mamlakat hududlari -shahar, tuman, qishloq, ovul va mahallalarda yangi turmush tarzini shakllantirish-da, jamiyatda shaxsning rolini oshirishda, o'zini o'zi idora qila olish fazilatlarini kuchaytirishda, o'z hayotini o'zi tashkil

etish tamoyillarini kundalik faoliyatga aylantirishda mahalla imkoniyatlaridan foydalanish zarur edi. Respublikani tubdan isloh qilish jarayonlari fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish mahalliy organlari faoliyatini o'zgartirishni, uni milliy an'analar va jahon tajribalari asosida tashkil etishni taqozo etadi. Har qanday mamlakatda, jamiyatda yashayotgan inson o'ziga qulay imkoniyatlar yaratadi, faqatgina mana shunday imkoniyatlar eshigini ochib beruvchi aql, zakovat, idrok deb atalmish kuchli tuyg'ular borligi va ulardan oqilona foydalanish kerakligini jamiyat ongiga singdirish kabi urinishlar o'z samarasini bermoqda. Fuqarolik jamiyatini barqaror sur'atini oshirishda O'zbekiston Respublikasining Qonun chiqaruvchi davlat organlari tomonidan qonunlar qabul qilindi. Fuqarolik jamiyatini tuzishda prinsplarga asoslangan holda ish olib boriladi. Oshkoralilik, ijtimoiy hamkorlik, jamoatchilik nazorati, o'z-o'zini boshqarish va yigirmaga yaqin prinsplari mavjud. Fuqarolik jamiyatining shakllantirishda 4 ta funksiya davlat tomonidan amalga oshiriladi:

- moliya kredit (pul)
- mudofaa
- tashqi siyosat
- soliq

Qolgan barcha funksiyalar fuqarolik jamiyat qo'liga topshiriladi va ularni jamiyatni o'zi yuritadi. Fuqarolik jamiyatini tuzishda O'zbekiston ham mana shunday funksiyalarga asoslanadi. I.A.Karimov tomonidan ilgari surilgan konsepsiyada "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish" alohida ta'kidlangan. Fuqarolik jamiyati institutlari – jamiyatda qaror topgan nodavlat tashkilotlari hisoblanadi. Ular muayyan ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy va siyosiy faoliyatni amalga oshiradilar. Fuqarolik jamiyati institutlari, jumladan, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarning jamiyat va davlat qurilishi tizimidagi huquq hamda vakolatlarini kengaytirishga qaratilgan qonunchilikni takomillashtirish masalasi ustuvor yo'nalishga aylanishi zarur. Bu ustuvor yo'nalishda samarali natijalarga erishish quyidagi vazifalarni amalga oshirish lozim:

- 1) mahalla tizimining ta'siri va ahamiyatini yanada oshirish;
- 2) yoshlar ma'naviy-axloqiy tarbiyasi bilan bog'liq masalalarni yechish, ijtimoiy sohaning samarali faoliyat yuritishini ta'minlash, joylarda jamoat tartibi va xavfsizligini saqlashni kuchaytirish;
- 3) mahalla faoliyatining huquqiy bazasini takomillashtirish, uning samarali faoliyat yuritish mexanizmi va vakolatlarini kengaytirish;
- 4) mahallalarda aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, xususiy tadbirkorlik va oilaviy biznesni rivojlantirish markaziga aylantirish yo'lida boshlagan ishlarimizni izchil davom ettirib, yangi bosqichga ko'tarish;
- 5) boshqaruv idoralari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatishda mahalla vazifalarini kengaytirish;

6) davlat ijtimoiy dasturlarini hayotga tatbiq etishda amalga oshirilayotgan ishlardan jamoatchilikni keng xabardor qilish maqsadida davlat organlarining o'zini o'zi boshqarish idoralari bilan mustahkam hamkorligini ta'minlash;

7) oqsoqollar va ularning maslahatchisi etib munosib nomzodlar saylanishini ta'minlaydigan fuqarolar yig'ini raislari (oqsoqollar) va ularning maslahatchilarini saylash tizimini yanada takomillashtirish.

“O'zbekiston rahbarining davlat hokimiyati va boshqaruvini yanada demokratlashtirishga qaratilgan takliflari davlat hokimiyatining uch sub'yekti o'rtasidagi vakolatlarni yanada muvozanatlashtirilgan holda taqsimlashga yordam beradi”⁵⁹

Mustaqillikni mustahkamlash, mamlakatda tinchlik va taraqqiyotni yanada rivojlantirish maqsadida yuzdan ortiq millat va elatlar fikri, maqsadini amalga oshirish huquqiy demokratik jamiyat barpo etayotgan O'zbekiston uchun xos xususiyatdir. *Xilma-xil partiyalarning* vujudga kelishi, ko'plab turli davlat va nodavlat jamoat tashkilotlarining shakllanishi, turli jamg'arma, uyushmalarning paydo bo'lishi mamlakatda demokratiya tamoyillarining amal qilayotganidan dalolatdir.

“O'zbekistonda qisqa vaqt mobaynida fuqarolik jamiyatining qudratli poydevori shakllanganini tan olmaslikning iloji yo'q”⁶⁰.

FOND BIRJASI VA QIMMATBAHO QOG'OZLAR

*Akayeva Marapat Abduxaliqovna,
NamDU Milliy g'oya, ma'naviyat va huquq
asoslari kafedrasida katta o'qituvchisi, yu.f.n.*

Respublikamizning mustaqillikka erishishi bozor qonuniyatlari asosida ishlab chiqarish munosabatlarini qayta ko'rib chiqilishini taqozo etib, jamiyat ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishida qimmatli qog'ozlar bozorini vujudga kelishini zaruratga aylantirdi va iqtisodiyotda ushbu bozor segmentini rivojlantirishning dolzarbligini keskin oshirdi.

O'zbekiston Respublikasining hozirgi vaqtda amalga oshirayotgan iqtisodiy siyosatining asosiy maqsadlaridan biri, iqtisodiyotning turli sohalarida faollikni jonlantirishga qaratilgan moliyaviy barqarorlikka erishishdan iboratdir. Oxirgi yillar davomida o'tkazilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida mamlakatimizda bozor iqtisodiyotining ajralmas qismi bo'lgan qimmatli qog'ozlar bozorining shakllanishiga va uning xo'jalik muomalalarida

⁵⁹ Faruk A. “Asiya al-Vusta” internet nashri bosh maharriri o'rinbosari // “Xalq so'zi”, 2010 -yil 11-dekabr

⁶⁰ Kulik V. Ukraina Strategik tadqiqotlar milliy instituti direktori maslahatchisi, Fuqarolik jamiyati muammolari tadqiq etish markazi rahbari // “Xalq so'zi”, 2010- yil 10 -dekabr

bo'lishligiga erishilmoqda. Ushbu qisqa davr mobaynida O'zbekiston bozorida turli xil qimmatli qog'ozlar, jumladan, xususiylashtirilgan davlat korxonalari va yangidan yaratilgan korxonalar aksiyalari, davlat va korporativ obligatsiyalar, tijorat banklarining depozit sertifikatlari, vekselar va boshqalar paydo bo'ldi.

1991-yilning oxirlaridan boshlab, qimmatli qog'ozlar chiqarish va ularning muomalasi (harakati), fond birjasi va investitsion institutlarning faoliyatini tartibga solishga qaratilgan qator qonun va qonunosti hujjatlari qabul qilindi. Jumladan, 1997- yil 1-martdan kuchga kirgan O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi, 1993- yil 2-sentyabrda qabul qilingan «qimmatli qog'ozlar va fond birjasi to'g'risida»gi, 1996 yil 25 aprelda qabul qilingan «qimmatli qog'ozlar bozorining faoliyat ko'rsatish mexanizmi to'g'risida»gi, 1996-yil 26-aprelda qabul qilingan «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi⁶¹, 1998-yil 24-dekabrda «Investitsion faoliyat to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunlarining qabul qilinishi mamlakatimizda qimmatli qog'ozlar bozori shakllanishi bilan bog'liq qonunchilik asoslarini yaratib berdi.

Iqtisodiyotda qimmatli qog'ozlar bozori faoliyatining naqadar muhimligini nazarda tutib, mamlakatimiz Prezidenti I. A. Karimov «...qimmatli qog'ozlar bozorining ahvoriga qarab, bozor munosabatlarining qaror topish jarayoni qay darajada jo'shqin borayotganligi haqida fikr yuritish mumkin»⁶²ligi to'g'risidagi fikrni alohida ta'kidlagan edi.

Qimmatli qog'ozlar bozori - jismoniy va yuridik shaxslarning qimmatli qog'ozlar chiqarish, ularning muomalada bo'lishi va haqini to'lash bilan bog'liq munosabatlar tizimidir⁶³.

Fond birjasi - bu qimmatbaho qog'ozlar, ya'ni aktsiya, obligatsiya, veksel, sertifikat, xazina majburiyatlari (kaznacheyskix obyazatel'stv) - moliyaviy f'yucherslar, opsiyonlar, varrantlar, bilan savdo qilish uchun tashkil etilgan muntazam faoliyat yurituvchi bozor.

Fond birjasining asosiy vazifasi qimmatbaho qog'ozlarni sotish orqali vaqtincha bo'sh turgan mablag'larni iqtisodiyotga jalb etish va ushbu mablag'larni tarmoqlar, sohalar, kompaniyalar o'rtasida oqib o'tishini ta'minlashdan iborat⁶⁴.

Qimmatli qog'ozlar bozori - jismoniy va yuridik shaxslarning qimmatli qog'ozlar chiqarish, ularning muomalasi, ularning haqini to'lab muomaladan

⁶¹ Mazkur Qonunga 27.12.1996-yil 357-1-son Qonun, 26.12.1997 yil 549-1-son Qonun, 29.08.1998- yil 681-1-son Qonun, 20.08.1999 yil 832-1-son Qonun, 15.12.2000-yil 175-11-son Qonunlari bilan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan.

⁶² Karimov I. A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – Toshkent: O'zbekiston, 1997. – B. 199–200.

⁶³ Каратуев А. Г. Ценные бумаги: виды и разновидности. Учебное пособие. – М.: Русская деловая литература, 1998. – С. 11.

⁶⁴ Mansurov S. M., Shodmonov E.Sh. Birjalar va tadbirkorlarning undagi ishtiroki. O'quv-uslubiy qo'llanma. TDYuI, 2008. – B. 48

chiqarish bilan bog'liq bo'lgan munosabatlari tizimidir, deyiladi O'zbekiston Respublikasining "Qimmatli qog'ozlar bozorining faoliyat ko'rsatish mexanizmi" to'g'risidagi qonunining 2-moddasi. Ushbu qonunning 3-moddasida aytilishicha "Qimmatli qog'ozlar sub'ektlari, ya'ni qimmatli qog'ozlarning emitentlari-qimmatli qog'ozlar chiqariladigan va ular yuzasidan investorlari, ya'ni qimmatli qog'ozlarning egalari oldida o'z nomiga ega bo'ladigan yuridik shaxslar, davlat organlari, O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan belgilanadigan hollarda va shartlarda chet ellik yuridik va jismoniy shaxslar hamda vakolatli organlar orqali chet davlatlar, xalqaro birlashmalar va tashkilotlar, investorlar o'ziga qarashli yoki o'z javobgarligi ostida jalb etilgan shaxslar davlat, davlat organlari, qimmatli qog'ozlar bilan professional faoliyatni amalga oshiradigan shaxslarning investitsiya institutlari va ularning barcha nurlari, ya'ni investitsiya vositachi (moliya brokeri yoki dileri), investitsiya kompaniyasi, fondi, banki va boshqalar to'g'ridan-to'g'ri qimmatli qog'oz bozorida qimmatli qog'ozlar muomalasi bilan shug'ullanadilar".

Lekin, shuni ham aytish kerakki, ba'zan qimmatli qog'oz egasining iroda yo'qolishi yoki qo'ldan chiqishi mumkin. Bunday hollarda, agar qimmatli qog'oz egasi yozilmagan bo'lsa uni sotib olgan insofli oluvchi qimmatli qog'ozga nisbatan to'liq huquqlarga ega bo'ladi, qimmatli qog'ozni tuzgan shaxs esa javobgar bo'lib qoladi⁶⁵.

Bu haqda O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining akademigi yuridik fanlari doktori, prof. Rahmonqulov shunday fikr bildirgan: "Taqqim etuvchiga tegishli qimmatli qog'oz insofli oluvchidan talab qilib olinmaydi. Qimmatli qog'ozlarning insofli oluvchilardan qaytarib olinmasligi qonun tomonidan mustakamlinishi - qimmatli qog'ozlarning muomalada bo'lish harakatini ta'minlaydi. Insofli oluvchining haqiqiy deb topilishi qimmatli qog'ozning qaytarib berilmasligiga asos bo'ladi. Bunday hollarda qimmatli qog'ozning insofli egasiga nisbatan qarshi da'vo ochilmaydi"

Chet davlatlar amaliyotida esa boshqa bir holat mavjud. Unga ko'ra, agar qimmatli qog'oz yo'qotilgan bo'lsa va bu haqda qimmatli qog'oz egasi bilib qolsa, u holda ma'lum bo'lgan paytdan boshlab 24 soat ichida u bankka qimmatli qog'ozning yo'qolgani haqida xabar berishi kerak. Bunday xabarni olgan bank qimmatli qog'oz bilan har qanday huquqiy ishlanmalarni ta'qiqlaydi va bu haqda qimmatbaho qog'oz ro'yxatiga belgi kiritadi, ya'ni "blokada" qo'yadi⁶⁶.

Hozirgi kunda ko'pchilik yurituvchi sub'ektlar iqtisodiy sinishdan chiqish va iqtisodiy sog'lomlashtirish maqsadida tashqi boshqaruviga asosan faoliyat

⁶⁵ Nazarov Yu. O'zbekiston Respublikasida Qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi qonunchilik // Xo'jalik va huquq. - 1996. - №6. - B. 36.

⁶⁶ Rahmonqulov X. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 1-qismiga umumiy tasnif va sharhlar. Toshkent: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 1997. - B. 199

yuritilmoqda. Iqtisodni sog'lomlashtirishga aksiyalar kapitalining juda qulay bo'lib, bu holda ko'proq xorijiy kompaniyalarda kuzatish mumkin.

Bunga yaqqol misol sifatida Angliya va Fransiya qirg'oqlarini birlashtirgan La-mansh bug'ozi tagidan o'tkazilgan tonnelni ko'rgan, "Yevrotunnel" kompaniyasi tajribasini keltirish mumkin. Moliyaviy sinish arafasida turgan kompaniya qimmatli qog'ozlar chiqarish yo'li bilan La-mansh bo'g'ozi ostidan o'tkazilishni mo'ljallangan tonnel qurib bitkazilgan. Bu holat inqirozli vaziyatda qimmatli qog'ozlar chiqarish yo'li bilan qo'shimcha kapitalni investitsiya qilish va bu orqali ijobiy natijaga erishish mumkinligidan dalolat beradi.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash kerakki, O'zbekistonda fond birjasi va qimmatli qog'ozlarga oid bir necha zaruriy hujjatlar qabul qilingan. Bu qonun hujjatlari fond birjasi va qimmatli qog'ozlarga oid munosabatlarni tartibga solishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Hozirda amalda qilib turgan "Qimmatli qog'ozlar va fond birjasi to'g'risida"gi Qonunning qimmatli qog'ozlar tushunchasiga qimmatli qog'ozlar turiga, qimmatli qog'ozlar turining huquqiy maqomiga, qimmatli qog'ozlar bozorini takomillashtirishga oid qoidalarni takomillashtirish lozim.

Shuningdek, mamlakatimizda hosila kimmatli qog'ozlarning muomalasini rivojlantirish uchun, avvalo, fond bozori qatnashchilariga ularning faoliyatiga davlatning asossiz aralashuvidan himoya qiluvchi huquqning ishonchli kafolatini ta'minlash lozim.

OILA QONUNCHILIGINING MA'NAVIY ASOSI

O. Chuboyeva,

NamDU Milliy g'oya, ma'naviyat va huquq asoslari kafedrasi o'qituvchisi.

A. Akbarov,

Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi 1-bosqich talabasi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi muqaddimasida mustaqilligimiz qomusining qanday maqsadda yaratilayotganligi bayon etilgan bo'lib, qanday asoslarga tayanishi xususida ham to'xtalib o'tilgan. Jumladan, o'zbek davlatchiligi tarixiy tajribalariga tayangan holda⁶⁷ yaratilayotganligi aytilgan. Haqiqatdan ham, ushbu hujjat jahon andozalari asosida va bizning tarixiy qadriyatlarimizga tayangan holda yaratilar ekan, boshqa qonunlar uchun asos bo'lib hisoblanadi. Konstitutsiyaning «jamiyat va shaxs» deb nomlangan

⁶⁷ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2013.

uchinchi bo'limida ota-onalarning farzandlar oldidagi burchlari va farzandlarning ota-onalar oldidagi burchlari bizning qadriyatlarimiz, xalqimizning tarixiy tajribalari asosida umumlashtirilgan. Konstitutsiyada belgilangan qoidalar oila qonunchiligida batafsil mustahkamlangan. Oila qonunimiz ham Konstitutsiya andozasi asosida tarixiy tajribalarga tayanadi. Davlatimiz tarixida esa xalqimiz shariat qoidalari asosida o'zaro munosabatlarda bir-birlari bilan munosabatda bo'lganlar.

Hozirgi «Oila» qonunimiz xalqimizning ana shu qadriyatlarini o'zida mustahkamlaydi.

Oila qonuni oila munosabatlari: oila qurish, farzandlar va ota-ona munosabatlari, farzandlikka olish, nafaqalar bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlarni buyuk manbamiz Qur'oni Karim qoidalariga ko'ra belgilagan.

Qur'oni Karimda ota-ona haq-huquqlari o'ta mas'uliyatli hisoblanadi. Chunki ota-onalik huquqini qozonish uchun bola tug'ilishining o'zi kifoya qilmay, balki ularga ta'lim-tarbiya berish muhim shartlardan biridir. Farzandga odob-axloq o'rgatish, uni kasb-hunarli qilib tarbiyalash, balog'atga yetgandan keyin o'g'il bola bo'lsa uylantirish, qiz bo'lsa, turmushga chiqarish, ularni moddiy va ma'naviy ta'minlab turish kabi sermashaqqat vazifalar ham ota-onalar zimmasidadir.

Shuningdek, Islom shariatida farzandlarning ham vazifalari ko'rsatilgan. Farzandlar o'z ota-onalariga yaxshi muomalada bo'lishi, moddiy yordam berishi, minnat qilmay izzat-hurmat ko'rsatishlari ham qarz, ham farz hisoblanadi. Bu xususda Qur'oni Karimda shunday deyiladi: «Parvardigoringiz, yolg'iz Uning O'ziga ibodat qilishlaringizni hamda ota-onaga yaxshilik qilishlaringizni amr etadi. Agar ularning (ota-onalaringizning) birovi yoki har ikkisi sening qo'l ostingda keksalik yoshiga yetsalar, ularga qarab «uf» tortma va ularning (so'zlarini) qaytarma! Ularga doimo yaxshi so'z ayt...!»⁶⁸ Bu ta'limotga binoan farzand ota-onaga iisbatan hurmat saqlashi va haqlariga duolar qilishi lozim.

Qur'onda qarindoshlarning bir-birlariga nisbatan haq-huquqlari zikr qilinib: «Yaqin qarindoshlarning haqini ado qil» deya marhamat qilingan. O'zining yaqin va uzoq qarindoshlari holidan xabardor bo'lib turadigan, agar bemorlari, keksalari bo'lsa yordam beradigan kishigina haqiqiy musulmon hisoblanadi. Darhaqiqat, qarindosh-urug'lar o'rtasida bir-birlariga nisbatan rahm-shafqat rishtalari mavjud bo'lsa, butun jamiyat ichida ham shunday rishtalar mustahkamlanadi. Natijada oradan shafqatsizlik, xudbinlik, zulm va takobirlik yo'qoladi. Demak, qarindosh-urug'lar bir-birlarining haq-huquqlarini hurmat qilsalar, jamiyat muhiti sog'lom bo'ladi. Chunki, jamiyat oilalar, qarindosh-urug'lardan tashkil topadi.

⁶⁸ «Al-Isro» surasi, 23-oyat.

Qur'onda oila erkin, ixtiyoriy nikoh asosida yuzaga keladi. Oilaning mustahkamligi er-xotin o'rtasidagi o'zaro izzat-hurmat bilan belgilanadi. Oilada, er-xotin ma'lum huquq va burchlarga ega bo'ladi. Er kishi o'z oilasi to'g'risida muttasil qayg'urishi, oilaning birligi va uning moddiy-ma'naviy ta'minoti uchun mas'uldir. Ana shu nuqtai nazardan er oila boshlig'i hisoblanadi. Er kishining o'z mablag'larini, diqqat-e'tiborini va muhabbatini o'z uyidan tashqariga qaratishini islom qat'iy man etadi. Xotinning erdagi haqlari borasida ham Qur'oni Karim oyatlarida ko'rsatilgan. Jumladan, oyatda: «Ayollarning qancha vazifalari bo'lsa shuncha haqlari ham bordir» deyilgan. Xotinning erdagi haqlari bu - ovqat va taom bilan ta'minlanish, o'z qarindosh-urug'larini ko'rishdagi ayolning haqiga rioya qilish, xotinning qo'lidan kelmaydigan ishlarni buyurmaslik va boshqalar. Erning ayoldagi huquqlari esa, xotinning uy-ro'zg'or yumushlari va farzand tarbiyasi kabi ishlarda itoat etishligi, ayol kishi o'z erining moli va obro'sini saqlashi, hurmat qilishi kabilardir. Shuni aytib o'tish kerakki, oilaning mustahkamligi er-xotinning o'zaro haq-huquqlariga nechog'li rioya qilishlariga ham bevosita bog'liq.

Bu belgilangan me'yorlar Oila qonunchiligida o'z aksini topishi bilan birga amaliyot xodimllari tomonidan hayotga tatbiq etilmoqda.

ОСНОВНЫЕ ПРИЧИНЫ СЕМЕЙНЫХ КОНФЛИКТОВ

Г. Гаипова,

студентка 3 курса МНО НамГУ.

Одной из актуальных проблем социальной жизни общества являются семейные конфликты. Каждый из нас ежедневно сталкивается с этим, однако конфликты (ссоры) проходят по-разному, у кого-то в миролюбивом русле, у других в более жестком, а иногда приобретает ожесточенную форму, но так или иначе, мы оказываемся втянутыми в этот процесс.

Семья – это ячейка общества, союз мужчины и женщины, добровольно вступающих в брак, связанные общим бытом, стремлением к рождению и воспитанию детей и т.д.

У каждого человека понимание семьи сформировано по-разному, кто-то считает семью своим домом, очагом, уютом, теплом, некоторые домом защиты, понимания, любви, школой обучения и воспитания и т.д.

Еще с древних времен семья была оплотом государства, общества. Каждый член общества с момента рождения и до конца жизни связан с семейными отношениями.

Тогда встает вопрос: почему возникают семейные конфликты?

Семейные конфликты чаще всего возникают из-за неудовлетворения взаимных и индивидуальных потребностей обеих сторон.

Зачастую конфликты в семье возникают из-за того, что:

- 1) Супруги мало уделяют друг другу внимания, нет общих интересов и тем для общения.
- 2) Чувства одиночества;
- 3) Не сдержанность в ссорах, переходящий в крик, в агрессию, элементарное не соблюдение правила этики в спорах.
- 4) Потеря доверия, измена одного из супругов.

5) Тяжесть в общении и способность услышать друг-друга.

6) Не способность найти компромиссы из сложившихся ситуации.

Даже самые простые проблемы, кажутся не разрешимыми.

7) Разные точки зрения в воспитании детей, а также в отношениях с родственниками обоих супругов.

8) Пристрастие одного из супругов к алкоголю, праздному образу жизни, шопингу, растрате финансовых ресурсов и т.д

9) В процессе изучения данной проблемы я пришла к выводу, что каждый семейный конфликт разрешим, нужно только найти компромиссы между сторонами, научиться слышать, где-то уступить, а где-то подойти с юмором. И главное, никогда не жаловаться родителям, даже если все у вас так плохо и безнадежно. Родители больше вас переживают, они втягиваются в ваш конфликт, происходит взаимные обиды, недомолвки. Вы помирите между собой, а у родителей на долго останется осадок. Есть в народе мудрая пословица: «Любимые мирятся, да тешатся», чаще придерживайтесь этой пословицы.

Конфликты могут возникать еще по следующим причинам:

1. Из-за бытовых причин;
2. Не уважение обеих сторон;
3. Финансовые проблемы;
4. Несправедливость в решениях, которые зачастую приводят к неприязни, взаимным обидам и недовольствиям;
5. Импульсивность молодых, а строгость родителей приводит к непониманию и разногласиям;
6. Расхожие взгляды на воспитание детей;
7. Беспечность молодых, практичность и прагматичность родителей.

Но все эти проблемы разрешимы, нужно всего лишь быть молодым чуткими, терпеливыми, уважительно относиться к решениям взрослых, потому что у них за плечами есть некий жизненный опыт.

XALQARO MIQYOSDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN LIZING OPERATSIYALARINING UMUMIY TAVSIFI

*Yuldasheva To'tixon Yakubovna,
Andijon Qishloq xo'jaligi instituti
Gumanitar fanlar kafedrasi assistenti.*

Tadbirkorlik sohasidagi lizing turlaridan biri moliyaviy lizingdir. Xalqaro moliyaviy lizing bo'yicha bitimlarning iqtisodiy mohiyatini lizing oluvchiga, ya'ni uskuna xarid qiluvchi, ammo uni mulk qilib olish uchun o'z moliyaviy mablag'lariga ega bo'lmagan shaxsga kredit berish tashkil qiladi.

Xalqaro miqyosda amalga oshirilayotgan lizing operatsiyalariga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, XX asrning 60-yillarida dastlabki xalqaro lizing shartnomalari tuzilgan bo'lib, bu shartnomaga ko'ra, lizing ob'ekti fuqarolar samalyotlari va dengiz kemalari edi.⁶⁹

XX asrning 70-yillariga kelib lizing tashkilotlari ichki investitsiya bilan taqdim qilingan soliq imtiyozlari chet el sarmoyadorlariga mumkin ekanligiga kelishishdi. Ba'zan bunday imtiyozlar ushlab qolingan jihozlar lizingida taqdim qilinadi. Ushbu lizing kelishuvining tarkibi quyidagicha bo'lib, unga ko'ra, sarmoyadorlar amortizatsiyaning imtiyozli normalari va boshqa soliq imtiyozlarini o'z davlatida saqlab qolishgan hamda lizing beruvchi davlatida ushbu soliq imtiyozlari tarqalishi bilan ijaraning past to'lovlaridan foydalanilgan. Bu kelishuvlar «ikki hissa foyda» nomini oldi. Oxirgi yillarda Yaponiya lizing kompaniyalari ko'p miqdorda shunday shartnomalardan foydalanganlar.

Fuqaro samalyotlari va dengiz kemalaridan tashqari xalqaro lizing shartnomasining predmeti bo'lib, qurilish jihozlari, kompyuter, telekommunikatsion jihozlar, stanoklar va turli transpor vositalari (yengil avtomobillar, avtobuslar, yuk ko'targichlar) xizmat qilmoqda.

Qozog'iston hukumati yangi lizing turidan foydalanmoqda. 1996-yildan lizingga ko'mir kesish topshirilgan. Global Mineral Reserres Inc. Amerika kompaniyasi 10 yilga 3 mln tonna quvvatli Shebarkol'sk ko'mir kesmasini Karagandis ko'mir basseynidan oladi. Kompaniya lizing shartnomasi bo'yicha 100% daromad oladi va 10 yil davomida davlat byudjetiga 38 mln dollar o'tkazadi.⁷⁰

Ba'zan rivojlangan davlatlarning jihozlarning lizinggi bilan shug'ullanuvchi kompaniyalari, uni 3 davlat orqali o'tkazadilar, chunki, bu davlatlarga soliq imtiyozlari berilgan. Shunday davlatlar sirasiga Shveysariya kiradi. Chunki bu davlat hududi offshor zona.

⁶⁹ Кабатова Е. В. Лизинг: правовое регулирование практика. – М., 1998. – С. 130.

⁷⁰ Кабатова Е. В. Лизинг: правовое регулирование практика. – М., 1998. – С. 131.

Bizga ma'lumki, hozirda juda ko'p xalqaro lizing tashkilotlari xalqaro miqyosda faoliyat ko'rsatmoqda. Eng yirik xalqaro lizing tashkilotlari sifatida «Ebikliz» va Milliy lizing assotsiatsiyalarining Yevropa Federatsiyasi («Lizyurop») ni ko'rsatish mumkin.

«Ebikliz» Gollandiya, Italiya, Germaniya, Avstriya, Buyuk Britaniya, Fransiya davlatlaridagi lizing kompaniyalarini birlashtiradi. Bu tashkilot ko'pchilik hollarda xalqaro lizing bitimlarini amalga oshirishda vositachi vazifasini o'taydi. «Lizyurop» 1979-yilda tashkil etilgan bo'lib, hozirgi kunda 17 ta mamlakatning 700 ta lizing kompaniyasini birlashtiradi. Uning tarkibiga Avstriya, Belgiya, Bolgariya, Shveysariya, Germaniya, Daniya, Ispaniya, Norvegiya, Italiya, Irlandiya, Lyuksenburg, Portugaliya, Finlandiya davlatlari kiradi.⁷¹ AQShda ham lizing keng sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Lizing yordamida amalga oshiriladigan jaxon savdo oborotining teng yarmi AQSh hisobiga to'g'ri keladi.

Buyuk Britaniyada lizing nisbatan kech, ya'ni 1970-yildan boshlab rivojlandi. Frantsiyada birinchi lizing kompaniyasi 1957-yilda paydo bo'lib, u «Banque de l'Indochine» banki tashabbusi bilan tashkil qilingan, u «SEPERAFITES» deb nomlandi. Bu tashkilot ishlab chiqarish (qurol) jihozlari lizinggi bilan shug'ullanadi, uning birinchi kelishuvi 1961-yil 22-fevralda imzolangan. 1962-yilda Frantsiyada «SEPERAFITES Lokatrance» nomini oldi. 1965-yilda Frantsiyada 28 lizing kompaniyasi faoliyat ko'rsatardi.⁷²

Hozirgi kunda keng turdagi tovarlar, samolyot va vertolyotlar, hisoblash texnikalari, tibbiy asbob-uskunalar, sanoat dastgohlari va hokazolar lizing yordamida ishlatilmoqda. Germaniyada ham ko'plab lizing kompaniyalari uchraydi. Ulardan 57 tasi lizing assotsiatsiyasi tarkibiga kiradi. Eng yirik lizing tashkiloti «Mitfannants Gimbi» va «Gefalizing Gimbi»dir.

Italiyada birinchi lizing kompaniyasi 1963 yilda paydo bo'lgan. Hozirda Italiya lizing assotsiatsiyasi 50 ta kompaniyani o'z ichiga oladi.

Yaponiya lizing bo'yicha rivojlangan mamlakat hisoblanadi. Bu yerda eng yirik lizing kompaniyasi «Setury Leosing Sisten» bo'lib, u 1969 yilda tashkil topgan. Uning to'plagan ustav kapitali 845000000 iyenni tashkil etadi.

Shveysiyada lizing operatsiyalarining rivoji 60-yillarning boshlariga to'g'ri keladi. Unda lizingdan o'rta va kichik korxonalar foydalanar edi. Ispaniyada hozirgi vaqtda 117 tadan ortiq lizing kompaniyasi mavjud. Shulardan 22 tasi mustaqil qolganlari banklar qoshidagi kompaniyalardir.

G'arbiy Yevropada lizing klubi sifatida «Interliz» assotsiatsiyasi xizmat qiladi. Unga Belgiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Daniya, Italiya, Ispaniya, Niderlandiya, Norvegiya, Fransiya, Shveysariya va Shveysiyaning lizing

⁷¹ Boboqulov S. Lizing munosabatlari // Xo'jalik va huquq. – 1999. – №5. – B. 47.

⁷² Кабатова Е. В. Лизинг: правовое регулирование практика. – М., 1998. – С. 18.

firmalari kiradi. Shu bilan birga «Lizklab» assotsiatsiyasi o'z ichiga Avstraliya va 10ta G'arbiy Yevropa lizing firmalarini birlashtirgan.

G'arbiy Yevropada xalqaro lizing shartnomalarida quyidagi yirik banklar ishtirok etgan «Berklayz bank», «Loyds», «Midlend», «Neshnl Vestministr benk».⁷³

Xalqaro lizing tashkilotlarinig asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- 1) a'zo davlatlarni qonunchiligini taqqoslash hamda uni o'rganish;
- 2) barcha huquqiy, moliyaviy, soliq masalalarini xal qilish;
- 3) lizing bitimlarini shartlari to'g'risida statistik ma'lumotlarni yechish;
- 4) lizing tashkilotlarini tashkil etish bilan bog'liq masalalarni o'rganish va

hokazo.¹⁸

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash lozimki, xalqaro lizing munosabatlari davlat iqtisodiyotigi keng miqyosda investitsiya jalb qilish vositasi hisoblanadi.

FUQAROLIK SUD ISHLARINI YURITISHDA PROKUROR ISHTIROKINING TAKOMILLASHTIRILISHI

A.X. Jumaboyev,

*NamDU Milliy g'oya, ma'naviyat va
huquq asoslari kafedrasio 'qituvchisi.*

Mamlakat hayotining barcha sohalarida bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida muhim hisoblangan fuqarolarning huquq va erkinliklari himoyasiga qaratilgan sud-huquq sohasidagi o'zgarish va yangiliklar mamlakat taraqqiyotida alohida o'rin egallaydi.

Mamlakatimizda keng ko'lamda amalga oshirilayotgan sud-huquq islohotlari mazkur islohotlarning ajralmas qismi sifatida prokuratura idoralari vazifalarining aniq belgilanishiga olib keldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov "Adolat-qonun ustuvorligida" deb nomlangan ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining VI sessiyasidagi ma'ruzasida prokuratura faoliyatiga alohida to'xtalib, prokuratura vakolatining doirasini, uning faoliyatini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlarini xalqqa xizmat qilish nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda belgilash zarurligini ta'kidlagan.⁷⁴

2001-yil 29-avgustda O'zbekiston Respublikasining "Prokuratura to'g'risida"gi yangi tahrirdagi Qonuni qabul qilindi va unga prokuror vakolatiga

⁷³ Кабатова Е.В. Лизинг: правовое регулирование практика. – М., 1998. – С. 18.

¹⁸ Mualliflar jamoasi. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik huquqi. Maxsus qism. – Toshkent: TDYul, 2009 – B. 123.

⁷⁴ Karimov I.A. Adolat - qonun ustuvorligida. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. T. 10 –Toshkent, O'zbekiston, 2002. –B. 46-49.

aniqlik kiritadigan bir qancha o'zgartishlar kiritildi. Xususan, qonun bilan belgilangan prokurorlik nazorati ob'ektlari qatoridan fuqarolar chiqarildi. Binobarin, demokratik jamiyatda alohida fuqarolar emas, balki ularning qonuniy huquq va manfaatlari qanday himoya qilinayotgani prokurorlik nazoratining ob'ekti hisoblanishi ta'kidlandi.

Shuningdek, yangi tahrirdagi Qonunga ko'ra, prokurorlarning ijro etish uchun majburiy bo'lgan amrnoma kiritish vakolatiga barham berildi. Endilikda Qonunning 37-moddasiga ko'ra, protest, qaror, taqdimnoma, ariza va ogohlantiruv prokuror nazorati hujjatlari sifatida belgilandi. Prokuratura organlari faoliyatini tashkil etish va ular faoliyatining asosiy prinsiplari borasida ham o'zgarishlar yuz berdi. Endilikda viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlar xalq deputatlari tegishli Kengashlariga, zarurat bo'lgan hollarda esa fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga qonuniylikning hamda jinoyatchilikka qarshi kurashning holati to'g'risida har yili axborot beradilar (Qonunning 5-moddasi). Yangi tahrirdagi Qonunda O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining buyruqlari va boshqa hujjatlari (individual xususiyatga ega bo'lgan hujjatlar bundan mustasno) O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga zid bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining qarori asosida bekor qilinishi ilk bor mustahkamlab qo'yildi. Bu esa O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan chiqariladigan buyruq va boshqa hujjatlarning qonuniyligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksiga O'zbekiston Respublikasining 2000-yil 14-dekabrda Qonuniga asosan o'zgartish va qo'shimcha kiritilishi munosabati bilan prokurorning fuqarolik protsessidagi huquqiy holatida birmuncha o'zgarishlar yuz berdi.

Xususan, FPKning 47-moddasi birinchi qismidagi "har bir ishning mazmuni yuzasidan, shuningdek ishni ko'rish vaqtida kelib chiqqan ayrim masalalar bo'yicha yozma va og'zaki xulosa berish" degan so'zlar "ish mazmuni yuzasidan, shuningdek ishni ko'rish vaqtida kelib chiqqan ayrim masalalar bo'yicha o'z fikrini bayon etish" degan so'zlar bilan almashtirildi. Endilikda prokuror fuqarolik protsessida ishtirok etar ekan har bir fuqarolik ishi yuzasidan yozma va og'zaki xulosa emas, balki o'z fikrini bayon etishi belgilandi. Bu esa mamlakatimizda sud tizimining nufuzini oshirishga qaratilgan amaliy chorlardan biri sifatida muhim o'rin tutadi. Zero, ish yuzasidan xulosani, ya'ni yakuniy to'xtamni faqat sudgina chiqarishga haqli bo'ladi. Shunga muvofiq ravishda FPKning "Prokurorning xulosasi" deb nomlangan 199-moddasi "Prokurorning fikri" deb nomlandi. Shuningdek, Fuqarolik protsessual kodeksiga prokuror vakolatlarini cheklashga qaratilgan bir qator normalar ham kiritildi. Chunonchi, FPKning 352-moddasiga ko'ra, nazorat tartibida protest keltirish vakolatiga ega bo'lgan prokuror va uning o'rinbosarlari sud qarorlari ijrosini to'xtatish huquqiga ega bo'lmasliklari belgilandi.

Bunday qoida boshqa yangi o'zgartishlar qatorida sudlarning mustaqilligini ta'minlab, sud va prokuratura vakolatlari o'rtasidagi tegishli muvozanatni o'rnatishga yordam beradi. Undan tashqari, mazkur qoida sud protsessida prokuror bilan advokatning teng huquqliligini ta'minlashga ham zamin yaratadi. Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov 2005-yil 28-yanvarda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishga bag'ishlangan dasturiy ma'ruzalarida prokuratura organlarining sud jarayoniga aralashuvini jiddiy cheklash bo'yicha qonunchilik normalariga zarur o'zgartishlar kiritilganligini, bugungi kunda sud jarayonida tortishuv tamoyili, ya'ni prokuror bilan advokat huquqlarining tengligi ta'minlanayotganligini alohida ta'kidlagan.⁷⁵ Ma'lumki, uzoq vaqtlar mobaynida prokuror nazorati amaliyotida biron-bir shaxsning huquq va manfaatlarini himoya qilib, fuqarolik ishlarini qo'zg'atish borasidagi prokurorning u yoki bu huquqlari cheklanishi kuzatilmagan edi.

Endilikda esa mavjud milliy qonunchiligimiz prokurorning fuqarolik protsessida ishtirok etish, ushbu jarayondagi protsessual huquqiy holatiga doir qonunchilikni liberallashtirish yo'nalishida rivojlanmoqda. Xususan, 2001-yil 29-avgustda qabul qilingan yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasining "Prokuratura to'g'risida"gi Qonuniga prokuror vakolatiga aniqlik kiritadigan o'zgartishlar kiritildi. Qonunning 26-moddasiga ko'ra, fuqaroning sud tartibida himoya qilinadigan huquq va erkinliklari buzilsa, lekin fuqaro sog'lig'iga, yoshi yoki boshqa sabablarga ko'ra sudda o'z huquq va erkinliklarini shaxsan himoya qilish imkoniyatiga ega bo'lmasa, da'voni prokuror taqdim etishi va sudda quvvatlashi belgilab qo'yildi. Shu kabi o'zgartish va qo'shimchalar mamlakatimizda sud-huquq tizimini huquqiy davlatni shakllantirishning muhim tarkibiy qismi sifatida chuqur isloh etish va erkinlashtirish bo'yicha yangi konsepsiya hayotga tatbiq qilinganligidan dalolat beradi.⁷⁶

Jamiyatni demokratlashtirish va yangilashning hozirgi bosqichida, ya'ni mamlakatda bozor munosabatlarini tartibga solishning muhim huquqiy asoslari, fuqarolar va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni sud-huquqiy jihatdan himoya qilish instituti rivojlanayotgan bir paytda prokurorning fuqarolik protsessidagi ishtirokini tartibga solish, uning vakolatlarini aniqlashtirish taqozo etilmoqda. Huquqiy adabiyotlarda ham ayrim toifadagi ishlar bo'yicha prokurorning sudga da'vo arizasi bilan murojaat qilishi mumkin emasligi ta'kidlab kelingan. Masalan, nikohdan ajratish to'g'risidagi, ota-onalik to'g'risidagi yozuvlar yuzasidan nizolashish to'g'risidagi, ma'muriy jarimani solish to'g'risidagi qarorning qonuniyligini tekshirish to'g'risidagi ishlar shular jumlasidandir. Mazkur

⁷⁵ Karimov I.A. O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. T.13. – Toshkent.: O'zbekiston, 2005 –B 174-222.

⁷⁶ Karimov I.A. O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li. –Toshkent.: O'zbekiston, 2007. – 34h

ishlarning prokuror tomonidan qo'zg'atilishi maqsadga muvofiq emasligi oila munosabatlari boshqa munosabatlarga qaraganda shaxsiy va oshkor qilib bo'lmashligi bilan, ma'muriy jarimani solish to'g'risidagi qaror ustidan esa prokuror umumiy nazorat tartibida protest keltirishi mumkinligi bilan asoslashga harakat qilingan. Lekin mamlakatimiz fuqarolik protsessual qonunchiligida qanday huquq va qonuniy manfaatlar buzilganda prokuror sudda fuqarolik ishini qo'zg'atish huquqiga ega bo'lishi belgilab qo'yilmagan. Huquqiy adabiyotlarda B.V. Kravtsov tomonidan fuqarolik ishlarini qo'zg'atish bo'yicha prokuror ishlarini yaxshi yo'lga qo'yish, o'z faoliyatini aniq bir maqsadga yo'naltirishni ta'minlash uchun prokurorning sudda qanday toifadagi ishlarni qo'zg'atishga vakolatli bo'lishi haqidagi qoida qonunchilikka kiritilishi taklif qilinadi.

Lekin V.N. Argunov mazkur fikr bilan kelishmaydi va prokuror har doim fuqarolik ishini qo'zg'atish huquqiga ega bo'lishi va bu prokuror vakolatining ajralmas elementi ekanligini bildiradi.⁷⁷ Biroq fikrimizcha, prokurorning sudda fuqarolik ishlarini qo'zg'atish bo'yicha vakolatlari doirasining belgilanmasligi sudda ishga daxldor bo'lmagan tarafni almashtirish holatlarining ko'payishiga, sud protsesslarida taraflar foydalanadigan erkin huquq printsiplarini u yoki bu darajada cheklanishiga olib kelishi mumkin. Qolaversa, bu holat moddiy huquqiy munosabat sub'ektlarining birinchi navbatda o'zlari qayg'urishlari, jon kuydirishlari lozim bo'lgan o'z huquq va qonuniy manfaatlarining himoyasiga e'tiborsiz munosabatda bo'lishlarini oldini oladi, fuqarolar o'rtasidagi huquqiy munosabatlarga mansabdor shaxsning (*bu o'rinda prokuror nazarda tutilmoqda*) o'rinsiz aralashuviga chek qo'yadi. Zero, qonunda har bir shaxsga o'z huquq va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini shaxsan o'zi sud orqali himoya qilishi uchun keng imkoniyatlar yaratilgan.

Undan tashqari, ayrim fuqarolar prokuror orqali fuqarolik ishlarini qo'zg'atishda boshqa maqsadlarni, xususan sud xarajatlarini to'lamaslik, sud muhokamasida prokurorning obro'sidan foydalanish, kabilarni ko'zlashlari sir emas. Shuning uchun ham prokuror qonun hujjatlarida nazarda tutilgan fuqarolik ishinigina qo'zg'atishga vakolatli bo'lishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu borada MDHga a'zo davlatlar fuqarolik protsessual qonunchiligining tahlili shuni ko'rsatadiki, aksariyat davlatlar qonunchiligi, prokuror tomonidan taqdim etilayotgan da'vo arizalariga manfaati himoya qilinayotgan shaxsning ma'lum bir sabablarga ko'ra sudda o'z huquqlarini shaxsan himoya qilish imkoniyatiga ega bo'lmashligini tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilinishini belgilaydi. Xususan, Rossiya Federatsiyasi FPKning 45-moddasiga ko'ra, agar fuqaro sog'lig'i, yoshi, muomalaga layoqatsizligi va boshqa uzrli sabablarga ko'ra sudga o'zi shaxsan murojaat qila olmasagina ariza prokuror tomonidan taqdim etilishi haqidagi qoida mustahkamlab qo'yilgan.⁷⁸

⁷⁷ Аргунов В.Н. Участие прокурора в гражданском процессе. - М.: МГУ, 1991. -91 с.

⁷⁸ Гражданский процессуальный кодекс Российской Федерации (по состоянию на 20 сентября 2008 года) –Новосибирск: Сиб. унив. Изд-во, 2008. -С. 36-37.

Shu o'rinda rossiyalik huquqshunosi olimlar mazkur qoidani sharhlab, fuqaroning qonuniy huquqlari, erkinliklari va manfaatlarini himoya qilish to'g'risidagi prokuror arizasida fuqaroning o'zi sudga murojaat qila olmasligini asoslovchi holatlar mavjud bo'lishi lozim. Kodeksda fuqaroning sudga shaxsan o'zi murojaat qila olmasligining uzrli sabablari belgilangan ro'yxatning mavjud emasligi prokurorning da'vo arizani tayyorlash jarayonida qonunning yuqoridagi talablarini bajarish majburiyatidan ozod qilmaydi. Mazkur holatlarning uzrli yoki uzrsiz ekanligini baholash huquqi sudlarga berilgan bo'lib, prokuror tomonidan qonunning ushbu talabiga rioya qilmaslik uning arizasini sud tomonidan harakatsiz qoldirilishiga olib keladi, deb ta'kidlaydilar.

Fuqarolik ishini qo'zg'atish borasidagi prokuror huquqlarining cheklanishi Belarusiya Respublikasi FPKda o'z ifodasini topgan. Xususan, FPKning 81-moddasiga ko'ra, agar Belarus Respublikasini, uning ma'muriy-hududiy birligini, shuningdek, yuridik shaxslari va fuqarolarining huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun talab etiladigan bo'lsa, prokuror fuqarolik ishini qo'zg'atish to'g'risidagi ariza bilan murojaat qilishga haqli bo'lishi belgilanadi. Shuningdek, Qozog'iston Respublikasi FPKning 55-moddasiga muvofiq, prokuror tomonidan fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish to'g'risidagi da'vo manfaatdor shaxsning iltimosiga ko'ra, agar u uzrli sabablarga ko'ra sudga o'zi shaxsan murojaat qila olmasagina taqdim etilishi mumkin. Xuddi shunday qoida Moldova Respublikasi FPKning 71-moddasida ham mustahkamlab qo'yilganligini ko'rishimiz mumkin.

Mamlakatimiz fuqarolik protsessual qonunchiligi esa yuqoridagi qoidalardan farqli ravishda prokurorning boshqa shaxslar huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish maqsadida har qanday holatda ham sudga ariza bilan murojaat qilishi mumkinligini belgilaydi (FPKning 46-moddasi). Lekin yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi "Prokuratura to'g'risida"gi Qonuni 26-moddasi fuqaroning sog'lig'i, yoshi yoki boshqa sabablarga ko'ra sudda o'z huquq va erkinliklarini shaxsan himoya qilish imkoniyatiga ega bo'lmasagina, prokurorning sudga da'vo bilan murojaat qilishi kabi talablarni belgilaydi. Bu esa prokurorning fuqarolik protsessidagi ishtiroki doirasini aniqlab beradigan norma hisoblanadi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy, siyosiy va sud-huquq islohotlari sharoitida fuqarolarning huquq va erkinliklarini, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shunday ekan, fuqarolarning, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlarining himoyasini ta'minlash, qonuniylikni mustahkamlash vazifasi yuklatilgan prokurorlarning fuqarolik ishlarini sudda ko'rish va hal etish jarayonidagi ishtiroki muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasining "Prokuratura to'g'risida"gi va "Sudlar to'g'risida"gi Qonunlarining qabul qilinishi, fuqarolik sud ishlarini yuritish to'g'risidagi qonunchiligidagi o'zgarishlar, shu jumladan, sudlarning ixtisoslashuvi va sud

shakllanishida, yoshlar taraqqiyotning hal qiluvchi kuchiga aylandi. Shuning uchun ham 1991-yilda “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to‘g‘risida”gi qonun, 1992-yil “O‘zbekiston yoshlarini chet mamlakatlarga o‘qishga yuborish to‘g‘risida”gi qaror, 1993-yilda “O‘zbekistonda ta‘lim olayotgan yoshlarni rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi hamda “O‘zbekiston Respublikasining yosh mualliflariga eng yaxshi asarlari va ilmiy ishlari uchun Davlat mukofotini topshirish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, 1993-yil “O‘zbekiston o‘quvchi yoshlarini taqdirlash va moddiy rag‘batlantirish to‘g‘risida” hamda “Ijodkor yoshlarning uy-joy sharoitlarini yaxshilash to‘g‘risida”gi qarorlar, 1995-yil “Bozor islohotlari talablarini hisobga olgan holda qishloq yoshlari kasb-hunar ta‘limining yo‘nalishini o‘zgartirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori, 1996-yil O‘zbekiston Respublikasi yoshlarining “Kamolot” jamg‘armasi to‘g‘risidagi Farmon, 1997-yilda O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuni va “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”, 1997-yil O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining iqtidorli yoshlarning chet elda ta‘lim olishlarini qo‘llab-quvvatlash “Umid” jamg‘armasini tuzish to‘g‘risida Farmon, 1999-yil Zulfiya nomidagi Davlat mukofotini hamda 2000-yilda “Nihol” mukofotini ta‘sis etilishi, 2000-yilni “Sog‘lom avlod” yili deb e‘lon qilinishi va Davlat Dasturining qabul qilinishi, 2001-yilda O‘zbekiston Respublikasi “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakatining tashkil etilishi, 2003-yil “O‘quvchi va talaba yoshlarni sportga jalb qilishga qaratilgan uzluksiz sport musobaqalari tizimini tashkil etish to‘g‘risida”gi qaror, 2004-yil O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining istiqbolli yosh pedagogik va ilmiy kadrlar malakasini oshirish “Iste‘dod” jamg‘armasi Boshqaruvining yangi tarkibini tasdiqlash to‘g‘risidagi farmoni, 2007-yil “Yosh oilalarni moddiy va ma‘naviy qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni, 2008-yilni “Yoshlar yili”, 2010-yilni “Barkamol avlod yili” deb e‘lon qilinishi va davlat dasturlarining qabul qilinishi⁸⁰ yoshlar siyosatining amal qilish bosqichlarida yoshlar kayfiyatlari, hayotiy maqsadlari, orzu-umidlari, intilishlari va qanday yashashga qiziqishlarini ilmiy o‘rganish, ulardan to‘g‘ri xulosa qilish, yoshlar intilishlarini ijobiy va bunyodkorlik ishlariga yo‘naltirishga erishishda muhim ahamiyat kasb etdi.

1991–2000-yillar davomida mamlakatda yoshlarga oid qonunchilik va yoshlar tashkilotlarini shakllantirishga alohida e‘tibor berildi. Siyosiy partiyalarning yoshlar bilan ish olib boruvchi yoshlar qanotlari shakllandi. Mamlakatda 2001-yildan boshlab mustaqil yoshlar ijtimoiy harakati jamiyat

⁸⁰ Rajabov Q., Hasanov F., Shoymardonov I., Tojiboyev B. O‘zbekiston tarixining muhim sanalari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2010. – B. 110–131.

ijtimoiy-siyosiy hayotida yoshlarning ishtirokini takomillashtirish yo'nalishlariga alohida e'tiborni qaratdi⁸¹.

1991-2005-yillar davomida mamlakatdagi yoshlar kayfiyatlari va ularning islohotlar jarayonlariga nechog'li tortilganligi, yoshlarning jamiyatdagi o'z o'rnini belgilashga qaratilgan xohish istaklari nuqtai-nazaridan o'ziga xos ikki turdagi qarama-qarshi vaziyat va xususiyat o'zini yorqin namoyon etdi:

– birinchidan, yangilik va modernizatsiya qilish jarayonlariga kamarbastalik, ular mohiyatini chuqur anglash, islohotlar maqsad va mazmunini qo'llash, yangi munosabatlarga intilish, izlanish, o'z ijtimoiy ovozigaga ega bo'lish uchun harakat, o'ziga ishonch, o'z salohiyatini jamiyat taraqqiyoti uchun sarflashga tayyorlik, shaxs sifatidagi komillikka intilish, o'z taraqqiyotini jamiyat rivoji bilan bog'lash, bunyodkorlik ishlariga tayyorlik, ochiq nazar bilan qarash va sof ko'ngillilik;

– ikkinchidan, yoshlar o'rtasida boqimandalik, befarqlik, loqaydlik, boshqaruv tizimlariga ishonchsizlik, barcha narsani men uchun davlat yaratib berishi lozim degan asosga qurilgan kayfiyat, yot g'oyalarga nisbatan subutsizlik, ziddiyatlarga moyillik kabi mana shunday holatlarni o'zi yaratish, qonunlarni bilmaslik, bilimsizlik, tushkunlik.

Shu bilan birga, yoshlar o'rtasida ta'lim, mehnat, madaniyat, qonunlarga bo'ysunish, yangi demokratik tamoyillarni anglash va qabul qilish, ijtimoiy-siyosiy hayot, demokratik jamiyat muvozanatiga nisbatan turlicha munosabat hamda qarashlar mavjud bo'ldi. Mazkur vaziyatning murakkabligi ayniqsa, uning qarama-qarshi tomonlari, yoshlar o'rtasida targ'ibot va tashviqot faoliyatini yanada kuchaytirish, uning omma ongiga ta'sirchanligini oshirish lozimligini ko'rsatdi. Buning natijasida yangi metodik-texnologiyalarning joriy etilishi, yoshlar ichiga kirib borish usullarining kengaytirilishi kabi masalalarga alohida e'tibor berildi. Bu o'rinda davlat va nodavlat tashkilotlarining o'zni ham muhim ahamiyat kasb etdi.

O'tgan yillar davomida yoshlarning ijtimoiy-siyosiy hayotini kuzatish natijasida jamiyatda huquqiy demokratik davlat qurish uchun avvalo yoshlarning huquqiy ongini oshirish va siyosiy madaniyatini yuksaltirish muhim ahamiyatga ega bo'ldi. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarni chuqurlashtirish, fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirish vazifalarini hal qilishga yoshlar bevosita yo'naltirilmogda. Jamiyatda yoshlarning siyosiy, huquqiy ongini yuksaltirish, ularning ijtimoiy faolligini oshirish bugungi kunda demokratik taraqqiyotning bosh mezoniga aylandi.

1991-2014-yillar davomida O'zbekistonda amalga oshirilgan islohotlarning ijobiy natijasi ko'p jihatdan davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarning tamomila yangicha pog'onaga ko'tarilishi bilan bog'liq bo'ldi. Ushbu vazifa

⁸¹ O'zR "Kamolot" Yo'lli JA. "Kamolot" Yo'llining 2001-2008-yillardagi faoliyati yuzasidan hisoboti. – B. 37.

amalg oshirilishining asosida esa, yoshlarning siyosiy-huquqiy ong darajasiining yuksalib borib, qonunlarni hurmat qilish, jamiyat barqarorligi uchun mas'uliyatni doimo his qilib turish kabi jihatlar shakllana boshladi. Yoshlarning siyosiy-huquqiy ongi yuksalgan sari ular ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga tobora yaqin kirib, jamiyat boshqaruvida bevosita ishtirok eta boshladilar. Hozirda O'zbekiston oldida turgan asosiy dolzarb vazifa yoshlarning jamiyat boshqaruvida faol ishtirokini ta'minlashdir. Bu o'rinda Prezident I. A. Karimovning quyidagi fikrlarini keltirish o'rinni: "Bizning eng katta tayanch va suyanchimiz, hal qiluvchi kuchimiz yosh avlodimizdir"⁸². Darhaqiqat, mamlakatda har yili 600 mingdan ziyod butunlay yangicha shart-sharoit va muhitda kamol topgan yosh avlod vakillari katta hayotga yo'llanma olmoqda. Yoshlarga katta ishonch bildirib, ularni rag'batlantirish, ruhlantirish ham katta samara bermoqda. Shuningdek, aholining asosiy qismini tashkil etadigan yoshlarning hali to'la yechilmagan muammolariga e'tiborni jalb etish, ularni hayotda haqiqatan ham hal qiluvchi kuchga aylantirish masalasi jamoatchilikning diqqat markazida turishi shart.

O'zbekiston ijtimoiy-siyosiy hayotida yoshlar ishtirokini takomillashtirish va ijtimoiy faolligini oshirishda ommaviy axborot vositalarining roli ham juda kattadir. Bu o'rinda radio, televidenie, internet, telefon, ilmiy-ommabop jurnal va gazetalar ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Yoshlar ijtimoiy hayotiga tezlik bilan kirib kelgan uyali aloqa telefonlari, internet kabilar yosh avlod dunyoqarashini yanada kengaytirdi.

O'zbekistonda 1991–2014-yillar davomida qabul qilingan amaldagi qonun hujjatlarida yoshlar huquq va erkinliklari tizimi to'la shakllantirildi. Bu davrda mamlakatda yoshlar manfaatlari va huquqlariga daxldor bo'lgan 130 dan ortiq normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqildi. Yoshlar manfaatlari va huquqlariga daxldor bo'lgan xalqaro huquqiy hujjatlar va xorijiy mamlakatlar qonunchiligi qiyosiy tahlil qilinib, amaldagi qonun hujjatlarida yoshlarning ijtimoiy ta'minoti va mehnat qilish huquqini ta'minlash masalalariga jiddiy e'tibor qaratildi. Shuningdek, ularning bilim olish huquqi, kasb malakasini oshirish, sport turlari bilan shug'ullanish va boshqa bir qator huquq-erkinliklarini ta'minlashga hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan tegishli qonun hujjatlarini takomillashtirish bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Yoshlarning siyosiy-huquqiy bilim va dunyoqarashini kengaytirish, chetdan bo'layotgan turli mafkuraviy tahdidlarga munosib javob bera oladigan ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash dolzarb ahamiyatga ega.

1991–2014-yillar davomida O'zbekiston ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotida yoshlar ishtirokini ta'minlash uchun o'ziga xos bo'lgan yoshlar jamoat tashkilotlari tizimi yaratildi. Bu davrda yoshlar jamoat tashkilotlari tizimi Respublika

⁸² Karimov I. A. Inson manfaati, huquq va erkinliklarini ta'minlash, hayotimizning yanada erkin va obod bo'lishiga erishish – bizning bosh maqsadimizdir // Xalq so'zi, 2012-yil 8-dekabr.

viloyatlarida ham faol ish olib bordi. Jumladan, “Umid”, “Fidoyi yoshlar klubi”, “Bunyodkor yoshlar” teleklubi, “Iste’dod”, “Sog’lom avlod uchun”, “Sen yolg’iz emassan”, “O‘zbekiston madaniyati va san’ati forumi” jamg’armalari, “Ilhom”, Yoshlar jamoatchilik markazlari, Yoshlarning ijod markazlari, “Kelajak bunyodkorlari”, “Istiqlol kelajagi”, “Yosh vatanparvarlar” kabi tashkilotlar mustaqillik yillarida yoshlar bilan ishlashni o‘z maqsadiga aylantirdi. Shu bilan birga, barcha viloyatlarda “Sog’lom avlod uchun”, “Sen yolg’iz emassan”, “O‘zbekiston madaniyati va san’ati forumi” jamg’armalarining hududiy filiallari, Urganch shahrida “Paxlavon Mahmud” xayriya jamg’armasi, viloyatlardagi “Yoshlar markazi” faoliyati, Farg’ona shahridagi “Qalqon” markaziy sport klubi, Respublikadagi mavjud partiyalar qoshida faoliyat yuritayotgan “Yoshlar qanoti”, yoshlar ekologik harakatlari, Namangan viloyatida faoliyat olib borayotgan “Yoshlar ekoparlamenti” va “Yoshlar markazi”, Buxoro viloyati bolalar va o‘smirlarining “Yoshlar markazi”, Toshkent shahar tashabbusni rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash “Nihol” markazi, “Eko avlod” nodavlat tashkiloti, “Yoshlar biznes markazi”, Qashqadaryo viloyatida “Navbahor”, Samarqand viloyatida “Yashil to‘lqin” bolalar ekologik harakati kabilar yoshlarning fuqarolik jamiyati taraqqiyotida tutgan o‘rnini takomillashtirib, istiqbol yo‘nalishlarini belgilab bermoqda⁸³.

O‘zbekiston Respublikasi ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotida yoshlar ishtirokini ta’minlash uchun o‘ziga xos bo‘lgan quyidagi takliflarni berish mumkin:

– ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlarni va yosh oilalarni qo‘llab-quvvatlashni yanada takomillashtirish;

– yoshlarning jamiyat taraqqiyotidagi faoliyatlariga yo‘l ochish va ularning o‘zlaridagi faollik, ijtimoiy-siyosiy islohotlar jarayonlariga kamrabastalik, ishonch fazilatlarini tarbiyalash;

– yoshlardagi faollik, kuch va qudrat, yoshlik salohiyatining islohotlar jarayoniga tortilishini ta’minlash uchun “byurokratiya, korruptsiya, mahalliy-chilik, urug’-aymoqchilik” kayfiyatlaridan jamiyatni muntazam tozalab borish;

– yoshlarning yangilikka intilishi, tashabbuskorligini qo‘llab-quvvatlash, yoshlar tashabbuslarining “cho‘kib” qolishiga yo‘l qo‘ymaslik;

– yoshlarni o‘z vatani va oilasining vatanparvarlariga aylantirish, insonparvarlikni hayot tamoyiliga aylantirishga erishish;

– sog’lom barkamol avlod tarbiyalashni qo‘llab-quvvatlash va barcha zarur imkoniyatlarni yaratish;

– mamlakatni modernizatsiyalash jarayonida islohotlarini amalga oshiruvchilar sifatida yoshlardan keng foydalanish, yoshlar tadbirkorligiga yanada keng imkoniyatlar yaratish;

⁸³ O‘zR. “Kamolot” YoHI JA. “Kamolot” YoHIning 2008-yil faoliyati yuzasidan hisoboti. – B. 28.

– yoshlar intellektual salohiyatini dunyo mamlakatlari darajasida muntazam bo'lishiga erishish, mamlakat iqtisodiyoti rivojini yoshlar intellektual zaxiralari bilan uzviy bog'lash va foydalanishga erishish;

– yoshlarga milliy g'oya, siyosiy-huquqiy ong tamoyillarini keng singdirish, ularning o'z tarixini bilishi, bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari uchun tabiiy rivojlanish tizimlarini yaratish hamda unumli foydalanishga erishish.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash mumkinki, mustaqillik yoshlarga tashabbuskorlik imkoniyatlarini keng yaratib berdi. Bugun yosh avlodni boshlangan ezgu ishlarning davomchisi sifatida har tomonlama qo'llab-quvvatlash va ularga hayotda to'g'ri yo'l ko'rsatish eng asosiy vazifa.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FUQAROLARINING XORIJIY MAMLAKATDA MEHNAT QILISH HUQUQI VA UNI AMALGA OSHIRILISHI

A.X.Jumaboyev,

*NamDU Milliy g'oya, ma'naviyat va
huquq asoslari kafedrasi o'qituvchisi.*

Globalashuv jarayoni jahondagi turli tsivilizatsiyalar o'rtasida o'zaro aloqalarni kuchaytishi va xalqaro madaniyatlar yaqinlashuvini tezlashtirdi, fan va texnika sohasidagi yutuqlar, zamonaviy texnologiyalarning tez ommalashuvi umumbashariy miqyosda shiddat bilan rivojlanish, umuminsoniy axamiyatga ega bo'lgan tabiiy va ijtimoiy muammolarni muvaffaqiyatli hal etish, yer sharidagi turli mintaqalar rivojlanish ko'rsatkichlarini bir-biriga yaqinlashtirish imkonini berdi.

Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlab o'tganidek: “Ammo biz o'zimizning pirovard maqsadimizga erishish uchun zamon qanday tez va shiddat bilan o'zgarayotganini hisobga olgan holda voqeilikning ortida emas, balki uning oldida yurishimiz, har qanday noxush harakat va muammolarning oldini olishimiz, taraqqiyotimiz va demokratik yangilanish zaminini belgilab beradigan qonunlarni o'z vaqtida qabul qilishimiz, ularga hayot taqozo etayotgan o'zgartirish va qo'shimchalarni kiritishimiz zarurati nechog'liq dolzarb ekanini anglash, tushunish qiyin emas”⁸⁴.

Bugungi kunda transport–kommunikatsiya sohasida amalga oshirilgan ilmiy–texnikaviy inqilob natijasida insonning bir xududdan boshqasiga ko'chib o'tishida ham, yer sharining turli burchaklaridagi insonlarning o'zaro aloqalar o'rnatishida ham muammolar barham topdi, odamlar xarakatlanuvchan va aloqa uchun qulay bo'lib qoldilar. Bularning barchasi bir mamlakat fuqarolarining

⁸⁴ Karimov I. A. Jamiyatni erkinlashtirish, islohotlarni chuqurlashtirish, ma'naviyatimizni yuksaltirish va xalqimizning hayot darajasini oshirish – barcha ishlarimizning mezoni va maqsadidir. Asarlar to'plami. 15-jild, Toshkent, O'zbekiston, 2007., 100 b.

boshqa mamlakatlarga, uzoq mintaqalarga safar qilishlarini mislsiz kengaytirdi va aholi migratsiyasi jarayonlari ko'lamini ortishiga sabab bo'ldi. Iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ilmiy-texnik va boshqa maqsadlarda fuqarolarning jahon bo'ylab safar qilishlari keng tarqaldi, turizmni taraqqiy topishiga olib keldi.

Tadqiqotchilarning qayd etishlaricha bugungi kunga kelib 190 mln.dan ko'proq insonlar o'zi tug'ilib o'sgan hududidan o'zga mamlakatlarda yashamoqda.⁶⁵

Ish joyi, kasb va mashg'ulot turini erkin tanlash tamoyiliga ko'ra fuqarolar o'z mehnat salohiyatlarini o'zlari istagan jabhada yuzaga chiqarishlari mumkin, shu jumladan mamlakat xududi tashqarisida ham mehnat qilish huquqi kafolatlanadi.

O'zbekiston Respublikasining "Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida"gi Qonuni 13-moddasiga ko'ra: "O'zbekiston Respublikasi fuqarolari O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida mehnat faoliyati bilan shug'ullanish, mustaqil ish qidirish va ishga joylashish huquqiga ega.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining mamlakat tashqarisidagi hamda chet el fuqarolarining O'zbekiston Respublikasidagi mehnat faoliyati qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi".

Bugungi kunda mamlakat tashqarisida mehnat qilish huquqini tartibga soluvchi maxsus qonun mavjud bo'lmaganda, bu masala Mehnat kodeksining va "Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida"gi qonunning umumiy qoidalarini bilan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni va qarorlari, Hukumat qarorlari bilan tartibga solib kelinmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasida Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 19-oktyabrdagi 408-sonli qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining chet eldagi hamda xorijiy fuqarolarning respublikadagi mehnat faoliyati to'g'risida" gi qarori va unga ilova qilingan "O'zbekiston Respublikasida xorijiy ishchi kuchlarini jalb qilish va ulardan foydalanish tartibi to'g'risida NIZOM", Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 12-noyabrdagi "O'zbekiston fuqarolarining chet eldagi mehnat faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 505-sonli qarori va boshqa me'yoriy huquqiy hujjatlar shular jumlasidandir.

Xorijiy ishchi kuchlarini jalb qilish ruxsatnomasi respublika hududida ishlash uchun yollanadigan xorijiy xodimlarning umumiy va kasblar guruhi bo'yicha yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan eng ko'p sonini belgilaydi.

Mehnat faoliyatini amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasiga keluvchi xorijiy fuqaro ish beruvchi tomonidan olingan ruxsatnoma asosida uning nomiga berilgan mehnat faoliyati huquqi tasdiqnomasi bo'lgandagina O'zbekiston Respublikasi hududida ishlashi mumkin.

⁶⁵ Otagang: Баскакова С.В. Внешняя миграция населения в современной России. Автореферат дисс. к.э.н., М., 2004 г.

Ruxsatnomalar O'zbekistonlik yuridik shaxslarga, O'zbekiston Respublikasi hududida faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalariga, shuningdek o'z shaxsiy xo'jaligida yollangan xodimlar mehnatidan foydalanuvchi ayrim O'zbekistonlik va O'zbekiston Respublikasi hududida yashovchi xorijiy jismoniy shaxslarga berilishi mumkin. Bunda xorijiy xodimlar mehnat faoliyatlarining davom etish muddati ruxsatnomaning amalda bo'lish vaqtidan oshib ketmasligi kerak.

Ruxsatnoma berish Tashqi mehnat migratsiyasi masalalari agentligi tomonidan amalga oshiriladi.

Ruxsatnoma (tasdiqnoma) berganlik va uning muddatini uzaytirganlik uchun belgilangan tartibda to'lov undiriladi.

Ruxsatnoma olish uchun ish beruvchi Agentlikka quyidagi hujjatlarni topshiradi:

- ariza;
- kontrakt loyihasi yoki xorijiy fuqarolar yohud chet el firmalari bilan tuzilgan xorijiy mutaxassislarni jalb qilish maqsadi va shartlari to'g'risidagi oldindan ahdlashilganlikni tasdiqlovchi boshqa hujjatlar;
- xorijiy mutaxassisga berilgan fotosuratli anketa;
- ruxsatnomani rasmiylashtirish va berish uchun to'lov to'langanligi haqidagi bank (kassa) hujjati va Agentlikning talabiga ko'ra boshqa zarur hujjatlar;
- "VICH-infeksiya" yo'qligi to'g'risida sertifikat.

Agentlik xorijiy ishchi kuchlarini jalb qilish va ulardan foydalanish uchun ruxsatnoma berishda O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining bo'sh ish joylarini egallash bo'yicha ustunlik huquqlari printsipidan, so'ralayotgan joyda qadri bir xil ishchi kuchlari borligidan kelib chiqishi kerak.

Ruxsatnoma berish to'g'risida qaror ish beruvchi ushbu nazarda tutilgan hujjatlarni bergan kundan boshlab 30 kun mobaynida - Agentlik tomonidan qabul qilinadi.

Xorijiy ishchi kuchini jalb qilish va undan foydalanish uchun ruxsatnoma berishni rad etish to'g'risidagi asoslangan qaror arizachiga ushbu qaror qabul qilingandan so'ng bir hafta muddatda yuboriladi.

Ruxsatnoma bir yil muddatga beriladi, mehnat kontrakti muddatini uzaytirish tomonlarning roziligiga ko'ra va ish beruvchining qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hujjatlarni berishi asosida, mehnat shartnomasining amalda bo'lish muddati tugagunga qadar amalga oshiriladi.

Ish beruvchidagi ruxsatnoma boshqa ish beruvchilarga berilmasligi kerak. Ruxsatnoma asosida jalb qilinadigan xorijiy xodimlar boshqa ish beruvchiga ishlash uchun o'tkazilishi mumkin emas.

Mehnat faoliyatini amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasiga kelgan va belgilangan tartibni buzgan holda ishga qabul qilingan xorijiy mutaxassislar ish beruvchi mablag'lari hisobiga O'zbekiston Respublikasi Ichki

ishlar vazirligi organlari tomonidan O'zbekiston Respublikasidan chiqarib yuboriladilar.

Agentlik xorijiy mutaxassislarni hisobga olishni amalga oshiradilar, xorijiy mutaxassislarni ishga joylashtirishning va mehnat shartlarining qonuniyligini tekshiruvdan o'tkazadilar. Yilning har choragida O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligini va ichki ishlar hududiy organlarida xorijiy mutaxassislarning soni, kasb-malaka tarkibi, bo'lish muddatlari haqida xabardor qilib turadilar.

Ruxsatnomalar berishning belgilangan majburiy tartibi, shuningdek, mehnat faoliyati huquqiga egalik tasdiqnomalari quyidagi xorijiy fuqarolarga nisbatan qo'llanilmaydi:

a) diplomatik va konsullik muassasalarining, O'zbekiston Respublikasi hududidagi diplomatik maqomdan foydalanuvchi tashkilotlarning xodimlariga;

b) O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligida akkreditatsiya qilingan xorijiy davlatlarning xalqaro hukumatlararo tashkilotlari va hukumat tashkilotlari vakolatxonalari xodimlariga; (O'zR VM 29.04.2004-y. 203-son Qarori taxriridagi xat boshi);

v) 3 oygacha muddatga keladigan, O'zbekiston Respublikasi hududida ishlayotgan yoki tashkil etilayotgan qo'shma korxonalar yoki firmalarning ta'sischilari yoki paychilari hisoblanadiganlarga.

Ko'rsatilgan tartib quyidagi xorijiy fuqarolarga nisbatan ham qo'llanmaydi:

a) davlatlararo bitimlarga muvofiq tashkil etilgan O'zbekiston hududidagi muassasalarda ishlovchi fan va madaniyat arboblarga;

b) ta'til vaqtida O'zbekiston oliy kasb ta'limi ta'lim muassasalari dasturlari doirasida ishlab chiqarish amaliyotini o'tayotgan talabalarga;

v) O'zbekiston Respublikasida akkreditatsiya qilingan muxbirlar va jurnalistlarga;

g) O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida akkreditatsiya qilingan xalqaro va xorijiy nodavlat (hukumatga qarashli bo'lmagan) notijorat tashkilotlarning vakolatxonalari va filiallari xodimlariga;

d) O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi tomonidan akkreditatsiya qilingan, chet el tijorat tashkilotlar vakolatxonalarining xodimlariga;

e) O'zbekiston akademiyalari va oliy kasb ta'limi ta'lim muassasalarida ma'ruzalar kursini o'qish va boshqa ishlar uchun jalb qilingan ma'ruzachilar va yo'riqchilarga;

j) O'zbekiston Respublikasining xorijiy mamlakatlar bilan tuzilgan davlatlararo bitimlarga ko'ra ishga joylashtirishning boshqa xil tartibi belgilangan shaxslarga.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining chet ellardagi mehnat faoliyati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 12-noyabrdagi

505—sonli qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining chet ellardagi mehnat faoliyati tartibi to‘g‘risida NIZOM” bilan tartibga solinadi. Mazkur Nizomda belgilanishicha O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq hukumatlararo, idoralararo shartnomalar va bitimlar asosida faqat Tashqi mehnat migratsiyasi masalalari agentligi va Fuqarolarni chet ellarda ishga joylashtirish bo‘yicha xo‘jalik hisobidagi mintaqaviy byurolarning ko‘magida O‘zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi tomonidan belgilanadigan tartibda mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun chet elga chiqish huquqiga egadirlar.

O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari xususiy mehnat kontraktlari bo‘yicha mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun chet ellarga faqat O‘zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi huzuridagi Tashqi mehnat migratsiyasi masalalari agentligi tomonidan beriladigan ruxsatnomalar bo‘yicha chiqish huquqiga egadirlar.

Fuqarolarning xususiy kontraktlar bo‘yicha chet ellarda mehnat faoliyatini amalga oshirish bilan bog‘liq chiqish hujjatlarini rasmiylashtirish Tashqi mehnat migratsiyasi masalalari agentligi tomonidan belgilangan shaklga muvofiq beriladigan ruxsatnomalar asosida O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

Tashqi mehnat migratsiyasi masalalari agentligi tomonidan ruxsatnoma berilgandan keyin fuqarolar chiqishni rasmiylashtirish uchun yashash joyidagi O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining kelish, ketish va fuqarolik boshqarmasi bo‘linmasiga ariza beradilar.

O‘zbekiston Respublikasining xususiy mehnat kontraktiga ega bo‘lgan fuqarolari chet ellarda ijtimoiy muhofazalanishni ta‘minlash maqsadida Tashqi mehnat migratsiyasi masalalari agentligiga quyidagi hujjatlarni ikki nusxada taqdim etadilar:

- ariza;
- xorijiy firmadan (ish beruvchidan) olingan davlat tiliga tarjima qilingan mehnat vizasi (EMPLOYMENT VIZA) bilan ta‘minlash borasida ish beruvchining majburiyati nazarda tutilgan holda notarial tasdiqlangan va O‘zbekiston Respublikasining chet eldagi konsullik muassasasi tomonidan legalizatsiya qilingan kontrakt nusxasi;
- ish beruvchi to‘g‘risidagi qisqa ma‘lumotlar;
- ma‘lumotnoma-xolisnoma;

O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlangan tegishli shakldagi sog‘ligining holati to‘g‘risida ma‘lumotnoma.

Ruxsatnoma blankasida ruxsatnomani bergan organning nomi, uning yuridik manzili, ro‘yxatdan o‘tkazish raqami, ruxsatnoma berilgan mutaxassisning familiyasi, ismi, otasining ismi, uning fuqaroligi, faoliyat turi,

ruxsatnoma amal qiladigan hudud, amal qilish muddati, uzaytirish vaqti ko'rsatiladi. Ruxsatnoma Tashqi mehnat migratsiyasi masalalari agentligining vakolatli rahbari tomonidan imzolanadi va muhr bilan tasdiqlanadi.

Tashqi mehnat migratsiyasi masalalari agentligining ruxsatnomasi bilan mehnat kontrakti asosida chet elga ketgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari ishga joylashish mamlakatida O'zbekiston Respublikasi konsullik muassasasida hisobda turishi shart. Respublikaning vakillik organlari bo'lmagan taqdirda O'zbekistonlik fuqarolar MDH mamlakatlarining O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan vakil qilingan konsullik organlarida ro'yxatdan o'tishi kerak.

Fuqarolarga chet ellarda mehnat faoliyatini amalga oshirishga ruxsatnoma nazarda tutilgan hujjatlar O'zbekiston Respublikasi fuqarolari tomonidan taqdim etilgan kundan boshlab 15 kun mobaynida O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini xorijiy mamlakatlarga ishga jo'natish uchun nomzodlarni tanlash bo'yicha idoralararo komissiyaning qarorlari asosida Tashqi mehnat migratsiyasi masalalari agentligi tomonidan beriladi.

Chet ellarda mehnat faoliyatini amalga oshirishga ruxsatnoma berilishining asosli rad etilishi ariza beruvchiga ruxsatnoma berish rad etilishi to'g'risida qaror qabul qilingandan keyin bir hafta muddatda yozma ravishda yuboriladi.

Ruxsatnoma mehnat kontrakti muddatiga beriladi. Ariza beruvchining iltimosiga ko'ra mazkur kontrakt uzaytirilgan taqdirda ruxsatnomaning amal qilish muddati belgilangan tartibda qayta ko'rib chiqilishi mumkin.

Ruxsatnoma berilganligi va uning amal qilish muddati uzaytirilganligi uchun belgilangan tartibda to'lov undiriladi. Mazkur to'lov ruxsatnoma berish bo'yicha hujjatlarni ko'rib chiqish va rasmiylashtirish bilan bog'liq xarajatlarni qoplashga sarflanadi.

Ruxsatnoma olishning majburiy tartibi O'zbekiston Respublikasining quyidagi fuqarolariga nisbatan qo'llanilmaydi:

- a) O'zbekiston Respublikasining chet ellardagi diplomatik va konsullik muassasalari xodimlari;
- b) Oliy kasb-hunar ta'limi muassasalarining hukumatlaro dasturlari doirasida ta'til davrida ishlab chiqarish amaliyotini o'tayotgan talabalar;
- v) O'zbekiston Respublikasining chet ellardagi muxbirlari va jurnalistlari;
- g) xorijiy oliy kasb-hunar ta'limi muassasalarida ma'ruzalar kursi o'qish va boshqa ishlar uchun taklif etilgan lektorlar va instruktorlar;
- d) O'zbekiston Respublikasining xorijiy mamlakatlar bilan tuzgan davlatlararo bitimlarida ishga joylashishning ular uchun o'zgacha tartibi belgilangan shaxslar, shuningdek Tashqi mehnat migratsiyasi masalalari agentligi va fuqarolarni chet ellarda ishga joylashtirish bo'yicha xo'jalik hisobidagi mintaqaviy byurolar tomonidan xorijiy tashkilotlar bilan tuzilgan idoralararo shartnomalar (bitimlar) bo'yicha ishga ketayotgan shaxslar.

JAMIYAT TARAQQIYOTI

B.B.Ibrohimov,

Nam DU Milliy g'oya, ma'naviyat va huquq asoslari kafedrasida o'qituvchisi.

Jamiyat insoniyat tarixiy taraqqiyotining ma'lum bosqichida shakllanadigan ijtimoiy munosabatlar majmui. Jamiyat a'zosi shaxsdir. Buning sabablari:

1. Shaxs axloqi jamiyat axloqiga bo'ysunadi;
2. Shaxs tanho yashay olmaydi, baxt-saodatni ham odamlar orasidan topadi;
3. Shaxs jamiyat irodasidan dalda oladi;
4. Jamiyat shaxs kamoloti uchun mas'uldur.

Har bir shaxs o'zi yashab turgan jamiyatning a'zosi. Agar shaxs yaxshi xulqli, olijanob bo'lsa, adolatli jamiyatda odamlarga katta naf keltiradi. Axloqli kishi hatto o'z hayotidan kechib bo'lsa ham, xalqi, Vatani uchun, jamiyat uchun ko'p ish qiladi, uning nomi tarixda mangu qoladi va yangi-yangi avlodlarga namuna bo'laveradi.

Jamiyatni katta bir vujud deb qaralsa, shaxs uning bir hujayrasi. Jamiyatning umumiy ijtimoiy ongi, ma'naviyati, madaniy darajasi, siyosiy-huquqiy saviyasi har bir shaxs tarbiyasi va fe'l-atvoriga singib boradi. Shu bilan birga o'zigagina xos xususiyat va fazilatlarga ham ega bo'ladi. Har bir inson tanho va betakroridir. Shaxs va jamiyat o'zaro majburiyatlar orqali ham bir-biri bilan uzviy bog'liqdir.

Oila har bir xalqning, millatning davomiyligini saqlovchi, milliy qadriyatlarni rivojlantiruvchi, harkamol avlodni tarbiyalovchi muqaddas makondir. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub islohotlar mazmunida oila manfaatlarini huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy jihatdan himoya qilishni ta'minlash masalalariga alohida e'tibor berilmoqda.

Oila va jamiyatning harkamol avlodni tarbiyalashdagi roli bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Darhaqiqat, oilaga bo'lgan bugungi munosabatni baholamoq uchun Yurtboshimiz aytganidek, "Bizga sobiq ittifoqdan, eski mustabid tuzumdan qanday tarixiy meros qolganini bir karra eslashimiz zarur". Eski mustabid tuzum "kashfiyot"laridan biri asrlar davomida allomalarimiz tomonidan hayotda isbotlangan shaxsning har tomonlama shakllanishida irsiyatning roli inkor etiladi.

Jahon madaniyati xazinasiga Ahmad al-Farg'oniy, al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beroniy, Abu Ali ibn Sino, Bahovuddin Naqshband, Hoja Ahmad Yassaviy kabi allomai zamonlar, To'maris, Spitamen, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Amir Temur singari qahramonlar, Zebuniso, Uvaysiy,

Nodirabegim kabi oqila momolarimiz, Abdulla Qodiriy, Abdurauf Fitrat, Cho'lpon, Elbek kabi millat ozodligi kurashchilarini dunyoga keltirgan o'zbek oilasi hech qachon o'zligini yo'qotmaydi. Uni hech qanday yovuz kuch, "zaharli mafkura" yo'q qilish qudratiga ega emas.

Turg'unlik yillarida o'zbek oilalariga zid bo'lgan "keksalar uyi", "yetimxonalar", ba'zi zararli odatlar (ichish, chekish, giyohvand moddalar iste'mol qilish, ayollar va bolalar jinoyatchiligi va hokazo) avj ola boshladi. Oilalarning milliy va diniy qadriyatlari kamsitildi, toptaldi. Xalqimiz oilaviy tantana qiladigan "Navro'z", "Ramazon", "Iyd Qurbon hayiti" kabi tarixiy-milliy bayramlardan mahrum bo'ldi. Hattoki, ota yoki onani oxirgi yo'lga kuzatish marosimida ishtirok etish, o'tganlarni xotirlash, qadrlash maqsadida Qur'on tilovat qilish, do'ppi, to'n kabi milliy liboslarni kiyish keskin taqiqlandi.

Prezidentimiz I.A.Karimov ayollarni nihoyatda ulug'lash, e'zozlashga chaqinib bunday deydilar: "...Avvalo onalarimiz, opa-singillarimiz, umr yo'ldoshlarimiz, qizlarimizni jamiyatdagi o'rni, mavqeiini yanada oshirish, izzat-ikromini joyiga qo'yish, ularning og'irini engil qilish, davlatimizning, hukumatimizning, joylardagi hokimliklarning, jamoatchilikning asosiy vazifasi bo'lmo'gi lozim". Respublikamizda yangi asrning birinchi yili — "Onalar va bolalar" yilida amalga oshirilgan ishlarning ijobiy ta'siri yurtimizda yashayotgan barcha insonlar taqdirida, har bir oila, har bir xonadon hayotida o'z aksini topdi. Bu esa mamlakatimizda Sog'lom avlod — Sog'lom oila — Sog'lom jamiyat g'oyasining izchillik bilan amalga oshirayotganligidan dalolat beradi.

"Ona va bola" Davlat dasturiga ko'ra tug'ish yoshidagi ayollarning deyarli 99% to'liq tibbiy ko'rikdan o'tkazildi va zarur hollarda davolashga yo'naltirilishi tashkil qilindi.

Uzoq tarixiy va mustahkam poydevorga ega bo'lgan o'zbek oilasi, uning o'ziga xos milliy xususiyatlarini butunlay yo'q qilish, insoniyat xotirasidan o'chirib tashlash uchun o'zgalar hech qanday kuch topa olmadi. Tarixan qisqa 14 yil ichida o'zbek oilasi hayotida mislsiz o'zgarishlar yuz berdi:

Birinchiidan, mustaqillik sharofati bilan oila va uning manfaatlarini muhofaza qilish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Oila tarbiyasi kommunistik g'oyalardan tozalanib, milliy tarbiya mezonlari asosida amalga oshirila boshlandi;

Ikkinchiidan, qonun ustuvorligini ta'minlash oila, onalik va bolalikning huquqiy manfaatlarini, oilaviy munosabatlarning huquqiy asoslarini takomillashtirish borasida muhim ishlar amalga oshirildi;

Uchinchiidan, oilaning ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini ta'minlash, nogironlar, yetim-yesirlar, yolg'iz keksalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash;

To'rtinchiidan, Yurtboshimiz aytganidek, "Ayolsiz oila, oilasiz davlat, jamiyat bo'lmasligi" o'z isbotini topdi;

Beshinchidan, Prezidentimiz tashabbuslari bilan 1998 yil "Oila yili", 1999-yil "Ayollar yili", 2000-yil "Sog'lom avlod yili", 2001-yil "Onalar va bolalar yili", 2002-yil "Qariyalarni qadrlash yili" deb e'tirof etilishi va shu munosabat bilan Vazirlar Mahkamasi tomonidan maxsus davlat dasturlarining qabul qilinishi;

Oltinchidan, Prezidentimizning 1995-yil 2-martdagi Farmonlariga binoan, Respublika xotin-qizlar qo'mitasi raisligiga Bosh vazir o'rinbosari, tuman, shahar, viloyat xotin-qizlar qo'mitalari, raislariga hokim o'rinbosarlari maqomlari berildi;

Yettinchidan, oila, xotin-qizlar, bolalar manfaatlarini himoya qiluvchi 10 dan ortiq jamoat tashkilotlari tashkil etildi. Darhaqiqat, XXI asr o'zbek oilasi mustahkamligi, barqarorligi, farovonligi bilan yer kurrasidagi barcha oilalar uchun namuna maktabi bo'lmog'i lozim;

MINTAQAGA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSIALARNI JALB QILISHNING IQTISODIY ASOSLARI

S. Qoriyeva,

Namangan yengil sanoat kolleji o'qituvchisi.

Mintaqa iqtisodiyotiga investitsion resurslarni jalb qilish oson ish emas, chunki bu chet el investitsiyalarni ham qo'shgan holda, barcha potensial mavjud investitsion resurslar imkoniyatlarini strategik safarbar etishni talab etadi. Xorijiy kapital o'zi bilan birga mintaqa iqtisodiyotini rivojlanishi, jumladan, unda bandlikni o'sishi, yuqori ish haqi va mehnat unumdorligining oshishi, bundan tashqari real sektorni rivojlantirish va modernizatsiyalash ko'rinishlaridagi katta iqtisodiy samarani olib keladi. Xorijiy kapital qo'yilmalardan foydalanishning strategik rejasi iqtisodiyotning bir qator muhim sohalaridagi iqtisodiy orqada qolishni bartaraf etadi va milliy iqtisodiyotni jahon xo'jligiga integratsiyasining samarali usullaridan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasini iqtisodiy rivojlanishida mintaqaviy muammolar majmuasining o'rganishga katta qiziqish mavjudligi bilan ajralib turadi. Lekin so'nggi yillarda iqtisodiy fanda olib borilgan tadqiqotlarda shakllangan ilmiy ishlanmalar, mintaqalar va ularning muammolari to'g'risidagi to'plangan mavjud bilimlar bugungi kun talablariga mos kelmayapti.

Xorijiy investitsiyalarning shakllari quyidagicha shakllanadi:

- to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar – sanoat, savdo, xizmat ko'rsatish korxonalariga bevosita kapital qo'yish;

- portfel (yoki moliyaviy) investitsiya - moliya bozorlarida, milliy davlatlar va xususiy qimmatbaho qog'ozlar bozorlariga joylashtirilgan xorijiy kapital;
- boshqa turdagi xorijiy investitsiyalar - xorijiy mamlakatlar taqdim etgan xalqaro kreditlar, xalqaro moliya tashkilotlari kreditlari va savdo va sanoat korporatsiyalari, bank va boshqa moliya muassasalarining ssuda kapitali qarzlari, savdo kreditlari, bank omonatlari va h.k.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar investitsiyalovchi korporatsiyalarga investitsiya kiritilgan kompaniyaga to'liq ega bo'lish yoki uning ustidan to'liq nazorat o'rnatish imkonini beradi. Bunda investorlar hissadorlik kapitalining 10%dan kam bo'lmagan ulushiga ega bo'lishi lozim. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar kapital mablag'lar yoki portfel investitsiyalardan farqi, ular qisqa muddatli emas, qaytib beriladigan, to'lovli mablag'lar emas, tashqi qarzdorlik sohasida og'ir yuk bo'lib qolmaydi, balki iqtisodiyotning real sektori bilan yuqori darajada bog'liq. Rivojlangan ishlab chiqarish kuchlari nuqtai-nazaridan qaraganda retsipient mintaqaga aynan to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalardan eng ko'p samara kutishi mumkin.

Xorijiy investitsiyalarni tadqiq etish xulosasi sifatida aytish kerakki, bugungi kunda xorijiy investitsiyalar jarayonini batafsil tushuntira oladigan umumiy tushuncha ishlab chiqilmagan. Investor uchun birinchi navbatda investitsiya qo'yilmalari uchun mintaqani to'g'ri tanlash muhim hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasidagi iqtisodiy o'sish sharoitida eng istiqbolli "investor ortidan borish" usuli hisoblanadi, bu usul O'zbekistonga bugungi kunda o'z kapitalini kiritgan va faoliyat olib borayotgan investorlarga berilgan imtiyozlarni tahliliga asoslanadi. Bu usul O'zbekistonda yaratilgan investitsiyalashning majmuaviy sharoitini tahlili sifatida va ularga investitsiyalashda boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun zarur va yetarli bo'lgan ma'lumotni beradi. Investor barcha tavakkalchilik omillarini to'laqonli hisobga olgan holda boshqa investitsiya kiritgan bir qancha investorlarning o'zini tutishiga qarab tavakkalchilik omillari haqida xulosa qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Modomiki, aynan mintaqalar investitsion mablag'larning iste'molchisi hisoblanar ekan, investor tomonidan mamlakat mintaqasiga aniq xorijiy investitsiya kiritish haqidagi ijobiy qarorlarni qabul qilishda quyidagilar hal qiluvchi omillar hisoblanadi:

- 1) retsipient mintaqa mahalliy hokimiyatining xorijiy investitsiyalarga munosabatlari bo'yicha kapital siyosati;
- 2) investitsiyalarni qabul qiluvchi mintaqalarning geografik holati;
- 3) transport harajatlarida va bojxona bojlaridagi tejamkorlik;
- 4) alohida tarmoqlar, mamlakatlar, mintaqalarda hukumatning ilmiy-texnik siyosati va savdo-siyosat rejmalari valyuta, soliq qonunchiliklari, xo'jalik kon'yunkturasidagi turli o'yinlar hisobiga foyda miqdorining barqarorligi;

- 5) investitsiyalarni qabul qiluvchi mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini hisobga olish;
- 6) ishlab chiqarish xarajatlarining milliy darajasidagi farqlardan foydalanish hisobiga yuqoriroq foyda me'yorini olishga intilish;
- 7) alohida davlatlar va mintaqalar xo'jalik kon'yunkturasi holatiga qarab, tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarishning xorijiy filiallar o'rtasida taqsimlanishi va qayta taqsimlanishi;
- 8) texnik, texnologik, boshqaruv yangiliklari, savdo markalari va belgilar va boshqalarning kirib kelishi.

Shunday qilib, yuqorida aytilganlardan kelib chiqib xulosa qilamizki, O'zbekiston Respublikasida va uning mintaqalarida investitsiyalash jarayoni-ning yaxshi rivojlanishida xorijiy investitsiyalar muhim rol o'ynaydi. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida bir qator huquqiy normalar xorijiy investitsiyalarni va xorijiy investorlar faoliyatini tartibga solishga qaratilgan, lekin shu bilan birga ularda bir qator muammolar, investitsiyalash loyihalarining amalga oshirish jarayonlarida yuzaga keladigan tushunmovchiliklar mavjud. Xorijiy investitsiyalar shakllarini turkumlashda asosiy tushuncha alohida portfel va to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar hisoblanib, ularning har biri mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Mintaqa, davlat va korxonalar uchun xorijiy kapitallarni jalb qilishda muhim mezon bo'lib investitsiya shakllari hisoblanadi.

SHARQ YAKKA KURASHLARI JISMONIY, RUHIY, ESTETIK VA MA'NAViy TARBIYA MEZONI

N. Qambarov,

*NamDU Boshlang'ich ta'lim metodikasi
kafedrasida o'qituvchisi.*

N. Qambarova,

*Namangan shahar xalq ta'limi muassasalari
faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish
bo'limi psixologi.*

Qadimdan insonlar jismoniy, ruhiy, estetik va ma'naviy kamolotga intilib kelganlar. Ushbu kamolotni eng muhim omil deb hisoblaganlar. Doimo jismoniy baquvvat, ruhan tetik, estetik kamol, ma'nan go'zallik uchun turli omil, usullardan foydalanganlar. Tana va ruhni chiniqtirish uchun turli mashqlarni bajarganlar. Shuning natijasida tana va ruh uyg'unligiga erishganlar. Insonni qindagi qilichga o'xshatiladi. «Tana bu qindir, jon esa qilich» - degan edi Abu Rayhon Beruniy. Bu orqali jismoniy va ruhiy imkoniyatlarga erishiladi. Turli jismoniy mashqlar orqali inson tanasi sog' va ko'rkam bo'ladi.

Shu bilan jismoniy mashqlar orqali ruhiy tetiklikka, ya'ni o'z kuchiga ishonish, yaxshi kayfiyat, qoniqish, idrok, tafakkur, diqqat, sezgi, his qilishga erishiladi.

Inson uchun eng muhim ruhiy imkoniyatlardan biri bu oltinchi his tuyg'udir. Bu esa inson ruhiy kamolotining yuksak cho'qqisidir. Bunda kuchli sezgi, telepatiyaga erishiladi. Ruhiy imkoniyatlar orqali yana inson gravitatsiya (vaznsizlik holati), teleportatsiya (inson tanasining bir joydan ikkinchi joyga ko'chishi), ruhiy kuchga (ichki quvvat) ega bo'ladi. Bunga misol qilib hind yoglari, yapon samuraylari va xitoy kungfuchilarini ko'rishimiz mumkin. Ular o'z jang san'atlari orqali shunday imkoniyatlarga ega bo'ldilar. Yapon jang san'ati ustasi Yasinaru Kitaura shunday deydi: «Osmon bilan yerni bog'lab turuvchi narsa - mening ruhimdir». Diniy ta'limotlarda tana yerniki, ruh osmonniki, deyiladi.

Sharq yakka kurashi ustalari jismoniy imkoniyatlar ma'lum darajada cheklangan, ruhiy imkoniyatlar esa cheksiz, deb hisoblaydilar va bu esa isbotlangandir. Jang san'ati bilan shug'ullangan inson bir yoki bir necha raqib ustidan g'alaba qilish mumkin.

Zarba beruvchi shaxs (qo'l yoki oyoqda) ikki xil holatda zarba yo'llaydi. Birinchi holat tana kuchi bilan berilgan zarba. Ikkinchisi ruhiy kuch bilan ya'ni ichki quvvat bilan berilgan zarbadir. Eng kuchli zarba albatta ruhiy kuch bilan berilgan zarbadir. Ruhiy kuchga erishish uchun turli mashqlar bilan birga meditatsiya ya'ni fikrni bir joyga jamlashni o'rganish lozim.

Jangchi shamoldek tez, tog'dek viqorli, olovdek yondiruvchi, o'rmondek sokin bo'lishi lozim va bu kuchli falsafiy mushohadaga egadir. Shuning uchun sharq yakka kurashlarini jangovor san'at deb ataladi. Yakka kurash usullarining asoschilari san'at darajasiga olib chiqqanlar.

Har bir jang san'ati o'z tarixi, asoschisi, uslubi va falsafasiga ega. Har bir millatning o'z jangovor san'atlari mavjud. Masalan, Yaponiyada karate, aykido, kendo, dzyudo, iyaydo, tangsudo, dji-djitsu, kempolardir. Xitoy esa kungfu va uning turli usublari (ilon, beshik tebratar, yo'lbars, burgut, maymun, laylak, sharobxo'r usta va boshq). Koreyada koreys kurashi, taekvondo, xapkido, xedong komdolar bo'lsa, Tailand muaytay, Hindiston kolirapayatu, Frantsiyada savat, Braziliyada kopiera, Rossiyada sambo, Indoneziyada penchak silat, Yevropada boks, kikkboxing O'zbekistonda kurash, Amir Temur jang san'ati, Turon kurashi va o'zbek jang san'atlari bor. Ushbu barcha jang san'atlari maktablari O'zbekistonda mavjud va faoliyat olib bormoqda. Hozirda respublika sharq yakka kurashlari va jang san'atini rivojlantirish markazi tashkil etilgan. Viloyatlarda ham uning bo'limlari ham faoliyat olib bormoqda.

Namangan viloyatida hamyurtlarimiz ham 12 xil sharq yakka kurashlari bilanshug'ullanmoqdalar. Shu bilan birga viloyatimizda sportning ommaviyligi oshib bormoqda. Sharq yakka kurashlari bo'yicha federatsiyalar, assotsiatsiyalar va bo'limlar tashkil etilgan.

Sharq yakka kurashi bilan shug'ullanuvchi shaxs nafaqat jismoniy, ruhiy shu bilan birga estetik tarbiya vositasi hamdir. Shug'ullanuvchi eng avvalo, tozalikka e'tibor berishi juda muhim va bunga qat'iy amal qilmog'i lozim. Ya'ni o'z sport turiga mos toza kiyim, toza sport zal, toza sport jihozlari demakdir. Mashg'ulotdan so'ng yuvinishi, ya'ni dush qabul qilish juda ham zarur. Sportchiga doimo kiyimi toza bo'lishi bilan birga qulay va chiroyli, g'ijim bo'lmagan, gavdasiga mos bo'lishini tushuntirib boriladi. Bular sportchining estetik tarbiyalanishiga ko'maklashadi. Sportchining kiyimlari kir, g'ijim yoki qulay bo'lmasligi esa inson kayfiyatini tushirishi bilan birga natijalarga ham salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Sharq yakka kurashi bilan shug'ullanuvchi shaxs yana ovqatlanish qoidalariga ham amal qilib, o'z vaqtida ovqatlanishi, vitaminlarga boy oziqlardan iste'mol qilishi, meva va sabzavotlarni yuvib yemog'i lozim. Vitaminlarga boy ovqatlar esa sarflangan energiyaning o'rnini qoplaydi va organizmning toliqishini oldini oladi. Ikki yoki uch soatli mashg'ulotdan so'ng tabiiy sharbatlardan iste'mol qilish tavsiya etiladi. Yana sportchi shug'ullanish etikasiga ham amal qiladi.

Sharq yakka kurashlarining eng muhim omillaridan yana biri ma'naviy va axloqiy tarbiyadir. Har bir sharq yakka kurashchisi halol, mehnatsevar, intizomli, irodali, vatanparvar, yaxshi do'st, yaxshi shogird, yaxshi ustoz bo'lishi lozim.

Jang san'ati bilan shug'ullanuvchi o'zgalarga ozor bermasligi aksincha kuchsizlarga yordam berishi kerak. Jang usullaridan esa faqat himoyalaniş uchungina foydalaniladi va bu jang san'atining eng muhim tarbiyaviy jihatidir.

Ustoz va shogirdlar o'rtasida ham tarbiyaviy jihatlar bo'lishi darkor. Shogirdlarning ustozga bo'lgan chuqur hurmati va sodiqligi, ustozni otadek ko'rishi, uning ko'rsatmalari, o'g'itlariga amal qilishi, uningdek bo'lishga harakat qiladilar. Ustoz-shogird an'analarini davom ettirilishi, o'z jang san'atini puxta o'rganish, uning rivojiga hissa qo'shish va kelajak avlodga yetkazishdek muhim vazifalar amalga oshiriladi.

Sharq yakka kurashchisi kuchsizlarga yordam berish bilan birga Vatan himoyachisidir ham. Yaxshi shug'ullangan jangchi o'z Vatani, oilasini kuchsizlarni himoya qila oladi va bunga qodir bo'ladi.

Yakka kurashlar bilan shug'ullanayotgan har bir o'g'il-qiz musobaqalarda o'z yurti sha'nini himoya qiladi va ko'klarga ko'taradi. Vatani duyoğa tanitishda o'z kuchini ayamaydi. O'zbekistonni va o'zbekni nimaga qodir ekanligini o'z yutuqlari bilan isbotlaydi.

Shug'ullanish jarayonida ustozlar o'z jang san'ati tarixi, asoschisi, falsafasi, jang usullari va uning ahamiyati haqida tushunchalar, mashhur sportchilar haqida ma'lumotlar berib boradi. Shu bilan birga mashhur sportchilar va buyuk bobolardek bo'lishga undab boradi.

Sportchi ma'naviyati bu bir-biriga hurmatdir. Yana shug'ullanish jarayonida sherigini raqib sifatida ko'rmasligi, birga ishlayotganda sherigini avaylashi lozim. Sharq yakka kurashlarining yana bir muhim ma'naviy maqsadlaridan biri "Raqibingni ham insonligini unutma", "Raqibni jarohatlab yengish emas, balki yomon fe'lidan qaytar" kabilardir.

Mashqlarni boshlashdan oldin sportchilar ustozga va bir-biriga ta'zim bilan boshlashi, xatto shug'ullanayotgan sport zaliga kirayotganda ham ta'zim bilan kirishi, uning ma'naviyatidir.

Sharq yakka kurashi qo'pollik, jarohatlash, dilozorlik quroli emas, balki, san'at, o'zaro yordam, tinchlik vositasidir.

Yaponiyalik aykido jang san'ati asoschisi shunday degan edi: - "Aykido raqib ustidan g'alaba qilish vositasi emas, aykido insonlar o'rtasida tinchlik va do'stona muhabbat vositasidir".

Yuqoridagi fikrlardan shunday xulosa qilish mumkinki, sharq yakka kurashlari jismoniy, ruhiy estetik va ma'naviy tarbiya mezonidir.

NAMANGAN VILOYATI SANOATINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY INVESTITSİYALAR

I.E. Kenjayev,

Iqtisodiyot kafedrasi o'qituvchisi.

M. Burxonova,

*Namangan yengil sanoat kasb-hunar
kolleji o'qituvchisi.*

Namangan viloyatida investitsion faollikni oshirish muammosining ikki asosiy jihati mavjud: birinchisi, yuqori darajada ma'naviy va jismoniy eskirgan ishlab chiqarish vositalarini yangilash zaruriyati, ikkinchisi esa ko'p jihatdan mintaqadagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarning jadallashuviga zamin yaratuvchi mintaqa sanoatini tarkibiy qayta qurish va uning baqaror o'sishini ta'minlash. Sanoat tarmog'i majmuasi har qanday mamlakat va mintaqa iqtisodiyotini rivojlantirish orqali uning jahondagi siyosiy mavqeini va jamiyatning ijtimoiy barqarorligini belgilab beradi. 1990-1995-yillarda O'zbekistonda va uning mintaqalarida sodir bo'lgan byudjet tanqisligi, uning to'lov qobiliyatining pasayib borishi va pirovardida ishlab chiqarish hajmining keskin qisqarishi natijasida sanoatni rivojlantirish uchun o'ta zarur bo'lgan investitsion resurslar tanqisligini vujudga keltirdi.

Xorijiy investitsiyalar korxonalar sanoatini rivojlantirish strategiyasini amalga oshirishning muhim vositalaridan biri hisoblanadi. Sanoat korxonasi-ning investitsion strategiyasi ayni chog'da o'zida korxonaning iqtisodiy va ishlab chiqarish salohiyatini kengaytirishga yo'naltirilgan investitsiya qo'yish-ning bir muncha samarali shakllarini asoslashni va amalga oshirishga qaratilgan

faoliyatni ifoda etadi. O'z navbatida, investitsion siyosatni ro'yobga chiqarish uchun xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan tarmoq, hududiy investitsiyalar uchun jozibali bo'lgan va belgilari bo'yicha guruhlangan real investitsion loyihalarni ifoda etuvchi investitsion dasturlar ishlab chiqiladi.

Namangan viloyatida sanoatni barqaror rivojlantirishda mavjud bo'lgan muammolar quyidagilardan iborat:

- sanoatning tarkibiy rivojlanishida nomunatosibliklarning mavjudligi, unda xomashyoni qayta ishlash tarmoqlari (paxtani qayta ishlash 35,1%) ulushining yuqori darajada ekanligi;
- sanoatning mashina parklari va uskunalar eskirishining yuqori darajasi va ularni qayta jihozlashning past darajasi o'rtasidagi nomunatosiblikning mavjudligi;
- ba'zi bir sanoat korxonalarining moliyaviy nochorligi.

Bugungi kunda xorijiy investitsiyalar yaxlit holatda mintaqa xo'jaligining rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmagan holda, hozirda ishlab chiqarishning bir qator tor, birinchi navbatda xorijiy iste'molchilarning talabini qondirishga yo'naltirilgan sohalarida "o'sish katalizatori" vazifasini o'tamoqda. Bizningcha, Namangan viloyati sanoat ishlab chiqarishiga xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish chora-tadbirlari quyidagi yo'nalishlarni qamrab olishi lozim:

- eksport qilinuvchi xomashyoning mintaqa hududida yuqori darajada qayta ishlanishini rag'batlantirish;
- xomashyo va mahsulotlarga yuqori texnologik ishlov berishga ixtisoslashgan xalqaro kooperatsion zanjirlarga mintaqa korxonalarining qo'shilishiga har tomonlama ko'maklashish;
- xorijiy kompaniyalarga mintaqa hududida qayta ishlovchi ishlab chiqarishlarni joylashtirishlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratib berish va shu kabilar.

Namangan viloyati sanoatini innovatsion rivojlantirish strategiyasini amalga oshirish uchun mintaqada qator tashkiliy ishlarni talab etadi. Ularga quyidagilar kiradi:

- mintaqada innovatsiyalarni va innovatsion sanoatni rivojlantirishga ma'sul bo'lgan maxsus organi tashkil etish;
- mintaqaning raqobatbardoshlik afzalliklarini hisobga olgan holda yuqori texnologik ustuvor tarmoqlarni shakllantirishga qaratilgan "Namangan viloyatining innovatsion rivojlanish strategiyasi"ni ishlab chiqish va tegishli Davlat dasturini qabul qilish;
- milliy inkubatsion va texnopark tizimi tashkilotlari, ilg'or texnologiyalarni joriy etish markazlari, intellektual mulk birjalari va tavakkalchilikka asoslangan moliyalash institutlarini tashkil qilish yo'li bilan innovatsion sohada institutsional qurilishni jonlantirish;

- innovatsion soha vakillarini o'qitish va malakasini oshirish uchun respublika darajasida ta'lim dasturini ishlab chiqish va uni amalda qo'llash;
- mintaqada informatsion maydonni tashkil etish, ya'ni Namangan viloyati-ning innovatsion portalini yaratish va uning resurslariga barcha manfaatdor innovatsion soha vakillari va shu katorda chet el vakillariga ushbu resurslardan foydalanishlari uchun qulay sharoitlarni yaratib berish;
- yangi bilim, g'oyalar va innovatsiyalarni ishlab chiqaruvchi va uni amaliyotga joriy qiluvchi kichik, ilmiy-texnikaviy korxonalarni tashkil etish;
- mintaqada kichik, ilmiy texnikaviy va innovatsion korxonalarni jadal rivojlanishi uchun to'la shart-sharoitlar yaratish.

“Namangan viloyatini innovatsion rivojlantirish davlat dasturi”ga asosan rivojlantirish mintaqa sanoatiga yangi ilg'or lokomotiv tarmoq texnologiyalarni joriy etish orqali barcha sanoat tarmoqlarini ishlab chiqarish infratuzilmasini yangi texnologiyalar bilan qayta qurollantirishni amalga oshirishga olib keladi. Shu bilan birga:

- qazib olish sanoatiga intensiv texnologiyalarni joriy etish hisobiga mintaqada qurilish materiallari ishlab chiqarish sanoatini rivojlantirish;
- qishloq joylarda qishloq xo'jaligi xomashyosini chuqur qayta ishlaydigan sanoat korxonalarini rivojlantirish;
- paxta va ipakni qayta ishlovchi yirik innovatsion loyihalarni amalga oshirish hisobidan mintaqani paxta va ipak matolar ishlab chiqarishga ixtisoslashtirish;
- zamonaviy biotexnologiyalarga va nanatexnologiyalarga asoslangan holda mintaqada dorivor o'simliklardan meditsina uchun farmattsevtika sanoatini rivojlantirish;
- oziq-ovqat sanoatiga yangi texnologiyalarni jalb etish hisobiga qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash, meva va sabzavot konservalarini, quruq mevalar va sharbatlarni ishlab chiqarish sanoatini rivojlantirish amalga oshiriladi.

Mintaqa sanoatiga TTXI jalb etilishi uni integratsiyalashuviga va tarmoqlararo kompleks rivojlanishiga imkon yaratadi. Bu mintaqada aholini turmush darajasini o'sishiga va moliyaviy imkoniyatlarini yaxshilashiga olib keladi. Natijada sanoat mahsuloti hajmini o'sishiga, uning raqobatbardoshlik darajasini oshishiga va mahsulotni sotish bozorlarini kengayishiga erishiladi. Globalizatsiya omillaridan samarali va kompleks foydalanish va hamkor mamlakatlar o'rtasida TTXI oqimini kirishi va chiqishi o'rtasida nazoratni kuchaytirishni hisobga olgan holda transmilliy kompaniyalarni rivojlantirish yakuniy natijada mintaqa iqtisodiyotini barqaror yuqori sur'atlarda o'sishiga va unga mos ravishda uning aholisini turmush darajasini oshishiga olib keladi. Namangan viloyati iqtisodiyotini innovatsion rivojlantirishga o'tish strategiya-

sida xorijiy mamlakatlar tajribasidan foydalanish hisobiga quyidagilarga erishish mumkin bo'ladi:

- xorijiy investitsiya jalb etilgan korxonalar orqali zamonaviy texnika va texnologiyalarni mamlakat iqtisodiyotiga jalb etish;
- yangi texnika va texnologiyalarga litsenziyalar olish;
- oliy va kasb-hunar ta'limining rivojlanishini rag'batlantirish.

Xulosa qilib aytganda, Namangan viloyati qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, qurilish materiallari, to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxonalarini tashkil etish uchun ulkan imkoniyatlar va salohiyatga ega. Mavjud bo'sh turgan ishlab chiqarish maydonlari, mehnat va tabiiy resurslardan foydalanish mintaqaning modernizatsiya qilingan, texnik va texnologik qayta jihozlangan korxonalarida yoki yangidan tashkil etilgan xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarda tashqi bozorlarga eksport qilish uchun yuqori qiymatli, sifatli mahsulot ishlab chiqarish quvvatini ta'minlashga imkon beradi.

YOSHLARGA E'TIBOR – KELAJAKKA G'AMXO'RLIK

Sarimsoqov Begzod,

NamDU Milliy g'oya, ma'naviyat va huquq asoslari kafedrasi o'qituvchisi, ilmiy rahbar.

I. Dalaboyev,

Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi talabasi.

Bugun mamlakatimizda sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarning o'z ijodiy va intellektual salohiyatini to'la ro'yobga chiqarish, mamlakatimiz yoshlarini XXI asr talablariga to'liq javob beradigan har tomonlama yetuk shaxslar etib kamol toptirish uchun zarur imkoniyatlar yaratilgan. Yoshlarni huquq va erkinliklarini ta'minlash, mamlakat taraqqiyotining hozirgi bosqichida dolzarb ahamiyat kasb etib, bu boradagi ahvolni yaxshilash maqsadida muhim qonunlar va davlat dasturlari qabul qilinib amaliyotga tatbiq etilmoqda. Davlatimiz rahbari Islom Karimov tashabbusi bilan 2014-yilni mamlakatimizda "Sog'lom bola yili" deb e'lon qilinishi xalqimiz tomonidan keng qo'llab-quvvatlandi. Joriy yilning 19-fevral kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sog'lom bola yili" Davlat dasturi to'g'risidagi qarori qabul qilindi. Mazkur dastur yetti bo'lim va 25 baddan iborat bo'lib, unda birinchi navbatda sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash uchun qulay tashkiliy huquqiy bazani yanada takomillashtirish, yangi qoida va me'yorlarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish bo'yicha keng qamrovli chora-tadbirlar belgilandi.

Shuni ishonch bilan aytish mumkinki, bu mustaqilligimizning ilk kunlaridan jismonan sog'lom va ma'nan yetuk barkamol avlodni tarbiyalash ustuvor vazifa etib belgilangan ijtimoiy yo'naltirilgan davlat siyosatining mantiqiy davomi bo'ldi. Shu o'rinda, ta'lim jarayoni va odamlar tafakkurining yuksalishi ushbu barcha o'zgarishlarni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etayotganini alohida takidlash lozim. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi hamda qonunlarida yoshlarning ijtimoiy shakillanishi va kamol topishi, huquqiy manfaatlarini amalgam oshirish uchun shart sharoitlarni yaratish davlat faoliyatining ustuvor yo'nalishi ekanligi belgilangan.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida"gi, "Ta'lim to'g'risida"gi, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi, "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Qonunlar, Fuqarolik va Oila kodekslari qabul qilinib, voyaga yetmaganlar va yoshlarni tarbiyalash, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilishning zamon talalariga mos demokratik huquqiy asoslari yaratildi. Xususan, ta'lim sohasi O'zbekiston Respublikasining 2 ta qonuni, 50 ga yaqin boshqa qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 10 ta Farmoni va Vazirlar Mahkamasining 70 dan ortiq qarorlari bilan tartibga solinadi².

Hozirgi kunda davlat va jamiyat hayotining turli jabhalarida, ayniqsa ilmfan, ta'lim-tarbiya, ijtimoiy-ma'naviy sohalarda yoshlar uchun yaratilgan keng ko'lamli imkoniyatlarning samarali amalgam oshishini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Respublikamizda izchillik bilan olib borilayotgan sud-huquq islohotlarining bosh maqsadi – umume'tirof etilgan qadriyatlarni hurmat qilish hamda inson huquq va erkinliklarining ishonchli himoyasini taminlashdir. Ayni paytda, MDH hududidagi ayrim davlatlarda bu sohada ko'pgina og'ir muammolar yechilmasdan qolayotgani, hatto bolalarning katta qismi maktab ta'limini olish imkoniga ega emasligi xalqaro jamoatchilikni tashvishga solayotgan bir paytda, bu borada Xalqaro bolalar tashkiloti – YUNISEF va boshqa nufuzli tuzilmalarning kuzatuvchilari tomonidan O'zbekistonning ta'lim sohasida erishayotgan salmoqli yutuqlari xolisona e'tirof etilayotgani e'tiborga sazovor.

Fikrimizni isboti sifatida shuni aytish lozimki, O'zbekistonda har yili ta'lim uchun sarflanayotgan xarajatlar mamlakat yalpi ichki mahsulotining 10-12% ni tashkil etadi. Holbuki, jahon tajribasida bu ko'rsatkich 3-5% dan oshmaydi³. Mamlakatimizda noyob Kadrlar tayyorlash milliy dasturi amalga oshirildi, 2009-yilda boshlab 12 yillik majburiy bepul ta'lim joriy etildi.

O'zbekiston hozirgacha BMT kotibiyati tomonidan alohida ajratib ko'rsatiladigan 22 ta asosiy xalqaro konvensiyalaridan 19 tasini ratifikatsiya³ qilgan. Respublikamiz inson huquqlari sohasida qo'shilgan xalqaro hujjatlar soni esa, bugungi kunda 70 dan oshgan⁴. O'zbekiston dunyoning rivojlangan davlatlariga qo'shilish, siyosiy va iqtisodiy islohotlarni, mamlakatni

modernizatsiya qilishni davom ettirish hamda chuqurlashtirish, fuqarolik jamiyatini shakllantirish va shu asosda o'z fuqarolari uchun munosib turmush sharoitlarini yaratishni o'zining istiqboldagi muhim vazifalari deb biladi.

Xulosa o'rniida aytadigan bo'lsak, o'zbek xalqida, yig'lab-yig'lab ariq qazigan kulib-kulib suv ichadi, degan dono maqol bor.

Dunyodagi ayrim bayroqlar – faqat shonli o'tmish ramzi, xolos. O'zbekiston bayrog'i – buyuk kelajak ramzi hamdir. U faqat ota-bobolar bayrog'i emas, balki yana ham ko'proq darajada – bolalar bayrog'idir. Bolalar bayrog'i bo'lganda ham hamma bolalarning – kelgusi avlodning ham bayrog'idir. U kelajakdagi yaxshi kunlarning darakchisidir. Yillar o'tadi, shunda o'zbeklarning yangi avlodlari Mustaqillik kunida O'zbekistonning hilpirab turgan bayrog'iga faxrlanib boqar ekan, ba'zan ko'zlariga qalqib chiqqan sevinch yoshlarini yashirmaydi⁵.

Foydalanilgan manbalar:

- 1 “Xalq so'zi” gazetasi, 2014-yil, 19-fevral.
- 2 WWW.lex.uz ning 2013-yil 1-fevralgacha bo'lgan ma'lumoti.
- 3 Prezident I.A.Karimovning BMT sammiti mingyillik rivojlanish maqsadlariga bag'ishlangan yalpi majlisdagi nutqi. 2010-yil 20-sentyabr.
- 4 Inson huquqlari: darslik/A.R.Mo'minov, M.A.Tillaboyev, mas'ul muharir A.X.Saidov. – 2-nashr. – T.: Adolat, 2013-yil, 456-bet.
- 5 Levitin L. “O'zbekiston tarixiy burilish pallasida”, 2001-yil, 366-bet.

ELEKTRON TIJORAT, RIELTOR, MAKLER, SAVDOGAR

LEKSEMALARI XUSUSIDA

Bobojonova Zilola,

NamDU 2-kurs magistranti.

O'zbek tili lug'at tarkibida kasb-hunar atamalari salmoqli o'rin tutadi. Bugun nutqimizda faol qo'llanilayotgan elektron tijorat, rieltor, makler, savdogar leksemalari shular jumlasidandir.

Elektron tijorat leksemasi orqali internetda savdo-sotiqni amalga oshirish tushuniladi. Elektron tijoratning imkoniyati turli-tuman. Internet orqali texnika, dori-darmon, kiyim-kechak va oziq-ovqat mahsulotlari, deyarli barcha turdagi xizmatni taklif etish, sotish yoki xarid qilish mumkin. Ushbu xizmat yordamida sifatli mahsulot sotish bilan birga, vaqt va pul tejaladi. Hozirda elektron tijoratdan korxonalar hamda mijoz ko'p foydalanmoqda. Ushbu texnologiya tez rivojlanayotgani bois, ba'zi korxonalar savdo-sotiqni faqat internet orqali amalga oshirmoqda.

Rieltor - uy-joy oldi-sotdisi bilan qonunan ish yuritadigan xodimlar. Bugun ko'chmas mulk savdosi bilan shug'ullanadigan yangi kasb paydo bo'ldi. Bu uy-joy oldi-sotdisi bilan qonunan ish yuritadigan rieltorlardir. Umuman, ko'chmas mulk savdosida ana shunday "yordamchi"larning xizmatidan foydalanish shartmi?! Ularning xizmati qanchalik kafolatlangan?

- Bugun har bir kishi rieltor bilan ko'chadagi "makler"ning farqiga borishi kerak, - deydi Xususiylashtirish, monoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasining baholash, birja va rieltorlik faoliyatini litsenziyalash boshqarmasi mutaxassisi Mirjalol Mirkamolov. "Makler" qo'lida hech qanday hujjati yo'q, turli gaplar bilan sizni ishontirib, yuridik kuchga ega bo'lmagan og'zaki "sulh" tuzadi. Ularga aldanish hech gap emas. Rieltor esa qonunga muvofiq ish ko'radi. Bugungi kunda qo'mita tomonidan mazkur soha tartibga solinib, nazorat qilinadi. Shu bilan birga, belgilangan tartibda rieltorlik faoliyati xizmatlarini ko'rsatish uchun yuridik va jismoniy shaxslarga litsenziyalar, rieltorlik malaka sertifikatleri beriladi. Rieltorlik malaka sertifikati va maxsus litsenziyasiga ega bo'lgan rieltorlar o'z xizmatlarini, avvalo, shartnoma asosida amalga oshiradi. Shartnomadan tashqari rieltorlik tashkiloti o'z fuqarolik javobgarligini sug'urtalaydi. Shartnomaga kiritilgan bandlar asosida xizmat ko'rsatuvchi va buyurtmachi o'rtasidagi majburiyatlarni to'liq kafolatlaydi.

Maklerlar esa rieltorlik faoliyati bo'yicha malakaga ega bo'lmagan, malaka sertifikati va litsenziya asosida faoliyat yuritmaydigan jismoniy shaxslar, dallollardir. Ular buyurtmachi bilan yuridik kuchga ega shartnoma tuzmay, ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni kafolatsiz amalga oshiradi. Bu holat esa ko'chmas mulk egasiga moddiy-ma'naviy zarar keltirishi mumkin.

Rieltorlik faoliyatini amalga oshirish uchun har bir jismoniy shaxs avval o'quv kurslarida talim olishi kerak. Hozirda respublikamizda rieltorlarga ta'lim berish bo'yicha Respublika biznes maktabi, Yangi bozorlar bo'yicha mutaxassislar tayyorlovchi milliy markaz hamda "Intellekt invest" o'quv markazlari tomonidan o'quv kurslari tashkil qilingan.

Savdogar- savdogarlik, oldi-sotdi bilan shug'ullanuvchi shaxs. Bu leksema tarixiy taraqqiyoti davomida ma'no torayishi, ma'no kengayishi, ma'no o'zgarishi kabi semantik o'zgarishlarga uchragan. Buni birgina savdogar tushunchasini ifodalovchi lug'aviy birliklar misolida ham ko'rishimiz mumkin. O'tmishda allof, bozurgon//bozorchi, savdopesha, sotg'uchi//sotquchi//sotuvchi kabi leksemalar ayrim mano xususiyatlari bilan farqlansa-da, savdogar, ya'ni savdo-sotiq ishlari bilan shug'ullanuvchi shaxs manosini ifodalagan. Hozirda bulardan savdogar, bozorchi, sotuvchi lug'aviy birliklarigina iste'molda qo'llanadi, qolganlari eskirgan qatlamga mansub. Allof so'zi eski o'zbek adabiy tilida g'alla sotuvchi, savdogar; tegirmonchi; un bozori tushunchalarini ifodalagan. Allof asli arabcha so'z bo'lib, "xashak, pichan sotuvchi" degan manolarni anglatadi. Hozirgi o'zbek tilida un, bug'doy savdosi bilan

shug'ullanuvchi savdogar ma'nosida qo'llanadi: Un yalagan allof, qon yalagan qassob. Ko'rinadiki, eski o'zbek adabiy tilida bu so'zning ma'no doirasi kengaygan bo'lsa, hozirda ancha toraygan. Sotg'uchi//sotquchi hozirgi sotuvchi so'zining tarixiy fonetik variantlari bo'lib, o'zbek tilining tarixiy bosqichlarida keng qo'llangan. Bozurgon//bozirgon//bozorgon so'zlari bozorchi so'zining fonetik variantlari bo'lib, savdogar so'zining sinonimlaridir. Bu birliklar o'rnida hozirda bozorchi va uning bir semasini ifodalovchi **tijoratchi** so'zi faol ishlatiladi. Hozirgi o'zbek adabiy tilida bozorchi so'zi quyidagi ikki manoda qo'llanadi:

- 1) savdo-sotiq ehtiyoji bilan bozorga kelgan kishi, bozorda ko'p yuruvchi;
- 2) bozorda savdo-sotiq bilan shug'ullanuvchi, bozor-o'charni yaxshi biladigan. **Tijoratchi** so'zi arabcha savdogarlik, oldi-sotdi ma'nosini anglatuvchi tijorat asosidan "chi" affiksi vositasida yasalgan bo'lib, hozirda faol qo'llanmoqda. Mazkur so'z ham aynan savdogar so'zining sinonimidir.

Bugungi kunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiy taraqqiyotini yanada yuksak bosqichga ko'tarishga xizmat qilayotgan asosiy kuchga aylandi. Ushbu istiqbolli harakatlar natijasida ham ichki bozor raqobatdosh mahsulotlari bilan to'ldirilmoqda. Ham mahsulot nomi, ham jarayon nomi o'zbek tiliga kirib bormoqda. Bu esa, tabiiyki, o'zbek tilining ham boyib borishiga sabab bo'lmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Alimov B. Teleradiokanallar va internetda o'zbek tili targ'iboti // Til va adabiyot ta'limi. – 2013. – №12. – B. 47–48.
2. Shahobiddinova Sh. Amaliy tilshunoslik istiqbollari "Ma'rifat", 2013-yil. 6- iyul. – № 54.
3. Ne'matov H. Til ilmi va ta'limi istiqboli "Ma'rifat". 2013-yil 14-avgust. – № 65.

ARXIV-HUJJATLAR UCHUN MUSTAHKAM QO'RG'ON!

B. Abbosov,

*Nam DU Arxivshunoslik kafedrası
o'qituvchisi.*

M. Mirzaabdullayeva,

*Nam DU Ijtimoiy-iqtisodiy fakul'teti
arxivshunoslik yo'nalishi 2-bosqich
talabasi.*

Bugungi kunda xalqimiz orasida arxiv nima? Ular qachon paydo bo'lgan va shakllangan? U yerda hujjat saqlanadimi yoki yo'q qilinadimi? Arxivda aholiga qanday xizmat ko'rsatadi? - degan savollar bisyor. Biz ushbu

maqolamiz orqali arxivlar haqida jamiyatimiz a'zolariga oz bo'lsa-da tushuncha bermoqchimiz. Arxiv o'zi nima? Arxiv o'zi nima uchun kerak?

Vatanimiz mustaqillikka erishgach hukumatimiz tomonidan jamiyat hayotining barcha sohaslarida, jumladan, tarix fani sohasida ham juda katta o'zgarishlar sodir bo'ldi. Prezidentimiz tomonidan tarixchilar oldiga juda katta mas'uliyat va vazifalar qo'yildi. Chunki yurtimiz bir necha asrlar davomida ko'plab bosqinchilarga qaram bo'lib, ulardan juda ko'p jabr ko'rgan. Ular yuritgan siyosiy tuzum natijasida urf-odatlarimiz, tilimiz, dinimiz, madaniyatimizga katta zarar yetdi. Shu sababli ham tarixchilar vatanimizni haqkoniy tarixini tiklashi zarur. O'tmish voqealaridan barcha yetarli saboq olishi, Vatandarparvar ajdodlarimiz izidan borishi, kelajakda o'tmishda yo'l ko'yilgan xatolarni takrorlamaslik uchun ham tarixni chuqur o'rganishimiz zarur. Zero, Prezidentimiz I. A. Karimov ta'kidlaganlaridek «O'z tarixini bilmaydigan, kechagi kunini unutgan millatning kelajagi yo'q»⁸⁶.

Ana shu tarixni tiklashda, o'rganishda muhim manbaalardan biri - arxiv hujjatlaridir. Arxiv lotincha «Arxivium» so'zidan olingan bo'lib, «Hukumat binosi» - degan ma'noni anglatadi. Dastlabki arxivlar bundan 3,5-4 ming yillar ilgari yozuv bilan bir paytda paydo bo'lgan. Ilk arxivlar hukmdor saroylarida va ibodatxonalarda bunyod etilgan. Chunki ular yaxshi qo'riqlangan, davlat shu yerdan turib boshqarilganligi uchun barcha hujjatlar shu yerdan chiqqan va ular hukmdorniig farmonlari, xo'jalik hayoti, diplomatik aloqalar, soliq va sud ishlari kabi muhim hujjatlardan iborat bo'lgan.

Markaziy Osiyo hududida ham qadimgi arxivlar yozuv bilan bir paytda paydo bo'lgan. Ularga Tuproqqal'a, Divashtich va Parfiya arxivlarini misol keltirishimiz mumkin. Ularning har biri o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Tuproqqal'a arxivi Xorazm Shohlariga tegishli asrlarga tegishli qadimgi hujjatlardan iborat. Bu arxiv qadimgi Xorazm tilida yozilgan yuzga yaqin hujjatlardan iborat. Ulariig 18 tasi yog'ochga yozilgan. 8 tasi juda yaxshi saqlangan va 26 tasini olimlar o'qishga muvaffaq bo'lgai. Tuproqqal'a hujjatlari ikki qismga bo'linadi. Birinchi soliq haqidagi hujjatlar bo'lib, ular yog'ochga yozilgan. Ikkinchisi xo'jalik harajatlari haqidagi hujjatlar bo'lib, teriga yozilgan.

Divashtich arxivi 1930-yil Yuqori Zarafshonning Qal'ai Mug'idan topilgan. Ularni Freyman, Bo'ronov, Severnev kabi olimlar o'rgangan. Divashtich arxivi 80 ga yaqin sug'd tilidagi hujjatlar bo'lib, ular yog'och, charm va qog'ozga yozilgan. Bu hujjatlar turli mazmundagi yuridik hujjatlar - ahdnomalar, nikoh haqidagi shartnomalar, oldi-sotdi hujjatlari, tilxatlar; hukmdorlar o'rtasidagi yozishmalar, xo'jalikning kundalik turmushiga oid hujjatlar va farmonlardan iborat².

⁸⁶ Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. - Toshkent: Ma'naviyat, 2008. - B. 4.

² Arxivshunoslik // Ma'ruzalar matni. - Hamangan 2008. - 41-56.

IX–X asrlarda Buxoroda, XI–XII asrlarda Xorazmda, keyinchalik Oltin O'rda, Temuriylar va Ashtarxoniylar davrida arxivlar mavjud bo'lgan.

Qadimgi davlatlarning, xususan, o'zbek xonliklarining XIX asrgacha bo'lgan hujjatlari bizgacha yetib kelmagan. Bunga o'zaro urushlar, vayronagar-chiliklar sabab bo'lgan. Markaziy Osiyoni Rossiya bosib olgandan keyingi hujjatlar to'liq saqlangan³³.

Hozirgi kunda arxivlar - arxiv hujjatlarini jamlash, hisobga olish, saqlash va foydalanishni amalga oshiruvchi muassasa hisoblanadi.

Bugungi kunda O'zbekistonda mavjud arxivlar faoliyatini Vazirlar Mahkamasiga bo'ysunuvchi «O'zarxiv» agentligi tartibga soladi va nazorat qiladi. Hozirgi kunda «O'z Arxiv» agentligi tizimida 3 ta Markaziy Davlat Arxivi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Markaziy Davlat Arxivi va uning 10 ta filiali, 12 ta viloyat davlat arxivlari va ularning 75 ta filiali va Toshkent shahar davlat arxivi faoliyat yuritadi. Respublikamizda jami 103 ta davlat arxivlarida 8 300 000 dan ortiq saqlov birligidagi hujjatlar saqlanib, ulardan 6 641 618 tasi Boshqaruv hujjatlari, 40 894 tasi ilmiy-texnikaviy, 19 019 tasi Kino, 232 384 tasi Foto, 15 083 tasi ovozli, 60 391 tasi shaxsiy tarkibdagi hujjatlardir. Ushbu qayd etilgan Arxiv tashkilotlariga arxivlarni butlash, O'zbekiston Respublikasi Milliy Arxiv Fondi hisoblangan respublika halqlarining o'tmish tarixi to'g'risidagi xujjatli yodgorliklarni jamiyat va fuqarolarni manfaati uchuy saqlash va foydalanish kabi davlat majburiyatlari yuklangan.⁴

Bozor munosabatiga o'tish, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiyashtirish tufayli qator sanoat korxonalari, transport, kurilish, maishiy xizmat kabi korxonalar xususiyashtirilganligi sababli nodavlat arxiv fondlari tashkil topdi va arxivlarda pullik xizmat tizimi joriy etildi. Hozirgi kunda davlat Arxivlari shartnoma asosida bajaradigan pullik xizmat ishlarining turlari qo'yidagicha:

1. Vazirliklar, idora va boshqalarga yig'ma jildlar nomenklaturasini ishlab chiqishda, ish yuritishni tashkil qilishda metodik va amaliy yordam ko'rsatish.
2. Hujjatlarni tanlab olish va tartibga solish.
3. Mavzuli so'rovlarni, shuningdek, mulkdorlik huquqi tug'risida sulolaviy hususidagi so'rovdarni bajarish
4. Tashkilotlarni axborot bilan ta'minlash.
5. O'quv yurtlarni ijodiy muassasalar va boshqa tashkilotlar buyurtmasi bilan hujjatlar to'plamlari, hujjatlar ko'rgazmasi, ekskursiyalar tayyorlash hisoblanadi. Bundan tashqari, arxivlar aholiga pullik xizmat bilan birga bepul xizmatni ham amalga oshiradi. Jumladan, davlat arxivlarida ijodiy, ilmiy xodimlarni arxiv hujjatlaridan foydalanish, fuqarolar nafaqalarini

³³ Alimov I. Arxivshunoslik. – Andijon, 2005. – B. 3.

⁴ www.arshive.uz

rasmiylashtirishga, mehnat staji, ish haqi to'g'risidagi ma'lumotnomalarni berish bepul amalga oshiriladi.⁵

Arxiv hujjatlarini idoraviy arxivlarda vaqtincha saqlash muddatlarini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yildagi «Arxiv ishi to'g'risida»gi qonunida belgilab qo'yilgan. Unga ko'ra:

- davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, Respublikaga bo'ysunuvchi davlat korxonalar, muassasa va tashkilotlarining arxiv hujjatlari - 15 yil;

- mahalliy davlat hokimiyati organlari va davlat boshqaruv organlarining tegishli hududiy bo'linmalari, viloyat bo'ysunuvidagi davlat korxonalar, muassasa va tashkilotlarning arxiv hujjatlari - 10 yil;

- tuman va shahar bo'ysunuvidagi korxonalar, muassasa tashkilotlarining arxiv hujjatlari - 5 yil;

- ustav fondida davlat ulushi bo'lgan, chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar arxiv hujjatlari -10 yil;

- ilmiy texnologik, Konstruktorlik va patent hujjatlari – 20 yil;

- kapital qurilish bo'yicha loyiha hujjatlari - 25 yil;

- telemetrik hujjatlari - 5 yil;

- mashinada o'qiladigan hujjatlar -5 yil muddatda saqlanadi.

Ovozli yozuvlar, videoyozuvlar, kinolentalar, fotosuratlar, fotografiya plyonkalarini tayyorlangan vaqtidan boshlab, 3 yildan oshmagan muddatda saqlanadi. Bu muddatlar tugagach, arxiv hujjatlari ekspertiza qilinib, qimmatdorligi aniqlangan hujjatlar doimiy saqlash uchun davlat arxivlariga topshiriladi⁶.

Hozirda arxiv sohasiga yanada e'tibor ortmoqda, xorijiy davlatlar bilan diplomatik aloqalar olib borilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi hukumati bilan Koreya Respublikasi hukumati o'rtasida 2009-yil 27-aprelda kuchga kirgan "O'zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivlarini axborotlashtirish to'g'risida"gi kelishuv imzolangan. Unga ko'ra, Koreya hukumati Markaziy davlat arxivlarini axborotlashtirish uchun 3 mln dollar miqdorida mablag' ajratgan. Bu mablag'ni to'g'ri sarflanishini Koreyaning "Koica" firmasi va "O'z Arxiv" agentligi nazorat qilib bormoqda⁷. Shuningdek, arxiv mutaxassislarini malakasini oshirish maqsadida boshqa davlatlarga - Malayziya, Koreya, Rossiya va boshqa davlatlarga seminar mashg'ulotlarga yuborilmoqda. Bundan tashqari, arxivlarda arxiv hujjatlarini saqlash bilan birga ulardan foydalanish uchun barcha qulayliklarga ega bo'lgan o'quv zallari

⁵ Jumayev U O'rta Osiyo va O'zbekistonda arxiv ishi tarixi va O'zbekistonning asosiy arxivlari – Toshkent: 2010. – B. 41.

⁶ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yildagi «Arxiv ishi to'g'risida»gi Qonunining 24-moddasi.

⁷ O'zbekiston Respublikasi hukumati bilan Koreya Respublikasi hukumati o'rtasida 2009-yil 27-aprelda kuchga kirgan "O'z. Res. Markaziy davlat arxivlarini axborotlashtirish to'g'risida" gi Kelishuvning 3-moddasi.

tashkil etilgan. Arxivlarda kserokopiya, skaner xizmatlari tashkil qilingan. Mustaqillik sharofati bilan arxiv sohasidagi kamchiliklar asta sekin bartaraf etilmoqda. Asta sekinlik bilan bo'lsa-da arxivlar uchun maxsus binolar barpo etilmoqda. Ular zamonaviy jihozlar bilan to'ldirilmoqda. Kelajakda arxivlar bundan-da rivojlanadi va jamiyat uchun kerakli sohalardan biriga aylanadi. Zero, arxivga e'tibor kelajakka-poydevordir!

OILAVIY TARBIIYADA O'ZBEK XALQI MA'NAVIY

QADRIYATLARI

O. A. Tillayeva,

Chust tuman HTB. 17-maktab o'qituvchisi.

Yurtboshimiz O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin ming yillar davomida yaratilgan, xalqimiz qoni va joniga aylangan ma'naviy durdonalarga yangicha qarash boshlandi.

Bugungi kunda unitib yuborilgan asriy ma'naviy qadriyatlarimiz, an'ana va urf-odatlarimiz tiklanmoqda. Xalq an'analari madaniyatimizning bir qismi sifatida jamiyat ravnaqi uchun xizmati ulkandir.

"An'ana" asli arabcha so'z bo'lib, uzoq zamonlardan beri ajdodlardan-avlodlarga, ota-onalardan bolalarga o'tib, davom etib kelayotgan urf-odatlar, axloq mezonlari, qarashlar va shu kabilardir. An'ana ijtimoiy va ma'naviy merosdir. Ular iqtisodiy, milliy, kasbiy, jangovar, oilaviy an'analar sifatida jamiyatda ijtimoiy guruhlar orasida keng tarqalgan.

O'zbek xalqining urf-odatlari, turmush tarzi, oilaviy marosimlari, ta'lim-tarbiya, madaniyat an'analari tarixi uzoq asrlarga borib taqaladi. Kaykovusning "Qobusnoma"sidan tortib, al-Xorazmiy, Abu Nasr al-Farobiy, Beruniy, Ibn Sinolarning nazmiy va nasriy asarlarida, Yusuf Xos Xojib, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy asarlarida sharq xalqlari, xususan, o'zbek xalqiga xos bo'lgan ibratli tomonlari ochib berilganki, ular qalami orqali xalqimizga xos bo'lgan ota-onani hurmatlash, insoniylik, oqibat, mehr-shafqat, mehmondo'stlik, ma'rifatga chanqoqlik, ayolni ulug'lash, farzandga mehrlil va fidoiy bo'lishlik kabi fazilatlar ochib berilgan.

Oilaviy an'analarga esa bolalarning tug'ilishlari bilan bog'liq bo'lgan marosimlar, urf-odatlar, bola tarbiyasiga taalluqli bo'lgan va umuminsoniyat tomonidan qabul qilingan maslahatlar, qoidalar va vositalar kiradi. Oilaviy an'analarda shu xalqning tarixi, uning turmush sharoiti va hayot tarzi bilan bog'liq o'tmishi va kelajagi aks etadi.

Xalq tajribasida tarbiya usuli ham o'zbeklarda asosiy o'rinni egallab kelgan. Yoshga munosib o'zbekona ta'sir ko'rsatish yo'l va vositalari yaratil-

gan. Kerak bo'lganda rag'batlantirish turlaridan foydalanilgan, lozim bo'lsa jazolangan.

Xalqimizning tarbiya ustublarida bolalardan kattalarga birinchi bo'lib salom berish, xushmuomalalik kabi xislatlarni taribyalashga asosiy e'tibor berilgan.

Ta'lim-tarbiyaning o'git, nasihat, namuna bo'lish, mehnatda chiniqtirish shakllaridan umumli foydalanilgan.

Yoz kunlaridan birida bog'da ko'maklashayotgan bola otasidan so'rabdi:

- Nima uchun mana bu daraxt qiyshiq, mana bunisi esa to'g'ri?

- O'g'lim, - deb javob beribdi ota, - bu daraxtning qiyshiq o'sgan joylarini qirqib, parvarish qilib turilgan, ikkinchi daraxt esa o'z holicha o'sgan, shuning uchun qiyshiq.

- Unday bo'lsa, daraxtlarni doim parvarish qilish kerak ekan-da, xulosa chiqaribdi o'g'li.

- To'ppa-to'g'ri, - deb javob beribdi ota, - o'g'lim daraxtlarni parvarish qilish ko'p foyda keltiradi. Sen ham xuddi shu nixolga o'xshaysan. Sening ham xatolaringni tuzatib tursam, yaxshi narsalarga o'rgatmas yaxshi odob bo'lib voyaga yetasan, gaplaringa quloq solmasang, ikkinchi daraxtga o'xshat egri bo'lib voyaga yetasan debdi.

O'zbek xonadonida qadim-qadimdan qizlar tarbiyasiga alohida e'tibor berib kelingan.

Odobli va epli qiz – oila baxti deb bekorga aytilmagan. Qiz bolaning xulqi, odobi, mehnatsevarligi, tarbiyasi xamisha diqqat markazida bo'lgan. Yosh avlodni tarbiyalashda keksa avlodning xizmati, ayniqsa benihoyadir. Bobo va buvilar oilada tarbiyani mukammal yo'lga qo'yishda, chinakam izchil tarbiyani, oilaviy tarbiyani yaratishda jonkuyarlik qiladilar. Hayotning achchiq-chuchugini ko'rgan, og'ir sinovlarga bardosh bergan keksa avlodchalik bolalar tarbiyasiga katta mas'uliyat bilan qaraydigan kishi bo'lmasa kerak. Ular insoniyat abadiy zanjirida o'tmishda erishilgan boy ma'naviy qadriyatlarini kelajak avlodga yetkazuvchi bebaho xalqdir.

Xalqimiz mehnatni bosh tarbiyachi deb hisoblaydi. Bolalarni mehnatga muhabbat qo'yib o'sishida oiladagi ijtimoiy muhit katta rol o'ynaydi. Bunda ota-onalar, barcha oila a'zolarining xizmati beqiyosdir. Shaxsning ahloqiy shakllanishi, mehnatsevarlik, ilmga intilish, o'z xalqining an'analarini hurmat qilish, o'z Vataniga sodiqlik, jasurlik, tarbiya ko'rinishlari kamol topadi.

O'zbek xalqining "Hunarli zar, hunarsiz xor", "Mehmon otangdek ulug'", "Do'st bilan obod uying" kabi xalq maqollari yosh avlodni do'stlik, ahillik, birlik rubida tarbiyalashda asosiy rol o'ynab kelgan.

NIKOH YOSHI XUSUSIDA

O. Chuboyeva, huquqshunos.

J. To'xtaboyev, NamDU talabasi.

Mustaqillik yillarida respublikamizda oilaga alohida e'tibor qaratila boshlandi. Shu munosabat bilan oila munosabatlarini tartibga soluvchi qonun hujjatlari qayta ko'rib chiqildi.

Jumladan, oila qonunchiligi borasida ham qonun hujjatlari yangidan ko'rib chiqildi. 1998-yil 1-sentyabrdan boshlab kuchga kirgan yangi Oila kodeksi qabul qilinishi oilaviy munosabatlarni tartibga solishda asosiy mezon deb belgilandi.

Ushbu qonunga ko'ra, nikoh yoshi erkaklar uchun o'n sakkiz yosh, ayollar uchun o'n yetti yosh etib belgilandi.

Uzrli sabablar bo'lganida, alohida hollarda nikohga kirishni xohlovchilarning iltimosiga ko'ra, nikoh davlat ro'yxatidan o'tkaziladigan joydagi tuman, shahar hokimi nikoh yoshini ko'pi bilan bir yilga kamaytirish mumkinligi belgilangan

Ushbu qoidalarni ko'rib chiqish borasida ayrim xulosalarni o'rinli deb bilamiz.

Tibbiyot mutaxassislari farzandlarimiz 25 yoshgacha to'la to'kis shakllanishini, qiz bolalar esa jismonan hamda ruhan 20 yoshda shakllanishi mumkinligi yuzasidan o'z fikrlarini bermoqdalar.

Jismonan to'liq shakllanmagan qiz bolani homilador bo'lishi bo'lajak farzand uchun xavfli ekanligi, ya'ni to'liq rivojlanmagan bachadonda (embrion) bola sog'lom va to'liq rivojlanishi mumkin emas ekan. Bolani tug'ish jarayonida jismonan zaif bo'lgan onaning psixikasiga (ruhiga) ham salbiy ta'sir qilishi va kelgusida noxush oqibatlariga olib kelishi, ya'ni nafaqat bolani hattoki ona sog'lig'iga ham erta farzand ko'rish salbiy ta'sir qilishi aniqdir. Amaliyotda erta nikoh qurgan qizlar o'z homilalarini juda kam holatlarda 9 oygacha yetkaza olar ekanlar.

Oldimizda katta savol tug'iladi nima sababdan erta nikohlar hali ham mavjud. Nima sababdan ota-onalar o'z farzandlari va bo'lajak nabiralarning kelajagiga e'tiborsiz va befarq bo'lmoqdalar.

FHDYo bo'limi tomonidan nikoh yoshiga yetmagan nikohlanuvchilarni nikohlarini qayd etish haqidagi arizalarini qaytarilishi va ular tomonidan tushuntirishlariga qaramasdan ham ba'zi otag'onalarni voyaga yetmagan farzandlarini erga berishdan to'xtatib bo'lmayapti.

Ayrim "Imom xatiblar" tomonidan balog'at yoshiga yetmagan, FHDYo bo'limida nikohlarini qayd etmagan (avvalgi nikohidan ajrashmagan)

fuqarolarning (shar'iy) nikohlari o'qilmoqda. Natijada yolg'iz onalar tomonidan tug'ilishlar soni yildan-yilga ortib bormoqda.

Mahalla maslahatchilari, qo'ni-qo'shnilar ham ba'zida qizlarni erda nikohga uzatilayotganligini bila turib, beparvo ekanliklari ajablanarli holdir.

Mehribonlik uylaridagi nogiron tug'ilgan bolalarning yildan yilga ko'payganligi ham tashvishlanarlidir.

2011-yil davomida FHDYo organlari tomonidan 15-16 yoshli ayollar tomonidan farzandi uchun tug'ilganlik haqidagi guvohnomalarni olish holatlari tahlil qilinganda, 15 yoshda ona bo'lgan ayollar soni 21 nafarni, 16 yoshda ona bo'lgan ayollar soni 165 nafarni tashkil etgan. Ushbu raqamlar FHDYo bo'limiga murojaat qilganlar bo'yicha, biroq, voyaga yetmay tug'ib, o'z vaqtida hujjat olmaganlar ham yo'q emas. Sababi hali shaxsini tasdiqlovchi hujjat pasport olmaganligi, yoki aniq yoshini yashirib tuqqanligi, bolaning otasining javobgarlikka tortilishi mumkinligini oldini olish holatlari hanuzgacha mavjud. Ona balog'at yoshiga yetganidan so'ng yoki farzandi maktabga chiqish jarayonida tug'ilganlik haqidagi hujjat guvohnoma zarur bo'lib qolganligi sababli FHDYo bo'limlariga muddati o'tib tug'ilganlik holatlarini qayd etish ko'payganligi asosiy dalillardan biridir.

Garchand, qonunda ko'ra nikoh yoshi erkaklar uchun o'n sakkiz yosh, ayollar uchun o'n yetti yosh etib belgilangan bo'lsa-da, biz ayrim xulosalarni o'rinli deb bilamiz.

Avvalo, nikoh yoshini qat'iy 18 yoshdan yuqori deb belgilash maqsadga muvofiq. Jahon hamjamiyati ham bu qoida asosli ekanligini e'tirof etmoqda.

Dunyoning barcha davlatlarida nikoh yoshi turlicha bo'lib, 9 yoshdan 22 yosh oralig'ida belgilanadi. Masalan Nigeriyada ayollar uchun 9, erkaklar uchun esa 16-18 yoshni tashkil qilsa, Yevropa mamlakatlarida bu yosh asosan 14 yoshdan 18 yosh oralig'iga tug'ri keladi. Yevropada istiqomat qiluvchilar o'rtacha 30 yoshda turmush qurishmoqda

Xalqaro hujjatlarga e'tibor qilinganda bola deb 18 yoshga yetgan va aqli raso shaxslar belgilanishi ko'rsatilgan. Jumladan, 1989-yilda BMT tomonidan qabul qilingan "Bola huquqlari Konvensiyasida" konvensiyaning maqsadlari uchun 18 yoshga to'lmagan har bir inson zoti, agar bolaga nisbatan qo'llaniladigan qonun bo'yicha u ertaroq balog'atga yetmagan bo'lsa, bola hisoblanadi", deb ko'rsatilgan. Bu qoida boshqa xalqaro hujjatlarda ham e'tirof etilgan.

Davlatimiz Oliy organi Oliy Majlis qabul qilgan qonunlarni o'rganganimizda ham xalqaro hujjatlarga mos ravishda 18 yoshga yetguncha bo'lgan shaxslar bola deb topilishi belgilanmoqda.

Masalan, "Qonunchilik palatasi tomonidan 2007-yil 23-noyabrda qabul qilingan va Senat tomonidan 2007-yil 1-dekabrda ma'qullangan "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Qonunida ham "Bola

(bolalar)— o'n sakkiz yoshga to'lgunga (voyaga yetgunga) qadar bo'lgan shaxs (shaxslar)", deb ko'rsatilgan.

Hatto, hozir "Yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida"gi (1991- yil 20 -dekabr) Qonun"ning yangi tahriri bo'yicha 18 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan shaxslarni yoshlar, deb belgilash masalasi ko'rib chiqilmoqda. Chunki, xalqaro hujjatlarda 18 yoshni balog'at yoshi, deb belgilanganligi asos qilib olinmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida garchand emansipatsiya qoidalari belgilangan bo'lsa-da, ya'ni shaxslar 18 yoshdan oldin ham fuqarolik munosabatlarida ishtirok etishi belgilangan bo'lsa-da, bu holat turmush qurish masalasida emas, mulkiy munosabatlarda qo'llanishi mumkin.

Ta'lim to'g'risidagi qonunchiliklarimizda 9+3 qoidasiga ko'ra, majburiy ta'lim litsey va kasb-hunar kollejarida tamomlansa, bu davrda shaxslar 19 yoshga to'lgan bo'ladi.

Oila qonunchiligi bilan ta'lim to'g'risidagi qonunchilik bir-biriga to'la zid hisoblanadi. Chunki, oilali shaxslar ta'lim muassasalariga kelib, majburiy ta'lim olishi qiyin kechadi. Chunki, ro'zg'or, oila ishlari bunga sharoit yaratish qiyinchiliklar keltirib chiqaradi. Ayniqsa, o'g'il bolalar oilani boqish degan mas'uliyatni to'la tushunib yetishi shart.

Erta turmush qurish salbiy oqibatlaridan biri oilaviy ajralish sonining ko'payganligidir.

Masalan, Namangan viloyatida 2011-yilda 15605 ta nikoh qayd etilgan bo'lib, shu yilning o'zida 912 ta ajralishlar kuzatilgan. Bu ko'rsatkichlarni ortib borishi esa, albatta, bizni xavotirga soladi. 2012-yilda 16322 ta, 2013-yilda 17185 ta nikoh qayd etilgan bo'lsa, ajralishlar soni 2012-yilda 1102 tani, 2013-yilda 1350 tani tashkil etgan.

O'zbekiston Respublikasi Xotin-qizlar Kengashi raisi, O'zbekiston Respublikasi bosh vaziri o'rinbosari I.Bositxonova hisobotida Namangan viloyatida 15-16 yoshdagi qizlarni tug'ishi bilan bog'liq 2012-yilda 6 ta, 2013-yilda 3 ta holat ko'rsatilgan.

Yuqoridagi ko'rsatkichlardan ko'rinib turibdiki, ajralishlar soni ortib bormoqda. Bu muammoni qanday hal etish kerak, degan savol barchamizni o'ylantiradi.

Yuqoridagi holatlardan kelib chiqib, oila qonunchiligiga tegishli o'zgartirishlar kiritish maqsadga muvofiqdir. Nikoh yoshini qizlarga 18 yosh, yigitlarga 20 yosh qilib belgilash maqsadga muvofiq. Shundagina mamlakatimiz kelajagi to'liq shakllangan, barkamol yoshlar qo'lida bo'ladi.

XOTIN-QIZLAR MASALASIGA DAVRIY YONDASHUV

*Nigora Ismoilova,
NamDU o'qituvchisi.*

Mamlakat mustaqilligining hozirgi sharoitida oldimizda turgan eng buyuk maqsad jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, barcha sohalarda chuqur sifat o'zgarishlarini amalga oshirish, ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy hayotni modernizatsiya hamda isloh etishdan iborat. Mazkur maqsadni ro'yobga chiqarish fuqarolarda tafakkur o'zgarishlarini amalga oshirish, ularning ijtimoiy faolligini oshirish, siyosiy madaniyatni yuksaltirish, pirovard natijada kishilarda jamiyatda sodir bo'layotgan voqea-hodisalarga ma'sullik hissini shakllantirish asosida yuz bermoqda. Bularning bari jamiyat ma'naviy negizlarini mustahkamlashsiz ro'y bermaydi.

O'zbek xalqining haqqoniy tarixini tiklash va xalqni shu tarix haqiqati bilan qurollantirish zaruriyati dolzarb masalaga aylandi. Prezident I.A.Karimov ta'kidlaganidek, "Biz haqqoniy tariximizni tiklashimiz, xalqimizni, millatimizni ana shu tarix bilan qurollantirishimiz zarur"⁸⁷. Chunki, xalqimiz ma'naviyatining yuksalishida o'rganilayotgan kolonial va sovet davri tarixini hozirgi mustaqillik davri bilan qiyoslash istiqbolimizni yanada munosib qadrlash imkonini beradi⁸⁸. Bugun esa, haqqoniy tarixni ilmiy asosda xolis o'rganish lozim.

Xotin-qizlar masalasi har doim millat muammolari, uning tarixi, buguni va kelajagi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov "Biz xalqni nomi bilan emas, balki madaniyati, ma'naviyati orqali bilamiz, tarixning tag-tomirigacha nazar tashlaymiz", deb ta'kidlagan edi. Yana shu narsa muhimki, "tarix va madaniyat muammolari birgalikda, mantiqiy uyg'unlikda o'rganilgandagina tom ma'noda tarixiy haqiqatni anglash mumkin, zero, tarix - xalq ma'naviyatining asosidir"⁸⁹.

Yurtboshimizning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi qoshidagi "O'zbekistonning yangi tarixi markazini tashkil etish to'g'risida"gi farmoyishi (1996-yil 18-sentyabr⁹⁰) va 1998-yil 26-iyuldagi bir guruh tarixchilar bilan uchrashuvi hamda Respublika Fanlar Akademiyasi Tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to'g'risida (1998-yil 27-iyul)gi Qarori ham tarixshunoslik fanining bundan keyingi rivoji, yo'nalishini belgilab berishda muhim ahamiyat kasb etdi⁹¹.

⁸⁷ Karimov I. A. O'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan qurmoqdamiz. 7- jild. - Toshkent: O'zbekiston, 1999. - B. 149.

⁸⁸ Qarang: Shamsutdinov R. O'zbekistonda sovetlarning quloqlashtirish siyosati va uning fojiali oqibatlari. - Toshkent: Sharq, 2001. - B. 4.

⁸⁹ Karimov I. A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. -Toshkent: Sharq, 1998. - B. 21.

⁹⁰ "Xalq so'zi" gazetasi 1996, 18-sentyabr.

⁹¹ "Xalq so'zi" gazetasi 1998, 28-iyul.

Mavzuning dolzarbligi yana shunda ko'rinadiki, ijtimoiy taraqqiyotning hozirgi bosqichida sovet mustabid tuzumi davri O'zbekiston xotin-qizlar masalasi holatini umumiy tarzda tahlil etish, undan xulosalar chiqarish juda muhimdir. O'sha davrda milliy-ma'naviy qadriyatlarining toptalishi, aholi o'rtasida ruxiy tushkunlikning yuzaga kelishi, siyosiy-ijtimoiy, madaniy sohaga rahbarlik qilishdagi ma'muriy usullarning yanada takomillasha borishi mexanizmini ilmiy jihatdan tahlil etish hozirgi kun madaniy-ma'naviy jarayonlari uchun juda zarur deb, hisoblaymiz.

Kolonial va sovet xokimiyatining mahalliy millat xotin-qizlariga bo'lgan munosabati masalasi ham o'zining ilmiy asoslangan talqinini kutayotgan muhim muammolardan biri hisoblanadi. Chunki, biz tadqiqot mavzusi qilib olgan "XX asrning dastlabki o'ttiz yilligida jamiyatning ijtimoiy stratifikatsiyasida ayollar fermenti: an'anaviylik va o'zgarishlar"ga, kolonial va sovet hokimiyatining munosabati o'z mohiyatiga ko'ra juda ziddiyatli bo'lgan. Shuning uchun, bugungi asosiy vazifa o'sha "davr mohiyatini to'g'ri tushunishga harakat qilib"⁹² tarixiy voqelikni arxiv hujjatlari, manbalar yordamida ilmiy asoslash va xolisona yoritishdan iborat. Zero, Rossiya imperiyasini va sovet xukumatining xotin-qizlarga munosabatini va o'sha davrdagi jamiyatning ijtimoiy stratifikatsiyasida ayollar fermenti: an'anaviylik va o'zgarishlarni tadqiq etish ayni paytda, ilmiy nuqtai nazardangina emas, balki, jamiyatda hozirgi kunda paydo bo'lgan va o'tmishni o'rganishga qaratilgan jamiyat ijtimoiy buyurtmasi tufayli ham zarur.

Har doim millat muammolari, uning tarixi, buguni va kelajagi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Yurtimizning uzoq yillik tarixi davomida davlat va jamiyat hayotida ayollarni o'rni sezilarli bo'lib kelgan. Ayollarning siyosat, iqtisod, ma'naviyat va madaniyat sohasida amalga oshirgan ishlarini tarix unutgan emas. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov haqli ravishda ta'kidlaganidek, "Jamiyatning demokratik o'zgarishlar yo'lidan nechog'lik ilgari ketgani, shu jamiyatning ayollarga bo'lgan munosabati"⁹³ga qarab belgilanadi.

Insoniyatni ko'p avlodlari xotin-qizlarni ozod va teng huquqli qilishni o'zining asl maqsadi deb hisoblab keldi. O'tmishning buyuk mutafakkir va taraqqiyparvar kishilari xotin-qizlarni ozodlikka chiqarish masalasini o'rta qo'yib keldilar. Biroq, ekspluatatsiyaga asoslangan jamiyatda xotin-qizlar ozod va teng huquqli bo'lolmas va bo'lishi ham mumkin emas edi⁹⁴. Bu masala, mustaqillik tufayli hal etildi, endigi masala esa tadqiqotchilar oldiga xotin-qizlarimizni o'sha davrdagi faoliyatlarini ilmiy o'rganish zaruriyatidir.

⁹² Karimov I. A. O'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. 7-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 1999 – B. 308.

⁹³ Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – B. 4.

⁹⁴ Sulaymonova X., Melnikova Toshkent, Yershova Ye., Tojjeva J. O'zbekiston xotin-qizlari sotsialistik qurilishda. – Toshkent: O'zbekiston, 1955. – B. 3.

Mavzuning dolzarbligining yana bir jihati, ijtimoiy taraqqiyotning hozirgi bosqichida Rossiya imperiyasi hamda sobiq sovet davri Turkiston ayollarining jamiyatdagi xolatini umumiy tarzda taxlil etish, undan xulosalar chiqarish juda muhimdir. O'sha davrda ayollarning milliy ma'naviy qadriyatlarining toptalishi, ruhiy tushkunlikning yuzaga kelishi, ayollarning jamiyat rivojidadagi o'rni masalalari ilmiy jihatdan tahlil etish hozirgi kun jamiyat taraqqiyoti ilg'or ijtimoiy-madaniy jarayonlar uchun juda zarur, deb hisoblaymiz. Chunki, aholisining 52 foizini, ishchi kuchining 45 foizini ayollar tashkil etgan O'zbekiston Respublikasi uchun ularning ijtimoiy hayotdagi o'rni, mavqei, faollik darajasi, ma'naviy, tarixiy qadriyatlarini o'zlashtirish va yangi qadriyatlarini shakllantirishdagi roli jamiyat taraqqiyotini belgilovchi eng muhim omillardan biridir. O'zbekiston mustaqillik tufayli bozor munosabatlariga asoslangan xuquqiy davlat va demokratik, fuqorolik jamiyatiga o'tish davrini boshidan kechirdi. Bu esa, amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy islohotlarda o'z asosini topmoqda. Islohotlar jamiyat hayotining barcha jabhalarini o'z ichiga olib, hal etilmagan, ammo yechimini kutayotgan dolzarb muammolarini ko'ndalang qilib qo'ymoqda. Ushbu muammolarini hal qilishda ayollarning ham o'z o'rni bor. Amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy islohotlar jarayoni xotin-qizlarning faol ishtirokini talab etayotganligi bois, xotin-qizlarga munosabat masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Shuning uchun "mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik o'zgarishlarga to'liq mos holda xotin-qizlarning ijtimoiy siyosiy faolligini yanada oshirish, ularni oila, jamiyat va davlat qurilishidagi vazifalarini hal etishdagi o'rni va nufuzi"⁹⁵ ga e'tiborni kuchaytirishga hukumatimiz tomonidan alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, Respublikamiz Prezidentining 1995-yil 2-martdagi "O'zbekiston Respublikasi davlat va ijtimoiy qurilishida xotin-qizlarining rolini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi tarixiy Farmoni, 1998-yilni "Oila yili", 1999-yilni "Ayollar yili" deb e'lon qilinishi, 1999-yil 17-martdagi "Xotin-qizlarning ijtimoiy muhofazasini kuchaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi tarixiy farmon, Vazirlar Mahkamasining "O'ta zararli va o'ta og'ir mehnat sharoitlarida ishlayotgan ayollarning daromadiga imtiyozli soliq solish to'g'risida"gi Qarori, Oliy Majlisning "Xotin-qizlarga qo'shimcha imtiyozlar to'g'risida"gi Qonuni, 2000-yilning "Sog'lom avlod yili", 2001-yilning "Onalar va bolalar yili" deb e'lon qilinishi, 2004-yil 25-maydagi "O'zbekiston xotin-qizlar qo'mitasi faoliyatini qo'llab-quvvatlash borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmon, 2004-yil 30-iyundagi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004-yil

⁹⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004-yil 25-maydagi "O'zbekiston xotin-qizlar qo'mitasi uyushmasini qo'llab-quvvatlash borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" Pf-3434-sonli Farmoni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari dasturi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori / Xalq so'zi, 2004-yil 30- iyun.

25-maydagi “O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” Pf-3434-sonli Farmoni ijrosini ta‘minlash chora-tadbirlari dasturi to‘g‘risida”gi qarori fikrimizning dalilidir.

Shuningdek, Islom Karimovning Respublikadagi xotin-qizlar tashkilotlari faoliyatini ayollar manfaatlarining amaldagi haqiqiy ifodachisi va himoyachisiga, biz barpo etayotgan erkin fuqarolik jamiyatining tom ma‘nodagi uzviy bir qismiga aylantirish borasidagi da‘vati yurtimizda xotin-qizlarga bo‘lgan hurmat va katta ishonchning yana bir ifodasidir⁹⁶. Chunki, “Jamiyatning demokratik o‘zgarishlar yo‘lidan nechog‘li ilgari ketgani, shu jamiyatning ayollarga bo‘lgan munosabati uning madaniy-manaviy saviyasini belgilaydi”⁹⁷. Shunday ekan, tadqiq etilayotgan davrning o‘rganilishi ibratli saboqlar olishga, hozirgi davr voqealarini tushunishga ham xizmat qiladi. Xususan, Yurtboshimiz iborasi bilan aytganda, “Vatan, millat taqdiri hal bo‘ladigan qaltis vaziyatlarda to‘g‘ri yo‘lni tanlay olish uchun avvalo tarixni va hayotning achchiq-chuchugini bilish kerak ekan”⁹⁸. Shu nuqtai nazardan, aytish mumkinki, sovet hokimiyatining xotin-qizlarga bo‘lgan munosabati masalasini tarixiy o‘rganish ham ilmiy-nazariy, ham iqtisodiy-amaliy jihatdan ahamiyatga molik bo‘lib, bu hol ham tadqiqot mavzusining dolzarbligini tasdiqlaydi.

Mazkur maqola XX asrning dastlabki o‘ttiz yilligida jamiyatning ijtimoiy stratifikatsiyasida ayollar fermenti: an’anaviylik va o‘zgarishlar masalasini mustaqillik mafkurasi asosida, yangi talablar zahirida tahlil etishga bag‘ishlangan dastlabki ishlardan biridir. Mustabid tuzum davrida ushbu mavzuning ayrim yo‘nalishlari nihoyatda mafkuralashgan tarzda yoritilgan va bir yoqlama yondoshilgan muammodir.

Chorizm davridagi mustamlaka tizimi singari, sovet davridagi yopiq mustamlakachilik ham tub aholi tomonidan ularning an’analari, urf-odatlarini va turmush tarzini oyoqosti qiluvchi og‘ir mustamlakachilik bo‘yinturug‘i sifatida qabul qilindi. Shu sababli XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlaridagi milliy-ozodlik harakati mustamlakachilik bo‘yinturug‘idan xalos bo‘lish, ozodlikka erishish, Sharq sivilizatsiyasining milliy qadriyatlarini tiklash asosida milliy davlatchilikni qaror toptirishga yo‘naltirilgan edi⁹⁹. Qizlarning jamiyatdagi o‘rni va roli sinfiylik nuqtai nazaridan bayon etilgan. Ularga berilgan baho deyarli g‘ayriqonuniy asosda bo‘lganligi bois ham bu davrni chuqur o‘rgatish, unga haqqoniy baho berish taqozo etiladi. Bu esa, tanlangan

⁹⁶ Xotin-qizlar faolligini oshirish – davr talabi. O‘zbekiston ovozi, 2004, 17-avgust

⁹⁷ Karimov I. A. Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz. 7-jild – Toshkent: O‘zbekiston, 1999 – B. 38

⁹⁸ O‘sha yerda. – B. 293.

⁹⁹ Ergashev F. Turkistonda mustamlaka ma‘muriy siyosatining shakllanishi // Jamiyat va Boshqaruv. – 2000. – №2. – B. 36.

mavzuning o'rganilishi va tadqiq etilishi hozirgi kunning dolzarb masalalaridan ekanligini belgilaydi.

KORJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISHNING ASOSIY SHAKLLARI

I. Kenjayev,

Namangan Davlat universiteti

Iqtisodiyot kafedrasi o'qituvchisi.

F. Majidov,

Iqtisodiyot yo'nalishi 3-bosqich talabasi.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning uzoq muddatli strategiyasini ishlab chiqish, milliy va mintaqa iqtisodiyoti tarmoqlarini tarkibiy qayta qurish muhimligi nuqtai nazaridan bir muncha istiqbolli investitsion strategik hamkorlik yo'nalishlarini belgilandi.

Investitsion hamkorlikning asosiy afzalligi shundan iboratki, bunda ilmiy-texnik bilimlarni, nou-xaularni mintaqaga doimiy berilishi va ayniqsa, innovatsiyalarni mintaqaga uzluksiz kirib borishi; mintaqa aholisining bandlik darajasini va unda mehnat unumdorligini o'sishi; mintaqaning tabiiy resurslardan foydalanishni yaxshilanishi; raqobatni faollashtirish va uning natijasida mintaqaning kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlanishi; zamonaviy tashkiliy-boshqaruv tajribalarini mintaqaga taqdim etilishi yuz beradi.

Xorijiy investitsiyalarni jalb etishning barcha keltirib o'tilgan shakllari uzoq muddatli strategik xarakterga ega. Ushbu masalalarni to'g'ri qo'yilishi O'zbekiston iqtisodiyotini tarkibiy, tarmoq va tarmoqlararo tuzilmaviy o'zgarishlaridagi muammolarni faqatgina mamlakat moliyaviy resurslari hisobidan hal etishga nisbatan ham qisqa vaqt ichida va kam investitsion harajat hisobidan yechish imkonlarini beradi. Mamlakatga hamda uning mintaqalariga xorijiy investitsiyalarni samarali jalb etib, unda iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishda kontsessiya, mahsulot taqsimotidagi kelishuv, shuningdek, erkin iqtisodiy hududlar muhim rol o'ynaydi.

Bizning tadqiqotimizning maqsadidan kelib chiqib, ularni qisqacha tadqiq etamiz. Kontsession bitim va mahsulot taqsimotidagi kelishuv mamlakat (yoki uning mintaqasi) bilan investorlar o'rtasidagi munosabatlar bir muncha keng tarqalgan shakli hisoblanadi. Kontsession bitim predmetlari bo'lib, qayta tiklanadigan va tiklanmaydigan tabiiy resurslarni o'zlashtirish va davlat mulki ob'ektidan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan xo'jalik faoliyatini yuritish huquqi, lekin bu yerda tashkilot, muassasa, korxonalarining xo'jalik boshqaruvi va operativ boshqaruvini to'liq yuritish huquqi emas; yoki davlat monopoliyasida bo'lgan korxonalarda alohida faoliyat turlarini amalga oshirish

huquqi hisoblanadi. Shunday qilib, kontsession bitim predmeti bo'lib jamoat mulki ob'ektlarida oborotdagi ulushi chegaralangan yoki hisobidan chiqarilgan huquqi hisoblanadi.

Mineral xom ashyoni sanoat asosida qazib olishni boshlashdan oldin investor konlarni ishga solishda sarflagan harajatlarini kompensatsiya qilish (qoplash) huquqiga ega. Ushbu harajatlar qoplangandan so'ng olingan mahsulotning qolgani mahsulot taqsimotidagi kelishuv (MTK) sharti asosida tomonlar (davlat va investor) o'rtasida foyda sifatida taqsimlanadi. Investor o'zi olgan foydadan soliq to'lashi shart.

Qabul qiluvchi tomonlar uchun MTK quyidagi afzalliklarni belgilaydi:

- davlat tomonidan katta hajmdagi moliyaviy resurslarni kiritishni talab etilmasdan va tabiiy boyliklardan foydalanish nazoratini yo'qotmasdan yangi tabiiy konlarni qazib olishni yo'lga qo'yishning ta'minlanishi;
- respublika va mintaqa byudjetiga soliq va yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun to'lovlar shaklida katta daromadning tushishi;
- MTK amalga oshirayotgan mintaqada mamlakatning qayta ishlash sanoati uchun xom ashyo resurslarini olinishi, qo'shimcha ish joylarini tashkil etilishi va transport infratuzilmasini rivojlanishi;
- MTK amalga oshirish jarayonida mintaqani rivojlanishiga ijobiy ta'sir etishi va boshqa omillar.

Xorijiy investitsiyalarni jalb etishnig o'ziga xos an'anaviy usullaridan biri erkin iqtisodiy hududni tashkil etish hisoblanadi. Erkin iqtisodiy hudud (EIH) – o'ziga xos iqtisodiy va huquqiy maqomga ega bo'lgan hudud bo'lib, xorijiy va milliy investitsiyalarni jalb etish uchun bir qator imtiyozlar berish asosida qulay shart-sharoit yaratilgan hududlardir. EIHning amal qilish tizimidagi tashqi savdo, soliq, moliya va ma'muriy imtiyozlari milliy iqtisodiyotning eksport salohiyatini rivojlanishiga ko'maklashadi va uni jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi darajasini oshiradi. Odatda, EIHni tashkil etish yirik diversifikatsiyalashgan iqtisodiyot uchun, ayniqsa, mintaqaviy rivojlanishda murakkab mutanosibliklarga ega bo'lgan O'zbekiston uchun juda dolzarb hisoblanadi. EIH tushunchasi bir qancha tipdagi hududlarni o'z ichiga oladi.

MIH (mahsus iqtisodiy hududlar) o'z ichiga bir guruh xususiyatlarni, masalan, sanoat–ishlab chiqarish hududlari, ilmiy-ishlab chiqarish hududlari va innovatsion hududlarni qamrab oladi. MIH amal qilishi mamlakat mintaqasi uchun jozibador qilib o'rnatiladi: ular turizm hududi uchun jozibadorlik salohiyatini yaratishda qo'shimcha resurslar olishadi. MIH hududiga xorijiy kapitalarning katta oqimini ta'minlashga mazkur hududning qulay iqtisodiy geografik joylashuvi va mavjud rivojlangan infratuzilmasi turki beradi.

Ushbu maqsadlardan kelib chiqib, xorijiy investitsiyalarni mintaqa iqtisodiyotiga jalb etish shakllarini tanlash mumkin, shu bilan birga barcha shakllardan ham turli darajalarda birday foydalanish mumkin emas. Masalan, alohida korxonada darajasida xorijiy investitsiyalarni jalb etishning konsessiya yoki erkin iqtisodiy hududlarni yaratish shakllaridan foydalanish imkoniyati yo'q. Mamlakatga va uning mintaqalariga xorijiy investitsiyalarni jalb etish shakllarini tanlash bu ularni davlat tomonidan tartibga solishga bog'liq.

FARZAND TARBIYASIDA OILANING O'RNI VA ROLI

Yuldasheva Mastona,

Ingliz tili va adabiyoti kafedrasida o'qituvchisi.

Farzandlarning ota-onaga hurmati Sharqda hamma vaqt juda yuqori bo'lgan. Farzandlar yoshligidanoq otasiga suyanib, onasini allasini tinglab ularning mehriga qonib voyaga yetganlar. Ularning ko'ngliga mehr ona suti bilan kirgan. Hazrat Alisher Navoiy aytganlaridek, onani oy, otani quyosh, deb bilganlar.

Mustaqillik tufayli O'zbekistonda jamiyatning barcha jabhalarida islohotlar amalga oshirilib, xalqimiz hayoti, turmush tarzi tubdan ijobiy tomonga o'zgarib bormoqda. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, barcha sohalarida davlat farmonlari, qaror – qonunlari qabul qilindiki, Oila kodeksi ham shular jumlasidandir. Endilikda mamlakatimiz xalqlari oila qurishda, oilaviy munosabatlarni o'rnatishda o'zlarining konstitutsion huquqlariga asoslanib Oila kodeksi talablariga rioya qilgan holda hayot kechiradilar.

Oila - er-xotinlik ittifoqiga, qarindoshlik aloqalariga, umumiy xo'jalik yuritadigan er va xotin, ota-ona va bolalar, aka-uka va opa-singillar va qarindoshlar o'rtasidagi munosabatlarga asoslanadigan kichik ijtimoiy guruhdir. Jamiyatning asosi, davlat qudratining manbai.

Oila jamiyatning tarkibiy qismidir. Oilaning shakllanishi va rivojlanishi bevosita jamiyat hayotidagi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy munosabatlar bilan bog'liq ravishda amalga oshgan. Jamiyatdagi barcha o'zgarishlar, odamlarning turmush tarzi, yashash va mehnat qilish sharoitlari, milliy ahloq normalari, psixologiyasi, diniy e'tiqodlari oilaviy munosabatlarning shakli va mazmuniga ta'sir qilgan. Shu sababli oilaviy munosabatlarning axloqiy, huquqiy, ijtimoiy mezonlari ham o'zgarib turgan.

Nikoh oila qurayotgan ikki yosh o'rtasidagi munosabatlarni davlat, jamiyat tomonidan muayyan axloqiy, huquqiy mezonlar asosida boshqarilishi zarurati natijasida vujudga kelgan. Nikoh ikki yosh roziligi asosida qayd qilinadi va o'zaro ishonch, hurmat va muhabbatga tayanadi. Nikoh – oilaga, jamiyatga, farzandlarga nisbatan bo'lgan ma'naviy, huquqiy burch va mas'uliyatini

belgilashdir. Nikoh muqaddas hisoblanib, oila barqarorligini asosiy omili bo'lib qolmoqda.

Yangi tug'ilayotgan yangi avlodning ma'naviy shakllanishi nikohning haqqoniyligi va oilaning mustahkamligiga bog'liq. Oila mustahkam bo'lsa, jamiyat ham mustahkam bo'ladi. Jamiyat barqaror bo'ladi.

Islom falsafasi va huquqshunosligining yetuk bilimdonlaridan biri Rizouddin ibn Faxriddin oilaning jamiyat hayoti va taraqqiyotidagi o'rni, ahamiyati haqida quyidagi fikrlarni aytgan edi: "Insonlar dinu dunyolarini tuzatmoqchi bo'lsalar eng avvalo go'zal xulqqa ega bo'lishi bilan oilalarni tuzatsinlar! Oila tuzalgandan so'nggina ham din, ham dunyo tuzaladi!"¹⁰⁰.

Tarixiy madaniyatimiz, an'analarimizning dastlabki ilk ildizlari haqida ma'lumot beruvchi "Avesto"da ham oiladagi muhit, er va xotin o'rtasidagi munosabatlar, ular bir-birini tushunishi, ko'maklashishi, mehr-oqibatligi, farzand tarbiyasi bilan bog'liq mas'uliyatni anglash jamiyat taraqqiyotining asosiy omili deb qaralgan.

Shaxs ma'naviyati, uning dunyoqarashi, insonning tasavvur va e'tiqodiga aloqador ko'nikmalar majmui asosan oilada shakllanadi. Shu ma'noda, oila - haqiqiy ma'naviyat uchog'i, mafkuraviy tarbiya omili va muhitidir. Binobarin, milliy mafkuramizga xos ilk tushunchalar inson qalbi va ongiga avvalo o'sha muhitida singadi. Bu jarayon bobolar o'giti, ota ibrati, ona mehri orqali amalga oshiriladi.

Oila, uning asrlar mobaynida saqlinib kelayotgan muqaddas an'analari orqali yoshlarda Vatanga muhabbat, iymon, e'tiqod, mas'uliyat, vatanparvarlik insonparvarlik ilmga ishtiyoq va madaniyat ko'nikma shakllanadi. Zero, har bir fuqaro oilaning jamiyatdagi o'rni vazifasini, Vatanni ostonadan boshlanishini tushunmasdan turib, o'zini mukammal inson deb his qila olmaydi.

Bolalarda yoshlikdan xalq va yurt taqdiri uchun fidoiylik tuyg'usini shakllantirish mafkuraviy tarbiyada muhim o'rin tutadi. Buning uchun bola hayotining dastlabki yillaridan boshlab, uni narsalar olami bilan tanishtirishning milliy an'analarimizga xos shakllarini qo'llash lozim. Bu jarayonda milliy turmush tarzimizga yot bo'lgan «jangari» o'yinchoqlar, multfilmlar, kinofilmlardan imkon qadar foydalanmaslik Sharqona odob va bashariyatning ezgu intilishlarini aks ettiruvchi o'yinlar, o'yinchoqlar, rasmi kitobchalar, milliy ertaklar asosida yaratilgan multfilmlar bolalardagi ilk yoshlikdan mafkuraviy qarashlarning to'g'ri shakllanishida qo'l keladi.

O'zbekiston Respublikasida oila ma'naviyati, oilaviy muhitni sog'lomlashtirish borasida talaygina ishlar amalga oshirildi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 19-apreldagi 180-son qarori bilan Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari huzuridagi yarashtirish komissiyalari to'g'risidagi nizomning 6-bandida quyidagi fikrlar

¹⁰⁰ Rizouddin ibn Faxriddin. Tarbiyali xotun // Sharq yulduzi - 1992. - №10. - 84-b.

berilgan: “Oila davlatning tayanchi ekanligi, respublikamizning buyuk kelajagini yaratishda har tomonlama sog`lom va barkamol avlodni tarbiyalash, xalqimizning ma`naviyatini yuksaltirish ishi respublikamiz ichki siyosatining ustuvor yo`nalishi ekanligi, xalqimizning an`analariga tayangan holda nikohdan ajralishlar va oilalarning barbod bo`lishiga imkoni boricha yo`l qo`ymaslik bu borada ilg`or tajribalar hamda progressiv ilmiy yondashuvlardan keng foydalanish yarashtirish komissiyalari faoliyatining asosiy tamoyillaridir”¹⁰¹.

O`zbekistonda birinchi bor amaliyotda qo`llanilgan, ya`ni o`tayotgan yillarni maqsadli nomlar bilan atab, shu asosda inson qadr-qimmatini, ma`naviyatini yanada yuksaltirish, mamlakatni ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy taraqqiyotini jadallashtirish, bunda inson faolligini yanada oshirishning yangicha usulini hayotga tatbiq qilindi. Jumladan:

1998-yil - Oila yili, 1999-yili - Ayollar yili, 2000-yil - Sog`lom avlod yili, 2001-yil - Onalar va bolalar yili, 2008-yil - Yoshlar yili, 2010-yil - Barkamol avlod yili, 2012-yil - Mustahkam oila yili, deb nomlandi.

Mazkur zamonaviy qadriyat o`zbek halqi, keng jamoatchilik tomonidan ko`tarinki ruh bilan qarshi olindi. O`tayotgan har bir yilning belgilangan aniq yo`nalishi, maqsad – vazifasidan kelib chiqib amalga oshirilajak ishlarni dasturi tayyorlandi, joylarda ularning bajarilishi ta`minlandi.

GLOBALLASHUV VA OILA

Xurshid Mirzaahmedov,

*Namangan Davlat universiteti Milliy g`oya,
ma`naviyat va huquq asoslari kafedrasini
o`qituvchisi.*

Sherg`oziyev Sirojiddin,

*NamDU Milliy g`oya, ma`naviyat asoslari va
huquq ta`limi yo`nalishi 4 - bosqich talabasi.*

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub islohotlar ta`lim, madaniyat, sport va ijtimoiy sohalarida bo`layotgan o`zgarishlar, yangi tehnologiyalar joriy qilinish orqali yoshlaimizni bilim, ko`nikma va malakalarini yanada oshirishi, yangi iqtidorlarni kashf qilish, qobiliyatlarini namoyon qilish. Bundan tashqari yurimizni globallashuv sharoitida dunyo hamjamiyatida munosib o`rin egallashiga qaratilgan ishlarni amalga oshirilmoqda. Bu boradagi barcha imkoniyatlar amalda safarbar etilmoqda. Ayni dunyoda tez suratlar bilan o`zgarib borayotgan globallashuv sharoitida yoshlarimizni og`ishmay olg`a

¹⁰¹ O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 19-apreldagi 180-son qarori bilan Fuqarolarning o`zini o`zi boshqarish organlari huzuridagi yarashtirish komissiyalari to`g`risidagi nizomning 6-bandi.

borishi, hech kimdan kam bo'lmagan farzandlarni kamolga yetkazish uchun **mamlakatimizning** barcha hududlarida yangi va zamonaviy maktablar, kollejlari, **musiq**a maktablari va sport majmualarini barpo etilishi yoshlarni ta'lim olishda **qulaylik**lardir. Bugungi hayotimiz davomida hammamizga ma'lum bo'lgan **yuqoridagi** globallashuv ham ijobiy, ham salbiy ko'rinishda namoyon bo'lib, **Jamiyatda** qanday muhit hukmron bo'lsa shunday ta'sirida vujudga keladi. **Prezidentimizning** "Biz tinchlik-osoyishtalik hukm surayotgan mamlakatda **yashamoqdamiz** va uning o'tmishi, buguni va kelajagi bilan g'ururlanamiz, **faxrlanamiz**. Biroq ta'kidlash lozimki, bugun tez sur'atlar bilan o'zgarib **borayotgan**, shiddatli va murakkab zamonda umr kechirayotganimizni ham **unutmasligimiz lozim**"¹⁰². Avvalo, globallashuvda g'oyaviy tahdidlar, kelib **chiqish** sabablar va namoyon bo'lish shakllari haqida so'z yuritar ekanmiz **avvalo** ularga darvoza bo'lib xizmat qiluvchi manbalarga alohida e'tabor **qaratishimiz** muhim bo'ladi. Keling bu muammolarni guruhlarga bo'lib o'rganib chiqsak. Bular: 1) Oila guruhi, 2) Jamiyat guruhi.

- Jamiyatni asosiy negizini tashkil etuvchi oilada tarbiya ota-onalarni so'zi bilan emas ularni amallari bilan farzandga singdirib boriladi. Hammamizga ma'lumki, oiladagi tarbiya farzandni jamiyatdagi o'rni, kasb tanlashda, iqtidorlarini namoyon qilishda muhim omil hisoblanadi. Lekin ayrim illatlarning kirib kelishi va ularni oilada namoyon qilishi natijasida ota-onadan farzandga o'tuvchi ma'naviy-madaniy tarbiyani uzilib qolishi va buning natijasida ma'naviy qashshoq, dunyoqarashga ega bo'lmagan farzandlarni voyaga yetkazishga sabab bo'ladi. Bunda mavjud muammolar ya'ni ommaviy axborot vositalari bunda oila davrasida mintalitetga to'g'ri kelmaydigan yoki shavqatsiz kinolarni tomosha qilish, ota-onalar farzand tarbiyasini boshqa sabablarga ko'ra kechiktirilishi va farzandni qilgan xato ishiga tushuntirish emas, aksincha, salbiy holatlarni olib keluvchi harakatlarni amalga oshiradi.

Keyinchalik oilada kechiktirilgan tarbiyaga ega yoshlar tarbiyani jamiyatda qidira boshlaydi chunki yoshlarni ongida axborot qabul qilish juda tez bo'lgani uchun ma'naviy tarbiyaga ega bo'lmagan yoshlar ana shunday axborotlarni qabul qiladi. Lekin uni analiz-sintez qilish bir so'z bilan aytganda ma'naviy immuniteti shakllanmagan bo'lgani uchun hamma ma'lumotlar shu yoshlar ongida saqlab qoladi. Buning natijasida jamiyatda (norasmiy guruhlar, yoshlarni maqsadsiz yurishlari, atrof-muhitga salbiy ta'siri, maishiy shovqinlarni) keltirib chiqaradi. Bunday holatlarga ta'sir etuvchi vositalar avvalo, ommaviy axborot vositalari, internet tarmog'i, uyali aloqa vositalar, natijada shu yoshlar o'zini qilgan ishini to'g'ri deb bilishi va belgilangan me'yorlarda o'tishga sabab bo'ladi.

Barcha muammolarni hal etish uchun bir shaxs emas, aksincha, har bir fuqaro harakat qilishi muhim hisoblanadi. Oiladagi farzandga beriladigan

¹⁰² http://www.fikr.uz/posts/toshkent_islom_universiteti/20946.html (ochilgan vaqti 04.07.2014)

tarbiyada yuqorida keltirilgan muammolarni kamaytirish uchun ota-onalarning farzandlariga bo'ladigan munosabatini o'zgartirish uning qiziqishlari, nimaga intilayotganini bilib borishi va iqtidorini namoyon qilishda barcha vositalardan foydalanishi shart. Chunki muammolarni yuzaga kelishida yoshlarni bo'sh vaqti ko'p bo'lganidandir va bu vaqt bugungi kunda insonlarga qulaylik, ularni izlanishlariga xizmat qiluvchi vositalardan noto'g'ri foydalanadi. Bundan tashqari ota-onaning farzand tarbiyasida ma'lum bir vaqtni ajratishi va suhbat olib borishi zarur. Farzandni ma'naviy tarbiyasi uning psixologik jihatiga ta'sir qiladi, buni yaxshi tomongan yo'naltirishda ota-onaning roli kattadir.

Bu muammolarni oldini olishda ma'naviy qashshoq yoshlarni nazoratga olish ularni to'g'ri yo'lga solish uchun ularni vaqtlarni ko'p o'tkazadigan joylar (kopmyuter xonalar, istirohat bog'lari va boshqa). Bu joylarda yoshlarni to'g'ri yo'lga solish uchun mutasaddi tashkilotlar tomonidan shu joylarda ma'lum bir vaqtda kompyuter savodxonligi va ma'naviy tarbiya ahamiyatiga ega videoroliklarni namoyish etishi zarur. Shuningdek, maqsadsiz yurgan yoshlarni mahalla inspektori va posbonlarni shu yoshlar bilan hamkorligida ish olib borishlari muhim bo'lib, bunda ana shu bekorchi yoshlar bunday yurishlarini oqibalarini amaliy ko'rishlari mumkin. Bundan tashqari mahalla osoyishtaligi yana bir bor ta'minlangan hisoblanadi. Zero, yurtimiz tinchligi va osoyishtaligi bo'lgandagina yuksak bilimli va yetuk farzandlar ulg'ayadi.

Prezidentimiz mustaqilligimizning 23-yilligiga bag'ishlangan marosimda so'zlagan nutqida: "Bugun suyanchimiz va tayanchimiz bo'lmish o'g'il-qizlarimizga, mening farzandlarimga qarata aytmoqchiman: biz o'z oldimizga qo'ygan kelajagi buyuk davlat qurishdek olijanob maqsadga yetish yo'lida men sizlar kabi mard va shijoatli yoshlarimizga, ilmu fan cho'qqilarini egallashga bel bog'lagan, qiyinchilik va sinovlar oldida bosh egmaydigan, bugun hayotimizning hal qiluvchi kuchi bo'lib maydonga chiqayotgan sog'lom va barkamol avlodimizga ishonaman.

Men sizlarning barchangizni haqiqatdan ham yaxshi ko'raman, sizlar uchun, sizlarning baxtu saodatigiz uchun butun borlig'imni bag'ishlashga ham tayyorman. Marrani doimo baland qo'yib yashang, aziz bolalarim, davr bizniki, marra bizniki!"¹⁰³, -deb ta'kidlaganlar. Shunday ekan bizga bildirilgan ishonchni oqlashimiz shart.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Prezidentining mustaqillikning yigirma uch yilligiga bag'ishlangan marosimda so'zlagan nutqi.
2. http://www.Jahonnews.uz/uzb/president/nutqlar_ma'ruzalar_tabriklar/Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining

¹⁰³ http://www.jahonnews.uz/uzb/president/nutqlar_ma'ruzalar_tabriklar/prezident_islom_karimovning_o'zbekiston_respublikasi_mustaqilligining_yigirma_uch_yilligiga_bag'ishlangan_tantanali_marosimdagi_tabrik_so'zi-545656.mgr (ochilgan vaqti 31.08.2014 23:08)

yigirma ikki yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi tabrik so'zi-
945656.mgr.

3. <http://soqolom.uz/nigoh/1399-globallashuv-jaravonining-ma-naviyatga-ta-siri.html>.

4. <http://www.fikr.uz/posts/Toshkent-Islom-universiteti/20946.html>.

“KAMOLOT” - YOSHLARNING CHINAKAM TAYANCHI

Zilola Mamadaliyeva,

Namangan yuridik kolleji o'qituvchisi.

Mustaqil davlatimiz hududida faoliyat ko'rsatib kelayotgan aholining ko'pchilik qismini yoshlar tashkil qiladi. Mustaqillikning ilk kunlaridanoq yoshlar ta'lim-tarbiyasi, ularning ma'naviyatini yuksaltirish sohasidagi islohotlarning tizimli, bosqichma-bosqich amalga oshirishga alohida e'tibor berib kelinmoqda.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlar inson salohiyatini yanada yuksaltirishga, yurtimizda fuqarolik jamiyati barpo etishga qaratilgandir.

Jamiyat hayotida turli jamoalar, tashkilot va uyushmalar ham faoliyat ko'rsatadi. Ularni shartli ravishda davlat tashkilotlari va nodavlat tashkilotlarga ajratish mumkin. Bu tashkilotlarga siyosiy partiyalar, siyosiy harakatlar, kasaba uyushmalari, yoshlar uyushmalari, turli jamg'armalar, xotin-qizlar tashkilotlari, faxriylar uyushmasi, mahalla qo'mitalari va boshqalar kiradi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy islohotlarda yoshlarning ham o'z ulushlari bor. Bu borada “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati yoshlarning chinakam madadkori va tayanchiga aylanmoqda.

Mustaqillik davrida jamoat tashkilotlari jamiyatni demokratlashtirish talablari va qoidalari asosida, shuningdek, ijtimoiy guruhlarning manfaatlarini ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda ifoda etish umuminsoniy qadriyatlarga amal qilishning milliy qadriyatlarni yuksaltirish jarayonlariga uyg'unlashtirish kabi tamoyillar asosida shakllandi.

2001-yil yanvarda Toshkentda yoshlar masalalariga bag'ishlangan yig'ilish bo'lib o'tdi. Unda mamlakatimiz rahbari yoshlarning boshini qovushtiradigan, «ularning chinakam suyanchi va tayanchi bo'la oladigan» yangi tashkilot tuzish g'oyasini ilgari surdi. Prezident I.A.Karimov bu tashkilot «Kamolot» nomini saqlab qolishi, uning ish yuritish uslubi jamg'armanikidan farqli bo'lishini ta'kidlab, yangi tashkilotni yoshlarning ijtimoiy harakati shaklida tuzish maqsadga muvofiq bo'lardi, dedi.

Shuningdek, bu yangi ijtimoiy harakatning joylarda tashabbuskor guruhlari tashkil etildi. «Kamolot» jamg'armasi negizida faoliyat yuritadigan bu guruh viloyatlar, tumanlar, shahar va qishloqlarga chiqib, yoshlarning yangi harakat

borasidagi fikrini o'rganishi, ularning xohish-irodasi asosida Nizom loyihalari ishlab chiqishi belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi yoshlarining «Kamolot» jamg'armasi respublikadagi eng yirik jamoat birlashmalaridan biri sifatida, uning asosiy maqsadi O'zbekistonda kelajagi buyuk davlat barpo etish, demokratiyani rivojlantirish, yoshlar qalbida milliy ma'naviyatimiz, madaniy merosimiz va umuminsoniy qadriyatlar zaminida sog'lom ruh hamda dunyoqarashni shakllantirishdek xayrli ishlarni amalga oshiradi.

O'zbekiston yoshlarining ma'naviy-ruhiy kamolotida "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati sezilarni ishlarni amalga oshirmoqda.

Masalan, 2008-yil mamlakatimizda "Yoshlar yili" deb e'lon qilinishi munosabati bilan "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati Andijon, Farg'ona, Namangan va Toshkent viloyatlari bo'limlarining 100 nafar yetakchilari orasida "Yoshlarning kiyinish madaniyati - 2008" mavzusida 51 ta parametrlarni o'z ichiga olgan sotsiologik so'rov o'tkazildi. Kundalik hayotda yoshlar to'g'risida quyidagi iboralar ko'p ishlatiladi: Yoshlar bizning tayanchimiz, ishonchimiz va kelajagimiz. Darhaqiqat, shunday. Bu so'zlarning zamirida katta ma'no yotadi. Xoh oilada bo'lsin, xoh jamiyatda, xoh davlatda bo'lsin, uning ravnaqini kelajagini, demokratik huquqiy davlat qurish va adolatli fuqarolik jamiyatini barpo etish borasida shaxdam qadamlar qo'yib ilgarilab borayotgan mustaqil respublikamizni kelgusidagi rivojini, taraqqiyotini yoshlarimizsiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Huquqbuzarlikka moyil voyaga yetmaganlar bilan ishlashda ichki ishlar idoralari, kam ta'minlangan oilalar farzandlari va noqobil oilalar bilan ishlashda mahalla faollari, bolalarning o'zini o'zi boshqarish tuzilmalarini rivojlantirishda "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati, bilan hamkorlik ishlari muvofiqlashtirilgan holda olib borilmoqda.

Ma'lumki, hozirgi vaqtda respublikadagi 1500 dan ortiq akademik litsey va kasb-hunar kollejlari faoliyat ko'rsatib, ularda 1 mlndan ortiq o'quvchilar ta'lim-tarbiya olmoqda.

Shuningdek, bugun minglab iqtidorli yoshlar chet ellarning nufuzli ta'lim muassasalarida ta'lim olib qaytib, mamlakatimiz ravnaqiga o'zlarining xissasini qo'shayotgan bo'lsa, yana minglab yoshlarimiz o'qishni davom ettirmoqda.

O'tgan davrga nazar tashlasak, keyingi 23 yil davomida o'rta maxsus kasb-hunar va oliy ta'lim tizimida 120 dan ziyod yo'nalish, 265 ta mutaxassislik va 700 ta kasb bo'yicha professional ta'lim olgan va zamonaviy fikrlash salohiyatiga ega bo'lgan 2 mln. nafardan ortiq yangi avlod mutaxassislari tayyorlandi.

Yoshlarning har tomonlama mukammal bilim olishlarida "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakatining joylardagi bo'limlari tomonidan tashkil etilgan o'quv kurslari muhim rol o'ynamoqda.

Shu bilan birga “Kamolot” tashkiloti tomonidan iqtidorli yoshlarning bilim olishlariga ko‘maklashish borasida ham amaliy tadbirlar yo‘lga qo‘yilgan. Masalan, oliy ta‘lim dargohlarida bilim olayotgan talabalarning shartnoma to‘lovlarini amalga oshirishlarida beg‘araz yordam ko‘rsatilmoqda.

O‘zbekiston Prezidenti I.Karimov o‘zining 2001-yil 24-yanvardagi yoshlar masalalariga bag‘ishlangan yig‘ilishdagi so‘zlangan nutqida “Kamolot” ijtimoiy harakatining jamiyatdagi o‘rniga yuksak baho berib shunday degan edi: “...Eng asosiysi, bu harakat hayotda uchrab turishi tabiiy bo‘lgan turli to‘siqlar, muammo va qiyinchiliklar tufayli yoshlar kayfiyatining, yoshlar dunyoqarashining salbiy tomonga o‘zgarishiga, ularning tushkunlikka berilishiga, noma‘qul yo‘llarga kirib ketishiga yo‘l qo‘ymaydigan, mustaqil hayotga qadam qo‘yayotgan o‘smirlar uchun himoya va madad bo‘ladigan bir tashkilot bo‘lishi lozim”¹⁰⁴.

Darhaqiqat shunday. Bugungi kunda “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati tomonidan yoshlarga berilayotgan e‘tibor, ko‘mak alohida e‘tiborga loyiqdir. Huquqiy savodxonlikka erishish huquqiy-demokratik davlatning eng katta yutug‘i qisoblanadi. Bunda davlatning har bir fuqarosi o‘z huquq va burchlarini yaxshi bilmog‘i va unga amal qilmog‘i, qonun oldida o‘z mas‘uliyatini his qilish majburiyati yotadi. O‘zbekistonda huquqiy savodxonlikni oshirish uchun turli chora-tadbirlar yo‘lga qo‘yilgan.

“Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati tomonidan tashkillashtirilgan “Siz qonunni bilasizmi?” deb nomlangan ko‘rik-tanlov yoshlar o‘rtasida huquqiy savodxonlikni oshirishga qaratilgan tadbirlardan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida hozirgi paytda yoshlar maktabda va oliy o‘quv yurtlarida rus, ingliz, nemis, frantsuz, ispan tillari bilan bir qatorda bizga qadimdan madaniyati, dini, tarixi va urf-odatlarini yaqin bo‘lgan Sharq xalqlari tillarini ham kata qiziqish bilan o‘rganmoqdalar.

Muhimi “Kamolot” yoshlarni vatanga muhabbat, buyuk kelajakka ishonch ruhida tarbiyalashda ularga tayanch va madadkor bo‘lmoqda.

¹⁰⁴ Karimov I. A Asarlar. Vatan ravnaqi uchun hammamiz mas‘ulmiz. T.9.-Toshkent: O‘zbekiston, 2001

KOMIL INSONNI TARBİYALASHDA OILANING TUTGAN O'RNİ

Haydarov Zahriddinbobir,

Namangan Davlat universiteti Ijtimoiy madaniy faoliyat kafedrasi katta o'qituvchisi, tarix fanlari nomzodi.

Sobirov Abror Robitjon o'g'li,

Namangan Davlat universiteti Ijtimoiy madaniy faoliyat ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi.

Insoniyat taraqqiyoti tarixiga nazar tashlansa, uning har bir bosqichida bir muammo doimiy ravishda yangilanib, takomillashib kelganligini ko'ramiz. Har qanday yangi davrning vujudga kelgan yangi talablarini ro'yobga chiqarish uchun ta'lim-tarbiyaning maqsadi, vazifalari, usullari, shakllari doimo yangilanib, rivojlantirib borilgan. O'zbekiston Respublikasida ham bu qonuniyat istiqlolning ilk kunlaridayoq o'zini namoyon qildi. Kadrlar tayyorlashning milliy modeli, dasturi ishlab chiqildi va izchillik bilan hayotga amaliyotga tadbiiq etilmoqda. Har qanday jamiyatning negizi oiladir. Jamiyatdagi o'zgarishlar oilaga ta'sir ko'rsatganidek, oiladagi o'zgarishlar jamiyatga o'z ta'sirini o'tkazadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov ta'kidlaganlaridek, "Har qaysi millatning o'ziga xos ma'naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda, hech shubhasiz, oilaning o'ri va ta'siri beqiyosdir. Chunki, insonning eng sof va pokiza tuyg'ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda oila bag'rida shakllanadi. Bolaning xarakterini, tabiati va dunyoqarashini belgilaydigan ma'naviy mezon va qarashlar, yaxshilik va ezgulik, oliyanoblik va mehr-oqibat, or-nomus va andisha kabi muqaddas tushunchalarning poydevori oila sharoitida qaror topishi tabiiydir"¹⁰⁵.

Bugungi kunda O'zbekiston kuchli fuqorolik jamiyati qurish yo'lidan borar ekan, bu sharoitda oila jamiyatning asosi, muhim hujayrasi va ayni paytda u ma'naviy ijtimoiy muhit hisoblanadi. Shunga ko'ra u jamiyatning boshlang'ich axloqiy asosi vazifasini o'taydi. Avvalambor oila kichik ma'naviy maskan bo'lib, u qanday tashkil topsa, shakllansa, jamiyat ham shunday taraqqiy etadi. Bu kichik maskanda axloqiy fazilatlar egasi kamol topadi.

Yosh avlodni har tomonlama mukammal shaxs qilib tarbiyalash oilaning muhim sub'ekti xisoblangan ota-ona zimmasidagi eng katta vazifadir. Darhaqiqat, inson shaxsini shakllantirish oiladan boshlanadi, hususan bolada iroda, odatlar, fe'l-atvor, hulq, atrofga munosabat, e'tiqod va qarashlar vujudga keladi. Ana shulardan kelib chiqqan holda turmushda insonni kamol toptirish sharoitlari, ta'sir ko'rsatish imkoniyatlarini izchil o'rganmay turib, shaxsning hususiyatlari va ularni keltirib chiqaruvchi omillar to'g'risida fikr yuritish

¹⁰⁵ Karimov, I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. - Toshkent: Manaviyat, 2008. - B. 52.

mumkin emas. Ma'lumki, oila-ijtimoiy-tarixiy belgiga ega bo'lgan muayyan tuzilishli ijtimoiy guruhning ko'rinishi. Chunonchi, uning a'zolarini qarindosh-urug'chilik, nikoh, turmush sharoiti birligi, odob-ahloq umumiyliigi. ma'naviy e'tiqod mosligi kabi aloqalar o'zaro bog'lab turadi. Oila murakkab ijtimoiy guruh bo'lib, biologik, ijtimoiy, axloqiy, mafkuraviy va ruhiy munosabatlarning birlashuvi natijasida vujudga keladi. Shu sababdan turmushdagi va oila a'zolari munosabatlaridagi o'zgarishlar uning moddiy-maishiy, iqtisodiy negizi o'zgarishiga bevosita bog'liqdir.

Oila a'zolarining o'zaro muomalalarini tadqiq qilgan venger sotsiologi M. Komloshi 10-14 yoshdagi maktab o'quvchilarining o'qishga va mehnatga bo'lgan munosabatiga bevosita ta'sir qiluvchi oila muhiti (vaziyat, sharoit, holat) omillarini to'rt guruhga ajratadi:

1) ota-onalarning jamoatchilik faoliyati (ularning mafkuraviy qarashlari va ishga nisbatan munosabatlari);

2) oila ichidagi munosabatlari (ota va ona munosabati, ota-onalarning buva va buvigiga munosabatlari, aka-ukalar va opa-singillarning o'zaro munosabatlari);

3) ota-onalarning tarbiyaviy-pedagogik faoliyati (ularning tarbiyaviy muammolari, qiziqishlari, maktab bilan hamkorliklari, o'quvchilarga dars tayyorlash kezida ota-onalarning yordami, ularning tarbiyaviy ahamiyati);

4) oilada o'quvchining faoliyati (o'quvchining kundalik tartibi, xo'jalik ishlaridagi muayyan majburiyati) va boshqalar.¹⁰⁶

M. Komloshi materiallarni tahlil qilib, oila muhiti (vaziyati, sharoiti, holati)ni uch toifaga: ijobiy, o'zgaruvchan va salbiy toifalarga ajratadi.

Ruhshunos olim V. I. Selivanov oilada shaxsni shakllantirish jarayonini o'rganib, baxtli bolalik bu oiladagi quvonchli hamjihatlikning hamda ota-onalarning bolalariga g'amxo'rligining samarasidir, degan xulosaga keladi. Muallif oilalarni yo'nalishiga qarab, uch toifaga mansub ekanligini ko'rsatib beradi: ijtimoiy ilg'or yo'nalishdagi oila, ziddiyatli yo'nalishga ega bo'lgan oila, past darajadagi ijtimoiy yo'nalishga mansub oila.

Birinchi toifaga xos bo'lgan oilalar O'zbekiston Respublikasidagi oilalarning ko'pchilik qismini tashkil qiladi. Bunday oilalarda shaxslararo munosabatlar axloq prinsiplari va qoidalaridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi, shuningdek, har tomonlama kamol topgan shaxsning ijtimoiy ideali (yuksak orzu timsoli) nazarda tutiladi. Ijtimoiy-ilg'or yo'nalishdagi oilalarning voyaga yetgan a'zolari ishlab chiqarishda, korxonada, jamoat ishlarida faol qatnashadilar, ilg'or madaniyatga nisbatan qiziqishlarini namoyish qiladilar, shuning bilan birga bu narsaga o'z farzandlarida ham havas uyg'otadilar.

Oilada goho namoyon bo'ladigan ziddiyatlarni juda qisqa muddatda hamjihatlik bilan bartaraf qiladilar. Ushbu toifaga mansub oilalarda xo'jalik ashyolari, asboblari, qimmatbaho materiallar har xil ehtiyojlarni qondirish

¹⁰⁶ Uzoqov H., G'oziyev E. Oila etikasi va psixologiyasi -Toshkent: O'qituvchi. 1992 -B. 34.

vositasi sifatida qaraladi, bu narsalar shaxsning kelajak istiqboli bilan mutlaqo bog'lanmaydi. Ikkinchi toifadagi oilada barqaror yo'nalish bo'lmaydi. Oilaviy turmush munosabatlari o'zluksiz ravishda biron-bir g'oyaning boshqa g'oya bilan o'zaro niqoblangan kurashi bosqichida bo'ladi; u yoki bu qarashlarning ustunligi, istiqboli hech qanday ahamiyat kasb etmaydi. Bunday holatning ko'zga tashlanishi eskilik bilan yangilik o'rtasidagi kurashni anglatmaydi. Er-hotinning yoki boshqa voyaga yetgan oila a'zolarining murosasiz pozitsiyalari (nuqtai nazarlari) ko'pincha ularning fe'l-atvor hususiyatlaridagi tafovut negizi bilan bog'liq bo'lib, mutlaqo eskilik sarqiti mohiyatidan kelib chiqmaydi. Oilada so'z bilan ish birligi masalasi bir-biriga qarama-qarshi yo'nalishda bo'ladi. Faqat burch hissigin, muayyan majburiyatni bajarishgina oila a'zolarini o'zaro birlashtirib turadi. Mana bunday oilalarda er-hotinning bolalarga ta'sir o'tkazish uchun kurashi, raqobati yaqqol namoyon bo'ladi.

Uchinchi toifaga mansub oilalarda ko'pincha meshchanlik udumi va ideallari hokimlik qiladi. Mazkur oilalarda barcha narsa yagona narsaga buysundirilgan, ya'ni mol-dunyo to'plashga, moddiy-maishiy jihatdan ustunlikka erishishga qaratilgan. Voyaga yetgan oila a'zolarining, ota-onalarning korxonada, muassasada, tashkilotda mehnat qilishi ana shu ko'zlagan maqsadga yetish vositasi sifatida, har qanday mehnat esa, ish haqqi miqdori bilan o'lchanadi. Oila boshlig'ining zo'ravonligi, zolimligi, unga ko'r-ko'rona va so'zsiz bo'ysunishlik, sajda qilishlik, zaif va nimjon oila a'zolari faolligini poymol qilishga intilish va hakovolar ustun bo'ladi. Meshchanlik ideali va diniy e'tiqod doirasidan tashqari chiqish hollari (kitob o'qish, ijtimoiy turmush faoliyatida ishtirok etish) kamsitilib, bekorga vaqt sarflash, deb baholanadi. Shu boisdan past darajadagi ijtimoiy yo'nalishga mansub oilalardan hudbin, qo'rqoq, jamiyat uchun kam nafi tegadigan o'g'il-qizlar yetishib chiqishi mumkin.¹⁰⁷

Oiladagi munosabatlar ta'sirida ilk bolalikdan umumiy ishga sodiqlik, vatanparvarlik, insonparvarlik, qat'iylik, qadr-qimmat hissi kabi yuksak insoniy hislar shakllana boshlaydi. Asta-sekin tug'ishganlarga g'amxo'rlik, aka-ukalik va opa-singillik mehri, ota-onalarga muhabbat va shafqat kabi tuyg'ular namoyon bo'la boradi.

Turmushdagi samimiy va oqilona munosabatlar, iliq ruhiy iqlim ta'siri natijasida oila a'zolarida kamtarlik, ko'ngilchanlik, iltifot, sabr, uyatchanlik, to'g'rilik, yaxshilik, yumshoqlik, dilkashlik, mehribonlik, talabchanlik, mehnatsevarlik, vijdonlilik, mehnatga mas'uliyat, ozodalik, izzat-nafs, tejab-tergashlik kabi shaxs hislatlari tarkib topadi. Agarda oilalardagi turmush munosabatlari qo'pollik, andishasizlik negiziga qurilgan bo'lsa, u holda oila a'zolari ruhiy dunyosida kekkayish, ko'pchilik tomonidan qabul qilingan xatti-harakatlar qoidalarini sezmaslik, ularni mensimaslik, yalqovlik,

¹⁰⁷ Ismoilov L., Mahmudov R. Barkamol inson barkamol jamiyat garovi // Tafakkur. 1997. № 1. - B. 76

mas'uliyatsizlik, ifloslik, bag'ritoshlik, shuhratparastlik, dimog'dorlik, hudbinlik illatlari unib chiqadi.

Xulosa qilib aytganda, oila jamiyat taraqqiyotini belgilovchi, yuksak ma'rifatli, intellektual salohiyatga ega yoshlarni tarbiyalash maskani sifatida katta ahamiyatga ega bo'lib, uning xalq va jamiyat manfaatlariga uyg'un holda rivojlanishi oila sub'ektlarining ma'naviyati, aql- zakovatiga bog'liq bo'ladi.

IJTIMOY ISHNING KASBIY TALQINI

*Tolibov Bekzod Hakimjonovich,
Farg'ona Davlat universiteti Ijtimoiy faoliyat nazariyasi
va uslubiyoti kafedrasi o'qituvchisi.*

Jamiyatning rivojlanish jarayoni, jamiyatda yashayotgan insonlarga nisbatan ijtimoiy munosabat orqali belgilanadi. Ayniqsa, davlatning yordamga muxtoj bo'lgan odamlar qatlamiga e'tibori, ijtimoiy zaif kishilarga, ya'ni keksalar, nogironlar, yolg'iz, nochor kishilarga yordam berishi, ana shu jamiyatning yuksak ma'naviyati va ijtimoiy moddiy jihatdan barkamolligidan dalolat beradi. Jahon tajribasida o'z yaqinlariga yordam berish, og'irini yengil qilish, hamdard bo'lish, xayr-ehson qilish azaldan turli ko'rinishlarda amalga oshirib kelingan.

"Azaldan o'zbek mahallalari chinakam milliy qadriyatlar maskani bo'lib keladi. O'zaro mehr-oqibat, ahillik va totuvlik, ehtiyojmand va yordamga muhtoj kimsalar xolidan xabar olish, yetim-esirlarning boshini silash, to'y-tomosh, hashar va ma'rakalarni ko'pchilik bilan bamaslahat o'tkazish, yaxshi kunda ham, yomon kunda ham, birga bo'lish kabi kabi xalqimizga xos urf-odat, va an'analar avvalambor o'zbek mahallalari muhitida shakllangan va rivojlangan,"¹⁰⁸ - deydi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov.

Darhaqiqat, tarixan o'z in'ikosini topgan bu insoniy fazilatlar ming yillar mobaynida xayriya, insonlarga yordam berish orqali diniy burch sifatida yuzaga kelgan bo'lib, XIX-XX asrlarga kelib, alohida mazmun va mohiyat kasb etuvchi professional kasbga aylandi. Bu davrlarga kelib, insonparvarlik tamoyillariga suyangan diniy xayriya bilan shug'ullanuvchilar bilan zamonaviy ijtimoiy xodim orasidagi farq yuzaga keldi va o'z shaklu - shamoyillari bilan rivojlanib kelmoqda. Ijtimoiy ishni professional kasb sifatida, alohida fan yo'nalishida o'rganish, bugungi kunning dolzarb vazifasidir. Dunyoning rivojlangan davlatlarida ijtimoiy ish instituti yuz ellik yil mobaynida faoliyat olib bormoqda va yetakchi oliy dargohlarda kasbiy tayyorgarlik amalga oshiriladi. Ijtimoiy ish ijtimoiy hodisa sifatida ijtimoiy yordamni o'ziga xos modeli sifatida hayotga tadbiq qilinmoqda.

Ijtimoiy ish xodimlari xalqaro miqyosdagi huquqiy normalarga tayanadi. Britaniya Assotsiatsiyasi bu birlashgan Qirollikdagi ijtimoiy ish xodimlarining professional tashkilotidir. Uning majburiyatiga a'zolar tomonidan axloqiy

¹⁰⁸ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. Toshkent: "Ma'naviyat". 2008.-B.58

majburiyatlarni hamda ularga xizmatdan foydalanuvchilarning huquqlarini ta'minlash va himoya qilishlari uchun lozim bo'lgan kasbiy huquqlarini imkon darajasida ta'minlash kiradi. Assotsiatsiya axloqiy kodekslarining maqsadi – ijtimoiy ishga xos bo'lgan qadriyatlar va tamoyillarni bayon qilish va axloqiy amaliyot uchun ko'rsatma berish. Ular tomonidan quyidagi ta'rif qabul qilingan bo'lib, bu dunyoning barcha xududidagi ijtimoiy ish amaliyotchilari va o'qituvchilariga taaluqlidir.

Ijtimoiy ish kasbi ijtimoiy o'zgarishlarga insoniy munosabatlar muammolarini hal qilishga, shuningdek, odamlarning farovonligini oshirish uchun imkoniyatlarning taqsimlanishiga va ozod bo'lishiga ko'maklashadi. Insoniy xulq-atvor va ijtimoiy tizimlar haqidagi nazariyalardan foydalanib, ijtimoiy ish odamlarning atrofida qilar bilan o'zaro aloqadorlikka kirishgan joylarda yuzaga keladi. Inson huquqlari va ijtimoiy adolat tamoyillari ijtimoiy ishning asosi bo'ladi. Ijtimoiy ish xodimlari insonparvarlikka, halollikka xizmat qilish yo'li bilan inson qadr-qimmatini hurmat qilishga, ijtimoiy adolatni ta'minlashga ko'maklashishi kerak.

Ijtimoiy ish – universal ijtimoiy institut bo'lib, mazkur faoliyat bilan shug'ullanuvchilar har bir individga, uning ijtimoiy statusi, millati, dini, irqi, jinsi, yoshidan qat'iy nazar, yordam ko'rsatadi. Mazkur faoliyatni olib boruvchi xodimlar, ya'ni ijtimoiy xizmatchilar kundalik hayotda uchraydigan muammolarni hal qilishda aholining ijtimoiy himoyalangan qatlami: qariyalar, nogironlar, bolalar, oilaviy tarbiyadan ayrilganlar, ruhiy nosog'lomlar, aroqxo'rlar, giyohvandlar, OITS bilan og'rikan bemorlar, deviant xulqli insonlarga yordam beruvchi kasb egalari¹⁰⁹dir.

Bilimlarning ilmiy shakllari turfaligi sababli faktlar, voqealar va ularning bayoni, tizimlashtirish, qonuniyatlar va tamoyillar, belgilangan maqsadga erishishning tamoyil va usullari, gipotezalar, qarashlar tizimlari har qanday fan asoslanadigan nazariyaga birikadi. Hozirgi zamon fanlarining barchasi falsafadan o'sib chiqqani tufayli, boshqa ko'pgina gumanitar fanlarda bo'lgani singari ijtimoiy ishda ham inson borlig'ining mazmuni, ijtimoiy-axloqiy negizlarini asoslab beradigan falsafiy-gumanistik nazariya muhim o'rin tutadi.

Ijtimoiy ish mijozlarga turli xizmatlarni taqdim etishda uzoq tarixga ega bo'lib, u alohida mijozlar uchun maslahat berishdan to terapevtik xizmat ko'rsatish, oila, guruh, tashkilot va jiddiy ijtimoiy aksiyalarda ishtirok etish va tashkillashtirish vazifalarini amalga oshiradi. Ijtimoiy ishning amaliy faoliyati juda keng maydonni egallaganiki, ular turli tashkilotlar: maktab, psixologik maslahat, uyda tajovuzga duch kelgan insonlar, uy-joy masalalari bo'limi, qamoqxona, bolalar joylashtiriladigan muassasalar bilan o'zaro hamkorlikni amalga oshiradi¹¹⁰.

¹⁰⁹ Mannopov.S. Ijtimoiy ish xodimining kasbiy asoslari va etikasi.-Farg'ona: FarDU nashriyoti, 2012.-B.5

¹¹⁰ L.Kim., D.Isaeva., S.Tadjiyeva., D.Sobirova. "Bolalar va oilalar bilan ijtimoiy ish amaliyoti" kursi bo'yicha xrestomatiya. Toshkent: JAHON PRINT, 2012.-5-bet.

POP TUMANI QISHLOQLARI TOPONIMIKASI

Zohid Madrahimov,

*Tarix fanlari kafedarasini
katta o'qituvchisi, t.f.n.*

Pop – yurtimizdagi qadimiy shaharlaridan biri, Farg'ona vodiysi «darvozasi» hamdir. Pop toponimi haqida ham turli ma'lumotlar mavjud. IX – X asrlarda yashagan arab tarixchisi ibn Xo'rdodbeh va al-Istahriy tomonidan yozilgan asarlarda «Pop» so'zi «Bob» deb tilga olingan bo'lib, bu arabcha «darvoza» ma'nosini anglatadi.

983-yilda yozilgan noma'lum muallifning qalamiga mansub «Hudud-ul-olam» («Olam chegaralari») nomli asarning «Movarounnahr viloyati va uning shaharlari» deb nomlangan qismida «Pob» toponimi yozilib, bu o'lka Farg'onaning savdo yo'lida joylashgan obod shaharlardan biri sifatida ta'riflangan. Zahiriddin Muhammad Bobur o'zining «Boburnoma» asarida ham Pop qo'rg'oni haqida so'z yuritiladi: «Axsining berk qo'rg'onlaridan biri Pop qo'rg'onidir...»¹¹¹.

Shuningdek, mashhur sharqshunos olim V.V. Bar'told ma'lumotlariga ko'ra, o'rta asrlarda Turkistonda Islom dinining tarqalishiga katta hissa qo'shgan kishi ismi oxiriga ham «bob» so'zini qo'shib aytilgan. Misol uchun, Abdurahmon Jomiyning «Nafohot ul-uns», Alisher Navoiyning «Nasoyimul muhabbat» asarlarida Hazrati Bob Farg'oniy haqida ma'lumot berilib, ul zotning ismlari Umar ekanligi, Farg'ona vodiysi tomonlarda ulug' shayxlar, avliyolarni «bob» deb atalishini ta'kidlangan. Hazrati Bob Farg'oniy (X asr) Popga dafn etilgan¹¹².

Marg'izor – Pop tumanidagi qishloqlardan biri. Marg'izor toponimi haqida turli xil farazlar mavjud. Tarixda «marg'i» qabilasi ham bo'lgan. Ular o'tloq, suvlik yerlarda yashaganlar «arg'izor» deganda o'rmonga monand yashil yer, o'tloq joy tushuniladi. Shuningdek, «Marg'» so'zi qadimgi so'g'd tilida «buloq» ma'nosini ham anglatadi. Tojik mumtoz adabiyoti tilida qadimdan mavjud bo'lgan murg' so'zi: o't, maysa, alaf, maysazor, ya'ni marg'zor, chamanzor ma'nolarini anglatgan. Marg', marg'zor so'zi eski o'zbek tilida, jumladan, Alisher Navoiy asarlarida ham uchraydi: marg' – o't, hayvonlar yeydigan o'simlik, marg'zor – o'tloq, hayvonlar o'tlaydigan joy. «Navoiy asarlari lug'ati»da marg', marg'zor so'zlarining arabcha deb belgilanishiga qo'shilib bo'lmaydi.

¹¹¹ Inomov I. Popin – saxovatli yurtim. – Toshkent, 1996. – B. 4 – 6

¹¹² Qorayev S. O'zbekiston viloyatlari toponimikasi. – Toshkent: Davlat ilmiy nashriyoti, 2005. – B. 98.

Chodak – Pop tumanidagi yirik va qadimiy qishloqlardan biri. Chodak toponimi joylashgan geografik oʻrniga qarab tojikcha «Chohi deh» – «chuqurdagi qishloq» maʼnosini qoʻllaniladi.

Pop tumanidagi qadimiy va katta qishloqlardan yana biri – Gʻurumsaroydir. Qishloq nomini kelib chiqishi haqida quyidagi rivoyat mavjud: Axxi, Munchoqtepa kabi harbiy istehkom uchun qulay bu qishloqqa minglar avlodidan boʻlgan bekiar qoʻrgʻon qurishgan. Bu yerni «Gʻurumsaroy» yaʼni, gʻurum – yigʻin, sar – bosh, on – lar, yaʼni «Boshliqlari yigʻindagi joy» deb ataganlar. Yana boshqa bir rivoyatga koʻra, Sirdaryoning oʻng qirgʻogʻida jolashgan Gʻurumsaroy qishlogʻi Buyuk ipak yoʻlida joylashgan va turli sayyoh va savdogarlarning toʻplanib karvon hosil qilish joyiga aylangan edi. Bundan xabar topgan Qoʻqon xoni tag joyi undirish va oʻz nazoratida ushlab turish maqsadida Xurram ismli xizmatchisini yuboradi. U saroy qurdirib, yoʻlovchilar uchun sharoit yaratadi va tildan-tilga, yurtdan-yurtga «Hurram-saroy» nomi bilan oʻtib, bizga Gʻurumsaroy boʻlib yetib kelgan.

Maydamillat – Pop tumanidagi qishloqlardan biri. Fargʻona vodiysida kichikroq millat vakillarini mayda millat deb atashgan va bu nom keyinchalik qishloq nomiga aylanib ketgan. Maydamillatning qadimiy nomi Kichik Mullaobod boʻlib, asos solgan odam nomi bilan bogʻliq. Keyinchalik qishloqqa Maydamillat nomi berilgan. Chunki, qishloqqa atrofdagi qishloqlardan koʻplab oilalar koʻchib kelib, joylashgan. Atrofdagilar ularni oz sonli, mayda millat kishilar deb atagan va qishloq ham Maydamillat deb atala boshlangan¹¹³.

Botir boʻtka – Pop tumanidagi qishloqlardan biri. Qishloqning tashkil topishi va rivojlanishiga katta hissa qoʻshgan Botirali Doʻltayev nomidan olingan¹¹⁴.

Beshsari – Pop tumanidagi qishloq. Beshsari nomli qadimgi qoraqalpoq urugʻi mavjud boʻlgan. XVII – XVIII asrlarda Fargʻona vodiysiga qoraqalpoq urugʻlari koʻchib kelib, Sirdaryo boʻylariga joylashgan. Qishloq nomi ham unga asos solgan qoraqalpoqlarning beshsari urugʻi nomidan olingan.

Pop tumanidagi qishloqlardan biri – Iskovut hisoblanadi. Maʼlumotlarga qaraganda, qishloqning qadimiy aholisi XIX asr ikkinchi yarmida Sirdaryo boʻyidagi Gadoytopmas qishlogʻidan koʻchib kelgan. Qishloq atrofidagi yerlar bu vaqtlarda «Eski obod» deb yuritilgan. Natijada, bu yerga koʻchib kelgan Gadoytopmasliklar bu yerni «Eski obod» deb, yaʼni qadimda obod etilgan yer deb ataganlar. Keyinchalik, Eskiobod soʻzi Iskovutga aylanib ketgan. Shuningdek, Iskovut soʻzi «Iskab oʻt» jumlasidan kelib chiqqan degan maʼlumotlar ham bor.

Sang – Pop tumanidagi qadimiy va yirik qishloq. Qishloqni “Sang” deyilishi bilan bogʻliq bir necha rivoyatlar mavjud. Arab xalifaligi tomonidan

¹¹³ Qorayev S. Oʻzbekiston viloyatlari toponimikasi... – B. 96, 98

¹¹⁴ Inomov I. Popim – saxovatli yurtim. – Toshkent, 1996. – B. 87 – 89.

tayinlangan Qutayba lashkarboshilaridan Shifozilning o'g'li Xasti Jalil Hasan Chustni bo'ysindirib, qaytishda qishloqqa kelib suv so'raydi. Hech kim suv bermagach: «Odamlari toshdan ham qattiq ekan» degan emish. Yana bir rivoyatda aytilishicha, Xo'ja Abdulloh Ansoriy va Xo'ja Ibdulloh Alamdoriylarni dafn etish uchun qabr qazilganda, yer qattiq chiqqan, shunda arablar «Sangzarang budast» degan ekanlar. Shu bois qishloq Sangzarang deb atalib ketgan emish.

Uyg'ur – Pop tumanidagi qadimiy va yirik qishloq. Aytishlaricha, XIII asr oxiri – XIV asr boshlarida Xorazm tomonlarda mang'itlar qishloq hududiga ko'chib kelgan va Sirdaryo bo'ylaridagi tepaliklarda g'or qazib yashaganlar. Shundan Uyg'or so'zi kelib chiqqan. Shuningdek, ko'chib kelganlar Xorazmning Qo'shko'pir tumani Uyg'ur qishlog'idan bo'lganliklari uchun bu qishloq ham Uyg'ur deb atalgan degan fikr ham mavjud.

Kelachi – Pop tumanidagi qishloq. Qishloq toponimi haqida quyidagi rivoyat mavjud: qadimda uch og'a-ini qishloq hududiga kelib, ovchilik bilan shug'ullangan. Ulardan biri daryo sohilidagi to'qayzorga kelib bir necha kun mobaynida ov qilgan. O'ljalar ko'pligi uchun «Ey ovchi bo'lsang kelaver» deb og'a-inilarini chaqirgan. Shundan «Kelovchi» nomi kelib chiqib, keyinchalik paydo bo'lgan qishloq «Kelachi» deb atala boshlagan.

Pop tumanidagi qishloqlardan yana biri – Kenagas hisoblanadi. Tarixiy manbalardan ma'lumki, XVII – XVIII asrlar davomida ko'plab qoraqalpoq urug'lari Farg'ona vodiysiga kelib joylashgan. Shu qabilalardan biri – kenagaslar bo'lib, ular shu qishloq xududiga o'rmashib qolganlar va ular asos solgan qishloq «Kenagas» deb atala boshlagan¹¹⁵.

Pop tumanidagi qadimiy qishloqlardan yana biri – Chorkesar bo'lib, qishloq hududida miloddan avvalgi III-II va milodiy V-VI asrlarga oid mug'xonalar, o'tov shaklidagi tosh maqbaralar topilganligi uning tarixi qadimiyligini ko'rsatadi. Qishloqning Chorkesar deb atalishiga sabab quyidagi ma'lumotlar mavjud: «Chorkesar», tojikcha «chor» va «kesar» so'zlaridan tashkil topgan, ya'ni to'rtta keskir, chaqqon, uddaburon aka-ukalar Omonlaylak, Varzik, Soymachit, Qoraqo'rg'onlar qishloqqa asos solgan bo'lib, hozirda ularning nomlari bilan ataluvchi urug'lar mavjud. Shuningdek, qadimda Pop, Olmos, Chodakka olib boruvchi to'rt (chor) tomondan kelgan yo'llar kesishgan joyda joylashganligi sababli qishloq – «Chorkesar» deb atalgan. Boshqa bir ma'lumotlarga ko'ra, qishloq aholisi bir so'zli, cho'rtkesar bo'lgani uchun qishloq ham «Cho'rtkesar» deb atalgan va keyinchalik Chorkesarga aylanib ketgan. Qishloq hududida o'tgan asr 50-yillarida uran rudasi qazib chiqarilishi natijasida Chorkesar nomli shaharcha ham barpo etilgan (1957).

¹¹⁵ Abdulla Jabbor. Namangan viloyati – Namangan, 2011. – B. 87, 91-92

Madaniyat – Pop tumanidagi qishloqlardan biri. Qishloqning qadimiy nomi Jarqoʻton boʻlib, jarlik yoqasidagi joy maʼnosini anglatadi. Qishloq 1983-yildan “Madaniyat” deb atala boshlagan.

Qasarak – Pop tumanidagi qishloq. Aytishlaricha, Qasarak toponimi shu yerda oʻsuvchi gasarak oʻsimligi nomining oʻzgargan shaklidir.

Parda Tursun – Pop tumanidagi qishloq. Qishloqning qadimgi nomi Mozor hisoblanadi. Rivoyat qilishlaricha, VIII asrda gʻayridinlarga qarshi janglarning birida halok boʻlgan Zaynobbiddin (Imom Ota) shu yerga dafn etilgan. Qishloq hududida Imom Ota nomi bilan ataluvchi ziyoratgoh mavjud. Parda Tursun nomi esa qoʻshni Chorkesar qishlogʻida tugʻilgan adib, yozuvchi Parda Tursun (1909-1957-yillarda yashab oʻtgan. «Oʻqituvchi» romani va bir nechta hikoyalar, toʻplamlar muallifi) nomi bilan bogʻliq. 1967-yildan Mozor qishlogʻi Parda Tursun deb atala boshlagan¹¹⁶.

Nayman – Pop tumanidagi qishloq. Qishloq nomi turkiy xalqlarning nayman urugʻi bilan bogʻliq. Qishloq hududiga dastlab shu urugʻ vakillari kelib joylashgan, qishloq nomi ham shu urugʻ nomidan olingan. Shuningdek, Minbuloq tumanida ham shunday ataluvchi qishloq mavjud.

Pop tumanidagi qishloqlardan yana biri – Koʻrmos hisoblanadi. Qishloq togʻ etagida joylashgan boʻlib, geografik joylashuviga qarab, «koʻrinmas» deb atalgan. Keyinchalik fonetik oʻzgarishlar natijasida Koʻrinmas – Koʻrnosga aylanib ketgan¹¹⁷.

Navbahor – Pop tumanidagi qishloq. Maʼlumki, 1973-yil fevral oyidan boshlab, Markaziy Fargʻonadagi choʻl, qamishzor, botqoq va qumliklardan iborat boʻlgan Achchiqkoʻl mavzei oʻzlashtirila boshlangan. Navbahorga ham shu yili asos solingan. Oʻzbekiston SSR rahbari Sh.Rashidov taklifi bilan qishloqqa Navbahor nomi berilgan. Respublika rahbari qishloqdagi birinchi uyga dastlabki gʻishtni qoʻyib bergan.

Oltinkon – Pop tumanidagi shaharcha. Qishloqning qadimgi nomi Chodakboshi boʻlgan (qishloqning joylashgan oʻrniga nisbatan shunday atalgan). 1951-yilda qishloq hududida oltin koni borligi aniqlangan. 1957-1964-yillarda bu tasdiqlanib, amaliy ishlar boshlangan. 1967-yilda Chodakboshi qishlogʻida oltin koni ochilishi, qishloq shaharcha tusini olganligi munosabati bilan unga – Oltinkon shaharchasi nomi berilgan¹¹⁸.

Pungon – Pop tumanidagi qadimiy qishloq. Maʼlumotlarga qaraganda, Buyuk ipak yoʻli boʻyida joylashgan qishloq, arablar istilosidan ham avval mavjud boʻlgan. Uning qadimiy nomi Pumbakon, yaʼni paxta koni deb atalgani haqida taxminlar mavjud. Biroq, “Pungon” toponimi haqida aniq maʼlumotlar yoʻq.

¹¹⁶ Inomov I. Popim – saxovatli yurtim. – Toshkent, 1996. – B. 61-62.

¹¹⁷ Abdulla Jabbor. Namangan viloyati. – Namangan, 2011. – B. 95, 97, 104.

¹¹⁸ Abdulla Jabbor. Namangan viloyati. – B. 104, 111.

Rezak – Pop tumanidagi qishloq. Rivoyat qilishlaricha qishloq ming yildan ortiq tarixga ega. Buloqlar ko'p bo'lganligi, qishloq suvga seroblighi uchun «Rezak» – har qasridan suv quyiladigan joy ma'nosini anglatadi¹¹⁹.

Pop tumanining qishloqlaridan biri – Tepaqo'rg'on hisoblanadi. “Tepaqo'rg'on” toponimiga e'tibor beradigan bo'lsak, qadimdan O'rta Osiyo hududida «Sun'iy tepalik»lar mavjud bo'lgan va bu tepaliklar yaqinlashib kelayotgan dushmandan ogoh bo'lish uchun bir-biridan ko'rinadigan tepaliklarda olov yoqish, tutun chiqarish yoki boshqa bir yo'l bilan xabar berilgan. Tepaqo'rg'on toponimi ham shunday tepaliklar bilan bog'liq bo'lishi ham mumkin. Shuningdek, qishloq o'rnidagi tepalikka atrofi aylana qilib qo'rg'on qurilgan. Tepalik ustidagi qo'rg'on nomidan kelib chiqib qishloq “Tepaqo'rg'on” deb atalgan.

To'da – Pop tumanidagi qishloq. Qishloq nomini «to'da» nomli turkiy qabilalarga mansub urug' nomidan kelib chiqqan degan faraz mavjud.

Xonobod – Pop tumanidagi qishloq. Aytishlaricha, Qoraboy Mirza ismli odam Qo'qon xonligi saroyida bekklik lavozimida xizmat qilgan. Xonlar bu yerga, ya'ni Qoraboynikiga dam olgani kelib turishgan. Qishloqning “Xonobod” deb atalishi shundan deb hisoblashadi.

Pop tumanidagi qishloqlardan biri – Xo'jaobod rivoyatlarga qaraganda, XIV-XV asrlarda Xo'jakentlik aka-uka Xonxo'ja va Toshxo'jalar Sirdaryo bo'yidagi unumdor yerlarga ko'chib kelib, bog'u-roq'lar barpo etganlar. Keyinchalik Qo'qon tomonlardan bir necha oila kelib o'rtnashgan. Shundan so'ng tashkil topgan qishloq Xo'jaobod ya'ni “Xo'jalar obod etgan joy” deb atala boshlangan ekan.

Chinor – Pop tumanidagi qishloq. Chinor qishlog'ining o'rtasida tahminan 120 yillar oldin ekilgan chinor daraxti borligi uchun qishloq shu nom bilan ataladi.

Yangiyer – Pop tumanidagi qishloq. Yangier yangi tashkil topgan qishloqlardan bo'lib, 1940 yilda Shimoliy Farg'ona kanalining ishga tushirilishi natijasida Chorkesar qishlog'idan kelgan aholi yangi yerlarni o'zlashtirib, qishloqqa asos solganlar. Qishloq nomi ham shu tariqa Yangiyer deb atalgan.

Pop tumanidagi qishloqlardan biri – Chig'anoq hisoblanadi. Sirdaryoning keskin burilishi natijasida qishloq yaqinida chig'anoq – tirsak xosil bo'lgan. Shundan qishloq nomi ham Chig'anoq deb ataladi.

Chortoq – Pop tumanidagi qishloq. Mahalliy aholining ma'lumotlariga qaraganda, XIX asr boshlarida qishloq hududiga Qo'qon xonligidagi beklarning oilalari o'rtnashgan. Yangi tashkil topgan qishloqni Jartog' ya'ni jarliklardan iboorat yer, tepalik atashgan ekan. Bugungi kungacha qishloq hududida uchta tepalik saqlanib qolgan. Jartog' vaqtlar o'tishi bilan Chortoqqa aylanib ketgan.

¹¹⁹ Inomov I. Popim – saxovatli yurtim. – Toshkent, 1996. – B. 8-9

Tikkaariq – Pop tumanidagi qishloq. Dastlab G'urumsaroyda yashovchi aholining dala xovlisi sifatida shakllangan. Shimoliy Farg'ona kanalidan Sirdaryogacha tikkasiga ariq tushgan. Qishloq nomi ham shu sababli "Tikkaariq "deb ataladi"¹²⁰.

Xulosa sifatida shuni qayd etish mumkinki, Pop tumani hududida Pop kabi qadimiy shahar. Chodak, G'urumsaroy, Sang kabi yirik qishloqlar mavjud. O'z navbatida Pop tumani qishloqlar soni ko'pligi bilan ham ajralib turadi. Bu tuman shahar va qishloqlari toponomikasida ham o'ziga xosliklar ham mavjud. Tuman shahar va qishloqlari aksariyatining nomlanishi to'g'risida ko'plab afsona va rivoyatlar mavjud, turli urug'lar nomi bilan ataladigan hamda joylashgan o'rtidan kelib chiqqan holda atalgan manzilgohlar ham ko'p uchraydi.

O'ZBEK ETNONIMI

F. Abdulboqiyev,

NamDU Tarix yo'nalishi 3-bosqich talabasi.

Yer yuzida bugun minglab xalqlar yashaydi. Ularning har biri o'z nomiga va atiga 193 nafari o'z davlatiga ega hisoblanadi. Bu turli-tuman xalqlar bir-biridan yashash sharoiti, turmush tarzi, an'anaviy xo'jaligi, urf-odat va marosimlari, dini, tili, irqi, sotsial tuzilishi va boshqa jihatlari bilan bir qatorda o'z etnonimi bilan farqlanadi. Masalan: hind, xitoy, arman, ingliz, misr, turk, qoraqalpoq, tojik, amerikan, rus, o'zbek va hakoza. Albatta, xalqlarga nisbatan ishlatiladigan har bir nom o'z-o'zidan paydo bo'lmagan. Bu nomlar shu xalq yashaydigan hududning tabiiy rel'ef shakllariga, turmush tarzi va an'anaviy xo'jaligiga, kiyimiga, biror-bir inson ismiga va yoki xalqlarning diniy e'tiqodlariga asoslangan holda vujudga kelgan. Jumladan, arman etnonimi miloddan oldingi VI asrdan beri ma'lum. Ayrim tadqiqotchilar nomning etimologiyasini qabila boshlig'i – Xaykaning o'g'li Armenak nomi bilan bog'laydi. Boshqa bir olimlar esa nomni Gar-Minni («Minni qabilasi tog'i») so'zi bilan izohlaydi. Belarus etimologiyasi esa «Белая рус» (Oq rus) so'zidan kelib chiqqan bo'lib, bu so'z to'g'risida turli talqinlar mavjud. E. F. Karskiy etnografik jihatdan kelib chiqib, ularning rangi, kiyadigan kiyimi uchun *oqruslar* deb atagan deya izohlaydi. A. Potebnyanning fikricha, bu yer (g'arbiy rus yerlari) dagi xalqlar O'rdaning zulmidan ozod bo'lgani uchun ular «ozod, ya'ni oq ruslar» deb atalgan. Ayrim toponimistlarning aytishicha, toponim bu yerdan oqqan va ilk bora belorus yerlarini chegaralagan Belaya daryosi nomi asosida kelib chiqqan.¹²¹ Qoraqalpoqlar esa o'zlarining hozirgi nomlarini XI asrdayoq Orol va Amudaryo sohillarida olganlar. S. P. Tolstovning fikricha,

¹²⁰ Abdulla Jabbor. Namangan viloyati... – B. 127, 138.

¹²¹ Do'simov E., Egamov X. Joy nomlarining qisqacha izohli lug'ati – Toshkent. O'qituvchi, 1977. –B. 17,29.

birinchi bo'lib qipchoqlar sharqlik pecheneglarni bosh kiyimlariga qarab «qoraqalpoq» deb ataganlar. Bu ma'lumotlar to'g'risida u yoki bu fikrni noto'g'ri deb aytish mumkin emas. Zero, ilmiy tadqiqotlarda biror yangilik yaratish uchun chuqur bilim, yuksak tajriba va iqtidor hamda eng asosiysi ilmiy dalillarga tayangan holda tadqiqotlar olib boriladi.

Bu kabi etnonimlar to'g'risida ma'lumotlarni ko'plab keltirish mumkin. Shu bilan birga hech bir xalqi yo'qki, o'z etnonimi to'g'risida ma'lumotga ega bo'lishni istamasa. O'zbek xalqi ham kechagina paydo bo'lgan xalq emas. O'zbeklarning avlodi ming-ming yillar davomida Amudaryo va Sirdaryo havzalari, Zarafshon va Farg'ona vodiysi kabi jannatmakon hududlarda yashab istiqomat qilib kelmoqda. Bugun ham ushbu hududlarni o'z ichiga olgan O'zbekiston Respublikasida 30 mln.dan ortiq aholi yashaydi. Aholining etnik tarkibi turli millat vakillarini o'z ichiga olsa-da, asosiy qismini o'zbeklar tashkil qiladi. 2010-yilgi O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo'mitasi ma'lumotiga ko'ra, mamlakatimizda jami aholi sonining 81,7 % ya'ni 22 879 000 kishini o'zbeklar tashkil etgan.¹²² Bugungi kunda esa ana shu aholining 14 yoshgacha bo'lganlar soni 8,5 mln kishini tashkil etmoqda. Demakki, aholi tarkibi bo'yicha Respublikamizda yoshlar ko'pchilikni tashkil etadi. Shu boisdan ham bugun yoshlarga bo'lgan e'tibor davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Yoshlarni vatanparlikda tarbiyalashda esa o'zligini anglab yetishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu o'rinda tabiiy bir savol tug'iladi: *O'zbek* degan so'z qay tariqa paydo bo'lgan va butun boshli bir xalq nomiga qanday qilib aylangan? Yuqorida ko'rib o'tkanimizdek, biror xalq etnonimi (*nomning kelib chiqishi*) to'g'risida turli nazariyalar mavjud. O'zbek etnonimi ham hali o'z yechimini topmagan etnonimlardan biridir. Xususan, o'z o'mida aytib o'tish lozimki, o'zbek etnonimining kelib chiqishi bo'yicha fanda yakdil fikr mavjud emas. Etnonim to'g'risida turli xil fikrlar va nazariyalar mavjud. Ayrim mualliflar (T.Vamberi, T. Xovors, M.P. Pelo) Dashti Qipchoqda ko'chib yurgan turk-mo'g'ul qabilalarining bir qismi o'zlarini *erkin* tutganliklari sababli «o'zbek», ya'ni «o'z-o'ziga bek» deb atagan desalar, boshqalar (P.P.Ivanov, A.Yu.Yakubovskiy, Xilda Xukxem) «o'zbek» etnonimini Oltin O'rda xoni *O'zbekxon* (XIV asr) nomi bilan bog'laydi, boshqa yana bir guruh olimlar esa (V. V. Grigorev, A. A. Semyonov va B. Ahmedovlar) o'zbek nomi Oq O'rda (Dashti Qipchoqning sharqiy qismi)da ko'chib yurgan *turk-mo'g'ul qabilalariga* taalluqli bo'lgan degan fikrni bildiradilar.¹²³ Bu fikrlar ham ma'lum darajada o'z dalillariga ega. Ammo, o'zbek etnik tarixi etnonim masalasida XV asr oxiri – XVI asr boshlari muhim davr hisoblanadi. Ushbu

¹²² Doniyorov A. X., va boshqalar. Markaziy Osiyo xalqlari etnografiyasi, etnogenezi va etnik tarixi. – Toshkent: Yangi nashr, 2011. –B 117, 57

¹²³ O'zME 10-jild. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2005. –B. 488.

Tikkaariq – Pop tumanidagi qishloq. Dastlab G'urumsaroyda yashovchi aholining dala xovlisi sifatida shakllangan. Shimoliy Farg'ona kanalidan Sirdaryogacha tikkasiga ariq tushgan. Qishloq nomi ham shu sababli "Tikkaariq" "deb ataladi"¹²⁰.

Xulosa sifatida shuni qayd etish mumkinki, Pop tumani hududida Pop kabi qadimiy shahar. Chodak, G'urumsaroy, Sang kabi yirik qishloqlar mavjud. O'z navbatida Pop tumani qishloqlar soni ko'pligi bilan ham ajralib turadi. Bu tuman shahar va qishloqlari toponomikasida ham o'ziga xosliklar ham mavjud. Tuman shahar va qishloqlari aksariyatining nomlanishi to'g'risida ko'plab afsona va rivoyatlar mavjud, turli urug'lar nomi bilan ataladigan hamda joylashgan o'rnidan kelib chiqqan holda atalgan manzilgohlar ham ko'p uchraydi.

O'ZBEK ETNONIMI

*F. Abdulboqiyev,
NamDU Tarix yo'nalishi 3-bosqich talabasi.*

Yer yuzida bugun minglab xalqlar yashaydi. Ularning har biri o'z nomiga va atiga 193 nafari o'z davlatiga ega hisoblanadi. Bu turli-tuman xalqlar bir-biridan yashash sharoiti, turmush tarzi, an'anaviy xo'jaligi, urf-odat va marosimlari, dini, tili, irqi, sotsial tuzilishi va boshqa jihatlari bilan bir qatorda o'z etnonimi bilan farqlanadi. Masalan: hind, xitoy, arman, ingliz, misr, turk, qoraqalpoq, tojik, amerikan, rus, o'zbek va hakozi. Albatta, xalqlarga nisbatan ishlatiladigan har bir nom o'z-o'zidan paydo bo'lmagan. Bu nomlar shu xalq yashaydigan hududning tabiiy rel'ef shakllariga, turmush tarzi va an'anaviy xo'jaligiga, kiyimiga, biror-bir inson ismiga va yoki xalqlarning diniy e'tiqodlariga asoslangan holda vujudga kelgan. Jumladan, arman etnonimi miloddan oldingi VI asrdan beri ma'lum. Ayrim tadqiqotchilar nomning etimologiyasini qabila boshlig'i – Xaykaning o'g'li Armenak nomi bilan bog'laydi. Boshqa bir olimlar esa nomni Gar-Minni («Minni qabilasi tog'i») so'zi bilan izohlaydi. Belarus etimologiyasi esa «Белая рус» (Oq rus) so'zidan kelib chiqqan bo'lib, bu so'z to'g'risida turli talqinlar mavjud. E. F. Karskiy etnografik jihatdan kelib chiqib, ularning rangi, kiyadigan kiyimi uchun *oqruslar* deb atagan deya izohlaydi. A. Potebnyanning fikricha, bu yer (g'arbiy rus yerlari) dagi xalqlar O'rdaning zulmidan ozod bo'lgani uchun ular «ozod, ya'ni oq ruslar» deb atalgan. Ayrim toponimistlarning aytishicha, toponim bu yerdan oqqan va ilk bora belorus yerlarini chegaralagan Belaya daryosi nomi asosida kelib chiqqan.¹²¹ Qoraqalpoqlar esa o'zlarining hozirgi nomlarini XI asrdayoq Orol va Amudaryo sohillarida olganlar. S. P. Tolstovning fikricha,

¹²⁰ Abdulla Jabbor. Namangan viloyati... – B. 127, 138.

¹²¹ Do'simov E., Egamov X. Joy nomlarining qisqacha izohli lug'ati. – Toshkent. O'qituvchi, 1977. –B. 17,29.

birinchi bo'lib qipchoqlar sharqlik pechenegarlarni bosh kiyimlariga qarab «qoraqalpoq» deb ataganlar. Bu ma'lumotlar to'g'risida u yoki bu fikrni noto'g'ri deb aytish mumkin emas. Zero, ilmiy tadqiqotlarda biror yangilik yaratish uchun chuqur bilim, yuksak tajriba va iqtidor hamda eng asosiysi ilmiy dalillarga tayangan holda tadqiqotlar olib boriladi.

Bu kabi etnonimlar to'g'risida ma'lumotlarni ko'plab keltirish mumkin. Shu bilan birga hech bir xalqi yo'qki, o'z etnonimi to'g'risida ma'lumotga ega bo'lishni istamasa. O'zbek xalqi ham kechagina paydo bo'lgan xalq emas. O'zbeklarning avlodi ming-ming yillar davomida Amudaryo va Sirdaryo havzalari, Zarafshon va Farg'ona vodiysi kabi jannatmakon hududlarda yashab istiqomat qilib kelmoqda. Bugun ham ushbu hududlarni o'z ichiga olgan O'zbekiston Respublikasida 30 mln.dan ortiq aholi yashaydi. Aholining etnik tarkibi turli millat vakillarini o'z ichiga olsa-da, asosiy qismini o'zbeklar tashkil qiladi. 2010-yilgi O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo'mitasi ma'lumotiga ko'ra, mamlakatimizda jami aholi sonining 81,7 % ya'ni 22 879 000 kishini o'zbeklar tashkil etgan.¹²² Bugungi kunda esa ana shu aholining 14 yoshgacha bo'lganlar soni 8,5 mln kishini tashkil etmoqda. Demakki, aholi tarkibi bo'yicha Respublikamizda yoshlar ko'pchilikni tashkil etadi. Shu boisdan ham bugun yoshlarga bo'lgan e'tibor davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Yoshlarni vatanparlikda tarbiyalashda esa o'zligini anglab yetishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu o'rinda tabiiy bir savol tug'iladi: *O'zbek* degan so'z qay tariqa paydo bo'lgan va butun boshli bir xalq nomiga qanday qilib aylangan? Yuqorida ko'rib o'tkanimizdek, biror xalq etnonimi (*nomning kelib chiqishi*) to'g'risida turli nazariyalar mavjud. O'zbek etnonimi ham hali o'z yechimini topmagan etnonimlardan biridir. Xususan, o'z o'rnida aytib o'tish lozimki, o'zbek etnonimining kelib chiqishi bo'yicha fanda yakdil fikr mavjud emas. Etnonim to'g'risida turli xil fikrlar va nazariyalar mavjud. Ayrim mualliflar (T.Vamperi, T. Xovors, M.P. Pelo) Dashti Qipchoqda ko'chib yurgan turk-mo'g'ul qabilalarining bir qismi o'zlarini *erkin* tutganliklari sababli «o'zbek», ya'ni «o'z-o'ziga bek» deb atagan desalar, boshqalar (P.P.Ivanov, A.Yu.Yakubovskiy, Xilda Xukxem) «o'zbek» etnonimini Oltin O'rda xoni *O'zbekxon* (XIV asr) nomi bilan bog'laydi, boshqa yana bir guruh olimlar esa (V. V. Grigorev, A. A. Semyonov va B. Ahmedovlar) o'zbek nomi Oq O'rda (Dashti Qipchoqning sharqiy qismi)da ko'chib yurgan *turk-mo'g'ul qabilalariga* taalluqli bo'lgan degan fikrni bildiradilar.¹²³ Bu fikrlar ham ma'lum darajada o'z dalillariga ega. Ammo, o'zbek etnik tarixi etnonim masalasida XV asr oxiri – XVI asr boshlari muhim davr hisoblanadi. Ushbu

¹²² Doniyorov A. X., va boshqalar. Markaziy Osiyo xalqlari etnografiyasi, etnogenezi va etnik tarixi. – Toshkent: Yangi nashr, 2011. –B. 117, 57.

¹²³ O'zME 10-jild. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2005. –B. 488.

bosqichda O'rta Osiyoga mang'it, qo'ng'iroq, nayman, uyg'ur, saroy, qatag'on, qushchi, do'rmon, kenagas, qirq, yuz, ming, bahrin va boshqa Dashti Qipchoq o'zbek etnik guruhlarining navbatdagi to'liqini kirib keldi. Natijada, Movarounnahr aholisining etnik qiyofasida ularning alomatlari faollashgan. Dashti Qipchoqdan ikki daryo (Amudaryo va Sirdaryo) oralig'i va Xorazmga kelib o'rnanishgan etnik guruhlar «o'zbek» nomi ostida mahalliy aholi etnik rang-barangligini birmuncha ko'paytirgan bo'lsalar hamki, lekin uning etnik tarkibini tubdan o'zgartirib yubormagan. Ushbu etnoslar shakllangan o'zbek xalqining tarkibiga kelib qo'shilgan navbatdagi etnik komponent edi, xolos. Ular Movarounnahr va Xorazm aholisining turmush tarziga, an'analarga, madaniyatiga, xo'jalik faoliyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan yangi tipdagi madaniy qatlam hosil qilgan. Ayniqsa, Zarafshon vodiysi va O'zbekistonning janubiy mintaqalari aholisi orasida bu nisbat kuchli seziladi. Mahalliy aholiga ular «o'zbek» nomini berishgan va bu nom Movarounnahr va unga qo'shni viloyatlar aholisi uchun rasmiy ravishda umumiy nom bo'lib qolgan. Demak, xalqimizning «o'zbek» degan nom bilan atalishi XV – XVI asrlardan boshlanadi. Lekin bu degan so'z o'zbek xalqi ham XV – XVI asrlarda paydo bo'ldi, deganini bildirmaydi. Tadqiqotchi A. Ibrohimovning yozishicha, o'zbek xalqi asosan ikki etnik qatlamdan tashkil topgan. Birinchi qatlam Turon-Turkiston (o'lkamiz hududlari VII asrdan shu nom bilan atalgan) hududlarida shakllangan. Ikkinchi qatlam esa Volga (Itil) daryo bo'ylaridan tortib, to' Xorazmning shimoli, Sirdaryoning o'rta va quyi oqimlarigacha bo'lgan hududlarda shakllangan. Bu makon o'tmishda turli nomlar bilan, chunonchi Dashti Qipchoq, Oltin O'rda, o'zbek viloyati, o'zbek mamlakati, o'zbek ulusi¹²⁴ deb atalgan. Xalqimizning bu qatlamini shartli ravishda shimoliy qatlam deb atash mumkin.

Xulosa qilib aytganimizda, o'zbek etnonimi XV-XVI asrlarda vujudga keldi va shu davrlardan boshlab asta-sekin xalq nomiga aylana boshladi. Bu davrlargacha ham ajdodlarimiz istiqomat qilib kelgan Vatanimiz hududlari turli nomlar bilan atalib kelgan. Xususan, Movarounnahr, Turon, Turkiston kabi nomlar shular jumlasidandir. Bu esa xalqimiz miloddan avvalgi V asrda yashagan yunon tarixchisi Gerodot ta'biri bilan aytganda, «qadimiylikda misrliklar bilan bellasha oladi» deganidir. Chunki, o'zbek xalqining tub asosini hozirgi O'zbekiston hududlarida bir necha ming yillar davomida yashab kelgan mahalliy saklar, massagetlar, so'g'diylar, baxtarlar, xorazmiylar, qang'lilar, dovonliklar va chochliklar tashkil etgan. Turli davrlarda kelgan kelgindi aholi esa mahalliy aholiga qisman ta'sir etsa-da, uning genetikasini tubdan o'zgartira olmagan. O'zbek xalqi shu tariqa 92 urug'ni o'z ichiga olgan dunyodagi yirik xalqlardan biri bo'lib shakllangan.

¹²⁴ Murtazayeva R. O'zbekiston tarixi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2003. – B. 59.

XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA TURKISTONDA TEMIRYO'L TRANSPORTI VA UNING O'LKA IJTIMOYIY HAYOTIGA KO'RSATGAN TA'SIRI

*B. Jalolov,
NamDU tadqiqotchisi.*

Bugungi kunda tarix fanining asosiy vazifalaridan biri Rossiya imperiyasining mustamlakachilik davrining salbiy oqibatlarini aniqlash, xolisona tahlil qilish, tarix fanidagi sobiq mafkuraviy andozalar va eskicha tafakkur ko'rinishlarining takrorlanishiga yo'l qo'ymaslik va barham berish, jamiyatning ma'naviy-axloqiy va ijtimoiy shakllanishida tarix fanining ta'sirini kuchaytirish zarurligi kabi masalalarni o'z ichiga olgan bo'lib, ana shu ijtimoiy muhim vazifalardan kelib chiqqan holda og'ir mustamlakachilik o'tmishi bilan bog'liq bo'lgan ayanchli sahifalariga bugungi kun nuqtai nazaridan qayta baho berish alohida ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki Romanovlar sulolasi hukmronlik qilgan Rossiyada «sanoat to'ntarishi»ning mevasi bo'lgan temiryo'llar qurilishi sekin-astalik bilan bo'lsa-da taraqqiy etib bordi va bu harakat XIX asrning 50-yillaridan imperiya tomonidan harbiy kuch ishlatish yo'li bilan bosib olingan Turkistonni ham qamrab olgan edi. 1834-yili Rossiyada qurilishi boshlangan temir yo'l 1854-yilda 1000 km, 1860-yilda 1600 km, 1865-yilda 3800 km, 1875-yili 19000 km, 1892-yili 31 200 km, 1900-yili 53 000 km, 1904 yili 59 500 km, 1913-yili 68 000 kmga (mustamlakaga aylantirilgan o'lkalarni qo'shib hisoblaganda) yetdi¹²⁵.

Turkistonda ham bu masalada tashabbusni qo'ldan bermagan Rossiya 1880 yildan boshlab temir yo'lni qurishga kirishib, Krasnovodsk-Chorjuy, Orenburg-Toshkent, Samarqand-Toshkent, Qo'qon-Namangan-Andijon va boshqa hududlar temiryo'l bilan bog'landi, oqibatda 1917-yilga kelib, hozirgi O'zbekiston hududida temiryo'llarning umumiy uzunligi 1100 kmni tashkil etdi¹²⁶. Temiryo'l Rossiyaning joylardagi siyosiy-iqtisodiy va ijtimoiy mavqeini har tomonlama mustahkamlashning muhim vositasi bo'lib xizmat qila boshladi va shu bilan birga Turkiston aholisining ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga juda katta ta'sir ko'rsatdi. Temiryo'l orqali Podsho Rossiyasi o'lkamizda olib borgan mustamlakachilik siyosati, aksariyat hollarda, bir-birini takrorlab, chuqurlashtirilib, yanada ayanchli tus oldi. Temiryo'lning Turkistonga kirib kelishi va uning o'lka aholisining ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga ko'rsatgan ta'sirining oqibatlarini bir necha omillar orqali ko'rish mumkin.

Birinchidan, Rossiya temir yo'l orqali o'lkaning milliy boyliklarini talash va ularni imperiya manfaatlariga xizmat qiluvchi sanoatni xom-ashyo bilan

¹²⁵ Турбин. И. В. Здесь помчатся поезда. – М.: Транспорт, 1987. – С. 39.

¹²⁶ O'zbekiston Respublikasi Ensiklopediya. – Toshkent: O'zME, 2006 – B. 306.

ta'minlashni rivojlantirish yo'lida paxta xomashyosini tashib ketishni jadal-
lashtirdi. 1880–1917-yillarda Turkistondan jami 225 million 800 ming pud
paxta shu maqsadlarda olib ketildi¹²⁷. Buning uchun avvalo o'lkada paxta paxta
ekishni ko'paytirish va uning imkoniyatlarini yanada kengaytirish choralarini
ko'rishga kirishdi. Bu borada 1908–1915-yillarda Rossiyaning davlat mulklari
va ziroatchilik vaziri bo'lgan P. K. Krivosheinning «markaziy masalada uch
lavha mavjud. Agar birinchisida yarqirab turgan yozuv «Paxta» bo'lsa,
ikkinchisida «Sug'orish» va nihoyat uchinchisida uncha ko'zga tashlanib
turmagan bo'lsa ham, aslida xammasidan muhimi «ruslarni ko'chirib keltirish»
yozuvi turibdi» degan fikri bilan Rossiyaning Turkistondagi mustamlaka
siyosatining asosiy yo'nalishlarini juda lo'nda, muxtasar tarzda qisqa tarzda
«paxta», «sug'orish», va «ruslarni ko'chirib keltirish» kabi uchta so'z bilan
ifodaladi¹²⁸.

Krivoshein paxta masalasida Rossiyaning Turkistondagi ehtiyojarini
yanada ham chuqurroq qondirish uchun Turkiston o'lkasini g'allakor Yettisuv
bilan bog'lash hamda o'lkani tashib keltiriladigan arzon g'alla ta'minlash va
shu yo'l bilan g'alla bilan band bo'lgan sug'oriladigan yerlarni bir qismini
paxta uchun bo'shatish mumkinligi, buning uchun imperiya hukumatiga Aris-
Verniy temiry o'lini qurishni tezlashtirishga undaydi¹²⁹. Paxta monopoliyasining
o'rnatishga urinish Turkiston aholisini ko'proq qishloq xo'jaligida ushlab turish
uchun ham paxtani ekishni rag'batlantirish choralari ko'rildi hamda bu borada
Turkiston general-gubernatori fon Kaufman (1867-1882-yy)ning «bu xalqqa
iloji boricha ko'proq paxta ektirish, ularni tinimsiz ishlashga majbur etish
kerak. Toki bu xalq bir zum ham boshqa narsalarni o'ylashga, siyosiy
voqealarni anglab yetishga vaqti ham, xohishi ham qolmasin»¹³⁰ - deb aytgan
fikri buning isbotidir. Temiry o'l orqali amalga oshirib borilgan talonchilik
siyosati ijtimoiy munosabatlarni keskin ravishda buzilib borishiga olib keldi.

Ikkinchidan, Rossiya mustamlaka o'lkalarda o'z hukmronligining poyde-
vorini mustahkamlash maqsadida assimilyatsiya, ya'ni rus millatiga mansub
aholi bilan mustamlaka xalqlarni aralashtirib yuborish orqali o'z maqsadiga
erishmoqchi bo'ldi. Bu borada chor Rossiyasining asosiy diqqat e'tiborida
bo'lgan ko'chirish siyosati alohida o'rin tutdi va bu siyosatni amalga oshirishda
temir yo'lining xizmatlari juda katta rol o'ynay boshladi. Podsho Rossiyasi
ko'chirish siyosati orqali imperiyaning ichki hududlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy
vaziyatning keskinlashuvini oldini olish, bu muammoni Turkiston hisobidan hal

¹²⁷ Vatan tarixi. (XVI–XX asr boshlari) / Shamsutdinov R. va boshq. Ikkinchi kitob – Toshkent: Sharq, 2003. – B. 255.

¹²⁸ Turkiston Chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. I-kitob. – Toshkent: Sharq, 2000. – B. 215.

¹²⁹ Mustabid tuzumning O'zbekiston milliy boyliklarini talash siyosati: tarix shohidligi va saboqlari
– Toshkent: Sharq, 2000. – B. 40.

¹³⁰ Rahimov J. O'zbekiston tarixin o'rganishda arxiv manbalaridan foydalanish. – Toshkent.
O'qituvchi, 1995. – B. 47.

etishga. aniqroq aytganda, Rossiyada kutilgan ijtimoiy ziddiyatlarni «Turkiston hisobiga hal etishga kirishildi. Turkiston general-gubernatorligi tashkil topishi bilan (1867-y.) rus aholisini ko'chirib keltirish boshlandi va o'lkaga ruslarni ko'chirib keltirish bilan shug'ullanuvchi maxsus idora «Ko'chirib keltirish boshqarmasi» tashkil qilindi. 1886-yili tasdiqlangan «Turkiston o'lkasini boshqarish haqidagi Nizom» o'lkaga rus aholisini ko'chirib keltirish yo'li bilan ruslashtirish harakatini qonunan mustahkamlab, unga siyosiy tus berdi¹³¹. 1875–1890-yillarda Turkistonga 1300 oila ko'chib kelib joylashib, 19 ta rus qishlog'i tashkil topdi, shuningdek 1892-yili sodir bo'lgan Rossiyadagi ocharchilik tufayli ko'chib kelayotganlar miqdori ko'payib bordi va uning oqibatida Turkistonni ruslashtirish siyosatida keskin burilish 1892-yilda boshlandi.

Turkistonga ko'chib keluvchilarni rag'batlantirish ishlari faollashdi. Rossiya ziroatchilik vaziri P. Krivoeshinning ko'chirish borasidagi puxta takliflari tufayli ko'chirish rejaları shu vazirlik zimmasiga yuklandi. 1905-yili vazirlik qoshida «Ko'chiruvchilik boshqarmasi» tuzildi. Bundan ancha ruhlangan Krivoeshin 1906 yili Turkistonning Sirdaryo hududida «ko'chiruvchilik rayoni» tashkil etilib, mahalliy aholi yerlarini rus dehqonlari tortib olib berish rejali tus oldi. 1910- yilga kelib Turkistonda 124 ta rus qishloqlari vujudga kelib, 1914-yilga qadar 1. 950000 rus, ukrain va boshqa millatlar ko'chirib keltirildilar. O'z manfaatini o'ylagan Rossiya 1896-1906-yillarda ruslarning chet o'lkalarga ko'chirilishi uchun 2,5-3 million, 1907-yilda 13 million, 1912-yili 26 million 481 ming oltin so'mda xarajat qildi¹³².

Xulosa o'rnida aytish mumkin, Turkiston temiryo'li o'lkaning barcha sohalariga Rossiyaning mustamlakachilik ta'sirini o'tkazishning quroli sifatida tarixdan joy oldi va uning ijtimoiy hayotdagi salbiy oqibatlarini quyidagi holatlarda ko'rish mumkin:

- Rossiyadan temiryo'l orqali Yevropa bozorlarida raqobatga dosh bera olmagan rus sanoatchilarining mahsulotlari Turkiston ichki bozorlariga yopirilib kirib kela boshladi, bu jarayon shundoq ham og'ir ahvolda yashayotgan mahalliy hunarmandlarni kasodga uchratdi;

- Paxta «vasvasasi»ning avj olishi va undagi tovlamachiliklar, sudxo'rliklar, mehnatga yarasha haq to'lanmaydigan hisob-kitoblar, o'lka dehqonlarini ekspluatatsiya qilishni kuchaytirilishi, rus sarmoyadorlarini foydasiga yetishtirilgan va sotilgan paxta xom-ashyosini Rossiyaga tashib ketilishi kuchaydi, shundoq ham turmush tarzi og'ir bo'lgan o'lka aholisini yanada qashshoqlashuviga zamin yaratdi;

- Podsho hukumatining ko'chirish siyosati o'lkada ruslarni ko'payishiga va mahalliy aholi bilan ziddiyatlarni keskinlashuviga, iqtisodiy hayotda ruslarni mavqei oshirilib, tub yerli aholining ehtiyojlari va manfaatlari inkor etildi,

¹³¹Turkiston Chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida... – B. 216

¹³²Tohir Qahhor Hur Turkiston uchun. – Toshkent: O'qituvchi, 1994. – B. 98

maishiy turmush tarzi hamda ijtimoiy ahvoli yanada og'irlashtirildi, unumdor yerlar mahalliy aholidan tortib olinib, davlat yerlariga aylantirilib, ko'chib kelganlar uchun ajratib berildi;

• Turkistonda barpo etilgan sanoatda mahalliy ishchilarning ishlashlari cheklanib, ular ko'proq darajada qishloq ho'jaligi ishlarida ushlab urishlari uchun chora-tadbirlarni ko'rib bordilar, o'lka sanoat korxonalari tarkibidagi mahalliy ishchilar uchun mehnatni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligiga umuman e'tibor berilmadi;

• Temiryo'llarning qurilishida Turkiston bu sohadagi tarmoqlarini faqat shimolga yo'naltirilib, boshqa mintaqalar bilan aloqalar bo'lmasligi uchun janubiy, sharqiy va g'arbiy yo'nalishlarda umuman temiryo'l qurilmadi, bo'lishi ham mumkin emasdi, Bir yarim ming yildan ziyod mavjud bo'lgan Buyuk Ipak yo'lining mavqei savdo-sotiq borasida zaiflashdi, savdo-sotiq monopoliyasi borasida imperiya nazorati temiryo'llar yordamida qo'lga o'tgach qadimiy karvon yo'llari o'z ahamiyatini yo'qotdi. Turkiston o'lkasida savdo munosabatlarida birinchi o'ringa Rossiya bilan tovar almashinuv savdosi chiqib oldi va mahalliy bozorlarida rus tovarlari monopoliyasi o'rnatildi.;

• Turkistonga kirib kelgan temir yo'l avvalo, Turkistondagi tabiiy va milliy boyliklarni talashda Rossiya uchun qulay vosita sifatida tarixdan joy oldi. Birgina Toshkent-Orenburg temir yo'lining ishga tushishi bilanoq, 1905-yilning o'zida 5 592000 pud, 1912-yili Turkistondan Orenburg orqali 504,8 mln, Krasnovodsk orqali 189,9 mln pud yuk olib ketildi.

Turkistonga temir yo'lining kirib kelishi Rossiya kapitalizmi uchun o'lka darvozalarining kaliti sifatida muhim rol o'ynaganligi, biroq mahalliy aholining maishiy turmush tarzida ijtimoiy-ma'naviy qashshoqlikka yuz tutishiga zamin hozirladi. O'lka aholisining milliy qarashlariga yot bo'lgan axloqsizlikni targ'ib qiluvchi odatlar, aroqxo'rlik, fohishabozlikni kirib kelishi sharqona xulq-atvor me'yorlarni izdan chiqardi. Turkiston ziyolilari va aholisi bunday adolatsizliklarga qarshi bir necha marta qarshi chiqishlar hamda isyonlar bilan (manbalarga ko'ra 1887-1897-yillarda birgina Farg'ona, Samarqand, va Sirdaryoning o'zida mustamlaka idoralariga 668 marta hujum uyushtirilib, 1887-1917-yillarda o'lkada 4922 marta isyonlar sodir bo'lgan¹³³) javob berdi.

Podsho Rossiyasining mustamlakachilik siyosatining yo'nalishi, mustabid tuzumning zo'ravonliklari va harbiy-politsiya tartiboti ostidagi boshqaruv tizimining o'rnatilishi Turkistonning ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy hayotiga katta talafotlar yetkazdi. Bu achchiq haqiqat juda katta tarixiy saboqdir va uni bilish mustaqillik qadrini anglash demakdir. Zero, Prezidentimiz I. A. Karimov aytganidek; «O'zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi»¹³⁴.

¹³³ Vatan tarixi. (XVI-XX asr boshlari) / Shamsutdinov R. va boshq. ... - B. 204.

¹³⁴ Karimov I. A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. - Toshkent: Sharq, 1998. - B. 5.

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING «BOBURNOMA» ASARIDA TOPONIMIK MA'LUMOTLAR

Abdulboqiyev F.

NamDU Tarix yo'nalishi 3-bosqich talabasi.

Bizga ma'lumki, tarix millatning haqiqiy tarbiyachisiga aylanib bormoqda. Buyuk ajdodlarimizning ilmiy hamda adabiy faoliyatlari va jasoratlari tarixiy xotiramizni jonlantirib, shakllantirib kelmoqda. Markaziy Osiyo tarixida siyosiy aql-idrok bilan ma'naviy jasoratni, diniy dunyoqarash bilan qomusiy bilimdonlikni o'zida mujassam etgan buyuk arboblarning ko'p bo'lgan. Bu olimlar qatoriga Imom Buxoriy, at-Termiziy, al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqalarni keltirishimiz mumkin. Ularning nomlari, jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan buyuk hissalarini bugungi kunda butun dunyoga ma'lum. Prezidentimizning: «Inson o'zligini anglagani, nasl-nasabini chuqurroq bilgani sari yuragida Vatanga muhabbat tuyg'usi ildiz otib, ulg'aya boradi»¹³⁵ - deganlari bugun hayotda o'z isbotini topmoqda.

Ajdodlarimiz haqida so'z ketganda, ularning orasida alohida o'ringa ega bo'lgan shoh va shoir, davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Boburning alohida ta'kidlashimiz joizdir. Bobur dunyoni hayratga solgan yirik davlat va madaniyat arbobi, mohir sarkarda, donishmand tarixchi, zakovatli olim va tarjimonidir. Shu bilan birga u adabiyotimizning Navoiydan keyingi zabardast vakili hisoblanadi.

Otasi Farg'ona viloyati hokimi Umarshayx Mirzo Amir Temurga to'rtinchi avlod – evara edi. Onasi Qutlug'nigorxonimning otasi Yunusxon esa o'n ikki avlod bilan Chingizxonga ulanardi. Ko'rinadiki, Bobur insoniyat tarixidagi ikki buyuk sulolaga tutashgan nuqtada dunyoga kelgan jahonning mashhur shaxslaridan biridir. Murakkab va ziddiyatli hayoti o'spirinlikdan to umrini oxirigacha jang-u jadallar, sarson-sargardonlikda, zafar va mag'lubiyat, ijod-u bunyodkorlik ichida kechdi. 1494-yilda otasi vafotidan so'ng 12 yoshli Bobur otasining taxtini egallaydi. Boburning taxtga kelishi albatta, siyosiy kurashlar avj olgan paytga to'g'ri keladi. Bobur yosh bo'lganligi uchun davlat ishlarini ishonchli beklardan Xoji qozi va o'qimishli oqila onasi Qutlug'nigorxonim yordamida boshqaradi¹³⁶. Dastlab Bobur o'zining amakilari hujumiga uchraydi. Bundan so'ng ukasi Jahongir Mirzo bilan kurashlar olib boradi. Bu isyonlarni bostirganidan keyin Dashti Qipchoqda paydo bo'lgan yangi bir kuch Shayboniyxon bilan to'qnash keladi. Shayboniylar bilan Bobur o'rtasida uch marta yirik jang bo'lib o'tadi. Oxirgi jang 1512-yil 24-noyabrda G'ijduvonda bo'lib o'tadi. Bu jangda Bobur yengiladi. Bobur endi Movoraunnahrdan

¹³⁵ Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. –B. 98.

¹³⁶ Usmonov Q., Jo'rayev U. O'zbekiston tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 2010. –B. 5.

tamoman umidini uzib. Kobulga qaytadi. Va 1526-yilga qadar Kobulni idora qiladi. So'ngra 1526-yil 21-aprelda Dehli hukmdori Ibrohim Lo'diy qo'shinlarini tor-mor keltirib Shimoliy Hindistonni egalladi. Shu yili 27-aprelda Dehlida Bobur podsho nomiga xutba o'qitildi. Shu tariqa Hindistonda Boburiylar sulolasiga asos solindi. 1530-yilning 26-dekabrda Bobur Agrada vafot etdi. Keyin uning hoki vasiyatiga ko'ra Qobulga ko'chiriladi.

Bobur xalqimizning har jihatdan yetuk g'oyat iste'dodli farzandi edi. Uning hayoti faqat janglar bilangina o'tmagan. U o'z hayoti davomida ko'rgan-kechirgan voqealarni asar tarzida yozib qoldirgan, o'zidan qimmatli manba qoldirgan olim sifatida ham mashhur bo'lgan. Jumladan u bir qator asarlar yozgan. Uning 1521-yilda she'riy yo'lda yozilgan soliq ishlarini tartibga soluvchi «Mubayyin al-Zakot» (Zakot bayoni) asari shu davr soliq turlari haqida hikoya qiluvchi ishonchli manbalardan biridir. Shuningdek, Boburning «Harb ishi» va «Musiqqa ilmi» asarlari hozirgi kunga qadar topilmagan. Uning dovrug'ini dunyoga mashhur qilgan asari bu «Boburnoma»dir. Bu asar jahon adabiyoti va manbashunosligida muhim va noyob yodgorlik: O'zbek adabiyotida dastlabki memuar, tarixiy-ilmiy asar hisoblanadi. Bu asar (taxminan 1518-1530-yillarda) eski o'zbek (chig'atoy) tilida yozilgan. «Boburiya», «Voqeati Bobur», «Voqeanoma» nomlari bilan ham ma'lum. Boburning o'zi esa «Voqea» va «Tarix» degan nomlarni ishlatgan. «Boburnoma»da 1494-1529-yillarda Markaziy Osiyo, Afg'oniston va Hindistonda sodir bo'lgan tarixiy-siyosiy voqealar yilma-yil, o'ta aniqlik bilan bayon qilingan bo'lib, ular muallif hayoti va siyosiy faoliyati bilan bevosita bog'liqdir¹³⁷.

Asarda ijtimoiy-tabiiy fanlar, tarix, falsafa, fiqh, din ta'limoti, tilshunoslik, jug'rofiyaga oid aniq va hanuzgacha o'z ahamiyatini yo'qotmagan xulosalar keltirilgan. Bundan tashqari Movarounnahr, Afg'oniston, Hindiston o'tmishi va zamonaviy holati xalqlari, qabilalari, ularning tili, madaniyati, kasb-hunari, urf-odati, shuningdek shu davr jamiyatiga xos ijtimoiy tabaqalarga tegishli ma'lumotlar bayon etiladi. Ayniqsa, bu asarda Farg'ona, Andijon, Samarqand, Qobul, Hirot, Agra kabi yirik shahar va viloyatlar jug'rofiy, ma'muriy tuzilishi, madaniy hayoti, tumanlari, aholisi, iqlimi, hayvonot dunyosi va o'simliklari haqida mufassal ma'lumot beriladi. «Boburnoma» asarida Afg'oniston, Hindiston shaharlari joylashish o'rni haqida, ularning kelib chiqishi haqida so'z yuritiladi. Shu bilan birgalikda, Bobur O'rta Osiyo hududiga ya'ni shu hududda joylashgan viloyatlar haqida turli xil ma'lumotlarni yozib qoldirgan. Bu shaharlar qatoriga Farg'ona, Samarqand shaharlari va shu nomdagi viloyatlar Ohangaron vodiysi, O'ratepa va uning atrofi, Andijon, Koson, Axi, Badaxshon, Chag'oniyon, O'sh, Marg'ilon, Xo'jand, Konibodom va shunga o'xshash yuzdan ortiq shaharlar toponimikasi haqida ma'lumotlar berilgan.

¹³⁷ Yo'ldashev Q., Qodirov V. Adabiyot. – Toshkent: Yangiyo'l, 2010. –B. 83.

Bizning hududimizdagi joy nomlari haqida «Boburnoma» da keltirilgan lavhalar:

Farg'ona. Bu hudud haqida so'z yuritilar ekan, Bobur viloyatga quyidagicha ta'rif beradi: «Emishki, Farg'ona viloyati beshinchi iqlimdandir. Ekin bitadigan yerning chetida voqe bo'libdir¹³⁸. Sharqi Qoshg'ar, g'arbi Samarqand, janubi Badaxshonning chegarasida. Tog'lar joylashgan ixcham viloyatdir. Oshlig' va mevasi farovon. Girdo-girdi¹³⁹ tog' voqe bo'libdir. G'arb tarafikim Samarqand va Xo'jand bo'lg'ay, tog' yo'qdir. Ushbu tarafdin o'zga hech tarafdin qish yog'iy kelmas. Sayhun daryosikim Xo'jand suyig'a mashhurdir. Sharq va shimol tarafdin kelib, bu viloyatning ichi birla o'tib, g'arb tarafga oqar. Xo'jandning shimoli, Farg'onaning janubi tarafidinkim, xolo Shohruxiyaga mashhurdir, o'tib yana shimolga mayl qilib Turkiston tomonga boradi. Turkistondan xiyla qiyaroq bu daryo tamom qumga singgan, hech daryoga quyilmas»¹⁴⁰.

Andijon. Yetti pora shaharchasi bor: beshi Sayxun suyining janub tarafida, ikki(si) shimol jonibida. Janubiy tarafidagi qasabalar(dan) biri Andijondurkim, vasatta¹⁴¹ voqe' bo'lubtur, Farg'ona viloyatining poytaxtidur. Oshlig'i vofir¹⁴², mevasi farovon, qovun va uzumi yaxshi bo'lur. Qovun mahalida poliz boshida qovun sotmoq rasm emas. Andijonning noshpotisidin yaxshiroq noshpoti bo'lmas. Movarounnahrda Samarqand va Kesh qo'rg'onidin so'ng mundin ulug'roq qo'rg'on yo'qtur. Uch darvozasi bor. Arki janub tarafida joylashgan. To'qqiz tarnov suv kirar. Bu ajabturkim, bir yerdin ham chiqmas. Qal'aning aylanasi tosh yoki sangrezalik¹⁴³ katta yo'l tushubtur. Qal'aning girdogirdi tamom mahallotdur. Bu mahalla bila qal'aga ajratuvchi ushbu xandaq yoqosidagi katta yo'l. Ovi qushi dog'i ko'p bo'lur, qirg'ovuli behad semiz bo'lur. Andoq rivoyat qildilarkim, bir qirg'ovulni uskunasini to'rt kishi yeb tugata olmaydur. Eli turkdur. Shahr va bozorisida turki bilmas kishi yo'qtur. Elining tili adabiy tilga muvofiqdir. Ani uchunkim amir Alisher Navoiyning asarlar qaysikim, Hirotda shuhrat topibtur, bu til biladur.

Elining orasida mahoratli kishilar bordur. Yusuf Xojakim musiqiyda mashhurdur, Andijoniydur. Havosining dimligi bor. Kuzlar el bezgak ko'p bo'lur.

Albatta bu ta'rif oradan yetti asr o'tgandan keyin ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Chunki, shahar me'morchiligida o'zgarishlar bo'lgan bo'lsa-da, tabiati va aholisi xususida berilgan tavsiflar o'sha-o'sha.

¹³⁸ voqe bo'libdir – joylashgan.

¹³⁹ Girdo-girdi – aylanasi.

¹⁴⁰ Z. M. Bobur. Boburnoma. –Toshkent: Yulduzcha, 1989. –B 5

¹⁴¹ Vasatta – o'rt

¹⁴² Oshig'lig'i vofir – g'allasi ko'p.

¹⁴³ Sangrezalik – shag'ali.

Marg'ilon. Bu shahar hozirda Farg'ona viloyatida joylashgan. Markaziy shaharlardan biri. «Boburnoma»da quyidagicha ta'rif berilgan:

Yana bir shahari bu Marg'ilondir. Andijon g'arbidadir. Andijondan yetti yig'och yo'ldir. Yaxshi kasaba voqe bo'libdir, purne'mat: anori va o'rigi xo'p bo'lur. Bir jins anor bo'lur «Doni Kalon» derlar, chuchukligida zardoli mayxushlig'idan andak choshni bor. Samnon anorlariga tarjeh¹⁴⁴ qilsa bo'lur. Yana bir jinsi o'rik bo'lurkim, donasini olib, ichiga mag'iz solib quruturlar «Subxoniy» derla, bisyori lazizdir. Ov qushi yaxshidir. Oq kiyik yovuqda bo'lur. Eli sardir va mushtuzan va purshar shul eldir. Jangarilik rasmi Movoraunnahrda shoedir, Samarqand va Buxoroda nomdor jangarilar aksar marg'inoniydir. Sohibi Hidoya Marg'iloniy Rushdon (Rishton) otlig' kentidir.

Konibodom. Konibodom kichik shaharcha emas. Yaxshigina kasabadir. Bodomi yaxshi bo'lur. Bu jihatdan bu ismga mavsumdir. Xurmuz va Hindistonga tamom buning bodomi borur. Xo'janddan besg-olti yig'och sharq ta'rafdadir. Xo'jand bilan Konibodom orasida bir dasht tushibdir, Xodarvesha mavsumdir. Hamisha bu dashtda el borur. Xo'jandning g'arbidir, doim bundan el kelur: tund yerlari bor. Derlarkim, bir necha darvesh bu vodiyida tun eliga yo'liqib, biri-birini topolmay, «xo darvesh, xo darvesh», deya halok bo'libturlar. Andin beri bu vodiyani Xodarvesh derlar.

Axsi. Sayhun suyining shimoliy ta'rafidagi shahardindur, biri Axsidir. Kitoblarda Axsikat biturlar, nechukkim, Asiriddin shoirning Asiriddin Axsikatiy derlar. Farg'onada Andijondan so'ngra bundan ulug'roq kasaba yo'qdir. Andijondin g'arb sori to'qqiz yig'och yo'ldir. Umarshayx Mirzo buni poytaxt qilub erdi. Sayhuh (Sirdaryo) daryosi qo'rg'onning ostidan oqar. Qo'rg'oni baland jar ustida voqe bo'lubtur. Xandaqning o'miga amiyq jarlardur. Umarshayx Mirzoning buni poytaxt qildi, bir-ikki marotaba tashqariroqdan yana jarlar soldi. Farg'onada buncha qo'rg'on yo'qtur. Mahallasi qo'rg'onidan bir shariy yiroqroq tushibdir. «Deh kujovu – daraxton kujo»¹⁴⁵ masalani g'olibi Axsi uchun aytibdurlar. Qovuni yaxshi bo'lur. Bir nav qovundirkim, «Mir Temuriy» derlar. Unday qovun ma'lum ermas olamda. Buxoro qovuni mashhurdir. Samarqandni olgan mahalda Axsidin, Buxorodin qovun keltirib, bir majlisda keltirdim. Axsi qovunini hech nisbati yo'q edi. Ov qushi yaxshi bo'lur. Sayhun daryosining Axsi ta'rafi dashtdir, oq kiyigi yaxshi bo'lur. Andijon ta'rafi changaldir».

Axsi xarobalari bugungi kungacha saqlnib qolgan. U yurtimizning Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumani Shahand qishlog'ida joylashgan.

Koson. Axsining shimolida joylashgan. Kichikroq shaharchadir. Nechukkim, Andijon suyi O'shdin kelur, Axsi suyi Kosondin kelur. Yaxshi

¹⁴⁴ Tarjeh – tasanno.

¹⁴⁵ Qishloq qayda-yu, daraxtlar qayda.

xavoliq' yerdur. Safoliq bog'chalari bor. Vale safoliq bog'chalari tamom soy yoqasida joylashgan.

Samarqand. Yer yuzining to'rt ta'rafida Samarqandcha latif shahar kamroqdur. Beshinchi iqlimdir. Shahri Samarqanddur, viloyatini Movarounnahr derlar. Hech yog'iy qahr va g'alaba ila qo'lga kirita olmagan uchun Baldai Mahfuza¹⁴⁶ derlar. Samarqand amirul mo'minin Usmon zamonida musulmon bo'lg'ondur. Sahobiddin Qusam Ibn Abbas anda borg'ondir. Qabri Ohanin darvozasining toshidadur. Hozir Shoh Mozori mashhurdir. Samarqandni Iskandar bino qilg'ondur. Mo'g'ul va turk ulusi Semizkand derlar. Temurbek poytaxt qilib edi. Temurbekdin burun Temurbekdek ulug' podshoh Samarqandni poytaxt qilg'on emastur. Qo'rg'onini fasilning ustidin, buyurdumkim, qadam urdilar, o'n ming olti yuz qadam chiqti.

Ma'muraning kanorasida voqe bo'lubtur. Sharqi Farg'ona va Koshg'ar, g'arbi Buxoro va Xorazm, shimoli Toshkand va Shohruxiyakim, Shosh va Banokat bitirlar, janubi Balx va Tirmiz. Ko'hak suyi shimolidin oqar, Samarqanddin ikki kuruh¹⁴⁷ bo'lg'ay. Bu suv bila Samarqand orasida bir tepalik tushubtur. Ko'hak (Cho'ponota) derlar. Bu daryo muning tubidin oqar uchun Ko'hak suyi derlar. Bu suvdin bir ulug' rud ayiribturlar, balki daryochadur. Darg'am suyi derlar. Samarqandning janubidin oqar, Samarqanddin bir 5-6 kilometr uzoqlikda joylashgan. Samarqandning bog'ot va mahalloti va yana necha tumonoti bu suv bila ta'minlangan.

Samarqand qal'asining ichida yana bir qadimiy imoratur, masjidid Laqlaqa derlar. Ul gumbazning o'rtasida yerga tepsalar, tamom gunbazdin laq-laq tovush kelur, ajablanarli hodisadir, hech kim muning sirrini bilmas.

Bundan tashqari olamda yaxshi qog'oz Samarqanddin chiqar. Juvozi yordamida tayyorlangan qog'ozlar, suyi tamom Konigildin keladur. Konigil Siyohob yoqasidadurkim, bu qora suvni Obirahmat ham derlar. Samarqandning yana bir matoi qizil baxmaldurkim, atrof va janubqa eltarlar.

Xulosa qilib aytganda, Boburnoma avtobiografik ocherklarni eslatuvchi voqea hikoyalardan iborat. Ularda muallif Movarounnahr, Afg'oniston, Hindiston kabi mamlakatlarda o'zi qatnashgan, ko'rgan yoki eshitgan voqealarni hikoya qiladi. Asarda tarixiy davr va Bobur hayoti sahifalari haqqoniy ifoda etilgan. Bobur asarni qiziqarli bo'lishiga diqqat qaratadi. Shuning uchun toponimik joy nomlari bilan bir qatorda xatto, jug'rofiy ma'lumotlarni ham kishi e'tiborini tortadigan yo'sinda berishga intilgan. Buni Andijonga to'qqiz ariq suvni kirishi va bittasini ham chiqib ketmasligi haqida ko'rishimiz mumkin. Bobur asarni sodda va tushunarli yozadi. Oradan shuncha vaqt o'tganiga qaramay asarning tushunilishi oddiy xalq uchun ham hech qanday qiyinchilik tug'dirmaydi.

¹⁴⁶ Muhofaza qilingan shahar.

¹⁴⁷ To'rt ming gaz (0.71 metrlik) uzunlik o'lchovi.

XIX ASR OXIRI - XX ASR BOSHLARIDA TURKISTON KASHTACHILIGI

*Mavlonov Adhamjon,
Namangan Davlat universiteti ijtimoiy-
iqtisodiy fakulteti O'zbekiston tarixi
yo'nalishi 2- bosqich magistranti.*

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach ko'p sohalarida bo'lgani kabi milliy madaniyatimizni tiklashga va uni alohida rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ma'lumki xalq moddiy madaniyatini xalq hunarmandchiligisiz tasavvur qilish qiyin. Shu ma'noda bugungi kunda ma'lum sabablar tufayli unutilgan hunarmandchilik turalarini tiklashga mavjudlarini yanada rivojlantirishga harakat qilinmoqda. Bu borada ilmiy izlanishlar ham olib borilmoqda.

Xalq hunarmandchiligi turlari ichida kashtachilik ham o'zining qadimiyligi va o'rganilish ko'lami kengligi bilan alohida o'rin tutadi. Kashta so'zining lug'aviy ma'nosi forscha "chizilgan", "tortilgan" degan ma'nolarni anglatadi. Kashtado'zlik yoki kashtachilik amaliy – bezak hunarmandchiligining qadimiy sohalaridan biri hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki kashtachilikning paydo bo'lishi teridan tayyorlangan kiyimlarda bog'lam va choklarning yuzaga kelishi bilan bog'liqdir¹⁴⁸.

Afsuski, Turkiston kashtachiligining qadimiy na'munalari bizgacha deyarli saqlanmagan. Bugungi kunda muzeylarimizda saqlanayotgan palak, so'zana, choyshab, zardevor, kirpech singari badiiy buyumlar va kashtali kiyimlarning eng qadimiylari asosan XIX asrga oiddir.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkiston kashtachiligi o'ziga hos tarzda rivojlangan edi. Hunarmandchilikning ko'plab sohalarida bo'lgani kabi bu sohada ham bir qator markazlar shakillangan edi. Xususan, Buxoro, Samarqand, Nurota, Shahrisabz, Farg'ona vodiysi va Toshkent kashtachiligi shular jumlasidandir. Bu davrdagi kashta choklari va kashta tikish uslublarining turli-tumanligi, undagi sirli ramzlarning turfa-xilligi kashtachilik san'at darajasiga ko'tarilganidan dalolat beradi.

Kashtado'zlar buyum bezaklarida amaliy-bezak hunarmandchiligining boshqa turlaridagi naqshlardan andoza olganlar, kashtalarda o'simliksimon tasvirlar, shoxlar, gulbandlar, guldastalar ko'p uchraydi. Naqsh mujassamotida asosiy bezak matoning o'rtasida bo'lib, hoshiyalar qo'shimcha bezak hisoblanadi. Ganchkorlik, yog'och o'ymakorligi, kandakorlik, naqqoshlikda uchraydigan ismiy gul naqshlar kashtachikilda ham ko'p uchrashi

¹⁴⁸ www.uz.wikipedia.org.

naqqoshlarning amaliy bezak san'atining turli sohalariga naqshlar tayyorlaganini ko'rsatadi.

Bu davrda kashta tikish turli usullarda matoga avvaldan axta (andoza) yordamida tushirilgan gul, tasvir, naqsh asosida, ba'zan matodan iplar sug'irilib tayyorlangan asosda ya'ni sanama uslubida bajarilgan. Garchi Yevropada XIX asming 2-yarmida kashta tikish mashinasi kashf etilgan bo'lsada¹⁴⁹. Turkistonda XIX asr oxiri XX asr boshlarida deyarli qo'l mehnatiga asoslangan kashtachilik saqlanib qolgan. Kashta tikishda asosan igna, ilmoqli igna, ilmoqli bigiz, angishvona, chambarak va boshqa ish qurollaridan foydalanilgan. Keng tarqalgan chok turlari kandaxayol, chindaxayol, xomdo'zi, yurma, iroqi popur, ilmoq, baxya kabilar edi. Kashtachilik markazlari nafaqat naqshlar va ramzlarning turfa xilligi balki kashta choklari bilan ham farqlangan. Masalan Buxoro, Nutota, Samarqand kashtachiligiga ko'proq yorma choki xos bo'lsa, Shahrisabz kashtachiligiga yo'rma, kandaxayol, iroqi choki xos, Toshkent kashtachiligiga esa bosma choki xosdir.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida tayyoirlangan kashtachilik mahsulotlari bugungi kunda yurtimiz muzeylarida saqlanmoqda. Toshkent Davlat san'at muzeyi kolleksiyasida saqlanayotgan XIX asr oxiriga oid kashta bunga misol bo'la oladi. Shahrisabzning bu qadimiy kashtasi nafaqat bezakdorligi va go'zal tasvirlari bilan, balki qo'shimcha xoshiya bo'ylab arab xarflarida tilak ifoda etilgan yozuvi mavjudligi bilan ham e'tiborni tortadi. Bu o'ziga hos yozuv-tilak kashtaning noma'lum muallifi bo'lgan bir qizga tegishlidir. Kashta to'q binafsha rangli matoga ipak bilan tikilgan. Yana bir e'tiborli jihati shuki so'zanadagi bezaklar va tasvirlar o'zaro bir-birini takrorlamaydi. Umuman bir so'z bilan aytganda ushbu so'zanani haqiqiy san'at asari deyish mumkin.

Bu davrda hatto otlarning mahsus yopqichlariga ham san'at darajasidagi kashtalar solingan. Fikrimizning isboti o'laroq, XX sar boshida Turkistonga kelgan va bunday bezaklarni o'z ko'zi bilan ko'rib hayratga tushgan nemis sayyohi va tadqiqotchisi Fon Shvarts shunday yozgan edi: «Zar bilan tikilgan ot yopqichini umrimda birinchi bor ko'rishim. Turkistonning quyosh nurlari ostida bezakli yopqich yopilgan otlar ajoyib taassurot qoldiradi. Markaziy Osiyo aholisi ranglar va qimmatbaho matolarni did bilan tanlashda kulrang osmon rangiga o'rganib qolgan Yevropa rassomlaridan ancha ustun turadi»¹⁵⁰.

Juda ko'p mamlakatlarda sayohatda bo'lgan ushbu tadqiqotchining yuqoridagi fikrlarini o'rganilayotgan davr yurtimiz kashtachiligiga berilgan o'ziga hos baho sifatida qabul qilishimiz mumkin.

¹⁴⁹ www.uz.wikipedia.org.

¹⁵⁰ Калтер Й. Аспекты культуры верховой езды // Каталог "Узбекистан. Наследники Шелкового пути". Штутгарт, 1997. –С. 174.

XIX ASR BIRINCHI YARMIDA FARG'ONA VODIYSI SHAHARLARINING IJTIMOIIY-IQTISODIY AHVOLI

Nurmatov Akram,

Tarix fanlari kafedراسi magistranti.

XIX asr birinchi yarmida Farg'ona vodiysi Qo'qon xonligining markaziy hududi hisoblangan. Olimxon (1798-1810), Umarxon (1810-1822-yy) va Muhammad Alixon (1822-1842) hukmronligi davrida Qo'qon xonligi taraqqiyoti yangi bosqichga ko'tarilgan. Xonlik O'rta Osiyodagi eng yirik davlatlardan biriga aylandi. Iqtisodiyot ham yuksalib, ichki va tashqi savdo taraqqiyoti aholining farovonligida o'z aksini topdi. Farg'ona vodiysining ham mavqei ko'tarilib brogan.

Bu davrda Qo'qon xonligi o'zining rivojlangan davrlaridan birini boshidan kechirdi. Mamlakat hududlari kengaydi, aholining farovonligi oshib bordi. Yangi iqtisodiy markazlar paydo bo'ldi. Bozorlar, karvonsaroylar, yo'llar qurildi. Soliq va pul tizimi nazorat ostiga olindi. Iqtisodiy aloqalar olib boruvchi mamlakatlarning soni ko'paydi.

Qo'qon xonligi davrida Farg'ona vodiysida yer egaligining quyidagi shakllari mavjud bolgan:

1. Amlok yerlar.
2. Xususiy mulk yerlar.
3. Vaqf yerlar.

Amlok yerlari bu davlat tasarrufidagi yerlar bo'lib, dehqonlarga ijara shaklida bo'lib berilgan. Mamlakatdagi butun yer davlatniki edi. Shuning uchun ham xususiy yer egalari aslida yerga emas, balki undan olinadigan mahsulot hamda shu yerlarda qurilgan imoratlaiga egalik qilar edilar. Xususiy yerlar bu xon oldidagi alohida xizmati uchun beriladigan yerlar bo'lib ulardan deyarli soliq olinmas edi. Mulklar ham turli shakilda bo'lgan. Masalan, biron jangda alohida xizmati uchun, elchilik munosabatlarini biron bir davlatga borib ijobiy kelishuv bilan qaytsa yoki xon qarindoshlariga berilgan xususiy yerlar. Vaqf yer egaligi asosan masjid, madrasa, xonaqoh kabi diniy muassalarga tegishli yerlar bo'lib uni dehqonlarga ijara shaklida dehqonlarga berilib undan kelgan daromatni asosan masjid va madrasalarga jixozlar sotib olish uchun ishlatishgan. Vaqf mulkini sadr – lavozimi egasi boshqargan. Undan kelgan daromadni esa mutavvali tasarruf etgan (bu ikki lavozimni avlodi tekshirilib keyin xon tamonidan tayinlangan ko'p xollarda bu lavozimlar otadan o'g'ilga meros bo'lib o'tar edi)¹⁵¹.

Farg'ona vodiysida deyarli har bir madrasa, masjid, qorixona, xonaqoh, ziyoratgoh, qabristonning o'z vaqf mulklari bo'lgan. Vaqflarning katta qismi asosan madrasa, masjid va qorixonalar hissasiga to'g'ri kelar edi. Xonlikda vaqf, xususan, savdo vaqflarining katta qismi madrasalarga ajratilgan. Qo'qondagi Muhammad Alixon madrasasiga (1829-yil qurilgan) poytaxtning

¹⁵¹ Qosimov Y. Qo'qon xonligi tarixi. – Namangan: Ibrat, 1994. – B. 58.

Jo'xori bozoridan olinadigan tarozi pullari va Qo'qon markaziy bozoridagi karvonsaroylardan biri vaqf sifatida ajratilgan. Shuningdek, madrasaga 41 ta do'kon ham vaqf qilingan. Madrasaga vaqf etilgan bu mulklardan yiliga 900 rublgacha daromad olgan¹⁵².

Xonlikda asosiy soliq – xiroj bolib, uning miqdori ekin ekiladigan yer maydoni va ekin turiga qarab 1/3–1/5 olinar edi. Qo'qon xonligida xirojni yig'ish shahar begi tomonidan sarkorga topshirilgan. Ko'chmanchi xalq 40 bosh hayvondan bir dona soliq to'lardi. Savdo karvoyalardan viloyat hokimi yoki uning vakili soliqni olardi. Chet eldan kelgan savdo karvonlari bir marta umumiy narxidan 2,5 foiz soliq to'lar edi. Shu va ko'chmanchilardan olinadigan soliqning nomi zakot edi.

Qo'qon xonligida soliqlar xossachi va beklklarga bo'lingan. Xossachi – bu daromad xon xazinasiga tushgan. Beklik – bu daromad bek xazinasiga tushgan. Viloyat hokimlariga xiroj va tanobona solig'larini olish huquqi berilgan.

Qo'qon xonligi savdo bojlari va soliqlaridan juda katta daromad olgan. Ulardan tushgan daromadning bir qismi xonlik qo'shinlarini qurol-yarog', mis va temir bilan ta'minlanishiga sarflanishi kerak edi. XIX asr 40-yillarida ya'ni xonlik xazinasiga Farg'ona vodiysi shaharlaridan katta miqdorda soliq yig'ib olingan. Xususan, bir yilda savdo soliqlari va bojlaridan Qo'qon va uning atroflari 100000 tillo, Toshkent 60000 tillo, Xo'jand 25000 tillo, Namangan 50000 tillo, O'ratepa 20000 tillo, Andijon 25000 tillo, Marg'ilon 10000 tillo daromad keltirgan. Xonlik xazinasiga bir yilda savdo bojlaridan jami tushgan daromad 282000 tillo edi¹⁵³.

XIX asr birinchi yarmida Qo'qon, Namangan, Xo'jand, O'sh, Andijon kabi Farg'ona vodiysi shaharlarining siyosiy va iqtisodiy markazlarning mavqei yanada oshib bordi. Shuningdek, bir qator yangi iqtisodiy markazlarga asos solindi.

XIX asr birinchi yarmida Farg'ona vodiysining iqtisodiy-siyosiy markazlari – Qo'qon, Marg'ilon, Namangan va Xo'jand hunarmandlari ip-gazlama (bo'z, chit, zandana), ipak matolar (kanoviz, shoyi, atlas va h.k.), yarim ipak matolar (beqasam, banoras, atlas) ishlab chiqarilgan.

Xonlikning poytaxti Qo'qon o'zining qog'ozi bilan O'rta Osiyoda yetakchi o'rinlardan birin egallagan. Qo'qonda ikkita qog'oz ishlab chiqarish korxonasi mavjud bo'lib, ularning biri shaharning «Mo'yi Muborak» darvozasi yaqinida, ikkinchisi, shahar yaqinidagi Chorku qishlog'ida joylashgan edi. Qo'qon

¹⁵² Madrahimov Z. Sh. Qo'qon xonligida vaqf ishlari tarixidan // Imom al-Buxoriy saboqlari. – Samarqand, 2009. – №1. – B. 55 – 58.

¹⁵³ Madrahimov Z. Sh. Qo'qon xonligi bojxonalari // Janiyat va boshqaruv. 2008. –Toshkent, – №3. – B. 98 – 100.

korxonalarida ishlab chiqarilgan qog'ozning bir dastasi 24 varoqdan iborat bo'lgan¹⁵⁴.

Farg'ona vodiysi shaharlarida taraqqiy etgan o'ziga xos hunarmandchilik turlaridan biri aravasoqlik edi. Aravasoqlik Qo'qon, Namangan va Marg'ilon shaharlarida rivojlangan bo'lib, Farg'ona vodiysida tayyorlangan aravalar «Qo'qon arava» nomi bilan O'rta Osiyoda tanilgan. Chunki, Qo'qon aravasoqlik va egar-jabduq tayyorlash bo'yicha O'rta Osiyoda yetakchilik qilgan. Qo'qon arava 25–40 pud'gacha yuk ko'tara olgan va asosan otlar yordamida manzilga olib borilgan. Bu aravalardan ichki va tashqi savdoda faol foydalanilgan. Xususan, XIX asr 20-yillarida Buxorda bo'lgan Ye.K. Meyendorf, «...qo'qonlik savdogarlar Buxoroga o'z mollarini aravada keltiradilar», – deb yozgan edi¹⁵⁵.

Qo'qon xonligida oltin va kumush juda kam bo'lib, oltin asosan Namangan bozorlariga Kosonsoydan keltirilgan bo'lsa, Alatau tog'laridan va Ketmontepa qo'rg'onidan kumushhamda Andijon yaqinidagi Laxona mavzesidan kumush va qo'rg'oshin qazib olingan hamda xonlik bozorlariga olib kelingan. Qo'qon xonligida Xo'jand atroflaridan selitra va oltingurgut ham qazib olingan. Temir xonlik bozorlariga asosan Rossiyadan olib kelingan va qisman Xo'jand atrofida mahalliy aholi tomonidan qazib olingan va mahalliy bozorlarga keltirilgan.

Qo'qon xonligida Farg'ona vodiysi shaharlarida metallurgiya sanoati va temir buyumlar ishlab chiqarish ham o'ziga xos tarzda rivojlangan. Bu soxada Qo'qon, Namangan va Andijon yetakchi mavqeiga ega edi. Shuningdek, metalga ishlov berish va undan turli buyumlar yasash markazi sifatida xonlikdagina emas, balki O'rta Osiyoda ham o'z o'rniga ega bo'lgan hududlardan biri Namangan hisoblangan. Namanganda qurolsozlik sanoati rivojlangan hamda bu yerda miltiq va qilichlar tayyorlangan¹⁵⁶.

Bu davrda Farg'ona vodiysining 5 ta metal buyumlar, asosan, pichoq ishlab chiqarish markazlari – Chust, Shahrison, Qo'qon, Poytug', Qorasuv shaharlari bo'lib, ularning uchtasini bozori Andijonda bo'lgan¹⁵⁷.

Farg'ona vodiysida zargarlik buyumlari tayyorlash bilan Qo'qon yaqqol ajralib turgan. Bu borada O'rta Osiyoda faqatgina Buxoro va Toshkent u bilan raqobat qila olgan.

¹⁵⁴ Хабибуллаев Н. Н. Коканд – центр производства писчей бумаги / Поздне-феодалный город Средней Азии. – Т.: Фан, 1990. – С. 164 – 168.

¹⁵⁵ Izoh: pud – 16,3 kg. ga teng og'irlik o'lchov birligi (O'zbekiston milliy entsiklopediyasi. – Toshkent, – №7. 2004. – B. 196.)

¹⁵⁶ Мейендорф Е. К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. – Москва, 1975. – С. 108.

¹⁵⁷ Madrahimov Z. Sh. Namanganing Qo'qon xonligi savdo aloqalarida tutgan o'rni //Moziydan Sado. –Toshkent, 2008. –№2. – B. 29–30.

¹⁵⁸ Musayev D., Hoshimov H. Andijonning XIX asr oxiri – XX asr boshlari davri hunarmandchiligi tarixini o'rganilishiga doir //Marg'ilon shahrining Jahon sivilizatsiyasi tarixidagi o'rni. Marg'ilon shahrining 2000 yillik yubeliyiga bag'ishlangan xalqaro ilmiy konferensiyasi materiallari. – Toshkent – Marg'ilon: 2007. – B. 123.

Qo'qon xonligi davrida Farg'ona vodiysi shaharlari xonlikning Buxoro amirligi, Xiva xonligi, Qashqar, Hindiston, Afg'oniston, Eron, Turkiya va Rossiya bilan bo'lgan savdo katta o'rinni egallagan. Farg'ona vodiysida karvonsaroylarida Hindiston, Tibet, Qashqar, Buxoro va Xiva xonliklari, Afg'oniston, Rossiyadan olib kelingan mollar bilan savdo qilingan yoki mol ayirboshlangan.

TURKISTON MILLIY OZODLIGI UCHUN KURASHGANLARNING MO'TABAR NOMLARI OQLANISHI

Boymirzayev.X.K.

Namangan Davlat universiteti

Tarix kafedrasi o'qituvchisi.

Ma'lumki, Turkiston xalqlari chinakam tarixini tiklash 80-yillarning oxirida boshlangan edi. Shu munosabat bilan 1917-yil «Oktyabr inqilobi» aslida Lenin boshliq bolsheviklarning davlat to'ntarishi ekanligi ayon bo'ldi. Sho'ro tuzumiga qarshi kurashgan kishilarning badnom etilgan aziz nomlari qayta tiklanib, xalqimizda Sovet mafkurasi ta'sirida ularga nisbatan adolatsiz qarashlar kayfiyatiga putur yeta boshladi. Jumladan nafaqat o'zbek xalqining, balki butun Markaziy Osiyo xalqlari milliy ozodligi uchun kurashgan, shu yo'lda halok bo'lgan Muhammadaminbek Ahmadbek o'g'li haqida ko'plab maqolalar chop etila boshlandi¹⁵⁸. «Grajdanlar urushi» deb atalgan Turkistondagi 1918-1923-yillardagi harakatlar aslo bir halq, bir mamlakat fuqarolari o'rtasidagi urush emas, balki yangi mustamlakachilik kishanlarini yana Turkiston xalqlari bo'yniga solishga uringan Lenin boshliq rus bolsheviklari bilan o'z milliy mustaqilligi uchun kurashgan mahalliy aholi vatanparvarlari o'rtasidagi urush ekanligi endilikda ravshan. Zero o'sha jangu jadallarning bir tomonida mahalliy aholi (o'zbeklar, qirg'izlar, tojiklar, turkmanlar, qoraqalpoqlar, uyg'urlar, qozoqlar) turgan bo'lsa, ikkinchi tomonda asosan rus bolsheviklari va ularga aldanib ergashgan odamlar edi.

Bu qadar qudratli, ayni vaqtda ziddiyatli, ammo mislsiz qahramonlik ko'rsatgan, ham talofat ko'rgan, ko'plab qurbonlar bergan va kurash 16 yil davom etgan milliy-ozodlik kurashidek tarixiy voqea jahon tarixida na XIX asrda, na XX asrda yuz bergan. Bu buyuk milliy kurash betakrordir. Sovet hokimiyati bu harakatni bostirish uchun 260-270 ming askar, zamonaviy qurollar bilan ish olib bordi. Yuz minglab yurtdoshlarimiz jon fido etdi, bir milliondan ziyod vatandoshlar xorijga chiqib ketdi, 1935-1939-yillarda o'n minglab mahalliy aholi «bosmachilar»ga qo'shilganlikda, yordam berganlikda, xayrixoh bo'lganlikda yoki ular haqida ma'lumot bermaganlikda ayblanib, Sibir, Uzoq Sharq, Shimolga surgun qilindi. Ayrim xorijdagi ma'lumotlarga

¹⁵⁸ Karim I. Madaminbek: (Qayta ishlangan ikkinchi nashr). «Sharq», - Toshkent: 2000. - 160 B

qaraganda, O'rta Osiyo mintaqasida jami 5 million 600 ming kishi bu yo`lda qurbon bo`lgan¹⁵⁹.

Bu hayot va mamot, el-yurt ozodligi uchun kurash jarayonida xalq orasidan ko`plab jasur sarkardalar, qo`mandonlar, qo`rboshilarning butun bir avlodi etishib chiqdi. Shahobiddin Yassaviyning «Turkiston achchiq haqiqatlari» kitobida 114 qo`rboshi haqida ma`lumot keltirilgan. Ular orasida Farg`ona vodiysida kichik va katta Ergashlar, Muhammad Aminbek (Madaminbek), Shermuhammadbek, Omon Pahlavon, Jonibek Qozi, Mahkam Hoji, Isroilbek, Axmad Polvon, Rahmonquli, Islom Pahlavon, Xorazmda Junaidhon, Zarafshon vodiysida Mulla Abdulqahhor, Jo`ra Amin, Murod Meshkob, Mitan Polvon, Sharqiy Buxoroda Ibrohimbek Laqay, Davlantmandbek va boshqalar bor. Bu vatanparvar zotlarning har birini maxsus tadqiq qilish lozim. Sho`rolar davrida ularning barchasiga xalq dushmani degan tamg`a yopishtirilgan, ular haqida biror og`iz ijobiy so`z aytilishning mutlaqo imkoni bo`lmagan, aksincha, ular keragicha yomonga chiqarilgan, chin tarix o`rnini yolg`on tarix egallagan edi.

Prezidentimiz tariximizga yangi kontsepsiya bo`yicha xolisona yondashuv nihoyatda dolzarb vazifa ekanini ta`kidlamoqda. Zero, «Odamzod borki, avlodajdodi kimligini, nasl-nasabini, o`zi tug`ilib voyaga yetgan qishloq, shahar, xullaski, Vatanining tarixini bilishni istaydi». Yurtboshimiz 1998-yil yoz oyida Farg`onada so`zlagan nutqlarida viloyatning ba`zi rahbarlari Madaminbek kim ekanligini aytilish olmaganidan taassuf bildirdilar. «Madaminbek shaxsiga, *uning suronli hayotiga*, bu millatparvar, isyonkor, oqil insonning salkam sakson yildan beri muammo bo`lib yurgan taqdiriga munosib baho berdilar». Ayni chog`da tarixiy xotiramizni tiklashga yordam beradigan bu shaxsga to`g`ri munosabat Farg`onada qaror topishiga ishonch bildirdilar¹⁶⁰.

Prezidentimizning 1999-yil 12-mayda chiqargan Farmoyishda Vatanimiz ozodligi va istiqloli uchun kurashlarda jon fido etgan, millatni hurriyat va erkinlikka chorlagan, sho`ro tuzumi davrida qatag`on qurbonlari bo`lgan minglab fidoyi insonlar xotirasini abadiylashtirish yosh avlodni mustaqillikni qadrlash ruxida tarbiyalashga xizmat qilajagiga e`tiborni qaratdilar. Shu Farmoyish munosabati bilan maxsus jamoatchilik komissiyasi tuzilib, ular mustamlakachilik sharoitida nohaq ayblanib, turli jazo va tazyiqlarga uchragan vatandoshlarimizni aniqlab ularning xotiralarini abadiylashtirish uchun tavsiyalar tayyorlashga kirishdilar.

Prezident Islom Karimov Ahmad al-Farg`oniy tavalludini nishonlash bilan bog`liq tadbirlar yuzasidan Quva va Farg`ona shahriga tashrif buyurib, keng jamoatchilik bilan qilgan suhbatlaridan birida istiqlol bayrog`ini baland ko`targan, milliy ozodlik kurashiga, qurolli harakatga bosh bo`lgan

¹⁵⁹ Xo`jayev M. Shermuhammadbek qo`rboshi (Tarixiy, hujjatli, badiiy-publitsistik qissa).- Toshkent: Sharq, 2008. – 304 B.

¹⁶⁰ Karim I. Madaminbek: (Qayta ishlangan ikkinchi nashr.).- Toshkent: Sharq, 2000. – 160 B.

sarkardalardan Madaminbek va Shermuhammadbeklarni eslab o'tgan edilar. Chunki haqqoniy tariximizning, yangi tarixini yaratishda buyuk istiqlolimiz yo'lida kurashgan ulug' zotlar, ma'rifatparvaru adiblar, qo'mondonu lashkarboshilarning hayot yo'li, faoliyati, taqdirini bilish, ularning betimsol ijtimoiy-siyosiy qiyofasini tiklash, bor haqiqatni hozirgi va keyingi avlodga yetkazish juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yurtboshimiz so'zlari bilan aytganda, xalqimiz o'sha mustabid sovetlar tuzumi davrida biri «qizil askar», «bosmachi», «quloq», biri «komissar» yana biri «mushtumzo'r» va «yo'qsil» deb guruhlariga ajratib tashlaagandi. «Bo'lib tashlab, hukmronlik qil» shiorini amalga oshirish uchun eng makkor, qabih usullar ishga solinib, bir millat vakillarini bir-biriga qayrash, adovat va nizo urug'ini sochish, shu yo'l bilan istiqlolchilar safini bo'lib yuborish, ularni alohida-alohida qirg'in qilish siyosati amalga oshirilgan edi. «Shu bois, - deb Islom Karimov takidlaganlaridek – ota - bobolarimizga ana shunday ranglar bilan ajratib, baho bermasligimiz, balki ularning hayotini, ular yashagan davr mohiyatini to'g'ri tushunishga harakat qilishimiz lozim».

Yurtboshimiz takidlaganlaridek, «bundan bir yuzi o'ttiz yil muqaddam xalqimiz milliy mustaqilligi va tarixiy davlatchiligini yo'qotib, mustamlaka asoratiga tushib qolgan edi. Shu davr mobaynida ajdodlarimiz, millatimiz mashaqqatli sinov va kurash yo'llarini bosib o'tdi»¹⁶¹.

Yuqoridagilar ma'lumotlardan kelib chiqib, shuni xulosa qilamizki nafaqat, Madaminbek va Shermuhammadbeklarni bulardan tashqari, Turkiston xalqi ozodligi uchun kurashgan va qon to'kib jonini fido qilgan jasur sarkardalar hamda ularning safdoshlari nomlarini ham ular qatorida birday e'zozlab, ardoqlab eslamog'imiz darkordir. Aytib o'tilgan barcha fikrlarni yosh avlod ta'lim-tarbiyasiga qanchalik chuqur va aniqlik bilan singdirar ekanmiz, Vatanimiz erkin va ozodligiga rahna sola olmaydi.

O'ZBEK MILLIY KIYIMLARINING MAROSIMIY XUSUSIYATLARI (MOTAM KIYIMLARI MISOLIDA)

B. R. Xalmuratov,

NamDU Tarix fanlari kafedrasi katta o'qituvchisi.

M. Odilova,

Tarix yo'nalishi I- bosqich talabasi.

Insoniyatning moddiy madaniyati taraqqiyotida turar joylar, an'anaviy kiyimlar va milliy taomlar muhim o'rin tutib kelgan. Chunki, moddiy madaniyatning mazkur tarkibiy qismlari xalq madaniyatning umummilliy xususiyatlarini aks ettiruvchi sohasi hisoblanadi. Qolaversa, o'zbek an'anaviy

¹⁶¹ Karimov I.A. O'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan qurmoqdamiz. «Turkiston» gazetasi muxbirning bergan savollariga javoblari. «Turkiston» gazetasi, 1999. 2 -fevral.

kiyimlari tarix bilan ham uzviy bog'liq bo'lib, u moddiy-madaniy yodgorliklar ichida xalqlarning milliy o'ziga xosligini aks ettirib, etnik belgilari bilan ajratib turadi.

Kiyimlar xalq madaniyatining boshqa ko'rinishlari singari uning turmush tarzi, estetik didi va milliy o'zligining ko'zgusi bo'lishi bilan bir qatorda etnogenez, etnik tarix va madaniyat tarixini o'rganishda ham muhim manbalardan biri hisoblanadi¹⁶². Bichish asoslari, shakl va turlari azaldan bir xil bo'lgan o'zbeklarning kiyim-kechaklari odamlarning yoshi, ijtimoiy ahvoriga qarab ularning rangi, matosi, ayrim tarkibiy qismlari jihatidan bir-biridan farq qiladi.

O'zbekistonning shimoli-sharqiy hududi hisoblangan Farg'ona vodiysi aholisi kiyimlarining shakllanish va qiyosiy tahliliga o'tadigan bo'lsa, bevosita o'zbek an'anaviy kiyimlariga borib taqaladi. Chunki kiyimlar boshqa xalqlar hududlararo etnoslar bilan o'zaro etnomadaniy aloqalari jihatidan ham xabar beradi. Shu bilan birga kiyimlar uzoq tarixiy yo'lni bosib o'tgan bo'lib, boshqa xalqlar kiyimlaridan o'zaro ta'sir, singib borish jarayonlari sezilib turadi. Shunday bo'lishiga qaramay, o'zbek xalqi o'z an'anaviy kiyim-kechaklarida moddiy madaniyati, turmush tarzidagi milliy, etnik xususiyatlarni saqlab qolgan. Asosan, kiyimlar ayollar, erkaklar va bolalarning bayram, kundalik marosim to'y, dafn va ish kiyimlariga bo'linib, ularning ijtimoiy holatidan kelib chiqadi. Bundan tashqari, kiyimlar iqlim, yashash joyiga ham bog'liq bo'ladi. Mahalliy sharoitda yashovchi etnik guruhlarning umumiy xarakterdagi kiyimlari mavjudligi, ularning tarixiy taqdirleri va madaniyatlari uzoq davr mobaynida shakllangan.

O'zbek milliy kiyimlari o'z navbatida kundalik, marosim va rasmiy kiyimlarga bo'linadi. Biz o'zimizning kichik bir tadqiqotimizda marosim kiyimlarining eng muhim turlaridan biri bo'lgan motam kiyimlarining o'ziga xos xususiyatlarini Namangan viloyati Yangiqo'rg'on tumanining Navkent qishlog'i o'zbeklari misolida yoritib berishga harakat qilamiz.

Navkent qishlog'ida ham boshqa tuman va qishloqlardagi kabi har bir marosim o'ziga xos tarzda o'tkaziladi. Turli xil bayram, tadbir va marosimlarda odamlar o'tkazilayotgan marosim mazmuniga qarab, liboslar kiyish odati mavjud.

Liboslari jihatdan boshqa marosimlardan anchagina ajralib turadigan marosim – aza marosimi hisoblanadi. Etnolog A. Ashirovning fikricha, Farg'ona vodiysining ba'zi bir hududlarida bemorning holati, ayrim harakati yoki shifokorlarning bergan ma'lumotlaridan bemorning non-nasibasi tugaganligi ma'lum bo'lib qolsa, qarindosh-urug'lari va farzandlari odob saqlab, buni unga bildirmaslikka harakat qiladilar. Biroq, kishi jon berayotganda uning oila

¹⁶² Шаниязов К., Исмаилов Х. Этнографический очерки материальной культуры узбеков конца XIX – начала XX в. – Ташкент, 1981. – С. 67.

a'zolari, uy egalari ma'lum tayyorgarliklar ko'rganlar: uy hovlilarni tartibga solganlar, oyna, rasmlarni berkitganlar. Kishi jon berayotgan uydan oziq-ovqat, idish-tovoq olib chiqilgan yoki ularning usti yopib qo'yilgan. Chunki jon chiqishida go'yoki qon sachrab xonadagi barcha narsalar nopok bo'lar ekan. Shuni alohida qayd etish kerakki, har qanday tayyorgarlik o'ta yashirin tarzda bajarilgan¹⁶³. Xuddi shunga o'xshash odat Navkent o'zbeklarida ham mavjud bo'lib, o'lik yotgan va unga tutash xonalarda mixlarga ilingan kiyimlar pastga olib qo'yiladi. Buning ma'nosi qishloq keksalaridan so'ralganida, mix qadimdan mustahkamlik ramzi bo'lib, bemorning jon berish jarayonini qiyinlashtirar ekan¹⁶⁴.

Aza marosimida Navkent qishlog'ida hozirgi kunda azador oila vakillari quyidagicha kiyinishadi:

Erkaklar azaldan qora rangdagi matodan tikilgan qavima chopon kiyishgan. Chunki, qora rang qadimdan turkiy xalqlarda azadorlik va o'z navbatida ulug'vorlik ramzi hisoblangan¹⁶⁵. Chopon ustidan esa bellariga qo'lda tikilgan belbog' bog'lab yurishgan. Boshlariga esa Namangan viloyatiga xos «Chust do'ppi» kiyib yurishgan. Chopon va belbog' aza marosimlari tugaguncha kiyib yuriladi. Do'ppi yil davomida kiyib yuriladi. Marhumning yil oshi marosimi o'tgandan so'ng esa yil davomida kiyilgan do'ppilar yechib qo'yiladi.

Yangiqo'rg'onning boshqa qishloqlarida bo'lgani kabi Navkentda ham marhumning yaqin qarindoshlari bellarini bog'laganlar. Bel bog'lashda asosan, ko'k mato ishlatilgan, u azadorlar tomonidan «ko'k kiydi» marosimida azadorlik belgisi sifatida kiyiladi.

Bu marosimda ayollarning ham kiyimlari o'ziga xos ustubda bo'lib, ular aza paytida egnilariga zangor, qora va yoki ko'k rangdagi ko'ylaklarni kiyganlar. Boshlariga esa birinchi ichki durra, ustidan katta oq yopinchiqli ro'mol yopinadilar. Oq yopinchiq ustidan esa yana kichik durra o'raydilar. Oyoklariga kalish va maxsi kiyadilar. O'z navbatida shuni qayd etish kerakki, maxsilar ayollarga kelinlik sepida solingan bo'lib, ular hozirgi kunda faqatgina motam marosimlarida kiyilmoqda¹⁶⁶.

Shimoliy Farg'ona tojiklarida XX asr boshlarida eri vafot etgan ayol aza tutib, qora kiyim kiygan, otasi o'lgan erkaklar esa qora do'ppi kiyganlar¹⁶⁷. Dala tadqiqotlari jarayonida yuqoridagidek qora rangli kiyim kiyish odati bugungi kunda uchramasligi aniqlandi. Hozirgi davrda Yangiqo'rg'onning

¹⁶³ Qarang: Ashirov A. O'zbek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimlari – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007 – B. 120.

¹⁶⁴ Dala yozuvlari. Namangan viloyati Yangiqo'rg'on tumani Navkent qishlog'i. 2014-yil.

¹⁶⁵ Qarang. Mingboyyeva D. Timsollar tilsimi. – Toshkent. Yangi asr avlodi, 2007. – B. 44.

¹⁶⁶ Dala yozuvlari. Namangan viloyati Yangiqo'rg'on tumani Navkent qishlog'i. 2014-yil.

¹⁶⁷ Qarang: Ashirov A. O'zbek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimlari. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007. – B. 120

deyarli barcha qishloqlarida azadorlik belgisi sifatida asosan ko'k rangli kiyimlar kiyiladi¹⁶⁸.

Azador ayollar boshqa azador qarindoshlardan farqli o'laroq, biror-bir turdagi materialdan bellariga belbog' qilib bog'lab olganlar. Buni ma'nosi keksa ayollardan so'ralganida, aza uzoq davom etadigan marosim bo'lib, mazkur belbog'lar belga quvvat berar ekan¹⁶⁹. Ayollar qabriston ziyoratiga chiqish yoki ko'chaga chiqishdan oldin oq yopinchiq tashlab oladilar. Aza marosimining ma'lum bir vaqti o'tganidan keyin esa ular boshlaridagi tashqi durra va beldagi belbog'lar yechiladi. Azador ayollar "yiloshi" marosimigacha egnilaridagi aza kiyimlarini kiyib yuradilar. Ayollar "yiloshi" marosimidan so'ng biror-bir kunni belgilab, «oq kiydi» marosimini o'tkazadilar. Bu marosimda ular kiyib yurgan aza kiyimlarini tashlab, ochiqroq rangdan tikilgan liboslarga almashtiradilar. O'z navbatida shuni vodiyning ayrim hududlarida kiyilgan aza kiyimlari «oq kiydi» marosimidan keyin buzib, ko'rpa-to'shak qilinadi¹⁷⁰. Navkentda esa mazkur aza kiyimlari hech narsaga ishlatilmay, marosim o'tganidan keyin tashlab yuboriladi yoki mevali daraxt tagiga ko'miladi¹⁷¹.

Xulosa sifatida shuni qayd etish lozimki, motam kiyimlari zamonaviy taraqqiyot yutuqlari natijasida transformatsiyaga uchramoqda. Lekin, motam kiyimlaridagi ranglar bugungi kunda ham o'z ahamiyati yo'qotmagan.

QO'QON XONLIGIDA MADANIY HAYOT

X. Mamadaliyev, D. Yusuffjonov.

Qo'qon xonlari Farg'ona vodiysini, Xo'jand, O'ratepani birlashtirgach, Qo'qon xonligining mustaqilligi XVIII asr o'rtalarida Buxoro davlati tomonidan tan olindi. XVIII asr oxirlarida Qo'qon xonlari Toshkentni bo'ysindirishga kirishadilar. 1784 -yilda Shayhontohur dahasi sobiq hokimining o'g'li Yunusxo'ja Toshkentni Buxoro tobeligidan chiqarib, mustaqil siyosat yuritardi. Toshkent bekligi o'ziga xos boshqaruv tizimiga ega edi. Yunusxo'janing to'rt maslahatchisi bo'lgan-Toshkent shahar nazorati va soliq yig'ish Boshchixo'janing qo'lida bo'lib, savdo-sotiqni qozi va devonbegi nazorat qilishgan. shariat qonun-qoidalari, narx-navo, o'lchovlar ustidan Rais lavozimidagi amaldor nazorat qilgan. Yunusxo'ja XVIII asr oxirlarida qozoq urug'lari hujumlarini bartaraf etib Sayram, Chimkent, Turkiston, Qurama,

¹⁶⁸ Dala yozuvlari. Namangan viloyati Yangiqo'rg'on tumani Iskovot va Buloqboshi qishloqlari. 2014 yil.

¹⁶⁹ Dala yozuvlari. Namangan viloyati Yangiqo'rg'on tumani Navkent qishlog'i. 2014- yil.

¹⁷⁰ Dala yozuvlari. Farg'ona viloyati Dang'ara tumani Tumor qishlog'i. 2014- yil.

¹⁷¹ Dala yozuvlari. Namangan viloyati Yangiqo'rg'on tumani Navkent qishlog'i. 2014-yil

Qorabuloq shaharlarini Toshkent bekligiga bo'ysundirgan edi. Toshkent bekligi mavqeining oshib borishi Qo'qon xonlariga yoqmad.

1799-yilda Qo'qon xoni Norbo'tabiy Toshkentga yurish qildi, ammo, Chirchiq bo'yidagi jangda mag'lubiyatga uchradi. Yunusxo'ja vafotidan keyin Qo'qon xoni Olimxon qo'shinlari yurish qilib, 1809-yilda Toshkentni va unga qarashli hududlarni Qo'qon xonligiga bo'ysundiradi¹⁷².

Xonliklar tarixi iqtisodiy va madaniyat hayotning bir tekisda bormaganligidan, ayrim davrlarda siljish kuzatilsada, xonliklar o'rtasidagi o'zaro kurash avj olgan yillarda esa tanazzullik hollari yuz berganligidan guvohlik beradi.¹⁷³

Qo'qon xonligi tarixini o'rganishda Mirza Qalandar Mushrifning «Shohnomai Umarxon», Mulla Niyoz Muhammad ibn Mulla Ashur Muhammad Ho'qandiyning «Tarixi Shohruhiy», Avaz Muhammad attor Ho'qandiyning «Tarixi jahonnamoyi», Muhammad Solihning «Tarixi jadidai Toshkand» kabi asarlar ham muhim manbalar hisoblanadi.

Xonliklarda yuzlab olimlar, shoirlar ijod qilganlar. Tibbiy ilmni rivojlantirishga olim Sulton Ali katta hissa qo'shgan. U inson tanasi kasalliklari va ularni davolash to'g'risida «Dastur al iloj» va «Muqaddimai dastur al iloj» asarlarini yozgan. XVI asrda Buxoro xonlari huzurida tabiblik qilgan Muhammad Yusuf va Shoh Ali ko'z kasalliklari va ularni davolashga doir «Ko'z tabiblari uchun qo'llanma», «Ko'z kasalligiga oid asarlar sarasi» asarlarini yozganlar¹⁷⁴.

Xonliklarda shoiru fozillar adabiyot sohasida ijod qilganlar. Buxoroda ijod etgan Mirza Sodiq Munshiy 15 ming g'azal va masnaviylardan iborat «Devon» kitobini yaratdi. Fazliy, Mushrif, Maxmur, Gulxaniy va boshqa ko'plab qalam sohiblari XIX asrning birinchi yarmida Qo'qonda ijod etdilar. Qo'qonda adabiy muhitning rivojiga Umarxon va uning xotini Nodirabegim katta xissa qo'shdilar. Ularning taklifi bilan saroy shoirlari Fazliy va Mushrif Qo'qon shoirlarining «Majmuat ush-shuaro» nomli taskirasini yaratdilar, unga ko'plab ijodkorlarning she'rlari kiritilgan edi. Qo'qon xoni Umarxonning «Amiriy» taxallusi bilan go'zal va nafis she'ru g'azallar bitganligi ham ma'lumdur¹⁷⁵.

Musiq va qo'shiqchilik san'ati ham ancha rivoj topib bordi. Puflab yoki urib chalinadigan torli musiqa asboblari, milliy qo'shiqchilik, milliy raqs aholi o'rtasida keng tarqalib bordi. Qo'shiqchilikda terma, lapar, yalla, maqom janrlari keng qo'llanilardi. Hofizlar, baxshi dostonchilar xalq tomonidan e'zozlanar edi,

¹⁷² O'zbek davlatchiligi tarixi // Tuzuvchilar Boboyev H. va boshq. – Toshkent: Sharq, 2009. – B. 5.

¹⁷³ Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. 1-kitob. – Toshkent, Sharq, 2000. – B. 25

¹⁷⁴ Sagdullayev A., Norqulov N. O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti. – Toshkent: Akademiya, 2002. – B. 94.

¹⁷⁵ Vohidov Sh. Qo'qon xonligi va Buxoro amirligida unvon va mansablar. – Toshkent: Fan, 1996. – B. 22.

to'y va sayillarda «Go'ro'gli», «Kuntug'mish», «Shoxsanam va G'arib», «Tohir va Zuhra» kabi o'zida vatanparvalik, mardlik, sevgi, mehr, insof va diyonat g'oyalari mujassamlashgan dostonlar zo'r maroq bilan kuylanar va tinglanar edi. Shuningdek, xalq orasida qiziqchilik, masxarabozlik, askiyabozlik, qo'g'irchoqo'yini, dorbozlik san'ati ham keng tarqalgan edi¹⁷⁶.

TURKISTONDA MA'RIFATCHILIK HARAKATINING BOSHLANISHI VA XUSUSIYATLARI

B.B.Ibrohimov,

*NamDU Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va
huquq ta'limi kafedrasi o'qituvchisi*

Ma'rifatchilik asosan uch soha orqali tezkor tarzda taraqqiy topib bordi. Bular – maorif (yangicha maktablar ochish, ta'lim usulini yangilash), san'at (badiiy adabiyot, teatr) va matbuot. Pirovard maqsad millatni, bir tomondan, ilmi-ma'rifatli kilish bo'lsa, ikkinchi tomondan, uning axloqiy darajasini yuksaltirish va ana shu ikki jihatning uyg'unlashuvi natijasida o'zligini, o'z qadrini anglagan bilimli shaxsni voyaga yetkazish edi. Turkiston ma'rifatchilari tomonidan ana shu maqsadni amalga oshirish yo'lida katta ishlar qilindi.

Turkiston XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya tomonidan bosib olindi va mustamlakaga aylantirildi. Bu mustamlakachilik mohiyatini Turkiston o'lkasi general-gubernatorlaridan biri A. N. Kuropatkinning o'z kundaliklaridagi qaydlari, biz Turkiston xalkdarini yarim asr mobaynida jahon madaniyati va sivilizatsiyasidan chetda tutib turdik, qabilidagi so'zlari yaqqol anglatadi. Lekin, ayni paytda, rus taraqqiyparvar ziyolilari orkali rus va jahon ilm-fani va madaniyati imperiya ma'muriyati to'siqlari orasidan Turkistonga sizib kirar edi. Shu ijobiy ta'sir asta-sekinlik bilan mazlum Turkistonda yangi Uyg'onish davrini boshlab berdi. Mahalliy ziyolilar orasida yz xalqini ozod ko'rishga va jahonning boshqa millatlari bilan tenglasha oladigan darajaga olib chiqishga intilish natijasida bu Uyg'onish Yevropa ma'rifatchiligiga nisbatan juda shiddatkor hamda miqyosli bo'ldi. Shuningdek, O'rta asrlar o'rtaga tashlagan ma'rifatparvarlik g'oyalari uchun ham endilikda amaliy shakllarda yangicha – ma'rifatchilik tarzida namoyon bo'lish imkoniyati yaratildi. Zero, o'sha goyalarni yangilangan shakllarda amalga oshira oladigan faoliyatli ziyolilar vujudga kelgan edi. Ularni keyinchalik jadidlar deb atay boshladilar.

Turkiston ma'rifatchiliginingdastlabki boskichlarida axloqiy g'oyalar, asosan badiiy va didaktik shakllarda o'z aksini topdi. Shu jihatdan o'zbek va tojik xalqlarining mutafakkiri Ahmad Donishning (1827–1897-yy) «Navodir ulvaqoe» asari diqqatga sazovor. Ahmad Donish o'z asarlarida Buxoro

¹⁷⁶ Mullo Olim Maxdum Hoji. Tarixi Turkiston... –B. 10.

amirligining davlat tuzumini Rossiya imperiyasi davlat tuzumi bilan solishtirib, uni isloh qilish lozimligini ta'kidlaydi. Ayni paytda, an'anaviy axloqiy tushunchalar bilan fikr yuritar ekan, u adolatni ham podsho-ukmdor shaxsiga, ham davlat tizimiga xos fazilat sifatida olib qaraydi. Agar hukmdor adolatli siyosat yurgizsa, mamlakat hayotining hamma sohasi uchun adolatni mezon qilib olsa, san'atning gullab-yashnashiga yo'l ochib bersa -- xalq hayoti farovon bo'ladi, fazilatlar kuchayib, illatlar zaiflashadi. Hukmdor donishmandlik fazilatiga, albatta ega bo'lishi lozim, davlatning mohiyatini aql belgilaydi, degan xulosaga keladi: oqilona boshqarilgan mamlakat aholisigina ma'rifatli va yuksak axloq egalari bo'la oladi.

Shuningdek, Ahmad Donish o'z davridagi johillik, riyokorlik, poraxo'rlik singari illatlar jamiyatni tanazzulga olib borishini ta'kidlar ekan, din peshvolarining noto'g'ri yo'lga kirib ketganini, shayxlarning yolg'onchiligini, ulamolarning poraxo'rligini fosh qiladi.

Qoraqalpoq xalqining buyuk mumtoz shoiri Berdaq (1827–1900-yy) she'rlarida ham o'sha davr axloqiy muhiti o'z aksini topadi; u ham din peshvolarining o'zlari oxiratga ishonmasliklarini, tovlamachilik, ochko'zlik, tekinxo'rlik illatlariga muhtalo bo'lganliklarini va bu bilan Islom ildiziga bolta urayotganliklarini qattiq tanqid ostiga oladi.

Buyuk o'zbek mumtoz shoirlari Furqat (1858–1909-yy), Muqimiy (1859–1903-yy), Dilshodu Barno (1800–1906yy) asarlaridagi axloqiy qarashlar taraqqiyparvarlik g'oyalari bilan chambarchas bog'lanib ketadi. Chunonchi, Furqat «Ilm xosiyati», «Gimnaziya», «Tarjimai hol» kabi asarlarida ma'rifatli bo'lish yuksak axloq egasiga xos xislat ekanini, lekin, afsuski, nodonlik oxir-oqibat turli xulqiy notavonliklarga olib kelishini ta'kidlaydi. Shoir g'azallaridan birida alam bilan shunday deb yozadi:

Charxi kajraftorning bir shevasidin dog'men,

Ayshni nodon surib, kulfatni dono tortadur.

Muqimiyning hajviy asarlarida esa o'sha davrda avj olgan firibgarliklar, amaldorlarning noinsofligi, adolatsizligi qattiq tanqid qilinadi. Shoiming «Voqeari Viktor», «Voqeari ko'r Ashurboy hoji», «Tanobchilar», «To'y» singari asarlari Turkiston xalqlari oyog'idan tobora tubanlikka tortayotgai illatlarni ayovsiz fosh etadi. O'sha davrdagi boylarning nafsdan boshqa narsani bilmasliklarini, fahshu maishatga yuztuban ketganliklarini, chor atrofda adolatsizlik hukmronlik qilayotganini alam bilan yozadi.

Mahkamov Qodirjon,

NamDU o'qituvchisi.

Vatanimiz mustaqilligi yildan-yilga tarixiy xotirani tiklash, an'ana va qadriyatlarimizni e'zozlash, ularni zamon talablari asosida boyitish va rivojlantirish, o'zligimizni anglash, dunyo hamjamiyatida munosib o'rin egallash uchun ulkan imkoniyatlar yaratib kelmoqda. Xalqimizning istiqbol yillarida bosib o'tayotgan tarixiy yo'lning naqadar buyukligi, amalga oshirilayotgan umummilliy dastur va rejalarining benihoya serqirraligini ko'rsatmoqda.

Dunyo hamjamiyati bilan iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va madaniy aloqalarni keng yo'lga qo'yayotgan O'zbekiston hozirgi tarixiy davrda jahon afkor ommasiga o'zining boy tarixi, ma'naviy qadriyatlari, madaniy merosini namoyon qilishi zarur. Shuning uchun O'zbekistonda yashayotgan har bir fuqaro – u xoh yosh bo'lsin, xoh qari, o'tmishimizni, ma'naviyatimizni chuqur bilmog'i darkor. Ayni paytda o'qimishli, ziyoli har bir inson hozirgi dunyoning mafkuraviy manzarasidan xabardor bo'lishi, jahonda yuz berayotgan g'oyaviy-ma'naviy silsilalar to'g'risida ob'ektiv ma'lumot va bilimga ega bo'lishi lozim.

Mustaqillik yillarida tarixni o'rganish va yoritishga yangicha yondashuvlar shakllandi, tarixiy xotirani tiklashga jiddiy e'tibor qaratildi, o'tmishga maxliyo bo'lib, bugungi va ertangi kunni unutishdek illatlarga qarshi profilaktika choralari ko'rildi. Shu asnoda bir qator yo'nalishlar bo'yicha ma'naviy-ma'rifiy, ta'lim-tarbiyaviy hamda tashkiliy ishlar amalga oshirildi. Ma'naviy tarbiyani takomillashtirish, tarixni xolis yoritish va ratsional tarixiy ongni shakllantirish chora-tadbirlari ko'rildi.

Ayniqsa, yosh avlodning tarixiy ongini yangilash, yuksaltirish asosiy vazifa sifatida belgilandi. Boisi, Yurtboshimiz ta'kidlaganidek, «Biz xalqimizni dunyoda hech kimdan kam bo'lmasligi, farzandlarimizni bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta, baxtli bo'lib yashashlari uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etayotgan ekanmiz, bu borada ma'naviy tarbiya masalasi, hech shubhasiz, beqiyos ahamiyat kasb etadi. Agar biz bu masalada hushyorlik va sezgirligimizni yo'qotsak, bu o'ta muhim ishni o'z holiga, o'zi bo'larchilikka tashlab qo'yadigan bo'lsak, muqaddas qadriyatlarimizga yo'g'rilgan va ulardan oziqlangan ma'naviyatimizdan, tarixiy xotiramizdan ayrilib, oxir oqibatda o'zimiz intilgan umumbashariy taraqqiyot yo'lidan chetga chiqib qolishimiz mumkin.»¹⁷⁷

¹⁷⁷ Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat. 2008. – B. 4.

Darhaqiqat, ma'naviy tarbiya jiddiy e'tiborni talab qiladigan, insonning shaxs bo'lib shakllanishida eng asosiy rol o'ynaydigan soha bo'lib, uning muhim funksiyalaridan biri tarixiy ongni rivojlantirish, tarixiy xotirani saqlashdir. Ma'naviyatli shaxs o'z xalqi tarixini, ajdodlari qoldirgan merosni, milliy qadriyat va imkoniyatlarni bilishi kerak. Ma'naviyatni anglash uchun esa kishida tarixiy ong shakllangan, tarixiy xotira «kristallashgan» bo'lishi zarur. Tarix, tarixiy ong xalqning kelajagi uchun poydevor rolini o'taydi, insonga o'zligini anglash hamda butun olamni bilishga yordam beradi.

Tarixiy ong, tarixiy xotira hozirgi davrga kelib umuminsoniy ma'naviy hayotdagi global muammoga aylandi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Muayyan geosiyosiy kuchlar butun olam bo'ylab axloqsizlik retsidivlarini yoyishga, qadimdan yashab kelayotgan olijanob an'analarni tahqirlashga, tarixni soxtalashtirib, yoshlar va kattalar orasidagi vorisiylikka rahna solishga urinmoqda. Shu asnoda, tarixiy ong shakllanadigan sotsial-demografik zamin – yoshlar, shu jumladan ularning eng faol qismi – butun dunyoda ham, bizning mamlakatimizda esa, mutloq ko'pchilikni tashkil qiladigan o'quvchi yoshlarda tarixiy ong shakllanishining dinamikasi va statistikasini o'rganish sotsiologiyaning muhim vazifalaridan biridir.

YETTISUV VILOYATIDA RUS POSYOLKALARINING TASHKIL ETILISHI TARIXIDAN

I.Qo'ziqulov,

Tarix fanlari kafedrası katta o'qituvchisi.

Yettisuv viloyatida rus ma'murlari tomonidan dastlabki posyolkalarning tashkil etilishi XIX asrning birinchi yarmidan boshlangan edi. Dastlab chegara xududni mustahkamlash va doimiy harbiy kuch ishtiroki maqsadida kazaklar stanitsalari barpo etilgan. K. K. Palenning ma'lumotiga ko'ra, shu asnoda 1847-yilda Kopal, 1848-yilda Sergiopol, 1854-yilda Verniy, 1855-yilda Verxno-Lepsinsk tashkil etilgan¹⁷⁸. A. A. Polovtsov hisobotida esa Sergiopolga bir necha yil ilgari, ya'ni 1831-yilda asos solinganligi haqida ma'lumot bergan¹⁷⁹. Shu tariqa qisqa muddat ichida, ya'ni 1867-yilgacha 14 ta stanitsadan (14413 kishi) iborat kazaklar qo'shini ham tashkil etilgan¹⁸⁰. Chegeragada

¹⁷⁸ Переселенческое дело в Туркестане. Отчёт по ревизии Туркестанского края, произведенной по высочайшему повелению сенатором гофмейстером графом К.К. Паленом. С.-Петербург. 1910. – С. 7.

¹⁷⁹ Отчет чиновника особых поручений при министре внутренних дел А. А. Половцова. С.-Петербург, 1898. –С. 5.

¹⁸⁰ Отчет чиновника особых поручений .. – С. 5.

joylashtirilgan Sibir kazak qo'shini tarkibidagi kazaklar o'z yerlarini kengaytirishib janubga siljib borganlar va viloyatda birinchi bo'lib o'z stanitsalarini tashkil qilganlar. Sibir kazaklaridan so'ng Orenburg kazaklari, ulardan keyin esa Ural kazaklari Yettisuvda joylashganlar. Asosan, baliqchilik bilan shug'ullangan kazaklarning posyolkalari yirik suv havzalari yaqinlarida, ya'ni Sirdaryo qirg'oqlari, Orolbo'yi va Kaspiy dengizining sharqiy qirg'oqlarida ham vujudga kela boshlagan¹⁸¹. Dastlabki ko'chirilganlar orasida harbiy mustamlakachilargina emas, balki umumiy harbiy majburiyat to'g'risidagi qonunga bo'ysunmaganliklari uchun surgun qilinganlar ham bor edi¹⁸².

Podsho hukumati uchun kazaklardan foydalanish qulay edi: birinchidan kamxarajat ekanligi bo'lsa, ikkinchidan esa ichki tartibni saqlashda politsiya vazifasini bajarishi mumkinligidadir¹⁸³. Shunday bo'lsada, hukumatning kazaklarni o'lkaga ko'chirish rejasi o'zini oqlamadi. Kazaklar mahalliy hokimiyatga va mavjud tartib intizomga bo'ysunishni xohlashmas edi. Ular boshqa ko'chib kelganlar qatorida belgilangan imtiyozlardan foydalanishi mumkin bo'lsa-da belgilanganidan ancha ko'p yerlarni noqonuniy o'zlashtirishgan¹⁸⁴. Buning ustiga ko'chib kelgan kazaklarning mahalliy chorvador aholi yerlarini noqonuniy tortib olishi, mavjud o'rmonlarni shavqatsiz kesishi kabi vahshiyliklari haqida ma'lumotlar ko'paydi¹⁸⁵.

Rus siyosatdonlari kazaklarning Turkistondagi faoliyatlarini salbiy baholagan. Masalan, 1869-yil martda Kaufmanning Yettisuv viloyati harbiy gubernatori, general-mayor Kolpakovskiy tomonidan taqdim etilgan «Krestyan xo'jaliklarning tuzilashi haqida»gi nizomni qabul qilishi ham shundan dalolat beradi¹⁸⁶. Rus xukumati stanitsalardan ko'ra rus va ukrain dehqonlari uchun posyolkalar qurishni afzal, degan qarorga keldi.

Viloyatda ko'chirish siyosati bilan bog'liq ishlarning asosiy qismi Kolpakovskiy rahbarligida amalga oshirilgan. 1867-yil general Kaufman Yettisuv viloyati harbiy gubernatori Kolpakovskiydan «kazak va krestyan xo'jaliklarni joylashtirish uchun ajratilgan hududlar» haqida ma'lumot berishni so'ragan. Yettisuv viloyati harbiy gubernatorining yozgan javob xatida To'qmoq, Pishpak va Issiqko'l hududlarida 50 tagacha krestyan xo'jaliklarni joylashtirish zarurati borligi haqida ma'lumot bergan¹⁸⁷. 1868-yilda Yettisuv

¹⁸¹ Бартольд В. В. Сочинения. Том II, Часть 1, – М., 1963 – С. 320.

¹⁸² Бартольд В. В. Сочинения. Том II, Часть 1, – М., 1963. – С. 319.

¹⁸³ Долинский В. Об отношениях России к Средне – Азиатским владениям и об устройстве Киргизской степи. С-Петербург, 1865. – С. 36.

¹⁸⁴ Отчет чиновника особых поручений... – С. 6.

¹⁸⁵ Джамгерчинов Б. Д. О прогрессивном значении вхождения Киргизии в состав России. – Фрунзе, 1963. – С. 31.

¹⁸⁶ Джамгерчинов Б. Д. О прогрессивном значении вхождения Киргизии... – С. 31.

¹⁸⁷ Фомченко А. П. Русские поселения в Туркестанском крае в конце XIX – начале XX в. – Ташкент: Фан, 1983. – С. 35.

xarbiy gubernatori, general-mayor Kolpakovskiy viloyat boshqarmasiga Yettisuvga aholini ko'chirishga oid muhokama qilinishi kerak bo'lgan hujjat taqdim etgan. Unda quyidagi masalalar ko'tarilgan: ko'chirib keltirilganlarni joylashtirish mumkin bo'lgan hudud va yer miqdori; ko'chirish qonun-qoidalari; ko'chirib keltirilganlarga berilishi mumkin bo'lgan imtiyozlar; xo'jaliklarni rivojlantirish choralari; barpo etilgan posyolkalarda tashkil etilishi kerak bo'lgan boshqaruv tizimi;

1860–1870-yillarda Prjevalsk uezdida 7918 kishidan iborat shunday posyolkalardan 6 tasi – Teploklyuchenko, Sazanovka, Preobrajenskiy, Slivkino, Jerges, Oytal, Pishkek uezdida esa Pokrovskiy, Mixaylovskiy, Melkovodniy, Belovodskiy, Novotroitskiy, Lebedinovskiy posyolkalari vujudga kelgan. Uezdda 1882 yili Dmitrievskiy, 1893-yilda Georgievskiy va Ivanovskiy posyolkalari qurildi. Shu davr mobaynida Lepsinsk uezdida 8 ta, Varenskda 6 ta, Kopalda 2 ta posyolkalar tashkil etilgan¹⁸⁸.

1868-yildan 1883-yilgacha 2500 xo'jalikdan iborat bo'lgan 36 ta posyolka tashkil etilgan, viloyat shaharlariga esa 1590 ta oila ko'chirib keltirilgan¹⁸⁹. 1883 -yildan 1893-yilgacha ko'chirish rasmiy jihatdan to'xtatilgan bo'lsada, amalda davom etgan. Masalan, 1892-yil Turkistonga 1792 ta oila ko'chib kelgan bo'lib ularning yarmidan ko'prog'i Pishpak uezdigacha joylashgan. Natijada shu yili Petrovsk va Nikolayevsk posyolkalari tashkil topgan (bu posyolkalar 1902-yilda rasmiy ro'yxatga olingan)¹⁹⁰. Bundan tashqari, Qoshg'arda imperiya tazyiqiga uchragan uyg'ur va dunganlarning ayrimlari Rossiya fuqoroligini qabul qilib Yettisuv viloyatiga joylashgan. Avvaliga ularni bir necha shahar va qishloqlarga joylashtirish rejalashtirilgan. Biroq ko'chib kelganlarning iltimoslari inobatga olinib 20 ming desyatina yer ajratilgan. Natijada Chu va Irdigu daryolari sohillarida 4154 kishidan iborat ikkita posyolka tashkil etilgan¹⁹¹. Tez orada Qoshg'ardan ko'chib keluvchilarning soni ko'payib 1885-yilgacha 52 ming kishini, ular joylashgan posyolkalar soni esa 60 tani tashkil etdi.

Rossiyaning Yevropa qismida 1891- va 1892-yillarda yuz bergan hosilsizlik oqibatida ko'chishning yangi to'liqini boshlangan. O'z yer-mulklarini tashlab viloyatga ko'chib kelganlarning asosiy ko'pchiligini kambag'allar tashkil etgan. XX asr boshlarida ham ularning ko'chishi davom etdi. 1902-yilda o'zboshimchalik bilan ko'chib kelganlarning yarmi G'arbiy Sibir xissasiga, qolgan qismi Voronej, Poltava va Chernigov guberniyalariga to'g'ri kelgan. 1905-yili shunday o'zboshimchalik bilan ko'chib kelganlarning soni 23 ming kishini tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatgich yil sayin o'sib borib 1907 yil 24700

¹⁸⁸ Отчет чиновника особых поручений... – С. 193.

¹⁸⁹ Переселенческое дело в Туркестане... – С. 8.

¹⁹⁰ Фомченко А. П. Русские поселения в Туркестанском крае... – С. 37.

¹⁹¹ Переселенческое дело в Туркестане... – С. 11.

kishini, 1908-yilning 1- avgustigacha esa 30 mingga yetgan¹⁹². Ko'chib kelganlarning uezdlar bo'yicha joylashtirilishi ham turlicha bo'lgan. 1908-yilda Jarkent uezdiga ko'chib kelganlarning soni 328 kishini tashkil etgan bo'lsa, boshqa uezdlarda nisbatan ko'proq bo'lgan: Kopal uezdida 1636 kishi, Prijevalsk uezdida 3570 kishi, Verniy uezdida 6376 kishi, Lepsinsk uezdida 6737 kishi bo'lgan xolda Pishpak uezdida bu ko'rsatkich 11356 kishini tashkil etgan¹⁹³.

Ma'murlar rejada belgilanmagan bo'lsada ko'chib kelganlarni yer-suv bilan ta'minlashga majbur bo'ldilar va bir qator kamchiliklarga yo'l qo'yilgan. Tashkil etilishi rejalashtirilgan 20 ta posyolka tez o'troqlashayotgan mahalliy aholi xududida joylashgan. Demak, tez orada shu xududlarda yer tanqisligi sezilgan. Mahalliy aholining haq-huquqlari shu bilan cheklanmagan. Qonunga ko'ra, posyolkalar uchun ajratilgan yerlar ishlov berilmagan, lekin qisqa muddatda ozroq mablag', ishchi kuchi va vaqt evaziga o'zlashtirilishi mumkin bo'lgan hududlar bo'lishi qonunda belgilangan edi. Lekin ayrim hududlarda bunga amal qilinmagan va mahalliy aholi yerlari tortib olingan. Posyolkalar faqatgina mahalliy aholidan tortib olingan yerlargagina emas, mavjud imoratlarni buzib tashlash hisobiga ham kengaytirilgan. Buzilgan imoratlarining qatorida masjidlar ham bo'lgan. Masalan, Krasnorechinsk, Novopokrovsk va Baytiyovsk posyolkalarida shunday voqealar yuz bergan¹⁹⁴.

Minglab chorvadorlar o'zlarining qonuniy mulklaridan mahrum etilgan. Ular doimiy yaylovlaridan maxrum etilib ming yillar davomida shug'ullanib kelishgan xo'jalik turi – chorvachilikdan voz kechishga majbur qilingan. Ko'chirish davomida shunday o'zboshimchalik va qonunga amal qilmaslik mahalliy aholi orasida norozilikni keltirib chiqardi. Bundan tashqari, mahalliy aholi bilan ko'chib kelganlar o'rtasida kelishmovchiliklarga, ayrim hollarda dushmanlik kayfiyatining paydo bo'lishiga olib keldi. Ilgarigi ko'chmanchilarning doimiy o'troq hayotga o'tishi, pul-tovar munosabatlarining kirib kelishi xo'jalik, ma'naviy va madaniy hayotda katta o'zgarishlarga sabab bo'ldi.

¹⁹² Переселенческое дело в Туркестане... – С. 17.

¹⁹³ Переселенческое дело в Туркестане... – С. 18.

¹⁹⁴ Переселенческое дело в Туркестане... – С. 50.

«SADOYI FARG'ONA» G'AZETASI HAQIDA

Tohirjon Qozoqov,

NamDU Milliy g'oya, ma'naviyat va huquq asoslari kafedrasi katta o'qituvchisi, tarix fanlari nomzodi.

«Sadoyi Farg'ona» gazetasi Qo'qonlik mashhur taraqqiyparvar Obidjon Abduholiq o'g'li Mahmudov (1858-1936-yy.) noshirligi va muharrirligi ostida 1914-1915-yillarda Qo'qon shahrida chop etilgan. Ushbu gazeta Farg'ona vodiysida chop etilgan mahalliy tildagi dastlabki gazetadir. Gazetani jami 123 ta soni chop etilgan bo'lib, bugungi kunda Alisher Navoyi nomli Respublika Milliy kutubxonasining «Nodir kitoblar» bo'limida uning mavjud sonlari F-95 raqami ostida saqlanmoqda. «Sadoyi Farg'ona»ning barcha (birinchi sonining birinchi sahifasidan tashqari) sonlari O'zbekiston Respublikasi Davlat Kitob Palatasida saqlanmoqda.

Bokuda chiqadigan «Yangi Iqbol» gazetasidagi maqolalarining birida «Sadoyi Farg'ona» haqida shunday deb xabar bergan edi: «...1914-yil sana aprel oyi biz turkistonliklar uchun bir «milliy bayram» deyinilmag'a loyiq bir oy edi. Chunki aprelning 2 yoki 3 nda Ho'qand tujjorlaridan muhtaram Obidjon afandi Mahmudof himmati ila «Sadoyi Farg'ona» isminda haftada 2 daf'a nashr qilinur bir g'azita chiqqa boshladi. Butun Turkiston bu g'azitani buyuk bir shodliq va suyunch ila qorshi oldilar». Zamonasida «Farg'ona jadidlarining peshqadami» deb nom olgan Obidjon Mahmudov yirik sarmoyador bo'lsa ham, ilm-ma'rifatning qadriga etadigan, adabiyot va san'atni sevadigan ajoyib inson bo'lgan. U Peterburg Universitetini tamomlagan, xalqimiz orasidan yetishib chiqqan birinchi tog'-kon injeneri edi. U 1914-yilning boshlarida Qo'qonda bosmaxona tashkil qilib, unda dastlab o'zbek tilida «Sadoyi Farg'ona» gazetasini chiqara boshladi.

O. Mahmudov millat taraqqiyoti yo'lida nimaiki xayrli ish bo'lsa, albatta unga bosh qo'shdi. «Sadoyi Farg'ona» sahifalarida ijtimoiy, siyosiy, adabiy-badiiy, iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy, diniy mavzularga oid ko'plab maqolalar bosilib turdi. Shuningdek uning sahifasida turli xil e'lonlar, boshqa gazetalardan olib bosilgan maqolalar ham chop etilgan. Gazeta sahifalarida xalqimiz maishiy turmushidagi salbiy holatlar keskin tanqid qilingan, kishilarni ilm-ma'rifatga, axloq va diyonatga, xullas taraqqiyotga targ'ib qilingan.

«Sadoyi Farg'ona» sahifalarida jadidlarning ilm-fan va maorif, maishiy turmush islohiga, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, diniy, madaniy-adabiy mavzularga oid ko'plab maqolalari, dohiliy (ichki) va xorijiy *o'abarlar*, turli *oil* e'lonlar va xabarlar chop etilib turilgan.

Turkistondagi barcha taraqqiyparvarlar qatori fargʻonalik jadidlar ham oʻz faoliyatlarini dastlab maʼrifatparvarlikdan boshlaganlar. Shu bois, maqolalarning koʻpchiligi maktab-maorif xususidadir.

Jadid maktablarining soni ortib borgan sari, ulardagi taʼlim tizimi ham takomillashib borgan. Imtihonlar keng xalq ommasi koʻz oʻngida, qishloq yoki shaharlarning ilgʻor ziyoli va ulamolari davrasida «Imtihon majlisi» nomi bilan oʻtkazilgan. Bunday holatlarda yangi usul maktablari oʻzining afzallik tomonlarini toʻliq namoyish eta olgʻan. Taraqqiyparvarlar oʻz gazetalaridagi maqola va xabarlarida ushular haqida batafsil maʼlumotlar berib borganlar. Aksariyat omma imtihondan mamnun boʻlgan holda tarqalganlar. Shunday imtihon majlislaridan biri Qoʻqonning Xonaqoh mahallasidagi «Maktabi Mahmudiy»da boʻlib oʻtadi. Oʻquvchilar kuzatuvchilar koʻz oʻngida oʻqish, yozish, hisob, eʼtiqodot amaliyotidan yaxshigina imtihon topshirganlar.

Shahrixonda ham shunday imtihon majlisi muallim Xoʻjaxon maktabida boʻlib oʻtadi. Majlisga Shahrixonning qozi, mingboshi va ulamolari taklif etiladi. Shogirdlardan birin-ketin din ilmi, tarix, tabiiy fanlardan imtihon olinadi. Barcha shogirdlar imtihonni kutilgandan ham aʼloga topshiradilar. Buni koʻrgan ahli majlisning koʻplari oʻzlarini xursandchilikdan toʻxtata olmay, yigʻlaganlar.

Gazetada iqtisodga oid koʻplab maqolalar eʼlon qilingan. «Sadoyi Fargʻona» gazetasida eʼlon qilingan ijtimoiy-siyosiy mavzuga oid maqolalar ham muhim ahamiyatga egadir. Ushbu maqolalar orqali jadidlar chorizm mustamlaka tuzumi keltirgan turli xil salbiy holatlarni ochib tashlaydilar.

H.H. Niyoziy «Sadoyi Turkiston» gazetasidagi maqolalarining birida Milliy hunarmandlarning xonavayron boʻlishini bunday taʼriflaydi: «...va baʼzilari yetushdura olmay butun bu hunarlaridan kechub, boshqa bir yoʻl va kuygʻa kirub ketmaktadurlar...har bir kasb ahli shundogʻdur...Mana bu razolat, xirachilik va xoʻrlik na yerdan keldi?...Oh, hunarlarimiz! Qaysi tarafgʻa va kimlar qoʻligʻa asir boʻldi? Pul va mollarimiz qaysi tarafgʻa hijrat etmaktadur?...Bu xoʻrliklarning ilmsizlikdan kelgʻanidan shoyad uyalgan va aqlgʻa solib qaragʻan kishi bilur».

Diniy mavzularga oid maqolalar ham gazetada koʻplab uchraydi. Jadidlar nafaqat milliy, balki diniy qadriyat va soflikning himoyachisi edi. 1913-yil dekabr oyidan eʼtiboran Rossiya Davlat Dumasi tomonidan imperiyaning barcha xalqlari uchun yagona «Hayvon soʻyish» qonuni loyihasini ishlab chiqishga kirishiladi. Ular taklif qilgan tartibda hayvon soʻyish Islom talablariga mutlaqo zid boʻlganligi bois Fargʻonalik jadid Ashurali Zohiriy: «...oni yemoqlik shariat qoshida albatta haromdur», -deb, kishilarni ogʻohlikka chorlaydi.

Gazeta sahifalarida madaniy-adabiy mavzuga oid maqolalarga ham keng oʻrin berilgan.

Jadidlar madaniyat tushunchasiga keng ma'no bergan edilar. Ular chet tillarni o'rganishga yoshlarni targ'ib qilish bilan birga, ona tili sofligini saqlashni qat'iy ravishda tarafdori bo'ldilar: «...Ba'zi yoshlarimizga o'xshash usti yaltiragan ichi qaltiragan bo'lub boshlarig'a Ovro'po qalpog'ini kiyib «madaniyat!», «madaniyat!» deb og'izlarini ko'purturub, oz-moz musulmoncha chala yarim ruscha so'ylashub, kulgi bo'lub yurmak madaniyat bo'lmay, masharabozlikning bir sho'basidir...». Shuningdek, gazetada doxiliy (ichki) va xorijiy xabarlar, turli xil e'lonlar ham chop etilib turilgan.

TOSHKENT METROPOLITENI

Mamadaliyev Shohruh,

*Namangan Davlat universiteti O'zbekiston
tarixi yo'nalishi 2-bosqich magistranti.*

Vatanimiz mustaqillikka erishgach o'zining ijtimoiy – iqtisodiy, siyosiy sohalarida o'z yo'lini o'zi belgilash asnosida xalqimiz tom ma'noda uzoq yillik kutilgan maqsadlari amalga oshdi. Juda ko'plab sohalarida ulug' bunyodkorlik ishlari olib borilmoqda. Bu ezgu harakatlar sirasiga tariximizga uning haqqoniy yoritilishi, umuman tarix sohasiga alohida e'tibor bilan qarab kelinmoqda, zero muhtaram prezidentimiz I.A. Karimov ta'kidlaganlariday «tarix – xalq ma'naviyatini asosidir»¹⁹⁵. Shunday ekan tariximizni o'rganish uning «ruhi» bilan bugungi yosh avlodni tarbiyalash mustaqil davlatimizning porloq kelajagini ta'minlash uchun asos bo'ladi. Quyida biz bosh sharimizda bunyod etilgan yaqin davrgacha Markaziy Osiyoda yagona bo'lgan Toshkent Metropoliteni tarixi hamda uning mustaqillik davrida qanday ulkan o'zgarishlarni boshdan kechirgani hususida so'z yuritib o'tmoqchimiz.

“Metro” yunoncha so'z bo'lib “metropolis” – “bosh shahar”, “markaz” degan ma'noni bildiradi¹⁹⁶. Ko'p sonli yo'lovchilarni tashishga mo'ljallangan relsli tez yurar elektr transport turi hisoblanadi. Ishonchli havfsizlik tizimlari bilan jihozlanadi. Dastlab metro yer yuzasida harakatlanadigan vagonlardan iborat bo'lgan bunday yo'llar Nyu-york, Chikago, Boston, Filadelfiya (AQSH) Gamburg (Germaniya) shaharlarida XX asr boshlarida qurilgan ammo keyinchalik shaharlar taraqqiyoti sabab bunday yo'llar yer ostiga quriladigan bo'ldi.

Bugungi kunda dunyoning 100 ga yaqin yirik shaharlarida metrolar mavjud. Eng yirik metrolar Nyu-York (1868-yilda), London (1863-yilda), Parij (1990-yilda), Tokio (1927-yilda), Moskva (1935-yilda), Mexico (1902-yilda),

¹⁹⁵ Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q -Toshkent: Sharq, 1998. – B. 21.

¹⁹⁶ O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.-Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, tom-5. – B. 616.

Seul (1927-yilda) shaharlarida hamda 1977-yildan e'tiboran Toshkent shahrida ham foydalanib kelinmoqda¹⁹⁷.

Toshkent shahar yo'lovchilar transporti korxonalari uyushmasi tarkibida. Toshkent metropoliteni qurilishi 1972 yilda boshlangan, birinchi liniyasining 9 stansiyadan iborat, uzunligi 11,4 km birinchi navbati ("Sobir Rahimov", "Chilonzor", "Mirzo Ulug'bek", "Hamza", "Yoshlik", "Xalqlar do'stligi", "Paxtakor", "Mustakillik maydoni", "Markaziy xiyobon" bekatlari) 1977-yil 6-noyabda, ikkinchi navbati ("Hamid Olimjon", "Pushkin", "Buyuk ipak yo'li" bekatlari, uzunligi 4,1 km) 1980-yil 18-avgustda foydalanishga topshirildi, shu yidan boshlab bekatlar soni 12 taga yetdi.

Toshkent metropolitenining umumiy uzunligi 4,8 km bo'lgan ikkinchi liniyasining birinchi navbati ("Alisher Navoiy", "Uzbekistan", "Kosmonavtlar", "Oybek", "Toshkent" bekatlari) 1984-yil noyabda, ikkinchi navbati ("Mashinasozlar", "Chkalov" bekatlari, uzunligi 3,3 km) 1987-yil noyabda ishga tushdi. Shu liniyaning uchinchi navbati 1989-yil noyabda ("G'afur G'ulom", "Chorsu" bekatlari, uzunligi 2,4 km), to'rtinchi navbati ("Tinchlik" va "Beruniy" bekatlari, uzunligi 3,8 km) 1991-yil 30-aprelda ishga tushdi. Bu liniyaning umumiy uzunligi qariyb 14,3 km ga yetdi.

Toshkent metropolitenining shahar markazini Yunusobod turar joy massivi bilan bog'laydigan (umumiy uzunligi 14 km) uchinchi liniyasining birinchi navbati ("Mingo'rik", "Yunus Rajabiy", "Abdulla Qodiriy", "Minor", "Bodomzor", "Habib Abdullayev" bekatlari) 2001-yil 26-oktyabrda ishga tushdi.

Toshkent metropolitenida qatnaydigan poyezdlarning o'rtacha tezligi 39 km/soat, maksimal tezligi 65 km/soat. Toshkent metropolitenida sutkasiga o'rtacha 270—300 ming yo'lovchi tashiladi. Yo'lovchilarga qulaylik yaratish uchun ba'zi bekatlarda eskalatorlar o'rnatilgan. Metrodagi "Chilonzor", "Hamza" bekatlari gumbazsimon, "Mustaqillik maydoni" yig'mamonolit konstruksiyali kolonna tipida, boshqa bekatlar esa kolonna tipida qurilgan. Har bir bekatning badiiy me'morlik hamda haykaltaroshlik nuqtai nazaridan bezatilishi ramziy ravishda shu bekat nomini aks etdiradi. Ularda madaniy, monumental dekorativ va amaliy san'atning milliy an'analari o'z aksini topgan. Bekatlarga bezak berishda, asosan, O'zbekiston Respublikasida chiqadigan qora, qizil, kulrang granitlar, turli xil marmar, keramika, stomalit, yog'och, oyna, turli xil metall va boshqa hom ashyolardan foydalanilgan.

¹⁹⁷ www.uz.wikipedia.org

MUSTAMLAKACHILIK SHAROITIDA TURKIYZABON XALQLAR O'RTASIDAGI SIYOSIY-MADANIY ALOQALAR VA UNDA TEMIRYO'L TRANSPORTINING ISHTIROKI

B. Jalolov,

Nam DU tadqiqotchisi.

XVII-XIX asrlarda imperiya chegaralarini qo'shni davlatlar tomon kengaytirib borgan Rossiya saltanati, aholisi Islom diniga e'tiqod qiluvchi o'lkalar, Kavkazorti, Qrim, O'rta Osiyo davlatlari bo'lmish Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklari rus qo'shinlari tomonidan qurol kuchi va shafqatsizlik bilan bosib olindi. Ayni paytda yuqorida tilga olingan musulmon davlatlarining aksariyatida turkiyzabon halqlar istiqomat qilishar, muayyan darajada ular o'rtasida turli sohalarda aloqalar o'rnatilgan hamda bu hamkorlikning ildizi bir necha asrlar oldinga borib taqalgan edi.

XVI-XVII asrlarda Rossiyaning Sibir, Volgabo'yi va Uraloldi mintaqalarida O'rta Osiyo, asosan o'zbek savdo hunarmand vakillarini ixtiyoriy borib o'rtnashishlariga rus hukumatining sharoit yaratib berishi natijasida, XVIII asrning oxirlariga kelib ularning miqdori 20 ming kishiga yetgani, ular o'z til va urf-odatlarini saqlab qolgan holda tatarlarni islom diniga o'tkazganlari haqida aytib o'tiladi¹⁹⁸. Shu bilan birga o'zbek ziyolisi Niyat Boqining ilmiy faoliyati dastlabki o'zbek va tatar-boshqird xalqlarining tilshunosligida katt ahamiyat kasb etib, u o'zbeklar orasida o'zbek tili bo'yicha darslik yaratgan birinchi muallif sifatida «tatar va arab alifbosi» nomli darslik yozadi va bu asar 1802-yili Rossiya Fanlar akademiyasi tomonidan Sankt-Peterburgda bosib chiqariladi. Niyat Boqi yozgan darslikka Rossiya Fanlar akademiyasi tomonidan yuksak baho berilishi bilan bir qatorda Qozon va Ufa tilshunoslarining ta'kidlashicha, o'zbek tili Sibir tatarlarining tilini boyitishga samarali ta'sir ko'rsatgan¹⁹⁹ deya aytiladi.

XIX asrning oxirlari - XX asr boshlarida Turkistonda mustamlakachilik tuzumining yanada kuchayishi va ruslashtirish siyosatining keskinlashib, kengayib borishi hamda o'lkadagi milliy-madaniy qadriyatlarni yemirilib, milliy kayfiyatlarni kamsitilishi Turkiston ziyolilari bo'lmish jadidlar zulm va zo'ravonlikka qarshi ma'rifat bilan kurashishga bel bog'ladilar. Buning uchun imperiya ta'siri ostidagi musulmon qavmiga mansub turkiyzabon xalqlar o'rtasida ma'daniy-ma'rifiy aloqalarni o'rnatilishida yangi sahifa ochib berdi. Xususan Rossiyadagi musulmon maktablarining buyuk islohotchisi, Qrimda «Tarjimon» gazetasining tashkilchisi hamda «yosh tatarlar» firqasining yo'lboshchisi sifatida tanilgan Ismoil Gasprinskiy (1851-1914-yy) Rossiyaning

¹⁹⁸ Ziyoyev. H. Tarix - o'tmish va kelajak ko'zgusi.-Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 2000. -B 60.

¹⁹⁹ Ziyoyev. H. Tarix-o'tmish va kelajak ko'zgusi.... -B 61.

Sharqdagi siyosatini fosh qiluvchi asarlari bilan Turkistondagi jadid yetakchilarining dunyoqarashiga katta ta'sirini o'tkaza olgan edi²⁰⁰.

Ayni paytda, Turkiston jadidlari o'lka aholisini ma'naviy qashshoqlikdan olib chiqish va tafakkurini uyg'otish yo'lida o'z harakatlarni boshlagan edilar, xususan Toshkentlik mashhur jadid Munavvar qori Rossiyaning ruslashtirish siyosatiga qarshi bo'lish bilan bir vaqtda ruslar bilan doimiy ravishda muloqotda bo'lish, ayniqsa savdo, ma'muriyat, temiryo'l kabi sohalarda faoliyat olib borish uchun mahalliy aholi har xil bilimlarni egallashda vositachi qurol bo'lgan rus tilini bilish kerakligini e'tirof etadi²⁰¹. Rossiya ichki ishlar vazirligining Toshkentdagi missoner tsenzori N. Ostroumov Munavvarqorining o'lkada loyihalashtirayotgan maktablar uchun darslik va o'qituvchilar yo'qligini bahona qilib, Rossiya Ovro'pasidan tatar o'qituvchilari va tatarcha darsliklarni chaqirish mumkinligini, faqat ularni yaxshi mukofot bilan taqdirlash lozimligini, bir so'z bilan aytganda o'lka aholisi bo'lgan sartlarni (ruslashtirish emas - J. B) tatarlashtirishni to'g'ri vosita sifatida ko'rsatayotganligini xavotirli holat sifatida aytib o'tadi²⁰².

Haqiqatdan ham Munavvarqori Toshkentdagi o'z hovlisida Qrimlik do'sti rais Kishod yordamida 1901-1904-yillarda «usuli savtiya» maktabini ochadi²⁰³.

Munavvarqori dastlab o'z maktablarida Qrim va Tataristondagi o'qituvchilar tuzgan dastur va adabiyotlardan foydalanganini o'z estaliklarida tilga olib o'tadi. Turkistondagi ta'lim borasidagi tatarlar va o'lka jadidlarining o'zaro aloqalari, do'stona munosabatlari imperiya xukumatini qattiq tashvishga tushgan edi, chunki vujudga kelayotgan yangi usul maktablari ruslashtirish siyosatining zaiflashuviga zamin hozirlar edi. Jadidlar Rossiyaning mustamlaka siyosati strategiyasiga jiddiy zarba beruvchi o'zgarishlar qilishga qodir kuch sifatida, o'lka siyosiy sahnasiga chiqib ola boshlagan edilar.

Turkiston jadidlari orasida ayni imperiya ta'siri ostidagi turkiyzabon ziyolilar orasida ruslashtirish siyosatiga qarshi keskin g'oyalar bilan chiqqan guruhlar ham mavjud bo'lib, bu xalqlarning ziyolilari o'rtasida ikki yo'nalishdagi g'oyalar birligi umumlashtirib turardi, ya'ni islom zaminida alohida millatlar emas, balki bir dinga e'tiqodi qiluvchi barcha musulmon xalqlar istiqomat qiluvchi hududlarda yagona davlat barpo etish (panislomizm g'oyasi), turkiyzabon xalqlar yashovchi hududlarda Turkiya bilan yakdillikda yagona turkiy davlat barpo etish (panturkizm g'oyasi)²⁰⁴.

Ayni shu g'oyalar zamirida rus imperiyasi sarhadlarida yashovchi turkiyzabon xalqlar, tatar-boshqirdlar va Turkiston aholisi o'rtasidagi turli

²⁰⁰ O'zbekistonning yangi tarixi. Turkiston choi mustamlakachiligi davrida. 1-kitob.-Toshkent. Sharq, 2000. -B 259.

²⁰¹ Munavvarqori Abdurashidxonov. Tanlangan asarlar.-Toshkent:Ma'naviyat. 2003. -B 19.

²⁰² Munavvarqori Abdurashidxonov. Tanlangan asarlar... -B 21

²⁰³ O'zbekistonning yangi tarixi. Turkiston chor mustamlakachiligi davrida... -B 260.

²⁰⁴ Avtorxonov A. Kreml saltanati.-Toshkent: Cho'lpon, 1993. -B 40.

sohalardagi aloqalar hamda munosabatlarning shakllanish jarayoni ana shunday tus olgan bir paytda, 1917 yil fevralda Rossiyada xalq inqilobi sodir bo'lib, podshoning taxtdan ag'darilishi va oktyabrda esa V. Lenin rahbarligidagi bolsheviklar tomonidan davlat to'ntarishining amalga oshirilishi Turkiston ijtimoiy-siyosiy hayotida keskin kurashlarga boy yangi sahifani boshlab berdi. «Oktyabr inqilobi»dan ruhlangan va bolsheviklarning xalqlarni o'z taqdirlarini o'zlari belgilashlari haqidagi qarorlaridan ilhomlangan Turkiston jadidlari va mahalliy arboblari turli qarashlarga ega bo'lgan siyosiy tashkilotlarni tuzishga kirishib, millat ulug'vorligi va taraqqiyoti yo'lida turli dasturlarni ishlab chiqa boshladilar. Turkiston va Buxoro Respublikalari rahbarlari bo'lmish T. Risqulov, F. Xo'jayevlar o'lkani umumiyqisodiy va madaniy rivojlantirish uchun birinchi navbatda qudratli davlatlar bilan yaqinlashish, xususan mahalliy yoshlarni Germaniya o'quv yurtlariga ta'lim olish uchun jo'natish choralarini ko'radilar. Bu masalada ham Turkiston, Tatariston va Boshqirdiston rahbarlarini yakdil xulosaga kelganlari muhim ahamiyat kasb etdi.

Turkiston ASSR Xalq Komissarlari Sovetining raisi Turor Risqulov 1923-yil sentyabr oylarida 1 oy Germaniyada bo'lib, u yerdagi turkistonlik va buxorolik talabalar ahvoli, ixtisosliklari yuzasidan tahlil olib borib, Buxorolik o'zbeklar 35 nafar, tatarlar 8 (4 tasi-qiz) Turkiston yoshlari 5 kishini tashkil qilganini aytib o'tiladi²⁰⁵. Ushbu yutuqlarning kelajakda beradigan oqibatlaridan ijobiy xulosa chiqara olgan davlat arbobi F. Xo'jaev sovetlar mustamlakachiligiga qarshi fikrlaridan birida shunday degan edi: «menimcha, butun-turk tatarlar yashovchi yerlarni birlashtirib, Turkiya yo'lidagi mustaqil davlat tuzish haqida o'ylash kerak»²⁰⁶.

Mashhur jadidlardan biri Abdulhamid Cho'lpon mustamlakachilik sharoitida o'z asarlari orqali Turkiston hayotidagi jaholat va ma'naviy tanazzul oqibatlarini tahlil qilar ekan, «xalqni avvalo Yevropa madaniyatini o'rgatishga chaqirish, buning uchun o'zbek, tatar va boshqa turkiyzabon xalqlar o'rtasidagi inoqlik, o'zaro hamkorlik taraqqiyotning zarur shartidir»²⁰⁷ «deya bong urgan edi. Sovet mustamlakachiligi sharoitida Cho'lpon ijodini qoralash, uning faoliyatini turli ayblar bilan tazyiq ostiga olishgan bir paytda, uni himoya qilib chiqqan va matbuotda birinchi bo'lib ijobiy fikr bildirgan asli Tataristondan bo'lgan shaxs Zarif Bashiriy bo'lib, bu inson 1920-yillarda O'zbekistonda yashagan hamda 1923-yili 4-mayda «Turkiston» gazetasida Cho'lponning birinchi to'plami «Uyg'onish» kitobiga taqriz e'lon qiladi²⁰⁸.

Turkiyzabon xalqlar o'rtasida ana shunday munosabatlar shakllanib, rivoj otib borayotganini tahlil qilib borgan bolsheviklar ushbu munosabatlarni o'z manfaatlariga moslashtirishga kirishdilar.

²⁰⁵ Turdiyev. Sh. Ular Germaniyada o'qigan edilar... Toshkent: Fan, 1991. –B 12.

²⁰⁶ Xo'jayev. F. Zulmatdan sadolar. Toshkent: Adolat, 1994. –B 26.

²⁰⁷ Sharafiddinov. O. Cho'lpon. Toshkent: Cho'lpon, 1991. –B 12.

²⁰⁸ Sharafiddinov. O. Cho'lponni anglash. Toshkent: Yozuvchi, 1994. –B 6.

Podsho hukumati davrida mustamlaka ma'murlari Turkiston sartlari va tatarlar o'rtasidagi aloqalarga qarshilik ko'rsatgan bo'lsada, sovet hokimiyati tatar-boshqirdlardan (ular asosan Uraloldi va Volgabo'yi mintaqalarda istiqomat qilishardi) Turkistonda o'z mavqelarini mustahkamlash va o'lka aholisining ongini «sotsialistik g'oyalar» bilan qurollantirish yo'lida foydalanish ularning bo'lg'usi rejalaridan o'rin olgan edi. 1917-yil fevral-oktyabr oylarida Rossiyada sodir bo'lgan siyosiy voqealardan so'ng, tatar-boshqirdlar siyosiy jo'shqinligi ancha kuchaygan va bolsheviklar tatar-boshqirdlarning «sotsialistik inqilob»ga xayrihoxligini so'ndirmaslik hamda bu jo'shqinlikni Sharqqa burib yuborishga qaror qilgan edilar.

Tatar-boshqirdlar bilan hamkorlikda Turkiston o'lka yetakchilari «oktyabr inqilobi»dan ruhlangan holda o'zida milliy qarashlarni aks ettirgan, biroq komunistik g'oyalardan chekinmagan holda turli milliy tashkilotlar, sektsiyalar va partiyalar tuzdilar, dastlab bunday ijtimoiy-siyosiy harakatlarga sovet hukumati qarshilik qilmadi, biroq singhkovlik bilan kuzatib bordilar.

Keyinchalik tatar-boshqirdlar ishtirokida vujudga kelgan ana shunday tashkilotlar oldiga Turkiston zaminida sotsialistik tuzumni o'rnatish, uni mustahkamlash, o'lka aholisi orasida kommunistik g'oyalarni targ'ibot-tashviqot olib borish, ularning hoxish-istaklarini sotsialistik oqim tomon burib yuborishdek murakkab missiyani amalga oshirishni maqsad qilib qo'ygan edilar, hattoki, ushbu maqsad yo'lida milliy harbiy qismlarni tuzilishini ham qo'llab-quvvatladilar.

Tatar-boshqirdlar va Turkiston aholisi o'rtasidagi munosabatlarida muhim rol o'ynagan Sharq xalqlari kommunistik tashkiloti markaziy byurosi bo'lib, uning rahbari etib, Volgabo'yi, Uraloldi hududlaridagi tatar-boshqirdlarni Turkiston, Buxoro va Xorazm respublikalarida Markaz manfaati yo'lida sidqidildan xizmat qilishlarida jonbozlik ko'rsatgan ufalik Mirsaid Sultongaliyev edi²⁰⁹, biroq sovet davri manbalarida Mirsaid Sultongaliyev tatar burjua millatchisi, uning burjua millatchiligi Sovet davlati va Kompartiyaning oshkora dushmanlari safiga olib keldi, natijada panturkizm va panislomizm g'oyalarni targ'ib qilib, partiyaga qarshi ish olib bordi deya ayblar qo'yilib²¹⁰, uning faoliyati qoralangan holda tilga olinadi. Albatta tatar-boshqirdlar hammasi ham yuqoridagi shaxslar kabi o'ta kommunistparast bo'lmagan edilar.

Masalan 1912-yili «Turk va tatar tarixi» nomli asar bilan tanilgan, taniqli boshqird sharqshunosi Ahmad Zakiy Validiy To'g'on 1918-yili Farg'ona vodiysida bolsheviklar siyosatiga qarshi boshlangan milliy ozodlik harakati ishtirokchilari bo'lgan guruhlarini birlashtira oladigan va rahbarlik qila oladigan Markaz tuzish uchun jonbozlik ko'rsatdi. Ahmad Zakiy Farg'onada milliy ozodlik harakati yetakchilaridan biri Shermuhammadbek oldiga Haris Iqliqovni,

²⁰⁹ Rasulov. A. Turkiston va Volgabo'yi. Uraloldi xalqlari o'rtasidagi munosabatlar - Toshkent: Sharq, 2005. -B. 55.

²¹⁰ Hidayatov. G. Tarix va mafkuraviy kurash -Toshkent: O'qituvchi, 1988 B 177.

bundan tashqari qirg'izlarning bosh qo'rboshisi Parpibek huzuriga 1921-yil oktyabrda Minhoj cholni maxsus maktub bilan yuborib, ularga tegishli tavsiya va maslahatlar berib turadi²¹¹.

Ahmad Zakiy Validiy tatar-boshqirdlar orasida tom ma'noda birinchilardan bo'lib, sovet mustamlakachiligiga qarshi bosh ko'targan va bu manfaat yo'lida turkiyzabon halqlarni birlashtirish uchun astoydil kurash olib borgan shaxs hisoblanadi. Sovet hukumati ham Turkistonda ko'tarilgan milliy ozodlik harakatiga beparvo bo'lmay, u ham keskin choralar ko'rish bilan javob qaytardi.

Turkiston qo'rboshilariga qarshi zarba berish uchun tatar-boshqirdlardan iborat milliy harbiy qismlarni safarbar etdi. 1919-yil noyabrda Farg'ona fronti huzuriga Yusuf Ibragimov boshliq Volgabo'yi tatar-o'qchi brigadasi jo'natildi²¹².

Bu brigadaning kelishi bolsheviklarning o'lkadagi ta'sirini kuchayishida muhim rol o'ynab, katta vakolatga ega bo'lgan brigada harbiy kengashi tashkil etilib, unga tatar-o'qchi brigadasi harbiy-siyosiy komissari Ya. Chanishev rais etib tayinlandi. Tatar-o'qchi brigadasi Farg'ona vodiysida qo'rboshilarga qarshi kurashishi bilan birga ularni aksariyati turkiy tillarni yaxshi bilishi, mahalliy sharoitga moslasha oladigan, shaxslar bo'lib, ular qo'rboshilar guruhlarida tashviqotni kuchaytirib, Sovet hokimiyatigina xalqlarga tenglik, farovonlik keltiradi deb targ'ibot qilishar, oqibatda mahalliy yoshlar orasida taslimchilik kayfiyati paydo bo'lardi, yashirincha sovet organlariga borib, qurollarni topshirish holatlari ko'paygan edi²¹³. Oqibatda ba'zi qo'rboshilar sovet xukumati bilan kelishuvchilik siyosatini tutib, ular bilan muzokaralar olib borishga kirishdilar va bu muzokaralarda tatar-boshqirdlar vositachilik qildilar. Masalan, 1920 yil 6 martida Eski Marg'ilon shahrida qo'rboshi Madaminbek va 2-Turkiston o'qchi diviziyasi qo'mondoni V. A. Roxalskiy o'rtasida tuzilgan sulh shartnomasining imzolanishida tatar Yusuf Ibrohimov vositachilik qildi²¹⁴.

Sovet hukumati Turkistondagi siyosiy vaziyatni barqarorlashtirish va sotsialistik manfaatlarni o'lkada mustahkamlash yo'lida tatar-boshqirdlarning o'lkadagi faoliyatini kengaytirish maqsadida o'z davrining strategik ahamiyatiga ega bo'lgan temiryo'l transportini ham jalb etdi va 1919-yil kuzida kuzida asosiy tarkibi tatar-boshqirdlardan iborat targ'ibotchi-yo'riqchilardan iborat M. Frunze nomidagi «Qizil Turkiston» poezdi yuborilib, uning oldiga temiryo'l yoqalaridagi aholi o'rtasida sotsialistik targ'ibot-tashviqot olib borish bo'lib, poezd turkiy tillardagi adabiyotlar, gazetalar,

²¹¹ O'zbekistonning yangi tarixi. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. 2-kitob. -Toshkent: Sharq, 2000. -B 204.

²¹² Ibrohim Karim. Madaminbek. -Toshkent: Sharq, 2000. -B 68.

²¹³ Xo'jayev. M. Shermuhammadbek qo'rboshi. -Toshkent: Sharq, 2008. -B 135.

²¹⁴ Qosimov. Y. Qora ko'zoynak bilan yozilgan tarix. Namangan: 1993. -B 73.

ko'chma kino, orkestr va kutubxona bilan ta'minlangan edi²¹⁵. Farg'ibot poezdini tashkil qilishda Qozondagi Markaziy musulmon harbiy komissarligi katta rol o'ynadi.

Sharq xalqlari kommunistik tashkiloti markaziy byurosi taashabbusi bilan yana shunga o'xshash targ'ibot poezdi tashkil qilinadi va uni Turkistonga yuborishdan maqsad «inqilob g'oyalari ni targ'ibot-tashviqot ishlarni yanada kuchaytirish yo'li bilan o'lka aholisiga singdirish deb aytiladi. Poezdagi bosmaxonada o'zbek, qirg'iz, turkman, tatar va rus tillarida chop etiladigan «Qizil Sharq» gazetasi tashkil qilinib, uning muharriri tatar Sh. Ahmadiev bo'lib, uning Turkistondagi ijtimoiy-siyosiy tajribasi ortib, Turkiston respublikasi xalq maorifi komissari va shuningdek «Ishtirokiy» gazetasi muharriri sifatida ham faoliyat ko'rsatadi²¹⁶. «Qizil Sharq» poezdi Turkistonda 2 marta, 1920-yil 13- martdan - 15-iyulgacha, ikkinchi marta 1920-yil avgustidan 1921-yil fevralga missiyasini amalga oshirib, ikkinchi kelishida o'z tashviqotini Qo'qon, Namangan, Xo'jand, Andijon, Yangi Farg'ona shaharlarida olib boradilar. Biroq keyingi manbalarda ushbu targ'ibot poezdi orqali o'zining sovetparastlik va kommunistik g'oyalarga sodiqlik ekanligini ko'rsatish maqsadida ham ayrim o'zbek ziyolilari, unda keng qamrovli faoliyat ko'rsatdilar. Xususan o'zbek shoiri Hamza 1919-1920- yillarda «Qizil Sharq» targ'ibot poezdi tatarlar tarkibida milliy ozodlik harakatiga o'tlangan mahalliy Turkiston qo'rboshilariga qarshi kurashayotgan qizil armiya harbiy qismlariga xizmat qiladi. U Buxoro, Xorazm, Qoraqolpog'iston, Qo'qon, Farg'ona, Shohimardonda sovet mafkurasi targ'iboti yo'lida faoliyat ko'rsatadi²¹⁷.

Ayrim Turkiston ziyolilari Markazdan jo'natilgan yuqoridagi targ'ibot poezdlari haqida o'zlarining iliq fikrlarini turli she'r va maqolalari orqali matbuotda ifodalab bergan edilar, xususan Abdulhamid Cho'lpon ushbu poezd haqida «Qizil Sharq» poezdi keldi» nomli tahliliy-ijobiy ruhdagi maqolani matbuotda e'lon qiladi²¹⁸. Tatar-boshqirdlarni turli sohalarda faoliyat ko'rsatish niyatida Turkistonga ko'ngilli sifatida ko'pchilik bo'lib kelishlarini o'ziga xos sabablari ham mavjud edi.

1921-yil aprel oyida Volgabo'yi va Uraloldi hudularida qurg'oqchilik va aholi orasida ocharchilik vahimasining boshlanishi, turkiston xalqlarining qardoshlik tuyg'ulari ularni bu halokatlardan qutqarib qolishlariga zamin yaratdi. 1920-1921- yillar ichida Turkiston aholisidan 9708703 pud g'alla, 635114 pud yem-xashak, 1606210 pud go'sht va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari tortib olinib, Markazga jo'natildi va minglab ochlarni boqib

²¹⁵ Rasulov A. Turkiston va Volgabo'yi, Uraloldi xalqlari o'rtasidagi munosabatlar.-Toshkent: Universitet. 2005. –B 184.

²¹⁶ Rasulov A. Turkiston va Volgabo'yi, Uraloldi xalqlari o'rtasidagi munosabatlar. —B 188.

²¹⁷ Quronov. M. "Tarixiy haqiqatni qaror topirish - muhim ma'naviy vazifamizdir" //Xalq so'zi.

2014- yil 23- avgust. №163(6093).

²¹⁸ Fidoyilar.-Toshkent: Fan, 1990. –B 20.

olishga sarflandi²¹⁹. Ocharchilik xavfi minglab tatar-boshqirdlarni turli sohalarda xizmat ko'rsatib berishlari vaji bilan Turkiston tomon oqib kela boshlashib, o'lkada qorni to'yg'azish niyati bilan ham keluvchilar miqdori ko'pchilikni tashkil etardi. 1921-yil sovuq kuzi kirib kelishi tufayli Volgabo'yi va Uraloldi mintaqasida minglab bolalarni ochlik, kasallik tufayli halok bo'lishi, kamida 1921-yil oxirlariga kelib 5 million 798 ming och bolalarni borligi aniqlanib, shundan 120 mingi sovet xukumati rejasiga muvofiq Turkistonga evakuatsiya qilinishi belgilangandi²²⁰.

Turkiston aholisi o'zining insonparvarlik, rahm-shavqat kabi xislatlarni namoyon etishib, ularni o'z bag'rilariga qabul qildilar va o'zlari och bo'lgan holda minglab tatar-boshqird farzandlarini o'z bolalaridek samimiy kutib oldilar. Sovet xukumati musulmon turkiyzabon xalqlarni do'stona munosabatlaridan ana shunday vaziyatlarda foydalanib qolgan edilar va ularning ushbu xizmatlari evaziga dastlabki paytlarda sovet hukumati turkiyzabon xalq yetakchilarni yuqori darajadagi ma'sul lavozimlarga tayinlay boshladilar. Xususan, tatar ma'rifatparvari Mullanur Vohidov (1885-1918) Xalq Komissarlari Sovetining 1918-yil 13- yanvardagi dekreti bilan ButunRossiya millatlar ishi bo'yicha xalq komissarligi tarkibida tuzilgan musulmon ishlari bo'limining komissari etib tayinlandi²²¹. Mullanur Vohidov ushbu lavozimga tayinlanar ekan, u birinchi o'rinda turkiyzabon xalqlarni milliy manfaatlarini himoya qilishiga ham e'tiborini qaratib, u «sovetlar oldiga marksizmni Sharqqa nisbatan qo'llashda uning o'ziga xos tomonlarini e'tiborga olish kerak» degan fikrni ilgari surdi, biroq uning bevaqt o'limi kommunistlarning e'tirozlariga sabab bo'lgan siyosiy faoliyatini barham topishiga olib keldi.

Yana bir mashhur Turkiston farzandi, 11 tilni mukammal bilgan, teran fikr sohibi I. Xidiraliev (1891-1928-yy) esa sobiq Sovet Ittifoqining Angliya bilan olib borilgan 1924-yil aprelda bo'lib o'tgan keng doiradagi sovet-ingliz muzokalarida sovet delegatsiyasi tarkibida Londonga tashrib buyurib, o'zining yuksak darajadagi siyosiy salohiyatini inglizlar oldida namoyon etgan o'lgan shaxs sifatida tarixdan o'rin oldi²²². Tatar-boshqirdlarning keyingi yillarda ham O'zbekiston madaniy-ma'rifiy hayotida faol ishtirok etgan edilarki, xususan tatar-boshqirdlar tashkil etgan teatrning O'zbekiston hukumati tomonidan moddiy jihatdan qo'llab quvvatlash masalasi ko'rib chiqiladi. 1935-yil 2-mart kuni O'zbekiston xalq Komissarlari Soveti raisi F. Xo'jayev imzosi bilan «teatrlar va respublikadagi teatr tomoshalari to'g'risida» №182 sonli

²¹⁹ Mustabid tuzumning O'zbekiston boylklarni talash siyosati: tarix shohidligi va saboqlari - Toshkent: Sharq, 2000. -B 218.

²²⁰ Rasulov. A. Turkiston xalqi bag'rikengligi.-Toshkent: YANGI NASHR. 2011. -B 22

²²¹ Abdulhamid Cho'lpon. Go'zal Turkiston.-Toshkent. Ma'naviyat, 1997. -B 101

²²² Shamsutdinov. R. Istiqloq yo'lida shahid ketganlar.-Toshkent: Sharq, 2001. -B 264.

qaror qabul qilinib, unga muvofiq tatar-boshqird teatriga 30 ming so'm dotatsiya xarajati belgilanadi²²³.

Biroq 1937-1938-yillarda sovet xukumati manfaatleri va sotsialistik g'oyalar uchun beminnat xizmat qilgan minglab turkiyzabon xalq vakillari, turli tuhmat va bo'htonlar bilan 1937-1938-yillardagi davlat tahbari I. Stalinning «shaxsga sig'inish» va mudhish qatag'onlari tufayli qardoshlik aloqalarini o'rnatishda katta xizmatlar qilgan tatar-boshqird va o'zbek farzandlari bo'lgan jadidlar, davlat arboblari, ziyolilar, yuqorida tilga olingan, Germaniyada tahsil olib vatan uchun xizmat qilish niyatida o'z yurtlariga qaytgan iqtidorli yoshlar «xalq dushmani», aksilinqilobchi», «josus», «panturkizm, panislomizmni targ'ib qilgan qo'poruvchi», «bosmachilikda ishtirok etgan xoin» kabi ayblar va tuhmatlar bilan ma'naviy jihatdan tahqirlanib, jismonan yo'q qilib yuborildi.

T. Risqulov, F. Xo'jayev, Munavvarqori, Mirsaid Sultangaliyev, Cho'lpon va shular kabi atoqli xalq vakillari otib tashlandi, Ahmad Zaki Validiy, Mustafó Cho'qaev kabi zotlar xorijga qochib qutildilar. Sovet xukumati hukmronligi davrida, 1923-yili Sobiq Ittifoq miqyosida musulmon aholisining miqdori 30 millionni tashkil etgan bo'lsa, olib borilgan zo'ravonlikka asoslangan totalitar tuzumning g'ayriinsoniy siyosati natijasida kelib chiqqan ocharchiliklar, qatag'onlar, surgunlar, urushlar va tazyiqlar tufayli 1959-yilga kelib ularning miqdori 24 millionga tushib qoldi²²⁴.

Mamlakatda turkiyzabon xalqlar o'rtasidagi qardoshlik aloqalari, ijtimoiy-madaniy va siyosiy munosabatlar sovet mustamlakachilik tuzumi ostida qanchalik murakkablashib, sharoit qiyinlashmasin, o'zaro do'stlik, birodarlik rishtalari kuchayib mustahkamlanib boraverdi. Prezidentimiz I. Karimov aytganlaridek «Tarixning o'yini ham, omonsiz jangu-jadallar ham, tabiiy ofatlar va ochlik ham xalqimizning insoniylik tabiatiga dog' tushirolmadi. O'zbek oilasida bugungi kunda yaxshilik va yorug'lik, bolalarga mehr, kattalarga hurmat, yaqinlarga va boshqalarning qayg'usiga hamdardlik mujassamlashgandir»²²⁵.

Tarix sahifalaridan o'rin olgan o'tmishning sovet mustamlakachilik davri «qora dog'lari» va xalqimizning milliy qadriyatlariga xos bo'lgan insonparvarlik, mehmondo'stlik va g'amxo'rlik kabi xislatlari bugungi kun avlodlari uchun namuna bo'lib xizmat qiladi, desak adashmagan bo'lamiz.

²²³ Chusi tumani davlat arxivi. f-339. r-1. d-9. 34-varaq

²²⁴ Avtorxonov A. Kraml saltanati... -B 46

²²⁵ Karimov I. O'zbekiston: milliy istiqbol, iqtisod, siyosat, mafkura.-Toshkent: O'zbekiston, 1993.

CHORTOQ TOPONIMIKASI HAQIDA

Abdulboqiyev F.

Nam DU Tarix yo'nalishi 3-bosqich talabasi.

Bizning o'tmishimiz, avlodlarimiz, jafokash ota-bobolarimiz bosib o'tgan tarixiy yo'l haqida ularni bitmas tuganmas boy ma'naviy me'rosi haqida qancha gapirsak, shuncha oz. Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek: «Ma'naviyat o'z xalqining tarixini, uning madaniyati va vazifalarini chuqur bilish va tushunib yetishga suyanaganidagina qudratli kuchga aylanadi. Tarixga murojaat qilar ekanmiz, u xalq xotirasi ekanligini nazarda tutishimiz kerak»²²⁶.

Shuni nazarda tutganda saxiy qalb, zaxmatkash, halol va fidoyi Chortoq ahliga ularning avlod –ajdodlari, bobokalonlari haqida so'zlash alohida qimmatga egadir. Shunday ekan, ko'hna tarix qiyofasida ona tuproqqa qadam ranjida qilgan buyuk va mo'tabar zotlar bilan qalblarimizda beixtiyor mag'rurlanish hissi paydo bo'lishi turgan gap. Har bir Chortoqlik keksami-yoshmi, kasbi-koridan qat'iy nazar ulug' shoir va sarkarda, qomusiy bilim sohibi Zahiriddin Muhammad Bobur, otashnafas shoir Bobarahim Mashrabning ustози mulla Bozor Oxund va boshqa qancha-qancha buyuk allomalarning poyqadamlari Chortoq tuprog'iga tekkani g'oyat mamnuniyat va faxr bilan yodga oladi.

Ko'hna va hamisha navqiron Chortoq tumani shimoldan Qirg'iziston respublikasining Axsu tumani, janubdan Namangan viloyatining Uychi, Namangan tumanlari, sharqdan Uychi va Qirg'iziston bilan chegarada joylashgan. Chortoq tumani tabiiy geografik jihatdan juda qulay hududda joylashgan. Tumanning tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, turli xil yodgorliklar va arxeologik topilmalar topib o'rganilgan. Jumladan, tumanda mavjud bo'lgan beshta arxeologik yodgorlik ya'ni tepalar O'zbekiston FA ning Tarix instituti tomonidan o'rganish uchun ro'yxatga olingan. Bular «Do'stepa», «Mozortepa», «Toboltepa», «Oqyertepa», «Uchtepa» - kabi tarixiy yodgorliklarni misol qilib olishimiz mumkin. Endi Chortoq toponimiga to'xtaladigan bo'lsak, garchi nomning kelib chiqishi ilmiy jihatdan isbotlanmagan bo'lsa ham har holda arxeologik yodgorliklarga, hamda tarixiy ma'lumotlarga suyanib, uni ikki ming yillik tarixga ega deyish mumkin. Xo'sh, Chortoqmi yoki Chortaxtmi? Bu savol hammani qiziqtirishi tabiiy, chunki Chortoq iborasi o'z takomilini topishi kerak. Ba'zi bir kishilar uni Chortoq emas, Chortaxt (to'rt taxt) deb ataydilar. Shuning uchun yurtimiz tarixini o'rganish jarayonida bu toponomik atamaning qay biri to'g'riligini aniqlab olish zarur. Biz o'z mulohazalarimizda o'zimiz yashab turgan joyni o'z qarashimiz bilan tildan tilga o'tib kelayotgan afsonalarga qarab turlicha

²²⁶ Karimov I. O'zbekistonning o'z istiqloq va taraqqiyot yo'li. – Toshkent: O'zbekiston, 1992. –B.

fikrlar bildiramiz. Balki, bir tomondan bular haqiqatga yaqindir, ammo olimlarimiz bular haqida fanda aniq ilmiy xulosalar keltirishgan.

Bir afsonada aytilishicha, qadim zamonda bir podshoh bo'lgan ekan. Uning aytgani aytgan, degani degan ekan. Bir kuni sayohat qilib eng xushmanzara joyga borib qolibdi. Tabiati, havosi, suvlari, kishilari unga yoqib qolibdi. Shu yerda taxt qurmoqchi bo'libdi, hamma oyoqqa turibdi. Qishloqning kun chiqar tomoniga ikkita, kun botar tomoniga ikkita tuproqdan tog' uydiring, ustiga to'rtta taxt qurdiribdi. Tepaliklar shunday hashamatli qurilgan ekanki, odam pastiga borib qarasa do'ppisi tushib ketar ekan. Taxtlar bitgach arzanda, tannoz qizlarini oldirib kelib to'rtovini to'rtta taxtga o'tqazdirib qo'yibdi. Ammo qizlari bir-birlari bilan bordi-keldi qila olmabdilar. Shunda otalariga: Biz opa-singillar bir-birimizni ko'rolmay qiynalmoqdamiz, bizning bir-birimiznikiga borib kelishimiz uchun yer osti va yer ustidan yo'l soldirib bering,-deb iltimos qilishibdi. Podsho rozi bo'libdi. To'rt taxtni bir-biri bilan bog'lovchi yo'llar qurdiribdi. Shundan keyin to'rt malika shu joyda qolib, uzoq yillar yashashibdi. Joyning nomi esa *Chortoq*, yani «chor taxt» deb ataladigan bo'libdi. Chortoq xalqi orasida shunga o'xshagan yana bir afsona bor. Qadimda bu hududda yashagan tinch aholiga qo'shni qabilalar tez-tez hujum qilib, bu hududlarni talab xonavayron qilar ekan. Shu tufayli qishloq oqsoqollari to'planib dushmanlardan himoyalaniş maqsadida to'rt tomondan aholi yordami bilan tepalik barpo etishadi. Bu tepaliklar dushman kelayotgan vaqtda *mayoq* vazifasini bajargan. Ana shu tepaliklarda turib, gulxan yoqib dushmandan himoyalaniş uchun qishloq aholisiga xabar berganlar.

Z. M. Bobur o'zining «Boburnoma»sida Chortoq so'ziga to'xtalib, bu so'z o'zaro aloqani mustahkamlash vositasi ekaniga ishora qiladi va u haqida quyidagicha ma'lumot beradi: « Muhammad Maxsu Mirzo edi. Qandahorni onga berib edi. Xiriga keltirganda ulug' to'y qilib yaxshi *Chortoq bog'ladi*.»²²⁷ Bu yerda Chortoq atamasi to'rt burchakli chodir, to'rt gumbaz ma'nolarini bildirishi ifoda etilgan. Chortoq atamasi geografiya fanlari doktori, professori X. Hasanov qalamida boshqacha takomilini topgan. Professor quyidagicha fikr bildiradi: «Chortoq Namangan yonidagi qishloq. Buni «To'rt tog'» deb izohlaydilar, ammo bunday emas. To'rt gumbazli (to'rt toqisi bo'lgan) inshoot (ark, qo'rg'on, qorovulxona) *Chortoq* deyilgan. Ba'zan to'rt tomonda turadigan qorovulxonalar (baland minoralar) ham Chortoq deb atalgan»²²⁸. Demak, bu fikrdan shunday xulosa kelib chiqadiki, *Chortoq* atamasi biror qishloq o'rtasida bo'lgan baland ark, qorovulxonaga nisbatan ishlatilgan. Ammo bizningcha, har bir hududda mavjud bo'lgan biror qoravulxona yoki baland minora *chortoq* deb atalsa, bu termin ommalashib, atoqli ot sifatida emas, balki turdosh ot sifatida bugungi kungacha saqlanardi. Yoki biror davr tarixiy yozma manbalarida

²²⁷ Qarang: Chortoq tumani tarixi. –Toshkent: Universitet, 1995. –B. 13

²²⁸ Hasanov X. O'rtta Osiyo joy nomlari tarixidan. – Toshkent: Fan, 1995. –B. 56

ko'plab uchrardi. S. Qorayev o'zining «Geografik nomlar ma'nosi» kitobida *chortoq* so'zini shunday sharhlagan: «Chortoq Namangan viloyatidagi kurort va posyolka. Aslida Chortoq so'zi ikki so'zdan – chor (to'rt) va toq (ark, gumbaz) so'zlaridan tarkib topgan bo'lib, «To'rt go'shali» «Gumbaz» demakdir, toq so'zi O'rtasiyodagi eng qadimgi me'morchilik termini bo'lib, «arkli bino» ma'nosini anglatadi. Peshtoq (imoratning oldi tomonidagi toq), toqi ravoq (hashamatli saroy) va Chortoq so'zlari ana shu iboralardan tarkib topgan. Ayvon, bolaxona, qoravulxona ham chortoq deyilgan»²²⁹. Umuman, yuqoridagi fikrlar asosida shunday xulosa kelib chiqadiki, *Chortoq* nomi «to'rt toq», «to'rt tog'», «baland minora», «qoravulxona» va yoki «to'rt taxt» kabi ma'nolarni anglatadi. Uning Chortoq yoki Chortaxt deb atalishi esa turli davrlarda o'zgarishlarga uchragan bir so'zning ikki xil varianti, xolos. Bu esa bugungi kundagi Chortoq tumani tarixi juda ham qadimiyligini, uning ildizi uzoq o'tmishga borib taqalishini anglatadi.

ANGLIYA DAVLATI TARIXIDAN

*Qodiraliyeva Dilafruz,
Xorijiy filologiya yo'nalishi I-bosqich
talabasi.*

*Yuldasheva Mastona,
Ingliz tili va adabiyoti kafedrasida o'qituvchisi,
ilmiy rahbar.*

Yevropaning shimoli-g'arbida joylashgan Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya birlashgan qirolligi ayni paytda Angliya deb ham ataladi.

Dunyodagi boshqa davlatlar kabi Angliya ham o'zining buyuk o'tmishi va tarixiga ega. Hozirgi Buyuk Britaniya hududida miloddan avvalgi I ming yillikda kelt qabilalari - brittlar yashagan. Milodiy I asrda Britaniya orollarining katta qismini rimliklar bosib oldi. Milodiy V asrning ikkinchi yarmida anglosakslar mamlakatning talay qismini bosib olib, ilk feodal qirolliklarni tuzganlar. Kelt qabilalari Irlandiya va Shotlandiyada, qisman Britaniyaning g'arbiy chekkasida saqlanib qoladi. German qabilalari Britaniya yerlarida yettita qirollik tuzishadi. Orolning shimoliy va markaziy qismida joylashgan angllar: Nortumbriya, Mersiya va Sharqiy Angliya qirolliklarini tashkil etgan. Sakslarning janubdagi qirolliklari: Uesseks (G'arbiy-sakson), Sasseks (Janubiy-sakson) va Esseks (Sharqiy-sakson) deb nomlangan. Yettinchi Kent qirolligiga esa yutlar asos solgan.

Britaniyani bosib olgan anglo-saks qabilalari turli lahjalarda so'zlashgan, lekin yillar o'tib angllar yashagan Mersiya qirolligi aholisining shevasi tobora

²²⁹ Qorayev S. Geografik nomlar ma'nosi. – Toshkent: O'zbekiston, 1978 –B. 150.

keng qo'llanila boshlangan. Shu tufayli keyinchalik, istilochilar muomalasidagi til ingliz, mamlakat esa Angliya nomini oladi. IX asr boshlarida anglosaks davlatlari birlashtirilib, «Angliya» deb atala boshladi.

1265-yilda Angliyada Parlament tashkil etildi. Unga o'xshash qirolga yaqin feodallar yig'ini XI asrning oxirida ham chaqirilib turgan. Lekin undan farqli bu parlament tarkibida baronlardan tashqari, ruhoniylar, har bir graflikdan ikki ritsar, hamda yirik shaharlardan ikkitadan vakillar to'plangan. Parlament XIV asrdan lordlar va umumpalatalarga bo'linadi. Lordlar palatasida qirol taklif etgan zodagonlar, yepiskoplar, abbatlar majlis o'tkazganlar. Umumpalata esa ritsarlar va shaharliklar vakillari qatnashgan. Hozirgi Buyuk Britaniya parlamenti joylashgan bino Vestminster saroyi deb nomlanadi. XIV asrdan parlament soliqlar tayinlashdan tashqari, qonunlar ishlab chiqish va qabul qilishda qatnashish huquqiga ham erishadi. XV asrda Angliyada dehqonlarning tutqinligi batamom yo'qotildi, tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi mayda va o'rtacha hol dvoryanlarning tabaqalanishiga sabab bo'ldi.

XVIII asrda Angliya cheklangan monarxiya davlati edi. Davlat boshlig'i qirol bo'lib, hukumatni parlament saylovida g'olib chiqqan ikki siyosiy partiyadan biri tuzgan. 1707-yildan boshlab mamlakat Buyuk Britaniya deb ataladigan bo'ldi. Dastlab parlament vakolati 3 yil bo'lgan bo'lsa, 1716-yildan boshlab uning vakolati 6 yillik qilib belgilandi. Shu tariqa Angliyada professional parlamentga asos solindi.

Mamlakat poytaxti London ham o'z tarixiga ega. London milodiy 43-yilda rimliklar tomonidan Temza daryosining shimoliy qismida kelt aholisi yashaydigan joyda baro qilingan bo'lib, to'rt asr davomida rimliklarning bosh snahri bo'lib kelgan. Milodiy V asrda rimliklarning Britaniyadan ketishi natijasida London tushkunlikka uchragan. 1066-yildagi normannlar istilosi oqibatida London qirollar qarorgohiga va Angliyaning rasmiy poytaxtiga aylanadi.

Insoniyat ilm-fani xazinasiga ingliz olimlari ham salmoqli hissalar qo'shganlar. Maslan, I. Nyuton 1671-yilda shisha linzani ixtiro qildi. Fan sohasida erishgan katta muvaffaqiyatlari uchun 30 yoshga ham to'lmagan I. Nyuton Qirollik jamiyat a'zosi (akademik) etib saylandi. Nyuton kashfiyotlari va teleskopning takomillashtirilishi XIX asrda astronomiyani rivojlantirishga qudratli turki berdi. Minglab ilgari ma'lum bo'lmagan yulduzlar kashf etildi.

XVIII asrda ingliz shifokori E. Jenner odamga chechak kasali sigirdan yuqsa uning yengil o'tishini, so'ngra bu kasalni yuqtirgan kishiga chechakka qarshi immunitet paydo bo'lishini, ya'ni unga chechak kasali boshqa yuqmasligini aniqladi. Ana shu kuzatishlarga asoslanib, Jenner chechakka qarshi erlash usulini kashf etdi. Bu esa millionlab kishilarning hayotini saqlab qoldi.

1830-yilda jahonda 332 km temiryo'l bo'lib, bu yo'llarning katta qismi Buyuk Britaniyada qurilgan edi. Mashhur ingliz olimi Maykl Faradey (1791-1867-yy) elektr haqidagi fanni yaratdi.

Jahon adabiyoti tarixida ingliz yozuvchilari ham o'z o'rinlariga egadirlar. Angliya madaniyatining yuksak cho'qqilaridan bin sanalgan ingliz yozuvchisi Bernard Shou (1856-1950-yy) XX asr jahon madaniyatining yorqin yulduzi hisoblanadi. B. Shou dramaturgiyasi Yevropa teatrini demokratlashtirish uchun juda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Uning asarlari butun dunyoda yuksak baholandi va 1925-yili Shou adabiyot sohasidagi Nobel mukofoti bilan taqdirlandi. Bernard Shouning jahon madaniyatiga qo'shgan ulkan hissasi shundan iboratki, u ijtimoiy drama janriga asos soldi. Uning «*Jizzaki sotsialist*», «*Noteng nikoh*» (1910), «*Pigmalion*» (1912), «*Qalblar parchalanadigan uy*» (1919) pyesalari yozuvchiga ulkan dovrucq keltirib, uni jahon adabiyoti klassigi darajasiga ko'tardi.

O'z dunyoqarashi, estetik va siyosiy tamoyillari jihatidan Shouga yana bir ingliz yozuvchisi **Jon Golsuorsi** (1865-1933-yy) yaqin turadi. «*Forsaytlar dostoni*» (1916- 1921-yy) va «*Bu kunning komediyasi*» (1924-1928-yy) trilogiyalarida u Angliya burjua jamiyatining epik manzarasini yaratdi. U Angliyani «munofiqlar oroli» deb atab, hukmron doiralarning ikkiyuzlamachiligini, ijtimoiy munosabatlardagi illatlarni fosh qildi. 1932-yilda u ham Nobel mukofoti bilan taqdirlandi.

Mustaqillik yillarida Buyuk Britaniya - O'zbekiston munosabatlari jadal rivojlanib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki Buyuk Britaniyaning 5 ta banki bilan va xorijiy banklarning Londondagi 11 ta bo'limi bilan vakillik munosabatlari o'rnatdi. O'zbekiston Respublikasida Buyuk Britaniya sarmoyasi ishtirokidagi 115 ta korxonalar mavjud, shundan 34 tasida ingliz kapitali 100%ni tashkil etadi. Buyuk Britaniyaning 36 ta firmasi vakolatxonasi rasmiylashtirilgan.

TASVIRIY SAN'AT TA'LIMIDA ZAMONAVIY BADIY JARAYON MUNOSABATLARINI SHAKLLANTIRISH

Dilmurod Po'latov,

*NamDU Tasviriy va amaliy san'at
kafedrasi dotsenti, san'atshunoslik
fanlari nomzodi.*

O'zbekiston tasviriy san'ati ayni paytda jahon badiiy madaniyati bilan uyg'un holda rivojlanib borar ekan, bu hol musavvirlar tafakkurida ham yangi o'zgarishlarni sodir etmoqda. Ijodkorlar yaratayotgan zamonaviy asarlar hayotdan shunchaki ko'chirma emas, balki o'ziga xos falsafiy g'oyalarga yo'g'rilgan holda kuzatilmoqda. Shu bois, bugungi O'zbekiston rangtasviri bundan o'n besh-yigirma yillar oldingi jarayonlardan farqli ravishda, zamonaviy tus olayotganini alohida ta'kidlash lozim. Bu kabi asarlar tasviriy san'atni anglash borasida keng omma tushunchasidagi borliqni asl ko'rinishda ifodalash printsiplaridan holi ravishda, idroklash mushkul bo'lgan avangard ruhidagi mavhum va murakkab badiiy uslublarda namoyon bo'ladi.

Shu xususda musavvir Akmal Nurning "Uyqudagi farishta" (2004-y), Li Tat'yananing "O'ngidan kelgan tush" (2004-y), Farruh Ahmadalievning "Karvon" (2004-y), Lyudmila Sodiqovaning "Quyoshli kun" (2003 y) kabi rangtasvir asarlarini misol keltirish mumkin. Bunday asarlar ko'lamining kengayib borishi ijodiy jarayonda noan'anaviy uslubiy yondoshuvlar salmog'ini oshirishini qayd etish kerak.

2000-yillardan boshlab rangtasvirda zamonaviy tamoyilarni o'zlashtirish anchayin ilgarilab ketdi, rassomlar jahon tasviriy san'ati maydonidagi ilg'or yo'nalishlarni ham zabt etishga urinmoqdalar. XX asr oxiridan jadal rivojlanayotgan texnika taraqqiyoti, umumjahon madaniyati va san'atida ro'y berayotgan globallashuv jarayonlari, ommaviy axborot va kompyuter texnologiyalaridagi rivojlanish, shuningdek, xalqaro ko'rgazmalar doirasining kengayib borishi rassomchilikda yangicha ijodiy tafakkurni faollashtirdi, buning pirovardida zamonaviy yondashuvlar doirasi kengayib bormoqda. Bu borada XXI asr bo'sag'asida Toshkent Xalqaro "Biennale" ko'rgazmasining muntazam o'tkazilayotgani ahamiyatlidir. Zero, bu kabi badiiy ko'rgazmalar ta'sirida O'zbekiston tasviriy san'atiga installyatsiya, konstallyatsiya singari yangi badiiy yo'nalishlarning kirib kelishi ko'plab rassom va haykaltaroshlar faoliyatida uslubiy o'zgarishlar sodir etmoqda. Shu o'rinda Vyacheslav Oxunov va Jamol Usmonovlar ijodiga qisqa to'xtalib o'tish joiz.

Ular ijodida tasviriy san'atning rangtasvir turi haykaltaroshlikka xos plastik vositalar bilan uyg'unlik kasb etishi e'tiborni tortadi. Vyacheslav Oxunovning 2001-yili "Ruh va xayol" ko'rgazmasida namoyish etilgan "Unutilgan qum", Jamol Usmonovning "Qush tili", "Tashnalik", "Bahor", "Shaxmat donalari" hamda "Sarob" nomli installyatsiya turkum asarlarini misol sifatida keltirish mumkin.

Ayniqsa, Jamol Usmonovning bu boradagi ijodi faol kechdi. Uning ko'rgazmada namoyish etilib, ko'pchilik e'tiborini qozongan Alisher Navoiyning "Qush tili" asariga ishlangan installyatsiyasi g'oyaviy-shakliy jihatdan alohida ajralib turadi. Mazkur installyatsiyada Hazrat Navoiy bayon etgan g'oyalar ramziy shakllarda talqin etilgan. Oddiy hayotda murosasiz yashayotgan o'rmon qushlari rahbar yordamida Qof tog'iga ixtiyoriy safar qilib, odil Podsho talabida yo'lga yurishlari va bu jarayonda kechadigan og'ir sinovlar, mashaqqat va riyozatlarni ifodalashga harakat qilgan. Bu turkum asarda yam-yashil xushmanzara makonning rang va ashyolar asosida bosqichma-bosqich o'zgarib borishi sodir bo'layotgan yo'l mashaqqatlarini gavdalantiradi. Kompozitsiya yakunidagi moviy matoning koinot ramzi sifatida olinishi, Ko'hi Qof tog'i siymosini anglatadi.

Jamol Usmonovning "Qush tili" asosida bajarilgan ojizlar bahsi ham ifodali ochib berilgan. Filni turli a'zolarini ushlab o'z sezgilari orqali uni turfa xilda izohlayotgan ojizlar obrazi haykaltaroshlik vositasida amalga oshirilgan. Mazkur installyatsiyaning ta'sirchan chiqishi bilvosida chiroqlar bilan yoritilgan to'liq figuralarning ma'lum bir sirli muhitini yuzaga keltirishi bilan belgilanadi. Shuningdek, ko'rgazmadagi "Orolga bag'ishlov", "Sarob", "Ruhning kelib chiqishi", "Bahor", "Shaxmat donalari" nomli eksponatlar ham o'ziga xos badiiy yechimga ega.

Tasviriy san'atning rangtasvir turidan tashqari dastgohli haykaltaroshlikda yangi yo'nalishlarning rivojlanishi ko'zga tashlanadi. 1990-yillar oxiridan boshlab haykaltaroshlar orasida an'anaviy yondashuvlardan ko'ra zamonaviylikka jiddiy e'tibor beradiganlari ko'rina bordi. Bayot Muxtorov va shogirdlari Risdovlat Abdullaev, Zinnur Gayfullin, Akrom To'raev, Aleksey Toropov, Aleksey Protopopovlar ijodini shu xususda misol keltirish mumkin. Ular yangi ijodiy qarashlari bilan dastgohli haykaltaroshlikda yangi ashyolar bilan ishlash texnikasidan keng foydalandilar.

Yuqorida ta'kidlangan san'at namunalari O'zbekiston zamonaviy tasviriy san'ati rivojida munosib o'rin egallash bilan birga, bugungi kunda rassom kadrlarni tayyorlashda ilg'or badiiy yo'nalishlarga munosabat tuyg'usini o'stirishga chorlaydi. Talaba yoshlar qalbida yangi yo'nalish va uslublarni kashf etishga ishtiyoq uyg'otadi. Zero, sohaning bo'lajak kadrlari o'quv jarayonida narsa va buyumlar hajmini topishda, nafaqat rang va soyalar nazariyasiga oid kasbiy malakani puxta egallashlari, balki xotiraga tayanib ijodiy-badiiy tafakkurini o'stirish, asar yaratishning innovatsion yondashuv-

larini ham rivojlantirish ustida izlanishlari lozim. Chunonchi, odatda o'quv mashg'ulotlari jarayonida rassomlikning tasvirlash asoslari, metodlari o'rgatiladi va borliqni o'z holicha ifodalash ko'nikmasi shakllantiriladi. Bu talabalarni realistik uslub bo'yicha munosib tajriba hosil qilishi uchun yetarli bo'lsada, biroq ilg'or g'oyaviy qarashlarni ifoda etuvchi mustaqil ijodkorni tarbiyalash bilan bog'liq ehtiyojni qondirishga yetarli deyish qiyin. Shu maqsadda, tasviriy san'at fanlarini yuqoridagi asosda o'zlashtirish uchun mustaqil ish yoki to'garak mashg'ulotlarida badiiy asar yaratish masalalariga alohida e'tibor berish maqsadga muvofiq ko'rinadi. Bu hol milliy kadrlarni badiiy ta'limdan keyingi mustaqil faoliyatida o'z ijodiy dasxatini yaratishlarini ta'minlaydi.

Hozirgi zamonaviy texnika va texnologiyalar asrida jahon badiiy madaniyati bilan uyg'un holda rivojlanib borayotgan O'zbekiston tasviriy san'atida sezilarli o'zgarishlar zuhur etmoqda. Jumladan, komp'yuter texnikasi orqali katta hajmli tasvirlarni muhrlovchi (elektron) uskunalar imkoniyatining ortib borishi, ommaviy targ'ibot va reklamalarni namoyish etishda tasviriy san'atni vositalik o'rnini o'zgartirmoqda. Shuningdek, o'tkazilayotgan ommaviy tadbirlar, umumxalq bayramlari hamda zamonaviy shahar ko'chalarini bezashda mahoratli kompyuter grafikasi ijodkorlari va dizaynerlariga ehtiyojni oshirmoqda. Bu esa tasviriy va amaliy san'at badiiy ta'limi mavjud oliy ta'lim muassasalari hamda kasb-hunar kollejlarda tayyorlanayotgan kadrlarni yuksak malakaga erishtirish mas'uliyatini yanada mustahkamlaydi.

Tasviriy san'atimiz zamon bilan hamnafas rivojlanyotgan ayni paytda, bo'lajak musavvirlarni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash dolzarbligi ko'zga tashlanmoqda.

TA'LIMDAGI TEXNOLOGIYALAR VA TEXNIK VOSITALAR O'RNI

Abrorbek Ermatov,

Qo'qon Davlat pedagogika instituti talabasi.

Ilm-fan rivoji mamlakat taraqqiyotini belgilovchi muhim omillardan biridir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish va boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori ushbu yo'nalishdagi sa'y-harakatlarni yanada jadallashtirdi.

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universitetida YuNESKO, Rossiya ta'lim Akademiyasi, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, A. S. Pushkin nomidagi Leningrad davlat universiteti bilan hamkorlikda tashkil etilgan "Butun umr ta'lim: barqaror rivojlanish uchun uziuksiz ta'lim" mavzusidagi 5-xalqaro konferensiyani bevosita ta'lim sohasidagi xalqaro hamkorlikning yorqin namunasi sifatida e'tirof etish

mumkin. Ushbu xalqaro konferensiyani Guliston Davlat universiteti professor o'qituvchilari ham uzoq masofadan lokal tarmoq orqali kuzatib borishi, ma'ruzalar bilan qatnashishi, ma'ruzachilarga savollar bilan murojaat qilishi kabi holatlar axborot-kommunikatsiya texnologiyalardan oliy o'quv yurtlarida unumli foydalanilayotganidan dalolat beradi. Axborot texnologiyalari, texnik vositalardan ta'lim jarayoni samaradorligini ta'minlashda ham keng foydalanish mumkin. Ta'lim jarayonida foydalaniladigan axborot manbalarini 3 guruhga bo'lish mumkin. Bular:

Axborotning tasviriy manbalari.

Axborotning nutqiy manbalari.

Axborotning nutqiy-tasviriy manbalari.

Kompyuter texnologiyasidan foydalanilganda mana shu 3 guruhning o'ziga xos imkoniyatlarini e'tiborga olinsa, mashg'ulot ta'sirchanligi va samaradorligi oshadi.

Nutq faoliyatni o'stirishda komp'yuterdan o'rinli hamda unumli foydalanish imkoniyatlari mavjudligini tajribalarimiz ko'rsatmoqda. Audio va video materiallar hozirgi kunda ta'lim maskanlarida mavjud. Bu video materiallar (kasseta va disk)dan yakka holda ham, jamoaviy holda ham foydalanish mumkin. Kompyuter texnologiyasidan foydalanilganda yana quyidagi imkoniyatlarga ham ega bo'linadi.

O'quvchi tasvirlarni ko'ra oladi.

Berilgan topshiriqlarni bajara oladi.

Tinglab tushunadi.

Matnlarni mutolaa qiladi.

O'qituvchi kiritgan testlar orqali o'z bilimini sinab ko'radi.

Hodisalarini taqqoslashda, o'xshash va farqli o'rinlarini qiyoslashda, nutq o'stirishda magnitofondan ham foydalanish imkoniyatlari ko'p. Ovozni yozib olishni o'qituvchi ham, o'quvchi ham amalga oshirishi mumkin. O'quvchi o'z nutqi qandayligini bilish maqsadida biror bir matnni o'qib turib, yozib olishi va uni o'qituvchining ishtirokisiz ham eshitishi mumkin. Eshitish davomida nutqidagi nuqsonli o'rinlarni tezda farqlay oladi. Magnitafon barcha fanlarda keng qo'llanilishi mumkin. Magnitafon yordamida nutqiy mashqlar bajariladi. Bunday usullarni qo'llash tinglab tushunish va so'zlash malakalarini rivojlantiradi.

Yangi pedagogik texnologiyaga bag'ishlangan ilmiy-metodik adabiyotlarda o'qitish usullarining o'ziga xosligi haqida fikr yuritilmoqda. Bu usullar *innovatsion metod sifatida taqdim etilmoqda*. Quyida ta'limda qo'llash mumkin bo'lgan ayrim metodlarni tavsiya etamiz:

- **didaktik o'yinlar texnologiyasi.** Unda dars jarayonida turli didaktik o'yinlarni qo'llash orqali mashg'ulotda faol harakat tashkil qilinadi. Dars jonli bo'lib, o'quvchilarda qiziqish kuchayadi;

- **muammoli ta'lim texnologiyasi.** Muammoli vaziyatlar yaratish, muammoli savollar tashlash, muammoli vaziyatni yechishga qaratilgan muhokamani tashkil qilish hamda o'qituvchi tomonidan xulosalarning to'g'riligini tasdiqlash;
- **hamkorlikda o'qitish texnologiyasi.** Bu usulda o'quv topshiriqlari birgalikda bajarilibgina qolmay, shu bilan birga o'quvchilarni hamkorlikda o'qishga o'rgatiladi. O'quvchilar o'rtasida hamkorlik, o'zaro yordam, fikr almashish jarayoni vujudga keltiriladi;
- **tekshirish – sinov darslari.** Bunday darslar o'quvchilardagi bilim ko'nikmalarni sinash hamda tekshirish maqsadida o'tkaziladigan mashg'ulotlar bo'lib, ularda test topshiriqlari va boshqa sinov shakllari tashkil qilinadi.

Demak, yangi pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga olib kirish davr talabidir. O'qituvchi bunday texnologiyani puxta bilishi, o'rganiladigan til materiallarining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda uni to'g'ri tanlay olmog'i lozim. Darsning samarali shakllari qanchalik tez-tez qo'llansa, o'quvchilarning fanga qiziqish darajasi shunchalik yuqori bo'ladi. Maktab ta'limi fanlarni o'rganishga asos soluvchi dastlabki bo'g'in hisoblanadi. Shuning uchun maktab ta'limi ona tilining lug'at boyligi, go'zalligi, imkoniyati, sehri va boshqa jihatlarini o'quvchilarga singdirishi, tilga mehr-muhabbat tuyg'ularini tarkib toptirishi zarur. Bunda ilg'or texnologiyalar va texnik vositalarning o'rni kattadir.

TA'LIM JARAYONIDA DIDAKTIK MATERIALLAR ORQALI O'QUVCHILAR FAOLLIGINI OSHIRISH

N. Qirg'izov,

NamDU o'qituvchisi.

Ta'lim tizimida sodir bo'layotgan o'zgarish va yangilanishlar boshlang'ich sinf o'quvchilariga yangi bilim, ko'nikma va malakalarni berish bilan bir qatorda yoshlarimizning o'ziga va jamiyatga, tabiatga nisbatan mehr uyg'otishi, vatanparvarlik g'oyalarini ongiga va qalbiga singdirishni ham ko'zda tutiladi. Bulardan tashqari ularni faolligini oshirishda ilg'or pedagogik texnologiya darslari va an'anaviy darslarning bir-biridan farqli jihatlarini tushuntirish bilan, darsda o'quvchiga erkinlik muhiti yaratib beriladi. Ya'ni, o'quvchiga tazyiq o'tkazilmaydi, shaxsiyatiga tegmasdan savollar beriladi, erkin muloqotga tortiladi, shaxs sifatida hurmat qilish orqali do'stona munosabatdagi o'quv muhit yaratiladi hamda turli xil didaktik materiallardan, ko'rgazmalilikdan foydalanish ularning faolligini oshirish maqsadga muvofiqligini erishish mumkin.

Boshlang'ich ta'limda 1-sinfdan boshlab so'zlarning ma'no-mazmuni va ularning rang-barangligi, ularni nima maqsadda va qanday holatlarda ishlatish lozimligini sodda qilib o'quvchilarga tushuntirish va ushbu so'zlarni ishlatishda mas'uliyat bilan munosabatda bo'lish zarurligini uqtirish lozim.

Kichik yoshli o'quvchilarda turli usullar bilan so'zlashishi va xilma-xil gaplar tuzish qobiliyatini tarbiyalashning eng muhim vositasi didaktik materiallardan foydalanishdan iborat. O'quvchilarda ohangdorlik, ifodali o'qish hamda o'quvchi nutqi madaniyatini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Ushbu jarayon o'quvchilarning nutq malakalarini takomillashtirishda yordam beradi. Bunda so'zlarning xususiyatlarini tushunish qobiliyati hal qiluvchi rol o'ynaydi. Har bir so'z mohiyatini yaqqol va to'la tasavvur qilmay turib ifodali o'qish mumkin emas. Chunki har bir so'zni tushunish va uning qaysi maqsadda qo'llanishini bilish natijasida tovush ohanglari har xil xarakterga bog'liq bo'lishi mumkin.

O'quvchida oddiy so'zlar orqali kichik gaplar tuzish qobiliyatini rivojlantirish voqea va hodisalarni tushunishga, o'z oldiga qo'yilgan maqsad va vazifa hamda vositalarni to'liq anglashga bog'liq. Bularidan tashqari didaktik o'yinli metodlar o'quvchi faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan hisoblanadi. Ular o'quvchi shaxsidagi ijodiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish va rivojlantirishning amaliy yechimlarini aniqlash va amalga oshirishda katta ahamiyatga ega.

Didaktik materiallar ta'lim-tarbiya jarayonida asosan o'quvchilarda ta'lim olish motivlarini, ularni turli yo'nalishlardagi qobilyat va qiziqishlarini oshiradigan, biror kasbga moyilliklarini ko'rsatadigan, nazariy, amaliy, jismoniy, ishchanlik va boshqa yo'nalishdagi turlarga ajratiladi. Ular o'quvchilarda tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, tadqiq qilish, hisoblash, o'lchash, yasash, sinash, kuzatish, solishtirish, xulosa chiqarish, mustaqil qaror qabul qilish, guruh yoki jamoa tarkibida ishlash, nutq o'stirish, til o'rgatish, yangi bilimlar olish faoliyatlarini rivojlantiradi.

Ayrim didaktik materiallar va o'yinlar orqali dars shakllari tashkil etishimiz mumkin. Misol uchun turli xil didaktik materiallar va o'yinlarni dars o'tish jarayonida mavzu bo'yicha masalalarni hal etish jarayonida o'quvchilarning faol ishtirok etishini ta'minlash orqali yangi bilimlarni o'zlashtirish mashqlarini tashkil etishda foydalaniladi.

Bularidan tashqari integratsiyalashgan dars boshqa darslarga doir va integratsiyalash uchun qulay bo'lgan mavzular bo'yicha tashkil qilingan dars, o'quvchilarning turli fanlarga qiziqishlarini ortirib, ta'lim jarayonidagi faolliklarini oshishini ta'minlaydi. Bularning bari o'quvchilarga fanlararo bog'liqlikni o'rgatish orqali ularda olam tuzilishining ilmiy asoslarini to'liq idrok etish va ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirish, ijodiy tafakkurlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bunda o'qituvchi faqat o'qitibgina qolmay, o'quvchini mustaqil mutolaa qilish orqali ta'lim olish ko'nikmalarini shakllantirish, o'quvchilarni darslik, qo'llanma, internet xabarlarini, manbalarini tahlil qilish orqali bilim olishga o'rgatish, o'quvchi ta'lim jarayonida eshitib, ko'ribgina qolmay, balki dars mavzusi, mazmunini o'rganishda uni faol ishtirokchisiga aylanishini ta'minlashi zarur. Agar o'qituvchi interfaol talim mazmunini va mohiyatini, uning metodlarini o'qib-o'rganib, o'zlashtirib, oz pedagogik faoliyatiga joriy qila olish, takomillashgan Davlat ta'lim standartlarini va modernizatsiya qilingan o'quv dasturlarini kafolatlaydi, sifat va samaradorlikka erishishni ta'minlaydi. Savodga o'rgatish darslari tayyorgarlik va asosiy davrni o'z ichiga qamrab olib, mazkur bosqichda o'quvchilar bilan olib boriladigan ta'limiy-tarbiyaviy ishlar turli-tumandir.

Ta'limning yangi mazmuni o'quvchilarning har tomonlama kamol topisiga, ularni faollashtirishga qaratilgandir. Ayniqsa, bolalarni xat-savodga o'rgatish, lug'atini boyitish, nutqlarini rivojlantirish orqali boshqa o'quv fanlarini o'zlashtirishlariga erishmoq lozim. Xat-savod o'rgatish ta'limning muhim bosqichi bo'lib, bu davrda o'quvchilarga to'g'ri o'qish, chiroyli yozish hamda o'qiganlarini so'zlab berish o'rgatiladi. Nutqni gaplarga, gapni so'zlarga, so'zni bo'g'inlarga ajratish, tovushlarni eshitib va talaffuz qilib bir-biridan farqlash, so'zda tovushlarning birin-ketinligiga e'tiborni berishni ham bilib olishlari taminlanadi.

Xat-savod o'rgatish ishlarida bolalarni kesma xarflar bilan ishlashga o'rgatishda didaktik materiallar alohida ahamiyat kasb etadi. Ular yordamida bolalar bo'g'inlar tuzishga tez o'rganadilar. Ochiq va yopiq bo'g'inlarni turli ko'rinishidan tuzilgan gaplar tuzishni ham mashq qiladilar. Kichik matnlarni ovoz chiqarib, bo'g'inlab, ongli, to'g'ri va ravon o'qishga o'rganadilar. Bu davrda bolalarni sidirg'a, ya'ni so'zlarni butunicha o'qishlariga alohida ahamiyat berishi lozim. Bola avval ichda bo'g'inlab o'qishiga, so'ng ovoz chiqarib so'zni butunicha aytishga o'rgatiladi.

O'qish darsi, yozuv darsi bilan uzviy bog'lab olib boriladi. Bu usul bolalarning og'zaki va yozma nutqini baravar rivojlanishiga yordan beradi. O'qish darslari davomida o'quvchilar so'zdagi xarflarni bir-biriga bog'lab yozish, so'z va gaplarni kichik hamda bosh harflarni alifbe kitobida berilgan tartibda yozishga o'rgatiladi. Xat-savod o'rgatish davrida bolalarni bosma harflar bilan yozma harflarning o'xshash tomonlarini farqlab, bosma harflarni yozma ravishda ko'chirib yozishga ham o'rgatish maqsadga muvofiqdir. Chunki ular ko'pincha bosma harflarni aralashtirib yozib qo'yadilar. Shunday paytda ular e'tiborini yozuv namunalari ga jalb qilish, yozuvlarini to'g'ri va chiroyli bo'lishiga erishmoq lozim.

Savod o'rgatishning har bir bosqichi o'zining muhim pedagogik-didaktik qirralari bilan ajralib turadi. Masalan, alifbo o'rgangungacha bo'lgan davrda turli xil rasmlardan, chizmalardan, shakllardan, ranglardan, nuqtalardan,

so'zlardan va boshqa vositalardan keng foydalaniladi. Shuningdek bolalar o'qituvchining savollariga javob berishga, voqealar haqida erkin so'zlashga odatlana boradilar. Savod o'rgatishda ta'lim-tarbiyaning zamonaviy tamoyillariga, xalq pedagogikasi an'analarig, milliy qadriyat va axloqning odob mezonlariga qat'iy rioya qilishga, o'quvchilarning ruhiy holatlari va o'qish-o'rganishga qiziqish darajalarini hisobga olishga, yozuvga o'rgatishda ularning tovush-xarflarini aniq farqlay olishga e'tibor beriladi.

Savod o'rgatish jarayonida bir turdagi mashg'ulotlar uzoq davom etsa, o'quvchilar tez charchaydi. Shuni hisobga olib, mashg'ulotlarning turi va usullarini o'zgartirib turish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek dastlabki mashg'ulotlar ta'sirchanlik va mo'jizakorlik jihatidan yuksak darajada bo'lishi kerak. Chunki bolalar yozish va o'qishdek aqliy faoliyatga birdaniga kirisha olmaydilar. Chunki bu davrda bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, ularning xotirasi, diqqati, nutqi, tafakkuri va idrokini tartiblashga eng muhim omillardan sanaldi.

Alifbo davrining asosiy vazifasi bolalarning og'zaki nutqini o'stirish, tovush talaffuzini yaxshilash, o'zbek tili alifbosidagi barcha harfiy, imloviy belgilarni o'rgatishdan iboratdir. O'quvchilarni to'g'ri, ravon o'qishga o'rgatish jarayonida ifodalilikka ham ahamiyat berish lozim.

Alifbo davri uch bosqichga bo'linadi: alifbo davrining birinchi bosqichida quyidagi ishlar amalga oshiriladi. Bularga gap, so'z, bo'g'in, tovush haqida tushuncha hosil qilish; unli, undosh tovushlarining talaffuzi yuzasidan mashq qilib, ularni bir-biridan farqlash, kesma harflar bilan ishlash, bir va ikki bo'g'inli so'zlarni ravon o'qiy olish, o'qiganlarini gapirib berish; so'zlarni to'g'ri yozish, chiroyli yozuv qoidalariga rioya qilish; gapni bosh harf bilan boshlab, oxiriga tegishli tinish belgilarini qo'yish, bolalarda eshitib yozish malakalarini shakllantirish, diktant yozishni mashq qildirish kabilardan iborat.

Bu bosqichda "yozuv daftarining" chiziqlarini to'g'ri chamalab yozish, shaklini ko'rsatilgan namunaga qarab yozish mashq qildiriladi. Yozuvga o'rgatish ishlari husnixat bilan birgalikda olib boriladi. Har bir harf o'rgatilmasdan oldin didaktik materiallar orqali tovush va bo'g'in tahlil qilinib, so'ng yozuv mashqlar o'tkazilsa, o'quvchilar tomonidan harfni tushirib yozishning oldini olinadi.

Ikkinchi bosqichda unli tovushlar bo'g'in hosil qilishi bilan tanishtiriladi. Bu jarayonda bolalar ikki undosh o'rtasida unli kelgan yopiq bo'g'inli so'zlar; qish, qush, qum, mo'l, ketma-ket kelgan bir hil undoshli so'lar (pilla, do'ppi, avval, koptok, yong'oq), olti harfli yopiq bo'ginli so'zlar qishloq, gulzor, Gulnoz, uch bo'g'indan iborat so'zlar Ma'suda, Xolida, Gulmira va xokazolar kabi tanishtiriladi.

Rasm ustida suhbat o'tkazilganda, yangi tanishtiriladigan tovush-xarf ishtirokida tayanch so'zli gap ajratib olinadi. Har bir gap so'zlarga, tayanch

soʻz boʻgʻinga, boʻgʻin esa tovushlarga boʻlinadi. Shu yangi oʻrganilayotgan tovushga mustaqil ravishda unli tovush qoʻshib, boʻgʻin hosil qildiradi.

Oʻquvchilarga tanishtirilgan yangi harfni kesma harflardan topib, boʻgʻin, keyin esa soʻz tuzish va ularni ravon oʻqishlari lozim. Soʻzlarni boʻgʻinlarga bir boʻgʻin yoki harfni almashtirish bilan yangi soʻzlar yasash bolalarni oʻqishga oʻrgatish ishini yengillashtiradi.

Oʻquvchilarda ongli oʻqish malakasini hosil qilish uchun oʻqituvchi tomonidan matn yuzasidan yetakchi savollar berib borish yaxshi natija beradi. Bularga misol uchun rasmlar yuzasidan tushunganlarini gapirib berish gapda soʻzlar tartibga rioya qilish, gapning mazmuniga qarab tegishli tinish belgisini qoʻyish, gapni tahlil qilishda faol ishtirok etish, unli undoshlarni farqlab, ochiq va yopiq boʻgʻin tuzish, tovushlarni aniq talaffuz etishni bilishdan iborat. Ketma-ket kelgan undosh tovushli soʻzlarni xatosiz oʻqish va yozish, oʻqiganlari asosida rasmlardan foydalanib hikoyacha tuzish, ertaklar mazmunini soʻzlab berish, maqol, tez aytish, topishmoqlarni yoddan ayta olish, chiroyli yozuv qoidalariga rioya qilishga, soʻzlarni boʻgʻinlab, ichda takrorlab, toʻgʻri yozish, ikki va uch boʻgʻinli soʻzlarni tovush tahlilidan soʻng eshitib yozish, gapni bosh xarf bilan boshlashga, gapdan soʻng tinish belgisini toʻgʻri qoʻyishni didaktik materiallar orqali tushuntirib berilishi lozimdir.

Oʻquvchilar faqat oʻqituvchi rahbarligida emas balki oʻzlari ham didaktik materiallardan foydalanib mustaqil ishlashga oʻrgatib boriladi. Shu maqsadda biz kuzatgan har qaysi darsimizning 6-10 daqiqani mustaqil ishlashga ajratamiz, darsning bu qismini qiziqarli uyushtirishda ham didaktik materiallardan foydalanish katta yordam beradi. Savod oʻrgatish davrida didaktik materiallardan foydalanish oʻquvchilar nutqini oʻstirishning asosiy poydevori hisoblanadi. Dastlabki mashgʻulotlarda biz turli xil rasmlar, boʻgʻin va soʻzlar yozilgan kartochkalardan foydalandik. Bolalar hali oʻqish va yozishni bilmasliklarini hisobga olgan holda, bunday rasmlar kartochkalarni kanvertga solib, oʻquvchilarni gruppalariga boʻlib oldik. Har bir kanvertga shu predmetning nomini yozib rasmlarni yopishtiriladi. Bu konvertlarni oʻquvchilarga beriladi. Bolalar kanvert ichidagi predmetni konvert ustiga yopishtirilgan rasmga qarab xillarga ajratadilar, keyinchalik ularda oʻqish malakasi hosil qilingach esa konvert ustidagi yozuvga qarab topadilar.

Oʻqituvchi oʻquvchilarining shu kartochkalarda tasvirlangan rasmlar bilan tanish yoki tanish emasligini kuzatadi. Ularga shu rasmlar haqida qisqa va tushunarli savollar beradi va savollarga javob oladi. Masalan konvertda uy hayvonlarining rasmlarini olish va tagidagi soʻzni oʻqish vazifasi topshiriladi. Bolalar oʻqituvchining topshirigʻini bajaradilar. Rasmlarni olib soʻzlarni oʻqiydilar. Agar soʻzning bosh harfi yoki bir boʻgʻini tushirilgan boʻlsa nuqtalar oʻrniga unga mos harf yoki boʻgʻinni kesma alfabitdan topib toʻldiradilar. Mustaqil ishlarda didaktik kartochkalardan qanchalik koʻp foydalanilsa, oʻzlashtirish shunchalik yaxshi boʻladi.

Maktabgacha va maktab yoshidagi kichik bolalarning nutqini o'stirishda didaktik o'yinlar muhim o'rin tutadi. Ilmiy-metodik jihatdan to'g'ri tashkil etilgan didaktik o'yinlarni bolalarning zo'r quvonch bilan o'ynashi tajribada aniqlandi. Har bir o'yin mobaynida bolalarning diqqati taraqqiy etib boradi. O'yin paytida bolalar bir-birlarining harakatlarini kuzatadi, hech narsani ko'zdan qochimaslikka, o'yin qoidalarini va berilgan vazifalarni esda saqlab qolishga tirishadilar. Bundan tashqari o'yin paytida o'quvchilar oldin o'rganilgan materiallarga asoslangan holda ish tutadilar. Natijada bu materillar bolalar xotirasida yana ham mustahkam o'rnashib qoladi.

Didaktik o'yinlarni didaktik materiallar orqali tashkil qilish bolalarda har bir o'tilgan mavzuni bilishga intilishini uyg'otadi. Ularning aqliy ish bilan aktiv shug'ullanishiga imkon beradi. Kuzatuvchanlik predmet va hodisalarni taqqoslash, tahlil qilish umumlashtirish aniqlash qobiliyati hamda nutqi o'sa boradi.

Didaktik o'yinlar ularni ongli harakat qilishga o'rgatadi. Shu nuqtai nazardan bolaning xotirasini, diqqatini mustahkamlashda so'z boyligi va nutqini o'stirishda didaktik materiallar hamda o'yinlarning katta ahamiyati bor. Darslarni kuzatishlari mobaynida shuni bilishimiz mumkinki o'tkazgan bir qator didaktik mashg'ulotlar orqali eng passiv, tortinchoq, kam gap nutqi sust bolalarda dastlab qo'rqqoqlikni keyinchalik dadillikni qo'lga olib darsga kirishib ketganlarini kuzatiladi. Dars jarayonida o'tkazgan didaktik mashg'ulotlar o'z samarasini ko'rsatdi hamda o'quvchilarning faolligini oshirdi.

Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki didaktik o'yinlar, ayniqsa bolalar ham o'qituvchi ham o'yinlarning qanday o'tishiga qiziqan paytlaridagina ularni bir-birlariga yaqinlashtiradi. O'qituvchi bolalar nazarida tarbiyachigina emas balki chinakam do'stga aylanadi. Bu esa dastlabki kunlarda yuz beradigan yotsirash hollariga butunlay barham beradi. Shunday qilib didaktik materiallar va o'yinlardan foydalanish ularning kayfiyatini ko'tarishga hamda nutqining rivojlanishiga imkon yaratadi. Bu davrda matnning, og'zaki va yozma matn haqidaligi, matn gaplardan tuzilishi, so'z gaplarning so'zlardan tashkil topishi yani matn tuzish va uni bo'laklarga bo'lib matn tarkibini tashkil qiluvchi qismlarni idrok etishga o'rgatish, bo'g'in, tovush, harf haqida ma'lumot berish, unli tovushlar va undosh tovushlar haqida ma'lumot berish, tovushlarning unli va undosh tovushlarga ajralishini o'rgatish, alifbedagi rasmlar, o'qituvchi yoki o'quvchilar tomonidan tayyorlangan materiallar asosida matn tuzdirish, o'quvchilar bilgan she'r, hikoya, ertak, maqol, topishmoq, tez aytish va boshqalarni yoddan aytirish, ularga yangi she'r, hikoya, ertak, maqol, topishmoq kabilarni o'rgatib borish, alifbe darsligidagi so'zlar, uning ma'nolari ustida ishlash, tanish so'zlar asosida o'quvchilarni gap tuzishga o'rgatish, harf va tovush orasidagi mutanosiblik va farqni tushintirish ishlari olib boriladi.

O'QUVCHILAR MA'NAVIYATINI OSHIRISHDA TASVIRIY SAN'AT FANINING AHAMIYATI

*Qambarov Nodirbek,
Boshlang'ich ta'lim
metodikasi o'qituvchisi.*

*Rahimova Maftuna,
BT va STI yo'nalishi 4-bosqich
talabasi.*

«Ma'naviyat ta'lim-tarbiya, ong mahsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan omildir. Binobarin, ta'lim-tarbiya tizimini o'zgartirmasdan turib, ongni o'zgartirib bo'lmaydi. Ong, tafakkurni o'zgartirmasdan turib esa biz ko'zlagan oliy maqsad—ozod va obod jamiyatni barpo etib bo'lmaydi».

Jamiyatning rivojlanishi faqat uning iqtisodiy taraqqiyotinigina emas, balki ma'naviy yuksalishini ham taqazo etadi.

Ma'naviyat-shaxsning, insonning, xalqning, davlatning, jamiyatning kuch-qudrati, taraqqiyoti, imkoniyatlari va istiqbollarini belgilab beruvchi ichki ijobiy, ruhiy omildir.

Ma'naviyat inson axloqi va odobi, bilimlari, iste'dodi, qobiliyati, amaliy malakalari, vijdoni, e'tiqodi, dunyoqarashi, o'zaro bog'langan mafkuraviy qarashlari, jamiyat taraqqiyotiga ta'sir etadigan g'oyalar majmuidir.

Prezidentimiz ma'naviyatga shunday ta'rif beradilar: "Ma'naviyat - insonni ruhan poklanish, qalban ulag'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir".

Ma'naviyatni shakllantirishga bevosita ta'sir qiladigan omil – bu ta'lim-tarbiyadir.

O'quvchilarning ma'naviyatini oshirishda san'atning o'rnini beqiyos. U inson hayotini mazmunli qiladi, ma'naviy jihatdan boyitadi. Chunki san'at insonning go'zallikka bo'lgan ehtiyojlarini qondirishi barobarida, uning his-tuyg'ularini uyg'otadi, ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi, ezgulik sari yetaklaydi. Bu bilan insonning ma'naviy o'sishiga sharoit yaratadi. Ijtimoiy va shaxsiy hayotida eng murakkab muammolarni hal etishga yordam beradi, har bir kishini hayotda o'z o'rnini topishga ham ko'maklashadi. Buning uchun san'atni oshunish, u bilan oshno bo'lish lozim.

San'at inson hayotida u yoki bu tarzda namoyon bo'ladi; bolalikdan rasm solish, qo'shiq aytishga qiziqish, o'smirlikdan kitob o'qishga ishtiyoq, go'zallikka intilish, yoshlikdan musiqa olamiga, teatr, kinoga havas kuchaya borib, insonga g'oyaviy, axloqiy, estetik yo'nalishlar beradi va go'zallik kashf etishga undaydi

Tabiat ko'rinishlari, maxobatli binolar, inshootlar, kelishgan inson gavdasi, yuksak axlokiy va olijanob xatti-harakatlar. chiroyli taqinchoq, kuzda oltindek tovlangan bog', bahorda qiyg'oz gullagan shaftolizor - rassom yaratgan san'at asarlari - bari o'quvchilarda zavq uyg'otadi.

Bu go'zalliklar o'quvchilarning ma'naviy olamini shakllantiradi.

Estetik tuyg'u parvarish qilinmasa, hayotdan yangi-yangi go'zalliklar kashf etib turilmasa, so'nib qolishi, natijada odam hissiz mavjudotga aylanib qolishi mumkin.

Tasviriy san'at fani o'quvchilarning ongiga tezda ta'sir etib, ularda ezgu hislar uyg'otadigan, ma'naviy olamini boyitadigan san'at turlaridan biridir. Masalan, 3-sinf tasviriy san'at darsligidagi rassom Rahim Ahmedovning "Kuz tabiati manzarasi" rasmini tomosha qilib mana nimalarni ko'rish va tushunish mumkin: "Osmonning moviy choyshabi Quyoshning yo'lini to'sib qo'ygandek go'yo. Qoyalar ham o'zgacha tus olgan. Yozi bilan Quyosh nuri daraxtlarning sillasini quritgan. Birinchi navbatda quyosh nuriga teraklar taslim bo'lishgan, qolgan daraxtlar oltindek tovlanib, jilolanib turibdilar. Suratda bir kishi bo'lib, uni nima qilayotganini tushunib bo'lmaydi. Xo'roz va tovuqlar ham kuzning ne'matlaridan ko'proq bahramand bo'lishga oshiqmokdalar: hamma yoq jonlanib, tabiat butun rangi bilan jilolanyapti". Bu rasmni tomosha qilib kuzni nega «oltin kuz» deyilishiga javob topiladi. Yoki O'rol Tansiqboyev chizgan «Tog'da sahar» rasmini olaylik: "Sahar chog'i... Osmonning moviy choyshabi xiyol oqaryapti. Tog' cho'qqilaridagi qor goh qizarib, goh oltindek yonib tovlanadi. Qorong'ulikni yorib o'tgan Quyoshning ilk shu'lalari tasirida tog' qoyalari birdan yorishgandek bo'ladi. Tong ko'karadi, oqaradi, yorishadi, bulutlar ham oltindek tovlanadi. Havo iliq, gullar yuz ochib, xushbo'y hid taratgandek bo'ladi".

O'quvchilarga rasmlarni huddi shunday o'qishga o'rgatish zarur. Shundagina tasvirlar orqali o'quvchilarning tabiatga bo'lgan mehrlari ortadi, uning go'zalligidan ilhom olib buyuk ishlarga qanot bog'lashadi. Tabiatni asrashga o'rganadilar.

O'quvchilar rasmni idrok qilayotganlarida shunday tasavvurga ega bo'lsalar, chizish jarayonida esa, butun borliqni idrok qiladilar va tabiatni ranglar orqali ko'radilar. Bola rang-baranglikni yaxshi ko'radi va u sari talpinadi. Demak, o'quvchilar ranglar orqali tabiatni o'rganadilar, u haqidagi bilimlarini oshiradilar; tabiatni yashirin sirlarini kashf etib boradilar.

Tasviriy san'at fani o'quvchilarning ko'rishi, sezishi, ranglarni ajrata olishi kabi ruhiy xolatlarni shakllantiradi. Yana aql, farosat, did, bilim berish bilan birga, madaniyat, nafosat sirlarini o'rgatadi; moddiy olam va undagi narsalarni, voqea-hodisalarni obrazga va rangga tushirish bo'yicha malakalar beradi. Tasviriy san'at fani o'quvchilarda nozik tuyg'u va go'zallikka intilishni shakllantiradi. Tasviriy san'at fani o'quvchilarni estetik ruhda tarbiyalashga, ayniksa, badiiy jihatdan tarbiyalashga xizmat qiladi. Tasviriy san'at darslari

o'quvchilarni fikrlash qobiliyatini, xotirasini, ijodiy tasavvurini, badiiy didini, estetik hissiyotini o'stiradi.

Odamlar ibtidoiy davrdayoq tasviriy san'at bilan shug'ullana boshlaganlar. Insonning mehnati jarayonida, ov paytlarida dastlabki obrazlari yovvoyi hayvonlar bo'lgan edi. Ana shu o'tmishdagi san'at ustalarining asarlari orqali o'tmish madaniyati, turmushlari va san'atning guvohi bo'lamiz.

San'at asarlarida odamlar zamon, davrning yangi muhim xislatlari ochiladi.

O'quvchilarning ma'naviy olamini kengaytirishda ajdodlardan qolgan moddiy va ma'naviy boyliklardan namuna sifatida foydalanish mumkin.

Tasviriy san'at bilan xalqimiz qadimdan shug'ullanib kelganlar va san'at darajasiga yetkazganlar. O'zbek xalqining Tasviriy san'ati ham qadimiy bo'lib, uning sarchashmalari ibtidoiy davrdan, tosh asridan boshlanadi.

Bizga ota-bobolarimizdan mahalliy tasviriy san'at sifatida naqqoshlik va miniatyura san'ati yetib keldi va yuksak darajada rivoj topdi. Qadimgi nodir qo'lyozmalar ichida bizgacha saqlanib qolgan nafis, ko'rkam rasmlar alohida o'ziga xos go'zallik, nafosat olamiga ega. Ayniqsa, Moniy va Kamoliddin Behzodning asarlari ulkan ma'naviy boylik hisoblanadi. Ulardagi erkin ranglar, nozik chiziqlar, ajoyib mutanosibligi hamon tomoshabingaga estetik zavq bag'ishlaydi.

Hozirgi davrda ham ularning izidan borib, tasviriy san'atimiz rivojiga hissa qo'shayotgan rassomlar juda ko'p. Masalan, Ch. Axmarov, O'. Tansiqboyev, B. Jalolov, A. Aliqulov, B. Boboyev, A. Nabiyev va boshqalar shular jumlasidandir.

Tasviriy san'atning qaysi bir yo'nalishini, turini olib qaramang, barchasi komillikka yetaklaydi.

Xalqimiz tasviriy san'atining xar bir tur va yo'nalishi o'z mutaxassislariga ega. Me'morchilik san'ati deysizmi, dizaynerlik san'ati deysizmi, kulolchilik, naqqoshlik, haykaltaroshlik deysizmi barcha-barchasi o'quvchilarni ijod qilishga, izlanishga, ota-bobolarimizdan qolgan buyuk me'roslarni asrab-avaylab, ulardan ma'naviy ozuqa olishlariga xizmat qiladi. Masalan, haykaltaroshlik san'atini olaylik.

Haykaltaroshlik san'atida, insonlarning hayotiy va ruhiy kechinmalarini, go'zalligini, tarixiy-buyuk shaxslar siymolarini fan arboblarni bugungi kunning ijodkorlarini va mehnatkash xalqning asl farzandlari obrazlarini turli xildagi materiallarda ifoda etiladi. San'at va go'zallik tarbiyasi o'quvchilarning estetik qobiliyatlarini o'stirishga, mehnatga ijodiy yondashishga xizmat qiladi.

O'quvchilarni dars-mashg'ulotlari davomida buyuk siymolar haykallari bilan tanishtirish va ular bugungi kun yoshlariga nima demoqchi yekanligini aytib o'tmoq lozim.

Tasviriy san'at darslarida har bir sinfda haykaltaroshlikka soatlar ajratiladi. 3-sinf Tasviriy san'at darsligining 30-sahifasida Ilhom va Kamol Jabborovlar ishlagan buyuk bobokalonimiz Amir Temur haykalining rasmi bo'lib,

o'quvchilar buni tomosha qila turib beixtiyor shunday inson bo'lishni orzu qiladilar. O'quvchilarimiz bobomizdek mard, jasur vatanparvar va adolatli bo'lish kerakligini tushunib oladilar va ul zotga o'xshashga xarakat qiladilar.

Haykaltaroshlik san'ati ham o'quvchilarning ma'naviyatini yuksaltirib, estetik didini oshirib, nafosat sari yetaklaydi.

Me'morchilik san'atini olaylik. Me'morchilik san'atimiz butun dunyoga ma'lum va mashhurdir. Samarqand-u Buxoro, Xiva-yu Toshkent va boshqa viloyatlarimizda me'morchilikning sara durdonalari ko'zni quvontiradi. Bu me'moriy obidalar o'tmishimizdan, undagi hayotimizdan xabar beradi. O'quvchilarga milliy san'atimizni zamonaviy san'at bilan uyg'unlashtirgan xolda, cayqal berib kelajak avlodga yetkazish masalasi uqtirilishi va amalga oshirishga undash lozim. Shundagina o'quvchilar ongli ravishda o'zlari o'zbek san'atini rivojiga hissa qo'shishga kirishadilar.

Mashg'ulot davomida o'qituvchi asosiy e'tiborni san'at asarlarini idrok qilishga, ya'ni ularni o'qiy olishga o'rgatishi kerak.

Tasviriy san'at bilan tanishish hayotdagi va san'atdagi go'zallikni tushuna bilishga yo'naltirilgan, jonajon tabiatga, Vatanga, san'atga bo'lgan muhabbatni rivojlantirishga qaratilgan bo'ladi.

Rassomlar eng go'zal, chiroyli odamlarga yoqadigan shakllarni, ranglarni, narsalarni, voqelarni ko'radilar ularni yoqimsiz-xunuk narsalardan ajratib oladilar va o'z asarlarida tasvirlaydilar.

Xullas, qaysi bir xalqning rassomlari ko'p bo'lsa, ular ijodkor bo'lsa, bu xalq eng ko'rkam, eng chiroyli va yuksak ma'naviyatga ega bo'ladilar. Chunki rassomlar o'z xalqini yuksak madaniyatli, ilm-ma'rifatli, keng ma'naviyatli bo'lishiga va chiroyli yashashiga chorlay oladigan his-tuyg'ular yo'lida ijod qiladilar.

Tasviriy san'at fani shaxsning shakllanishi va kamolga yetishiga yordam beradigan tarbiyachi hamdir.

TALABA QIZLARNI MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYALASHDA KOLLEJ, OILA VA MAHALLANING O'RNI (KASB-HUNAR KOLLEJLARI QIZLARI MISOLIDA)

Rahimova Mehribon Abduxolisovna,

Nam DU.

Qizlarni tarbiyalash ular tug'ilgan vaqtdan boshlanadi. Tarbiya ma'lum bir maqsadni ko'zlab, ongli va rejali tashkil etilgan tarbiyaviy faoliyat. Tarbiya kattalarning, keksa avlodning hayot tajribasini yoshlarga o'rgatishdan iborat. Tarbiya o'sib-rivojlanayotgan shaxsda ma'lum ijtimoiy-qimmatli fazilatlar, xislatlarni shakllantirish uchun maxsus tashkil etilgan pedagogik ta'sir o'tkazish

jarayonidir. Tarbiyaviy ta'siri o'sib-rivojlanayotgan shaxs ijobiy qabul qilsagina, uning rivojlanishi shakllanishi samarali bo'ladi.

Tarbiya davomida qiz bolalarning qarashlari, hayotiy nuqtai nazari asta-sekin tarkib topib boradi. U qiz bolalarning xulq-atvori hamda tevarak-atvordagi muhitning xilma-xil ta'sirlariga uning munosabatlarini belgilaydi. Shaxsning bu tutgan yo'li qancha aniq va izchil bo'lsa, tevarak-atrofdagi hayot sharoitlarining turlicha salbiy ta'siri shuncha kuchsiz bo'ladi.

Tarbiyashunos olim Abdulla Avloniy o'zining "Turkiy Guliston yoxud axloq" asarida inson kamolotida tarbiyaning roli alohida takidlab shunday degan edi: "Janobi Haq insonlarning asl xilqatda iste'dod va qobilyati, yaxshiila yomonni, foyda ila zararni, oq ila qorani ayiradigan qilib yaratgan. Lekin bu insondagi qobiliyatni kamolga yetkazmoq tarbiya vositasida bo'lardir. Agar bola yaxshi tarbiya topib, buzuv xulqlardan saqlanib, go'zal xulqlarga odatlanib katta bo'lsa, har kim qoshida maqbul, baxtiyor bir inson bo'lib chiqadi. Agar tarbiyasiz, axloqi buzilsa, nasihatni qulog'iga olmaydigan, har-xil buzuv ishlarni qiladigan, nodon johil, rasvoi olam bo'lib qoladi. Tarbiya qiluvchilar tabib kabi, tabib xastaning badanidagi kasaliga davo qilgani kabi tarbiyani bolaning vujudidagi jalb maroziga -"yaxshi xulq" degan davoni ustidan berib, katta qilmog'i lozimdir."

Inson aslida baxt va ezgulik uchun dunyoga keladi; shu orzu-umid bilan yashaydi, lekin bu bilan ish bitmaydi, u shu niyatiga yetishi uchun harakat qilishi, mehnat qilishi, yaxshilik ko'rishi uchun yaxshilik qilishi lozim. Insonning inson bo'lib yetishuvida, hayotda o'z o'rnini topishida, el-yurt ichida izzat-hurmatga sazovor bo'lishida, yuksak axloq-odob qoidalarni o'zida mujassam etishida oila asosiy o'rinni egallaydi. Oila shunday makonki, unda hayotning davomiyligini ta'minlashi shaxs shakllanadi, etnik madaniyat, urf-odatlar, axloqiy-ma'naviy rivojlantiriladi, jamiyat taraqqiyotini belgilovchi iqtisodiy va ma'naviy hayot poydevori qo'yiladi va mustahkamlanadi.

Yurtboshimiz aytganlaridek, xalqimiz qadimdan oilani muqaddas deb bilgan. Axir oila ahil va totuv bo'lsa, jamiyatda tinchlik va hamjihatlikka erishadi, davlatga osoyishtalik va barqarorlik hukm suradi.

Oilada tarbiyaning negizlariga asos solinadi. U bolada shakllanishi lozim bo'lgan barcha insoniy munosabat va fazilatlarni tarbiyalovchi hayot maktabi hisoblanadi. Oilada qizlar ular tug'ilganidan boshlab tarbiyasi uchun alohida katta e'tibor boshlanmog'i zarur.

Oilada farzand tarbiyasida oilaning har bir a'zosi, ya'ni, bobo, buvi, otana, opa, uka, aka, ammo, xola, tog'a, qo'ni-qo'shni, mahalla, maktab, jamoatchilik birdek ma'sul deb hisoblangan qizlar tarbiyasi uchun esa faqatgina ona ma'sul hisoblangan. Xalqimizda "Bir bolaga yetti qo'shni otana", "Mahallang, - otang-onang" kabi maqollar bejiz aytilmagan. Shuning uchun bola tarbiyasida barchaning talabi, munosabati bir xil bo'lmog'i zarur.

Oila va mahalla har tomonlama bir-biri bilan bog'liq. Zero, mahalla oilalardan tashkil topadi. Farzandlar oila bag'rida kamol topganlari kabi oila ham mahalla ichida ravnoq topadi, nurli kelajak sari intiladi. Kerak bo'lsa, mahalla oilaning eng yaqin maslahatchisi, tog'day tayanchidir.

Mahalla –tarbiya o'chog'idir. Mahallada o'sayotgan har bir yigit-qizning axloq–odobi uchun butun mahalla ahli mas'uldir. Shuning uchun ham “Bir bolaga yetti qo'shni ota-ona”, “Bir bola tarbiyasiga yetti mahalla ota-ona” kabi naqllar bejiz paydo bo'lmagan. Yoshlarning har bir hatti–harakati barchaning diqqat markazida bo'ladi.

Mahalladoshlarning har bir yosh taqdiriga javobgarligi, ularni nazorat qilishi barkamol insonni tarbiyalab, yetishtirishning negizidir.

Xulqi–odobi yaxshi, har tomonlama namunali farzand mahallaning obro'sidir, noqobil, axloqan nobaqbul farzand esa mahalla uchun qora dog'dir.

Abdurauf Fitrat aytganidek: “Qizlarni voyaga yetkazish uchun uning tarbiyasiga oilagina javobgar bo'lmasdan butun jamiyat a'zolari javobgardirlar, chunki yoshlar har tomonlama yetuk inson bo'lib tarbiyalansa jamiyatning kelgusi taraqqiyotida katta ahamiyatga ega bo'ladi.

Qizlarni tarbiyalashda kasb-hunar kollejarida, mahallalar, oiladagi ota-onalar ommaviy axborot vositalari, adabiyot, san'at va boshqa vositalar orqali amalga oshiriladi. Chunki qizlarimizni dars davomida ulardagi odob-axloq, kamtarlikka o'rgatish juda ham zarurdir.

Talaba qizlarini darslarda o'zbekona kamtarlikka o'rgatish odob-axloqli talaba qizlarni namuna qilib ko'rsatish yoki rag'batlantirishning samarasi kuchli bo'ladi. Bu usullar o'qituvchi faoliyatining samarali bo'lishida muhim ahamiyatga egadir. Shundan kelib chiqib, Talaba qizlarini darslarda o'zbekona kamtarlikka o'rgatishda quyidagi kontseptsiyaviy tizimga amal qilish lozim deb hisobladik:

- talabalar odob-axloqini shakllantirishga doir xalq pedagogikasining nodir namunalaridan foydalanish;
- talabalar yoshiga mos hadislardan aytib berish;
- sharq mutafakkirlarining asarlaridan foydalanish;
- pedagogika tarixi darslarida talaba qizlar odob-axloq ko'nikmalarini shakllantirishda ajdodlarimiz an'alariga amal qilish;
- talaba xulq-atvorini shakllantirish uchun uning yoshiga mos vosita va omillardan to'g'ri foydalanish va shu kabilar.

Talaba qizlarini darslarda o'zbekona kamtarlikka o'rgatishning o'ziga xos xususiyatlarini va omillarini tahlil etish, o'rganish natijasida quyidagi kontseptsiyaviy fikr va xulosalarga kelindi:

1. Talaba qizlarini darslarda o'zbekona kamtarlikka o'rgatishda ajdodlarimizning tarbiya haqidagi mumtoz g'oyalari, qonun-qoidalari, sharqona tarbiya an'analari, udumlari va tajribalarini o'rganish va ularni amalda tadbqiq etish.

2. Talaba qizlarini darslarda o'zbekona kamtarlikka o'rgatishda didaktik tamoyillarga amal qilgan holda talaba qiz fe'l-atvoriga, xulqiga ta'sir qila oladigan omillarni o'rganish. Shu yo'sindagi tarbiyaning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash.

3. Talaba qizga xos ruhiy xususiyatlarni aniqlash.

4. Talaba qiz fe'l-atvorini, xulqini qiyosiy o'rganish va ularni shakllantirish usullarini ishlab chiqish.

5. Talaba qiz xulqidagi o'ziga xos xususiyatlarni belgilab olish va ularni qiyosiy tahlil etib, tarbiya jarayonida pedagogik asosda tadbiiq qilish.

6. Talaba qiz ruhiyati va kayfiyatiga hamda ruhiy o'zgarishlariga ta'sir etishga qodir omillarni aniqlash.

7. Talaba qiz tarbiyasiga faol va samarali yordam beruvchi omillardan biri – badiiy adabiyotning o'rni va rolini ko'rsatish va undan samarali foydalanish.

Talaba qizlarini darslarda o'zbekona kamtarlikka o'rgatishda qizlar faoliyatini qiyosiy tahlil qilganimizda unga ta'sir qiluvchi xususiyat va omillarga badiiy adabiyotni kiritishimiz mumkinligini nazariy asoslarini ko'rib o'tdik. Talaba qizlarini darslarda o'zbekona kamtarlikka o'rgatishda badiiy adabiyotning o'rni katta ekanligi ham aniqlangan. Shunday qilib, qizlar tarbiyasida kollej, oila, mahallaning birgalikdagi faoliyati qizlar tarbiyasida ta'sir etiladigan omillarini tahlil etib, uning kamolotida katta o'rin beriladi. Talaba qizlarda ma'naviy-axloqiy sifatlarini rivojlantirishning qay darajada shakllanganligini aniqlandi va tizimga solindi.

TA'LIM-TARBIYA UYG'UNLIGI

R. Lutfetdinova,

NamDU tadqiqotchisi.

Mamlakatimizda ta'lim sohasiga katta e'tibor berilib, uni rivojlantirish va isloh qilish yuzasidan qator ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Yurtboshimizning o'zi bu masalaga alohida e'tibor qaratmoqda. E'tibor beradigan bo'lsak har bir nutqlarida va asarlarida yoshlar ta'lim-tarbiyasi va ularni rivojlantirish yuzasidan qator yo'l-yo'riqlar berib borilishini ko'rishiiiz mumkin. Jumladan, "Muhim masalalar qatorida mamlakatimizda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan umummilliy davlat dasturlarimizning ijrosini yangi bosqichga ko'tarish, markazda va joylardagi bunga javobgar bo'lgan idoralarning mas'uliyatini oshirish vazifasi turishi kerak. Hammamiz bugun yaxshi tushunamiz – farzandlarimizning maktab, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari va oliy o'quv yurtlarida zamonaviy bilim olishi, hayotda kerak bo'lgan kasbga ega bo'lishi haqida gapirganda, bu yo'nalishda olib borayotgan ishlarimizning sifati va samarasini, pirovard natijasini oshirishda hali ko'pgina masalalarni yechishimiz lozim. Lekin farzandlarimizning zamonaviy bilim va

tarbiya olishi – oldimizga qo‘ygan maqsadimizning faqatgina bir qismi ekanini anglab olishimiz kerak”.²³⁰ degan so‘zlari ham bugungi ta‘lim va pedagog xodimlar zimmasiga yanada yuksak vazifa yuklaydi.

Oldimizda yangi demokratik va huquqiy davlat barpo etishga kirishgan mamlakatimiz fuqarolarining, ayniqsa yoshlarning axloqiy darajasiga ma‘ullik va har tomonlama kamol topgan zamon kishisini tarbiyalashdek ulkan vazifalar turibdi. Ularni faqat qadimiy va har doim zamonaviy bo‘lib kelgan yangicha yondashuvlar asosidagina amalga oshirsa bo‘ladi.

Xalq ta‘limi, yosh avlodga ta‘lim va tarbiya berish sohasi tubdan yangi yondoshuvlarni talab qiladi. Iste‘dodli bolalar uchun maktab-internatlar tashkil qilib kelinmoqda. Bolalar bog‘chasi, maktab bilan bir qatorda bolalar poliklinikalarini, cho‘milish havzasi bo‘lgan sport maydonchalari, bolalar bilan maktabdan tashqari ish olib boruvchi muassasalarni o‘z ichiga oladigan bolalar muassasalari territorial komplekslarini barpo etish xususida chuqur o‘ylab, bu ishni boshlab yuborish o‘rinli bo‘lur edi deb alohida ta‘kidlab o‘tdilar.

Xalqimizning ming yillik tarixi, madaniyati, adabiyoti, san‘ati mavjud bo‘lib, u insonlarni ezgulikka, mehr–oqibatga, rahm–shavqatga, iymon–e‘tiqodga o‘rgatib kelgan yaxshi urf–odatlarini, rasm–rusumlari bor. Zotan, har bir urf–odat va an‘analar negizida milliy ruh, madaniyat, qadr–qimmat kabi ulug‘ insoniy fazilatlar yotadi.

Mazkur fazilatlarga ega bo‘lgan shaxslarga odobli, insofli yoki hulq-atvori yaxshi deb xalqimiz baxo bergan. Sharqning Jaloliddin Rumi, Sa‘diy Sheroziy, Xofiz Sheroziy, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy kabi ulug‘ allomalari o‘zlarining har bir durdona asarlarida inson hulqi, odobi va axloqi haqida go‘zal pand-u nasihat namunalarini keltirganlarki, ular bugungi kunda ham o‘z jozibasini va tarbiyaviy ahamiyatini saqlab qolgan. Nafaqat mutafakkir allomalimiz balki, ta‘lim-tarbiyaga o‘lmas g‘oyalari bilan asos solgan mashhur pedagoglarimiz ham odob-axloq tarbiyaning asosi ekanligini dalillab berganlar. Bir so‘z bilan aytganda, inson bolasi aqlu farosat, xulq-atvor, odob-axloqsiz jamiyatda o‘z o‘rnini topishi gumon.

Axloq-odobga doir tushunchalarni ba‘zan fan sifatida, ba‘zan ayrim fanlarning bo‘limlari sifatida o‘rganilib kelinishi bir necha ming yillik tarixga ega bo‘lgan fan. U bizda «Ilmi ravish», «Ilmi Axloq», «Axloq ilmi», «Odobnoma», «Ilmi adab», singari nomlar bilan o‘rganib kelingan. Ovro‘pada esa etika nomi bilan mashhur. Uni birinchi bo‘lib Yunon faylasufi Arastu (Aristotel) muomalaga kiritgan. Arastu fanlarni tasnif qilar ekan, ularni uch guruhga bo‘ladi. Nazariy, amaliy va ijodiy. Birinchi guruhga u falsafa, matematika va fizikani, ikkinchi guruhga etika (axloq haqidagi falsafiy ta‘limot)

²³⁰ Karimov I.A. Asosiy maqsadimiz – yurtimizda erkin va obod, farovon hayot barpo etish yo‘lini qat‘iyat bilan davom ettirishdir. -Toshkent: O‘zbekiston, 2009.

va siyosatni, uchinchi guruhga esa san'at, hunarmandchilik va amaliy fanlarni kiritadi.

Biz milliy ma'naviyatni har tomonlama yuksaltirish masalasini o'z oldimizga asosiy vazifa qilib qo'yar ekanmiz, bugungi kunda ma'naviyatimizni shakllantiradigan va unga ta'sir o'tkazadigan barcha omil va mezonlarni chuqur tahlil qilib, ularning bu borada qanday o'rin tutishini yaxshi anglab olishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi.

Albatta, har qaysi xalq yoki millatning ma'naviyatini uning tarixi, o'ziga xos urf-odat va an'analari, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi. Bu borada, tabiiyki, ma'naviy meros, madaniy boylar, ko'hna tarixiy yodgorliklar eng muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi. Bizning qadimiy va go'zal diyorumiz nafaqat Sharq, balki jahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo'lganini xalqaro jamoatchilik tan olmoqda va e'tirof etmoqda. Bu tabarruk zamindan ne-ne buyuk zotlar, olimu ulamolar, siyosatchi va sarkardalar yetishib chiqqani, umumbashariy sivilizatsiya va madaniyatning uzviy qismiga aylanib ketgan dunyoviy va diniy ilmlarning, ayniqsa, islom dini bilan bog'liq bilimlarning tarixan eng yuqori bosqichga ko'tarilishida ona yurtimizda tug'ilib kamolga yetgan ulug' allomalarning xizmatlari beqiyos ekani bizga ulkan g'urur va iftixor bag'ishlaydi.

Qaysi davlatda ta'lim-tarbiyaga e'tibor qaratilar ekan, o'sha davlat har tomonlama rivojlanishga ega bo'ladi. Ma'rifatli insonlar yashaydigan yurtda millat sha'ni, dovrug'i olamga doston bo'ladi. Bu azaldan e'tirof etib kelinayotgan haqiqatdir.

Mustaqil O'zbekistonimizda ham yurtboshimiz boshchiligida kelajak avlod ertasini o'ylab amalga oshirilayotgan sa'y-harakatlar bugunga kelib o'zining qaynoq nuqtasiga yetgan. Ma'lumki, qabul qilingan «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun, «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» va uning tarkibiy qismi bo'lgan «Maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi» kabi muhim hujjalarda mamlakatimizda ta'lim tizimini tubdan isloh qilish masalasi bosh maqsad sifatida ko'ndalang qo'yilgan edi.

Ushbu jarayon bugungi kunda ham uzluksiz davom etib ta'limning barcha jabhalariga o'z ta'sirini o'tkazmoqda.

Hozirgi kunda respublikamizda milliy qadriyatlarni o'rganish dolzarb masalalardan biriga aylandi. Chunki boy milliy qadriyatlarimiz tarixini o'rganmay turib, ularning bugungi holatini tahlil qilish va kelajagi haqida fikr yuritish qiyindir. Turli marosim va urf-odatlarimiz milliy asosga ega bo'lib, milliy madaniyatni tashkil etuvchi bo'laklardan biridir. Islom ta'limotining umuminsoniy qadriyatlarini o'quvchilar ongiga singdirish esa, ularni Vatanimiz taraqqiyoti va istiqboliga zid bo'lgan yot qarashlar ta'siridan saqlash bilan jamiyatda insoniy fazilatlarni yanada kamol toptirishga xizmat qiladi.

Yosh avlodni ma'naviy-axloqiy jihatdan barkamol inson qilib tarbiyalash bugungi mustaqillikni mustahkamlash, rivojlantirish va takomillashtirish uchun

zaruriy vazifadir. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning quyidagi fikrlari ibratlidir: "... unib, o'sib kelayotgan yangi avlodning har tomonlama barkamol, irodasi baquvvat, iymoni butun bo'lib voyaga yetishi uchun keng jamoatchilik va aholimiz o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy faoliyatimizni yuksak darajaga ko'tarishning ahamiyati beqiyosdir".²³¹

Zero, ma'naviy-axloqiy barkamollik yangi qurilayotgan huquqiy demokratik jamiyatning ravnaqiga samarali ta'sir qiladi.

Bolani qalban yuksak, ma'naviy boy qilib tarbiyalashda ajdodlarimiz yaratgan odob-axloqqa doir boy bilimlarni o'rgatish, e'tiqodiga aylantirish, komillikka yo'naltirish muhim ahamiyatga ega.

Oila jamiyatning axloqiy ko'zgusi, bolalarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatuvchi katta kuch hisoblanadi. Shunday ekan, oila sog'lom, ezgu maqsadlar sari jamiyat taraqqiyotida, talim-tarbiya maskanlari hamkorligida yosh avlod ongi, ruhida g'oyaviy bo'shliq paydo bolishiga uo'l qo'ymaslik uchun kurashmog'i zarur. Kelajagi buyuk davlat qurishga kirishgan xalqimiz uchun o'z tarixini, fidoiy insonlar hayotini mukammal o'rganish ular ma'naviyatining, ma'rifatining kuchli bo'lishida asosiy omildir. Demak, yoshlar qalbida mehr-muruvvat, himmat, qayg'urish, bir-biriga izzat-ikrom, ehtirom hislarini tarbiyalashda oila, ota-onalar, ayollar, jamoatchi tashkilotlar ta'siri beqiyosdir. Ya'ni har bir shaxsning ma'naviy kamoloti ijtimoiy muhit, yashash sharoitlari, mehnat va turmush tarzi, boshqalar bilan munosabatda bo'lishi negizida shakllanadi va mustahkamlanadi. Millatning o'zligini anglashi, qadr-qimmatini, ahilligi, yurtida tinchlik va osoyishtalikning qaror topishi, ijtimoiy munosabatlarning o'zaro hamkorlik, hamjihatlikka asoslanishi ma'naviyat mezonlari sanaladi.

Ana shu mezonlar asosida o'quvchilarni tarbiyalash, milliy qadriyat va an'analarimiz asosida ota-onaga hurmat hissini o'quvchilarga singdirishda ota-onaga oid mavzularni o'tishda turli zamonaviy usullar hamda, ma'naviy merosimiz namunalaridan fodalanish maqsadga muvoviqdir. O'quvchilarimizga darslikdan tashqari yoshlarga mos qo'shimcha adabiyotlarni o'rganish va tahlili qilishni topshirish orqali ularda mustaqil ishlash malakalari va ota-onaga hurmat hissini mukammal tarbiyalashga erishishimiz mumkin. Bunda biz o'qituvchilarning xizmatlari beqiyosdir.

²³¹ Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. -Toshkent: O'zbekiston, 2000.-B 3.

ABDURAUFI FITRATNING BARKAMOL AVLODNI TARBIYALASH BORASIDAGI QARASHLARI

Bahromjon Inatullayev,

*Nam DU Ijtimoiy-madaniy faoliyat
kafedrasi o'qituvchisi.*

Haydarova Manzura,

*Namangan shahridagi 13-maktabning oliy
toifali tarix-huquq fani o'qituvchisi.*

Uzoq tarixga e'tibor bersak, taraqqiyotning barcha bosqichida barkamol avlodni tarbiyalash ijtimoiy ehtiyoj sanalgan. Bu jarayonda esa jismoniy tarbiya muhim omil bo'lib, ma'naviyatimiz darg'alarining bu borada o'ziga hos qarashlari mavjud bo'lgan. Jumladan o'zbek xalqining ilmu ma'rifatli bo'lishga targ'ib etgan Abdurauf Fitrat "Najot yo'li" asarida ta'lim-tarbiya masalalarini turli jihatlarini atroflicha tahlil qilar ekan, barkamol avlodni tarbiyalashda jismoniy tarbiyaning ahamiyati katta ekanligini ta'kidlaydi. Jismoniy tarbiya jarayonida insonda axloqiy tarbiya unsurlarini shakllantirish mumkinligini uqtiradi. Shu nuqtai nazardan bugungi kunda ham bu asar katta ma'rifiy ahamiyatga egadir.

Fitrat ota-onaning vazifasi o'z bolalarini yetuk kishilar qilib tarbiyalashlari zarurligi, bunda ayniqsa, uch tarbiyaga: jismoniy tarbiya – salomatlik, aqliy tarbiya – sog'lom fikrlilik, axloqiy tarbiya – axloqiy sano, ya'ni axloqiy poklikka e'tibor berish kerakligini alohida ta'kidlab o'tgan. .

Fitrat jismoniy tarbiyaga, kishining salomat va baquvvat bo'lib tarbiyalanishiga alohida e'tibor beradi: «Badantarbiya - badanni sog'lom va kuchli hamda a'zolari mukammal darajaga yetkazishdan iborat, busiz baxt saodatga erishib bo'lmaydi. Odamzod butun umri davomida sihat va quvvatga muhtoj bo'lmasligi amri maholdir.»²³²

Chunki inson jismoniy harakatlar natijasida ham o'z muskullarini mustahkamlaydi, insonning butun a'zosi salomat va quvvatga ega bo'lmasa, unda uzoq yashamaydi. Agar insonning tanasidagi a'zolaridan biriga zarar tegsa, u kishi ishdan qo'lini tortib, boshqalarning muhtojiga aylanadi. Shu nuqtai nazardan yosh avlodni ilm olishi bilan birga, ularning badan tarbiyasiga alohida ahamiyat berish lozimdir.

Fitrat bolalarning toza havoda bo'lishlari, atrof, tabiat go'zalliklaridan estetik zavq ola bilishlariga ahamiyat beradi. Jumladan, havo inson uchun ovqatdan ham muhimdir. Besh-olti soat ovqatsiz turish mumkin, bir daqiqa havosiz turish mumkin emas. Shuning uchun go'daklarni hamma vaqt sof havoga, bog'-chorbog'larga olib chiqish lozimdir. Farangdagi shaharlarning har

²³² Abdurauf Fitrat. Najot yo'li. –Toshkent: Sharq, 2001. –B. 152.

tarafalarida bolalar uchun chorbog'lar, havo maydonchalar yaratilgan. Bulardan tashqari, ularning maktablarida bolalar tanaffus vaqtlarida maxsus maydonchalarda turli o'yinlar o'ynaydilar.

Fitrat bolalarning jismoniy tarbiyasida turli harakatli o'yinlar katta o'rin tutishini ham aytib o'tadi. Ota-onalariga o'z bolalarining shunday o'yinlar bilan mashg'ul bo'lishlarini ta'min etishlarini maslahat beradi: "Harakat har bir kishi uchun, ayniqsa, bolalar uchun ham zarurdir. Shuning uchun bolalarni jismoniy chiniqtirishda ularni ayrim o'yinlar bilan mashg'ul qilish foydalidir. Bolalarni o'yindan man etishning foydasi yo'qdir. Ularning doimo bir joyda o'tirishlari, harakat qilmasliklari ularni badanlarini zaif bo'lishlariga olib keladi. Ota-onalar doim o'z bolalarini o'yinga tashviq va targ'ib qilishlari lozimdir. Ammo bolalarning o'yinlari odob va axloq doirasidan tashqari chiqmasligi kerak. Fitrat bu harakatli o'yinlar bolaning aqli, farosati, ilmini rivojlanishiga va to'g'ri axloqiy tarbiya topishiga yordam berishi kerak, deb hisoblaydi. U bu o'yinlar orqali bolaga hayotni o'rgatish, aqliy va axloqiy tarbiya ham berish mumkin, asosiysi bolani jismonan chiniqtiradi, deb biladi».

Ilm va ma'rifat targ'ibotchisi bo'lgan Fitrat barkamol avlodni tarbiyalashda sog'lom turmush tarzi, xususan, tozalikning ahamiyati juda kattaligini ta'kidlaydi: "Tozalik kattalar uchun qay darajada shart bo'lsa, yosh bolalar uchun esa o'n baravar ko'proq zarurdir. Bu zaruriyat, avvalo ikki taraflama: avvalo bolalar kattalarga nisbatan kasalga tez chalinuvchan bo'ladi, ularga yopishgan har bir ifloslik, kattalarga yetgan ifloslikdan ko'ra o'n barobar xatarlidir. Ikkinchidan, bolaning go'dakligidan tozaligiga e'tibor berilsa, ularni ifloslikdan hazar qilishga o'rgatilsa, borib borib tozalik ularning kundalik odatiga aylanib qoladi. Aksincha, agar bolaliklarida ifloslikka o'rgansalar, katta bo'lganlaridan keyin ham bu hol avj olib, odamlarning nafratiga sabab bo'ladi"²³³.

Muallif bolalarga shaxsiy gigiena qoidalariga amal qilishni o'rgatishni alohida ta'kidlab o'tadi: «Ota-onalar va muallimlar bolalarni har kuni yuzlarini sovunlab yuvdirlsinlar, og'iz va tishlarini tozalab yuvsinlar, doimo liboslarini nazorat qilsinlar, mumkin qadar bolalarni chivin va pashshalar bo'lmagan joylarga o'tkazsinlar, chunki bu hasharotlar turli kasalliklarni tarqatuvchidir». ²³⁴

Allomaning bu kabi qarashlari shundan dalolat beradiki, bugungi kunda barkamol avlodni tarbiyalashda jismoniy tarbiyani axloqiy tarbiya bilan uyg'un holda olib borish muhim omil bo'lib hizmat qiladi.

Abdurauf Fitratning milliy mustaqillikka erishish va mustamlakachilikka qarshi kurash, dunyo ilmi, texnikasi, zamon madaniyatini va hayot

²³³ Abdurauf Fitrat. Najot yo'li. –Toshkent: Sharq, 2001. –B. 153.

²³⁴ Abdurauf Fitrat. Najot yo'li. –Toshkent: Sharq, 2001. –B. 154.

muammolarini tinimsiz o'rganish borasidagi faoliyati jamiyat a'zolari, xususan, yoshlar ijtimoiy hayotida ibrat namunasidir.

Ko'rinib turibdiki, o'zbek ma'rifatparvari Fitrat yoshlarni yangi jamiyat qurishga, el-yurtning baxti, saodati, istiqloli uchun kurashishga da'vat etadi. Bu kurashda esa yoshlar ham aqliy, ham jismoniy jihatdan sog'lom bo'lishlari zarurligini "Najot yo'li" asarida bayon etadi. Bu qarashlarning naqadar to'g'ri va hayot haqiqatiga nechog'li yaqin ekanligini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimovning quyidagi qarashlari ham isbotlamoqda: "Kelajak avlod haqida qayg'urish, sog'lom, barkamol naslni tarbiyalab yetishtirishga intilish bizning milliy xususiyatimizdir".²³⁵

O'zbek xalqi o'z udumlari va an'alarida inson salomatligini har tomonlama ta'minlovchi hususiyatlarni o'zida mujassamlashtirganligi bilan barkamol avlodni kamol toptirishda katta ahamiyatga egadir. Bu jarayonda esa ajdodlar o'giti dasturilamal bo'lib xizmat qiladi.

²³⁵ Karimov I.A. Yoshlarimiz – xalqimizning ishonchi va tayanchi. –Toshkent. Ma'naviyat, 2006.- B-6.

“QUTADG’U BILIG”NING XORIJIY TILLARDAGI TARJIMALARIGA DOIR TADQIQOTLAR

*Zohidjon Sodiqov,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent (NamDU).*

Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab O‘zbekiston Milliy universiteti Tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrasini mudiri, filologiya fanlari doktori, professor G‘aybulla Salomov asos solgan o‘zbek tarjimashunosligi maktabida qadimgi turkiy obidalar, jumladan, “Qutadg‘u bilig” asari tarjimalarini asliyat bilan qiyosiy-tipologik asnodda o‘rganishga jiddiy kirishildi. Bu harakatda qutadg‘ubiligshunos Boqijon To‘xliyev yetakchiligida asarning nemis, ingliz, rus va hozirgi o‘zbek tillariga moslashtirish borasida bir qator tadqiqotlar yaratildi. Bunda mazkur maqola muallifi amalga oshirgan “Qutadg‘u bilig” asarining olmoncha [1], inglizcha [6] tarjimalarida to‘rtliklarni qayta yaratish mahorati masalasiga bag‘ishlangan dissertatsiyasi va maqolalari, S. Ibotovning [4] asarning ruscha badiiy tarjimalari borasidagi tadqiqotlari muhim ahamiyat kasb etadi. Ayni paytda H. Abdullayevning [5] “Qutadg‘u bilig”da qo‘llanilgan xalq maqollarining badiiy xususiyatlari borasidagi dissertatsiyasi ham bu boradagi nufuzli ishlardan hisoblanadi.

“Qutadg‘u bilig” tarjimalarining qiyosiy-tipologik tahlili nomli monografiyada [2] asarning jahon ilmiy-adabiy jarayonida o‘rganilishi, qadimgi obidada aks etgan tarixiy koloritni olmon va ingliz tillarida qayta yaratish, asar poetikasini tarjimadagi talqini hamda “Qutadg‘u bilig”ning olmon va inglizcha tarjimalarida frazeologik birliklar, maqol hamda hikmatlarning ifodalanishi kabi muammolar ilmiy tahlil qilingan. Mazkur risolada “Qutadg‘u bilig”ni Amerikada o‘rganilishi va tarjimaviy talqinlariga oid baxsli fikrlar o‘rtaga tashlanadi. Jumladan, Robert Denkoff “Qutadg‘u bilig”ni inglizchaga o‘g‘irgan tarjimongina emas, balki u mazkur asar to‘g‘risida jiddiy ilmiy tadqiqot yaratgan olim hamdir. O‘rta asr Sharq Uyg‘onish davrining turkiyzabon ijodkorlari asarlariga G‘arb sharqshunoslari, jumladan, Amerika tadqiqotchilarining biz uchun unchalik hazm qilib bo‘lmaydigan bir qarashlari bor. U ham bo‘lsa, butun dunyoda shuhrat qozongan Sharq mumtoz adiblari ijodiga qandaydir “kalka” (shundayligicha o‘tkazish, ko‘chirib o‘tkazish) tamg‘asini bosishga urinishdir. Buni hatto Alisher Navoiyning mashhur “Xamsa”siga ham qo‘llashga harakat qilingan. Ne ajabki, bunday kasallik Robert Denkoffda ham borga o‘xshaydi. Uning mana bu so‘zlariga e‘tibor qilaylik: “Fors-Islom an‘analarini “Qutadg‘u bilig”ning til xususiyatlarida ko‘rishimiz mumkin. Tarjimada sharh va izohlarga alohida e‘tibor beriladi. Jumladan, XI asrdagi “uzun qo‘l” anglatgan idiomatik ma‘no XX asr ingliz tilida ana shunday ma‘noni bildirmaydi. Asarda o‘xshatish va ramzlardan keng foydalanilgan. Masalan, o‘limni – “chavandoz”, kasallikni – “o‘lim jarchisi “ ;

mehmondo'stlikni – “non va tuz”; kiyim-kechakni va oziq ovqatni – “tomoq va yelka”, o'z taqdiridan xursand kishilarni – “ko'zi to'q”, aksincha bo'lsa – “ko'zi och”, sog'lom va baxtli odamlarni “qizil yuz”, kasallarni – “sariq yuz”, ko'ngli toza kishilarni – “ochiq yuz”, aksinchalarini – “qoshi tugun” o'xshatishlari bilan beriladi. Bularning barchasi fors tasvir an'analariga to'la mos keladi” [6]. Ana shu dalillarni mutarjim boshqa tomonga buradi. Aniqrog'i, asarning inglizcha tarjimasiga yozgan kirish so'zining bir qismini “Forschadan kalka” deb nomlab qo'yaqoladi va butun bob davomida “Qutadg'u bilig”ning fors tilidan kalkaligiga ishora qiladi. Mutarjimning ushbu xulosasi bahstlab. To'g'ri, har bir til lug'at boyligining xos va xolis sabablarga ko'ra tillardan-tillarga o'tish qonuniyati mavjud. Lekin ular besabab bo'lmaydi. Agar ma'lum bir tildagi idiomatik iboralar aynan o'zbekchaga mos kelsa, unda ularning hammasi ham o'sha tillardan to'g'ridan-to'g'ri kirib kelavergan bo'lib chiqmaydimi? Bunday hodisalar birdagina sodir bo'ladigan narsa emas, balki uzoq muddatli tarixiy-ijtimoiy davrni o'z ichiga oladigan jarayondir. Bir xalq adabiyoti durdonalari tillardan tillarga o'tadi va o'rmi bilan boshqa bir xalq mulkiga ham aylanadi. Rus tadqiqotchilari tomonidan [7] asarni arab va fors tillaridan qilingan oddiy tarjima deb da'vo qiluvchilarning har qanday fikrlari butunlay asossiz ekanligini allaqachonlar juda to'g'ri ta'kidlab o'tilgan edi. Demak bir-biriga yaqin xalqlarning o'zaro munosabatlari, oldi-berdilari to'g'risida gapirganda bo'lib o'tgan tabiiy-ijodiy jarayonlarni darrov turli xil “tarjima”, “ko'chirmakashlik”, “kalka”, “plagiatlik”larga yo'yib qo'ymaslik kerak. Bu, birinchidan, Sharq Uyg'onish davrining yirik mutafakkiri Yusuf Xos Hojib ijodining originalligiga shubha bilan qarashga borib taqaladi. Shu sababli “Qutadg'u bilig”ga nisbatan bunday qarashlarning ilmiy asosga ega emasligini alohida ta'kidlamoqchimiz.

Mavjud tadqiqotlar o'zining keng qamrovliligi, tahlillarning chuqurligi va kelajakda qo'yilgan muammo yana boshqa dolzarb masalalarni hal etish lozimligini ko'rsatadi. Bu esa qutadg'ubiligshunosligi oldiga kelajakda yana ko'proq vazifalarni qo'yadi. Ayni paytda, ta'kidlash kerakki, o'zbek olimlari umuturkiy adabiy doston bo'lmish “Qutadg'u bilig” asarini tadqiq etish bo'yicha xorijiy mutaxassislar, xususan, Turkiy va Germaniya olimlari bilan hamkorlikni qo'lga qo'yishlari, mazkur asarning jahon adabiyoti va fanidagi o'rmi va rolini tayin etishda izlanishlari maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Vambery A. Ujgurische Sprachmonumente und das Kutadgu Bilik, Innsbruck, 1870
2. Sodikov Z. Yusuf Xos Hojib «Qutadg'u bilig» asarining olmoncha ilmiy-adabiy talqinlari: Filol. fanlari nomz. diss. avtoreref. - Toshkent: 1994. – 20 b.
3. Sodikov Q. “Qutadg'u bilig”dagi to'rtliklarni ingliz tiliga tarjima qilish muammolari. – Toshkent, NDA, 2010.

4. Ibotov S. "Qutadg'u bilig"ning bir tarjimasida // O'zbek tili va adabiyoti. Toshkent, 2007. – №5. – B. 71–73.
5. Abdullayev H. Xalq maqollarining "Qutadg'u bilig" poetikasidagi o'rmi va badiiy estetik funksiyalari: Filol. fanlari nomz. diss. avtoreref... – Toshkent, 2004. – 22b.
6. Yusuf Khass Hajib, Wisdom of Royal Glory (Kutadgu Bilig): A Turko-Islamic Mirror for Princes, translated, with an introduction and notes, by Robert Dankoff. - Chicago-London: University of Chicago Press, 1983. - 281 p.
7. Valitova A. K izdaniyu kriticheskogo teksta i perevoda «Kutadgu bilig» // KSINA. XVII. - M., 1961. - S. 77-88.

H. HAYNE SHE'RIYATIDA BADIY TASVIR VOSITALARI MASALASIGA DOIR

*O'. Nurmatov,
Nam DU dotsenti.*

Ma'lumki, badiiy adabiyot, birinchi novbatda, inson ruxiyatiga, qalbiga ta'sir qiladi, his-tuyg'ularin junbushga keltiradi, dilini musaffo-lashtiradi, estetik ta'sir ko'rsatadi, ezgulik sari yetaklaydi. Badiiylik – adabiyotning qoni. Yuksak ruhiy ta'sirga erishish uchun shoir turfa badiiy-uslubiy unsurlardan foydalanadi.

Jahon lirikasidagi yorqin yulduzlardan biri xassos nemis shoiri Haynrix Haynedir (1797-1865). U sof insoniy muhabbatni, samimiy his-tuyg'ularni, go'zal tabiatni yuksak mahorat bilan tarannum etgan. Xalqchillik, gumanizm, badiiylik uning she'riyatiga xos xususiyatlardir.

Haynrix Hayne ham o'z lirikasida badiiy vositalardan yuksak mahorat bilan san'atkorona foydalangan, betakror tashbehlar yaratgan.

Nemis shoiri o'simliklar, hayvonlaru parrandalar, koinot, bizni qurshab turgan dunyo, zamindagi jismlar bilan bog'liq yuksak badiiy metaforalar yaratgan. Hayne o'z asarlarida 1300 o'rinda 110 marta turli hayvonlar bilan bog'liq o'xshatishlardan foydalangan. Sevgilisini 33 bor gulga muqoyasa qilgan. Quyosh, oy, yulduzlar, qo'zichoq, gul, tosh, oltin, gavhar, burgut, sichqon, ohu, qoplon, tulki, turna, bulbul, kabutar bilan bog'liq metaforalar shoir she'riyatiga yuksak badiiylik bag'ishlagan²³⁶.

H. Haynening serqirra ijodiga fors va arab adabiyoti samarali ta'sir ko'rsatgan, shu bilan birga u islom Sharqiga yuksak hurmat bilan munosabatda bo'lgan.

Augen wie Sterne ("yulduz ko'zlar"), **Tränen-Perlen** ("dur ko'z yoshlari"), **Saphiraugen** ("gavhar ko'zlar"), **Granatlippen** (" anor lablar"),

²³⁶ Qarang: A. Opitz, Adler und Ratte. In: Heine-Jahrbuch. Hamburg, 1981, S.22-54

Goldlocken ("oltin sochlar"), Nelkenlippen ("g'uncha lablar"), Rosenwangen ("gulgun yanoqlar"), Rosen-Mund ("lola og'iz"), Lilienhände, Lilienfinger ("Liliya (nozik) qo'l va barmoqlar") kabi metaforalar yaratishida, shubhasiz, H. Hayning Sa'diy, Firdavsiy, Hofiz, Nizomiy kabi Sharq adiblari asarlaridan olgan saboqlari ta'siri sezilib turadi.

Bu masalalarni alohida qiyosiy yo'sinda tadqiq etish maqsadga muvofiq, albatta. Biz esa mazkur maqolada Haynrix Hayning faqat tosh bilan bog'liq metafora va o'xshatishlarini taklif qilish bilan cheklanamiz.

Behis, betuyg'u insonga nisbatan ishlatiladigan "das Steinherz" – „tosh yurak, toshbag'ir“ metaforasi nemis adabiyoti tarixida ilk bor minnezang (12- asrda vujudga kelgan, muhabbatni tarannum etguvchi adabiy harakat – N. O'.) adabiyotida qo'llana boshlagan. Ammo bu tashbeh minnezangerlar tomonidan ijobiy ma'noda – qat'iyatli, mag'rur inson ma'nosida ishlatilgan.

Romantizm adabiyotida esa tosh, temir bilan bog'liq metaforalar keng qo'llanila boshladi. Xususan, Xofmann, Vagner asarlarida yurakni toshga muqoyasa qilish ko'p uchraydi.

Haynrix Hayne asarlarida ham tosh bilan bog'liq metaforalar hamda qiyoslar ko'p bor qo'llanilgan. Hayne ishlatgan istioria va o'xshatishlarni shartli ravishda shakl va ma'nosiga ko'ra besh guruhga bo'lish mumkin:

Birinchi guruh – das kalte Herz – sovuq, muzyurak, ya'ni behis, betuyg'u, berahm inson. Masalan, H. Hayne yozadi:

Und, ach! Dein Herz, Neben237 gleich

Versteinert vor Gram238

Evoh, Niobba qalbi singari

Anduhda yuraging qotgan go'yo tosh.

(Tarjimalar biznikij – N. O'.)

Die Menschen Herz ist hart wie Stein;

Der Mensch gibt keinen Bissen

Umsonst. (Bd, VII, S, 36)

Inson bag'ri tosh, berahm zot,

Bekorga hech vaqo bermaydi asli.

Nicht bebt, nicht pocht der Schönen Brust,

Die ist so kalt wie Eis (Bd. I, S. 36)

Go'zalsan, ammo behis, betuyg'u,

Qahraton qish asli yuraging.

Ikkinchi guruh:

Versteinerung – Toshday qotish, toshga aylanish

"Gute Nacht" – Das Fenster klorrte,

Seufzend stand Ramiro unten.

²³⁷ Niobba (Niobyaya) – Grek morfologiyasida xudolarga qutqu solgan ko'p bolali ona.

²³⁸ Heinrich Heine. Sämtliche Werke. Ernst Elister. – Leipzig, 1987. – B.I. – S. 204.

Stand noch lange wie versteinert,
Endlich schwand er fort im Dunkeln (Bd, I, S. 51)
“Xayrli tun!” Yopildi hanqo,
Achchiq xo`rsinadi oshiq Ramero.
Yigit qotdi misoli haykal,
So`ng yo`qoldi zulmat qa`rida.

Er ist ein Schwert und regt sich nicht,
Er ist vor Schreck versteinert (Bd. I, S. 148)
U qilich, kesmaydi ammo,
Dahshatdan toshga aylangan go`yo.

Uchinchi guruh: Das Statuenmotiv – Tosh haykal

Der Bach rauscht trostlos gleich dem Styxe;
Am einsamen Ufer sitzt eine Nexe,
Todblaß und stumm, wie`n Bild von Stein,
Scheint tief in Kummer versunken zu sein (Bd. VI/I, S. 83)
Soy oqar Stiksdag beg`am, beparvo,
Sohilda yolg`iz qari alvasti.
Mayitrang, soqov, tosh haykal.
Anduh ummoniga cho`kkan u rosti.

To`rtinchi guruh: Marmor/Stein – Marmor/Tosh

Bu tashbeh Hayne tomonidan ijobiy va salbiy ma`noda – go`zal hamda sovuq ma`nolarida qo`llanilgan:

So schweigsam standest, wie ein Bildnis,
Das marmorschön und marmorkühl (Bd. VI, S. 206)
Sukutda turarding misli tosh haykal,
Marmardek go`zalsan, marmardek sovuq.
Zu den Füßen liegen da
Neun marmorschöne Weiber (Bd. VI/I, S. 32)
Oyoqlari ostida yotar, voajab,
To`qqizta marmardek go`zal ayollar.

Beshinchi guruh: Edelstein –Gavhar tosh

Ma`lumki, gavhar romantik adabiyotda, xususan, Hofmann va Tiek ijodida sovuq (Kälte) va qattiq (Härte) degan ma`noda qo`llanilgan. H. Hayne ham gavharni sovuq, behis hamda toshdek qattiq ma`nolarida ishlatgan:

Küßt trunken deine Augen,
Diese kalte Edelsteine (Bd. IV, 475)
Ko`zlaridan olingiz bo`sa,
Garchi ular gavhardek sovuq.

Blaue Augen, deren Schmelz

Blendet wie ein Edelstein, –
Aber auch der stieren Härte
Eines Edelsteins teilhaft. (Bd. VI/I, S. 85)
Osmonrang ko'zlarida nur
Chaqnar go'yo musaffo gavhar.
Ajab unda uyg'un, qorishiq
Gavhardagi bardoshu soffik.

Saphire sind die Augen dein,
Die liebvollen, die süßen

Dein Herz, es ist ein Diamant,
der edle Lichter sprühet.
O, dreimal glücklich ist der Mann,
Für den es liebend glühet.
Man kann nicht schönere sehen.
O, dreimal glücklich ist der Mann,
Dem sie die Liebe gestehen. (Bd. I, S. 135)

Yoqut erur sening ko'zlaring,
Naqadar suyukli, naqadar totli

Yuraging, azizam, go'yoki olmos
Taratadi maftunkor yog'du.
O, uch bora baxtlidir yigit
Gar unga atalsa mehrli nurlar
Lablaring, azizam, yoqut, la'l.
Undan loabar lab yo'q dunyoda.
O, uch bor baxtlidir yigit,
Agar ular sevaman desa.

Ma'lunki, yorning labini la'lga muqoyasa qilish Sharq adabiyotida keng tarqalgan. Hazrat A. Navoiy yozadilar:

Bosh qo'yay desam oyog'in gardig'a, qo'y dedi.

Bo'sa istab la'li rangin so'rsam erdi, ol dedi.

Nemis shoiri Haynrix Hayne she'riyatida ham Sharq adabiyoti ta'sirida qimmatbaho tosh – gavhar, marmar, la'l bilan bog'liq metaforalar, tashbehlar va qiyoslar o'ziga xos tarzda yaratilgan va shoir ijodiga yuksak badiiylik va nafosat baxsh etgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Heinrich Heine. Sämtliche Werke. Ernst Elister. – Leipzig, 1987. – B. I. – S. 204.
2. Opiz, A., "Adler" und "Ratte", in: Heine-Jahrbuch 20. – Hamburg, 1981.

3. Pache, A., Naturgefühl und Natursymbolik bei Heinrich Heine. Hamburg–Leipzig, 1904.
4. Ulrike Wehres. Die Metapher als auslösendes Moment für literarisches Verstehen der Steinmetaphorik Heinrich Heines. Frankfurt am Main - Bern - New York, 2011
5. Fendri, M., Halbmond. Heinrich Heine und der islamische Orient. – Hamburg, 1980

SINF DOSKASIDA RASM ISHLASHNING O'ZIGA XOS TOMONLARI

*B. G'. Jabborov,
Namangan Davlat universiteti Tasviriy
va amaliy san'at kafedراسi mudiri, dotsent.*

Sinf doskasiga rasm ishlash jarayoni bir qarashda oddiy ishdek tuyuladi. Biroq, u birmuncha murakkab jarayon bo'lib, o'qituvchidan ulkan mahoratni talab qiladi.

Bunga shaxsiy tajribamizdan misolni keltiramiz. 2010-2014-yillar davomida Akademik qalamtasvir asoslari va kompozitsiya darsida talabalarga “Sizlar tasviriy san'at o'qituvchisi bo'lasizlar, boshqa fan o'qituvchilaridan ham ko'proq doskadan unumli foydalanishni o'rganishingiz kerak bo'ladi, deb tushuntirdik. O'quvchilarga har doim ham qog'ozga chizib ko'rsata olmaymiz, dars vaqtida har bir o'quvchi bilan yakka tartibda ishlashga esa vaqt yetishmaydi, ko'pincha doskada chizib ko'rsatishimizga to'g'ri keladi. Shuning uchun ham darsimizda tajriba tarzida doskaga rasm chizamiz” – deb tajriba o'tkazdik. Guruhdagi 25 nafar talabaga kim nimani yaxshi chiza olsa, shuni chizishi, faqat bir-birining ishini takrorlash mumkin emasligi tushuntirildi. Talabalar avvaliga, “bu oddiy ish-ku, qoyillatib tashlaymiz”- degan o'y bilan doskaga dadil chiqib borishdi. Ammo, doskaga chizish qog'ozga tasvir ishlashdan qiyinligini, hamma sizga qarab turgan vaqtda xato qilmaslikni iloji yo'qligini tushunib yetdilar.

Shu bilan birga ikkinchi topshiriq sifatida qush va hayvonlarni sodda va oson tasvirlash usulini qo'llagan holda doskaga ishlash bo'yicha topshiriq ham berildi. Qalamtasvir darslarida qog'ozga juda yaxshi chizadigan talabalar ham berilgan vazifani a'lo darajada bajara olmadi. Chunki, naturani mayda detallarigacha ishlab, to'liq tasvirlashga odatlangan talaba doskada uni aksini qilish kerak edi. Naturani qanchalik mayda detallardan voz kechib ishlansa, u shunchalik tez va oson ishlanadi hamda o'quvchilarga qiziqarli, tushunarli bo'lishini amalda ko'rib chiqdilar. Buni ustiga doskaga bo'r yordamida ishlanganda yorug' – soya nisbatlari qog'ozdagini aksi bo'lishi ham talabalarga qiyinchilik tug'dirdi. Misol uchun, eng oddiy gips buyum, shar tasvirini

doskaga ishlanganda bo'ri oqligi uchun ham soya joylarini qanday tasvirlash muammo bo'ldi. Bundan xulosa qilib, shu kundan boshlab talabalarga bo'sh vaqti bo'ldi, degan zahoti doskaga ishlashni tavsiya qildik.

Hozirgi zamonaviy doskalarning oldingi doskalardan farqi bo'ri o'rniga marker bilan tasvir ishlash mumkinligi va ishlangan tasvirni oson o'chirilishi bilan ancha qulay hisoblanadi. Shu bilan birgalikda marker yordamida tasvir ishlaganimizda esa biz odatlangan qog'ozga ishlash uslubiga yaqin uslubda ishlashimiz mumkin bo'ladi. Shuning uchun ham eski doskalarni yangisiga almashtirish zarurligi kelib chiqadi. Ammo, sinf doskasi qanday bo'lishidan qat'iy nazar, qog'oz yuzasiga ishlash bilan doskaga ishlashning farqi saqlanib qoladi.

Tajribatarimizdan kelib chiqqan holda pedagogik rasm chizishning bu turining tarixi bilan qiziqib, bu sohada olib borilgan tadqiqot ishlari, chop qilingan darslik, qo'llanmalarni qidirib, ufar bilan yaqindan tanishib bilimimizni orttirish bo'yicha izlandik. Afsuski, o'zbek tilida bu sohada alohida bir maxsus darslik, qo'llanmani uchratmadik. Borlari ham rus tilida edi.

Rus rassom-pedagogi A. E. Terentyev tomonidan pedagogik rasm chizish bo'yicha o'qituvchilar uchun qo'llanma chop qilingan bo'lib, ushbu qo'llanmada nafaqat doskaga bo'r bilan ishlash, balki pedagogik rasm chizishning boshqa turlari ham taxlil qilinib, tavsiyalar ishlab chiqilganining ko'rishimiz mumkin. Biz ham tajribalarimizga asoslangan holda o'zimizning fikrimizni bayon qilamiz.

O'qituvchi o'z ustida izlanib, mahoratini oshirib borish jarayonida bo'r yordamida tasvir ishlash malakasini ham oshirib borishga alohida e'tiborini qaratishi zarur. Tasvirlashning bu turida buyum, odam, qush va hayvonlarni chiziqli tasvirini ishlash katta ahamiyatga ega bo'ladi. Bu esa o'z navbatida o'qituvchidan buyumning tashqi shaklini aks ettiradigan chiziqning go'zalligi va ifodaviyligiga erishishni talab qiladi. Bunday tasvirlarni yaxlitligiga erishish uchun esa buyumlarni har qanday mayda detallaridan voz kechgan holda, asosiy e'tiborni uning asosiy shakliga qaratish zarur bo'ladi.

Sinf doskasida tasvir ishlash malakasini oshirish uchun esa xomaki tasvir va qorajama ishlash bo'yicha yetarli darajada tajribaga ega bo'lish zarurligini unutmashlik kerak. Shu o'rinda, nafaqat qog'ozga balki aynan sinf doskasini o'ziga ham katta hajmda tasvir ishlash tajribasi talab qilinadi. Tajriba o'z-o'zidan ortib bormaydi, buning uchun muntazam ravishda bo'r yordamida tasvir ishlab, bo'ri ham qalam singari yaxshi xis qilishni o'rganishimiz kerak bo'ladi.

O'quv dargohida bo'lmagan vaqtimizda esa o'z-o'zidan sinf doskani oldida ham bo'lmaymiz, unday hollarda esa qora yoki to'q kulrang tUSDagi qog'oz yuzasiga pastel yoki kichkina bo'r qalamchasi bilan ishlab tajriba orttirishimiz mumkin. Bu esa bevosita doskaga ishlashimiz uchun yaxshigina tajriba maktabi bo'lib xizmat qiladi. Bu turdagi qog'ozlarga ishlash nafaqat xotira va tasavvur

4. Salayev M., Qurbonniyozova G. Adabiyotshunoslik atamalari izohli lug'ati. – T. : Yangi asr avalodi, 2010 B. 317.
5. Drevnetyurkskiy slovar'. Izd. "Nauka". Leningradskoe otdeleniya. Leningrad 1969. str. 231.
6. Jo'rayev O. Majoziy didaktik talqinlar. – T. : Adabiyot va san'at nashriyoti, 1989. B. 312.
7. Xo'janova G. "Hibbat ul-haqoyiq" haqiqatlari. – T. : Adabiyot va san'at nashriyoti, 2001. B. 78.
8. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. – T. : O'qituvchi, 2005. B. 233.
9. Salomov G'. Til va tarjima – T. : Adabiyot va san'at nashriyoti, 1978. B. 239.
10. Haqqul I. E'tiqod va ijod. – T. : Fan, 2007. – B. 146.

АНДРАГОГИКА- ОБУЧЕНИЕ ВЗРОСЛЫХ

Н.Жамолитдинова,
НамГУ.

*«Формальное образование
поможет вам выжить».*

Самообразование приведет вас к успеху»

Джим Рон.

Когда речь заходит об обучении, то первое, что приходит в голову – это педагогика. С древнейших времен люди связывают науку об обучении и воспитании человека с педагогикой. Буквальный перевод слова «педагогика» с греческого означает вождение ребёнка, а именно обучение и воспитание подрастающих поколений. На протяжении многих веков в образовании людей не делали существенных возрастных разграничений. Дети, подростки, взрослые обучались одними методами. Однако в последнее время, все чаще говоря об обучении, мы подразумеваем образование взрослых.

После принятого Постановления № 1875 от 10 декабря 2012 года Президентом нашей Республики И.А. Каримовым "О мерах по дальнейшему совершенствованию системы изучения иностранных языков" все учителя повысили свои знания для того что бы качественно проводить уроки английского языка. В связи с этим в Наманганском государственном университете 2013-2014 учебном году были организованы практические занятия обучения иностранного языка для профессоров-преподавателей университета. Поскольку персонал групп составляли взрослые люди, занятия осуществлялись с учетом их

возрастных, социально-психологических, национальных и прочих особенностей.

Проведённое обучение и обследования показали, что педагогические методы не эффективны в обучении данной категории «учащихся». С этой точки зрения, говоря об обучении взрослых, сегодня нередко можно услышать новое понятие – «андрагогика». Несмотря на то, что понятие «андрагогика» кажется нам малознакомым и новым, этому термину уже более 100 лет. Андрагогика в переводе с греческого андрос - взрослый человек, мужчина; агогейн - вести, если переводить буквально, андрагогика - это «ведение взрослого человека» (человеко-ведение) – наука, раскрывающая теоретические и практические аспекты обучения взрослого человека на протяжении всей жизни. Впервые этот термин был употреблен в 1833 году немецким ученым, историком педагогики А.Каппом. Окончательное формирование основ андрагогики было осуществлено в 1970-е годы в работах американского ученого М.Ш.Ноулза, англичанина П.Джарвиса, американца Р.М.Смита и группы молодых ученых из Ноттингемского университета. В 1970 году Малколом Шеппард Ноулз издал фундаментальный труд по анрагогике «Современная практика образования взрослых. Анрагогика против педагогики». Андрагогика в широком понимании данного понятия – это наука о способах самореализации личности в течение всей жизни. Не секрет, что некоторые люди «находят себя» и раскрываются в молодом возрасте, а многим необходимо накопить опыт, знания и практические навыки для того, чтобы проявить себя в полной мере. Именно андрагогика приходит на помощь, помогая личностному росту человека и раскрывая его скрытый потенциал. «Non scholae sed vitae discimus» - «Не для школы, а для жизни мы учимся» - говорил Сенека.

Принципы андрагогики отличаются от педагогических принципов обучения. Следует четко понимать, что для того чтобы успешно обучать уже готовых специалистов, мало просто хорошо владеть материалом, важно иметь внутреннюю харизму, быть безусловным авторитетом и лидером в группе, нести новые революционные идеи, притягивающие и удерживающие внимание аудитории. При этом важно знать некоторые принципы обучения взрослой аудитории, а именно:

I. Ведущей деятельностью является самостоятельное обучение. В контексте данного принципа на первое место в образовательном процессе выходят дистанционные образовательные проекты.

II. Первоочередной является совместная деятельность одноклассников между собой и с преподавателем. Данный принцип позволяет до начала и в момент обучения выделять приоритетные направления в получении знаний.

III. Обучение происходит с опорой на имеющийся жизненный опыт, практические умения и навыки. Данный принцип позволяет активно использовать имеющийся информационный багаж для надстройки новых знаний и является основополагающим в развитии творческих способностей обучающихся.

IV. Принцип корригирования устаревшего личностного опыта и консервативного подхода, стоящего на пути овладения новыми знаниями. Данное положение носит воспитательно-просветительский характер и помогает людям приобрести мотивацию и потребность в обучении.

V. Принцип свободы в выборе целей, содержания, методов, сроков и места обучения. Только руководствуясь данным принципом можно способствовать развитию творческого потенциала взрослых «учеников».

Работая с взрослой аудиторией, следует учитывать особенности протекания психических процессов данной категории обучающихся:

Внимание:

- У взрослых людей объем запоминаемых объектов составляет в среднем от 6 до 11, о чем следует помнить, подбирая материалы.

- Переключение с одного вида деятельности на другой происходит более продуктивно, если новое задание интересно для аудитории.

- Концентрация внимания происходит успешнее, если используются приемы поддержания эмоционального фона (юмор, афоризмы, крылатые слова), информация носит актуальный характер, а также, используются разные каналы восприятия.

Память:

- При подаче нового материала, следует учитывать «эффект края» или «эффект первого впечатления», когда информация, прозвучавшая в начале и в конце объяснения запоминается лучше, чем та которая преподносится в середине изложения.

- Следует помнить и о таком свойстве психики взрослого человека: запоминается лучше та информация, которая не имеет законченного действия, так называемый «эффект Зейгарник». Учеными был проведен эксперимент, в ходе которого испытуемым давали выполнять задания, и в определенный момент экспериментатор работу прерывал, якобы происходили случайные накладки, после окончания эксперимента, испытуемого просили назвать те задания, которые он выполнял. В результате оказалось, что работа, которая была прервана, запоминались в 2 раза лучше, чем та, которую удалось завершить.

Работоспособность:

• Эффективность усвоения нового материала повышается, если он разбит на несколько занятий, каждое из которых длится не более 1,5 часов.

• Следует учитывать этапы работоспособности взрослого человека: в начале тренинга до 20 минут, происходит «включаемость» в работу, поэтому материал должен быть достаточно облегчен для восприятия. Далее следует фаза максимальной работоспособности, которая длится 30-40 минут. Последующие 30 минут происходит спад активности, внимание слабеет, запоминание происходит менее продуктивно. И последние 10 минут характеризуются истощением психических процессов, однако, помня об «эффекте края», на этом отрезке работы следует повторить все, изложенное на тренинге, что поможет лучшему запоминанию материала.

Дорогие коллеги, успеха вам в этом нелегком, но исключительном занятии, ибо говоря словами Шекспира, «учение – это продолжение нас самих».

Литература

1. Фопель Клаус. Психологические принципы обучения взрослых. М.: Генезис, 2010.
2. Особенности обучения взрослых. Учебно-методическое пособие – Ташкент, 2011.
3. Василькова. А. Основы анрагогики Учебное пособие – М.: КНОРУС, 2009.
4. Батышева. С.Я. Энциклопедия профессионального образования. М.: 1999.
5. <http://www.elitarium.ru/>

CHET TILIDAGI KIRITMA SO'ZLAR VA ULARNING TARJIMASI MASALASI XUSUSIDA

*Baxtiyor Xolmirzayev,
.NamDU katta o'qituvchisi, filologiya fanlari
nomzodi.*

*Rahmanova Dildora,
NamDU 2-bosqich magistranti.*

Chet tilidagi kiritma so'zlar – shunday so'zlarki, ular asliyat tilining o'zida kiritma (boshqa tillardan morfologik va sintaktik jihatdan o'zgartirishsiz, aynan transkripsiyalangan holda kiritib qo'yilgan) tarzida amal qilganligi bois tarjimada ham ana shunday holatda saqlanadi. Ular asar muallifi tomonidan matnning autentik (asl)ligini ta'minlash maqsadida foydalaniladi. Ayni paytda ular asar uslubiga o'ziga xos obrazlilik, ironiya berishda ham qo'l keladi. Tabiiyki ularni mavjud lug'atlardan topib bo'lmaydi. Ular asarning, asar personajining milliy va mahalliy o'ziga xosligini ta'minlashga xizmat qiladi. Bunday so'zlar ishtirok etgan matnlarda gap xorijlik kimsa haqida borayotganligini bilib olish mumkin. Shuning uchun ham ular tarjimada ham aynan qoldiriladi.

Nein, " he roared down the phone to his colleague who had gone over to negotiate. "Nein. Vollig ausgeschlossen. Withdraw it. " (Forsuth F. The Art of the Matter)

Ruschasi:

- "Nein! – граммовым голосом вопил он в телефонную трубку – Nein. Vollig ausgeschlossen! Мы её отзываем!

Bu misolda biz chet tilidagi kiritmalarning o'ziga xos ko'rinishini uchratamiz. Bu suhbatda ishtirok etgan tomonlarning biri nemis millatiga mansubligi tayin. U povestning umumiy fabulasini ta'minlashga xizmat qilgan.

O. Genrining "Kemalar" va "Boshmoqlar" hikoyalaridagi syujet yaxlitligini ta'minlashga xizmat qilgan ispancha kiritma so'zlardan misollar ko'ramiz:

"One day Johnny's mozo brought the mail (O'Henry. Shoes)

Ruschasi:

Однажды слуга принес Джонни почту.

<i>"Not me", said Johnny, promptly and incorrectly, holding up a foot encased in a disreputable deerskin zapato (Ibid)</i>	<i>«Нет, не я!» - сказал Джонни и вытянул ноги, облаченные в истоптанные туфли.</i>
<i>... and there's the comandante's sister that dresses up her foot on</i>	<i>... сестра команданте. По большим праздникам она</i>

<i>feast days. (Ibid)</i>	действительно ботинки.	носит
<i>"Que Hay?" they began to exclaim. (Ibid)</i>	<i>"Que Hay?"</i> -	стали они восклицать.

Yuqoridagi misollardan ko'rinib turibdiki, chet tilidan kiritma so'zlarni o'g'irishning ham turlicha yo'llari bor ekan. Ikkinchi misolda *comandante* so'zi aynan asliyatda qanday bo'sa shundayligicha berilgan. Uchinchi misolda ham shunday. Bu tarjimasiz ham tushunraliday. Birinchi holatda esa tarjimon asliyat anglatgan ma'nonigina berish bilan kifoyalangan. Ikkinchi va uchinchi misollarda asliyatdagi milliy koloritini ham saqlash muvaffaq bo'lingan. Shunday kiritmalar bo'ladiki, ular boshqa tilda ham tushunilishi mumkin bo'ladi. Shundaylardan nemischa Angst (qo'rquv) so'zini inglizlar tushunaveradilar. Ayni paytda ingliz tilidagi MS Word ham nafaqat nemislarga, balki boshqa xalqlarga ham tushunarli bo'lishi tabiiy.

Chet kiritmalar tarjimasidan shunday xulosaga kelish maqsadga muvofiq:

- Avvalo chet kiritmalarning gapdagi vazifasini aniqlab olish lozim;
- Agar u asliyat tilida muayyan milliy o'ziga xoslikni ifodalash bilan bog'liq bo'ladigan bo'lsa, uning xususiyatini tarjimada ham saqlashga harakat qilish kerak. Boshqacha aytganda aynan transformatsiyalash lozim bo'ladi;
- Boshqa holatlarda ular anglatgan ma'noni, ya'ni referentsial xususiyatlarini tarjimada berish mumkin bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Salomov G'. Tarjima nazariyasi asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 1983.
2. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildlik. – Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2007.
3. Toshxo'jayev A. Qarshiboyev M. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushunchalar, tamoyillar va atamalar//qisqa izohli tajribaviy lug'at. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2002.
4. Bektemirov H., Begmatov E. Mustaqillik davri atamalari. – Toshkent: Fan, 2002.

MUHAMMAD ALINING «ULUG' SALTANAT» TRILOGIYASIDA AMIR TEMUR TARIXIY SHAXSI TALQINI

Olimjon Dadaboyev,

Nam DU katta o'qituvchisi.

Barno Matkarimova,

Nam DU magistranti.

O'tmishdagi har bir tarixiy voqeaning o'z qahramonlari bor, o'sha qahramonlar tufayli biz o'sha davr haqida to'la tasavvur olamiz. Kishilik jamiyati tarixida ba'zan ro'y berib, uning hayotiga katta talofatlar keltiradigan voqealarga qarshi qanchadan-qancha qahramonlar yaratdiki, ana shu insonlarsiz o'sha davrlarni tasavvur qilish amrimahol.

Yozuvchi Muhammad Alining «Ulug' saltanat» tarixiy romani ham tarix sahifalaridagi ana shunday qahramonlardan biri - Sohibqiron Amir Temur haqida. Amir Temur obrazi adabiyotda birinchi marta yaratilayotgani yo'q. O'tgan olti asr mobaynida juda ko'p tarixchi va yozuvchilarning bu ulug' siymoning hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan asarlarida buyuk sohibqironning turfa xil obrazlari yaratilgan.

Amir Temur shaxsini va hayotini yorituvchi yozma manbalar hali Sohibqiron tiriklik davridayoq yozila boshlangan. G'iyosiddin Ali ibn Jamol al-Islom Yazdiyning «Ro'znomai g'azovoti Hindiston» risolasi Amir Temur faoliyatiga oid ilk asar hisoblanadi. Bu risola Amir Temurning shaxsiy ko'rsatmasi bilan 1399-1403-yillar oralig'ida yozilgan. Unda 1398-1399-yillardagi yurish batafsil tasvirlangan.

Amir Temur va temuriylar davrida yozilgan tarixiy asarlar orasida Nizomiddin Shomiy va Sharafiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma» asarlari o'ziga xosligi va qimmatli dalillarga boyligi bilan, shubhasiz, birinchi o'rinda turadi. Shuningdek, eronlik tarixchi olim Mo'iniddin Natanziyning sharqshunoslar orasida «Muntaxab ut-tavorixi Mo'iniy» («Mo'iniyning saylanma tarixi») nomi bilan mashhur bo'lgan asarida ham Amir Temur tarixi qisqa tarzda bayon etilgan. Ibn Arabshohning «Ajoyib al-maqdur fi axbori at-Taymur» tarixiy asari ham Amir Temur va temuriylar davri voqealariga bag'ishlangan.

Buyuk sarkardaning hayoti va faoliyati nafaqat osiyolik, balki dunyo olim va yozuvchilarini ham hamisha qiziqtirib kelgan. Kristofer Marloning «Buyuk Temurlang», Edgar Alan Poning «Tamerlan», Harold Lembning «Amir Temur», A. Shampdorning «Tamerlan», Jastin Marotstsining «Temurlang: Islom qilichi, dunyo sohibqironi», Roy Stierning «So'nggi jangchi», V. V. Bartoldning «Temurning dafn qilinishi haqida» asarlari ana shunday qiziqishlar natijasi o'laroq dunyo yuzini ko'rdi.

Yozuvchilarning Amir Temur mavzusiga qayta-qayta murojaat qilishlari tasodifiy hol emas. Yuksak fikr-g'oyalarni ulug' siymolar faoliyati timsolida ko'rsatish adabiyotda ko'p uchraydi. Chunki bu siymolarning amalga oshirgan ishlari bir tomondan, ularning kuchli tabiatidan darak bersa, ikkinchi tomondan, ularni yetishtirib chiqargan voqealarga boy tarixiy sharoitning mazmunidan dalolat qiladi. Amir Temur mavzuida yozilgan asarlarning hammasini ham, albatta mashhur fothihning tarjimai holi yoki uning yurishlari xronikasi deb qarash noto'g'ri bo'lardi. Chunki bu asarlar shu mashhur shaxs orqali yozuvchilarning o'z ijtimoiy-siyosiy, falsafiy, tarbiyaviy-estetik qarashlarini ifodalovchi asarlardir. Biroq, masalaning boshqa bir tomoni borki, bir mavzuga qayta va qayta murojaat etaverish turli asarlarda bir xillilikni ham yuzaga keltirishi mumkin. «Ishlagan tema»ga qayta murojaat etishning eng xatarli joyi o'zingni va o'zgani takrorlab qo'ymaslik», - deganda haq gapni aytgan edi Nazir Safarov. Ana shu omillarga amal qilgan Muhammad Ali Amir Temur haqida o'zgacha asar yaratishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Shu paytgacha yozilgan asarlardan farqli o'laroq Muhammad Ali Amir Temur shaxsida buyuk davlat arbobi bilan bir qatorda oddiy insonni ham ko'rishni xohlaydi, unda ham xis-tuyg'u borligi, uning ham oddiy insonlar singari azob chekishi yoki hursandchilik qilishi, sevishi va sevilishini tasvirlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Bu haqda romanda shunday yoziladi: «Temurbekka padari buzrukvori shunday qattiq ism bergan bo'lsa ham, u temirdan emasdi. U ham sevgan, muhabbat o'tida yongan, hasratlarga dil bergan, kimgadir ishongan, kimdandir aldangan, orzu-xayollari mo'l, Xudoning loydan bino bo'lgan bir bandasiydi, bandasiga xos bo'lgan narsalar unga ham tegishli edi».

Ba'zan jahongir Amir Temurning harb yurishlarida juda ko'p qirg'inlar bo'lganligi haqida eshitib qolamiz. Zotan, sho'rolar davrida yaratilgan asarlarda asosan shu masalaga urg'u qilinadi. Hattoki, o'sha davr sharqining g'arbdan ancha ustun bo'lganini tan olishni istamagan yozuvchilar ham asosiy e'tiborni shunga qaratishni ma'qul ko'rishadi. Biroq, aytingchi, qaysi urushda insonlar, oddiy xalq o'lmagan. Buning uchun olti asr naridagi emas, balki 20-asrning o'rtalarida ro'y bergan 2-jahon urushini yoki Xirosima va Nagasaki voqealarini eslash kifoya.

Yo o'rnak bo'larli yoki ibrat bo'larli obrazlar yaratish adabiyotning umumvazifasidir. Bunga hamma san'atkorlar – tarixiy temada asar yaratayotganlar ham, zamonaviy material ustida ishlayotganlar ham amal qilishi kerak. Zero, ma'noni ifodalashdagi asosiy omillardan biri qahramon masalasidir. Gap shundaki, har bir asarda yaratilgan qahramon, xususan, roman qahramonlari hayotni umumiy tasvirlash uchun tanlanmaydi. Odatda, yozuvchilar asar bosh qahramoni orqali o'z dunyoqarashini, falsafiy nuqtai nazarini bildiradi. Shu maqsadda tanlangan qahramonning biror o'rnak yoki ibrat bo'larli tomonini bo'rttiradi, tipiklashtiradi, toki qahramon o'zining shu tomonlari bilan kitobxoniga saboq bersin. Demak yozuvchi Muhammad Ali uchun Amir

Temurning mo'g'ullar istibdodiga qarshi bosh ko'tara olgani, butun Movarounnahrni birlashtirib, kengaytirib taraqqiyotning yangi bosqichiga ko'tara olgani muhim. Shu boisdan uni ko'proq Sohbiqironning o'zining – ya'ni adibning maqsadlariga, idealiga to'g'ri keladigan tomonlari qiziqtirgan.

Tarix millatning haqiqiy tarbiyachisi, degan gap bor. Buyuk ajdodlarimizning ishlari va jasratlari tarixiy xotiramizni jonlantirib, yangi fuqarolik ongini shakllantirishi, axloqiy tarbiya va ibrat manbaiga aylanishi kerak. Ana shu nuqtai nazardan olib qaraydigan bo'lsak, «Ulug' saltanat»ning o'z vaqtida yozilganiga amin bo'lamiz. Zero, mustaqillikka erishgan ilk yillarimizda butun o'zbek adabiyotining markaziy mavzusi davlatni mustahkamlash, uni ichki va tashqi yovuz kuchlardan himoya qilish haqida bo'lishi lozim. Shu jumladan tarixiy janrda yozilgan va yoziladigan asarlarning asosiy pafosini insonparvarlik va vatanparvarlik g'oyalari tashkil qilishi kerak. «Ulug' saltanat»ning ifoda markazida ham Amir Temur boshchiligida xalqning bosqinchilarga qarshi kurashi, davlatni va uning mustaqilligini mustahkamlash masalasi turadi.

Romanning ilk boblarida Amir Temur g'oyalarining asosiy mag'zi ifodalanadi. Tarqoq amirlarning boshini bir joyga qovushtirish, mo'g'ullar istibdodiga qarshi birgalikda kurashish, mamlakatni mustaqillikka erishtirish haqidagi o'y-fikrlar uni bir dam bo'lsin tinch qo'ymaydi va hamisha kurashga chorlaydi.

Keyinchalik davlat tepasiga kelgan Amir Temur davlatning iqtisodiy-ijtimoiy masalalarida ham xalqparvarlik g'oyalariga asoslanadi. «Qay bir podshoh o'z saltanatini g'addorlik va zulm asosiga qursa, kishilar dilini ranjitishga qaratsa, davlati qarorsizlikka ro'baro' keladir. Biz saltanatimizni kishilarga mehru shafqat ko'rgizish, ularni himoya etish zaminiga quramiz!» - deydi Amir Temur.

Asar davomida muallif Amir Temur qarashlarini ta'kidlab boradi. Voqealar rivojida hukmdorning qarashlari, fikrlari teranlasha boradi. Saltanat mustahkamlana borgach, uning raiyatga e'tibori ham yuksala boradi. «Bosqinchilar zamonida ko'p narsa izdan chiqib ketmish... Raiyat og'ir ahvolda, yurt parokanda, har yoqda vayronagarchilik... Endi uni obod qilishimiz joiz... Kimki biron sahroni obod qilsa yoki koriz qursa yo biron bog' ko'kartirsa, yoki harob bo'lib yotgan yerni chamanga aylantirsa, birinchi yili undan hech qanday soliq olinmasun. Ikkinchi yili fuqaroning o'zi himmat qilib berganini olsunlar. Uchinchi yili qonundagidek olsunlar... Bundan boshqa, yozgi, bahorgi va kuzgi ekin-tikindan olingan hosil raiyatning o'ziga qolsun...», - deydi Amir Temur. Maqsad raiyatni qashshoqlantirib qo'ymaslik, aks holda bu saltanat xazinasining kambag'allashishiga olib keladi. Maqsad saltanatni yanada mustahkamlash. Maqsad vatanni obod etish Amir Temurga o'z mamlakatini obod qilish, raiyati mushkulini osonlashtirish, shaharlar, go'zal imoatlaru binolar barpo ettirish kabi ezgu niyatlar hamroh edi.

Realistik asar mukammallikni, hamma narsa o'z joyida bo'lishini taqozo qiladi. Bu talab har bir obrazning asarda paydo bo'lishiga ham taalluqlidir. Romanda Amir Temur shaxsining shakllanishi, xarakterli belgilarining ochilishini To'xtamishxon, Amir Husayn, Husayn So'fi, Yusuf So'fi kabi obrazlarsiz to'la tasavvur qilish qiyin. Amir Husayn kabi yurt birligini, obodligini o'ylamaydigan amirlar vaziyatning yanada og'irlashishiga, situatsiyalarning yanada keskinlashishiga, Amir Temur boshiga qanchadan-qancha qiyinchiliklar, kulfatlar yog'ilishiga, uning drammatizmini kuchaytirishga sabab bo'ladi. Aynan Amir Temur ko'magida Oltin O'rda taxtiga o'tirgan To'xtamishxonning nonko'rlarcha yurtga bosqin uyushtirib, vayron qilishi, xalqni talon-taroj qilishi yoki xorazmshohlarning ham shu kabi xatti-harakatlari Sohibqiron uchun katta qiyinchiliklar tug'diradi. Lekin bular Amir Temurning hayotga optimistik qarashlarini o'zgartira olmaydi, aksincha uning yanada jo'shqin kuch bilan namoyon bo'lishiga turtki bo'ladi.

Asardagi har bir personajning o'z bajaradigan vazifasi, tutgan o'rni bor. Amir Muso, Zindachashm opardiy, Abul Maoliy Termiziy, shayx Abulvoris Samarqandiy kabi obrazlar bilan o'zaro munosabati orqali Amir Temurning kechirimlilik, bag'rikenglik kabi xususiyatlari ochib berilsa, Bobo Sanguv, Mir Sayyid Baraka, Zayniddin Abubakr Toybodiy, Bobo Ali Shoh bilan munosabatlar esa sohibqironning azizu avliyolarni naqadar hurmat qilishini, ularning maslahatlariga quloq tutishini ko'rsatadi. Masalan, Hirot yurishida u o'z piri Zayniddin Abubakr Toybodiyini ziyorat qilgani boradi. Shunda shayx Hirotni bosib olgan taqdirda uning ahlini iztirobga solmaslikni, qiynamaslikni so'raydi. Amir Temur uning so'zini ikki qilmay asir tushganlarni avf etib, qo'yib yuborishlarini, shahar ahliga esa teginmaslikni buyuradi.

Mir Sayyid Baraka, Zayniddin Abubakr Toybodiy kabilar yozuvchining ma'lum bir falsafiy qarashlarini yorituvchi obrazlar hisoblanadi. Bundan tashqari ana shu obrazlar Amir Temur xarakteridagi odamiylik, insonparvarlik, adolatparvarlik g'oyalarining shakllanishi va mustahkamlanishidagi asosiy omillar bo'lib xizmat qiladi. Romanda bu obrazlar tilidan aytilgan har bir fikrga alohida e'tibor qaratiladi. Ularda podshohlarning har bir ishda adolatli bo'lishi kerakligi, avomga minba'd zulm qilmaslik haqida gap boradi. Masalan, romanda yozuvchi piri murshid Mir Sayyid Baraka tilidan shunday deydi: «Shohlarning umridin bir soatkim, aql va dod birlan kechgay, oltmish yillik toat-ibodatdan yaxshiroq turur...». Yoki Shayx Zayniddin Abubakr Toybodiyning Amir Temurga yozgan maktubini olaylik: «... Ba'd... Xudoning mulkida adolat bilan ish tutsunlar, magaramkim, demishlar: «Mamlakat kufr bilan turishi mumkin, ammo zulm bor yerda turolmaydi...».

Amir Temurdagi insoniy sifatlar, oliyanoblik ham buyuklarga xos fazilat ekani, u atrofdagilardan ustun ekani, Amir Temurni buyuklik pog'onasiga ko'targan uning fazilati ekani romanning har bir lavhasida ko'rinib turadi. Qolaversa, u bilimlarni qissahon Maviono Ubayddan, Sayyid Barakadan oldi,

Temurning shaxsiyati shakllanishida bu ikkala zotning xizmatlari katta bo'lgani romanda o'rni bilan ko'rsatiladi. Bu fazilatlar go'yo Amir Temur uchun burch, shunday qilishim shart, degan mazmuni anglatib turadi. Xorazmshoh Husayn So'fini insofga, tadbir bilan ish yuritishga chorlaganini eslaylik. Ulug' Sohibqiron Husayn So'fini ters fikridan qaytarish uchun o'zini adolatli qilib ko'rsatmadi, balki adolatli, insoniy sifatlari mukammal hukmdorlarga xos jav onmardlikni burch deb bilgani uchun Husayn So'fini insofu adolatga chorladi.

Yozuvchining mahoratidan darak beradigan yana bir narsa shuki, u Temurbekning individual belgilarini ta'rif-tavsif va sifatlashlar orqali emas, o'zining atrofdagilarga munosabatlari, aqidasi, ichki bir madaniyati orqali ko'rsatadi. Saroymulxonim, Turkon Oqa, Shirinbika, Xonzoda begim, Sulton Baxt begim, Oqa begi kabi saroy ayollari obrazlari orqali buyuk sarkardaning oilaga va ayollarga bo'lgan munosabati tasvirlanadi. Bu obrazlar orqali er va ayol, ini va singil, qaynota va kelin, ota va farzand o'rtasidagi munosabatlar o'z ifodasini topgan. Sarkarda yoshlik yillarida mehrini va yordamini ayamagan, dono maslahatgo'y opasi Turkon Oqaning hurmatini to umrining oxirigacha o'z joyiga qo'yadi. Umr yo'ldoshi Saroymulxonimning befarzand ekanini bilintirmaslik maqsadida saroydagi mirzolar tarbiyasi bilan shug'ullanishni unga topshiradi. Valiahd jigarbandi Jahongir Mirzo vafotidan keyin kelini Xonzoda begimning shum taqdiridan azob chekadi. Ne-ne umidlar bilan turmush qurgan kelinining beva qolishi sarkardaning alam va tashvishlarini oshiradi. Qizlari Sulton Baxt begim va Oqa begilar hayoti ham hamisha diqqat markazida. Turmushi buzilgan Sulton Baxt begim hayotidan tashvishga tushadi. «Allohdan tilab, senga Sulton Baxt begim deb ot qo'yg'ondim... Afsus, Sulton Baxtsiz begim bo'lding, qizim... bir badbaxtga ravo ko'rib xato qildim...» deb o'kinadi. Oqa begining vafoti esa sohibqiron uchun katta ruhiy zarba bo'ldi. Guvohi bo'lib turganingizdek, Amir Temur faqat davlat ishlari bilangina band emas, u ham inson, u ham o'zgalar ko'ngliga qaraydi, o'zgalar dardiga sherik bo'ladi. Umuman roman sahifalarida sarkardaning biroq ayol zotini kamsitib, unga qo'pol munosabatda bo'lganini ko'rmaymiz. Bu ham sarkardaning insoniyligidan, buyukligidan bir dalolatdir.

Temurbek to'g'ri chiziqdan borib, izchil voqealar ichidan silliq o'tadigan obraz emas. Temurbek ishtirok etmagan voqealar zaminida ham asli sohibqironning obrazi bor, romanning qaysi bir o'rnida o'sha voqea yana qalqib chiqadi. Romandan bir dalil keltirish bilan cheklanamiz: Axiy Jabbor amirzoda Jahongir Mirzoga Turo'g'lon va Onabo'ri haqidagi afsonani aytib berganda, yoshgina yigit Turo'g'lonning bevaqt halok bo'lganiga yurakdan achinadi. Ona bo'ri haqidagi afsonani qadimgi turkiy qavmlar yaratgan. Bu voqeaning roman bosh qahramoni Temurbekka aloqasi yo'qday. Muhammad Ali ana shu afsonadan tug'ilgan fojiani roman so'ngida Amir Temurga ko'chiradi. Turkistonzaminning zabardast o'g'loni Jahongir Mirzo vafot etganda, Amir

Temur to'ng'ich o'g'il vafotidan chekkan iztiroblari orqali ulug' saltanat egasini mehribon ota sifatida ko'rsatishga erishgan.

Shu o'rinda yana aytish kerakki, Muhammad Ali Amir Temurning ham farishta emasligini, uning ham ko'p qatori oddiy insonligini, kezi kelganda uning ham xato qilishi mumkinligiga va Birubor ishlari oldida u ham o'qiz ekanini aytmqochi bo'ladi. Qilingan xatolardan afsus chekishi va azoblanishi Isfahon voqealari tafsilotlarida ham ifodalangan. Biroq shuni ham e'tiborga olish kerakki, ulkan mamlakatning tashvishlari ham ulkan bo'ladi. Bu tabiiy holat, chunki ilgari u bir necha yuz kishiga bosh bo'lgan bo'lsa, endi ulkan bir mamlakatning, ulug' bir xalqning tashvishi uning yelkasida edi. Buning esa, albatta, o'ziga yarasha qiyinchiligi, mushkulligi bor.

Yozuvchi Muhammad Alining xarakterlarni tasvirlash va roman asosiy g'oyasini ochib berishdagi mahorati shundan iboratki, u tarixning progressiv harakatini hozirgi zamonning siyosiy va axloqiy-estetik vazifalari nuqtai nazaridan ko'ra olgan. «Ulug' saltanat» romanining zamonaviyligi yana shunda ko'rinadiki, unda moziydagi buyuk kishilarning yorqin obrazlarini yaratish orqali ularning faqat tarixda o'ynagan roli emas, balki ular faoliyati va axloqiy qiyofasining bugungi kundagi ahamiyati ham estetik baholanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muhammad Ali. Ulug' saltanat. – Toshkent: Sharq, 2003.

“DEVONU LUG'OTIT-TURK” XX ASR TARJIMONLARI NIGOHIDA

*I. Tojiboyev,
NamDU o'qituvchisi.*

Istiqlol yillarida mamlakatimizda xalqimizning boy qadimiy madaniy merosini, adabiy yodgorliklarini atroflicha, jiddiy tadqiq etish ishlarining ko'lami tobora kengayib borayotgani ham turkiy xalqlar, xususan, o'zbeklarning jahon tamadduniga qo'shgan ulkan hissalaridan darakdir. Zero, ota-bobolari merosiga hurmat bilan qaragan, o'rgangan, uni dunyo afkor ommasiga tanitishga intilgan halqdagina rivojlanish ham, butun dunyoga rosmana tanilish ham bo'ladi. Bu borada respublika Prezidentining quyidagi fikrlarini keltirish o'rinni: “Markaziy Osiyo tarixida siyosiy aql-idrok bilan ma'naviy jasoratni, diniy dunyoqarash bilan qomusiy bilimdonlikni o'zida mujassam etgan buyuk arboblal ko'p bo'lgan. Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Xoja Bahouddin Naqshband, Xoja Ahmad Yassaviy, Al-Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Bobur va boshqa ko'plab buyuk ajdodlarimiz milliy madaniyatimizni rivojlantirishga ulkan hissa qo'shdilar, xalqimizning milliy iftixori bo'lib qoldilar. Ularning nomlari, jahon

tsivilizatsiyasi taraqqiyotiga qo'shgan buyuk hissalarini hozirgi kunda butun dunyoga ma'lum"²⁴⁹.

Shunday qomusiy olimlardan biri, qadimgi turkiy til va adabiyot vakili Mahmud Qoshg'ariydir. Ta'kidlash joizki, Mahmud Qoshg'ariy turkiy tilshunoslik tarixida ilk bora lug'at tuzish bilan shug'ullangan olim, sheva va qiyosiy uslubshunoslik bilimdoni sifatida dunyo olimlari tomonidan e'tirof etilgan. Uning takrorlanmas yozma obidalardan biri "Devonu lug'otit turk" asari o'zining teran filologik va lingvistik mazmuni bilan jahon ilm ahli nazaridan munosib o'rin olgan. Bundan o'n asr avval tuzilgan mazkur devon turkiy xalqlar tarixi, madaniyati, til xususiyatlari va adabiyoti haqida noyob manbaalarga egaligi bilan ijtimoiy-tarixiy va ilmiy ahamiyatlidir.

"Devonu lug'otit turk" hajman katta asar bo'lib, u hijriy 469-yilda yozib tugatilgan. Bu borada mullifning o'zi ma'lumot berganidek, "Nok yili turklarning o'n ikki yil nomlaridan biridir. Bu kitobning yozilgan yili nok yili edi"²⁵⁰. U turkiy tilining ma'lum va mashhur eng qadimgi lug'ati bo'lib, G'arbiy Osiyoning yozma turkiychasi haqida mavjud keng qamrovli va muhim til yodgorligidir. Qo'l yozma nusxasi 638 sahifadan iborat, 9000 ga yaqin turkiy so'z va jumlar tafsiloti bilan birga arabcha hamda boshqa tillardagi izohlarni o'z ichiga olgan. Shuningdek, asarda turkiy xalqlar tarixiga, geografik tarqalishiga, qavmlariga, lahjalariga va yashash shart-sharoitlariga oid kirish va matnlarni qamrab olgan qisqacha ma'lumotlar mavjud. Eski arab leksikografiyasi tamoyillariga ko'ra tayyorlangan lug'at, Mahmud Qoshg'ariyning turkiy qavmlar haqidagi batafsil ma'lumotlar bilan birga, arab tilshunosligi borasida ham asosli tahsil olganligini yaqqol namoyon qiladi.

Shu ma'noda asarning qo'lyozmasi xususida ikki og'iz so'z. Lug'atning mavjud yagona yozma nusxasi 1266-yilda Shomda qaytadan nashr qilingan va 1915 yilda Istanbulda Ali Amiri Afandi (1857-1923-yy) tomonidan tasodifan topilgan. Ali Amiri nusxasi 1917-yilda Talat Podsho (1874-1921-yy) boshchiligida Kilisli Rifat Bilganing (1873-1953-yy) nazorati ostida chop etilgan bo'lib, butun dunyo turkologlarining diqqat e'tiborini tortdi.

Umuman olganda, Mahmud Qoshg'ariy asarlarining kashfiyoti va nashr qilinishi turkologiya tarixida yangi bir yo'l ochgan favqulodda hodisa bo'lib hisoblanadi.

Bugunga kelib ushbu shoh asar dunyoning ko'plab tillariga tarjima qilindi va bu ishlar hamon davom etmoqda. Asar asosan XX asrga kelib dunyo olimlari tomonidan tarjima va tadqiq etila boshlandi. Dastlab yuqorida ta'kidlanganidek, 1917-1919-yillarda turkiyalik Kilisli Rifat tomonidan devonning 3 tomdan iborat bosma nusxasi Istanbulda nashr etildi. Keyinroq, 1928-yilda nemis

²⁴⁹ Karimov I. A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – Toshkent: O'zbekiston, 1997. – B. 140.

²⁵⁰ Mahmud Qoshg'ariy. Turkiy so'zlar devoni (Devonu lug'otit turk). S. Mutallibov. – Toshkent: Fan, 1960–1963.

tilshunos olimi S. Brokkelъman devonni birinchi marta nemis tiliga tarjima qiladi va uni Leyptsigda nashr ettirdi. 1939-1941-yillarda turk tilshunosi Basim Atalay asarni turk tiliga o'giradi va 1942-yilda asarning qo'lyozma nusxasi faksimilesini hamda 1943 yilda devonning indeks nashrini e'lon qiladi.

1972-1976-yillarda amerikalik turkshunos olim Jeyms Kellingning "Remarks on Kashgari's Phonology (Qoshg'ariy fonologiyasi xususida)" kitobi dunyo yuzini ko'rdi. 1982-1985-yillarda esa amerikalik olimlar Robert Denkoff va Jeyms Kelli tomonidan asar ilk bora ingliz tilga tarjima qilindi²⁵¹. U 3 tomдан iborat va 1-tom (387 bet) 1982-yilda, 2-tom (361 bet) 1984-yilda, 3-tom (337 bet) 1985-yilda Amerikaning "Garvard yuniversiti printing ofis" nashriyoti tomonidan chop etilgan. Ushbu inglizcha tarjima, yangi ma'lumotlar natijasida ba'zi muhim izohli o'zgartirishlarga sabab bo'ldi.

Bulardan tashqari, Ahmad Zaki Validiy To'g'on, Luis Beyzin kabi turkiyalik va fransiyalik olimlar ham devon ustida ilmiy izlanishlar olib borishgani ma'lum. Alohida ta'kidlash kerakki, yuqorida zikr etilgan mutarjimlar asarni bevosita aslyiatdan tarjima qilishgan.

"Devoni lug'otit turk" asari ustida olib borilgan ishlarning navbatdagilaridan biri qozog'istonlik A. M. Auezova nomi bilan bog'liq. U 2005-yilda asarni to'laligicha rus tiliga o'girdi. Ruscha tarjima jami 1281 betdan iborat bo'lib uning kirish qismida A. M. Auezoวานing asar ustidagi maxsus tadqiqotlari ham berilgan. Kitob asosan 3 qism – kirish, tarjima va indeksdan iborat²⁵².

Shuni alohida e'tirof etish kerakki, qadimgi turkiy adabiyot namunalari uchun maxsus lug'atlar nashr etildi. Xususan, 1972-yilda Jerard Klauson tomonidan XIII asrgacha bo'lgan turkiy tillarning etimologik lug'ati, Sankt-Peterburglik bir guruh olimlar tomonidan esa "Drevnetyurkskiy slovarъ" nomli kitoblar chop etildi.

Xulosa qilish mumkinki, Mahmud Qoshg'ariyning bu nodir asari dunyo olimlari nigohida turibdi. Asarni har tomonlama tadqiq etish jahon tilshunoslik va lug'atshunoslik ilmiga katta hissa bo'lib qo'shiladi. Bugungi kunda asarning xorijiy xususan, ingliz va rus tillaridagi tarjimalarini aslyiat bilan qiyosiy tahlil etib, tarjimalarning adekvatlik darajalariga munosib baho berish dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Shu ma'noda o'zbek tarjimashunos olimlari tomonidan olib borilayotgan fundamental tadqiqotlar devonning tarixiy-adabiy hamda ilmiy qimmatini aniqlashga katta imkoniyatlar yaratayotgani ayni haqiqatdir.

²⁵¹ Mahmud al-Kashgari. Compendium of the Turkic Dialects (Divan Lugat at-Turk)/Edited and translated by R. Dankoff, in collaboration with J. Kelly. Harvard University, 1982-1985 (with introduction and indices).

²⁵² Махмуд ал-Кашгарӣ. Диван Лӯгат ат-Турк. Пер. З.А.Ауезовой. – Алматы: Дайк-Пресс, 2005.

STORYTELLING IN COMMUNICATIVE LANGUAGE TEACHING

*Kukiboyeva Mahliyo,
teacher of NamSU.*

Present days while foreign language teaching is developing rapidly it is one of the crucial tasks of all foreign language teachers not only to master the rich experience of methodologists, scientists of this field but also to share their own experience, conclusions and success in educational life with their colleagues. Rod Bolatio who is the author of several famous methodological handbooks claims that no teacher can be the same as he was at the time when he just started his career, after lots of years. Because every lesson, every hour that is spent with teaching is a great source of experience for a teacher.

The president's decree number 1875 on the development of foreign language teaching which was signed on December 10, 2012 and deeply concerns both language teachers and young specialists should be in harmony with modern demands improving the quality of education. For that the initiatives should be started with teachers.

As the demand for learning languages is rising today, the demand for development of new methods and approaches in language teaching, creating appropriate materials for modern classroom teaching and for new specialists is also increasing.

This article clarifies the efficiency and importance of storytelling in communicative language teaching.

Famous English methodologist Jack C. Richards claims in his book named "Communicative language teaching today" that the lesson which is held with the method of communicative language teaching has the following aspects:

- Mostly authentic and semi-authentic materials are used during the lesson
- New lexical materials are given in context and classroom activities, tasks and assignments for students are taken from authentic materials
- Grammar materials are presented not only with isolated sentences and rules but also in context they are retrieved in students' mind by meaningful tasks. Initially, the views and ideas of students about the task are asked while counting on them in presenting a new theme
- In teaching process communicative competence takes privilege over grammatical competence
- The knowledge of language is in harmony with intercultural awareness in classroom environment
- It emphasizes the freedom of students over the dominancy of a teacher in classroom and stresses to shape the ability of autonomy among students.

- Real reasons for communication are promoted, grammar rules and structures are taught by exposing them to real communication, not by making the students learn by heart a grammar rule itself.

- It stresses to improve both the knowledge of language and fluency in speech at the same time

Having taken into consideration above mentioned statements storytelling initially serves as the source of authentic material in classroom teaching. It gives an opportunity for teachers to choose short stories suitable for students' level and make exercises to improve speaking comprehension and production, reading and listening comprehension skills of students. Authentic materials help students improve their vocabulary range in a foreign language, be aware of new grammar rules and to learn new grammar materials in context as well.

Apparently, short stories are rich in different expressions, proverbs and good sayings. It develops the language and cultural awareness, of students enriching their knowledge of lexical layers. Ethimology of every proverb is specific for the nation and the place where they were originated and reflects the lexical and cultural specific features of them. In the lessons students will be aware of the literature, history, culture and lifestyle of the country whose language they are learning. Famous Uzbek methodologist J. Jalolov claims in his book called "The methodology of foreign language teaching" that the education given to students should be in harmony with developing their morality and personality. In bringing up young generation the role of short stories is irreplaceable. Their colourful themes make it possible to apply them in different themes a handbook, such as homeland, hometown, family, honesty, kindness, loyalty, morality, hard work, profession, and others. Besides, short stories are the source of colourful exercises and assignments which makes possible to design different activities for grammar themes and topics such as: expressions, idioms, antonyms, synonyms, polysemi, compound sentences, verb tenses, moods, reported speech and etc.

As a conclusion we can summarise these advantages of short stories:

- Short stories are considered as the resource of authentic materials and tasks

- They give an opportunity to learn lexic and grammar materials in context

- They give great chance of teaching language education and developing morality and personality in harmony

- They develop learners' language skills, such as listening and reading comprehension, writing and speaking in integration

- They help to form and enhance communicative competence among cultures

- They interlink language education with other subjects and fields of study

• They are suitable for language learners' with different language levels and they are colourful source of lexical and grammatical themes

• Storytelling is one of the best ways of teaching pronunciation

Used literature

1. Sowden C. Culture and the good teacher in the English language Classroom. ELT journal, 2007 vol. 61/4pp. 304-310

2. Jack C. Richards. Communicative Language Teaching Today. Cambridge University Press, 2006.

3. Mark Irvine. Jo Hathaway. Adventure stories. Macmillian 2011

4. www. teachingenglish. org. uk

5. www. britishcouncil. org/learnenglish

6. Patsy M. Lightbown. Nina Spada 2005 "How Languages are Learned" 8. Brooks, N. 1960. Language and language learning. New York: Harcourt. 9. Lantolf, J. P. (ed.). 2000. Sociocultural Theory and Second Language Learning. Oxford: Oxford University Press.

SHUKUR XOLMIRZAYEV IJODIDA MILLIY O'ZLIKNI ANGLASH G'OYALARINING AKS ETISHI

*Hamidova Muhayyoxon,
Nam DU dotsenti, filologiya
fanlari nomzodi.*

O'zbekiston xalq yozuvchisi Shukur Xolmirzaev hikoyalari bilan elga yozuvchi sifatida tanilgan bo'lsa, milliy o'zlikni anglash g'oyalari ham adib ijodining ilk namunalaridan boshlab ustuvorlik kasb etadi.

Adibning badiiy mahorati haqida fikr yuritmoqchi bo'lsak, albatta, uning hikoyalari murojaat etgan maʼsul. Masalan, «O'zbek xarakteri» kabi hikoyasi badiiy jihatdan yuksak darajada yozilgan asarlaridan sanaladi.

Hikoyada oddiy, sodda o'zbekning ishonuvchanligi, mehnasevarligi, odamiyligi, uning yashash sharoiti va boshqa jihatlari har bir o'zbekka o'z maskani hamda uyini eslatadi.

Hikoya 1988-yilda bosilib chiqqan bo'lib, asarda adib o'zbek xalqining naqadar mehmondo'stligini ko'rsatib bergan. Har qanday badiiy asardan hayot hidi kelib turishi zaruratdir. U hayotga yaqin bo'lmasa, beiz o'tib ketaveradi. Badiiy to'qima ham asarda o'z o'rnida qo'llanilishi kerak. Bu hikoyada hayot haqiqati to'la tajassumini topgan.

Shukur Xolmirzayev hikoyada qishloq hayotini kuz faslida paxta terimiga hasharga borgan Ergash nuqtai nazari orqali yoritadi. Hikoyada hasharchilarning nochor yashash sharoitini, ayrim yordamchilar orasidagi insoniylikka zid munosabatlarni ifodalovchi manzaralar bor. Bu holatni Botir

cho'ponning qo'zisini talabalar O'rmonjon, Azimjonlar tomonidan o'g'irlanishi misolida ko'rish mumkin.

Bu lavhalar o'quvchilarga qahramonlar harakat qiladigan muhitni ko'rsatish vositasi xolos. Yozuvchining asosiy maqsadi oddiy cho'pon oilasiga munosabati orqali o'zbeklarning o'ziga xos xarakterini ko'rsatib berishdir.

Qush tinadi-yu, Botir cho'pon va uning xotini tinmaydi. Bu holatni asarning bosh qahramoni Ergashning tilidan bayon qilingan tasvirda ham ko'rishimiz mumkin: «... ayol tong otmasdan uyg'onadi, sigir sog'adi, erini kuzatadi, keyin o'rmak to'qiydi... Kun ko'tarilaverganda, ariqning u betidagi paxta zorga tushadi, kechgacha bir qopni tikka qilib qo'yadi. Kechasi ham allamahalgacha ularning kulbasidagi yolg'iz derazadan ariq bo'yiga nur tushib turardi»²⁵³

Botir cho'pon va uning xotini mehnatga, 3-4 kishi zo'rg'a sig'adigan bostirnadek uyda yashashga ko'nikishgan. Ular bundan o'zgacha yashashni xayollariga ham keltirmaydilar. Kamtarona kun kechirishlariga qaramay, hasharchilarning ko'nglini olishni, topgan-tutganlarini qo'yib mehmon qilishni tabiiy ehtiyoj, odatiy burch deb biladilar.

Dovul bo'lib, Botir cho'ponning qo'y-echkilari qo'radan qochib ketganida hasharchilar yordam berib, ularni to'plashishadi, lekin davlatga tegishli bir qo'zi topilmaydi. Shunda Botir cho'pon hasharchilarga shunday deydi:

«- Uni o'zim topaman. Sizlar dam olinglar endi... Topsam, o'zimning qo'yimdan bittasini so'yib beraman sizlarga»²⁵⁴.

Lekin qo'zi topilmaydi. Hasharchi yigitlar - O'rmonjon, Azimjon va ularning sheriklari qo'zini o'g'irlab, yeb tugatadilar. Ular oziq-ovqatdan qiynalganlaridan, siqilganlaridan shunday qiladilar. Go'yo ularning och qolishlariga Botir cho'pon aybdordek, cho'ponning dasturxonida bir necha bor mehmon bo'lishlariga qaramay, davlatga tegishli qo'zini o'g'irlyadilar. Mana shu lavhadan Botir cho'ponning mard, o'zganing haqidan qo'rqadigan inson ekanligini ko'rish mumkin. Birgina davlatga qarashli qo'zi uchun kattagina bir qo'yini Qurbon qilishdan qaytmaydi. Cho'pon qo'zisini qancha qidirmasin, topolmaydi. Shunday bo'lsa ham, hasharchi talabalarni paxta terimi tugab, uylariga qaytishlaridan bir kun oldin uyiga taklif qiladi va va'da qilgani kattagina qo'yini so'yib, mehmon qiladi.

«Shu lafz ekan, ukalar... tilga olib qo'yib edik. Bitta qon chiqaramiz deb... Shunga qadam ranjida qilsangizlar. Mana, opalaringiz ham iltimos qilyapti, - dedi»²⁵⁵

Cho'ponning ana shunday samimiy taklifidan keyin talabalar uning uyida so'nggi bor mehmon bo'ladilar. Andishasizlik qilib, cho'ponning o'ziga tegishli bo'lmagan qo'zini o'g'irlab yeganlaridan pushaymon bo'ladilar. Dastlab

²⁵³ Xolmirzayev Sh. O'zbek xarakteri // Sharq yulduzi, 1988. - № 11. - B. 27.

²⁵⁴ Xolmirzayev Sh. O'zbek xarakteri // Sharq yulduzi, 1988. - № 11. - B. 30.

²⁵⁵ Ko'rsatilgan manba. - B. 32.

o'g'irlik qilgan O'rmonjonning «Botir ham bir qo'zidan ayrilsa, ochdan o'ladigan kimsa emas!» - deganidan Ergash uyalib, iztirob chekkan bo'lsa, keyinchalik uning samimiyligidan lol qolgan yigitlar ham o'z ishlaridan qattiq afsuslanadilar.

«- Biz ablahmiz! - dedi Azimjon ingrab, - Ko'ra bila turib ablahlik qilamiz. Biz qanaqasiga o'zbekmiz-a? Ana ularni o'zbek desa bo'ladi. Nima deding, O'rmonjon?»

- Biz ancha buzilganmiz, - deb po'ng'illadi O'rmon aka. - Lekin hayotning o'ziyam majbur qiladi-da kishini»²⁵⁶.

Botir cho'pon va uning xotini obrazi orqali yozuvchi o'zbeklarning o'ziga xos xarakterini yoritib berishga harakat qiladi. Bunga erishadi ham. Asarda hayotiy voqea keng yoritib berilgan.

Shukur Xolmirzayev el hayotini yaxshi bilishi, uni haqqoniy aks ettirib berishi bilan xalq orasida o'ziga xos o'rin tutadi. Bu esa uning chin iste'dod egasi ekanligini ko'rsatadi.

Shukur Xolmirzayev o'z asarlarida turli-tuman badiiy-tasviriy vositalardan unumli foydalanadi.

Biz uchun *yangilik* bo'lib ko'ringan ana shunday vositalardan birini shartli ravishda «*yaxshi niyatning yomon natijalari*» deb atadik.

Hozirgina ko'rib o'tganimiz «O'zbek xakteri» hikoyasida ham o'sha badiiy-tasviriy vosita mavjud.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, hikoya Ergash ismli talaba nazari va bahosi bilan bayon etiladi. Ergash Botir cho'ponning kambag'alligini, tor uyda yashashini ko'rib, ularga achinadi. Ularning dasturxonidan ovqat yeyishga tortinadi. Shuning uchun Botir cho'ponning uyiga kam boradi. Go'yo shu yo'l bilan unga *yordam bergandek* bo'ladi. Ergash bu ishlari bilan Botir cho'ponning oilasini hammadan ko'proq hurmat qilgandek bo'ladi. Lekin bunday bo'lib chiqmaydi.

Xayrlashuv paytidagi manzara Ergashning hayotga qarashini chil-parchin qilib tashlaydi.

«U kishi hamma bilan qo'l berib xayrlashdi-yu, menga qolganda burilib ketdi. Shunda ayoli ham xo'shlasha boshladi. Qadoq qo'llarining uchini berib xo'shlasha-xo'shlasha menga yetganda, uyam burilib ketdi.

Men titrab - qaqshab ularning oldiga bordim.

- Botir aka, opa... men sizlarni yaxshi ko'raman, - dedim. - Xafa bo'lmangizlar.

- Yo'q, siz bizni yaxshi ko'rmaysiz, - dedi xotini. - Boshida yomon ko'rib edingiz.

- Rost, uka. Pisand qilmadingiz bizni, - dedi cho'pon ham. - Anavi yigitlar boshqacha... »²⁵⁷.

²⁵⁶ Ko'rsatilgan manba... - B. 32.

Bu - Ergashning yaxshi niyatda qilgan xatti-harakatlarining yomon natijaga olib kelganiga bir misol.

Umuman olganda, milliy o'zlikni anglash, sof o'zbekona milliylik Shukur Xolmirzayev asarlarining badiiy quvvatini oshiruvchi amaliy faktorlardan biridir.

BIR G'AZAL HAYRATI

F. Karimova,

filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

S. Yuldashëva,

Nam DU 1-bosqich talabasi.

Alisher Navoiy g'azallari besh asrdan ziyod vaqt o'tsa hamki, o'zining go'zal jilosini yo'qotmaydi, balki yanada ranginroq tovlanaveradi. Biz shoir g'azallarini mutolaa qilar ekanmiz, yana bir bora bunga ishonch hosil qilamiz. Zero, shoirning har bir g'azalini alohida bir asar deyish mumkin. "Xazoyin ul-maoniy" da 2600 g'azal borligini hisobga olsak, shoir asarlarining miqdori insonni hayratda qoldiradi. Yuksak badiiyat ila yo'g'rilgan misralar qatiga joylangan teran ma'nolar bizni hayrat dengiziga g'arq qiladi, go'zal tasviriy ifodalar va lavhalardan cheksiz zavq olamiz.

O'z kitobxonini asrlar osha hayratga solib kelayotgan g'azallaridan biri "Munojot" kuyi bilan aytiladigan "Kelmadi" radifli g'azalidir. Mazkur g'azalda, avvalo, sof insoniy kechinmalar kuylanadi. Ya'ni oshiq uchrashuvga kelish va'dasini bergan ma'shuqasining yo'llariga ko'zlari nigoron bo'lib kutadi, lekin sarvqomat gulro' va'daga vafo qilmadi. Shu bois oshiqning ko'zlariga tong otguncha uyqu kelmadi:

Kecha kelgumdir debon ul sarvi gulro' kelmadi,

*Ko'zlarimg'a kecha tong otguncha uyqu kelmadi*²⁵⁸.

Agar insonning biror narsadan ko'ngli xotirjam bo'lmasa, bezovtaligi bo'lsa, ko'ziga uyqu kelmasligi, boshini yostiqqa qo'yib, ko'zlarini yumsa ham, tiniqib uxlamasligini nazarda tutsak, baytda oshiq holatining hayotiy va ishonarli tasvir etilganligiga shohid bo'lamiz.

G'azalning ikkinchi baytida ham oshiqning ichki kechinmalari nihoyatda yorqin ochib berilgan:

Lahza-lahza chiqtim-u, chektim yo'lida intizor,

Keldi jon og'zimg'a-vu, ul sho'xi badxo' kelmadi.

Baytda lahza-lahza takroriy so'zi mukarrar san'atini yuzaga keltirgan. Xalqimiz orasida "jonim bo'g'zimga keldi" iborasi ko'p qo'llaniladi. Shoir

²⁵⁷Xolmirzayev Sh. O'zbek xarakteri // Sharq yulduzi, 1988. - № 11. - B. 32-33.

²⁵⁸ Alisher Navoiy. Bir paripaykar g'ami. - Toshkent: Sharq, 2006, 43-bet.

ikkinchi misrada iborani vaznga muvofiq “keldi jon og’zing’a-vu” tarzida qo’llash orqali misra ohangdorligini ta’minlagan:

Orazidek oydin erkonda gar etti ehtiyot,

Ro’zg’orimdek ham o’lg’anda qorong’u kelmadi.

Navoiy uchinchi baytda tashbeh, istiora san’atlari orqali oshiqning ichki kechinmalarini o’ziga xos tarzda tasvirlagan. Ma’lumki, mumtoz adabiyotda ma’shuqaning yuzi to’laligi va yorqinligi jihatidan oyga qiyos etiladi. Lirik qahramonning e’tiroficha, ma’shuqa sutdek oydin kechada el ko’rib qolishidan xijolat tortganligi bois uchrashuvga kelmagan. Oshiqning “ro’zg’or”i, ya’ni ijtimoiy ahvoli “qorong’u” bo’lganidek, oy botib atrofni qorong’ulik qoplaganda ham ma’shuqadan darak bo’lmadi. Odatda, tong otishidan avval to’lin oy bulut ostiga kirib bir lahza atrofni qorong’ulik chulg’aydi va asta-sekin tong yorisha boshlaydi. Shoir ikkinchi misrada tabiatdagi ana shu hodisaga ishora qiladi:

Ul parivash hajridinkim yig’ladim devonavor,

Kimsa bormukim, anga ko’rganda kulgu kelmadi.

Navbatdagi baytda e’tirof etilishicha, oshiq yorining uchrashuvga kelmaganligi tufayli ko’zlaridan shashqator yosh to’kadi, uning bu devonavor holatiga kulmagan odamning o’zi qolmadi. Bu o’rinda mubolag’a san’atidan o’rinli foydalanish orqali oshiqning ichki kechinmalari chuqur va yorqin tarzda ochib berilgan:

Ko’zlaringdin necha su kelgay, deb o’lturmang meni

Kim kelgan, bori qon erdi bu kecha su kelmadi.

Beshinchi baytning mazmuni shunday: ma’shuqaning uchrashuvga kelmaganligi tufayli ko’zlarimdan shashqator yosh to’kkanligimni ta’na qilmang. Ko’zlarimdan to’kilgan yoshlar oddiy yoshlar emas, balki qonli yoshlardir. Shu o’rinda ta’kidlash kerakki, inson yig’laganda ko’z ichidagi tomirlar qizarishi va undan oqqan yoshning qizil tovlashi tabiiy. Shuningdek, oshiqning iztiroblar tufayli ezilgan yurak-bag’ridan sizib chiqayotgan qon ko’z yoshlarini qizartirgan. G’azalning birinchi va beshinchi baytlarida oshiqning ruhij kechinmalari, iztiroblari o’z aksini topgan:

Tolibi sodiq topilmas, yo’qsakim, qo’ydi qadam

Yo’lg’akim, avval qadam ma’shuqa o’tru kelmadi.

G’azalning oltinchi va yettinchi baytlarini ham dunyoviy, ham tasavvufiy tarzda talqin qilish mumkin. Oltinchi baytning mazmuniga ko’ra, ishqiga vafodorlar yo’q, agar bo’lganda edi, qarshisidan yor uchrashuvga kelmasmidi. Tasavvuf ta’limotida yagona Ollohning vasliga vosil bo’lishdek maqsad tomon sobitqadamlilik bilan qadam tashlayotgan solik timsoli “tolibi sodiq” istilohi bilan ifodalanadi. Solik maqsadga erishish yo’lida riyozat-u mashaqqatlar chekmog’i lozim. Lekin bu riyozat-u mashaqqatlarni yengib o’tishga hammaning ham irodasi yetmaydi. Shu bois tolibi sodiqlar yo’q, bo’lganda edi, uning qarshisidan yor –Olloh kelmasmidi...

*Ey Navoiy, boda birla xurram et ko'nglung uyin,
Ne uchunkim, boda kelgan uyga qayg'u kelmadi.*

G'azalning so'nggi baytida shoir o'ziga murojaat qilar ekan, may ichib ko'nglingni sarxush qilginki, ma'shuqaning uchrashuvga kelmaganligi asnosida ko'nglingda tug'ilgan iztiroblar sal nariga chekilsa, deydi. Tasavvufda may-Oллоhga bo'lgan muhabbatning ramzi, ko'ngil - jom, Olloh nazar soladigan joy, qayg'u - moddiy olamning orzu-havaslar. Shoir ko'ngil jomini yagona Ollohga bo'lgan muhabbat bilan to'ldirki, shunda bu dunyoning orzu-havaslariga o'rin qolmaydi, deya xitob qiladi.

Umuman. chuqur insoniy kechinmalar, falsafiy xulosalar ifodasi bo'lgan mazkur g'azal shoir she'riyatining eng ajoyib namunalaridan biri sifatida xalqimiz qalbidan alohida o'rin egallagan. Chuqur mazmuni va go'zal badiiyati bilan she'riyat ixlosmandlari ni o'ziga rom etib kelmoqda.

TEAMBUILDING ACTIVITIES IN THE CLASSROOM

*N. Abdullayeva,
NamDU o'qituvchisi.*

Now, imagine this situation. After a lesson on making suggestions eight intermediate students are asked to move the desks to the back and stand in a circle. The teacher places an old towel in the middle, tells a short story and gives the students a challenge; they must all stand on the towel and work together to flip it over. The students, a little apprehensive at first, stand on the towel, looking at each other with confusion until one student finally bends down and tries to move it. Other students start to get the idea and ideas begin to flow. What are they doing? They are having a teambuilding activity called "Life boat".

This kind of teambuilding activities exist to improve self-understanding, build trust and enhance interpersonal communication-usually in the context of a fun and difficult game or task. It is also incredibly valuable in an English language teaching classroom. The main goal of teambuilding is communicating to achieve a common purpose. The principles are completely relevant in a classroom where authentic communication in English is the final goal. Groups must work together to solve problems and then reflect on their communication patterns, leadership, conflict, fears and accomplishments. A task is introduced to the group, the boundaries are defined, the group struggles together – and either completes the task or it doesn't.

The most critical part of any teambuilding activity in the English language teaching classroom involves guiding the students toward their own conclusions by using clear debriefing questions. Many learners find it difficult to process their thoughts in a foreign language in front of their peers. So it is important to provide a wide variety of means by which the students can reflect on the

activities. One example is a personal journal where they describe the activity and then answer debriefing questions about their feelings and experiences. Another way is to allow discussion of debriefing questions in pairs, rather than as a whole class. With large classes, the teacher can put the students into small discussion groups and give them debriefing questions on a handout. Most pair and group formations can be adapted to create an environment of genuine sharing after a teambuilding activity. The key is to use open-ended questions rather than yes/no questions. As the students become more comfortable with this style of learning, they should be encouraged to formulate their own open-ended questions or even facilitate another teambuilding activity.

Before using teambuilding activities the teacher should carefully think about the followings:

1. A spatial constraint (Can the teacher move the desks or is it better to have it outside or in the hallway? What's about disturbing other classes?)

2. Number of students (What is the best way to debrief afterwards? As a class? In small groups? In pairs? Individually through writing?)

1. Level of students (What is appropriate for the level of students? What language function does the teacher need to pre-teach so that they can communicate in the activity?)

1. Instructions (Write out instructions in simple clear steps, even for advanced learners. Students do not need the challenge of understanding the instructions in addition to the activity itself.)

Teambuilding activities are an invaluable tool for fostering a classroom culture of empathetic listening and cooperation in an often cut-throat environment of success and competition. Students who work together and succeed at an activity, while using even simple English, learn something that cannot be taught: it must be experienced. That is, that language exists for communication and true communication strengthens the group.

Literatures.

1. English teaching professional – Macmillan education. Issue 80. May 2012

2. Oxford-English dictionary – UK. Oxford University publishing house. 2002.

К ВОПРОСУ УПОТРЕБЛЕНИЯ АНГЛИЙСКОЙ ФРАЗЕОЛОГИИ В ЮРИДИЧЕСКОМ ЯЗЫКЕ

Шерали ЖАЛОЛОВ,

*старший преподаватель кафедры
английского языка и лексико-
стилистики НамГУ.*

АННОТАЦИЯ: В данной статье предпринимается попытка охарактеризовать фразеологию, как часть лингвистической науки. Автор, приводя конкретные примеры, предлагает классификацию английских фразеологических единиц в юриспруденции.

У английского языка тысячелетняя история. За это время он накопил большое количество выражений, которым человечество нашло успешное, успешное и эстетическое применение. Так и возник особый слой языка – фразеология, совокупность устойчивых выражений, имеющих самостоятельное значение²⁵⁹.

Одной из причин, тормозящих развитие фразеологии как раздела лингвистики, является запутанность терминологии. Недостаточная разработанность основных понятий фразеологии естественно порождает обилие терминов, из которых многие являются синонимами и большинство отличается многозначностью, а некоторые даже не могут называться терминами, насколько они неточны.

Фразеологизмы играют важную роль в общении и придают разные оттенки способу выражения: они могут сделать высказывание (текст) более эмоциональным, придать ему выразительность, определенным образом направить эстетическое восприятие, обеспечить те или иные культурные ассоциации.

Юридические фразеологические единицы можно разделить на несколько групп, в зависимости от общей классификации фразеологизмов.

Исследование Англо-русского фразеологического словаря А.В. Кунина²⁶⁰ показало, что фразеологизмы, в основе которых лежат юридические термины, весьма многочисленны в английском языке. Это объясняется, прежде всего, большой общественной значимостью и актуальностью юриспруденции в Великобритании, благодаря чему юридическая терминология является излюбленным аспектом английской фразеологии.

По своему происхождению юридические фразеологизмы можно разделить на три основные группы:

²⁵⁹ Фразеологизмы современного английского языка. — Интернет-источник: www.Ska.ru/105/24672/1.html.

²⁶⁰ Большой англо-русский фразеологический словарь. Кунин А.В. - М.: Русский язык, 1984.

Юридические фразеологизмы, заимствованные из латинского языка:

1) add insult to injury – наносить новые оскорбления образовано от (этим. лат. Injuriae qui addideris contumeliam).

2) Caesar's wife must (или should) be above suspicion – «жена Цезаря должна быть выше подозрений» (слова Юлия Цезаря, объясняющие, почему он развелся со своей женой Помпеей) породило фразеологизм Caesar's wife – человек, который должен быть вне подозрений (букв. «жена Цезаря»).

Юридические фразеологизмы исконно английского происхождения:

1) Put smb . In the cart – поставить кого-либо в тяжелое положение (словом cart называли повозку, в которой доставляли преступников к месту казни или возили по городу с позором).

2) As well hanged (или hung) for a sheep as a lamb – «если суждено быть повешенным за овцу, то почему бы не украсть заодно и ягненка» (отголосок старого английского закона, по которому кража овцы каралась смертной казнью через повешение).

Юридические фразеологизмы, заимствованные из различных языков:

1) Выражение the unwritten law – неписанный закон принадлежит афинскому законодателю Солону.

2) beg the question (книжн.) – начинать с желательного для себя вывода, а не с доказательства принадлежит Аристотелю.

Исследуя различные правовые источники можно найти огромное количество примеров юридических фразеологизмов и распределить по группам в различных классификациях. Однако необходимо знать не только вид и структуру фразеологизма, но и особенности его употребления. Характерной чертой английских юридических фразеологизмов является то, что они употребляются в зависимости от конкретных ситуаций общения и сферы профессионального применения. Например: common law damages – нарушения общего права, to ensure the impartiality – гарантировать беспристрастность. В судебной сфере терминология и, соответственно, входящие в нее фразеологизмы используются согласно типу судебного дела.

Исследование английских юридических фразеологизмов, позволяют решить целый ряд вопросов, касающихся значимых единиц языка в целом, характера лексического значения слов, различных вопросов словообразования, стилистики юридической речи в английском языке. Всестороннее изучение фразеологической системы в целом и английских юридических фразеологизмов в частности позволяет нам получить представление об их основных структурно-семантических и стилистических типах, узнать их происхождение. Особенности юридических фразеологизмов помогают овладеть литературными

нормами словоупотребления. Важно изучение фразеологизмов с точки зрения их специфических свойств в ряду других значимых единиц языка.

Список использованной литературы:

1. А.В Кунин Английская фразеология. М., 1970.
2. Скорина Л.П. Чуракова Л.П. Латинский язык для юристов. Учебное пособие под ред. Семчинского С.В. М., 2002.
3. Сухов Н.С. Крылатые латинские изречения М., 1990.

G'AZAL TARJIMASIDA TAZOD

Akmalxon Abdullajanov,
NamDU Nemis va fransuz tillari kafedراس dotsenti.

Navoiy o'z g'azallarida lirik qahramon obrazi, lirik qahramonning kechinmalari, ichki his-tuyg'ularini ifodalashda, g'azalning kompozitsion izchilligini, bayt misralarining mantiqiy va uzviy bog'lanishini ta'minlashda, mazmunni chuqurlashtirishda badiiy unsurlardan unumli foydalangan.

Biz ushbu kichik tadqiqotimiz uchun obyekt qilib olgan Navoiyning "kelmadi" radifli g'azalida eng ko'p uchraydigan san'atlardan biri – tazod.

"Navoiy lirikasida tazodning qo'llanish xarakteri she'rdagi mazmun, fikrning mohiyati bilan bevosita bog'liq bo'lib, goh ayrim baytlarda, goh ketma-ket bir necha baytda ko'rinsa, ko'p o'rinlarda boshidan oxiriga qadar tazod asosiga qurilgan g'azallarni ham uchratish mumkin"(4. 150-bet). Jumladan, shoirning "Kecha kelgundir debon ul sarvi gulro' kelmadi" misrasi bilan boshlanuvchi g'azalning birinchi baytida lirik qahramon, ya'ni oshiq va yor o'rtasidagi ziddiyatni chuqurroq va ta'sirliroq chiqarish maqsadida "kelish va'dasi"ga "kelmaslik oqibati" qarama-qarshi qo'yilgan. Ikkinchi baytda esa "jon og'ziga kelishi"ga "gul yuzli yorning kelmasligi", uchinchi baytda "oydin" (yor yuzining oydinligi)ga "qorong'ulik"(oshiq ro'zg'orining qorong'uligi), to'rtinchi baytda "yig'lamoq"qa "kulmoq", beshinchi baytda "suv"ga "qon", oltinchi baytda "sadoqat"ga "sadoqatsizlik", yettinchi baytda "xurramlik"ka "qayg'u" qarama-qarshi qo'yilgan(q. :1. 9-bet). Bizning bu san'atni ko'rib chiqishimizga birinchi sabab shuki, shoir har bir baytni shu san'at asosida yaratgan. Ikkinchidan, mazkur san'at g'azalning ta'sir kuchini oshirishda asosiy o'rin tutadi. Uchinchidan, tazod san'ati nemis she'riyatida ham mavjud bo'lib, u "Antithese"("antiteza") deb ataladi(q. : 5. 318-bet).

Mazkur g'azal lirik qahramonning ahdiga vafosiz yordan shikoyati bilan boshlanadi. Chunki sarviqomat gul yuzli yor kelishga va'da beradi. Ammo kelmaydi:

Kecha kelgundir debon ul sarvi gulro' kelmadi.

Ko'zlarimga kecha tong otquncha uyqu kelmadi (2. 422-bet).

Gestern versprach meine holde Geliebte zu kommen, sie kam aber nicht.

Darum berührte der Schlaf meine Augen die tröstlose Nacht hindurch nicht(3. 9-bet).

Mazmuni: “Mening dilbar sevgilim kecha kelishga va da berdi, biroq kelmadi. Shuning uchun dardli tun bo’yi ko’zimga uyqu kelmadi”.

Asliytdagi tazod san’ati, ya’ni kelish va’dasiga kelmaslik oqibati nemischada ham to’la qayta yaratilgan. Shoir “kelmadf” kalimasini radifga olgan. Biroq nemischada mazkur san’at qurbon berilgan. To’g’ri, misralarning oxirida bir xil “nicht” („yo’q“) so’zi qo’llangan, biroq ulardan oldingi so’zlar qofiyalanmagan. Shu sababli „nicht“ jumlasini radif bo’la olmaydi. „Ramali musammani mahzu“(foilotun foilotun foilotun foilotun) vaznida bitilgan 15 hijoli bu g’azal nemischada 19 hijoli bo’lib, vazn ham o’zgarib ketgan. Natijada, g’azal asliytdagi jarangdorlik, ixchamlik, musiqiylikidan mahrum bo’lgan.

Quyidagi baytda shoir oshiqning yor visoliga intilishidagi azob uqubatlarini bayon etadi. U tuni bilan uxlamay, yorning yo’lini poylaydi.

Lahza-lahza chiqtimu chektim yo’lida intizor,

Keldi jon og’zim’ayu ul sho’xi badxo’ kelmadi (2. 422-bet)

Ko’rib turganimizdek, shoir lirik qahramon jonining og’ziga kelishini yorning kelmasligiga qarama-qarshi qo’ygan. „Jon og’zimga keldi“ iborasi orqali mubolag’a san’ati yaratilgan.

Wartete, angestrengt lauschend ins Dunkel, auf ihren sich nähernden Schritt.

Sehnte zu Tode mich fast nach der schlanken Zypresse. Sie kam aber nicht(3. 9-bet).

Mazmuni: “Yaqinlashayotgan qadam tovushini eshitay deb, qorong’ulikka zo’r berib quloq tutib, kutdim. Kelishgan sarvni o’lar holatda sog’indim. Biroq u kelmadi”.

Nemischada mubolag’a san’ati “sehnte zu Tode mich fast nach”(o’lar holatda sog’indim) iborasi orqali qayta yaratilgan. Lekin misrani bunday o’zgartirish tazod san’atini yo’qqa chiqargan. Ammo “Schritt” va “nicht” kalimalari bir-biri bilan qofiyalangan. Bu esa g’azalning shaklini buzgan.

Navoiy yorning yuzini oyga emas, balki juda o’ziga xoslik bilan oydinga o’xshatadi va bunga qarama-qarshi o’z hayotining zulmatda, qorong’ulikda o’tayotganini aytadi:

Orazidek oydin erkanda gar etti ehtiyot,

Ro’zg’orimdek o’lg’onda qorong’u, kelmadi (2. 422).

Wenn sie bei Tag, der so licht wie ihr Antlitz, zu kommen sich mädchenhaft scheut, wurde die Nacht, meiner Einsamkeit gleich, sie verschleiern. Sie kam aber nicht (3. 9-b).

Mazmuni: “O‘z qiyofasidek yorug’ kunda ham qizlarga o‘xshab kelishga qo‘rqdi. Uni yashirish (parda ostiga olish) uchun mening yolg‘izligimdek tun bo‘ldi. Biroq u kelmadi”.

Tarjimada yor qiyofasi yorug’ kunga, oshiq ro‘zg‘ori, ya‘ni hayoti qorong‘u tunga qiyoslanadi.

Nemis tarjimoni o‘z matniga aniqlik kiritish maqsadida nemischada “mädchenhaft” (“qizlarga o‘xshab”) kalimasini qo‘shgan. “Etti ehtiyot” ma‘nosini esa “scheut” (“qo‘rqdi”) fe‘li bilan almashtirgan.

Demak, mutarjim bu baytni nemischalashtirishda ijodiy yo‘l tutgan, ya‘ni baytning barcha so‘z va iboralarini boshqa so‘z va iboralar bilan qaytadan yaratgan. Tazod san‘atining “oydin” kalimasini “Tag” (“kun”), “qorong‘ulik” so‘zini esa “Nacht” (“tun”) kalimasi bilan almashtirgan. Bu yerda mutarjim o‘ta ustalik bilan o‘zining tarjimonlik mahoratini namoyish etgan. Qisqasi, baytdan bayt, badiiy tasvir vositasidan xuddi o‘sha san‘atning o‘zini, mazmundan esa asliyatga teng mazmun yaratgan. Baytdagi barcha iboralarni ijodiy almashtirib o‘girish orqali baytning mazmunini to‘la saqlab qolgan.

Ba‘zan tarjimon asliyatda tazod san‘atini hosil qilgan kalimalardan birini boshqa so‘z bilan o‘zgartirib tarjima qilgan.

Ul parivash hajridinkim yig‘tadim devonavor,

Kimsa bornuskim, unga ko‘rgunda kulgu kelmadi (2. 422), -

baytida lirik qahramonning parivash hajrida devonalarcha yeg‘laganiga barchaning kulganligi qarama-qarshi qo‘yilgan. Biroq nemischada „yig‘lamoq“ kalimasi o‘rniga, „klagen“ („zorlanmoq“) so‘zi qo‘llangan. Natijada tazod san‘atining ta‘sir kuchi nemischada susaygan.

Leidenschaft hat den Verstand mir geraubt, und ich klage vor Leid und vor Gram.

Manch einer lachte aus, weil so trostlos mein Barmen. Es half aber nicht(3. 9-b).

Mazmuni: „Kuchli azob, jaf o‘g‘irladi va men qayg‘u-alamdan zorlandim. Mening nolam shunchalar dardliligi va besamarligi sababli ba‘zilar ustimdan kuldilar. Biroq u yordam bermadi“

Hamma gap shundaki, „yig‘lamoq“ o‘zbek tilida „nolimoq“, „zorlanmoq“ ma‘nolarini beradi. Ammo nemischada „yeg‘lamoq“ ma‘nosidagi “weinen” so‘zi bunday ma‘noni bermaydi, balki u ko‘zdan yosh oqizib yig‘lashnigina anglatadi(q. : 6. 583). Shu sababli mutarjim bu kalimani almashtirishga majbur bo‘lgan.

Demak, asl nusxadagi “yig‘lamoq” kalimasiga “kulmoq” so‘zini qarama-qarshi qo‘yilganligi baytni qanchalar ta‘sirli qilgan bo‘lsa, nemischada “yig‘lamoq” so‘zini “klagen” (“zorlanmoq”) bilan almashtirish baytning ta‘sirchanligini shunchalik pasaytirgan. Biroq ko‘rib turganimizdek, tazod san‘atining buzilishiga mutarjim, ya‘ni subyekt emas, balki obyekt sabab bo‘lgan. Shuning uchun ham tarjimada badiiy san‘atlarni qayta yaratishning

murakkab ijodiy jarayon ekanini unutmaslik kerak. Navoiyning mazkur g'azalida lirik qahramon ayriliq azobining kuchidan ko'zlaridan suv o'rniga qon to'kadi. Bu bilan muallif g'azal ta'sirchanligini oshirgan:

***Ko'zlarindan necha su kelgay, deb o'lturmang meni,
Kim, bori qon erdi kelgan, bu kecha su kelmadi*** (2. 422).

Asliyatda "suv" kalimasi ikki marta takrorlangan. "Qon"ga zidlantiruvchi "suv" so'zining ikki o'rinda takrorlanishi ta'sirchanlikni oshirgan.

Nemischa tarjimada esa bitta "suv" kalimasi tushib qolgan.

Fragt nicht, warum ich so blutige Traenen vergiesse und schreckt nicht zurueck. Wassrige Traenen benetzen schon nicht mehr die Wangen in meinem Gesicht(3. 9-b).

Mazmuni: „Mening bunchalar qonli yoshlar to'kayotganimni so'ramanglar va vahimaga tushmanglar. Suvli ko'z yoshlari yonoqlarimni ho'llay olmay qoldi”.

Asliyatdagi ayriliq azobining kuchliligidan lirik qahramonning ko'zlaridan qon kelayotganligi, nemischa tarjimada lirik qahramonning suvli ko'z yoshlari yuzidagi yonoqlarini ho'llay olmay qolganligi sababli u qonli ko'z yoshlari to'kkanga aylanib qolgan. „Suv“ kalimasini ikki bor qo'llash orqali yaratilgan takror san'ati qurbon berilgan bo'lsa ham, tazod yuzaga chiqqan. Biroq bu san'atning asliyatdagi ta'siri bir oz kamaygan. Chunki asliyatda „qon“ so'zi birinchi misradagi „suv“ so'zi bilan qarshilanish orqali kuchli ta'sirga ega edi. Bu so'z tarjimada qayta yaratilmagan. Natijada, „qon“ kalimasi birinchi o'ringa o'tib, „suv“ so'zi undan keyin kelayapti.

Demak, tazod hosil qilgan so'zlarning o'zini yoki ularning o'rnini almashtirish, bir so'zga qarama-qarshi qo'yilgan ikkita aynan bir xil so'zlardan birini tarjimada tashlab ketish bu san'atning o'quvchiga ta'sir kuchini kamaytiradi.

Nemis tarjimoni tazod san'atini qayta yaratishda quyidagi usullardan foydalangan:

1. tazodga olingan so'zlarni aynan tarjima qilish;
2. tazodli baytlarni tazodsiz qilib o'g'irish;
3. tazod hosil qilgan har ikki kalimani ham boshqasi bilan almashtirish;
4. tazodga olingan so'zlardan bittasini boshqasi bilan almashtirish.

Demak, ba'zan asliyatda tazod bo'lib kelgan so'zlar aynan tarjima qilinsa, o'zaro zid bo'lmay qolar ekan. Bunday hollarda tarjimon tazodni qayta yaratishning o'zga yo'llarini izlaydi, hatto, tazoddagi so'zlarning birini boshqa so'z bilan o'giradi ham.

Biroq, tazodsiz baytlarni tazodli qilib nemischalashtirish bayt mazmunini, badiiy qimmatini qanchalik oshirsa, tazodli baytlarni tazodsiz qilib o'g'irish qo'shmisra mazmunining kitobxonga ta'sirini shunchalik kamaytiradi.

Adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. *Lirika. II nashri.* /Tuzuvchi-muallif N. Mallayev. – Toshkent: O'qituvchi, 1980.
2. Alisher Navoiy. *Xazoyin ul maoniy. Badye ul-vasat: Mukammal asarlar to'plami. 20 tomlik. 5-tom/ Mas'ul muharrir S. Mutallibov.* –Toshkent: Fan, 1990.
3. Alischer Nawoi// *Neues Leben.* – 1991. Nr. 14. – 3 Apr.
4. O'zbek adabiyoti tarixi: 5 tomlik. – Toshkent: Fan, 1978. – T. II.
5. Riesel E. *Abriss der deutschen Stilistik.* – Moskau: Verlag für fremdsprachige Litaratur, 1954.
6. Bolshoy nemetsko-russkiy slovar: B. 2 t. T. II –M. : Sov. Entsiklopediya, 1973

“GULLIVERNING SAYOHATLARI” ASARIDAGI ATAMALAR TASNIFI

*Yuldasheva Ma'mura,
NamDU Filologiya fakul'teti Ingliz tili va
leksika-stilistika kafedrasida o'qituvchisi.*

XVIII asrning buyuk ingliz yozuvchisi Jonatan Svift (1667-1745) o'zining “Gulliverning sayohatlari” satirik romani bilan dunyoga nom taratdi.

Yozuvchi g'azab va ehtiros bilan yozgan bu kitobida o'zi yashagan davr – burjua dvoryan Angliyasidagi mavjud davlat tuzumi, ijtimoiy tartib va xulq-atvorlar ustidan qattiq kuladi, ularni qoralaydi. Yozuvchi hokim sinflarning tekinox'r va munofiqiligini, davlatmand shaxslarning toshbag'ir, qabih va hudbinligini fosh etadi.

“Gulliver sayohatlari”dagi voqealar shunday ajoyib tizilganki, kitobxon asar qahramonining g'aroyib kechmishlarini uzluksiz diqqat bilan kuzatadi, adibning jo'shqin fantaziyasidan zavqlanadi.

Xo'sh, “Gulliverning sayohatlari” asarining bu qadar ishonarli va qiziqarli asar bo'lishiga nima omil bo'ldi? Bunga albatta Jonatan Svift tomonidan ishlatilgan o'ziga xos bo'lgan til, deb aytisak bejiz bo'lmaydi. Shuning uchun ham bu asar tili to'g'risida turli olimlar tomonidan har xil fikrlar bildirilmoqda va bu haqida izlanishlar davom etmoqda.

Shu bilan birga Svift asarda qahramonning kasbini, ish hunarini, u tashrif buyurgan yangi joylarni tanishtirishda va shu yerlik aholining tili, madaniyati, davlat boshqaruvi, urf-odatlarini hamda erishgan yutuqlarini tasvirlashda ko'plab atamalardan foydalangan. Ular quyidagilardan iborat:

- Navigatsiyaga oid atamalar;
- Harbiylikka oid atamalar;
- Musiqaga oid atamalar;
- Matematikaga oid atamalar;

- Dehqonchilikka oid atamalar;
- Astronomiyaga oid atamalar;
- Geografiyaga oid atamalar;
- Davlat boshqaruviga oid atamalar;
- Tarixga oid atamalar;
- Savdoga oid atamalar.

Quyida bu atamalarning ayrimlari haqida kengroq to'xtalib o'tash mumkin. Ulardan dengizchilikka oid atamalarga asarning boshidan to oxirigacha keng o'rin berilgan. Bunga sabab asarning bosh qahramoni Gulliverning kasbi va u boshidan kechirgan sarguzashtlar dengiz bilan bog'liq bo'lganligidir. Endi quyidagi misolga e'tibor qaratsak:

1. "I therefore told the officer, that having been *shipwrecked* on the coast of Balnibarbi, and cast on a rock, I was received up into Laputa, or the flying Island (of which he had often heard) and was now endeavouring to get to Japan, from whence I might find a convenience of returning to my own country".

2. "It seems, upon my first reaching the *shore*, after our *shipwreck*, I was in such Confusion, that before I came to the Place where I went to sleep..."

Mazkur parchalardagi "*shipwreck*" so'zlari navigatsiyaga oid atamalar hisoblanib, ularga Makmilan ingliz lug'atida quyidagicha izoh beriladi:

1. Dengiz halokati;
2. Kema halokati;
3. Dengiz halokatiga uchragan odam.²⁶¹

Kembrij lug'atida esa quyidagicha izoh mavjud:

1. Dengiz halokati;
2. Dengiz halokatiga uchramoq²⁶².

Bizga ma'lumki, ingliz tilida bitta so'z ham biror predmed va voqea-hodisalarning nomi, ham shu nom bilan bo'g'liq harakat ma'nosida qo'llanishi ko'p uchraydi, lekin bunday holatlar o'zbek tilida kuzatilmaydi. Bundan ko'rinib turibdiki, "*shipwreck*" so'zi ham birinchi parchada "kema halokatiga uchramoq", ikkinchi parchada "kema halokati" ma'nolarida qo'llanilgan. Yozuvchi tomonidan shu ma'nolarni anglatuvchi "*shipwreck*", "*wreck*", "*destroy a ship*", "*damage a vehicle*" kabi sinonimik qatordan "*shipwreck*" tanlanganligi sababli matn yanada oydinlashib, o'quvchiga chuqur ta'sir qila olgan.

Yuqoridagi parchalardan shunisi ma'lumki, yozuvchi qahramonlarning kim ekanligini, o'ziga xos bo'lgan belgi-hususiyatlarini, harakterini va joylarni tasvirlashda hamda ularning individualligini ko'rsatib berishda "*fleet*" ("*uyushgan kemalar*"), "*anchor*" ("*langar*"), "*harbor*" ("*gavn*"), "*seaman*" ("*matros*"), "*depths of the channel*" ("*kanal chuqurligi*"), "*map*" ("*xarita*"),

²⁶¹ Macmillan English Dictionary, Second Edition

²⁶² Cambridge Advanced Learner's Dictionary, Third Edition

"chart" ("suv xaritasi"), "sailor" ("matros"), "pilot" ("dengiz ilmini tushumuvchi shaxs"), "sextant" ("sekstant"), "quadrant" ("o'lchov uskuna") kabi dengizshunoslikka oid atamalardan keng foydalangan va bu bilan tasvirni yanada jonlantirishga hamda ta'sirchanlikka erishgan.

Jonatan Svift asarda hayotiy hodisani aks ettirar ekan, shu hodisaning muhim belgi va xususiyatlarini anglatuvchi harbiy leksikalarni to'plab, ularni bevosita asar mazmuniga ko'ra ishlatadi. Masalan, asardan olingan quyidagi parchaga e'tibor bering:

"But the *colonel* ordered six of the ring-leaders to be seized, which some of his *soldiers* accordingly did, pushing them forwards with the butt-ends of their pikes into my reach. The poor man squalled terribly, and the *colonel* and his *officers* were in much pain, especially when they saw me take out my penknife".

Ko'rinib turibdiki, yozuvchi "colonel" ("palkovnik"), "soldier" ("askar"), "officer" ("ofitser") kabi harbiy leksika yordamida asar qahramoni Gulliverning harbiylar orasiga tushib qolganligini payqash qiyin emas.

Yuqoridagi "officer" ("ofitser"), "weapon" ("qurol-aslaxa"), "soldiers" ("askarlar"), "reckoned" (josus orqali sir bilmoq"), "militia guard" ("harbiy himoya"), "army" ("armiya"), "battalia" ("batalon"), "bow" ("yoy"), "arrow" ("o'q"), "quiver" ("o'qdon") kabi harbiy terminlardan foydalangan holda tasvirlanayotgan mamlakatlarning harbiy sohasi haqida ma'lumot, qanchalik rivojlanganligi va ularning dushman mamlakatlarga munosabatini ko'rsatib berdi.

Demak, Svift asarda turli ilm-fan sohalariga tegishli bo'lgan atamalarga qo'llab, uni yanada ishonarli, ta'sirli va asosli qilib tasvirlagan. Bu bilan kitobxon o'zini go'yo asar qahramoni Gulliver bilan birga sayohat qilayotganday his qiladi. Shu sababli mazkur asar uch asrdan beri o'z qadrini yo'qotgani yo'q.

ZAMONAVIY ADABIYOTDA ZIYOVIDDIN MANSUR SHE'RIYATINING O'RNI

Mahbubaxon Sobirova,

Nam DU dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi.

O'zbek adabiyoti ham jahon adabiyotining bir bo'lagi. U o'zining Alisher Navoiy, Lutfiy, Sakkokiy, Nodira, Mashrab, Bobur, Furqat, Muqimiy, Zavqiy, Nodim Namangoniy, Hamza, Cho'lpon, Usmon Nosir, Hamid Olinjon, G'afur G'ulom, Maqsud Shayxzoda, Rauf Parfi, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov kabi ko'plab ijodkorlari bilan faxrlanadi. Ular tomonidan yaratilgan asarlar orqali o'zbek millati jahonga chiqmoqda.

Mustaqil respublikamizning barcha viloyatlarida ham qalam tebratayotgan shoir va yozuvchilarimiz bor. Namangan viloyati ham bundan mustasno emas.

Mustaqillik sharofati bilan chiqarilayotgan "Suhbatdosh", "Namangan haqiqati", "Xalq irodasi", "Murabbiy", "Kamolot", "Hayrat", "Uychinoma", "Yangiqo'rg'on hayoti" kabi gazetalarda chop etilgan shoir Ziyoviddin Mansur ijod namunalarida va **10ga yaqin she'riy to'plamlarida** olg'a surilgan g'oyalar, bugungi kun nafasi bilan sug'orilgan she'rlar ijodkorning zamonaviy adabiyotda o'ziga xos o'rni borligidan darak beradi.

Ziyoviddin Mansur she'rlarini tahlil qiladigan bo'linsa, asosiy mavzu onani e'zozlash, mustaqillikning qadriga yetish, Vatan uchun fidoyi bo'lishdir. Ona yurt, o'zi tug'ilib o'sgan zamin, uning mehnatkash kishilari, yurt shon-sharafi uchun kurashayotgan qahramonlar ulug'lanadi. Shoir nigohidan hatto, qishloq markazidan oqib o'tayotgan zilol suvlar, arig'u kanallar, ajoyib oromgohlar, Namanganning qirmizi olmalari. qir-adirlari-yu sabzavotkor dehqonlari ham chetda qolmaydi.

"Zamon, - deb yozadi olim Ozod Sharafiddinov o'zining "Iste'dod jilolari"²⁶³ kitobida, - adabiyot zimmasiga umumiy vazifalar yuklaydi. Har qaysi shoir va yozuvchi bu vazifalarni o'z iqtidoriga ko'ra belgilab oladi". Olim haq. Shoir Ziyoviddin Mansur ham zamon shoiri. U o'z zamonasi talabini anglaydi, uning kundalik jarayoniga hamohang she'rlar bitadi. Ziyoviddin Mansur nima yozsa, dolzarb mavzuni topa oladi. Mavzuni puxta o'rganib, mohiyatiga yetib yozadi. Uning fikr-mulohazalari faqat ilm chegarasida to'xtab qolmaydi. Hikmatga, ma'rifatga, to'g'ri xulosa chiqarishga yo'l ochadi.

*Kim u dinsiz-diyonatsiz,
Hunarsiz, ilmu odobsiz,
Aningdek kimsalar baxti
Qaro bizning Namanganda,²⁶⁴-deb ta'kidlaydi.*

Vatanga bo'lgan muhabbat, o'zi tug'ilib o'sgan zamindan faxrlanish quyidagi sodd satrlarda ko'zga yaqqol tashlanadi:

*Laylak - oqlik ramzi bo'larmish,
Bu qushlar janub yoqlarga uchmish.
Namanganni ko'rgan oqqushlar
Mangu keta olmas yozu qish.²⁶⁵*

yoki

*Hamisha qo'llari ko'ksin
Quchib turgay tavoze'-la.
Qari-yoshda ajab ta'zim
Bajo bizning Namanganda.*

Shoirning "Namangan va namanganliklar" she'ridagi quyidagi bandda hamyurtlardan faxrlanish tuyg'usi jo'sh uradi, namanganlik insonlarning go'zal fazilatlarini xalqona tilda yoritiladi:

²⁶³ Ozod Sharafiddinov. Iste'dod jilolari. - Toshkent: G'afur G'ulom. 1978. - B. 22.

²⁶⁴ Mansurov Z. Namangan qasidasi - Namangan, 2004. - B. 15

²⁶⁵ Mansurov Z. Namangan qasidasi... - B. 21

*Bunda har bir erkak - bitta tog',
Garchand mo'min-qobildir ko'pi.
Belida bor doimo belbog',
Bashida bor hamisha do'ppi.* ²⁶⁶

"Qur'oni karim"ning "Shuaro" surasida shoirlar haqida shunday o'yatlar bor. "Mo'min kishi ham tig'i, ham tili, ham qalami bilan Oллоh yo'liqda jihod qilur. Yaratgan egamning nomiga qasamki, shoirlar otadigan o'qning tig'i o'tkirroqdir"²⁶⁷ deyilgan. Bundan ko'rinib turibdiki, shoir ijodi ilohiy kuch orqali vahiy qilinadi. Ziyoviddin Mansur o'z fikrlarini teran, nazariy bilim, mantiq kuchi bilan shunday izohlaydi:

*Oriyati har nedan ustun,
Tamoni yiroq yashar oh-vohdan.
Kurashadi o'z baxti uchun,
Qo'rqa faqat qo'rqa Allohdan. (35-b.)*

Oddiy she'r, ammo uning fikrlar majmuasida qandaydir javob topishga, fikr uyg'otishga urinishlar bor. Bu shoirning asosiy mavzulari emas, undagi bosh mavzu bu tarbiya masalasidir. Zero, insonga dunyoviy, hayotiy va diniy tarbiya bermay turib, uni kamolot cho'qqisiga olib chiqib bo'lmaydi.

*To'rt yoning but bo'lar, qolmas kamu ko'st.
Omading bir chopib, baxting kulganda.
Aksincha, umidvor bo'lmagin, ey do'st,
Noloyiq kaslarga kuning qolganda. (44-b.)*

Shoirning "Onaginam, onajonginam" deb nomlangan lirik dostoni nafaqat o'z onasi Inobatxon ayaga bag'ishlanibdi. Shu bilan birga, bu doston barcha insonlarning o'z onalariga bo'lgan ehtirom ramziga aylanibdi.

*Siz-la ketgan tamom es-hushim-
Go'yo boshdan uchdi baxt qushim.
Nahot endi unrbod ishim
Hijron bo'lib qoldi, jon onam?!²⁶⁸*

Onalar math etilgan dostonni o'qib, bu dunyodan o'tgan onamizga sog'inch quyidagi satrlarni o'qiganda ko'zga yosh keltiradi:

*Sizday bo'lib ezgu hunarli,
Unrim o'tar, Ziyo, ganj-zarli,
Lekin mehri osmon qadarli
Bepoyonim, Sizni topmadim...²⁶⁹*

²⁶⁶ Mansurov Z. Namangan qasidasi... – B. 22

²⁶⁷ Qur'oni karim. Shuaro surasi, 227- o'yat.

²⁶⁸ Ziyoviddin Mansur. Onaginam, onajonginam. Lirik doston. – Toshkent: Istiqlol, 2014. – B. 25

²⁶⁹ Ziyoviddin Mansur. Onaginam, onajonginam. Lirik doston... – B. 23.

Shoirning “Onaginam, onajonginam” dostonini o‘qib, farzandlarimiz ham qachonlardir bizni eslashlariga shunday asarlar vosita bo‘lishligini his qilasz. O‘tirgan o‘rnilar yo‘qolgan onalarini sog‘ingan dillar bu dostonni o‘qib, “Mening onam haqida yozilibdi” deydi. Onasi hayotlar bu lirik dostonni o‘qisa, volidai muhtaramalari omonat ekanligini, ular hayotliklaridayoq e‘zozlash zarurligini anglaydi.

*Farzand, deya kuyib o‘tdingiz,
Kuyib-yonib suyib o‘tdingiz.
Evoh, evoh, yomonligim ham
Yaxshilikka yo‘yib, o‘tdingiz.*²⁷⁰

Lirik dostonni mutolaa qilish davomida farzandlik burch va kechinmalarini dildan his etasz:

*Chekkaningiz bo‘ldi g‘am-afg‘on,
Ko‘rganingiz bo‘ldi dard-armon,
Bu olamda yayrabon davron
Surmadingiz, jonim onajon.*²⁷¹

Shoir hayotni sinchkovlik bilan kuzatadi. Hayotiy tajribalari asosida falsafiy xulosalar chiqaradi. O‘zining otashin satrlari bilan o‘quvchini nurli kelajak sari dadil harakat qilishga da‘vat etadi. Har qanday narsaning, hodisaning yaxshi tomonlarini tezda ilg‘ay oladi. Bu esa o‘quvchini yanada ko‘proq o‘ylashga, fikr yuritishga undaydi. Bu kabi hol “Saboq” she‘rida ham o‘z aksini topgan:

*Behudaga a‘zolaring emas juftu toq.
Bu degani: juftlarini ko‘p ishlatsang ham,
Toqlarini imkon qadar ishlatgin kamroq.*²⁷²
Ayo banda, o‘z jismingdan ola bil saboq.

Ha, hayotdan saboq olish, ilmli, ziyoli bo‘lish insonni yetuklikka eltuvchi kuchdir. U bilan hayot bulog‘idan bahramand bo‘lish mumkin. O‘tgan yillar mobaynida baxtni boshqalarni ham baxtli holatda ko‘rish, bilimli, ma‘rifatli, diyonatli bo‘lish, atrofdagilarning koriga yarash, komil inson bo‘lishga intilishda deb biladigan shoir she‘rlari minglab yigit-qizlarni ilm-ma‘rifat chamanlariga yo‘lladi.

Ziyovuddin Mansurov she‘riyati go‘yo bir xazina. Uning yozgan maqolalari, she‘rlaridan ustozga bo‘lgan ehtiromni, hurmatni, sadoqatni o‘rganiladi. She‘rlarida u yurt madhiga, axloq va odobga, tariximizga e‘tibor beradi. U o‘zining ko‘pgina she‘rlarini yurt farovonligi va xalqning ko‘tarinki ruhi, bunyodkorligiga bag‘ishlaydi. Xalq baxti va farovonligi yo‘lida qilingan har qanday samarali mehnat iliq satrlarda quylanadi.

²⁷⁰ Ziyoviddin Mansur. Onaginam, onajonginam. Lirik doston... – B. 26.

²⁷¹ Ziyoviddin Mansur. Onaginam, onajonginam. Lirik doston... – B. 23.

²⁷² Mansurov Z. Namangan qasidasi... – B. 56.

Bugungi yoshlar o'z kasbining mohir ustasi bo'lish bilan birga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni e'zozlash, yuksak axloq, odob, tamiz, sipolik, xushmuomalalik va notiqlik kabi fazilatlarga ega komil inson qanday bo'lishi zarurligini Ziyoviddin Mansur misolida o'rgansalar arziydi.

Shoir Ziyoviddin Mansur hayoti va ijodi yoshlar uchun hikmat va ibrat maktabi bo'lib qoladi. Bu maktabga ergashmoq, undan o'rganmoq yoshlarimizni faqat ilmu ma'rifat tomonga yetaklaydi. Shoir yoshlarga ishonadi:

*Avlodimiz bizdan ham o'tar,
Bergay ajdod bergan darsni ham.
Inshoolloh, bizning farzandlar
Ishg'ol etar hatto Marsni ham.*

Buyuk yozuvchi Mixail Aleksandrovich Sholoxov, "Men o'z qahramonlarim orasida yashadim va yashamoqdaman. Bu hol sirasini aytganda, material to'plashga ehtiyoj sezmadim, ular mening qo'lim ostida edi...."²⁷³ –deb yozganida haq edi. Shoir Ziyoviddin Mansur ham Namangan viloyati Uychi tumani Mashad qishlog'ida yashadi, o'z qahramonlari bilan birga bo'ldi, ularning yurish-turishidan tortib, kundalik hayotigacha kuzatdi. Shu boisdan u qaysi mavzuga murojaat qilmasin aniq va puxta yozdi, kishini ishontira oldi.

Taniqli shoir Ziyoviddin Mansur mustaqilligimizni tarannum etuvchi ko'plab she'rlar bitdi. Istiqloq atalmish hayotbaxsh ne'matni o'ziga xos tarzda talqin etishga urindi:

*Boshqa xalqlar ham ahdga yetar,
Faqat tinchlik, baxtni o'ylashsa,
Barcha yurtlar yuksalib ketar
O'zbekiston bilan bo'ylashsa*²⁷⁴.

"Shoir, - deb yozadi olim Ibrohim Haqqul "Kamol et kasbim" risolasida, - xalq nazaridagi odam. Uning ko'pchilik bilan uchrashuvi ham, el oldida she'r o'qishi ham, har tomonlama sinov. " Darhaqiqat, shoir Ziyoviddin Mansur o'tgan yillar mobaynida juda ko'p marta Toshkentga bordi. Oliy Majlis deputati sifatida faoliyat ko'rsatdi, xalq oldida ma'ruzalar qildi. Ustoz ilmi kishi bo'lgani uchun ma'rifatli odamlarga 60 yil davomida doim talpinib yashadi. O'z oldiga qo'ygan maqsad sari tinimsiz intildi. Bugun Namangan viloyati faxriga, hikmat va ibrat siyomosiga aylandi.

"Avesto"da ezgu o'y, ezgu so'z va ezgu amal haqida aytiladi. Inson komillikka erishmoq uchun, eng avvalo, ezgu o'y-fikrga ega bo'lmog'i kerak. O'z navbatida ezgu fikrli kishining yozgan so'zlari ham samimiy, go'zal bo'ladi, amaliy ishlari ezgulikka xizmat qiladi. Ezgu fikrlay olgan, sodda, xalqona tilda she'rlar bitgan, amaliy ishlari bilan ko'plab ko'ngillarni shodlan-

²⁷³ Zohidov V. Jahon badiiyati zarvoraqlari. – Toshkent: G'afur G'ulom nomli adabiyot va san'at nashriyoti, 1980. – B. 134.

²⁷⁴ Ziyoviddin Mansur. "Shom va tong" dostoni. – Toshkent: O'zbekiston, 2014. – B. 46

tirgan, otashin nutqi bilan tinglovchilarni havaslantirgan shoir Ziyoviddin Mansur she'riyati bugun zamonaviy adabiyotda o'ziga xos o'ringa ega bo'lmoqda.

EGA ERGASH GAPLI QO'SHMA GAPLARDA SINTAKTIK SINONIMIYA

*Husanxo'jayev Obidxon,
Chortoq tumanidagi 18-maktabning ona tili va
adabiyot fani o'qituvchisi.*

Tilshunoslik bo'limlari ichida uslubiy vositalarga, xilma-xil bo'yoqlarni ifodalashga boy bo'lgan soha bu sintaksisdir. Sintaktik uslubiyat nutqning to'g'riligi va ta'sirchanligiga erishish vositasi demakdir. Nutqning to'g'ri bo'lishi — bu uning bosh aloqaviy sifati sanaladi. Nutqning to'g'ri tuzilgan bo'lishi tomonlarning — so'zlovchi va tinglovchining, yozuvchi va o'quvchining bir-birlarini tez va oson tushunishlarini ta'minlaydi. Agar nutq to'g'ri bo'lmasa, u aniq ham, maqsadga muvofiq ham, mantiqiy ham bo'lmaydi.

Sintaktik uslubiyatda sintaktik sinonimiya alohida ahamiyatga ega. Sintaktik sinonimiya uslubiy vosita sifatida og'zaki va yozma nutqda badiiy matnlar yaratish, eng to'g'ri kommunikativ nutqiy birlikni, ya'ni gapni ob'ektiv borliq va nutq jarayoniga moslab, nutqning aniqligi, mantiqiyligi, to'g'riligi kabi mezonlarga amal qilgan holda ishlatishga xizmat qiladi. Shaklan turlicha, mazmunan esa bir-birini takrorlaydigan, ta'siriy-tasviriy bo'yoqdorligi, uslubi bilangina farqlanadigan gaplar sintaktik sinonimiyani yuzaga keltiradi.

Sintaktik uslubiyatda so'z birikmasi va gap sinonimiyasi kuzatiladi. Gap sinonimiyasi sodda gaplar doirasida ham, qo'shma gaplar doirasida ham alohida ahamiyatga ega.

Ergash gapli qo'shma gaplarning alohida turi hisoblanuvchi ega ergash gapli qo'shma gaplarda ega ergash gap bosh gapdagi olmosh bilan ifodalanganegani yoki qo'llanmagan egani izohlaydi. Masalan:

Har kimki vafo qilsa, vafo topqusidir,

Harkimki jaf qilsa, jaf topqusidir... (Bobur).

Ega ergash gaplar turli stilistik talablarga ko'ra turli xildagi birikmalar bilan almashinib qo'llanishi mumkin. Odatda bunday birikmalar bilan almashinish natijasida qo'shma gap birikmali ega, ba'zan birikmali aniqlovchi ishtirok etgan sodda gapga aylanadi.

Ega ergash gapga sinonim birikmalarning ko'rinishlari quyidagilardan iborat:

1. Kesimi shart mayli shaklida kelgan va *kim* so'zi ishtirok etgan ega ergash gap birikmali egaga aylantirilganda sintaktik sinonimiya yuzaga keladi va unda quyidagi holat kuzatiladi:

a) shart fe'li shaklidagi ergash gapning kesimi fe'lining sifatdosh shakli bilan almashinadi;

b) kesim oldidagi to'ldiruvchi yoki hol o'zgarmaydi;

v) har ikkala komponentdagi egalar tushirib qoldiriladi;

g) ega ergash gap birikmaga aylanib bosh

gapning yo egasi, yo aniqlovchisi bo'lib keladi.

Masalan, **Kim ko'p o'qisa, u ko'p narsani biladi** – ko'p o'qigan ko'p narsani biladi (ega ergash gap birikmali ega bo'lib keldi), **ko'p o'qigan kishi ko'p narsani biladi** (ega ergash gap birikmali aniqlovchi bo'lib keldi). *Yoki: Kimki xalqiga sodiq farzand bo'lib, uni himoya qilsa, uning ma'naviyati ham yuksakdir. Sintaktik sinonimi: Xalqiga sodiq farzand bolib, uni himoya qilgan kishining ma'naviyati ham yuksak bo'ladi.*

Kesimi shart fe'li orqali ifodalanib, **nima** so'zi ishtirok etgan ega ergash gap birikmali bo'lakka aylantirilganda, u hech vaqt ega vazifasida qo'llanmay, aniqlovchi vazifasida keladi – ega vazifasidagi **narsa** so'zini aniqlaydi: **qo'liga nima tushsa, o'sha uni qiziqtiradi** – **qo'liga tushgan narsa uni qiziqtiradi.**

Egasi **har kim (ham)** so'zi bilan ifodalangan ega ergash gap birikmali aniqlovchiga aylanadi. Ayrim vaqtda **har kim** so'zi “**har qanday odam**” shaklida ifodalanishi ham mumkin: **Har kimki yomon bo'lsa, jazo topqusidur (Bobur.)** **Sinonimi: Yomon odam, albatta, jazo topadi.**

Nimaiki so'zi ega bo'lib kelib, bosh gapdagi **bari, hammasi** kabi jamlik olmoshlari bilan ifodalangan egani izohlab keluvchi ergash gap birikmali aniqlovchiga aylanadi. Ergash gapda ega bo'lib kelgan **nimaiki** so'zi ko'pincha qaratqich kelishigidagi **narsa** so'zi bilan almashinadi va bular hammasi bosh gapdagi egani aniqlab keladi: **Nimaiki qo'liga tushsa, bari uni qiziqtiradi** – **qo'liga tushgan narsaning hammasi uni qiziqtiradi.**

2. **-ki** yordamida bosh gap bilan birikadigan ergash gaplarni turli xildagi birikmalar bilan ifodalab berilganda, bosh gapda qo'llanmagan yoki olmosh orqali ifodalangan ega vazifasini bajaradi. Shuning uchun bosh gapning kesimi gapning eng oxirida, ergash gap esa oldinda keladi. Bosh gapdagi izohlanishi lozim bo'lgan olmosh – ega tushib qolib, ega ergash gap uning o'rnida ega vazifasida qo'llanadi. Ergash gapdagi ega ko'pincha qaratqich kelishigi qo'shimchasini olib qaratqichli aniqlovchiga, kesim esa otlashib – ot yasovchi – *lik* yoki harakat nomi *-(i)sh* ni qabul qilib qaralmishga aylanadi: Hozirdanoq ko'rinib turibdiki, dangasalik, ayyorlikni bilmaydigan yigitga o'xshaysiz. **Sinonimi: Dangasalik, ayyorlikni bilmaydigan yigit ekanligingiz hozirdanoq ko'rinib turibdi. Hammamizga ma'lumki, shaharlilar paxta terimida yordam beryaptilar** – **Shaharlilar paxta terimida yordam berayotgani hammamizga ma'lum. Shunisi achinarliki, hamma narsaning qadrini uni yo'qotgandan keyin bilamiz. Sinonimi: Hamma narsaning qadrini uni yo'qotganimizdan keyin bilishimiz achinarli.**

Demak, hozirgi o'zbek adabiy tilida ega ergash gapli qo'shma gaplar sodda gaplar bilan sinonimiya hosil qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G'ulomov A., Asqarova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'qituvchi, 1987.
2. Ziyodova T., Shamsiyeva M. Hozirgi o'zbek adabiy tili uslubiyati. – Toshkent: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2003.
3. Qo'ng'urov R. va boshq. O'zbek nutqi madaniyati va uslubiyati asoslari. – Toshkent: Fan, 1992.

“NORIN” ATAMASINING ETIMOLOGIYASI

Erkinov Doniyorbek,

*NamDU ijtimoiy-iqtisodiy
fakulteti Tarix yo'nalishi 303-guruh
talabasi.*

“Milliy o'zlikni, milliy iftixorni tiklash va rivojlantirish jarayonida tarixiy xotira, xalqning, jonajon o'lkaning ob'ektiv tarixini, davlat hududini tiklash nihoyatda muhim ahamiyatga egadir.”²⁷⁵

Jahonda juda ko'p xalq, elat va millatlar mavjud bo'lib, katta – kichikligidan qat'iy nazar, o'ziga yarasha tarixi bor. Tarix – bu o'tmishdir. O'tmish bo'lganda ham juda murakkab va voqealarga boy insoniyat o'tmishidir.

Yer yuzida millionlab geografik nomlar – toponimlar mavjud. Yer yuzidagi geografik ob'yekt, hodisa va voqeaning o'z nomi bor. Har bir dengiz, har bir daryo, har bir tog'-u cho'qqi, har bir shahar, qishloq, har bir daha, har bir mahalla, ko'cha o'z nomiga ega.

Har bir kishi, avvalo, o'z joyi-shahri, qishlog'i, mahallasi, ko'chasing nomini, ularning qanday hodisa, voqea, tabiiy xususiyat, qanday inson nomi bilan bog'liqligini bilishni istaydi. Shu o'rinda turli xil baxslarga sabab bo'lgan Norin etimologiyasi ham xalqimiz tarixida muhim ahamiyat kasb etadi. Ko'plab manbalarda Norin atamasiga sharhlar berilgan.

Tarixchi Hofiz Tanish Buxoriy “Sarafnomayi Shohiy” asarida bu atamaga quyidagicha ta'rif bergan: “Mo'g'ullarning Do'rman qabilasi bo'lib, to'rt aka-

²⁷⁵ Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -Toshkent: O'zbekiston, 1997. - B.34.

uka degani, ya'ni mog'ul tilida do'rman "to'rt" deganidir. To'rt aka-uka kunlardan bir kun boshqa viloyatlarni ko'rish uchun sol yasab, daryodan o'tib bir viloyatga kelishgan ekan. Ulardan birining ismi Norin bo'lgan. Ular suzib o'tgan daryoga Norin nomini berishgan²⁷⁶.

Shuningdek, yana bir toponimik atama hisoblangan qabila "Sukayut"ning kelib chiqishi haqida ham to'xtalib o'tgan: "Do'rman qabilasidan Norinning kichik ukasining joriyasi bo'lib, undan xomilador bo'lib qolgan ekan. Joriya tug'ish davri yaqinlashganda xo'jayinning xotinidan qo'rqib, hech kimga bildirmay bo'rsiq terisidan tikilgan po'stindan qirqib olib, chaqaloqni unga o'rab, o't-o'lanlar ichiga (taroqsimon o'tlar) tashlab ketadi. Chaqaloqning baxtiga nogahon o'tib ketayotgan otasi uni topib oladi. Qarasa o'z po'stinining lahtagiga o'ralgan ekan. U chaqaloqni olib, onasiga elitib berib, tarbiya qilishni buyuradi. Shundan keyingi dunyoga kelgan barcha bolalar Norin deb, undan keyingilari Sukayut deb atalib. Sukayut qabilasi vujudga keladi", deb yozadi.²⁷⁷

Mashhur qozoq yozuvchisi O'ljas Sulaymonovning asarlarida ham Norin so'zi ko'p marotaba qo'llangan. "Norin" atamasi ba'zi manbalarda "go'zal joy" ma'nosida uchraydi.

Norin daryosi Qirg'iziston hududidagi Tyan-Shan tog'ining eng baland muzligidan boshlangan bo'lib, Norin shahri shu daryo bo'yida joylashgan. Qoradaryo bilan Norin daryosi qo'shilgach Sirdaryo hosil bo'ladi. O'rta asrlarda daryo Xaylam nomi bilan mashhur bo'lgan. Gidronimning kelib chiqishi haqida turli fikrlar bor E. Murzayev Norin mo'g'ulcha so'z bo'lib, Nar (Naran) «Quyosh» so'zi bilan aloqador, deb izohlaydi. Ular daryo suvining rangiga nisbatan shunday deb ataganlar.

Ba'zi tadqiqotchilar qirg'iz tilida ham Norin so'zi bor, «tor, sayoz» degan ma'nolarni anglatishini ta'kidlaydilar. Gidronim shu so'z bilan aloqador deydilar. Ammo uning geografik tuzilishi «tor, sayoz» degan sifatlarga to'g'ri kelmaydi. Daryo ancha keng va katta.

Shuningdek, O'zbekistonning ko'p viloyatlarida Norin suv va joy nomi sifatida uchraydi. Masalan, Noring'ul, Norinkapa, Norin va boshqalar. Shunday ekan, Norin so'zini mo'gil tili asosida izohlash unchalik to'g'ri emas. Norin «nahr» – "daryo" so'zi bilan aloqador bo'lsa kerak. Tyanshanning ichki rayonlarida Norinni "Dayra" (daryo) deb ataydilar.²⁷⁸

Xulosa qilib aytish kerakki bir necha yillar davomida mamlakatimiz hududidan topilgan arxeologik topilmalar va yodgorliklar bir necha ming yillik tariximizning sirli saxifalari, hali ochilmagan qirralari ko'p, bu yodgorliklarimizni o'rganish, tekshirish, hozirgi kunimizga tadbiiq eta oladigan

²⁷⁶ Qarang: Xofiz Tanish Buxoriy. Sharafnomayi Shohiy. – M.: Nauka, 1983. – B.68-69.

²⁷⁷ Abdumajidov R. Hayot labirintlari (odamlar va yillar). – Toshkent: Muharrir, 2012. -B.15.

²⁷⁸ Dusimov X. Egamov. Joy nomlarining qisqacha izohli lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1977. - B.107.

ilmiy xulosalar yaratish, topilgan narsalarni asrash, avaylash, qayta tiklash, dunyoga tanitish hozirda har birimizning burchimizdir.

Joylarga ilmiy asoslarda nom qo'yish bo'yicha aholining faoliyatini kuchaytirish uchun toponimikaga oid amaliy va nazariy qimmatga molik bo'lgan kitoblarni, joylarning nomlanishiga oid bo'lgan maqolalarni, lug'atlarni nashr qilish, shuningdek, anjumanlarni o'tkazish hamda teleko'rsatuvlarni, radio eshittirishlarni muntazam ravishda amalga oshirish lozim.

Xullas, joy nomlarini o'rganish, tarixiy nomlarni yuzaga chiqarish, noo'rin almashtirilgan nomlarni qayta tiklash va joylarni nomlashda xalqimizning qadimiy an'analarini, ma'naviy qadriyatlarini inobatga olish darkor. Bunga bilimimiz, tajribamiz va imkoniyatlarimizni ishga solgan holda ma'naviyatimiz va ma'rifatimizni yana ham yuqori pog'onaga KO'TARADIGAN DARAJADA JAVOB BERISHIMIZ LOZIM.

LOGOGRAFLAR NOTIQLIGI

B. B. Ibrohimov,

*NamDU Milliy g'oya, ma'naviyat va
huquq asoslari kafedrasi o'qituvchisi.*

Logograflar ham aslida sinegorlarga juda o'xshash kishilar bo'lib, to'g'rirog'i, ularni ham sinegorlardan ajralib chiqqan muayyan ixtisosli kishilar, deb aytish mumkin.

Logograflar aslida, iutq matnlarini tuzib yoki yozib beruvchi kishilar edi. Sinegorlar ham yozib, ham himoya qilgan bo'lsalar, logograflar ko'proq yozib berish bilan shug'ullanadilar. Biroq bu ularning shaxsan nutq so'zlashlarini istisno qilmaydi.

Bu kasb egalari o'z ixtisoslari taqozosiga ko'ra, yurisprudentsiya, notiq va nutq matnini yozishda iqtidorli kishilar bo'lganlar. Chunki, ular qonunshunos mutaxassis, ta'sirchan, mangiqiy izchil va ishontiruvchi nutqlarnipg yozuvchisi, o'rni kelganda notiq sifatida o'z himoyalaridagi kishilarni keng omma oldida, demokratik sud oldida oqlab chiqishlari kerak edi. Zabardast notiqqlar nutqiga o'rganib qolgan afinaliklar va sud hay'ati oldida bu ishni bajarish juda mushkul bo'lgan. Shuning uchun ham logografiya bilan eng bilimdon, zehni o'tkir, tadbirkor kishilargina shug'ullanganlar. Shunisi ham borki, logografiya bilan muvaffaqiyatli shug'ullanib kelgan qishilariing ko'pchiligi borabora yo yirik davlat arbobi darajasiga ko'tarilib ketgan yo yaxshigina badiiy ijodkor— yozuvchi bo'lib etishgan. Logograflar ularga ishi tushadigan mijozlarning ehtiyojiga kura turlicha operatsiyalarni bajarganlar: himoyalanuvchi nutqini bor faktlar bilan isbotlab, qonun doirasida yozib berganlar, ham o'zlari faktlarni to'plab yozganlar yo ham yozib, ham o'zlari notiqsinegor sifatida himoya

qilganlar. Biroq, logograflarning asosiy missiyasi nutq matnlarini yozib berishdan iborat bo'lgan.

Logografik nutq matnlari bir talay o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lganki, ularga amal qilish nechog'lik sermashaqqat bo'lmasin, professional logograflarning burchi hisoblangan. Ana shunday xususiyatlardan ayrimlari quyidagilardan iborat:

1. Logograf, avvalo huzuriga kelgan kishining ishi xarakteri bilan tanishar, keyin ana shu ishga qarab mijozning sotsial mavqei, iqtisodiy sharoiti va psixologik xususiyatlarini o'rganardi. Buning uchun logograf o'z mijozi bilan uzok suhbatlashar, uning uyiga borar, oilaviy sharoitini yaqindan o'rganar va buning uchun zarur bo'lsa bir necha kunlab, haftalab, hatto oylab vaqat sarflardi.

2. Faktlarni to'plab, barcha sharoitni o'rganib bo'lgandan so'ng logograf ishni; ya'ni sud oldida so'zlanadigan uzundanuzoq nutq matnini yozishga kirishardi. Bu nutq ishning mohiyatini to'la yoritishi, yurisprudentsiya qoidalariga va qonunlariga mos kelishi bilan bir qatorda yana bir muhim xususiyatga ega bo'lishi shart ediki, bu xususiyat logograflar mutaxassisligining professional mag'zini tashkil etardi. Gap shundaki, yozilgan nutq o'sha da'vogar kishining psixologiyasiga mutlaqo mos tushishi zarur edi. Chunki, bilimli, dono, ko'pni ko'rgan bir kishi juda sodda tilda, aksincha, ma'lumoti uncha baland bo'lmagan sodda kishi ilmiy terminologiyada gapirishi mumkin emasdi. Bu jihatdan, hatto shu qadar iste'dodli logograflar bo'lganlarki, ular hatto gapiruvchi kishining talaffuziga xos jihatdan yoki shevachilikni ham hisobga olganlar. Boshqacha qilib aytganda, logograf nutq matnini yozgandayoq o'z mijozining nutqiy, sotsiologik va psixologik xarakteristikasini mukammal berishi zarur edi. Bu ma'noda logograflik kasbi dramaturglikka juda o'xshab ketadi.

3. Logograflar ishni yutib chiqish maqsadida o'z mijozlarini juda g'arib, benavo, so'zga uquvi yo'q, mushtipar bir kishi qilib ko'rsatishga harakat qilardilar. Jumladan, mashhur notiq va logograf Lisiy bir mijozining nutqini bunday boshlaydi: «Men o'zimga aloqador bo'lgan narsalar haqida. gapirishga ojizgina emas, balki, aksincha, gapirishim zarur bo'lgan ish haqida ham gapirishga ojizlik qilamanmi, deb qo'rqaman». Uning boshqa bir mijozi uchun yozib bergan nutqi bunday boshlanadi: «Men, agarchi bunday ishlarda tajribam bo'lmasa ham otamga va o'zo'zimga yordam berish maqsadida qo'limdan kelguncha urniga kuyishga majburman. Raqiblarimning fitnasi va makrini o'zingiz ko'rib turibsiz, bu haqda bir narsa deyishimga o'rin yo'q, mening tajribasizligim esa, meni tanigan kishilarning hammasiga ayon». Ko'rinib turganidek, ikkala personaj (da'vogar) ham o'zini g'aribdan olib, g'aribga soladi, ojizdan olib, ojizga uradi. Holbuki, bu logografning ukuvligi, uing psixologik usuli xolos. Chunki, avvalida o'zini ana shunday beozor, ojiz, qo'yning og'zidan cho'p olmagani qilib ko'rsatgan kishi xuddi ana shu soddalik

bilan o'z raqibini shunday qiyin vaziyatga solib qo'yadiki, bunday psixologik manyovr faqatgina Lisiyga o'xshagan yuksak mahoratli logografnotiqlar qo'lidangna kelardi. Zotan, bunday usullar, psixologik manyovr va strategiklik iste'dodli logograflarint arsenalida behisob bo'lgan..

4. Logograflar yozib bergan nutq mutlaqo yozganga o'xshamasligi, xuddi hozirgina minbarga chiqqandan keyingina quyilib kelayotgan dardualamdek tuyulishi kerak edi. Aslida esa, sudlanuvchi yo da'vogar oldindan puxta tayyorlanib, ipidanignasigacha o'ylab chiqilgan nutq matnini yodlab, logograf. pedagog huzurida repitptsiya qilib olgan bo'ladi. Bu jihatdan logograf qo'proq ham dramaturg, ham rejissyorga o'xshasa, da'vogarning nutq so'zlashi tayyorlanishi va so'zlashi haqidagi aktyor faoliyatiga o'xshardi. Biroq yukning eng og'iri baribir logograf zimmasiga tushardi, chunki u avvalo nutq matnini shubhasiz badihaviy va maishiy-dramatik janrda yozishi, kolaversa, bu matnning to'la dramatik talqinini mijozi bo'lmish so'zlovchiga o'rgatishi zarur edi. Shuning uchun ham tarixchilar logograflik ixtisodi haqida gapirganda dastlab bu kasb namoyondalarining ishonarli va personajbop qilib yozish qobiliyatlarini ta'kidlaydilar. Jumladan,. logograflikda butun bir maktab yaratgan Gorginning shogirdi bo'lmish Alkidamant bunday deydi: «Sud nutqlarini tuzib beruvchilar tayyorgarliksiz gapirgan kishi uslubiga taqlid qilishga urinadilar, chunki, nutq avvaldan yozilganga nechog'lik kam o'xshasa shunchalik yaxshi yozilgan hisoblanardi». Ana shu ekspromtga o'xshatish va so'zlovchilarga sotsiologik vaziyatiga o'xshatish uslubiga etopeya, ya'ni xarakter yaratish, deb aytiladi.

Xulosa qilib aytganda logograflik ham notiqlik san'atining ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, unda hanuzgacha ibrat bo'larli va asrlar osha o'z qimmatini yo'qotmagan xususiyatlar juda ko'p.

JOMI –TAJASSUMI INSONI KOMIL DAR NAZARI NAVOI

(ba peshvozi 574 solagii Alisher Navoi)

A. Nuriddinov,

*Nam DU Demokratik jamiyat qurish nazariyasi
va amaliyoti, falsafa kafedراسi katta o'qituvchisi.*

Muammoi insoni komil az davrai naxustini intishori Islom diqqatu e'tibori muhaqqiqonro ba xud jalb karda meoyad. Zotan, ta'limoti tasavvuf chun majmo'ai donishho oidi tashakkuli insoni komil dar ibtidoi paydoishi dini islom ba vujud omada bud. Ba qavli yake az pironi buzurgi tasavvuf Muhiddin ibn-al-Arabi «parvardigori olam insoni komilro az nuri ilohii ahli avval ofaridaast va timsoli insoni komil dar ro'i zamin payg'ambari buzurgi islom Muhammad alayhissalom meboshand». (Nigared: N. Komilov Tasavvuf. Toshkent, «Yozuvchi», 1996, sah. 145).

Dar vujudi Hazrati payg'ambaramon tamomi sifatu fazilathoi kamoloti aqli, ro'hi, donishhoi ilohivu dunyovi mujassam gardidaast.

Yake az pironi buzurgi tariqat Aziziddin Nasafi ba istilohi insoni komil ezoh doda chunin navishta bud: «Bidon, ki ey tolibi sodiq, insoni komil gufta onhoero mego'yand, ki dar shariat, tariqat va haqiqat volomaqom gashtaand va agar in ta'rifro nafahmida boshi bo iborai digar mego'yam: Insoni komil hamon kasest, ki dar o' chor fazilati zerin ba kamol rasida boshad: guftori nek, raftori nek, axloqi nek va maorif» (xudshinosi A. N.) (hamon kitob, sah. 147).

Hazrat Alisher Navoi, ki xud yake az buzurgoni tariqati naqshbandiya, davomdihandai an'ana'hoi neki ahli tasavvuf bud, fikrhoi boloi pironi tariqatro taqviyat doda dar risolai xud «Hayrat-ul abror» chunin navishta bud:

***Ulki Odamdin burun ul bor edi,
Ham noibi, ham sohibi asror edi***²⁷⁹.

Dar bayti boloi ishora ba shaxsiyati buzurgi payg'ambar alayhissalomro pay burdan dushvor nest. Ya'ne, dar nazari A. Navoi dar insoni komil pesh az hama simoi payg'ambari buzurgi Islom - Muhammad alayhissalom tajassum yoftaast.

Ma'lum ast, ki tariqati Naqshbandiya purra mutobiqi sunnathoi payg'ambaramon Muhammad Mustafo (s. a. v.) buda, uzlatu tarki dunyokuni va durshavi az asoshoi aqidavii islomro inkor mekunad. Ya'ne shiori asosii in tariqat «Dast ba koru dil ba yor» buda payravoni xudro ba mehnat kardanu ibodatro ado namudan hidoyat menamoyad. A. Navoi dar rohi rasidan ba didori haq tariqathoi tarkidunyosozi, xudro ba azobu shikanja andoxtani ba'ze namoyandagoni tasavvufro bo ehtirom ba zabon megiradu lek xudro payravi suluki (raviyai) naqshbandiya mehisobad. Az mutoliai asarhoi irfonii A. Navoi haminro pay burdan mumkin ast, ki dar tashakkuli in buzurgvor se piri tasavvuf-Bahouddin Naqshband, Xoja Ahror Vali va Abdurahmoni Jomi naqshi kalon bozidaand. Dar tamomi asarhoi xud Alisher Navoi in se buzurgvori tariqat, avliyogoni tasavvuf, pironi najibsuratro chun sitoragoni duraxshoni rohnamoii xud madhu sitoish kardaast zero, in se buzurgvor bo zindagii parhezgoronai xud dar zindagi ham rozigii Haq subhona va taolo va ham rizoiyati mardumro sohib shuda budandu namunai insoni komil gashta budand. Dar in jo mo beshtar ba yake az shaxsiyathoi dar nazari A. Navoi ba darajai kamoloti insoni sazovorgashta Mavlono Abdurahmoni Jomi fikrhoi xeshro bayon kardaniem.

Shaxsiyati Mavlono Nuriddin Abdurahmoni Jomi baroi Alisher Navoi dar jodai tariqat maqomi piri rohbalad, dar sohai adabiyot-ustod va dar hayoti dunyovi do'sti beg'arazu buzurgro mujassam soxta bud.

Hazrat Navoi dar har yaki dostonhoi «Xamsa», risolahoii irfonivu falsafii «Nasoyim-ul-muhabbat», «Majolis-un-nafois», qasidahoi «To'hfat-ul-afkor» va

²⁷⁹ Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami.

«Arba'in» hamchunin dar g'azaliyoti turkivu forsi-tojikii xud ba ta'rifu tavsifi ustodash bobhoi alohida, porchahoi kalonro baxshidaast, ki in nishonai ehtiromi buzurgi o' nisbati ustodi benazirash ba shumor meravad.

Dar davomi fa'oliyati ejodiashon in du buzurgvor hamesha hamdamu hamnafas va hamkori nazdik budand. Mavlono Jomi natanho ba shogirdi xud maslihatgar bud, balki dar mavridhoi zaruri fikru darxosthoi Alisheri Navoiro ba e'tibor megiriftu dar nazar medosht.

Abdurahmoni Jomi bo xohishu maslihati shogirdi xud 27 risolaro insho namudaast, ki in isboti fikrhoi boloist.

Alisher Navoi dar dostoni xud «Hayrat-ul-abror» ustodi xudro chun qutbi tariqat, kashshofi asrori haqiqat, salafi pironi tasavvuf ta'rif namuda chunin navishta bud:

*Ulki bu kun qutbi tariqatdur ul,
Koshifi asrori haqiqatdur ul.
Ko'ksi haqoyiq duri ganjinasi,
Ko'ngli maoniy yuzi oyinasi.
Madrasai quds aning maskani,
Xonaqohi uns aning ma'mani*

Dar in jo maqsad az iborai «Madrasai quds» nishondihandai on, ki Mavlono Jomi az safi muqarraboni Haq joy giriftaast. Va az xonaqohi unshihora bar on ki Hazrati Jomi dar rohi rasidai ba Haq az tomomi xohishhoi dunyo forig' gashtaast.

Dar ta'limoti tasavvuf uzlat az dunyo, dast kashidan az lazzathovu hirsii dunyo, az xohishhoi nafsoni va ba in vasila az talaboti jismonii forig' shudan ba maqomi taqvovu parhezgori, ya'ne zohidi vobasta ast, ya'ne so'fi, ahli tariqat xudro az zanjirhoi ba dunyo vobasta barmekanad va ba so'i olami ilohi parvoz mekunad.. dar in xusus yake az pironi tasavvuf Junaydi Bag'dodi (soli favtast 910) chunin gufta bud:

*Taalluq hijob astu behosili,
Chu payvandho bigsili, vosili. 3.*

Ya'ne shoir guftanist, ki in dunyo parda astu chizi besamar, aga payvandho (zanjirho) barkani ba vasli Haq merasi. Hamin tavr dar nazar Alisheri Navoi ustodash az zumrai on pironi tariqat meboshad, ki dar olam voqei zindagi doshtu jismi xudro az tamomi xohishhoi dunyovi barkanda bud.

Dar bobi xotimavii «Hayrat-ul-abror» Navoi xudro murid va Jomiro pir murshidi xesh hisobida orzumandi az dasti sarxayli rindon-Mavlono Jomi no'sl kardani bodai muhabbat budani xudro dar bayti zerin chunin ifoda namudaast:

*Navoiykim, muridu bandasidur,
Irodat yo'lida afgandasidur
Kelturgil soqiy, ul jomi kiromiy,
Ki, tutsun rindlar sarxayli Jomiy. 3.*

Mavlono Jomi ham baroi hamzamononi xud va ham baroi Alisheri Navoi va ahli adab timsoli zindai insoni komil bud. O' dar zamoni zindagii xud jisman dar bayni xalq budu ro'han bo Haq bud. Dar davomi hayoti zud Mavlono Jomi yagon marotiba ba ostonai darbori podshohon qadam naguzoshta bud. Navobasta ba in mardum va ham ahli darbor hamesha ba ziyorati o' meraftand.

Shohonu hukmdoron va ham mardumi oddi o'ro tavof mekardandu xoki poi ostonai o'ro ba chashm memolidand. Dar in bora Hazrat Navoi chunin gufta bud.

*Fayzi gadovu shoh aro muntashir,
Xizmatiga shohu gado muftaxir.*

Mavlono Jomi natanho shoiru mutafakkir, piru buzurgi tasavvuf, balki faylasufi xiradmand, ustodi mohiru riyozidon, donandai xubi zaboni arabi va ilmi tafsir bud.

Dar qasidai «To'hfat-ul-afkon», ki bo zaboni forsi-tojxiki insho shudaast, hazrat Navoi homii mo'taqidji shariati payg'ambar alayhissalom, mo'mini komili dar dasti xud jomi shariati pur az sharobi kavсар, bo ilmu donishi behaddu bepoyoni xud vorisi barhaqi Rasululloh budani ustodi xudro dar bayti zerin chunin ifoda kardaast:

*Hamin shar'i Nabi Jomi, ki jomi shar'ro,
Doshia bar kaf labolab az sharobi kavсар ast.
On, ki az ilmi fuzun az had, Nabiro voris ast,
Balki az qavli Nabi payg'ambaronro hambar ast. 6.*

Dar marsiya baxshida ba vafoti ustodash navishtai xud Hazrati Navoi Mavlono Jomiro- «piri pokoni jahon» nomida, o'ro ofaridrgor ba olam pok ovarda dar holati pok ba dargohi xud girift mego'yad:

*Sari pokoni jahon budi, az on ezidi pok.
Pok ovarda digar burd hamon pok turo.*

Ba tavri xulosa guftan mumkin ast, ki shaxsiyati Jomi dar nazari shogirdi sadoqatmandash-Alisheri Navoi timsoli barjastai insoni komil, sitorai duraxshoni rohnamoji ahli ilmi adab, piri xiradmand va mutafakkiri buzurgi tasavvuf ba hisob meravad.

Adabiyoti istifoda shuda:

1. Jomiy va o'zbek adabiyoti. -Toshkent, 2005. 99-bet.
2. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. Yigirma jildlik. 7-jild. -T. : 1991. -53-bet.
3. Alisher Navoiy. Asarlar. O'n besh jildlik. 5-jild (Ikkinchi kitob). -T. 1965. -160 bet.
4. Abdurahimov Jomiy va Alisher Navoiy. -T. : Fan, 1966. -6-bet.
5. Naima N. Tatarov. -T. : Yozuvchi, 1996. -54-bet.

MUNDARIJA

MILLIY G' OYA, MA' NAVIYAT VA MAFKURA	
Samarali xalqaro hamkorlik. Bahridin Talapov. NamDU Milliy g'oya, ma'naviyat va huquq asoslari kafedrası mudiri, t. f. n.	3
Milliy mafkurada tarixiy xotiraning o'rni. Obidxon Mamatov. Milliy g'oya, ma'naviyat va huquq asoslari kafedrası dotsenti, f.f.n.	6
Yoshlarni mafkuraviy tarbiyalash. Topildiyev Odiljon, NamDU Ijtimoiy-madaniy faoliyat kafedrası mudiri, tarix fanlari nomzodi	9
Komil inson tarbiyasida xalq og'zaki ijodining o'rni. Hamidova Muhayyoxon Obidovna, NamDU dotsenti, filologiya fanlari nomzodi. Ikramov Azizbek BT va STI yo'nalishi, 401-guruh talabasi	11
Erkinlik - taraqqiyot poydevori. N. Xabibullayeva Pedagogika va jismoniy ma'daniyat fakulteti BT va STI yo'nalishi 406 guruh talabasi B. Tillaev. Ilmiy rahbar: Milliy g'oya, ma'naviyat va huquq asoslari kafedrası o'qituvchisi	14
«Madaniy meros» tushunchasining mazmuni. B. B. Ibrohimov. NamDU Milliy g'oya, ma'naviyat va huquq asoslari kafedrası o'qituvchisi	16
Yoshlar ma'naviyatiga "ommaviy madaniyat"ning ta'siri. Odiljon Topildiyev, Namangan Davlat universiteti Ijtimoiy madaniy faoliyat kafedrası mudiri, t. f. n. Ahror Nishonov, "Ijtimoiy madaniy faoliyat" yo'nalishi 3-bosqich talabasi	18
Boshlang'ich sinf o'qish darsliklarida milliy istiqlol g'oyasini singdirish haqidagi asarlarni berilishi. B. Qo'chqorov NamDU BTM kafedrası o'qituvchisi	21
Sharq qahramonlarining bolalar tarbiyasidagi o'rni. Abdullayeva N. M. NamDU BTM kafedrası o'qituvchisi	27
Oilada bolalarni ma'naviy va estetik ruhda tarbiyalashda ota - onaning o'rni. Nuriddin Qirg'izov, NamDU Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrası o'qituvchisi	30

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash. Bahromjon Abdurahmonov NamDU	33
Til ta'limi – milliy g'oya targ'ibotida asosiy vosita. Zayniddinova Zulayho O'zbek tili yo'nalishi 2-bosqich magistranti	38
Jaholatga qarshi ma'rifat. Abdullayev Akmal NamDU Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq talimi kafedrasida katta o'qituvchisi, Karimberdiyev Muhiddin NamDU Ijtimoiy-iqtisodiy fakulteti Tarix yo'nalishi talabasi	41
Ta'lim- tarbiya milliy o'zlikni anglash vositasi. G'aybullayeva Nafisa, Nam DU Pedagogika va Jismoniy madaniyat fakulteti BT va STI yo'nalishi 4-bosqich 406-guruh talabasi. B. Tillayev Ilmiy rahbar: Milliy g'oya, ma'naviyat va huquq asoslari kafedrasida o'qituvchisi.	44
Yoshlarni mafkuraviy ruhda tarbiyalash. Topildiyev Odiljon Rahimjonovich, Nam DU Ijtimoiy madaniy faoliyat kafedrasida mudiri, t.f.n., Dedaxanov Ulug'bek Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi 3-bosqich talabasi	46
Yoshlar ogoh-Vatan obod! Aqilova Iqbola, Pedagogika va jismoniy madaniyat fakulteti BT va STI yo'nalishi 406-guruh talabasi	48
Axloqiy madaniyat. Yuldasheva Mastona. Ingliz tili va adabiyoti kafedrasida o'qituvchisi	50
Kamtarlik. S. Norqo'ziyev. Falsafa fanlari nomzodi, dotsent	52
Mehmonga taklif qilish odobi. A. Abdumannonov, Andijon qishloq xo'jalik instituti dotsenti	54
So'zlashish odobi. S. Norqo'ziyev. Falsafa fanlari nomzodi, dotsent	55
Oliyjanoblik odobi. A. Abdumannonov, Andijon qishloq xo'jalik instituti dotsenti	58
Globalashuv jarayonida "Ommaviy madaniyat"ning yoshlarga ta'siri. B. Tillayev. Milliy g'oya, ma'naviyat va huquq asoslari kafedrasida o'qituvchisi	60

SIYOSAT VA HUQUQ

Savdo iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishida birjalar faoliyatining ahamiyati. Akayeva Marapat Abduxaliqovna Nam DU Milliy g'oya, ma'naviyat va huquq asoslari kafedrasida katta o'qituvchisi yu. f. n.	63
Muhofaza etiladigan nomoddiy-madaniy manbalar. O. Chuboyeva, huquqshunos	66
Ko'ppartiyaviylik va siyosiy madaniyat. Tillayev Bobomurod, Nam DU Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" kafedrasida o'qituvchisi	69
Xalqaro lizing munosabatlarini, amalga oshirishda «Xalqaro moliyaviy lizing to'g'risida»gi Konvensiyaning tutgan o'rni Yuldasheva To'tixon Yakubovna Andijon Qishloq xo'jaligi instituti Gumanitar fanlar kafedrasida assistenti	72
Huquqiy madaniyat – barqarorlik va hamjihatlik omili I. Dalaboyev, Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi 2-bosqich talabasi. Ilmiy rahbar: B. Sarimsoqov Milliy g'oya, ma'naviyat va huquq asoslari kafedrasida o'qituvchisi.	75
O'zbekiston fuqarolik jamiyati sari. Mirtoyeva Nazokat Nam Du pedagogika va jismoniy madaniyat fakulteti BT va STI yo'nalishi 4 -bosqich 406- guruh talabasi B. Tillayev Ilmiy rahbar: Milliy g'oya, ma'naviyat va huquq asoslari kafedrasida o'qituvchisi	78
Fond birjasi va qimmatbaho qog'ozlar. Akayeva Marapat Abduxaliqovna. NamDU Milliy g'oya, ma'naviyat va huquq asoslari kafedrasida katta o'qituvchisi yu. f. n.	80
Oila qonunchiligining ma'naviy asosi. O. Chuboyeva Milliy g'oya, ma'naviyat va huquq asoslari kafedrasida o'qituvchisi, A. Akbarov Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi 1-bosqich talabasi	83
Основные причины семейных конфликтов. Гаипова Г. студентка 3 курса МНО Нам ГУ	85
Xalqaro miqyosda amalga oshirilayotgan lizing operatsiyalarining umumiy tavsifi. Yuldasheva To'tixon	87

Yakubovna, Andijon Qishloq xo'jaligi instituti Gumanitar fanlar kafedrasida assistenti	
Fuqarolik sud ishlarini yuritishda prokuror ishtirokining takomillashtirilishi. A. X. Jumaboyev NamDU milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedrasida o'qituvchisi	89
O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotida yoshlarning o'rni. Topildiyev Odiljon Nam DU Ijtimoiy madaniy faoliyat kafedrasida mudiri, t. f. n. Zaidov Abbos Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi 3-bosqich talabasi	94
O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining xorijiy mamlakatda mehnat qilish huquqi va uni amalga oshirilishi. A. X. Jumaboyev NamDU milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedrasida o'qituvchisi	99
ISLOHOT VA IJTIMOY HAYOT	
Jamiyat taraqqiyoti va oila. B. B. Ibrohimov Nam DU Milliy g'oya, ma'naviyat va huquq asoslari kafedrasida o'qituvchisi	105
Mintaqaga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning iqtisodiy asoslari. S. Qoriyeva Namangan Yengil sanoat kolleji o'qituvchisi	107
Sharq yakka kurashlari jismoniy, ruhiy, estetik va ma'naviy tarbiya mezonlari. N. Qambarov, NamDU Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasida o'qituvchisi. N. Qambarova, Namangan shahar xalq ta'limi muassasalari faoliyatini metodik ta'minlashva tashkil etish bo'limi psixologi.	109
Namangan viloyati sanoatini innovatsion rivojlantirishda xorijiy investitsiyalar. I. E. Kenjayev, Iqtisodiyot kafedrasida o'qituvchisi. M. Burxonova, Namangan yengil sanoat kasb hunar kolleji o'qituvchisi	112
Yoshlarga e'tibor – kelajakka g'amxo'rlik. Sarimsoqov Begzod, Milliy g'oya, ma'naviyat va huquq asoslari kafedrasida o'qituvchisi, ilmiy rahbar. I. Dalaboyev, Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi talabasi	115
Elektron tijorat, rieltor, makler, savdogar leksemalari xususida. Bobojonova Zilola NamDU 2-bosqich magistranti	117

Arxiv-hujjatlar uchun mustahkam qo'rg'on! B. Abbosov, Nam DU Arxivshunoslik kafedrası o'qituvchisi M. Mirzaabdullayeva, Nam DU Ijtimoiy-iqtisodiy fakulteti. Arxivshunoslik yo'nalishi 2-bosqich talabasi	119
Oilaviy tarbiyada o'zbek xalqi ma'naviy qadriyatları. O. A. Tillayeva, Chust tuman HTB. 17-maktab o'qituvchisi	123
Nikoh yoshi xususida. O. Chuboyeva, huquqshunos. J. To'xtaboev NamDU talabasi	125
Xotin-qizlar masalasiga davriy yondashuv. Nigora Ismoilova, Nam DU o'qituvchisi	128
Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning asosiy shakllari. I. Kenjayev, Namangan davlat universiteti Iqtisodiyot kafedrası o'qituvchisi. F. Majidov, Iqtisodiyot yo'nalishi 3-bosqich talabasi	132
Farzand tarbiyasida oilaning o'rnı va roli. Yuldasheva Mastona, Ingliz tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi	134
Globalashuv va oila. Xurshid Mirzaahmedov, Nam DU Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedrası o'qituvchisi. Sherg'oziyev Sirojiddin, NamDU Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi 4 - bosqich talabasi	136
"Kamolot" - yoshlarning chinakam tayanchi. Zilola Mamadaliyeva, Namangan yuridik kolleji o'qituvchisi	139
Komil insonni tarbiyalashda oilaning tutgan o'rnı. Haydarov Zahridinbobir, Nam DU Ijtimoiy madaniy faoliyat kafedrası katta o'qituvchisi, t.f.n. , Sobirov Abror Robitjon o'g'li, Ijtimoiy madaniy faoliyat ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi	142
Ijtimoiy ishning kasbiy talqini. Tolibov Bekzod Hakimjonovich, Farg'ona Davlat universiteti Ijtimoiy faoliyat nazariyasi va uslubiyoti kafedrası o'qituvchisi	145
TARIX VA ETNOGRAFIYA	
Pop tumani qishloqlari toponimikasi. Zohid Madrahimov, Tarix fanlari kafedrası katta o'qituvchisi, t. f. n.	147
O'zbek etnonimi. Abdulboqiyev F. Nam DU Tarix yo'nalishi 3-bosqich talabasi	152

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda temiryo'l transporti va uning o'lka ijtimoiy ahvoriga ko'rsatgan ta'siri. B. Jalolov, NamDU tadqiqotchisi	155
Zahiriddin Muhammad Boburning «Boburnoma» asarida toponimik ma'lumotlar. Abdulboqiyev F, Nam DU Tarix yo'nalishi 3-bosqich talabasi	159
XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston kashtaçiligi. Mavlonov Adhamjon, Nam DU O'zbekiston tarixi yo'nalishi 2-bosqich magistranti	164
XIX asr birinchi yarmida Farg'ona vodiysi shaharlarining ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli. Nurmatov Akram, Tarix fanlari kafedrası magistranti	166
Turkiston milliy ozodligi uchun kurashganlarning mo'tabar nomlari oqlanishi. Boymirzayev. X. K. Nam DU Tarix kafedrası o'qıtuvchisi	169
O'zbek milliy kiyimlarining marosimiy xususiyatlari (Motam kiyimlari misolida). B. R. Xalmuratov, NamDU Tarix fanlari kafedrası katta o'qıtuvchisi, M. Odilova, Tarix yo'nalishi 1-bosqich talabasi	171
Qo'qon xonligida madaniy hayot. X. Mamadaliyev D. Yusufjonov	174
Turkistonda ma'rifatchilik harakatining boshlanishi va xususiyatlari. B. B. Ibrohimov, NamDU Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedrası o'qıtuvchisi	176
Yoshlar va tarixiy ong. Mahkamov Qodirjon, NamDU o'qıtuvchisi	178
Yettisuv viloyatida rus posyolkalarining tashkil etilishi tarixidan. I. Qo'ziqulov, Tarix fanlari kafedrası katta o'qıtuvchisi	179
«Sadoyi Farg'ona» g'azetasi haqida. Tohirjon Qozoqov, Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedrası katta o'qıtuvchisi, tarix fanlari nomzodi	183
Toshkent Metropoliteni. Mamadaliyev Shohruh, Nam DU O'zbekiston tarixi yo'nalishi 2-bosqich magistranti	185
Mustamlakachilik sharoitida turkiyzabon xalqlar o'rtasidagi siyosiy-madaniy aloqalar va unda temiryo'l transportining	187

ishtiroki. B. Jalolov Nam DU tadqiqotchisi	
Chortoq toponimikasi haqida. Abdulboqiyev F. Nam DU Tarix yo'nalishi 3-bosqich talabasi	195
Angliya davlati tarixidan. Qodiralieva Dilafruz, Xorijiy filologiya yo'nalishi 1-bosqich talabasi	197
TA'LIM	
Tasviriy san'at ta'limida zamonaviy badiiy jarayon munosabatlarini shakllantirish. Dilmurod Po'latov NamDU, Tasviriy va amaliy san'at kafedrası dotsenti, san'atshunoslik fanlari nomzodi.	200
Ta'limdagi texnologiyalar va texnik vositalar o'rni. Abrorbek Ermatov, Qo'qon Davlat pedagogika instituti talabasi	202
Ta'lim jarayonida didaktik materiallar orqali o'quvchilar faolligini oshirish. N. Qirg'izov NamDU o'qituvchisi	204
O'quvchilar ma'naviyatini oshirishda tasviriy san'at fanining ahamiyati. Qambarov Nodirbek, Boshlang'ich ta'lim metodikasi o'qituvchisi. Rahimova Maftuna BT va STI yo'nalishi 4-kurs talabasi	210
Talaba qizlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda kollej, oila va mahallaning o'rni (Kasb-hunar kollejlari qizlari misolida) Rahimova Mehribon Abduxolisovna NamDU	213
Ta'lim-tarbiya uyg'unligi. R. Lutfetdinova, Nam DU tadqiqotchisi.	216
Abdurauf Fitratning barkamol avlodni tarbiyalash borasidagi qarashlari. Bahromjon Inatullayev, Nam DU Ijtimoiy-madaniy faoliyat kafedrası o'qituvchisi. Haydarova Manzura Namangan shahridagi 13-umumiy o'rta ta'lim maktabining oliy toifali tarix-huquq fani o'qituvchisi	220
ADABIYOT VA SAN'AT	
"Qutadg'u bilig"ning xorijiy tillardagi tarjimalariga doir tadqiqotlar. Zohidjon Sodiqov, filologiya fanlari nomzodi, dotsent (NamDU)	223
H. Hayne she'riyatida badiiy tasvir vositalari masalasiga doir. O'. Nurmatov, Nam DU dotsenti	225
Sinf doskasida rasm ishlashning o'ziga xos tomonlari. B. G'.	229

Jacoborov, Nam DU Tasviriy va amaliy san'at kafedrası mudiri, dotsent	
XX asr O'zbekiston rangtasvir san'atida zamondoshlar siymosi. X. Soliyev Nam DU o'qituvchisi	231
Aforizmlar tarjiması muammolari. Q. Siddiqov, filologiya fanlari nomzodi A. Mirzaqosimov, NamDU magistranti	233
Ijtimoiy-siyosiy asar uslubini tarjimada aks ettirish tamoyillari. Baxtiyor Xolmirzayev, Nam DU katta o'qituvchisi, filologiya fanlari nomzodi, Saydaliyeva Mashhura, Nam DU 2-bosqich magistranti	236
Qadimgi turkiy to'rtliklar va ularni tarjimada qayta yaratish. Q. Siddiqov, filologiya fanlari nomzodi Sh.Ne'matjonov, NamDU magistranti	238
Андрогогика- обучение взрослых. Н.Жамолиддинова, НамГУ	241
Chet tilidagi kiritma so'zlar va ularning tarjiması masalasi xususida. Baxtiyor Xolmirzayev, Nam DU katta o'qituvchisi, filologiya fanlari nomzodi, Rahimanova Dildora, NamDU 2-kurs magistranti	245
Muhammad Alining «Ulug' saltanat» trilogiyasida Amir Temur tarixiy shaxsi talqini. Olimjon Dadaboyev, Nam DU katta o'qituvchi, Barno Matkarimova, Nam DU magistranti	247
"Devonu lug'otitürk" XX asr tarjimonlari nigohida I.Tojiboyev, NamDU o'qituvchisi	252
Storytelling in communicative language teaching. Kukiboyeva Mahliyo, teacher of NamSU	255
Shukur Xolmirzayev ijodida milliy o'zlikni anglash g'oyalari ning aks etishi. Hamidova Muhayyoxon Nam DU dotsenti, filologiya fanlari nomzodi	257
Bi g'azal hayrati F. Karimova, filologiya fanlari nomzodi, dots. S. Yuldasheva, Nam DU 1-bosqich talabasi	260
Teambuilding activities in the classroom. N. Abdullayeva NamDU o'qituvchisi	262
К вопросу употребления английской фразеологии в ворлдвесском языке Шерафн Жалолов, старший преподаватель кафедры английского языка и лексики-	264

стилистика НамГУ	
G'azal tarjimasida tazod. Akmalhon Abdullajano, NamDU Nemis va fransuz tillari kafedrası dotsenti	266
“Gulliverning sayohatlari” asaridagi atamalar tasnifi. Yuldasheva Ma'mura, NamDU Filologiya fakulteti Ingliz tili va leksika-stilistika kafedrası o'qituvchisi	270
Zamonaviy adabiyotda Ziyoviddin Mansur she'riyatining o'rni. Mahbubahon Sobirova, Nam DU dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi	272
Ega ergash gapli qo'shma gaplarda sintaktik sinonimiya. Husanxo'jayev Obidxon, Chortoq tumanidagi 18-maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi	277
“Norin” atamasining etimologiyasi. Erkinov Doniyorbek, NamDU Tarix yo'nalishi 303-guruh talabasi	279
Logograflar notiqligi. B. B. Ibrohimov NamDU Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedrası o'qituvchisi	281
Jomi – tajassumi insoni komil dar nazari Navoi (ba peshvozi 574 solagii Alisher Navoyi) A. Nuriddinov, Nam DU Demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti, falsafa kafedrası katta o'qituvchisi	283

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

IJTIMOIY-IQTISODIY FAKUL'TETI

MILLIY G'OYA, MA'NAVIYAT ASOSLARI VA HUQUQ TA'LIMI

KAFEDRASI

ILMIY MAQOLALAR
TO'PLAMI

«SALOHİYAT – MEZON»

6-SON

Мухаррир:

Зиёвиддин Мансур

Техник муҳаррир:

Сарвар Абдуллаев

Мусахҳих:

Муҳиддин Мағзумов

2015 йил 20 мартда теришга берилди 2015 йил 13 апрелда босишга рухсат этилди. Бичими 60x84 Хажми 18.5 босма табоқ. Таhома гарнитурасидатерилди. Офис усулида босилди. Буюртма – 16 Адади 300 нусха. Баҳоси келишган нархда.

«Наманган» нашриёти


Наманган шаҳар, Навоий кўчаси, 36-уй

Нашриёти лицензия рақами А1-156


2009 йил 14 августда берилган

«АЛ ИКРОМ ПРИНТ» МЧЖда чоп этилди.

Манзил: Наманган шаҳар, 5-кичик туман, 19-уй



ISBN - 978-9943-977-72-3



9 789943 977723